

MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

M.Q. PARDAYEV, B.A. XASANOV,
J.I. ISROILOV, M.E. PO‘LATOV,
O‘.T. ESHBOYEV, A.N. HOLIQULOV

MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» (tarmoqlar bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2012

УДК: 336(075)
КВК 65.053
М-

Taqrizchilar:

A.A. Xashimov – *iqtisod fanlari doktori, professor,*
A.U. Usanov – *iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

M-70 **Moliyaviy va boshqaruv tahlili:** oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma /M.Q. Pardayev [va boshq.]; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 400 b.
ISBN 978-9943-05-536-0

O'quv qo'llanma uch bo'limdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limi iqtisodiy tahlil nazariyasiga, ikkinchi bo'limi boshqaruv tahliliga va uchinchi bo'limi moliyaviy tahlil usullariga bag'ishlangan. Barcha nazariy masalalar amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda isbotlab berilgan. Har bir bo'limning oxirida kalitli so'zlar bilan nazorat savollari ham keltirilgan.

O'quv qo'llanma «Buxgalteriya hisobi va audit», «Moliya», «Bank ishi», «Sug'urta ishi» kabi o'quv yo'nalishlari bo'yicha o'qiyotgan talabalarga, shu soha mutaxassislari va professor-o'qituvchilarga mo'ljallangan. Undan «Iqtisod», «Menejment», «Marketing», «Biznes» o'quv yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ham foydalanishlari mumkin.

УДК: 336(075)
КВК 65.053

ISBN 978-9943-05-536-0

© M.Q. Pardayev va boshq. 2012
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2012

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida, ya'ni doimiy va tez o'zgarishlar zamonida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati (menejeri) raqobatbardosh mahsulotlarni (ish, xizmatlarni) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi, barqaror rivojlanishga erishib, o'zining yashovchanligini ta'minlash yo'llarini o'rganib, yangi-yangi g'oya va takliflarni ishlab chiqishi lozim. Bu o'z navbatidan, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini, unda sodir bo'ladigan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni va munosabatlarni muntazam ravishda tahlil qilib borishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlil boshqaruvning bir funksiyasi sifatida mavjud axborotlarga tayanadi. Ammo axborotlar hali hech narsani hal qilmaydi. Ularni menejerning maqsadidan kelib chiqqan holda qayta ishlashni, tegishli yo'nalishlar bo'yicha tizimlashtirishni, moliyaviy hisobotlarni iqtisodiy jihatdan o'qishni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiy tahlil orqali amalga oshiriladi. Shu tufayli zamonaviy mutaxassislar shu fanni mukammal o'rganishi lozimligini obyektiv zaruratga aylantirdi. Bunday zaruriyati tufayli barcha iqtisodiyotga oid mutaxassisliklar iqtisodiy tahlil fanini, uning tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy va boshqaruv tahlilni o'rganishi majburiy qilib belgilangan va mutaxassislarni shakllantiruvchi fan sifatida ularning o'quv rejasiga kiritilgan.

Tahliliy ma'lumotlardan bir qancha subyektlar foydalanadilar. Birinchi galda u mulkdorning, ya'ni korxona egasining talabidan kelib chiqishi lozim. Uning qo'ygan investitsiyasi qachon va qancha samara berishini bilib borishi kerak. Ikkinchidan, korxonaning mehnat jamoasi manfaatiga xizmat qilishi lozim. Ular doimiy ish bilan ta'minlanib turishi va mehnatiga yarasha haq olishining barqarorligi, ularning hayot darajasini belgilaydi. Shu jihatdan ular ham o'zlarining manfaatlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilishlari mumkin.

Korxona ish natijasining ma'lumotlaridan soliq idoralari ham manfaatdor. Ular davlat budjetiga mazkur korxona qachon va qancha miqdorda soliq to'lashi kerakligi va unining o'z vaqtida ijro etilayotganligini o'rganishi kerak.

Shu jihatdan soliq idoralari xodimlari ham o'zlarining manfaatlaridan kelib chiqib, korxona faoliyatini tegishli axborotlar asosida tahlil qiladilar. Xuddi shunday zarurat bank xodimlari uchun mavjud. Ular bergan kreditlarining o'z vaqtida tegishli foiz bilan qaytishidan manfaatdor. Buning

SAMARQAND DAVLAT
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 177782

uchun ular ham o'zlarining manfaatidan kelib chiqib korxona faoliyatini tahlil qiladilar.

Ko'rinib turibdiki, korxonada mavjud axborotlar ko'pchilik tomonidan ko'p marta o'rganiladi, ular qayta ishlanadi, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Bularning hammasi tahlil orqali hal qilinadi. Shu jihatdan tahlil juda ko'p va murakkab savollarga javob berishi lozim. Aynan shunday talablardan kelib chiqqan holda mazkur darslik yozildi.

O'quv qo'llanmaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda har bir iqtisodiy kategoriyani baholash va ularni tegishli ko'rsatkichlar bilan ifodalashda mavjud bo'lgan turli qarashlarga tanqidiy yondoshilgan va ularga fikr bildirilib, har biri imkon qadar nazariy jihatdan asoslangan. Nazariy masalalarning yechimi amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda isbotlab berilgan. Demak, mazkur darslikda nazariy masalalar bilan amaliyotning uyg'unligi ta'minlangan. Mazkur o'quv qo'llanmaning yana bir xarakterli xususiyai shundan iboratki, unda nazariy masalalar oldin formulalarda ifodalangan, navbatdagi bosqichda formulalarni amaliyotga qo'llash mumkinligi aniq ma'lumotlar bilan ko'rsatib berilgan. O'quv qo'llanmaning ushbu holati nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga egaligidan ham dalolat berib turibdi. O'quv qo'llanma uch bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limi iqtisodiy tahlilning nazariyasiga bag'ishlangan, ikkinchi bo'limda boshqaruv tahlili usullari yoritilgan va uning uchinchi bo'limida moliyaviy tahlilni amlag oshirish usullari ochib berilgan.

Deyarli barcha ko'rsatkichlar tahlilida ularga ta'sir qiluvchi omillar tizimi ishlab chiqilgan va har bir omilning o'rganilayotgan natija ko'rsatkichiga ta'sirini hisoblash yo'llari ham amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda yoritilgan.

Har bir bo'limning oxirida kalitli so'zlar va takrorlash hamda o'zini o'zi nazorat qilish uchun savollar berilgan. Bu jihat o'quvchining diqqatini nimalarga qaratish lozimligini anglashda juda qo'l keladi.

O'quv qo'llanma iqtisodiyotga oid kadrlar tayyorlayotgan oliy o'quv yurtlari talabalari (bakalavrlar va magistrlar), professor-o'qituvchilar, doktorantlar va boshqa ilmiy izlanuvchi mustaqil tadqiqotchilarga mo'ljallangan. Undan malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari (markazlari) tinglovchilari, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va o'ituvchilari hamda iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

1-bo'lim. IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

1-bob. IQTISODIY TAHLILNING VUJUDGA KELISH VA RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanish elemintlari va rivojlanish bosqichlari

Har qanday fanning vujudga kelishi uchun hayotiy zaruriyat tug'ilishi lozim. Shu tufayli fanning shakllanishi biror kishi yoki vazirlikning ijod mahsuli bo'lib qolmasdan, balki obyektiv jarayonga tayanadi.

Xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish fani ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan buxgalteriya uchyoti va statistika kabi fanlar asosida vujudga kelgan. Buning uchun esa obyektiv shart-sharoitlar yaratilgan.

XV asrda Reguzda buxgalteriya hisobi bo'yicha birinchi asar paydo bo'ldi. Bunga misol qilib Vendrikt Katrulining 1458-yilda nashr qilingan «Savdo va xususiy savdogar» nomli kitobini keltirish mumkin. Buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan ikkinchi asar 1494-yilda Venetsiyada nashr qilingan Luka Pacholining «Schyotlar va yozuvlar haqida»gi kitobidir. Ushbu kitoblarda buxgalteriya hisobining savdo va kredit operatsiyalari yoritilgan. Shunday qilib, hozirgi buxgalteri hisobi faniga o'sha paytlarda asos solingan ekan. Bu fan xo'jalik yuritishda asosiy dastak sifatida hamon qo'llanilib, takomillashib va zamonaviylashib kelmoqda.

Barcha fanlar qatori buxgalteriya hisobi ham o'zining tarixi davomida takomillashib kelmoqda va bir qancha boshqa fanlarning vujudga kelishi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, korxonalarning yiriklashuvi, xo'jalik faoliyatining kengayishi iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hisob ishlarini takomillashtirish zaruratini tug'dirdi.

Shu bois, XVI–XVII asrlarda buxgalteriya hisobiga oid kitoblar Gollandiya, Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda chop etildi. Shunday qilib, buxgalteriya yer kurrasining bir qismida emas, balki barcha mamlakatlarida keng yoyila boshladi.

XVIII asrda Rossiyada buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlar paydo bo'la boshlagan. Oldin chet el adabiyotlari rus tiliga tarjima qilingan bo'lsa, so'ngra rus olimlari ham bu fanga bag'ishlangan asarlarni chop etishga kirishganlar. XIX asrda rus olimlarining buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlari paydo bo'la boshlagan. Bunga V.S. Nemchinovning 1840-yilda nashr qilingan ikki qismdan iborat «Hisob fani» asarini misol qilib keltirish mumkin. Bu kitobda savdo korxonalari hisobi tizimi batafsil yoritilgan. Asta-sekinlik bilan buxgalteriya hisobining prinsiplari boshqa tarmoqlar bo'yicha ham yozila boshlagan. 1861-yilda Klinchening «Qishloq xo'jaligi

buxgalteriyasi» 1863-yilda «Idora bilimi yo'riqnomasi» kitoblari dunyoga kelgan. Bu asarlar XIX asrda yaratilgan buxgalteriya hisobi bo'yicha eng yirik asarlar hisoblangan edi. Bularning asarlar safini F.V. Ezerskiy o'zining «Uch tizimli buxgalteriya» (1870-y.), P.I. Reynbot «Fabrika schyotchiligi» (1875-y.), A.V. Prokofev «Ikkiyoqlama buxgalteriya kursi» (1884-y.) kitoblari bilan kengaytirgan.

O'sha davrdagi ishlab chiqarish taraqqiyoti iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri va to'liq hisobga olishni talab qiladi. Ammo ishlab chiqarishning takomillashib borishi, korxonalar o'rtasida erkin raqobatning vujudga kelishi buxgalteriya ma'lumotlarining chuqurroq o'rganishni va uni to'g'ri tushuntirish zaruratini tug'diradi. Bu esa o'z navbatida tahlil elementlarining vujudga kelishini taqozo qiladi, chunki, «tijorat sirini» takomillashtirish borasidagi juda ko'p savollarga buxgalteriya hisobi va statistika fanidan javob topish murakkablik tug'diradi.

Korxonalarni to'g'ri, oqilona boshqarish, ularning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo'jalik faoliyatining chuqurroq o'rganishni talab qildi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba'zi ko'rsatkichlarga izoh berishni talab qildi. Bular esa o'z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelish uchun obyektiv asos bo'lgan. Tahlilning elementlari birinchi marta 1880-yillarda chiqa boshlagan «Счетоводство» jurnalida paydo bo'la boshlagan. Keyinchalik bu jurnalda yoritilgan juda ko'p maqolalar buxgalteriya balansini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shunday qilib, tahlilning ba'zi elementlari mavjud bo'lgan **«Balansshunoslik»** fani paydo bo'lgan.

Bu fanning balansshunoslik deb atalishiga asos bo'lgan, chunki o'sha paytlarda xo'jalik faoliyatining natijasi asosan buxgalteriya balansida ifoda etilgan, xolos. Balans ma'lumotlariga asosan korxonaning mablag'i yoki ularning manbayining ma'lum muddatda o'zgarishi aniqlanadi. Lekin shu o'zgarishlar nima evaziga sodir bo'layotganligi, ularga qaysi omillar ta'sir ko'rsatayotganligi korxona egasi uchun muhim bo'lib bordi. Bu esa balansdagi ko'rsatkichlarni batafsil tahlil qilish zaruratini vujudga keltiradi. Tahlilning ilk ko'rinishi «Balansshunoslik» fani shu tariqa shakllana bordi.

Tahlil fanining vujudga kelishida va uning shakllanishida olimlardan V.S. Nemchinov, A. V. Prokofev, R.Ya. Veysman, I.S. Arinushkin, P.N. Xudyakov kabilarning juda katta xizmatlari borlig'ini ta'kidlab o'tish lozim. Bu mualliflar asarlari asosan kapitalistik korxonalarning murakkab faoliyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Jumladan, 1883-yilda A.V. Prokofyevning «Ikki yoqlama buxgalteriya kursi» asari chop etilgan. Ammo bunda maxsus tahlilga bag'ishlangan bo'lim yo'q bo'lsada, biroq balans ko'rsatkichlari faqat nazorat qilish uchun emas, balki tahlil qilish uchun ham kerak deb ta'kidlangan.

Inqilobga qadar nashr qilingan asarlar qatoriga R.Ya. Veysmanning «Hisobshunoslik kursi» kitobini kiritish mumkin. Bu kitobda balans talqiniga

bag'ishlangan maxsus qism bo'lib, unda balansdagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Bu kitobda muallif balansning aktiv va passiv qismlaridagi moddalariga izoh berib, ularning real va haqiqiy ekanligini isbotlashga uringan. Birinchi marta «Balans-netto» tushunchalari kiritilgan.

1912-yilda I.S. Arinushkinning «Aksioner korxona balansi» kitobi chop etiladi. Bu asar faqat balans moddalarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Unda balansning tuzilish tartibi, moddalarni baholash yo'llari, xo'jalik faoliyatini yaxshilash usullari yoritilgan. Shunday qilib, XIX asrning boshlarida xo'jalik faoliyatini, jumladan buxgalteriya balansini tahlil qilish usullari vujudga keladi, ammo tahlil fani hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi. Shu tufayli tahlil fani eng avvalo buxgalteriya hisobi fanining bir qismi bo'lib shakllanadi. Kapitalistik ishlab chiqarishning taraqqiyoti krizis va raqobatni vujudga keltirdi. Bunday sharoitda har bir korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligi, undagi «tijorat siri» muhim ahamiyat kasb etadi va buxgalteriya balansi ma'lumotlari yetarli bo'lmasdan qoladi. Buxgalteriya balansi bilan birgalikda boshqa ko'rsatkichlarni ifodalaydigan hisobotlar ham vujudga kela boshladi va tahlilning ham ko'lami kengaydi. Oldin faqat buxgalteriya balansi tahlil qilingan bo'lsa, endi unga boshqa hisobotlar tahlili ham qo'shilib «Hisobot tahlili» vujudga keldi. Bunda buxgalteriya balansidagi ko'rsatkichlar bilan birgalikda «Foyda va zararlar» haqidagi hisobot ma'lumotlaridan ham foydalanildi.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o'ziga xos tarixga va bir qancha nomlarga ega bo'ldi. Iqtisodiy tahlilning vujudga kelish tarixi, bu haqda nashr qilingan adabiyotlar, uning fan sifatida shakllanishi va nomining ham takomillashib borganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, tahlil fani vujudga kelguncha bir qancha evolutsion yo'lni bosib o'tdi.Nihoyat u fan sifatida shakllandi. Endigi vazifa bu fanga to'g'ri nom tanlashdan iborat edi. Bu borada ancha ijodiy tortishuvlar ham bo'ldi. Bir guruh olimlar bu fanning nomini «Iqtisodiy tahlil» deb atashni tavsiya qildilar. Bunda ushbu fan korxonaning butun iqtisodini o'rgatadi deb asosladilar.

Ikkinchi guruh olimlar esa ushbu fanning nomini «Sotsial-iqtisodiy tahlil» deb atashni tavsiya qildilar. Bu tavsiyani ushbu guruh olimlar korxonada ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ushbu fan buni bir mushtaraklikda o'rganadi deb isbotladilar. Haqiqatda iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy (sotsial) jarayondan ajratib bo'lmaydi. Bu ayniqsa mustaqil O'zbekiston uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki biz kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo'ydik. Biroq, hozirgi paytda juda ko'p olimlar bu fanning nomini «Xo'jalik faoliyati tahlili» deb atamoqdalar.

Bunga biz ham qo'shilgan holda shuni ta'kidlamoqchimizki barcha iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik jarayonlar xo'jalik faoliyati davomida sodir bo'ladi. Shu tufayli «Xo'jalik faoliyati tahlili» deyilsa, bu korxonaning

barcha sohasini o'z ichiga oladi va uni bemalol fanning nomini atashda qo'llash mumkin.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, 1999-yilda ishlab chiqilgan ta'lim andozalarida «Xo'jalik faoliyati tahlili» fani o'rniga «Iqtisodiy tahlil» fani kiritilgan. Lekin mazmuni oldingidek qolgan. Shunday ekan, uni hozir davlat andozasiga asoslanib «Iqtisodiy tahlil» deb atalsa xato bo'lmaydi. Tahlil fanining vujudga kelish tarixini tushunish uchun shu sohaga oid adabiyotlarni xronologik jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.2. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi

XX asr boshlarida tahlilning ba'zi elementlari vujudga kelganligi to'g'risida ma'lumotlar berila boshlandi. Bu o'sha paytlarda chop qilingan adabiyotlarda o'z aksini topdi: 1880-yillarda R.Ya. Veysmanning «Курс счетоводство» kitobi. Bunda maxsus bob «Разбор балансов» deb nomlanib, jiddiy tahlilga bag'ishlangan. 1912-yilda I.S. Arinushkinning «Балансы акционерных предприятий» kitobi nashr qilindi. Bu kitobda jiddiy balansning moddalari ancha chuqur talqin qilingan.

Jamiyat taraqqiyoti sotsialistik tuzumga o'rgangandan keyin tahlil fani rejali iqtisodiyotga asoslangan ko'rsatkichlarni va buxgalteriya balansidagi moddalarni batafsilroq o'rganishga kirishdi. 1920-yillarda olimlardan P.N. Xudyakov «Анализ баланса» va «Популярные очерки балансоведения» (1929-y.), kitoblarini nashrdan chiqardi. 1925-yilda P.Gerstner «Руководство к изучению бланса», 1926-yilda Galperinning «Учебник балансоведения», shu yilda A.P. Rudanovskiyning «Построение баланса», Z.P. Evzlinning, «Балансы: как их составлять, разбирать и проверять» kitoblari chop etildi. 1927-yilda buxgalteriya balansiga bag'ishlangan I.G. Nikalayevning «Проблемы реальности баланса», N.R. Veysmanning «Курс балансоведения», 1928-yilda, N.A. Blatovning «Балансоведения», N.A. Kiparisovning «Основы балансоведения», «Построение балансов и анализ», N.G. Filimonovning «Балансоведения и баланс», (1929-y.) kitoblari chop etildi. Bu kitoblarda asosan balansning moddalarini tahlil qilish usullari ko'rsatildi.

30-yillarga kelib tahlilning ko'lami kengaya bordi. Tahlil qilish uchun faqat buxgalteriya balansi moddalari emas balki xo'jalik faoliyatining boshqa ko'rsatkichlari ham tahlil qilina boshlandi. Natijada tematik tahlil vujudga keldi va ba'zi mavzularga bag'ishlangan adabiyotlar nashrdan chiqa boshladi.

Bunga misol qilib N.E. Kolosovning «Основы экономического анализа себестоимости в промпредприятий» (1931-y), A.P. Aleksandrovskiyning «Колкуляция и анализ работы предприятий» (1932-y.), «Расчеты по анализу предприятия» (1934-y.), N.R. Veysmanning, 1934-yilda chiqqan «Счетный анализ» shu yili nashr qilingan A.F. Masanovning «Баланс и

анализ хозяйственной деятельности предприятий», A.Ya. Lokshinning «Анализ отчета», B.K. Makshansevning «Анализ колькуляции в промышленности», S.K. Taturning «Анализ отчета промышленных предприятий», 1935-yilda chop etilgan M.X. Jebrakning «Принципы организации анализа себестоимости», L.D. Yaxninning «Основы технико экономического анализа себестоимости в социалистических промышленных предприятиях», G.N. Soromotinning «Анализ хозяйственной деятельности и баланса предприятий», 1938-yilda chop etilgan. A.A. Afanasevning «анализ отчета промышленных предпрятий», V.I. Stoskiyning «Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий», kitoblarini keltirish mumkin.

1940-yillarga kelib «Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» fani fan sifatida to'liq shakllandi. Shu fanga bag'ishlangan o'qitilayotgan darsliklar vujudga keldi va oliy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'tila boshlandi. Bu ishda professorlardan S.K. Tatur, N.R. Veysman, I.A. Sholomovich, M.S. Rubinov, M.I. Bakanov kabi olimlarning xizmatlari katta. Jumladan, 1940-yilda S.K. Taturning «Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий», 1949-yilda N.R. Veysman «Анализ хозяйственной деятельности промышленного предприятия», shu yili I.A. Sholomovich «Анализ хозяйственной деятельности промышленного предприятия», M.S. Rubinovning «Основы учета и анализа хозяйственной деятельности промышленного предприятия», 1952-yilda M.I. Bakanov, I.A. Sholomovich bilan hamkorlikda «Анализ хозяйственной деятельности предприятий» nomli darsliklari chop etildi.

1950-yillar ham tahlil fanining rivojlanishda asosiy bosqich bo'ldi. Shu yillarda sanoat korxonalarida tahlil qilish fani yanada ravnaq topdi. Bunga nomi zikr etilgan olimlar bilan birgalikda I.I. Poklod o'zining «Экономический анализ производственно-финансовой деятельности промышленных предприятий», S.B. Barngols «Оборотные средства промышленных предприятий» (1957-y.), I.V. Valuyev «Баланс металлургического завода и его анализ» (1954-y.), G.G. Bro «Анализ баланса промышленного предприятия» (1957-y.), A.Sh. Margulis «Баланс промышленного предприятия», F.M. Massarigin «Как читать баланс промышленного предприятия» kitoblari bilan katta hissa qo'shdilar.

60–70-yillarga kelib tahlilning alohida turlari vujudga keldi. 1976-yilda S.K. Tatur tahriri ostida Moskva Davlat univerisiteti olimlarining «Виды экономического анализа, их мест и роль в совершенствовании управления промышленным производством» kitobi chop etildi. 1973-yilda B.I. Maydanchik «Сравнительный экономический анализ в машиностроении» kitobini, 1973-yilda V.I. Strajev «Оперативное управления предприятием, проблемы учета и анализа» kitobini, 1974-yilda A.D. Sheremet «Комплексный экономический анализ деятельности предприятия (вопросы методологии)» kitobini, 1968-yilda N.G. Chumachenko

«Внутризаводской экономический анализ» kitobini chop ettirdilar. 70-yillarda xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fanining nazariyasi yaratildi. Bu ishga N.V. Dembinskiy o'zining «Вопросы теории экономического анализа» (1973-y.), A.D. Sheremet «Теория экономисечкого анализа хозяйственной деятельности» (1982-y), I.I. Karakoz «Основы теории экономического анализа» (1972-y.), 1976-yilda M.I. Bakanov va A.D. Sheremetlar A.N. Kashayev bilan hamkorlikda «Экономический анализ: Теория, история, современное состояние, перспективы», 1988-yilda A.I. Muravyov o'zining «Теория экномическоно анализа» kitoblari bilan katta hissa qo'shdilar.

80-yillarning xususiyati shundaki, bu davrda iqtisodiy tahlil fanining nazariyasini yaratish bo'yicha hududiy maktablar vujudga keldi. Jumladan, Moskvada M.I. Bakanov va A.D. Sheremet rahbarligidagi maktab. Bular «Теория экномическоно анализа» kitobini 1987, 1990 va 1993, 1994, 1995, 1997-yillarda qayta nashrdan chiqardilar.

Minsk olimlaridan V.V. Osmolovskiy, V.I. Strajev, L.I. Kravchenko, L.L. Yermolovich, Yu.N. Busigin, N.A. Rusak hamkorlikda 1989-yilda «Теория анализа хозяйственной деятельности» darsligi yaratildi. Kiyevlik olimlardan I.I. Karakoz va V.I. Samborskiy hamkorligida 1989-yilda «Теория экномического анализа» nomli darsliklari paydo bo'ldi. Endilikda barcha mustaqil hamdo'stlik davlatlarida, «Xo'jalik faoliyati tahlilining nazariyasi», mustaqil fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda. Bu albatta xo'jalik faoliyatini boshqarishda, uning moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini ta'minlashda eng muhim tadbirlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, iqtisodiy tahlil ham yangilanish davrini boshidan kechirmoqda.

Uning mazmuni rejaning bajarilishini tahlil qilishdan jahon andozalari talablariga javob beradigan ko'rsatkichlarni o'rganishga qaratilmoqda. Bu borada ijtimoiy mahsulotdan ichki yalpi mahsulot va shundan kelib chiqadigan ko'rsatkichlar tizimiga o'tish ko'zda tutilmoqda.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning hozirgi zamonga mos usullarini o'rganish uchun quyidagi adabiyotlar tavsiya qilinadi: Bakanov M.I., Sheremet A.D., «Теория экномического анализа» – M.: Финансы и статистика, 1995; Saviskaya G.V. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: – M.: ИП Экопеспектива, 1997.; Rusak N.A., Rusak V.A. Основы финансового анализа. – Мю: ООО «Меркаванне», 1995; Petrov V.V. Kovalev V.V. Как читать баланс. – M.: Финансы и статистика, 1994; Sheremet A.D. Методика финансового анализа предприятия. – M.: IPO «MP»,1996; Krovchenko L.I. Анализ финансового состояния предприятия. – M.: ПКФ, «Экаунт», 1994; V.V. Kovalyev Финасовый анализ: управление капиталом, выбор инвестиций, анализ отчетности. M.: Финансы и статистика, 1996; I.T. Abdukarimov. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998, 1999; M.K. Pardayev, B.I. Isroilov. Moliyaviy tahlil. – T.: Iqtisodiyot va

huquq dunyosi, 1998; I.O. Voljin, V.V. Ergashbayev. Moliyaviy tahlil. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998 va h.k.

1.3. O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining yaratilish tarixi

Buxgalteriya hisobi fanining yaratilganligiga 500-yildan oshdi. Shu fan negizida «Iqtisodiy tahlil» fani ham vujudga kelganligiga ham 100 yildan ortiq vaqt o'tdi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishda iqtisodiy tahlil fanining ham roli juda katta, chunki bu fanning amaliyotga tatbiq qilinishi iqtisodiy dastaklarning biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mustaqil Respublikamiz o'zining mustaqil fanlariga va har bir fan o'zining yaratilish tarixiga ega bo'lishi kerak. O'zbekistonda xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani boshqa fanlar singari ham o'z tarixiga ega. Bu fan sobiq Ittifoq tarkibidagi boshqa Respublikalar singari O'zbekistonda ham uning tarkibida shakllandi.

Iqtisodiy tahlilning O'zbekistonda yaratilish tarixini taxminan besh bosqichga bo'lish mumkin. Bu quyida ifodalangan.

I – davr: XX asrning 60-yillarida shakllanish davri bo'ldi.

II – davr: o'tgan asrning 70-yillari Sobiq Ittifoq ichida o'z o'rniga ega bo'lish va iqtisodiy tahlil maktabining shakllanish davri.

III – davr: 80-yillar iqtisodiy tahlil maktabining yaratilish va ittifoq miqyosida matlubot kooperatsiyasi tahlili sohasini egallash davri.

IV – davr: 90-yillarning boshlari iqtisodiy tahlilning o'zbek tilida yozilishi va vujudga kelish davri.

V – davr: mustaqillik yillari Iqtisodiy tahlilning rivojlanish yillari. Moliyaviy tahlil bo'yicha asarlarning ko'plab vujudga kelishi va chop etilishi. Bu bo'yicha turli qarashlarning paydo bo'lishi.

Iqtisodiyotning hozirgi bosqichida O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'liga mos bo'lgan «Iqtisodiy tahlil» fani shakllandi.

Ma'lumki, O'zbekistonda uzoq yillar mobaynida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahlil fani asosan markaziy shaharlardagi (Moskva, Leningrad, Kiyev) olimlar tomonidan tayyorlangan darsliklar asosida o'qitilib kelindi. Ammo bunda o'zimizga xos xususiyatlar aks ettirilmagan edi. Bu esa 60 yillarga kelib O'zbekistonlik olimlarni ham bu fan sohasida ijod qilishga da'vat etdi. Markazda chop etiladigan darsliklarga muallif sifatida taklif qilinadigan bo'lindi. Jumladan, 1966-yilda Moskvaning «Экономика» nashriyotida chop etilgan «Matlubot kooperatsiyasi korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili»[1] nomli darslikning mualliflari tarkibiga Lvovlik O.R. Kmisikevich, Novosibirskilik L.A. Falkovichlar bilan birgalikda O'zbekistonlik olim I.N. Toporovskiy ham taklif qilingan edi. Bu darslikda Respublikamiz-

[1] *О.Р. Кмицкевич* и др. Анализ хозяйственной деятельности предприятий потребительской кооперации. – М.: Экономика, 1966.

ning ba'zi xususiyatlari birinchi marta o'z ifodasini topdi. Shu fan bo'yicha masalalar to'plamini yozishni O'zbekistonlik olimlar o'z zimmalariga oladilar. 1970- yildagi I.T. Abdukarimov, B.A. Zalesskiy va N.Toporovskiylar tomonidan Moskvaning «Экономика» nashriyotida «Matlubot kooperatsiyasi korxona va tashkilotlari xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'yicha masalalar to'plami» o'quv qo'llanmasi birinchi marta chop etildi[1]. Bu O'zbekistonlik olimlarning Ittifoq olimlari o'rtasidagi katta ishonchga sazavor bo'lganligi va ularning tan olinganligidan dalolat edi. Bu o'quv qo'llanma chorak asr davomida O'zbekistonlik olimlar tomonidan bir qancha marta qayta ishlanib chop etilib kelindi[2]. Bunda Samarqand kooperativ instituti professori I.T. Abdukarimovning katta xizmatlarini e'tirof etish lozimdir.

Sobiq Ittifoq olimlari ichida xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo'yicha O'zbekistonlik olimlarning mavqei uzluksiz oshib bordi. Shu fanga bag'ishlangan qator monografiyalar, o'quv qo'lanmalari, risolalar va ilmiy maqolalar chop etila boshlandi. 1968-yilda I.T. Abdukarimov tomonidan «Kooperativ savdoda muomala xarajatlari tahlili» Moskvaning «Экономика» nashriyotida[3], 1971-yilda «Kooperativ savdoda chakana tovar oboroti tahlili» o'quv qo'llanmasi Moskva kooperativ instituti nashriyotida,[4] 1973-yilda «Kooperativ savdoda foyda va rentabellik» nomli monografiyasi «Экономика» nashriyotida chop etildi[5]. Muallifning bu asarlari sobiq Ittifoq olimlari tomonidan yuksak baholandi. Bu asarlar o'quv qo'llanma sifatida butun Ittifoqning barcha oliy o'quv yurtlarida keng foydalanildi. Professor I.T. Abdukarimov kitoblarining xususiyati shunda ediki, unda hamisha nazariya bilan amaliyot uyg'unlashgan holda yoritilgan. Shu tufayli deyarli barcha taklif va tavsiyalari amaliyotiga izchilik bilan qo'llanilib kelindi. Shunday qilib, 1970-yillarda Samarqandda professor. I.T. Abdukarimov rahbarligida tahlil maktabi tarkib topdi. Bu maktab Ittifoq olimlari tomonidan tan olindi. Natijada Samarqand kooperativ instituti bazasida shu fanning ravnaqiga, uning nazariy va amaliy muammolariga bag'ishlangan bir qancha Butun Ittifoq ilmiy-amaliy konferensiyalari o'tkazildi.

70-yillarning ikkinchi yarmiga kelib tahlilchilar safi O'zbekiston miqyosida kengaydi tanila boshlandi. Bu fan bo'yicha o'zbek tilida darsliklar paydo bo'la boshladi. 1973-yilda «O'qituvchi» nashriyotida N.A. Xan tomonidan tayyorlangan «Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining

[1] *И.Т.Абдукаримов* и др. Сборник задач по анализу хозяйственной деятельности потребительской кооперации. – М.: Экономика, 1968.

[2] *И.Т. Абдукаримов* и др. Задачник по анализу хозяйственной деятельности предприятий и организации потребительской кооперации. – М: Экономика, 1975.

[3] *И.Т. Абдукаримов*. Анализ издережек обращения в кооперативной тарговле. – М.: Экономика,1976.

[4] *И.Т. Абдукаримов*. Анализ розничного товарооборота в кооперативной торговле. – М.: МКИ. 1971.

[5] *И.Т. Абдукаримов*. Прибили и рентабильности в кооперативной торговле. – М.: Экономика, 1973.

analizi» nomli Oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar chop etildi[1]. 1979-yilda O.Mahmudovning «Qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyatini analiz qilish» nomli o'rta maxsus o'quv yurtlariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmasi ham ana shu nashriyotda o'zbek tilida chop etildi[2]. Bu darslik va o'quv qo'llanmalar respublikamizda iqtisodiy tahlilning taraqqiyoti va istiqboli uchun qo'yilgan ilk qadamlar edi.

Ammo Respublikamizda qishloq xo'jalik institutlaridan tashqari barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida maxsus fanlar, jumladan iqtisodiy tahlil fani ham rus tilida o'rganilar edi. Shu tufayli qishloq xo'jaligidan tashqari sohalardan barcha asarlar rus tilida tayyorlandi va chop etildi. 1973-yilda professor I.T. Abdukarimov va dotsent M.K. Pardayevlar tomonidan «Kooperativ savdoda mehnat ko'rsatkichlarining tahlili» nomli kitobi Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi[3]. Bu bilan O'zbekistonlik olimlar tematik tahlilni rivojlantirish borasida yana bir qutlug' qadam qo'yishdi.

80-yillar O'zbekistonlik, ayniqsa Samarqandlik olimlar uchun juda sermahsul davr bo'ldi. I.T. Abdukarimov, M.K. Pardayev va A.A. Abdiyevlar hamkorligida «Xo'jalik faoliyatining tahlili»ga bag'ishlangan to'rt tomlik albom yaratildi. Bular Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlarga o'quv qo'llanmasi sifatida tavsiya qilindi va ular 1983-yilda Samarqand kooperativ institutida chop etildi. Bu albomning birinchi qismi «Iqtisodiy tahlilning nazariy asolariga» bag'ishlangan bo'lib, barcha mavzular tegishli tizmalarda tushunarli qilib tasvirlangan[4]. Ushbu albomning ikkinchi tomi «Kooperativ savdoda iqtisodiy tahlil» nomi bilan ataladi. Bunda kooperativ savdo korxonalari xo'jalik faoliyati batafsil tahlil qilingan[5]. Ammo matlubot kooperatsiyasi ko'p tarmoqli soha. Shu tufayli albomning 3-tomi «Matlubot kooperatsiyasi alohida tarmoqlari xo'jalik faoliyatining tahlili mavzusiga bag'ishlangan[6].

Albomning 4-tomi matlubot kooperatsiyasi tashkilotlarida barcha tarmoqlardan hisobot qabul qilingandan keyingi o'tkaziladigan tahlil usullarini o'z ichiga olgan. Bu «Moliyaviy holatining tahlili» deb nomlangan va bunda barcha soha bo'yicha moliyaviy holatining qanday ahvolda ekanligi to'g'risida

---

[1] *N.A. Xan.* Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining analizi. – T: O'qituvchi, 1978.

[2] *O. Mahmudov.* Qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyatini analiz qilish. – T: 1979.

[3] *И.Т. Абдукаримов, М.К. Пардаев.* Анализ показателей по труду в кооперативной тарговле. –М.: Экономика 1978.

[4] *И.Т. Абдукаримов, М.К. Пардаев, А.А. Абдиев.* Теоретические основы экономического анализа. / Альбом наглядних пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

[5] *И.Т. Абдукаримов, М.К. Пардаев, А.А. Абдиев.* Экономический анализ в кооперативной тарговле./ Альбом наглядних пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

[6] *И.Т. Абдукаримов, М.К. Пардаев, А.А. Абдиев.* Анализ хозяйственной деятельности отдельных отраслей потребительской кооперации. /Альбом наглядних пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

xulosa qilishga bag'ishlangan[1]. Ushbu tahlil usullari ham aniq chizmalar orqali yoritilgan. Shunday qilib, Samarqand kooperativ instituti sobiq Sentrosoyuzga qaraydigan oliy o'quv yurtlari ichida xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo'yicha uslubiy markazga aylandi. Matlubot kooperatsiyasi tizimi uchun darslik va namunaviy dasturlar shu fan bo'yicha professor I.T. Abdukarimov boshchiligidagi olimlar maktabiga topshirildi. 1984-yilda I.T. Abdukarimov tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli darslik Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi[2]. Bu darslik Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlarga va «Buxgalteriya uchyoti, nazorat va xo'jalik faoliyatining tahlili» bo'yicha mutaxassislik tayyorlaydigan barcha oliy o'quv yurtlariga tavsiya qilindi. Bu darslikni keng jamoatchilik va olimlar olami juda yaxshi kutib oldilar. Natijada 1989-yilda ushbu darslik aynan ana shu nashriyotda qayta ishlangan va to'ldirilgan holda qayta nashr qilindi[3].

O'zbekistonlik olimlari tahlilning yangi shakli kompelks tahlil usullarini ishlab chiqishga kirishishdi. Natijada Ittifoq jurnallarida shu bo'yicha bir qancha ilmiy maqolalar chop etildi va nihoyat 1983-yilda professor I.T. Abdukarimov tahriri M.Q. Pardayev va Yu.S. Sattarovlar tomonidan tayyorlangan «Chakana savdoda mehnat samaradorligini kompleks baholash» bo'yicha uslubiy tavsiya yuzaga keldi. Bu tavsiyani O'zbekbirlashuv boshqaruvi tomonidan amaliyotga tatbiq qilish uchun qabul qilindi. Kompleks tahlil bo'yicha O'zbekistonlik olimlarning maqolalari Ittifoqda chiqadigan «Buxgalteriya uchyoti»[4], «Sovet matlubot kooperatsiyasi»[5] kabi jurnallarda chop etilishi ularning nufuzini yanada oshiradi. Natijada 1986-yilda o'tkazilgan Butun ittifoq ilmiy-amaliy anjumanning asosiy mavzusi ana shu muammoga qaratildi. Ushbu anjumanning ilmiy-amaliy tavsiyasi sifatida 1986-yilda chop etilgan I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev, V.I. Abdukarimov, V.N. Abramovalarning «Matlubot kooperatsiyasida sotsial-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash usuli» risolasi qabul qilindi[6]. Bunda mualliflar samaradorlikni

---

[1] *И.Т. Абдукаримов, М.К. Пардаев, А.А. Абдиев.* Экономический анализ в кооперативной тарговле./ Альбом наглядних пособий. Самарканд Сам13[4] И.Т. Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А. Абдиев Анализ хозяйственной деятельности отдельных отраслей потребительской кооперации./Альбом наглядних пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

[2] *И.Т. Абдукаримов.* Анализ хозяйственной деятельности потребительной кооперации. — М.: Экономика, 1984. И.Т. Абдукаримов Анализ хозяйственной деятельности потребительной кооперации. 2-е издание. — М: Экономика,1989.

[3] *М.К. Пардаев, Ю.С. Саттаров.* Методические рекоминдации по комплексной оценке эффиктивности труда в разничной торговле. — Т: Узбекпотребсоюз, 1983.

[4] *М.К. Пардаев.* Эффективность труда в торговле и методика ее определения / / Бухгалтерский учет, 9. 1978. Пардаев М.К Сровнительная аценка эффективности торговли // Бухгалтерский учет, 10. 1982. 39—42 va boshqalar.

[5] *И.Т. Абдукаримов.* Торговля: аценка эффективности. // Советская потребительская кооперация, 1976.

[6] *И.Т.Абдукаримов и др.* Методика определения социально-экономической эффективность в потребительской кооперации. Самарканд: СКИ, 1986.

kompleks tahlil qilish va uningbaholash usullarini ko'tarib chiqdilar. Xo'jalik faoliyatini kompleks baholash borasida ilmiy izlanishlar davom etdi. Endi bir tarmoqda emas, balki ko'p tarmoqda qanday usul bilan kompleks baholash mumkinligi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va nihoyat 1990-yilda V.I. Abdukarimov tomonidan «Axbarotlarni avtomatlashtirgan tizimi sharoitida ko'ptarmoqli matlubot kooperatsiyasi samaradorligini kompleks baholash masalalari» nomli monografiya Toshkentdagi «Mehnat» nashriyotida bosmadan chiqdi[1]. Bu O'zbekistonlik olimlarning Kompleks tahlilini rivojlantirishdagi yana bir qutlug' qadam bo'ldi.

90-yilga kelib axborotlarni avtomatlashtirish masalalariga alohida to'xtaldi. Shu yillari hisob, tahlil, statistika va rejalar axbarotlarini avtomatlashtirish bo'yicha bir qancha adabiyotlarni R.A. Abdullayev, V.I. Abdukarimov, N.A. Ibrohimov, K.U. O'razov, M.B. Abbosovlar tomonidan turli nashriyotlardan chop ettirildi[2]. Bu olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlilini avtomatlashtirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari intilishi O'zbekistonlik olimlarini o'zbek tilida darslik yozishga da'vat etdi. Bunga rahbarlikni yana professor I.T. Abdukarimov o'z qo'liga oldi va nihoyat 1989-yilda I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev, A.A. Abidiyev va V.I. Abdukarimovlar tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» mavzusida savdo va matlubot kooperatsiyasi sohasi bo'yicha birinchi marta o'zbek tilida darslik vujudga keldi. U «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi[3]. Bu darslikdagi ko'p iqtisodiy atamalar o'zbek tilida yozildi.

Ammo maxsus fanlarni faqat rus tilida o'qib yurgan talabalar va o'z ishini rus tilida yuritadigan mutaxassislar uchun o'zbek tilidagi atamalarni tushunish ancha qiyin kechdi. Shu tufayli bu qiyinchilikni osonlashtirish maqsadida O'zbekistonlik olimlari «Savdoga oid iqtisodiy atamalarning ruscha-o'zbekcha lug'atini» ishlab chiqishdi va 1990-yilda Samarqand kooperativ institutida va 1992-yilda «O'qituvchi» nashriyotida chop etishga muvaffaq bo'ldilar[4]. Olimlar namunaviy dasturlar ishlab chiqish borasida ham sezilarli ishlarni amalga oshirdilar. 1987-yilda I.T. Abdukarimov va M.Q. Pardayevlar hamkorligida «Savdo iqtisodi» mutaxassisliklari uchun «Xo'jalik faoliyatining tahlili» bo'yicha namunaviy dasturni Sentrosoyuzning o'quv-uslubiy birlashmasi orqali chop ettirdilar[5].

---

[1] *Абдукаримов В.И.* Вопроси оценки эффективности многоотраслевой хозяйственной деятельности потребительской кооперации в условиях АСАД: — Т.: Mehnat, 1990.

[2] R.A. Abdullayev va boshqalar. Iqtisodiy axborotlarni EHM da ishlashini avtomatlashtirish. —T.: O'qituvchi, 1990. R.A. Abdullayev va boshqalar.

[3] *I.T. Abdukarimov* va boshqalar. Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini analiz qilish. — T.: O'qituvchi, 1989.

[4] *I.T. Abdukarimov* va boshqalar. Savdoga oid iqtisodiy avtomatlarning ruscha-o'zbekcha lug'ati. Dos. M.Q. Pardayev tahririda. — T.: O'qituvchi, 1992.

[5] *Абдукаримов И. Т, М.К. Пардаев.* Анализ хозяйственной деятельность. Программа для кооперативных институтов по специальность 1729. Экономика торговли. — М.: ПУМК, 1987.

1990-yilda esa «Buxgalteriya uchyoti, nazorat va xo'jalik faoliyati tahlili» mutaxassisligi bo'yicha «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» fanining namunaviy dasturini ishlab chiqdi va Moskva Moliya Akademiyasi qoshida tuzilgan sobiq SSSR oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari vazirligining o'quv-uslubiy birlashmasi tomonidan tasdiqlangan va nashrga tavsiya qilingan edi[1]. Bu namunaviy dastur ham I.T. Abdukarimov va M.Q. Pardayevlar tomonidan tayyorlanadi va nashrdan chiqarildi. Ushbu dastur, O'zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirilib, 1992-yilda o'zbek tilida chop etildi. Hozirgi kunda ham ba'zi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan shu namunaviy dasturlar o'quv jarayonida qo'llanilib kelinmoqda.

Tahlilning umumiy masalalari bilan birgalikda uning alohida sohasi bo'yicha ishlar qilinmoqda. Jumladan, professor D.K. Kudbiyev savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili muammolari, professor X.A. Shodiyev esa tayyorlov savdo sohasida intensivlik va samaradorlikni aniqlash va tahlil qilish muammolari bo'yicha katta ishlar qildilar. Savdo korxonalarida aylanma mablag'lar tahlili bo'yicha bir qancha uslubiy tavsiyalar bilan A.Sh. Sattorov, matlubot kooperatsiyasining ishlab chiqarish korxonalarida asosiy va aylanma mablag'lar tahlili bo'yicha U.X. Xudoyberdiyevlar ham samarali ijod qilmoqdalar. Tahlilning nazariyasi va usullarini takomillashtirishda statistik olimlardan Yo. Abdullayev[2] ham katta hissa qo'shdi.

1981-yilda D.K. Kudbiyev «Savdoda asosiy fanlardan samarali foydalanish tahlili» kitobini, 1990-yilda «Kooperativ savdoda asosiy fondlardan foydalanish tahlilining muammolari», 1989-yilda «Kooperativ chakana savdoda asosiy fondlar samaradorligini kompleks baholash va tahlil qilish» kabi monografiya va o'quv qo'llanmalarini chop etishga muvaffaq bo'ldi[3]. So'nggi paytlarda xalq xo'jaligi taraqqiyotida samaradorlik va intensivlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etdi. Buni inobatga olib 1990-yilda M.Q. Pardayev va Z.N. Qurbonovlar hamkorligida «O'qituvchi» nashriyotidan «Kooperativ savdoda samaradorlik va tahlili» mavzusida monog-

---

[1] *И.Т. Абдукаримов, М.К. Пардаев.* Анализ хозяйственной деятельности потребительской кооперации. Программа для студентов вузов по специальности 06.08. "Бухгалтерский учет, контроль и анализ хозяйственной деятельности". – М.: УМО Минвуз СССР. 1990.

[2] *Ё.Абдуллаев.* Региональной аспект статистического изучения эффективности общественного производства. – Т: Фан. 1985. Ё. Абдуллаев. Сарвнителеьний анализ эффективности региональной экономики. – Т: Mehnat, 1987.

[3] *Кудбиев Д.К.* Анализ эффективности использования в кооперативной торговле. – М: ЗИСТ, 1981, Кудбиев. Д.К. Проблеми анализа использования основних фондов в торговле, – Т: Узбекистон, 1990.

Кудбиев. Д.К. Методические рекоминдации по комплекскому анализу и оценки эффективности использования основних фондов в кооперативной торговле. – М.: 1989.

rafiyasi[1], intevsivlik ko'rsatkichlarining shu yil M.Q. Pardayev va Sh.U. Haydarov hamkorligida «Kooperativ savdo korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish» mavzusidagi o'quv qo'llanmalari chop etildi[2]. Bu sohaning rivojlanishiga X.A. Shodiyev ham o'zining salmoqli xissasini qo'shdi[3]. O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach, o'ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bu esa olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qiladi. Bozor iqtisodiyotiga bag'ishlangan kitoblar ham paydo bo'la boshladi. 1991-yilda I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev va Sh.U. Haydarovlar hamkorligida «Yangi xo'jalik yuritish sharoitida kooperativ savdoda daromadlar tahlili» risolasini chop etdi[4]. 1993-yilda Z.N. Qurbonovning «Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoda buxgalteriya uchyoti va iqtisodiy tahlil» monografiyasi «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi[5]. Shu yili «Zarafshon» nashriyotida muallifning «Savdoda intensivlik: mohiyati, ko'rsatkichlari va ularning oshirish yo'llari» mavzusidagi kitoblari chop etildi[6]. Olimlar 1994–1999-yillarda tahlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muammolariga bag'ishlangan bir qancha to'plam va risolalar chop etishga muvaffaq bo'ldilar[7].

---

[1] *Пардаев.М.К., Курбонов.З.Н.* Анализ показателей эффективности и интефсификации в кооперативной торговле. – Т: Ўқитувчи, 1990.

[2] *M.Q. Pardayev, Sh.K. Haydarov.* Kooperativ savdo korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish. – T: RUMK, 1990.

[3] *X.A. Shodiyev.* Qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlashni mahsulotlarni tayyorlash: (intensivlash va samaradorlok masalalari). – T: Mehnat, 1989. X.A. Shodiyev. Intensivlash va samaradorlikning o'zaro aloqadorligi. – T: O'zbekiston, 1991.

[4] *I.T. Abdukarimov, M.K. Pardayev, Sh.U. Haydarov.* Анализ доходов в кооперативной торговле в условиях нового хозяйственного механизма. – М: МКИ, 1991

[5] *З.Н. Курбонов.* Бухгалтерискиий учет и экономический анализ в тарговле в условиях риночной эканомики. – Т: Ўқитувчи, 1993.

[6] *М. К. Пардаев.* Интенсификация в торговле: сушность, показатели и пути их повышения. Самарканд: Зарафшон, 1993.

[7] Bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida matlubot kooperatsiyasi rivojlanishining sotsial-iqtisodiy muammolari. – C. 1993. Актуальние проблемы учета, аудита и совершенствования финансово-кредитной сестеми в условиях развития рыночных отношений/ Материали международной НПК-С., 1994. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish muammolari va matlubot kooperatsiyasi. – C., 1994: Повышения эффективности производства в услових рынка. Самарканд, 1995: M.Q. Pardayev. Xo'jalik faoliyati tahlilida qo'llaniladigan usullar: Samarqand: СамКИ, 1998. M.Q. Pardayev. Iqtisodiy tahlilning kompleks baholash usullari. – Samarqand, СамКИ, 1998: U.X. Xudoyberdiyev, M.K. Pardayev, Z.N. Qurbonov. Soliqlar uchyoti va tahlili. Samarqand, СамКИ, 1995 va h.k. M.Q. Pardayev. Moliyaviy tahlil metodologiyasi. Samarqand, СамКИ, 1997; I.T. Abdukarimov. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998; M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov. Moliyaviy tahlil. T. Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999 va h.k.

7A X

Ushbu kitoblar, maqolalar to'plami va risolalar bozor iqtisodiyotining shakillanayotgan sharoitida tahlil fanini ilmiy va amaliy jihatdan takomillashuvi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

1995–1999-yillarda O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining asosiy sohasi bo'lgan moliyaviy tahlilga bag'ishlangan bir qancha adabiyotlar chop etildi. Bular jumlasiga M.Q. Pardayevning «Moliyaviy tahlil metodologiyasi» (Samarqand 1997), A. Ibrohimovning «Moliyaviy tahlil» (T.: Mehnat, 1995) I.T. Abdukarimovning «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» (T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi,1998, ikkinchi nashri 1999-yilda), I.O. Volji va V.V. Ergashboyevlarning «Moliyaviy tahlil» (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998), M.Q.Pardayev va B.I. Isroilovlarning «Moliyaviy tahlil» (T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999) kabi kitoblarni kiritish mumkin. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlil quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi lozim.

– hozir respublikamizda ko'p mulkchilikka asoslangan bozor tizimidagi korxonalar vujudga keldi. Iqtisodiy tahlil ham ana shu sohaga mos holda rivojlanishi lozim;

– O'zbekistonda barcha sohalar bo'yicha, ayniqsa buxgalteriya hisobining jahon andozalariga mos tizimi qabul qilinmoqda. Bu esa xalqaro andozaga mos iqtisodiy tahlil tizimini ham yaratishni taqozo qiladi;

– bu fanning nazariyasini o'zimizda shakllanayotgan bozor iqtisodiyotining xususiyatlarini inobatga olgan holda yaratish lozim;

– O'zbekistonda makroiqtisodiy tahlil amaliy jihatdan obyektiv zaruratga aylandi. Ammo uning nazariyasi va metodologiyasi yaratilgan emas. Shu tufayli kelajakda makroiqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik asosi ishlab chiqilishi lozim;

– olimlar sanoat, qurilish, transport, xizmat va boshqa xalq xo'jaligining muhim sohalari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishlari kerak;

– iqtisodchi mutaxasislarni tayyorlashda bu fanga tegishli ahamiyat berish hamda o'quv andozalari va rejalariga kiritish lozim.

Ushbu tadbirlarning amalga oshishi mustaqil davlatimizning mustaqil fani-xo'jalik faoliyati tahlilining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Bu fanning kelajakda ahamiyati keskin oshadi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har xil korxonaning xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganishni, tahlil qilishni taqozo qiladi.

2-bob. IQTISODIY TAHLILNING PREDMETI, OBYEKTI, VAZIFALARI VA KORXONANING BOSHQARISHDAGI ROLI

2.1. Iqtisodiy tahlil predmeti bo'yicha turli olimlar qarashlarining nazariy talqini

Iqtisodiy tahlil fanining oldiga qo'yilgan muhim vazifalarni to'liq bajarish, uning bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot tamoyillariga mos kelishini ta'minlash, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish maqsadida mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarini axtarib topish yo'llarini ishlab chiqish kabi muhim iqtisodiy ishlarni to'g'ri bajarish uchun uning predmeti, obyekti, metodi, turlari, shakli, uslublari kabi mazkur fanning nazariy asoslarini aniq belgilab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy tahlil fanining hamon to'liq o'z yechimini topmagan bozor munosabatlariga xos nazariy muammolaridan biri uning predmetidir.

Har qanday mustaqil fan o'zining predmetiga ega. Fanning predmeti deganda, odatda, shu fanda nima o'rganilishi tushuniladi. Iqtisodiy tahlil fanining predmetiga keng ma'noda qaraladigan bo'lsa, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan obyekt (korxona, birlashma, kompaniya, aksiyadorlik jamiyati, konsern, korporatsiya kabilar) xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va h.k) o'z ichiga oladi. Lekin har bir iqtisodiy fan o'ziga xos xususiyatga, o'zi o'rganadigan predmetga ega. Bu faqat shu fanga xos bo'lib, imkoni boricha boshqa fanlarda takrorlanmasligi lozim. Bu talab shu fanning mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy shartlaridan biridir.

Iqtisodiy tahlil* fanining predmeti tom ma'noda obyektning xo'jalik faoliyatidir. Ammo buxgalteriya hisobi, statistika, moliya va kredit, audit, marketing, menejment kabi fanlarning ham predmeti keng ma'noda xo'jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o'rgatadi. Demak, har bir fanning, shu jumladan iqtisodiy tahlil fanining o'ziga xos va mos jihatini unga tegishli predmetni aniqlab olish lozim.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni o'z ichiga oladigan fan iqtisodiyotga oid fanlardir. Ammo iqtisodiy tahlil fani bu jarayonlarning sodir bo'lish paytini emas, balki uning natijasi va kelajagini o'rganadi. Obyektda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar uning rejasida ko'zda tutilgan ma'lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo'lishini qonuniy jihatdan hujjatlashtirish bilan buxgalteriya hisobi, statistika kabi fanlar shug'ullanadi.

---

* Kelgusi matnlarda faqat tahlil ham deb yuritiladi.

Shu jarayonlarning natijasi ma'lum davrlarda (oy, chorak, yil) jamlanib boriladi va turli hisobotlarda o'z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan hujjatlarga asoslanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tahlil fanining predmetini aniqlash uchun ushbu muammoga tarixiy jihatdan yondoshsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

M.I. Bakanov va S.K. Tatur rahbarligidagi olimlar: iqtisodiy tahlil fanining predmetiga ilk marta «Xo'jalik faoliyati tahlili predmeti deganda korxonaning rejani bajarish jarayonida mehnat, moddiy va pul resurslaridan foydalanishni birinchi galda hisob ma'lumotlaridan o'rganish tushuniladi»[1] deb ta'rif berilgan.

Ushbu ta'rifda iqtisodiy tahlil predmeti ancha chegaralangan holda berilgan. Unda faqat rejaning bajarilish jarayoni ko'rsatilgan. Agar ushbu ta'rifga asoslanadigan bo'lsak, korxonada rejani bajarishdan boshqa jarayon bo'lmaydigandek, faqat hisob ma'lumotlariga asoslanadigandek ko'rsatilgan.

Tahlil jarayonida nafaqat rejaning bajarilishi yoki hisob, balki barcha iqtisodiy jarayonlar va hisobot, reja hamda boshqa ko'plab axborot manbalaridan foydalanish mumkin. Bundan farqli o'laroq A.Sh. Margulis tahriri ostida chop etilgan kitobda: «Tahlilning predmeti korxona va birlashmalarning rejani bajarishga yo'naltirilgan xo'jalik faoliyatining reja, hisob va hisobotlarda ifodalangan ko'rsatkichlar tizimidir»[2] degan ta'rif beriladi.

Mualliflar mazkur ta'rifda iqtisodiy tahlilga ancha kengroq yondoshadi. Endi faqat korxonalar bilan cheklanib qolmasdan, ularning birlashmalari ham tahlil obyekti bo'lishini, ma'lumotlar manbayi esa faqat hisobda emas, balki reja, hisobotlarda ham ifodalanishini ko'rsatgan. Ammo bu yerda ham xo'jalik faoliyatining o'rganishni faqat rejaning bajarilishini o'rganish bilan cheklab qo'ygan.

Olimlarning tahlil predmeti ta'rifini takomillashtirishga qaratilgan qarashlari davom etdi. 60-yillarning oxiriga kelib I.I. Poklad ushbu masalaga ancha aniqlik kiritib, quyidagicha ta'rif berishga muvaffaq bo'ldi: «Iqtisodiy tahlilning predmeti sanoat tarmog'idagi korxona va ularning yuqori tashkilotlari (birlashma, firma, trest) xo'jalik faoliyati bo'lib reja, hisob, hisobot va boshqa axborot manbalarida ifodalanishidir»[3] deb ko'rsatadi.

Ushbu ta'rifning oldingilardan afzalligi shundaki, unda iqtisodiy tahlil korxona va birlashmalar bilangina emas, balki undan boshqa yuqori tashkilotlar faoliyatini ham o'rganadi, degan g'oyani olg'a suradi. Shu bilan birga iqtisodiy tahlilni o'tkazishda axborotlarni faqat reja, hisob va hisobotlardan emas, balki boshqa manbalardan ham olish mumkinligini ko'rsatib bergan.

---

[1] Курс анализа хозяйственный деятельности / Под ред. М.И. Баканова и С.К. Татура. – М.: Госфиниздат 1959.

[2] Экономический анализ работы предприятий / Под ред. А.Ш.Маргулиса. – М.: Госфиниздат, 1960.

[3] *Поклад И.И.* Теоретические основы экономического анализа работы предприятий. – М.: Финансы, 1969.

Ammo mazkur ta'rifda I.I. Poklad iqtisodiy tahlil fanining predmetini ma'lum darajada chegaralaydi. Xususan, iqtisodiy tahlil faqat sanoat tarmog'idagi korxonalarda o'tkaziladi degan nazariyani olg'a suradi. Bundan qolgan tarmoqlarda iqtisodiy tahlil o'tkazilmaydimi, — degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Boshqa mualliflar ta'riflarida iqtisodiy tahlil predmeti sifatida xo'jalik faoliyatining ma'lum jihatlari ko'rsatilgan. Bunda esa u inobatga olinmagan.

Shu yillarda chop etilgan yana bir asarda N.T. Chumachenko: «Iqtisodiy tahlil predmeti korxonaning reja asosida amalga oshirilgan xo'jalik faoliyati to'g'risida asosli qarorlar qabul qilish uchun axborotlar oqimlarida ifodalanishini tahlil qilishdir»[1] deb ko'rsatadi.

Mazkur ta'rif bilan N.T. Chumachenko ushbu muammoni hal qilish yo'lida bir qadam olg'a ketgan. Unda iqtisodiy tahlil shunchaki tahlil uchun emas, balki «asosli qarorlar qabul qilish uchun» degan tushunchani olg'a suradi. Bu holat mazkur fan nazariyasining ancha rivojlanishiga, tahlilning esa xo'jalikni boshqarishdagi rolining oshishiga olib keladi. Albatta, bu qarash o'sha rejali iqtisodiyot sharoiti uchun juda ma'qul edi. Ammo o'sha paytlarda hali xo'jalik faoliyati faqat rejani bajarish bilan cheklanib qolmaganligini inobatga olinadigan bo'lsak, ushbu ta'rifning ham mukammal emasligiga amin bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu ta'rifda «axborotlar oqimida ifodalanishini tadqiq qilishdir» deyilgan so'zi ham iqtisodiy tahlil fanining predmetini qisman chegaralagan. Odatda, xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar tahlil qilinadi. Bularni tahlil qilish uchun esa axborotlar manbayidan foydalanildi. Bu ta'rifda ta'kidlanganidek, axborotlar tahlil qilinmoqchi. Odatda, axborotlar emas, balki, ularga asosan xo'jalik faoliyati tahlil qilinadi.

70-yillarda ham bu borada olimlar turli qarashlarni ilgari surdilar. Masalan, N.V. Dembinskiy iqtisodiy tahlil fanining predmetini soddalashtirib quyidagicha ta'rif bergan: «Iqtisodiy tahlilning predmeti deb korxonalar va xo'jalik birlashmalari xo'jalik faoliyatining reja, hisobot, hisob va boshqa axborotlarda ifodalanishiga aytiladi»[2]. Xuddi shunday ta'rif V.A. Rayevskiy tahriridagi kitobda ham qayd qilingan[3]. O'xshash ta'rif A.I. Merkushev kitobida ham keltirilgan. Uning asarida «Iqtisodiy tahlilning predmeti bu korxona va tashkilotlarning bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan va rejani bajarishga qaratilgan ko'pqirrali xo'jalik faoliyatidir»[4] deyilgan.

---

[1] *Чумаченко Н.Т.* Экономический анализ и управление производством. — Киев: КИНХ, 1996.

[2] *Дембинский Н.В.* Вопросы теории экономического анализа. — М.. Финансы, 1973.

[3] Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятий (объедеенений). — М.: Финансы и статистика, 1988.

[4] *Меркушев А.И.* Анализ хозяйственной деятельности снабженческосбытовых организаций. — М.: Высшая школа, 1979.

Ushbu ta'riflarda ham tahlil fani predmetining asosini xo'jalik faoliyati tashkil qilishi ko'rsatilgan. Ammo N.V. Dembinskiyda ma'lumotlar qanday axborotlar manbayida ifodalanishi ko'rsatib berilgan bo'lsa, A.I. Merkushevda ushbu masala qoldirib ketilgan. To'g'ri, iqtisodiy tahlilning predmeti xo'jalik faoliyati, lekin uning qaysi jihatini olish lozimligi A.I. Merkushev ta'rifida ko'rsatilmagan. Agar ushbu masalaga kengroq yondoshadigan bo'lsak buxgalteriya hisobi, boshqarish, audit, marketing kabi fanlarning ham predmeti xo'jalik faoliyati, lekin ularning qaysi jihati qanday fanlarda o'rganish lozimligi aniq ifodalangan bo'lishi lozim. Iqtisodiy tahlil xo'jalik faoliyatining hamma jihatini o'rganmaydi, balki sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlarning axborot manbalarida ifodalangan ma'lumotlariga tayanadi.

Ayrim olimlar iqtisodiy tahlil fanining predmetini faqat bitta tarmoqqa bog'lab qo'yadilar. Bu borada I.I. Pokladning qarashlarini ko'rib o'tgan edik.

Uning asarida iqtisodiy tahlil predmeti faqat sanoat korxonalari doirasida qaralgan bo'lsa, M.F. Dyachkov asarida esa faqat qurilish tashkilotlari bilan chegaralanib qoladi.

M.F. Dyachkov fikricha «Xo'jalik faoliyati tahlili» kursining predmeti qurilish tashkilotlari va ularning yuqori bo'g'inlaridagi xo'jalik jarayonlari va hodisalaridir»[1]. Bu yerda muallif iqtisodiy tahlil fanining predmetini uning obyekti bilan almashtirib yuborgan. U qayerda, qaysi sohada amalga oshirilmasin bir xil predmetga ega bo'lishi lozim. Sohalar esa uning obyektini tashkil qiladi.

Shunga o'xshash qarashlarni iqtisodiy tahlilning yirik nomoyondalari asarlarida ham kuzatish mumkin. Xususan, A.D. Sheremet tahririda chop etilgan iqtisodiy tahlil nazariyasiga bag'ishlangan adabiyotda «Xo'jalik faoliyati tahlilining bevosita predmeti ishlab chiqarish iqtisodi, uning texnik, tabiiy sharoiti va ishlab chiqarish jamoasining ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq tomonlaridir»[2] deyilgan.

M.N. Yankelevich yog'ochsozlik korxonalarida iqtisodiy tahlil kursini yozgan. Ammo uning ham boshlang'ich qismi shu fanning nazariyasiga bag'ishlangan. Uning fikricha: «Iqtisodiy tahlil predmeti korxonaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xalq xo'jalik rejalarini bajarishga qaratilgan barcha faoliyat jarayonlari va ishlarini qamrab olgan ishlab chiqarish — xo'jalik va moliyaviy faoliyatidir»[3]. Bu ta'rifda iqtisodiy tahlil iqtisodiyotning makro yoki mikro — darajasida olib borilishi aniq ko'rsatilmagan.

---

[1] *Дьячков М.Ф.* Анализ хозяйственой деятельности в строительстве. — М.: Финансы и статистика, 1987.

[2] Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. / Под ред. А.Д. Шеремета. —М.: Прогрес,1982.

[3] *Янкелевич М.Н.* Анализ хозяйственной деятельности дерево обрабатывающих предприятий. — М.: Лесная промышленность. — 1984.

Bunga o'xshash qarashni N.A. Xan kitobida ham kuzatish mumkin: «Iqtisodiy analiz esa uchyot va hisobot materiallari asosida ishlab chiqarish kuchlarining ahvolini va xo'jalikni yuritishdagi iqtisodiy qoidalarni o'rgatadi»[1] deyilgan.

Bunda ham iqtisodiy tahlil fanining predmeti iqtisodiyotning qaysi bo'g'inida amalga oshirilishi aniq o'z ifodasini topmagan. Shuningdek, ushbu qarashlarda axborot manbalari ham faqat «uchyot va hisobotlar» doirasida chegaralanib qolgan. Holbuki, reja va boshqa axborot manbalari e'tibordan chetda qolib ketgan.

Ayrim omillarda iqtisodiy tahlilning predmeti iqtisodiyotning aniq bo'g'inida, ya'ni korxona darajasida olib borilishi e'tirof etilgan holda ushbu fanning predmetiga ta'rif berilgan. Xususan, M.B. Kovin va B.I. Maydanchiklar: «Iqtisodiy tahlil predmeti deb xalq xo'jaligining xo'jalik hisobidagi bo'g'inida ishlab chiqarish sharoitlari va ularning yuqori natijaga kam (mavjud) resurslar bilan erishishga o'zaro bog'liq omillarining butun va ayrim ta'siri nuqtayi nazaridan qarashga aytiladi»[2].

Bu mualliflarning iqtisodiy tahlil predmetiga bergan ta'riflari ichida bitta muhim jihati shuki, uning predmetida xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar ham inobatga olinishi ko'zda tutilgan.

Shuni qayd qilish kerakki, ayrim olimlar iqtisodiy tahlil fanining predmetiga juda sayoz yondoshib, uni juda qisqa doirada chegaralab qo'yganlar. Masalan, A.D. Sheremet, V.A. Protopopovlar mazkur masalaga bir tomonlama yondoshib, «Iqtisodiy tahlilning predmeti xo'jalik faoliyatining iqtisodiy tomonlaridir»[3] degan xulosaga keladilar. «Korxona xo'jalik faoliyati iqtisodiy tomonlarini ishlab chiqarishning texnik, tabiiy sharoiti, ishlab chiqarish jamoasining ijtimoiy taraqqiyoti va rahbar idoralarining xo'jalik siyosatini o'zida aks ettirgan iqtisodiy munosabatlari»[4], deb tushuntiradilar. Ushbu ta'rifda iqtisodiy tahlil predmeti korxona iqtisodi fanining predmetiga o'xshab qolgan. Bunda tahlilning o'ziga xos faoliyat doirasi ochib berilmagan.

Iqtisodiy tahlil predmetiga ko'p olimlar juda ko'p doirada yondoshib, uni iqtisodiyotning makro va mikro darajasi uchun bir xil holatda ekanligida ko'radi. Masalan, O.R. Kmisikevich: «Iqtisodiy tahlilning predmeti deganda korxona, birlashma, tashkilot va xo'jalik tarmoqlari xo'jalik faoliyatida rejalarning bajarilish jarayonini, moliyaviy natijalarni reja, hisob va hisobotlardagi ko'rsatkichlar tizimida ifodalanishi va shu bo'g'inlardagi imkoniyat-

---

[1] *N.A. Xan.* Qishloq xo'jalik korxonalarida xo'jalik faoliyatining analizi. – Toshkent, O'qituvchi, 1978.

[2] *Ковин М.Б., Майданчик Б.И.* Внутриотраслевой анализ эффективности работы предприятий и объединений. – М.: Финансы, 1997.

[3] *Шеремет А.Д., Протопопов В.А.* Анализ экономики промышленного производства. – М.: Высшая школа, 1984.

[4] O'sha joyda.

larning (rezervlarning) mavjudligini aniqlash tushuniladi»[1] deb ta'rif bergan. Bunda iqtisodiy tahlil tarmoq darajasigacha ko'tarilgan. Demak, uning predmeti nafaqat quyi, balki iqtisodiyotning yuqori makro-bo'g'inida ham amalga oshadi deb ko'rsatmoqchi bo'lgan. Iqtisodiy tahlilning predmeti iqtisodiyotning quyi bo'g'ini bilan chegaralanishi lozim. Chunki makro darajani o'rganish bilan makroiqtisodiy tahlil shug'ullanadi. Bu tahlilning o'ziga xos sohasidir.

Bunday fikrni N.M. Zavarixin ham qayd qilib quyidagicha yozadi: «Iqtisodiy (aniq-iqtisodiy) tahlil fan sifatida xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida kengaytirilgan ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini va ularni amalga oshirish yo'llarini tadqiq qilishdan iboratdir»[2]. Shunga yaqin bo'lgan ta'rif B.I. Maydanchik tahririda chop etilgan adabiyotlarda ham qayd qilingan[3].

Shuni e'tirof etish kerakki, ayrim olimlar iqtisodiy tahlilning predmetiga o'ta aniqlik bilan yondoshadilar. Masalan, S.B. Barngols va G.M. Tasiylar tahriri ostida chop qilingan kitobda «Tahlilning predmeti aniq korxona, uning tarkibiy bo'linmalari, birlashma, vazirlik va idoralar xo'jalik faoliyatining reja bajarilishi, uning samaradorligini oshirishiga qaratilgan reja, hisob, hisobot va boshqa manbalarda ifoda etilgan ko'rsatkichlar tizimidir»[4] deyilgan.

Ammo ushbu ta'rifda xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar o'z ifodasini topmagan. Iqtisodiy tahlilning boshqa fanlarga nisbatan o'ziga xos xususiyati shundaki, unda korxona xo'jalik faoliyatini ifodalovchi natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi va ularning ta'siri hisoblanadi.

Bu borada M.I. Bakanov va A.D. Sheremetlarning kitobida keltirilgan ta'rifi ancha qulay va tahlilning barcha jabhalarini qamrab oladi. Unda: «Iqtisodiy tahlil fanining predmeti deganda korxonalardagi xo'jalik jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va faoliyatining oxirgi natijasiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar va ularning axborotlar tizimida ifodalanishi tushuniladi»[5] deyilgan. M.I. Bakanov iqtisodiy tahlilga bergan ushbu ta'rifi

---

[1] *О.Р. Кмицикевич, Л.А. Фалькович.* Анализ хозяйственной деятельности в потребительской кооперации. – М.: Экономика, 1977.

[2] *Н.М. Заварихин.* Экономический анализ в управлении основными звеньями народного хозяйства /Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. / Под ред. Н.М. Заварихина, Р.С. Сайфулина. М.: Изво, МГУ, 1981.

[3] Функционально-стоимостной анализ издержек производства / Под ред. Б.И.Майдончика – М.: Финансы и статистика, 1985.

[4] Экономический анализ хозяйственной деятельности предприятий и объеденений / Под ред. С.Б.Барнгольц и Г.М.Тация. – М.: Финансы и статистика, 1987.

[5] *Баканов М.И., Шеремет А.Д.* Теория анализа хозяйственной деятельности. – М.: Финансы и ститистика, 1987.

keyin chop etilgan kitoblarda ham saqlab qolingan. Faqat unda bitta korxonalar bilan birga birlashmalar, assotsiatsiyalarni ham kiritgan[1].

Bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida ham iqtisodiy tahlil fanining predmetiga bo'lgan munosabat o'zgargan emas. U hamon iqtisodchi olimlar diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu tabiiy jarayon, albatta. Chunki iqtisodiyotning qanday bo'lishidan qat'i nazar korxonalarda xo'jalik faoliyati davom etadi, ular esa tahlil qilinadi. Biroq iqtisodiy unsurlarning o'zgarishi bilan tahlilning ham vazifasi, ayrim maqsadlari o'zgarishi mumkin. Lekin predmetining mumtoz ta'rifining mazmuni asosan saqlanib qolishi lozim.

Erkin iqtisodiyot sharoitida yaratilgan kitoblardan biri G.V. Saviskayaning darsligidir. Unda «Xo'jalik faoliyati tahlili predmeti deb iqtisodiy hodisa va jarayonlarning sabab-oqibat bog'liqligiga aytiladi»[2] degan ta'rif berilgan. Biroq ushbu ta'rifda «Iqtisodiy hodisa va jarayonlar»ning iqtisodiyotning qaysi bo'g'inida sodir bo'lishi, shu jarayonlarni tezlashtiruvchi yoki susaytiruvchi omillarning ta'siri kabi muhim jihatlari o'z ifodasini topmagan. Shuningdek, ushbu holatlarni qaysi ma'lumot manbalari asosida tahlil qilish ham ko'rsatilmagan. Demak, iqtisodiy tahlil fanining predmeti erkin iqtisodiyot sharoitiga mos holda hamon yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bulardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy tahlil fani mazmun va mohiyati jihatidan hali takomillashishi lozim ekan. Erkin iqtisodiyotga mos, uni o'zida aks ettiradigan tahlil usullari ishlab chiqilishi lozimdir.

Hozirgi paytda iqtisodiy tahlilning ham turli varianti chop qilinmoqda. Moskvaning «Международные» nashriyoti 1999-yilda V.E. Ribalkin tahriri ostida «Iqtisodiyot tahlili» (Анализ экономики) kitobi chop etildi[3]. Unda birinchi marta iqtisodiy tahlil obyekti sifatida milliy va hududiy iqtisodiyot, makro va mikro iqtisodda bozor jarayonlari va korxona hamda firmalar faoliyati olingan.

Shuni alohida qayd qilish joizki, bozor munosabatlari rivojlangan xorijiy mamlakat olimlarining iqtisodiy tahlilga bag'ishlangan asarlarida ularning nazariyasiga kam ahamiyat berilgan. Ularning asarlari asosan iqtisodiy tahlilning amaliy jihatlariga bag'ishlangan.

Ammo O'zbekistonda boshqa MDH mamlakatlari singari iqtisodiy tahlil fanining nazariyasi bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot kabi rivojlanish va taraqqiyot bosqichini boshidan kechirmoqda.

---

[1] *Баканов М.И., Шеремет А.Д.* Теория экономического анализа. — М.: Финансы и статистика, 1994.

[2] *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятия. — М.: ИП "Экоперепектива, 1997.

[3] Анализ экономики. Страна, рынок, фирма. Под ред. Проф. В.Е. Рыбалкина Учебник. — М.: Международное отношение, 1999.

2.2. Iqtisodiy tahlil fani predmetining ta'rifi

Erkin iqtisodiyot sharoitiga mos iqtisodiy tahlil fanining predmeti yaratilishi lozim. U quyidagi talablarga javob berishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, u erkin iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning xo'jalik faoliyatini o'zida ifodalashi kerak. Ikkinchidan, asosan iqtisodiy tahlilda o'z yechimini topadigan obyektiv va subyektiv omillar ta'sirini aniqlash zarurligi ko'rinib turishi lozim. Uchinchidan esa iqtisodiy tahlil o'z chegarasiga, faoliyat doirasiga ega bo'lish uchun butun xo'jalik faoliyatidan o'ziga tegishli sohani ajratib ko'rsatishi maqsadga muvofiq.[1] Bunga, korxonalar xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalar natijasining ma'lumotlar manbayida ifodalangan axborotlarni olishni kiritish mumkin.

Bu borada mualliflar tomonidan chop etilgan adabiyotlarda[1] ham aytilgan edi. Uni takomillashtirib yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib iqtisodiy tahlil fani predmetiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. ***Iqtisodiy tahlil fanining predmeti deganda erkin iqtisodiyot sharoitida ishlayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt (korxona)larning xo'jalik faoliyatida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta'sirida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalar natijalarining ma'lumotlar manbayida (reja, hisob, hisobot va boshqalar) ifodalangan ko'rsatkichlar tizimi (sistemasi) orqali, uning holatiga baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishni o'rganish tushuniladi.***

Iqtisodiy tahlilning ushbu ta'rifini nazariy jihatdan quyidagicha isbotlash mumkin. Iqtisodiy tahlilning predmetida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar alohida o'rin tutadi, chunki iqtisodiy jarayonlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Ular ma'lum ichki va tashqi omillar ta'siri ostida ro'y beradi. Shu omillar ta'sirini boshqa fanlar iqtisodiy tahlil darajasida atroflicha o'rgatmaydi. Bu faqat shu iqtisodiy tahlil fanida o'rganiladi va uning predmetining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, xo'jalik faoliyati natijasiga to'g'ri baho bermasdan, unga ta'sir qilgan ijobiy va salbiy omillarni o'rganmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin. Shu tufayli tahlil fani predmetining markazida obyektiv va subyektiv omillar turganligi bejiz emas.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, iqtisodiy tahlilning predmetini o'rganishda faqat sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish mutlaqo yetarli emas ekan. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan birgalikda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va

---

[1] *M.Q. Pardayev.* Iqtisodiy tahlilning predmeti, metodi va unda qo'llaniladigan usullar. Samarqand, SamKI,1999. Pardayev M.K. Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari. – Samarqand, SamKI, 1999. Pardayev M.K. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik, Samarqand «Zarafshon» – 2001.

shu orqali tahlil qilinayotgan obyektning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir. Bu esa sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlarga to'g'ri baho berib, bo'ladigan jarayonlar andozasini ham ko'rsatib berishni taqozo qiladi. Bu xulosa tahlilning predmetini o'tgan, bo'layotgan va bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga qamrab olishini ko'rsatadi.

Shuni inobatga olish joizki, barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Ko'rsatkichlar esa asosan ma'lumotlar manbayida (rejalarda, me'yorlarda, hisoblarda, hisobotlarda va h.k.) o'z aksini topadi.

Obyektda iqtisodiy jarayonlar yakka-yakka bo'lib emas, balki bir-biriga dialektik bog'liq ravishda birdaniga sodir bo'ladi. Uning har bir jihati alohida ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Shu tufayli xo'jalik faoliyatini o'rganishda bitta ko'rsatkich emas, balki ko'rsatkichlar tizimi (sistemasi)dan foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida tahlil predmetini o'rganishda ma'lumotlar manbayida ifodalangan ko'rsatkichlar sistemasiga asoslanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni o'rganadigan juda ko'p iqtisodiy fanlar mavjud. Lekin ularning ichida tahlil fani xo'jalik faoliyatining natijasiga odilona baho bera oladi. Undagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarga omillar ta'sirini aniqlaydi. Shularga asosan xo'jalik faoliyatini yaxshilash yo'llarini ishlab chiqadi. Bu xususiyatlar faqat tahlilga xos bo'lganligi uchun ham uning predmetida natijaga to'g'ri baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish lozimligi ko'rsatilgan.

Bulardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga o'zining betakror predmetiga ega. Tahlilda o'rganiladigan iqtisodiy jarayonlar va ularning muhim jihatlari aynan shu tarzda boshqa fanlarda o'rganilmaydi va takrorlanmaydi. Shu tufayli har bir mustaqil fan singari tahlil fanining ham o'ziga xos predmeti shakllandi, tarkib topdi, nazariy jihatdan boyib yildan-yilga aniqliklar kiritilib takomillashib bormoqda.

2.3. Iqtisodiy tahlilning obyekti

Boshqa fanlar singari iqtisodiy tahlil fanining ham obyekti bo'lishi lozim. Ammo shu fanning nazariyasiga bag'ishlangan eng so'nggi adabiyotlarda[1] ham bu masala yetarlicha yoritilmagan. Shu tufayli fanning predmeti

---

[1] *М.И. Баканов, А.Д. Шеремет.* Теория экономического анализа. – М: Финанси и статистика, 1998; Теория анализа хозяйственной деятельности. Под бош. ред. В.В.Осмольовского. – М.: Высшая школа. 1989. Каракоз И.И., Самборский В.И. Теория экономического анализа Киев: Вышая школа, 1989. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М: ИП "Эконерспектива", 2000 ва h.k.

bilan obyektini ko'p hollarda bir xil tushunchalar deb qaraladi. Bu esa o'z navbatida nazariy jihatdan asossiz va chalkash xulosalarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil fanining obyekti uning predmeti qayerlarda amalga oshishini ko'rsatishi lozim. Tahlil fanining predmeti, hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda, ko'p mulkchilikka asoslangan barcha huquqiy va jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan jarayonlardir.

Iqtisodiy tahlilning obyekti deganda uning qaysi makonda (xo'jalik yurituvchi subyektlarda) amalga oshirilishi tushuniladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlil fanining predmeti amalga oshadigan obyektlariga davlat, jamoat tashkilotlari, korporatsiyalar, trestlar, birjalar, korxonalar, firmalar, tashkilotlar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar kiradi.

Mazkur obyektlarga iqtisodiy asosi jihatidan qaraladigan bo'lsa ular davlat, jamoa, kooperativ, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko'rsatadigan obyektlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos va mos iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanladi. Bu mustaqil yo'l bilan hamma sohada, xususan milliy hisoblar tizimida ham jahon andozalariga bosqichma-bosqich o'tish ko'zda tutilgan. Bu esa o'z navbatida, mulk shaklidan qat'i nazar, tahlilning bir xil metodologik usulini yoritishni taqozo qiladi.

Obyekt (makon)ning va davrning (zamon)ning qanday bo'lishidan qat'i nazar, ushbu fan predmetining mohiyati o'zgarmasligi, obyekt esa tahlilning qaysi makonda o'tkazilishiga qarab o'zgarib turishi mumkin.

Shu jihatdan uning predmeti obyektidan mazmun va mohiyati jihatidan ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlilning predmeti va obyekti bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitiga mos holda rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiy tahlil fanining o'rni va vazifasi ham erkin iqtisodiyot sharoitiga mos tarzda nazariy jihatdan hamon yetarli darajada talqin qilingan emas. Bu esa mazkur muammoni ham tadqiq qilishni taqozo qiladi.

2.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik faoliyati tahlilining roli keskin oshadi, chunki boshqarishda oldingi ma'muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechib yangi, erkin, iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Oldin tahlil asosan reja ko'rsatkichlarini asoslashga uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, endilikda esa har bir xo'jalik subyekti, mulk shaklidan qat'i nazar, o'z faoliyatini yuqoridan berilgan ko'rgazmani, buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki o'zlari mustaqil ravishda o'zining iqtisodiy

qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa o'z navbatida, tahlilning rolini yanada oshiradi.

Iqtisodiy tahlil orqali har bir obyektida mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularning amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shu tufayli hozirgi hayot har qanday korxonani to'g'ri boshqarish uchun tahlil qilishni taqozo qiladi.

Bu maqsadlardan tahlilning vazifasi kelib chiqadi. Tahlil qilishning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi asosiy vazifalari:

1) korxonaning biznes-rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash;

2) biznes-rejaning bajarilishini, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashini, uning iqtisodiy qudratini yaxshilashini, har bir xo'jalik subyektining raqobatbardoshligini oshirish uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o'rganish;

3) har bir yo'nalishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sirini hisoblash va shu omillarni ishning samaradorligini oshirishga safarbar qilish;

4) xo'jalikda mavjud mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarda samarali foydalanish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish;

5) korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to'lovga qodirligi va qobiliyatliligiga baho berish hamda bu natijaga erishish uchun tezkor chora-tadbirlarni qo'llash yo'llarini ishlab chiqish;

6) korxonaning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko'rsata bilish va tashqi investorlarni korxona faoliyatini yaxshilashga jalb qilish;

7) korxonani boshqarishning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish kabilardan iboratdir.

Tahlilning birinchi vazifasi bevosita uning biznes-reja bilan bog'liqligidan kelib chiqadi. Tahlil jarayonida bir tomondan biznes-rejaning amalga oshganligini o'rganilsa, ikkinchidan xo'jalik faoliyatini batafsil o'rganib, kelgusi davr uchun biznes-rejani tuzishda tegishli axborotlarni to'plab beradi. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari yuqoridan berilar edi. Shu tufayli tahlilni yuqori tashkilotlar amalga oshirib kelgan. Endi bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida vaziyat tubdan o'zgardi. Har bir korxona o'z faoliyati uchun o'zi mas'ul, o'zi rejalashtiradi, hisobotni tuzadi va nazorat qiladi. Bunday sharoitda korxona xo'jalik faoliyatini yuqori tashkilot emas, balki uning o'z mutaxassislari, menejerlari tahlil qiladi. Shu tufayli tahlilning roli va vazifasi biznes-rejani tuzishda kundan kunga oshib bomoqda. Chunki biznes-rejaning har bir ko'rsatkichi iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Bu esa tahlil orqali amalga oshiriladi.

Tahlilning ikkinchi vazifasi korxonada biznes-rejaning bajarilishini o'rganish bilan bog'liq. Hozirgi paytda biznes-rejani tuzish, unga kiritiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha qat'iy belgilangan andoza yo'q. Bunday bo'lishiga

zarurat ham bo'lmasa kerak. Chunki juda ko'p korxonalar bir soha bilan shug'ullansa ham ularning ish uslubi har xil, o'zlariga xos bo'lishi mumkin.

Bu esa oldingidek, hamma korxona faoliyatiga bir xil yondoshish imkonini bermaydi. Ammo umumiy yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlar tizimi bir-biriga yaqin bo'lishi tabiiy. Masalan, har bir korxona yuqori rentabellikka erishishga intilishi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi, o'zining iqtisodiy qudratini yaxshilashi uchun harakat qiladi. Demak, bu tahlilning ham barcha korxonalar uchun metodologik asos bo'ladigan usullarining bo'lishini taqozo qiladi. Shu tufayli tahlil jarayonida biznes-rejaning bajarilish darajasini chuqur o'rganish shu orqali uning faoliyatiga obyektiv baho berishdek muhim vazifa ham ushbu fan zimmasiga yuklatilgan.

Biznes-rejani bajarish jarayonida ma'lum qonuniyatga ega omillar bilan birga ko'zda tutilgan tasodifiy omillar ta'sir qilishi ham mumkin. Tahlilning uchinchi vazifasi shu omillarni aniqlash va har birining ta'sirini hisoblashdan iboratdir. Bu esa bozor munosabatlarining shakllanish jarayonida vujudga kelgan ko'pgina yangi ko'rsatkichlar va omillar ta'sirini aniqlaydigan omilli tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Omilli tahlil natija ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarning hisoblash yo'li bilan shu tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning yaxshilashni, ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlash va uni kelgusi davr uchun safarbar qilish yo'llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan moliyalashtirish asosan barham topgan bir paytda, ichki imkoniyatlarni axtarib topish va uni xo'jalik faoliyatiga safarbar qilish tahlil orqali amalga oshiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida tahlilning asosiy vazifalaridan biri natijaga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish orqali ichki imkoniyatlarni axtarib topish va ularning xo'jalik faoliyatining samaradorligini oshirishga safarbar qilishdan iboratdir.

Tahlilning to'rtinchi vazifasi iqtisodiy jarayonlarning dialektik bog'liqligidan kelib chiqadi. Qaysi soha bo'lmasin, iqtisodiy jarayon sodir bo'lishi uchun mehnat vositasi, mehnat predmeti va jonli mehnatning mujassamligi lozim bo'ladi. Iqtisodiyotning bu elementlari samaradorligini oshirmay turib, boshqa ko'rsatkichlar miqdorining yuqori bo'lishiga erishib bo'lmaydi. Shu tufayli tahlil jarayonida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda moddiy-texnika bazasining boshqa elementlarga to'g'ri kelishini ta'minlashga katta e'tibor bermoq lozim. Masalan, yuqori mehnat unumdorligiga ega bo'lgan, ilg'or texnologiyaga asoslangan uskuna mavjud. Lekin shu uskunani ishlata oladigan, shunga malakasi yetarli bo'lgan mutaxassis kerak bo'ladi. Agar korxonada yuz kishi bo'lsa (uning shtatida shuncha kishi band bo'lsa), lekin tegishli mutaxassis bo'lmasa, bunday holatda korxonaning moddiy texnika bazasi ham, mehnat resurslari ham samarasiz bo'ladi. Shu tufayli ular bir-biri bilan dialektik bog'liqlikdadir.

Texnika va texnologiya takomillashdimi, demak xodimlarning malakasi ham shunga mos ravishda oshib borishi lozim. Shundagina tegishli, ko'zda tutilgan natijaga erishish mumkin. Aks holda qilingan tadbirlar, sarflangan harakatlar tegishli samara bermasligi tabiiy. Bu holatlarning hammasi tahlil orqali aniqlanadi va aniqlangan vaziyatdan tegishli xulosa qilinadi. Shu tufayli tahlilning roli korxonalar, ularning mulk shaklidan qat'i nazar, samaradorligini oshirishda yanada oshmoqda. Korxonaning umumiy samaradorligi bevosita uning moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarining samaradorligiga bog'liq.

Tahlil jarayonida moddiy-mehnat va moliyaviy resurslarning samaradorligini alohida o'rganish, ularning bir-biriga bog'liqligini va umumiy natijaga ta'sirini ham ko'rib chiqish lozim. Demak, tahlilning vazifasi shu ko'rsatkichlarni dialektik bog'lig'likda o'rganish va iqtisodiy jihatdan asoslangan xulosa chiqarishdan iboratdir.

Tahlilning beshinchi vazifasi korxonalarning erkin raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatayotganligidan kelib chiqadi.

Iqtisodiy potensialga buxgalteriya balansida ko'rsatilgan asosiy va aylanma kapital hamda nomoddiy aktivlar bilan birgalikda mehnat resurslari ham kiradi. Ta'kidlanganidek, ushbu elementlar o'zaro bog'liq ravishda ishlatilishi uchun moliyaviy potensialning ahamiyati katta. Iqtisodiyotning har xil bosqichida moliyaviy potensial tarkibi turlicha bo'lishi mumkin. Hozirgi bank krediti uchun to'lanadigan foizning korxona imkoniyatlariga nisbatan balandligini inobatga olinadigan bo'lsa, korxonalar o'z faoliyatini asosan xususiy mablag'lari evaziga yuritgani yaxshi. Agarda iqtisodiyot barqarorlashib, pulning qadrsizlanish darajasi kamaygandan so'ng bank kreditining foizi kamayadi va nihoyat undan foydalanish mumkin bo'ladi. Hozirgi paytda korxona moliyaviy potensialning tarkibi, ulardan qanday foydalanilayotganligi, qanday o'zgarishlar ko'zda tutilayotganligi, istiqboli qanday bo'lishi kabilarni o'rganish hayot taqozosidir. Bu esa tahlil orqali amalga oshiriladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilning asosiy va eng muhim vazifalaridan biri korxona iqtisodiy hamda moliyaviy potensialiga baho berish, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tahlilning oltinchi vazifasi ham bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotning shakllanishi bilan vujudga keldi. Tahlil jarayonida korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini moliyaviy tahlil usullarini qo'llagan holda, undagi mavjud tijorat sirini esa boshqaruv hisobi ma'lumotlarini tahlil qilish evaziga amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil orqali korxonaning moliyaviy ahvoli, uning istiqboli aniq va ravshan bo'ladi. Barcha ijobiy natijalar bo'lsa, albatta tashqi investorlar xabardor bo'lishi lozim. Lekin qaysi ko'rsatkichlarni, qachon va qanday holatda oshkor qilish muhimligini hamma ham hamisha bilavermaydi. Tashqi investorlarning kapital qo'yilmalarini jalb qilish maqsadida faqat

shu korxonaga xos bo'lgan ish usullarini, ba'zi faoliyat jarayoni va uning natijalarini oshkora qilmaslik kerak. Bu har bir korxonaning tijorat siri.

Shu tufayli tijorat sirini oshkora qilmagan holda korxona moliya-xo'jalik faoliyatini ko'z-ko'z qilish ham tahlilning asosiy vazifalaridan biridir.

Tahlilning yettinchi vazifasi rejali iqtisodiyot sharoitida ham mavjud edi. Ammo u paytda faoliyatning hamma sohasi, jumladan boshqaruv ham yuqoridan berilgan rejaning bajarishiga qaratilgan edi. Ko'p hollarda asosiy reja ko'rsatkichi bajarilar edi, ammo u korxona, davlatga qanchalik qimmatga tushayotganligi bilan hech kim qiziqmas edi. Masalan, savdo korxonalarining asosiy reja ko'rsatkichi uning tovar oboroti. Uni boshqarish uchun hamma safarbarlik amalga oshirilardi.

Lekin uning qancha xarajat talab qilishi hech kimni qiziqtirmas edi. Oqibatda, juda ko'p savdo korxonalari tovar oborotini bajarish bilan birga faoliyat natijasi zarar bilan yakunlanar edi. Natijada yuqori tashkilotlardan uning oborot mablag'larini «to'ldirish« uchun juda ko'p mablag' ajratilar edi. Endi bunday ishlarga barham berildi. Korxonani boshqarish yuqori tashkilot manfaatini hisobga olib emas, balki bevosita shu subyektning manfaatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu esa har bir korxona faoliyatini o'rganish va tahlil qilishni taqozo qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tahlilning vazifasi ushbu bandlarda keltirilgan vazifalar bilan cheklanmaydi. Korxona faoliyati serqirrali. Tahlil jarayonida uning hamma tomonlarini o'rganish lozim. Shunday ekan, tahlil vazifasi ham ko'p qirralidir. Shu tufayli ularning eng asosiylari keltirildik, xolos.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlandi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo'l qo'yilmaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shu tariqa kamchiliklar bartaraf qilinib, xo'jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va uning samaradorligining oshib borishi ta'minlanadi.

Ko'rinib turibdiki, tahlilning vazifasi bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo'jalik faoliyatining uzluksiz yaxshilanib borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyatga ega ekan.

2.5. Iqtisodiy tahlilning korxonalarni boshqarishdagi o'rni

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor munosabatlarining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy subyekt sifatida ishtirok etadi. U o'z mulkining ko'payishidan, ko'proq foyda olishidan manfaatdor. Bunga o'z-o'zidan erishib qolmaydi. Buning uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va aql bilan ish

ko'rishi lozim. Bu esa o'z navbatida mulkining holatini, ishlatilishi va saqlanishishni hamda undan samarali foydalanishni tahlil qilishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil, eng avvalo, mulkdor uchun o'z mulkini oqilona boshqarish uchun kerak ekan.

Mulkdor o'z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to'g'ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta'minlaydi. Korxona qancha ko'p daromad qilsa, mehnat jamoasi a'zolari, shuncha ko'p mehnat haqi oladilar. Bu esa mehnat jamoasining o'zlari ishlayotgan korxona xo'jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosita mehnat jamoasi uchun ham o'z faoliyatini to'g'ri boshqarish uchun kerak ekan.

Har bir korxonaning xo'jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxona o'z mulkidan, qilgan oboroti va olgan foydasidan soliq to'laydi. Shu to'fayli davlat nomidan soliq idoralari ham korxona faoliyatini chuqur tahlil qilib borishdan manfaatdor. Demak, iqtisodiy tahlil soliq idoralari xodimlari uchun ham soliq tushumini to'g'ri boshqarish uchun kerak ekan.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy jarayon, ya'ni korxona yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati natijasidan kim manfaatdor bo'lsa, u mazkur subyekt faoliyatini o'rganishga, tahlil qilishga qiziqadi. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil investorlarga, hamkorlarga, birlashmalarga, uyushmalarga, sug'urta, bank, moliya kabi idoralariga ham kerakdir.

Odatda, kimga nima kerak bo'lsa, o'sha shu ish bilan shug'ullanadi. Ammo har bir korxonada maxsus mutasaddi shaxslar borki, ularga xo'jalikni boshqarishda u yoki bu soha topshirilgan bo'ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil bilan korxonadagi deyarli hamma mutaxassislar shug'ullanadi. Ammo hammasi ham korxona to'g'risida jamlangan batafsil axborotga ega bo'lmaydi. Hamma o'zi bajarayotgan u yoki bu soha bo'yicha axborotga ega. Shu jihatdan hamma o'zining sohasini muntazam tahlil qilib boradi. Lekin shuni e'tirof etish kerakki, xo'jalik faoliyati to'g'risida butun faoliyatni o'zida jamlagan axborotlar buxgalteriyada moliyaviy hisobotlarda to'planadi va qayta ishlanadi.

Shu tufayli korxonaning kompleks iqtisodiy tahlili bilan buxgalteriya xodimlari, bevosita bosh buxgalterlar, menejerlar ham shug'ullanadilar. Chunki unda korxonaning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlari mavjud. Ular asosan moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topganlar. Iqtisodiy tahlil uchun asosiy ma'lumot manbayi bo'lib moliyaviy, statistik va boshqa hisobotlarda ifoda etilgan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ularning kompleks tahlili bilan bosh buxgalterlar shug'ullanadi. Ammo alohida sohalari bo'yicha tahlil kimga kerak bo'lsa, o'shalar shug'ullanadilar. Tahlil tahlil qilish uchun emas, balki kerakli sohani o'rganish uchun qilinadi.

Demak, kimga nima kerak bo'lsa u shu sohani tahlil qilish bilan shug'ullanar ekan.

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilishda uning natijalarini rasmiylashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli tahlil natijalarini rasmiylashtirish, xulosa qilish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish yo'llarini ko'rsatib berish ham hozirgi kundagi muhim muammolardan biridir.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo'jalik faoliyatini to'liq ifoda etishi lozim. Shuningdek, jadvallar bitta korxonada har safar, korxonaning bo'linmalarida bir vaqtning o'zida yagona kelishilgan shaklda tuzilishi lozim. Bunday yondoshuv ko'rsatkichlarning bir-biri bilan solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Jadvallarda ko'rsatkichlarning nomi, uning qaysi davrga to'g'ri kelishi, ularning farqi, o'zgarish sur'atlari kabi ifodalar ko'rsatiladi. Jadvallar natija o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash jarayonida ham tuziladi. Bu holda jadvalning egasida ta'sir qiluvchi omillar bilan birga natija ko'rsatkichining nomi ifodalanadi. Uning kesimida esa qaysi davr natijalari tahlil qilinayotganligi, shu davrda yuz bergan o'zgarishlar va ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun hisob-kitob qilinadigan usullarning aloqadorligi ko'rsatiladi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari asosan kompyuterlarda amalga oshirilmoqda. Buning imkoniyati juda katta. Shu tufayli tahlilda amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari jadvallar bilan birgalikda turli chizmalar va diagrammalarda ham ifoda etilmoqda. Bu esa korxona xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni juda tez ilg'ash imkonini beradi. Mazkur usullar iqtisodiy tahlilning u yoki bu jihatini aniqlashda qo'llaniladi.

Masalan, chizma (grafik)lar ko'rsatkichlarining dinamikasini ifodalashda juda qulay. Korxona xo'jalik faoliyatidagi tarkibiy tuzilmalar, ularning o'zgarishi diagrammalarda ifodalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chizma va diagrammalarning qulayligi shundaki, u korxona xo'jalik faoliyati natijasini har qanday kishi uchun ham tez va tushunarli tarzda ifoda etadi. Masalan, korxonada beshta bo'linma bo'lsa, ularning o'tgan yilga nisbatan birorta ko'rsatkichning o'sishini ustunli diagramma qilinsa, eng yuqori natijaga erishganligi eng baland ustun sifatida yaqqol ko'rinib turadi. Bu har bir bo'linma xodimlarining aqliy-ruhiy kayfiyatiga ham ta'sir qiladi. Eng yuqori ustunga erishgan bo'linma xodimlarida faxrlanish, mag'rurlik hissi tug'ilsa, eng past ustunga ega bo'lgan bo'linma xodimlarida o'z jamoasi uchun istirob hissi bo'lishi mumkin. Unisi ham bunisi ham ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun kurashish tuyg'usini o'yg'otishi tabiiy. Bu ichki omillar o'ta muhim, ortiqcha mablag' talab qilmaydigan, ammo korxona xo'jalik faoliyatiga ijobiy ta'sir qilib, uni yaxshilaydigan omillardir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, islohotlarning chuqurlashuvi korxonalar o'rtasida erkin raqobat muhitini tug'dirmoqda. Bu esa o'z navbatida

korxona xo'jalik faoliyatini tezkor tarzda kundalik natijalarni o'rganib borishni taqozo qiladi. Bu ham hisob-kitoblarga kompyuterlarni qo'llash natijasida ancha osonlashadi. Har kuni ish kunining oxirisida xo'jalik faoliyatining bir kunlik natijasi qanday bo'lganligini aniqlash mumkin. Bu esa yutuq va kamchiliklarni juda tez anglash, yutuqlarni ko'paytirish, kamchiliklarni bartaraf qilishga asos bo'ladi. Tahlilning ushbu shakli boshqaruvni ham tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Kunlik natijalar har kuni jamlanib borilsa, hisobot davrining xohlagan kunida qanday natijaga erishganligini bilib olish mumkin. Masalan, bir oyning o'n oltinchi kuni qanday natijaga erishganligini kunlik hisobotni jamlab borish orqali aniqlash mumkin. Shu, 16 kuni qanday natijaga erishdik va o'tgan 16 kun mobaynida erishgan umumiy ahvolimiz qanday degan xulosani chiqarish uchun ham tegishli axborot mazkur kompyuterda mavjud bo'ladi. Bu esa korxona xo'jalik faoliyatini tezkor boshqarish, kamchiliklarni o'z vaqtida, hisobot davri tugamasdan bartaraf qilish imkonini beradi.

Agar korxonaning barcha bo'linmalarida kompyuterlar o'rnatilgan va ular yagona tarmoq (set)ga ulangan bo'lsa boshqarishda yangi usulni, ya'ni **qog'ozsiz va jonli muloqotsiz boshqarish usulini** joriy qilish mumkin. Korxona menejeri har bir bo'linmadan tegishli axborotlarni olib bir joyda umumlashtiradi va xulosa chiqaradi. Xulosa natijasida ishlab chiqarilgan chora-tadbirlar va tegishli topshiriqlarni ham kompyuter tarmog'i orqali jo'natish mumkin. Bu mutaxassis va bo'linma rahbarlarining turli majlislarga, yig'ilishlarga ketadigan vaqtini ham tejaydi.

Hisobot davri tugagach tahlil natijasi tezkor tarzda jadvallarda, chizmalarda, turli diagrammalarda tuzilib, qog'ozga chiqariladi va mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada barcha erishilgan yutuqlar bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatga olib kelganligi ko'rsatiladi. Ayniqsa yo'l qo'yilgan kamchiliklarda kim aybdorligi ochiq-oydin ko'rsatilishi lozim. Chunki bu tadbir kelajakda mazkur shaxsning shu kamchilikka yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

Iqtisodiy tahlilning natijalari bo'yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Qaror qabul qilishda birqancha mutaxassislarni, bo'linmalar rahbarlarini taklif qilib chuqur o'ylangan va puxta ishlangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

3-bob. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA METODOLOGIK ASOSLARINI TADQIQ QILISH MUAMMOLARI

3.1. Iqtisodiy tahlil metodi bo'yicha turli qarashlarning nazariy talqini

Metod qadimgi grek tilidan olingan bo'lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish hamda bilish usulidir. Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va aloqadordir.

Shu tufayli ularning qaysi jihati o'rganilishidan qat'i nazar tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar bir-biri bilan bog'liqlikda, aloqada deb qarash lozim. Bunday qarashni ta'minlash uchun ularni o'rganishga dialektik usul bilan yondoshish lozimdir. Bu esa o'z navbatida o'rganilayotgan barcha hodisa va jarayonlarni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, aloqada va doim o'zgarishda deb qarashni taqozo qiladi. Xuddi shu nazariy xulosadan kelib chiqqan holda iqtisodiy tahlil fani metodining mohiyatini ochish lozim. Ushbu fan metodining mohiyati nazariy jihatdan hamon to'g'ri hal qilingan emas. Bunga turli olimlarning har xil davrlarda turlicha yondoshganligini asos qilib olish mumkin.

Tahlil fani metodiga ta'rif berish bo'yicha olimlar bir qancha guruhlarga bo'linadilar. Ba'zi olimlar iqtisodiy tahlil metodini tadqiq qilib, ishlab chiqarish kuchlarining ishlab chiqarish munosabatlariga to'g'ri kelishi va usullarning sistemasi deb qaraydilar. Masalan, E.V. Dolgopolov «Iqtisodiy tahlil metodi bu iqtisodiyotning dinamik o'sishini, ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqarish kuchlari bilan uzviy birlikda, ularning tendensiya va qonuniyatlarini, omil va rezervlarini uzluksiz va kompleks tadqiq qilish usullari sistemasi va tomoyilidir»[1] deb ko'rsatadi. Biroq, bu ta'rifda iqtisodiy tahlil metodining o'ziga xos xususiyatlari ochilmasdan qolgan. Ma'lumki, ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlari asosan iqtisodiy nazariya fanida o'rganiladi. Lekin mazkur muallif tomonidan ana shularni iqtisodiyotning qaysi bo'g'ini yoki darajasida o'rganilishi ham ko'rsatilmagan. Xo'jalik faoliyatining tahlili, ta'kidlanganidek, iqtisodiyotning birinchi bo'g'inida, ya'ni mikroiqtisodiyot darajasida amalga oshiriladi. Shu fan metodining ta'rifida bu xususiyat, albatta, o'z ifodasini topmog'i lozim.

Ayrim adabiyotlarda iqtisodiy tahlil metodini o'ta soddalashtirib, hatto uning umumiy ta'rifi ham berilmagan. Jumladan, xo'jalik faoliyati tahlili

---

[1] *Долгополов Е.В.* и др. Экономический анализ хозяйственной деятельности социалистических предпрятия, Киев: Висшя школа, 1938.

fanning shakllanishida katta hissa qo'shgan olimlar N.R. Veysman, S.K. Tatur, V.I. Ganshtak, I.A. Lamikin kabilar xuddi shunday yo'l tutganlar. Xususan, N.R. Veysman xo'jalik faoliyati tahlili metodining elementlari qatoriga» 1) hisob ma'lumotlarini «o'qish»; 2) ushbu ma'lumotlardan korxona va tashqi bog'liqliklarni ochish uchun kompleks foydalanish; 3) ushbu bog'lanishlarni o'rganish; 4) tahlilga jalb qilingan ma'lumotlarni o'qish; o'lchash va bog'liqligini aniqlash jarayonida taqqoslarini solishtirish»[1] kabilarni kiritadi. Bular albatta tahlil metodining eng muhim qirralaridir.

Lekin uning metodini to'liq ifoda etmaydi. S.K. Tatur ham bu fanning metodini bir qancha metodlar yig'indisidan iborat deb hisoblaydi «... tahlilda quyidagi metodlardan, ya'ni iqtisodiy hodisalarni o'lchaydigan, ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydigan, shu omillar ta'sirini hisoblaydigan (agar shunday usullar ishlab chiqilgan bo'lsa), omillar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlaydigan va ularni o'lchaydigan usullardan foydalaniladi»[2]. S.K. Taturning keyingi asarlarida ham ushbu qoida saqlanib qolgan.

Haqiqatda tahlil jarayonida ushbu usullardan foydalaniladi. Lekin bu usullar ro'yxati uning umumiy ta'rifining mazmunini ochib bera olmaydi. Unga qo'shilgan, ushbu mualliflarning sanab o'tgan usullari ham tahlilda qo'llaniladigan barcha usullarni qamrab olmaydi.

Shu tufayli bu usullar ro'yxatini takomillashtirish maqsadida ba'zi olimlar ularga aniqlik kiritadilar. Xususan, V.I. Ganshtak[3] tahlilining usullariga quyidagilarni kiritishni lozim deb hisoblaydi:...» solishtirish, ko'rsatkichlarni ketma-ket ravishda joylashtirish, guruhlash, ko'rsatkichlarni tashqi omillar ta'siridan tozalash, muvozanat va indeks usullari».

U xuddi shunday ro'yxatni I.A. Lomikin[4] ham o'zining bir qancha adabiyotlarida keltiradi. Har qanday mustaqil fan o'ziga xos, o'z xususiyatlarini ifodolovchi metodining ta'rifiga ega bo'lmog'i lozim. Bu yerda keltirilgan V.I. Ganshtak. I.A. Lomikin fikrlari ham tahlil metodining mazmunini to'liq ifodalay olmaydi.

Ba'zi mualliflar (I.L. Batuxtin) xo'jalik faoliyati tahlili metodini ikki guruhga bo'ladi. Birinchisi uning umumiy dialektik metodi bo'lsa, ikkinchisi alohida metodlardir deb ko'rsatadi va bunda tahlilda, qo'llaniladigan usullar ro'yxatini keltiradi: «Solishtirish metodi, deduksiya, induksiya, bo'laklarga

---

[1] *Вейцман Н.Р.* Очерки по бухгалтерскому учети и анализу. – М: Госфиниздат, 1958.

[2] *Татур С.К.* Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий. – М.: Изд-во экономической летиратуры, 1962.

[3] *Ганштак В.И.* Экономический анализ резервов на машинастроительном предприятии. – М. Машгиз, 1960.

[4] *Ломикин. И.А.* Анализ хозяйственной деятельности колхозов и совхозов. – М.. Статистика,1975.

bo'lish, umumiylashtirish, hisob-kitob, shaxsiy kuzatish, tajriba-namuna, matematik, chiziqli va muvozanat metodlari»[1].

I.L. Batuxtin ushbu qoidani tahlilning metodini takomillashtirish deb talqin qiladi. Bu esa birinchidan, tahlil fanning metodiga ta'rif emas, ikkinchidan unda qo'llaniladigan usullarning barchasi qamrab olinmagan. Masalan, ushbu ro'yxatda keltirilgan usullardan tashqari tahlil jarayonida zanjirli almashtirish, qayta hisoblash, guruhlash, indeks, farqlash kabi yana bir qancha usullar qo'llaniladi[2]. Biroq, bu usullar I.L. Batuxtining tahlil fanining metodi deb hisoblangan usullar ro'yxatiga kirmasdan qolgan. Ammo uning keltirilgan kitobida o'zi e'tirof etmasada usullardan keng foydalangan.

Iqtisodiy tahlil metodiga bir qancha olimlar boshqacharoq yondoshadilar. Xususan, M.I. Bakanov[3] «Xo'jalik jarayonlarining shakllanishi va taraqqiyotini o'rganishga dialektik yondoshish usuli iqtisodiy tahlilning metodidir» deb ta'kidlaydi. Xuddi shunday fikrni A.D. Sheremet[4], O.R. Kmisikevich[5], I.I. Karakoz[6] kabi olimlar ham qo'llab, ushbu qisqa umumiy qoidaga aniqlik kiritish uchun shu fanning xarakterli xususiyatlariga to'xtaydilar. Xo'jalik faoliyati tahlili fanining o'ziga xos qoidasi ishlab chiqarilmog'i va bu qoidada uning xarakterli xususiyatlari aniq ko'rinib turmog'i lozim.

Bir guruh mualliflar[7] (E.P. Jarkovskaya, K.G. Romanova, S.S. Romanova) xo'jalik faoliyati tahlili fanini iqtisodiy fan sifatida qarab, uning metodining nazariy asosi dialektik materializim bilan birgalikda siyosiy-iqtisod fani ham deb uqtiradilar. Ularning ta'kidlashicha: «Xo'jalik faoliyati tahlili metodining ilmiy asosi dialektik materializm va siyosiy iqtisoddir». Bu fikrni oydinlashtirish, xo'jalik faoliyati tahlili fani metodining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun yozadilar: «Iqtisodiy tahlil hodisalarning umumiy ko'rsatkichlarini alohida qismlarga bo'lish (tahlil) va hodisalarning alohida omillarini umumlashtirish (sintez) yo'li bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganadigan dialetik metodga asoslanadi»[8].

---

[1] *Батухтин И.Л.* Совершенствевание методов анализа труда и заработной плати. — М.: Экономика,1975.

[2] Shu joyda,102,125—131, 134,143—146, 149—150 kabi betlar.

[3] Shu joyda, 102,125—131, 134,143—146, 149—150 kabi betlar.

[4] Курс анализа хозяйственной деятельности.// Под.ред.С.К. Татура и А.Д. Шерматов. — М: Экономика.1994.

[5] *Кмицикевич О.Р.* и.др. Анализ хозяйственной деятельности организаций и предприятий потребительской кооперации. — М.: Экономика 1971.

[6] *Каракоз И.И.* Совершенствование экономической работи и управления производством на промышленном предприятии — Киев: Высшая школа. 1976.

[7] *Жарковская Е.П.* и др. Анализ хозяйственной деятельности строительних организаций. (Е.П. Жарковская, К.Г. Романова, С.С. Романова. — М.: Стройидат, 1989.

[8] O'sha joyda, 11-bet.

Xuddi shunday ta'rifni D.I. Derkach[1] ham qo'llaydi. Ammo bu ta'riflarda ham tahlilning o'ziga xos xususiyatini ifodalovchi metodning mazmuni ochib berilmagan. Tahlil metodida falsafaning analiz va sintez kategoriyalari qo'llanilishini ko'rsatgan xolos. Lekin ushbu fanda falsafaning bu kategoriyalaridan tashqari yana induksiya va deduksiya, sabab va oqibat kabi birqancha kategoriyalaridan ham foydalaniladi. Demak, ushbu ta'rifni tahlil metodining mazmunini to'liq ifodalaydi deb qabul qilib bo'lmaydi.

Juda ko'p adabiyotlarda mualliflar rejali iqtisodiyot talabidan kelib chiqib barcha iqtisodiy ishlarni reja bajarilishiga qaratgan va tahlil metodining qoidasini ishlab chiqishda ham reja bajarilishini markaziy masala darajasiga ko'targan. Bunday olimlardan masalan, I.I. Poklad «Iqtisodiy tahlil metodi-korxona xo'jalik faoliyatida yoki ularning yuqori bo'g'inlarida ko'rsatkichlar rejasi bajarilishini bir butun va alohida qismlari bo'yicha solishtirish, reja bajarilishi ko'rsatkichlari darajasiga ta'sir etuvchi omillarni, ichki rezervlar miqdorini aniqlash va tahlil natijasini umumlashtirishni kompleks, o'zaro bog'liq ravishda o'rganishga aytiladi»[2] deb ta'rif beradilar. Ushbu qoida bir qarashda juda sodda, tushunarli va tahlil metodining barcha qirralarini qamrab olganday bo'ladi. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida bu qoida ham to'g'ri kelmaydi. Shu yerda ta'kidlash lozimki, har qanday fan metodining qoidasi davr yoki obyektning o'zgarishi bilan o'zgarmasligi kerak.

Hozirgi bosqichda reja bajarilishi asosiy ko'rsatkich sifatida o'z mohiyatini yo'qotdi. Tabiiyki, reja bajarilishini asos qilib olgan har qanday qoida ham mos ravishda o'z mohiyatini yo'qotadi. Rejali iqtisodiyot sharoitda rejani asos qilib olish mumkin-ku degan savolning tug'ilishi tabiiy. Ammo o'sha davrda ham tahlil metodining ta'rifini ishlab chiqishda har qanday rejadan, yuqoridan turib boshqarishdan holi holda yondoshgan mualliflar ham talaygina Jumladan, N.A. Xan iqtisodiy tahlil metodini quyidagicha ta'riflaydi. «Iqtisodiy tahlil metodi deganda ishlab chiqaruvchi kuchlardan va iqtisodiy qonunlardan foydalanish yo'llarini o'rganish yoki o'rganishga yondoshishni tushunish kerak. Bunga xo'jalik rezervlarini topish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilash uchun ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy qonunlarning tarkibiy qismlarini bo'lib ko'rish vositasida erishiladi»[3].

Bu qoida reja bajarilishi, boshqaruv harakatlarini bajarish kabi metodlarga tayanib aniq uslubiy fan sifatida yoritilgan. Bu fan metodining qoidasini ishlab chiqishda iqtisodiyotning birlamchi ekanligini, uning turli bo'g'inlari

---

[1] *Деркач Д.И.* Анализ производственно-хозяйственной деятельности предприятий строительных организаций. — М.: Финансы и статистика, 1990.

[2] *Поклад И.И.* Теорические основы экономического анализа работы предприятиий. — М: Финансы: 1969.

[3] *N.A. Xan.* Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining analizi. — T: O'qituvchi 1978.

mavjudligini inobatga olish lozim edi. Ushbu qoida mikroiqtisodiy tahlilga nisbatan makro iqtisodiy tahlil metodini ifodalash uchun ancha yaqin. Shuningdek, bu ta'rifda nazariy jihatdan ancha mavhumliklar mavjud. Bunda tahlilga xos xususiyat ochib berilmagan. Bu qoidani menejment, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabi fanlarga ham qo'llash mumkin.

Bir guruh olimlar L.I. Kravchenko, P.I. Savchiyev, V.I. Samborskiy tahlil fani metodi ta'rifini yozishda unga mustaqil fan sifatida yondoshish va uning xarakterli xususiyatlarini shu fan metodining ta'rifida ochib berishga harakat qiladilar. Lekin tahlil ta'rifini nazariy jihatdan shakllantirishda har xil nuqtayi nazardan qaraydilar. Masalan, V.A. Rayevskiy fanning metodi «moliya xo'jalik faoliyatini o'rganishga yondoshish»[1] deb uqtirsa, P.I. Savichev bu fanning «metodi uning aniq vazifalaridan kelib chiqadi»[2] deb ta'kidlaydi. V.I. Samborskiy esa» boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslashini»[3] maqsad qilib qo'ysa, L.I. Kravchenko «ish natijasini obyektiv baholash»[4] nuqtayi nazaridan kelib chiqadi.

Bu mualliflarning tahlil metodi ta'rifiga turlicha yondoshganligi sababli bitta tushunchani har qaysisi turlicha talqin qiladi. Jumladan, P.I. Savichev xo'jalik faoliyati tahlili metodiga quyidagicha ta'rif beradi: «Korxona ishi iqtisodiy tahlili metodi uning aniq vazifalaridan kelib chiqadigan va xalq xo'jaligining alohida tarmoqlari xususiyatlarini o'zida ifodalaydigan materialistik dialektika usulidir»[5]. Ushbu qoidada tahlilning metodi uning vazifalariga bo'ysundiriladi. Biroq, har qanday fanning metodi uning predmetini o'rganishga qaratilishi lozim.

Bundan tashqari, «xalq xo'jaligining alohida tarmoqlari xususiyatlarini o'zida ifodalaydigan materialistik dialektika usulidir» deyilgan. Bu jumladan P.I. Savchiyevning xo'jalik faoliyati tahlili fanining predmetidan ancha uzoqlashganligini ko'ramiz. Bu fan predmeti asosan xalq xo'jaligining boshlang'ich bo'g'ini (mikro iqtisodiyot darajasi)ni o'rganadi. Tarmoq tahlili iqtisodiy tahlilning bir turidir, xolos.

Bundan tashqari, tarmoq tahlilida ham tarmoqlarning alohida xususiyatlari o'rganilmaydi, balki shu tarmoqning ichki va tashqi imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'l-yo'riqlari ko'rib chiqiladi.

---

[1] *Раевский В.А.* Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятий (объеденений). Учебник. Под ред. В.А. Раевского. – М: Финансы и статистика, 1988.

[2] *Савичев И.И.* Экономический анализ-орудия виявления внутрихозяйственных резервов. – М: финансы, 1968.

[3] *Каркоз. И.И., Самборский В.И.* Теория экономического анализа. – Киев: Высшая школа, 1989.

[4] *Кровченко Л.И.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий торговли и общественного питания. – М: Высшая школа, 1989.

[5] *Савичев П.И.* Экономический анализ орудие выявления внутрихозяйственных резервов. – М: Финансы, 1968.

Demak, P.I. Savichevning tavsiya qilgan qoidasida xo'jalik faoliyati tahlili metodining o'ziga xos xususiyati mustaqil fan sifatida to'liq va aniq qilib yoritilmagan. Bunga yana bir isbot. Materialistik dialektika usulini bevosita tahlil qilish usuli deb qaraydi. Bu umumiy tushuncha, hamma fanga tegishli. Ammo bu fan metodi qoidasida aynan shu fanga tegishli jihatlar yoritilishi lozim edi.

Tahlil metodi shu fan pedmetini o'rganishga bog'langan bo'lishi lozim. Bu borada V.A. Rayevskiy ancha to'g'ri yondoshgan. «Korxonaning moliya xo'jalik faoliyatini o'rganishga yondoshish usulini tahlilning metodi deb tushuniladi. Moliya xo'jalik faoliyati tahlili metodi dialiteka nazariyasiga asoslanib, korxonaning faoliyatini miqdor va sifat o'rganishdir»[1] deb ko'rsatadi.

Biroq, ushbu qoidada ham xo'jalik faoliyati biroz chegaralangan. Xususan, «korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini o'rganishga yondoshish» deb ta'kidlanadi. Korxonaning xo'jalik faoliyati moliyaviy operatsiyalardan tashqari keng ma'nodagi iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik, tashkiliy kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, «dealektika nazariyasiga asoslanadi» deyilgan.

Haqiqatda tahlil metodi dialektika nazariyasiga asoslanadi va korxonaning faoliyatini o'rganishda ko'rsatkichlar sistemasidan foydalanadi. Lekin V.A. Rayevskiy faqat «miqdor va sifat» ko'rsatkichlari bilan chegaralanib qoladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda bulardan tashqari yana o'rtacha, nisbiy, reja, me'yor kabi ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi.

Demak, xo'jalik faoliyati tahlili metodi takomillashishni talab qiladi, chunki amalga oshiriladigan ishlar biror maqsadga qaratilmog'i lozim. Ammo yuqorida ta'kidlangan qoidalarda hech qanday maqsad ko'zda tutilmagan.

Bu borada V.I. Samborskiy tavsiya qilgan qoida ancha diqqatga sazovor. Bu olimning ta'kidlashicha: «Sotsialistik korxonalar ishi iqtisodiy tahlilning metodi boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslash maqsadida ular faoliyatini ko'rsatkichlar sistemasi orqali o'rganish uchun qo'llaniladigan usul va uslublar majmuidir»[2].

Haqiqatda bu qoidada ko'rsatkichlar sistemasidan foydalanish tavsiya qilinadi, tahlilning nima maqsadda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Yana e'tiborga molik tomoni shundaki, xo'jalik faoliyatini o'rganishda bir qancha usul va uslublardan foydalaniladi. Aynan ana shu uslublar majmuasi tahlil metodining qoidasiga kiritilishi, uning mazmunini yanada to'laroq ifodalash imkonini beradi. Biroq ushbu qoidada faqat sotsialistik, ya'ni ijtimoiy mulkka asoslangan korxonalar faoliyati inobatga olingan hamda yuqoridan turib boshqaruv usuliga moslashtirish ko'zda tutilgan. Bozor iqtisodiyoti ushbu

---

[1] Анализ, финансово-хозяйственной деятельности предприятий и (объединений): Учебник (Под.ред. В.А. Раевский). – М: Финансы и статистика,1988.

[2] *Каркоз.И.И. Самборский В.И.* Теория экономического анализа. – Киев: Высшая школа, 1989.

tushunchalarni inkor qilib, bularga yangicha yondashishni talab qilmoqda. Xususan, endilikda xo'jalik faoliyati tahlilining obyekti faqat sotsialistik korxonalar bo'lmasdan, balki ko'p mulkchilikka asoslangan korxonalardir. Boshqaruvda esa yuqoridan turib emas, bevosita iqtisodiy jarayon sodir bo'layotgan obyektda amalga oshirish lozimligi ko'zda tutilmoqda va shunga amal qilinmoqda.

Ammo sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlari sharoitida ham xo'jalik faoliyati tahlili fanining metodiga ta'rif berishda qaysi tuzum yoki qaysi mulk shaklidan qat'i nazar amal qilinishi mumkinligini ko'zda tutgan holda, to'g'ri yondoshgan mualliflar ham yo'q emas. Jumladan, L.I. Karvchenko tahlil fanining metodiga quyidagicha ta'rif beradi: «Xo'jalik faoliyati tahlili metodi – iqtisodiy jarayonlarni talqin qilishga dialektik yondoshish, ish natijalarini obyektiv baholash, xo'jalik yuritishning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va safarbar qilish, iqtisodiyotni optimal ravishda boshqarish qarorlarini qabul qilish uchun tegishli ma'lumotlar yetkazib berish maqsadida korxona uning bo'limlari va birlashmalari hamda xalq xo'jaligining boshqa bo'limlari ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa faoliyatlarini bir-biriga bog'liq holda muntazam ravishda kompleks o'rganishdir»[1].

Ushbu ta'rifda korxona va birlashmalarning mulk shakli, reja bajarilishi, yuqoridan nazorat qilinishi kabi masalalar ifoda etilmasdan tahlil fani metodining mazmuni kengroq yoritilgan. Biroq, shuni e'tirof qilish kerakki, ushbu ta'rifda tahlilning nima maqsadda amalga oshirilishi yaxshi yoritilishiga qaramasdan, uning qanday usullar bilan va qachon amalga oshirilishi ko'rsatilmagan. Demak, tahlil fani metodining ta'rifida bu masalalar o'z ifodasini topmog'i lozim.

Butun umrini, ijodini xo'jalik faoliyati tahlili fanining shakllanishi va rivojlanishiga bag'ishlagan olimlardan biri S.B. Baringols iqtisodiy tahlil fanining nazariy jihatdan erishgan yutuqlarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, xo'jalik faoliyati tahlili metodi to'g'risida quyidagicha xulosaga keladi: «Tahlil metodi xo'jalikda rejalarning bajarilishiga va ularning dinamikasiga ta'sir etuvchi alohida omillarni reja, hisob, hisobot va boshqa ma'lumotlar manbayida ifodalangan ko'rsatkichlarni maxsus usullar orqali hisoblash yo'li bilan sistemali ravishda kompleks o'rganish, aniqlash va umumlashtirish usulidir»[2].

Haqiqatda, ushbu qoidada tahlil metodining mazmuni o'z ifodasini topganday, chunki xo'jalik faoliyatining barcha qirralari inobatga olingan, uning natijalari ma'lumotlar manbayida ifodalanishi ko'zda tutilgan va ularni o'rganish, aniqlash va umumlashtirishda qo'llaniladigan usullar ham ta'kidlangan. Ammo ushbu qoidada barcha tahliliy ishlar qaysi maqsad uchun

---

[1] *Карвченко Л.И.* Анализ хозяйственной деятельности предприятий торговли и общественного питания.– М.: Высшая школа. 1989.

[2] *Баринголъц С.Б.* Экономической анализ хозяйственной деятельности на современном этапе развития. – М.: Высшая школа, 1987.

amalga oshirilishi, ularning nimaga asoslanishi, qanaqa ko'rsatkichlarda ifodalanishi ko'zda tutilmagan.

Bu kamchiliklar A.I. Merkushev va A.A. Merkushevlarning kitobida keltirilgan qoidada ancha bartaraf qilingan. Bu olimlar fikricha: «Tahlil metodi o'z predmetini har tomonlama o'rganish, bilish, umumlashtirish, aniqlash uchun qo'llaniladigan usul va uslublar sistemasidan foydalanish, qonunlar, ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik va xo'jalikdagi o'zgarishlarga ta'sir etuvchi obyektiv sabab (omillar)larni aniqlash, foydalanilmay qolgan ichki imkoniyat (rezerv)larni ochib berish va mavjud resurslardan xalq xo'jalik rejalarini bajarish maqsadida oqilona foydalanish, iqtisodiy tejamkorlikka amal qilish orqali uning rentabelligini oshirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini yanada o'stirishdan iboratdir»[1].

Ammo ushbu qoidada fanning predmeti va vazifalari ham uning metodi sifatida qaralmoqda. Xususan, obyektiv va subyektiv omillar, tahlilning predmetiga kirsa, ularning natija o'zgarishiga ta'sirini hisoblash, iqtisodiy tejamkorlikka amal qilish, rentabellikni oshirish, ijtimoiy ishlab chiqarishni yanada o'stirish kabilar uning vazifasiga kiradi. Shu tufayli bu boradagi ilmiy kuzatuvlar davom etmoqda. Bu ayniqsa bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan erkin iqtisodiyot sharoitda juda muhimdir.

Tahlil metodining shunday qoidasini yaratish lozimki, u obyektning yoki tuzumning o'zgarishi bilan o'zgarmaydigan bo'lsin, chunki har qanday fan, xususan xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani ham qaysi tuzumdan qat'i nazar o'zining nazariy jihatdan asoslangan metodiga ega bo'lishi lozim.

Bundan kelib chiqib, uzoq yillar o'tkazgan tadqiqotlar natijasida xo'jalik faoliyati tahlili metodining qoidasi (ta'rif)ini ishlab chiqishda uning birqancha talablarga javob berishi lozim degan xulosaga keldik. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) har qanday fan metodining nazariy asosi bo'lishi kerak;

2) unda nima o'rganilishi va uning qayerda ifodalanishi ko'rinib turmog'i lozim;

3) qayerni, qaysi obyektni va qaysi davrni o'z ichiga olishini ifodalashi darkor;

4) nima maqsadda amalga oshirilishi ko'rinib turishi kerak;

5) shu maqsadni amalga oshirish uchun nimalar qilinishi alohida ta'kidlanishi lozim.

Ana shu talabga javob beradigan qoida, xo'jalik faoliyati tahlili metodining mazmunini to'liq ifoda qiladi. Bu nazariy xulosadan kelib chiqib, iqtisodiy tahlil fanining metodiga quyidagicha ta'rif beriladi. «Iqtisodiy tahlilning metodi dialektik metodga asoslangan bo'lib, uning predmetini mokon va zamonda, axborotlar manbayida ifodalangan ko'rsatkichlar sistemasi asosida

---

[1] *Меркушев А.И., Меркушев А.А.* Анализ хозяйственной деятельности снабженческо сбитовых организаций. — М.: Винансы и статистика, 1984.

har tomonlama kompleks o'rganish, mavjud ichki va tashqi imkoniyat (rezerv)larni aniqlash, obyektning samaradorligini oshirish, uning iqtisodiy qudratini yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, boshqarishni takomillashtirish maqsadida qo'llaniladigan usullar majmuidan iboratdir».

Ushbu ta'rif iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilga qo'yiladigan barcha nazariy va amaliy talablarga javob beradi.

3.2. Materialistik dialektika iqtisodiy tahlil metodining asosi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy tahlilning metodi va metodologiyasini farqlash lozim. ***Metod*** deganda asosan shu fanning predmetini o'rganish usuli tushuniladi. ***Metodologiya*** deganda esa sodda qilib aytilganda , shu fanning predmetini o'rgatish usuli, o'rgatishda qo'llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi tushuniladi. Iqtisodiy tahlilning metodologik asosi, ya'ni uni o'rgatishda qo'llaniladigan yondashuvlar turli yo'nalishda bo'lishi taabiiy. Shu tufayli ularni, eng avvalo, to'g'ri tasniflash lozim. Ularni o'rganishda qanday yondashishiga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin:

1) o'rganilayotgan obyektga dialektika nuqtayi nazaridan yondashish.

2) o'rganilayotgan obyektga sistemali uzluksizlikni ta'minlagan holda yondashish.

Birinchi yondashish bo'yicha tahlil qilinsa, barcha iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, harakatda va doim o'zgarishda deb qarash lozim bo'ladi. Bundan kelib chiqib bo'lsa shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan ko'rsatkichlar ham bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda va o'zgarishda deb qaraladi. Bu yondashuv, ayniqsa, natijaviy ko'rsatkichlarga omillar ta'sirini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Ikkinchi yondashuv bo'yicha tahlil qilinganda o'rganilayotgan obyektni murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o'rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan hodisalarga uzluksiz ravishda muntazam ravishda yondashish lozimligini taqozo qiladi. Bunga o'rganilayotgan obyektni detallashtirish, sistemalashtirish (tartiblashtirish) va umumlashtirish orqali erishish mumkin.

3.3. Iqtisodiy tahlil metodologiyasining tavsifi

Induksiya va deduksiya kategoriyalari iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kategoriyalar iqtisodiy tahlilning ketma-ketligini ta'minlaydi. Masalan, induksiya deganda o'rganilayotgan obyektning xususiylikdan umumiylikka qarab o'rganilishi tushuniladi. Bunga misol qilib mehnat unimdorligi tahlilini olish mumkin.

Unga vaqt nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, uni bir soatlik mehnat unimdorligi, bir kunlik, o'n kunlik, bir oylik, bir choralik, yarim yillik, to'qqiz oylik, bir yillik mehnat unimdorligi darajasigacha umumlashtirish mumkin. Yoki aynan ushbu ko'rsatkichni makon nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, oldin bir kishining mehnat unimdorligi, bir bo'linmaning mehnat unimdorligi va butun mehnat jamoasining umumiy mehnat unimdorligi darajasigacha o'rganish mumkin.

Deduksiya metodida tahlil qilinayotgan obyekt umumiylikdan xususiylik sari, ya'ni umumiy ko'rsatkichlardan xususiy (kichik) ko'rsatkichlarga qarab o'rganish tushuniladi. Bu usulga misol qilib birlashmada foyda rejasining bajarilishini keltirish mumkin. Ushbu ko'rsatkich oldin butun birlashma bo'yicha o'rganiladi, so'ngra uning alohida korxona (firma)lari bo'yicha, ularning alohida bo'linmalari bo'yicha ketma-ketlikda o'rganilib, umumiy natijaga qaysi bo'g'in va bo'linmalarning ijobiy yoki salbiy ta'sir qilganligi to'g'risida xulosa qilinadi.

Makon va zamon kategoriyalari ham iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jarayonlar makonda (xo'jalik yurituvchi subyektda) ma'lum bir zamon doirasida (vaqt mobaynida) sodir bo'ladi. Shu tufayli zamonning o'tishi bilan makondagi natija o'zgaradi va uning teskarisi, ya'ni makonning o'zgarishi bilan zamon o'tgandan keyin natija boshqacha bo'lishi mumkin.

Masalan, makonga korxonalarni, ish joylarini, firma kabi xo'jalik yurituvchi subyektlarni misol qilib keltirish mumkin. Bular tahlilining obyekti bo'ladi. Zamon deganda esa ularning ma'lum bir hisobot davri tushuniladi. Makonda sodir bo'lgan jarayonlar ma'lum bir hisobot davri (zamon) o'tgach jamlanadi va umumlashtiriladi. Bu ham shu hisobot davrini tahlil qilish uchun ma'lumot manbayi bo'lib hisoblanadi.

Analiz va sintez. (Tahlil va umulashtirish) kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Tahlil deganda bir butun yaxlit predmetni alohida bo'laklarga bo'lib o'rganish tushuniladi. Umumlashtirish (sintez)dan esa o'rganilayotgan obyekt to'g'risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalaniladi. Unda obyektning barcha bo'laklari bo'yicha chiqarilgan xulosalar umumlashtiriladi.

O'rganilayotgan obyekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yaxlit va aniq xulosaga kelishi uchun u tahlil qilinadi va barcha xulosalar umumlashtiriladi.Tahlil bor joyda umumlashtirish, umumlashtirish uchun esa tahlil qilish lozim. Shu tufayli ushbu kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda qaraladi. Ammo shuni e'tirof etish lozimki, tahlilning turi juda ko'p. U tabiatda, jamiyatda va inson tafakkurida sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganadi. Biz o'rganadigan tahlil iqtisodiy tahlilning faqat mikroiqtisod darajasiga mansub xolos. Demak, ko'rinib turibdiki, tahlil keng ma'noda qaralar ekan. Lekin bozorli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil tahlillar tizimida muhim o'rin egallaydi.

Sabab va oqibat kategoriyasi ham bevosita iqtisodiy tahlilning metodologik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan birorta ko'rsatkich natija ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak oqibatdir. Ammo shu oqibat o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi.

Uning zamirida birqancha sabablar bor. Bu sabablarni iqtisodiy tahlilda omillar deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (oqibat) birqancha omillarga, ya'ni xodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unimdorligi, qo'llanilayotgan texnalogik jarayoni, xomashyoning o'z vaqtida sifatli ta'minoti kabi omil (sabab)larga bog'liq.

Sabab oqibatga olib kelganidek, omillar ta'siri ham biror natijaga olib keladi. Ijobiy sabab yaxshi oqibat, ijobiy omil yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta'siri natijaning pasayishiga olib keladi.

Shakl va mazmun kategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, iqtisodiy tahlilga aloqador. Shaklning o'zgarishi mazmun o'zgarishiga, mazmunning o'zgarishi shakl o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog'liqlik juda yorqin nomoyon bo'ladi. Masalan, ayollar sumkasining shakli chiroyli va chidamli bo'lishi uchun unga qimmatbaho materiallar, turli bezaklar ishlatiladi. Natijada uning mazmuni chidamliligi, narxining nisbatan qimatliligi bilan o'zgaradi. Yoki oddiy material o'rniga sifatli material ishlatib, uning mazmunini boyitish kerak bo'lsa, albatta shakli ham o'zgaradi. Shu jihatdan iqtisodiy tahlilda shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy dialektik aloqada bo'lganligi bilan ham metodologik asos sifatida qo'llaniladi. Masalan, biror birlashma tarkibida korxonalar soni uning shaklini tashkil qilsa, ularning nima bilan shug'ullanishi, qanday texnologiya ishlatilishi, qanaqa kadrlar bilan ta'minlanganligi kabi jihatlar uning mazmunini tashkil qiladi.

Miqdor va sifat kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilda ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko'rsatkichlarda ifodalashda keng qo'llaniladi. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Masalan, korxonada band bo'lgan xodimlar soni miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, ularning mehnat unimdorligi sifat ko'rsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy ko'rsatkich. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, rentabellik darajasi uning sifat ko'rsatkichidir. Yana boshqa bir misol. Jamoa xo'jaligining bir yilda yetishtirgan paxtasi 50,0 ming tonnani tashkil qildi. Bu miqdor ko'rsatkich. Uning 60 foizi birinchi nav, 20 foizi ikkinchi, 15 foizi uchinchi va 5 foizi to'rtinchi navga topshirildi. Bular paxtaning sifat ko'rsatkichlari. Yoki yana shu paxtadan sof tolaning chiqish miqdori 35 foizni tashkil qiladi. Bu ham uning sifat ko'rsatkichlariga misol bo'ladi.

Falsafiy kategoriyalar hayot inikosi. Iqtisodiy jarayonlar esa ishtimoiy hayotning bir bo'lagidir. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga bog'ishlangan iqtisodiy tahlil shu falsafiy kategoriyalarga asoslanadi.

4-bob. IQTISODIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN AN'ANAVIY VA IQTISODIY MATEMATIK USULLAR

4.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullar

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarni har qanday tarmoqda qo'llash mumkin. Biz uni qurilish tashkilotlari misolida qarab chiqamiz. Ushbu sohada ham boshqa tarmoqlarda qo'llaniladigan usullardan unchalik farq qilmaydi. Ammo ulardan foydalanishda qurilishga mos ko'rsatkichlar ishlatiladi, xolos. Masalan, natija ko'rsatkichi sanoatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bo'lsa, savdoda tovar oboroti, qurilish tashkilotlarida esa qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmi va h.k.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy tahlilda turli usullardan foydalaniladi. Bu haqda iqtisodiy adabiyotlarda turli qarashlar mavjud jumladan, G.V.Saviskaya iqtisodiy tahlilda 7 ta usuldan foydalanishni tavsiya qiladi. Bularga: zanjirli almashtirish, indeks usuli, farqli usul, nisbiy ko'rsatkichli usul, teng taqsimlash va hissadorlik usuli, integral usul, logoriflash usullarini kiritishni tavsiya qilgan[1]. N.V. Voytolovskiy, A.P. Kalinina va I.I. Mazurovalar tahriri ostida tayyorlangan darslikda ham 7 ta usuldan foydalanish tavsiya qilingan. Ammo ularning tarkibi oldingilarga nisbatan qisman farq qiladi. Masalan, ushbu mualliflar iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarga: iqtisodiy-matematik modellashtirish, taqqoslash usuli, elliminirlash usuli, indeks usuli, zanjirli almashtirish, integral usul, ajratib ta'sir etuvchi omillarni aniqlash usullarini kiritgan[2]. Ushbu yondoshuvning kamchiligi shundan iboratki, iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarni an'anaviy va iqtisodiy-matematik usullarga ajratmaydi va iqtisodiy-matematik usullarga bitta usul sifatida beradi. Haqiqatda esa ushbu guruh usullar o'z ichiga bir qancha turlarni qamrab oladi[3].

Olimlardan V.G. Kogdenko iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarga 10 ta usulni kiritgan. Bular jumlasiga: taqqoslash usuli, gorizontal tahlil, vertikal tahlil, koeffitsientlar usuli, muvozanat usuli, omilli tahlil usuli, ekspertlarning baholash usuli, korrelyasiya-regressiya tahlili usuli, o'rinlarni jamlash usuli, vaziyatli tahlil va prognozlash usullarini kiritishni tavsiya

---

[1] *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учеб. пособие. – Минск ООО «Новое знание» 2000.

[2] Комплексный экономический анализ предприятия / Под ред. Н.В. Войтоловского, А.П. Калининой, И.И. Мазуровой. – СПб.: Питер, 2009.

[3] Masalan, A.V. Vaxabov, A.T. Ibrohimov va H.F. Eshonqulovlar o'zlarining darsligida 6 ta usulni keltiradi va davomi borligini ta'kidlaydi: Vahabov A., Ibrohimov A., Ishanqulov H. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: Sharq, 2005.

qiladilar[1]. Ushbu olimning qarashlarida ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, ushbu ro'yxatga kiritilgan gorizontal tahlil va vertikal tahlillar tahlilning usullari emas, balki turlariga kiradi. Koeffitsiyentlar usuli tahlil usuli emas, balki ko'rsatkichlarni xarakterlashda qo'llaniladigan o'lchov birliklaridan biri. Ishda korrelyasiya-regressiya tahlili usulini usul sifatida qarab prognozlashni ham alohida usul deb ko'rsatilgan. Haqiqatda esa, korrelyasiya-regressiya tahlili usuli bilan prognozlashni amalga oshirish mumkin. Shuningdek, ushbu qarashda ham tahlil usullarida an'anaviy faqat tahlilga xos usullar ajratib ko'rsatilmagan. Bir guruh mualliflar V.R. Bank, S.V. Bank, A.V. Taraskinalar[2] ham tahlil usullariga 17 ta usul borligini e'tirof etadilar. Bular jumlasiga funksional-qiymat tahlili usuli, SWOT tahlil usuli, «qisqa joyini» aniqlash usuli, ekspert usuli, evristik usul, ruhiy faollashtirish usuli, sifatiy usul, maqdoriy usul, indeks usuli, ajratib ta'sir etuvchi omillarni aniqlash usullarini, zanjirli almashtirish usuli, farqli usul, matematik usullar, nisbiy ko'rsatkichli usul, moliyaviy holat tahlili usuli, gorizontal tahlil, trendli tahlil usullarini kiritishni tavsiya qilgan.

Ushbu guruhlarga kiritilgan usullarning bir qismi iqtisodiy tahlilning turlari va shakllariga (funksional-qiymat tahlili usuli, SWOT tahlil usuli, moliyaviy holat tahlili usuli, gorizontal tahlil, trendli tahlil usullari) kirsa, bir qismi uning an'anaviy usullariga (ruhiy faollashtirish usuli, sifatiy usul, maqdoriy usul, matematik usullar) umuman dahli yo'q.

Shuni e'tirof etish kerakki, iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarning asosiy vazifasi natija o'zgarishiga alohida omillarning ta'sirini hisoblash imkonini barishi kerak. Uning usullarini shu nuqtayi nazardan baholash maqsadga muvofiq. Xuddi shunday yondashuv M.Q. Pardayevning asarlarida uchratiladi[3]. Muallifning 2001-yilda nashr qilingan darsligida iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullarga 9 ta usulni kiritishni tavsiya qilgan. Bular jumlasiga: solishtirish usuli, muvozanat usuli, qayta hisoblash usuli, zanjirli almashtirish usuli, nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli, indeks usuli, farqli usul, integral usul, kichik sonladan foydalanish usullarini kiritishni tavsiya qilagan[4].

Ushbu usullarning hammasi natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini hisoblashga qaratilgan. Ammo yuqoridagi talabdan kelib chiqadigan bo'lsak,

---

[1] *Когденко В.Г.* Экономический анализ. Учеб. Пособие. – М.: ЮНИТИ. ДАНА, 2009.

[2] *Банк В.Р., Банк С.В., Тараскина А.В.* Финансовый анализ: учеб. Пособие. – М.: Проспект, 2009.

[3] *M.K. Pardayev.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. Samarqand. "Zarafshon" nashriyoti, 2001. M.K. Pardayev, B.I. Isroilov. Iqtisodiy tahlil. 1-qism. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2001. M.K. Pardayev, I.T. Abdukarimov, B.I. Isroilov. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: Mehnat, 2004.

[4] *M.K. Pardayev.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. Samarqand. «Zarafshon» nashriyoti, 2001.

solishtirish usulini uning an'anaviy usullariga kiritishga hojat yo'q. Ayrim tahlilga oid adabiyotlarda alohida usullarga to'xtalmagan. Masalan, S.V. Goliskayaning[1] kitobida bu haqda umuman eslatilgan emas.

Oxirgi paytlarda tahlilga oid nashr qilingan adabiyotlarni nazariy jihatdan o'rganib shunday xulosaga kelishi mumkin, qurilish tashkilotlari uchun iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullarga 9 ta usul kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular 4.1-rasmda o'z aksini topgan.

Ushbu usullarning har birini qo'llanilishini nazariy jihatdan qarab chiqiladi. Bulardan biri muvozanat usulidir.

Muvozanat usulida ko'rsatkichlarning muvozanati saqlangan bo'lishi lozim. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Yb + Ich = A + Tch + Yo.$$

Ushbu formuladan bizga kerak ko'rsatkichni natija sifatida qabul qilib olish mumkin. U holda qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmi (A) quyidagilarga teng bo'ladi:

$$A = Yb + Ich - Tch - Yo.$$

Bunda:

Yb – yil boshidagi qurilish-materiallari qoldig'i;



4.1-rasm. **Qurilish tashkilotlarida iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar tizimi.**

[1] *Галицкая С.В.* Финансовый менеджмент. Финансовый анализ. Финансы предприятий: учебное пособие. – М.: Эксмо, 2008.

Ich – hisobot davrida bajarilgan qurilish-materiallarining hajmi;

Tch – hisobot davri davomida turli chiqimlar (yaroqsiz qurilish materiallari, singan, chirigan materiallar kabilar);

Yo – yil oxiridagi qurilish-materiallari qoldig'i.

Ushbu formulaga asosan natija ko'rsatkichining o'zgarishi to'rtta omillar ta'siriga bog'liq. Ularning ta'sirini aniqlash uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin (4.1-jadval).

4.1-jadval

Muvozanat usulidan foydalanib natija ko'rsatkichining o'zgarishiga alohida to'rtta omilning ta'sirini aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A=Yb_r + Ich_r - Tch_r - Yo_r$
Natijaning o'zgarishiga birinchi omil ta'siri (ΔA_n)	$\pm\Delta Ayb = Yb_x - Yb_r$
Natijaning o'zgarishiga ikkinchi omil ta'siri (ΔA_d)	$\pm\Delta Aich = Ich_x - Ich_r$
Natijaning o'zgarishiga uchinchi omil ta'siri (ΔA_g)	$\pm\Delta Atch = Tch_x - Tch_r$
Natijaning o'zgarishiga to'rtinchi omil ta'siri (ΔA_z)	$\pm\Delta Ayo = Yo_x - Yo_r$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta Ayb \pm \Delta Aich \pm \Delta Atch \pm \Delta Ayo$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashda qo'llaniladigan qayta hisoblash usulining qo'llanilishini ko'rsatib berish uchun natija o'zgarishining ikkita omil bilan bog'liqligida qarab chiqamz. Buning uchun qurilish-montaj ishlarining hajmi (*A*) quruvchilar soni (*n*) va mehnat unumdorligining (*d*) ko'paytmasiga tengligini ifodalovchi formuladan foydalaniladi:

$$A = n \cdot d.$$

Natija o'zgarishiga shu ikkita omilning ta'sirini qayta hisoblash usuli bilan aniqlash uchun 4.2-jadvalni tavsiya qilamiz.

Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashda qo'llaniladigan qayta hisoblash usul ham natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bo'lganda va ularning soni ikkitadan ko'p bo'lmagan taqdirda qo'llanilishi mumkin. Natija o'zgarishiga ikkita omil ta'sir qilganda va ular o'rtasidagi bog'liqlik kasirli bo'lgandagi bog'liqlik:

$$A = n/d \cdot 100.$$

4.2-jadval

Natija o'zgarishiga ikkita omilning ta'sirini qayta hisoblash usuli bilan aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 / d_0$
Natijaning qayta hisoblangan miqdori (Aqh)	$Aqh = n_1 / d_0$
Natijaning haqiqiy miqdori (Ah)	$A_1 = n_1 / d_1$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (ΔA_n)	$\Delta An = Aqh - A_0 = (n_1 / d_0) - (n_0 / d_0)$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri (ΔA_d)	$\Delta Ad = A_1 - Aqh = (n_1 / d_1) - (n_1 / d_0)$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Bunda:

A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotlarida aktivlar rentabellik darajasi;

n – qurilish tashkilotining sof foydasi;

d – qurilish tashkilotida aktivlarning o'rtacha yillik qiymati.

Ushbu formula bo'yicha natija o'zgarishiga alohida omillar ta'sirining yechimini 4.3-jadvalda ko'rish mumkin.

4.3-jadval

Natija o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini qayti hisoblash usuli bilan aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0$
Natijaning qayta hisoblangan miqdori (Aqh)	$A_{qh} = n_1 \cdot d_0$
Natijaning haqiqiy miqdori (Ah)	$A_1 = n_1 \cdot d_1$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (ΔA_n)	$\Delta An = Aqh - A_0 = (n_1 \cdot d_0) - (n_0 \cdot d_0)$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri (ΔA_d)	$\Delta Ad = A_1 - Aqh = (n_1 \cdot d_1) - (n_1 \cdot d_0)$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Iqtisodiy tahlilda juda ko'p va keng qo'llaniladigan an'anaviy usullardan biri ***zanjirli almashtirish usulidir***. Ushbu usul ham natija o'zgarishiga uchta va undan ko'p omillar ta'sir qilgan paytda va ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lganda qo'llaniladi. Natijaning to'rtta omil bilan funksional bog'liqligi va ular o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytiruv bo'lgandagi holatni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$A = n \cdot d \cdot g \cdot z.$$

Bunda:

A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotining bajargan qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmi;

n – qurilish tashkilotida band bo'lgan xodimlar soni;

d – qurilish tashkilotida ish haqi samaradorligi;

g – bir ish kuniga to'g'ri keladigan ish haqi;

z – bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqi.

Ushbu mehnat ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillarning qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmiga ta'sirini aniqlash usuli 4.4-jadvalda keltirilgan.

4.4-jadval

Mehnat ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillarning qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
A ning birinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_n)	$A_n = n_1 \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
Birinchi omil ta'siri (ΔA_n)	$\Delta A_n = A_n - A_0$
A ning ikkinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_d)	$A_n = n_1 \cdot d_1 \cdot g_0 \cdot z_0$
Ikkinchi omil ta'siri (ΔA_d)	$\Delta A_d = A_d - A_n$
A ning uchinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_g)	$A_g = n_1 \cdot d_1 \cdot g_1 \cdot z_0$
Uchinchi omil ta'siri(ΔA_g)	$\Delta A_g = A_g - A_d$
A ning to'rtinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_z)	$A_z = n_1 \cdot d_1 \cdot g_1 \cdot z_1$
To'rtinchi omil ta'siri (ΔA_z)	$\Delta A_z = A_z - A_g$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d \pm \Delta A_g \pm \Delta A_z$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Yuqorida zanjirli almashtirish usulini natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bo'lgandagi holati ko'rib chiqildi. Ushbu usul natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik kasirli bo'lganda ham qo'llaniladi.

Bunga quyidagi bog'liqlikni misol tariqasida keltirishi mumkin. Natija o'zgarishining uchta omil bilan bog'liqligi kasirli bo'lganda:

$$A = \frac{n}{d + g}.$$

Bunda:

A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotlarida ishlab chiqarish fondlari rentabelligi;

n – sof foyda summasi;

d – asosiy vositalarning o'rtacha qiymati;

g – aylanma mablag'lar (joriy aktivlar)ning o'rtacha qiymati.

Natija o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini zanjirli almashtirish usulini qo'llagan holda aniqlanish yo'llarini 4.5-jadvalda keltirilgan.

Zanjirli almashtirish usuli ko'p hollarda qo'llaniladi. Navbatdagi holat natija o'zgarishiga to'rtta kasirli omillar ta'sir qilgandagi va turli arifmetik amallar qo'llanilgandagi bog'liqlik paytida qo'llanilishi keltirilgan.

Bu quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$A = \frac{n \cdot e}{d + g}.$$

Bunda:

A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotining ishlab chiqarish fondlari samaradorligi;

4.5-jadval

Natija o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini zanjirli almashtirish usulini qo'llagan holda aniqlanish

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = \frac{n_0}{d_0 - g_0}$
A ning birinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_n)	$A_n = \frac{n_1}{d_0 + g_0}$
Birinchi omil ta'siri (ΔA_n)	$\Delta A_n = A_n - A_0 = \frac{n_1}{d_0 + g_0} - \frac{n_0}{d_0 + g_0}$
A ning ikkinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_d)	$A_d = \frac{n_1}{d_1 - g_0}$

4.8-jadval

Natija ko'rsatkichi o'zgarishiga to'rtta omilning ta'sirini indeks usuli bilan aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
Natijaning birinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_n)	$A_n = n_1 \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
Birinchi omil ta'siri indeksda (I_{An})	$I_{An} = A_n / A_0$
Birinchi omil ta'siri mutlaq miqdorda (ΔA_n)	$I_{An} = A_n - A_0$
Natijaning ikkinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_d)	$A_n = n_1 \cdot d_1 \cdot g_0 \cdot z_0$
Ikkinchi omil ta'siri indeksda (I_{Ad})	$I_{Ad} = A_d / A_n$
Ikkinchi omil ta'siri mutlaq miqdorda	$\Delta A_d = A_d - A_n$
Natijaning uchinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_g)	$A_g = n_1 \cdot d_1 \cdot g_1 \cdot z_0$
Uchinchi omil ta'siri indeksda (ΔA_g)	$I_{Ag} = A_g / A_d$
Uchinchi omil mutlaq miqdorda (A_g)	$\Delta A_g = A_g - A_d$
Natijaning to'rtinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdori (A_z)	$A_z = n_1 \cdot d_1 \cdot g_1 \cdot z_1$
To'rtinchi omil ta'siri indeksda (I_{Az})	$I_{Az} = A_z / A_g$
To'rtinchi omil ta'siri mutlaq miqdorda (ΔA_z)	$\Delta A_z = A_z - A_g$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = I_{An1} \cdot I_{Ad} \cdot I_{Ag} \cdot I_{Az}$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 / A_0$

Ushbu formulaga asosan natija ko'rsatkichining o'zgarishiga to'rtta omilning ta'sirini individual indeksni qo'llab yechish yo'lini ko'rib chiqamiz (4.9-jadval).

4.9-jadval

Natija o'zgarishiga bar qancha omillar ta'sirining individual indeksni qo'llab yechish usuli

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$I_a = i_n \cdot i_d \cdot i_g \cdot i_z$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (ΔA_n)	$\Delta A_r = (A_z \cdot i_n) - A_0$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri (ΔA_d)	$\Delta A_d = (A \cdot i_n \cdot i_d) - (A_0 \cdot i_n)$
Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri (ΔA_g)	$\Delta A_g = (A_0 \cdot i_n \cdot i_d \cdot i_g) - (A_0 \cdot i_n \cdot i_d)$
Natija o'zgarishiga to'rtinchi omilning ta'siri (ΔA_z)	$\Delta A_z = (A_0 \cdot i_n \cdot i_d \cdot i_g \cdot i_z) - (A_0 \cdot i_n \cdot i_d \cdot i_g)$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = A_n \pm A_d \pm A_g \pm A_z$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladigan usullardan biri farqli usuldir. Ushbu usul natija bilan omillar o'rtasidgi bog'liqlik miqdori mutlaq bo'lganda ham, nisbiy o'lcham paytida ham qo'llaniladi. Natija o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar miqdori mutlaq bo'lganda va ular o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalanganda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$A = n \cdot d \cdot g \cdot z.$$

Bunda:

A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkiloti tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi;

p – qurilish tashkilotlari aylanma mablag'lari o'rtacha yillik qiymati;

d – qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar samaradorligi;

g – qurilish materiallarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi;

z – qurilish materiallarining umumiy aylanma mablag'lardagi hissasi.

Ushbu omillarning natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkiloti tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmiga ta'sirini farqli usul bilan aniqlash uchun 4.10-jadvalda keltirilgan hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, farqli usuldan natija o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar miqdori nisbiy bo'lganda ham foydalaniladi. Natijaning to'rtta omil bilan funksional bog'liqligining formulasi:

4.10-jadval

Qurilish tashkiloti tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini farqli usul bilan aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (ΔA_n)	$\Delta A_n = (n_1 \cdot n_0) \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri (ΔA_d)	$\Delta A_d = n_1 \cdot (d_1 \cdot d_0) \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri (ΔA_g)	$A_g = n_1 \cdot d_1 \cdot (g_1 \cdot g_0) \cdot z_0$
Natija o'zgarishiga to'rtinchi omilning ta'siri (ΔA_z)	$A_z = n_1 \cdot d_1 \cdot g_1 \cdot (z_1 \cdot z_0)$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d \pm \Delta A_g \pm \Delta A_z$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

$$A = n \cdot d \cdot g \cdot z.$$

Bunda:

A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotining umumiy rentabellik ko'rsatkichi;

p – qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar rentabelligi;

d – qurilish tashkilotlari xarajatlarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi;

g – qurilish materiallarida xarajatlarning daromadlardagi hissasi;

z – qurilish tashkilotlarida qurilish-montaj ishlari hajmining daromadliligi.

Ushbu omillar ham qurilish tashkilotining umumiy rentabellik ko'rsatkichi bilan bevosita funksional bog'liq. Ularning natija o'zgarishiga ta'sirini har bir omilning nisbiy farqini aniqlash yo'li bilan hisoblash mumkin. Buning uchun har bir omilning ta'siri aniqlanganda shu omilning nisbiy farqini, ya'ni o'zgarish sur'atini natija ko'rsatkichining rejadagi (asos yilidagi) miqdoriga ko'paytirib 100 ga bo'linadi. Xuddi shu tarzda barcha omillar ta'siri ketma-ket holatda aniqlanadi. Masalan, birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta An = \frac{A_0 \cdot \Delta n\%}{100}.$$

Ikkinchi omilning natija o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun natijaning rejadagi (asos yilidagi) miqdoriga birinchi omilning nisbiy farqi qo'shiladi va ikkalasining yig'indisi ikkinchi omilning nisbiy farqiga ko'paytirilib

yuzga bo'linadi. Shu tariqa boshqa omillar ta'siri ham hisoblanadi. Buni quyidagi formula bilan amalga oshirish mumkin:

$$\Delta Ad\% = \frac{(A_0 + \Delta An) \cdot \Delta d\%}{100}.$$

Ushbu omillar ta'siri natija o'zgarishiga qanday bo'lganligini aniqlash uchun quyidagi 4.11-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz.

4.11-jadval

Natija ko'rsatkichi o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini, ularning nisbiy farqini aniqlash yo'li bilan hisob-kitob qilish usuli

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
Birinchi omilning nisbiy farqi ($\Delta n\%$)	$\Delta n\% = \frac{(n_0 - n_1) \cdot 100}{n_0}$
Ikkinchi omilning nisbiy farqi ($\Delta d\%$)	$\Delta d\% = \frac{(d_1 - d_0) \cdot 100}{d_0}$
Uchinchi omilning nisbiy farqi ($\Delta g\%$)	$\Delta g\% = \frac{(g_1 - g_0) \cdot 100}{g_0}$
To'rtinchi omilning nisbiy farqi ($\Delta z\%$)	$\Delta z\% = \frac{(z_1 - n_0) \cdot 100}{z_0}$
A ning o'zgarishiga birinchi omil ta'siri (ΔA_n)	$\Delta An\% = \frac{A_0 \cdot \Delta n\%}{100}$
A ning o'zgarishiga ikkinchi omil ta'siri (ΔA_d)	$\Delta Ad\% = \frac{(A_0 + \Delta An) \cdot \Delta d\%}{100}$
A ning o'zgarishiga uchinchi omil ta'siri (ΔA_g)	$\Delta Ag\% = \frac{(A_0 + \Delta An + \Delta Ad) \cdot \Delta g\%}{100}$
A ning o'zgarishiga to'rtinchi omil ta'siri (ΔA_z)	$\Delta Az\% = \frac{(A_0 + \Delta An + \Delta Ad + \Delta Ag) \cdot \Delta z\%}{100}$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_{n\%} \pm \Delta A_{d\%} \pm \Delta A_{d\%} \pm \Delta A_{z\%}$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Farqli usulni qo'llash bo'yicha bir qancha variantlar mavjud. Navbatdagi usullardan biri har bir omilning rejasining bajarilishidan foydalangan holda aniqlash usulidir. Reja bajarilishining miqdori olinganda qo'llaniladigan farqli usulni qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi.

Natijaning to'rtta omil bilan bog'liqligi, odatdagidek formula bilan ifodalanadi:

$$A = n \cdot d \cdot g \cdot z.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkiloti iqtisodiy salohiyati samaradorligi;

p – qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar samaradorligi;

d – qurilish tashkilotlarida xodimlarning qurollanganlik darajasi;

g – qurilish materiallarida aylanma mablag'larning xodimlar bilan ta'minlanganligi;

z – qurilish tashkilotlarida aylanma mablag'larning iqtisodiy salohiyatdagi hissasi.

Natija o'zgarishiga har bir omil rejasining bajarilishidan foydalangan holda aniqlash uchun har bir omilning reja bajarilishini (asos yiliga nisbatan o'zgarish sur'atini) hisoblab olamiz. Ushbu omilning natija o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun natijaning rejadagi miqdorini shu omil rejasining bajarilishidan 100ni ayirib, chiqqan natijani yana 100 ga bo'lamiz. Ushbu holatda birinchi omilning natijaga ta'sirini hisoblash usuli quyidagi formulada keltirilgan:

$$\Delta An\% = \frac{A_0 \cdot (\Delta n\% - 100)}{100}.$$

Natijaga ikkinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun natijaning rejadagi miqdorini ikkinchi omil rejasining bajarilishidan birinchi omil reja bajarilishini ayirib, chiqqan natijani yana 100 ga bo'lamiz. Buning uchun quyidagicha formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ad\% = \frac{A_0 \cdot (\Delta d\% - \Delta n\%)}{100}.$$

Xuddi shunday ketma-ketlikda boshqa omillar ta'siri ham aniqlanadi. Masalan, natijaga uchinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun natijaning rejadagi miqdorini uchinchi omil rejasining bajarilishidan ikkinchi omil rejasining bajarilishi ayrilib, chiqqan natijani yana 100 ga bo'lamiz. Buning uchun esa quyidagicha formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$\Delta Ag\% = \frac{A_0 \cdot (\Delta g\% - \Delta d\%)}{100}.$$

Xuddi shunday tartibda to'rtinchi omilning ham ta'siri aniqlanadi. Bularni hisoblash yo'llari 4.12-jadvalda jamlangan.

4.12-jadval

Natija o'zgarishiga har bir omil rejasining bajarilishidan foydalangan holda aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0 \cdot g_0 \cdot z_0$
Birinchi omil bo'yicha rejaning bajarilishi $(\Delta n\%)$	$\Delta n\% = \frac{(n_1) \cdot 100}{n_0}$
Ikkinchi omil bo'yicha rejaning bajarilishi $(\Delta d\%)$	$\Delta d\% = \frac{(d_1) \cdot 100}{d_0}$
Uchinchi omil bo'yicha rejaning bajarilishi $(\Delta g\%)$	$\Delta g\% = \frac{(g_1) \cdot 100}{g_0}$
To'rtinchi omil bo'yicha rejaning bajarilishi $(\Delta z\%)$	$\Delta z\% = \frac{(z_1) \cdot 100}{z_0}$
A ning o'zgarishiga birinchi omil ta'siri (ΔA_n)	$\Delta An\% = \frac{A_0 \cdot (\Delta n\% - 100)}{100}$
A ning o'zgarishiga ikkinchi omil ta'siri (ΔA_d)	$\Delta Ad\% = \frac{A_0 \cdot (\Delta d\% - \Delta n\%)}{100}$
A ning o'zgarishiga uchinchi omil ta'siri (ΔA_g)	$\Delta Ag\% = \frac{A_0 \cdot (\Delta Ag\% - \Delta d\%)}{100}$
A ning o'zgarishiga to'rtinchi omil ta'siri (ΔA_z)	$\Delta Az\% = \frac{A_0 \cdot (\Delta z\% - \Delta g\%)}{100}$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_{n\%} \pm \Delta A_{d\%} \pm \Delta A_{d\%} \pm \Delta A_{z\%}$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Integral usul ham iqtisodiy tahlilda oxirgi paytlarda keng qo'llanilmoqda. Undan foydalanish natija o'zgarishiga ikkita omil ta'sir qilganda va ular o'rtasida ko'paytiruv bo'lganda juda qulay. Omillar bilan natija o'rtasidagi bog'liqlik ikkita bo'lganda integral usulning bir qancha variantlaridan foydalanish mumkin. Jumladan, natija o'zgarishining ikkita omil bilan bog'liq bo'lgan holatda omillar ta'sirini hisoblashning birinchi varianti.

$$A = n \cdot d.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotida ish haqi fondi;

p – qurilish tashkilotida xodimlar soni;

d – qurilish tashkilotida xodimlarning o'rtacha ish haqi.

Ushbu omillarning natija o'zgarishiga ta'sirini hisoblash usullari 4.13-jadvalda jamlangan.

4.13-jadval

Natija o'zgarishiga ikkita omining ta'sirini integral usul (1-variat) bilan aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0$
Birinchi omil bo'yicha rejaning bajarilishi (Δn%)	$\Delta An = 0,5 \cdot \Delta n_1 (d_0 + d_1)$
Ikkinchi omil bo'yicha rejaning bajarilishi (Δd%)	$\Delta Ad = 0,5 \cdot \Delta d_1 (n_0 + n_1)$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_{n\%} \pm \Delta A_{d\%}$
Tekshirish	$\Delta A = \Delta A_1 - A_0$

Omillar bilan natija o'rtasidagi bog'liqlik ikkita bo'lganda integral usulning 2-variantini qo'llab yechish mumkin. Masalan, natija o'zgarishining ikkita omil bilan bog'liqligi quyidagicha shaklga ega.

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotida qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmi;

p – qurilish tashkilotida xodimlar soni;

d – qurilish tashkilotida mehnat unumdorligi.

Integral usulining ikkinchi varianti birinchi usulga nisbatan bir muncha murakkabroq. Ammo natija o'zgarishiga omillar ta'sirini aniq ifodalashligi bo'yicha ancha afzalliklarga ega.

Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun shu omilning farqi olinadi va uni ikkinchi omilning rejadagi (asos yilidagi) miqdoriga ko'paytiriladi hamda shu ikki omilning farqli ko'paytmasining 2 ga bo'lingan miqdori qo'shiladi.

Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta An = \Delta n \cdot d_r + 1/2(d_0 + d_1).$$

Ikkinchi omil ta'sirini aniqlash ham shu tariqa hisoblanadi. Faqat ikkinchi omilning farqiga birinchi omilning rejadagi (asos yilidagi) miqdori ko'paytirib olinadi va ikkita omil farqlarining ko'paytmasining 2 ga bo'linganligini qo'shiladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin (4.14-jadval):

4.14-jadval

Natija o'zgarishiga ikkita omining ta'sirini integral usul (2-variat) bilan aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori ($\Delta n\%$)	$A_0 = n_0 \cdot d_0$
Birinchi omil bo'yicha rejaning bajarilishi	$\Delta An = \Delta n \cdot dr + 1/2(\Delta n + \Delta d)$
Ikkinchi omil bo'yicha rejaning bajarilishi ($\Delta d\%$)	$\Delta Ad = \Delta d \cdot nr + 1/2(\Delta n \cdot \Delta d)$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Integral usuldan iqtisodiy tahlilda keng foydalanish mumkin. Jumladan natija o'zgarishi uchta omil bilan bog'liq bo'lgan paytda ham foydalanish mumkin. Buning uchun quyidagi bog'liqlikni misol qilib keltiramiz:

$$A = n \cdot d \cdot g.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkiloti iqtisodiy salohiyati samaradorligi;

p – qurilish tashkilotlarida aktivlar samaradorligi;

d – o'z mablag'larining aktivlar bilan ta'minlanganlik darajasi;

g – qurilish materiallarida aktivlarning iqtisodiy salohiyat tarkibidagi hissasi.

Ushbu omillarning natija o'zgarishiga ta'sirini hisoblash usullari ham omillarning ketma-ketlik tamoyiliga asoslanadi. Mazkur omillarni aniqlash usullari 4.15-jadvalda keltirilgan.

4.15-jadval

Natija o'zgarishiga uchta omilning ta'sirini integral usulini qo'llab aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0 \cdot g_0$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri ($\Delta n\%$)	$\Delta An = 0,5 \cdot \Delta n(d_0 g_1 + d_1 g_0) + \frac{1}{3}\Delta n \Delta d \Delta z$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri ($\Delta d\%$)	$\Delta Ad = 0,5 \cdot \Delta d(n_0 g_1 + n_1 g_0) + \frac{1}{3}\Delta n \Delta d \Delta z$
Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri ($\Delta g\%$)	$\Delta Ag = 0,5 \cdot \Delta g(n_0 g_1 + n_1 g_0) + \frac{1}{3}\Delta n \Delta d \Delta z$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d \pm \Delta A_g$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Integral usuldan natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik kasr bilan ifodalanganda ham foydalanish mumkin. Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik kasirli bo'lib, ularning soni ikkita bo'lgandagi holatni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$A = \frac{n}{d}.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkiloti xarajatlari samaradorligi;

p – qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmi;

d – qurilish tashkilotlarida shu hisobot yilida qilingan xarajatlari summasi.

Bu holda natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun birinchi va ikkinchi omillar farqining nisbatini ikkinchi omil indeksining logorifmiga ko'paytiriladi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta An = \frac{\Delta n}{\Delta d} \cdot In\left|\frac{d_1}{d_0}\right|.$$

Natija o'zgarishiga ikkinchi omil ta'sirini aniqlash uchun esa natijaning umumiy farqidan birinchi omilning yuqorida ko'rsatilgan usul bilan aniqlangan ta'siri ayrilishi kifoya. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$\Delta Ad = \Delta A - \Delta An.$$

Ushbu hisob-kitoblar 4.16-jadvalda keltirilgan.

4.16-jadval

Natija o'zgarishiga ikkinchi omil ta'siri kasirli bo'lgandagi aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = \frac{n_0}{d_0}$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (Δn%)	$\Delta An = \frac{\Delta n}{\Delta d} \cdot In\left\|\frac{d_1}{d_0}\right\|$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri (Δd%)	$\Delta Ad = \Delta A - \Delta An$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d \pm \Delta A_g$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik kasirli bo'lib, uchta bo'lganda ham integral usuldan muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin. Ushbu bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$A = \frac{n}{d+g}.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkiloti iqtisodiy salohiyati rentabelligi;

p – qurilish tashkilotlarida hisobot yilida erishilgan foydasi;

d – qurilish tashkilotlarida aktivlarning o'rtacha yillik qiymati;

g – qurilish materiallarida mehnat salohiyatining o'rtacha yillik qiymati;

Ushbu omillarning natija ko'rsatkichi o'zgarishiga ta'siri ham yuqorida ta'kidlanganidek, ketma-ketlik tamoyillaridan foydalangan holda aniqlanadi.

Jumladan, natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun birinchi omilning farqini ikkinchi va uchinchi omillar farqiga nisbati olinib, birinchi va ikkinchi omillar yig'indisi nisbatlarining logorifmiga ko'paytiriladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta An = \frac{\Delta n}{\Delta d + \Delta g} \cdot ln \left| \frac{d_1 + g_1}{d_0 + g_0} \right|.$$

Ushbu usul bilan qolgan omillar ta'sirini hisoblash usullari ham 4.17-jadvalda o'z ifodasini topgan.

4.17-jadval

Natija ko'rsatkichi o'zgarishiga uchta kasirli omillar ta'sirini hisoblash integral usulda aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = \frac{n_0}{d_0 + g_0}$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri ($\Delta n\%$)	$\Delta An = \frac{\Delta n}{\Delta d + \Delta g} \cdot \ln \left\| \frac{d_1 + g_1}{d_0 + g_0} \right\|$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri ($\Delta d\%$)	$\Delta Ad = \frac{\Delta A - \Delta An}{\Delta d - \Delta g} \cdot \Delta d$
Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri ($\Delta d\%$)	$\Delta Ad = \frac{\Delta A - \Delta An}{\Delta d + \Delta g} \cdot \Delta d$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d \pm \Delta A_g$
Tekshirish	$\Delta A = A_t - A_0$

Iqtisodiy tahlilda matematik usullardan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ulardan biri ***logorifmlash usulidir***. Buning ham bir qancha variantlari mavjud. Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik uchta bo'lganda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$A = n \cdot d \cdot g.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotida mehnat unumdorligi;

p – qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar aktiv qismining samaradorligi;

d – qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar aktiv qismining umumiy asosiy vositalardagi hissasi;

g – qurilish materiallarida mehnatning qurollanganlik darajasi.

Ushbu omillarning natija o'zgarishiga ta'sirini logorifm usulini qo'llab aniqlash uchun bir qancha hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Ulardan birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Birinchi omilning natija o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun natijaning umumiy farqini birinchi omilning logifmini natijaning logorifmiga nisbatiga ko'paytiriladi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta An = \Delta A_{umum} \cdot \frac{ln\ Ln}{ln\ lA}.$$

Qolgan omillarning ta'siri ham shu tariqa aniqlanadi. Bularning hisob-kitobi 4.18-jadvalda keltirilgan.

4.18-jadval

Natija o'zgarishiga omillarning ta'sirini logorifm usulini qo'llab aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0 \cdot g_0$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (ΔA_n)	$\Delta An = \Delta A_{umum} \cdot \frac{In\ Ln}{In\ lA}.$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri (ΔA_d)	$\Delta Ad = \Delta A_{umum} \cdot \frac{In\ Ld}{In\ lA}.$
Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri (ΔA_z)	$\Delta Ag = \Delta A_{umum} \cdot \frac{In\ Lg}{In\ lA}.$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d \pm \Delta A_g$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

4.18-jadvalning davomi

In	n omil o'zgarishi indeksi
Id	d omil o'zgarishi indeksi
Ig	g omil o'zgarishi indeksi
Iz	z omil o'zgarishi indeksi

Natijaga omillar ta'sirini teng taqsimlash usulini qo'llab ham aniqlash mumkin. Buning uchun natijaning uchta omil bilan bog'liq holdagi formulasini keltirish mumkin:

$$A = n \cdot d \cdot g.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotida o'z mablag'lari samaradorligi;

p – qurilish tashkilotlarida majburiyatlar samaradorligi;

d – qurilish tashkilotlarida majburiyatlarning aktivlardagi hissasi;

g – qurilish materiallarida o'z mablag'larining aktivlar bilan ta'minlanganligi.

Ushbu usul bilan natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun shu omilning farqini natijaning umumiy farqiga ko'paytiriladi va ko'paytmani uchta omil farqining yig'indisiga bo'linadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta An = \frac{\Delta n \Delta A}{\Delta n + \Delta d + \Delta g}.$$

Shu tariqa boshqa omillarning ham ta'siri hisoblanadi. Bularni 4.19-jadvalda ko'rish mumkin. Teng taqsimlash usulini qo'llab natija o'zgarishiga omillar ta'sirini ular o'rtasidagi bog'liqlik kasirli bo'lgan taqdirda ham aniqlash mumkin. Buning uchun natijaning uchta omillar bilan bog'liq holatini quyidagicha ifodalashni tavsiya qilamiz:

$$A = \frac{n}{d + g}.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotida moliyaviy salohiyat retabelligi;

p – qurilish tashkilotlarida sof foyda summasi;

d – qurilish tashkilotlarida o'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati;

g – qurilish materiallarida majburiyatlarning o'rtacha yillik qiymati.

Ushbu usul juda qulay bo'lib hisoblanadi. Bunda birinchi galda proporsionallik koeffitsienti aniqlanadi.

4.19-jadval

Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini teng taqsimlash usulini qo'llab aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0 \cdot g_0$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (ΔAn)	$\Delta An = \frac{\Delta n \Delta A}{\Delta n + \Delta d + \Delta g}$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri (ΔAd)	$\Delta Ad = \frac{\Delta d \Delta A}{\Delta n + \Delta d + \Delta g}$
Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri (ΔAg)	$\Delta Ag = \frac{\Delta g \Delta A}{\Delta n + \Delta d + \Delta g}$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d \pm \Delta A_g$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

Buning uchun natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik qanday bo'lsa, omillarning shu tarzda joylanishi saqlanib qoladi va ularning o'sish sur'atlari olinadi. O'sish sur'atlarining nisbati ularning proprsionallik koeffitsientiga teng bo'ladi:

$$K = \frac{\Delta_{n\%}}{\Delta_{d\%} + \Delta_{g\%}}.$$

So'ngra alohida omillar ta'sirini hisoblash uchun ushbu koeffitsientni mos ravishda har bir omilning farqiga ko'paytirib, natijaga shu omilning ta'siri aniqlanadi.

Masalan, birinchi omilning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta An = K \cdot \Delta n.$$

Qolgan omillarning ta'siri ham shu tariqa hisoblanadi. Bular 4.20-jadvalda o'z aksini topgan.

Natijaga omillar ta'sirini aniqlashda qo'llaniladigan yana bir usul ***nisbiy ko'rsatkichli usuldir***. Ushbu usul faqat natijaga bitta yoki ikkita omil ta'sir qilganda va ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lganda va ularning o'lchov birliklari o'sish sur'atini ifodalagan taqdirda qo'llaniladi. Natija o'zgarishining ikkita omil bilan bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Delta A_{\%} = \Delta n_{\%} \cdot \Delta g_{\%}.$$

Bunda: A – natija ko'rsatkichi, ya'ni qurilish tashkilotida majburiyatlar samaradorligining o'sish sur'ati; p – qurilish tashkilotlarida o'z mablag'lari

4.20-jadval

Natija o'zgarishiga omillar ta'siri kasirli bo'lganda teng taqsimlash usulini qo'llab aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = \frac{n}{d+g}$
Proporsionallik koeffitsiyenti	$K = \frac{\Delta_{n\%}}{\Delta_{d\%} + \Delta_{g\%}}$.
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (ΔAn)	$\Delta An = K \cdot \Delta n$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri (ΔAd)	$\Delta Ad = K \cdot \Delta d$
Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri (ΔAg)	$\Delta Ag = K \cdot \Delta g$
Barcha omillar ta'siri	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d \pm \Delta A_g = K$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

samaradorligining o'sish sur'ati; *d* – qurilish tashkilotlarida majburiyatlarning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligining o'sish sur'ati.

Ushbu holatda natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun shu omilning o'sish sur'atini 100 ga ko'paytirib, natijaning umumiy o'sish sur'atiga bo'lish kifoya.

Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta An = \frac{\Delta n \cdot 100}{\Delta A}.$$

Ikkinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun birinchi omilning ta'sirini 100 dan ayirish kifoya bo'ladi:

$$\Delta Ad = 100 - \frac{\Delta n \cdot 100}{\Delta A}.$$

Ushbu hisob-kitoblarning jamlanmasi 4.21-jadvalda keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlilda qo'llanilib kelinayotgan barcha an'anviy usullarni qurilish tashkilotlari faoliyatiga ham bemalol qo'llash mumkin ekan. Agar ushbu tavsiyalarimiz amaliyotda qo'llanilsa, o'ylaymizki, qurilish tashkilotlari faoliyati batafsil tahlil qilinib, ularning barcha qirralari o'rganiladi va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlar axtarib topilib ilmiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati tug'iladi.

4.21-jadval

Natijaga omillar ta'sirini nisbiy ko'rsatkichli usulni qo'llab aniqlash hisob-kitobi

Natijaning (A) rejadagi miqdori	$A_0 = n_0 \cdot d_0$
Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri (ΔAn)	$\Delta An = \frac{\Delta n \cdot 100}{\Delta A}$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri	$\Delta Ad = 100 - \frac{\Delta n \cdot 100}{\Delta A}$
Barcha omillar ta'siri (ΔAd)	$\Delta A = \Delta A_n \pm \Delta A_d$
Tekshirish	$\Delta A = A_1 - A_0$

4.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik modellarning tiplari

Iqtisodiy tahlil jarayonida juda ko'p matematik modellar qo'llaniladi. Ularning ko'p uchraydiganlri quyidagilardir: additiv model, multiplikativ model, kasirli model. Additiv model natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik qo'shuv bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Masalan, «U» natija bir qancha omillar (X_1, X_2, . . . , X_n) yig'indisidan iborat deb faraz qilamiz. U holda additiv modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$U = \sum_{i=1}^{n} X_i = X_1 + X_2 + X_3 + ... + X_n .$$

Bunda: Σ – yig'indi belgisi; i – omillarning tartib soni ($i = 1,n$); n – omillarning umumiy soni; X_i – i – omilning nomi.

Ushbu model amaliyotda juda ko'p qo'llaniladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlariga qarashli korxonalar ishlab chiqargan tovar mahsulotlarining hajmi, ularda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarining umumiy ro'yxatdagi soni va h.k. Faraz qilamiz, ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyatiga 10 ta kichik korxona qaraydi. Ularning har biri har xil hajmda mahsulot ishlab chiqargan. Barcha ishlab chiqargan mahsulotni aniqlash uchun additiv modeldan foydalanganda quyidagi formulaga ega bo'linadi:

$$U = \sum_{i=1}^{10} X_i = X_1 + X_2 + X_3 + ... + \overline{X_{10}} \quad (i = 1,10).$$

Multiplikativ model ham tahlilda keng qo'llaniladi. Bu model natija bilan omilning o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Masalan, «U» natijani birqancha omillar (X_1, X_2, X_3 ... , X_n) ko'paytmasidan iborat deb faraz qilamiz. U holda multiplikativ modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$U = \sum_{i=1}^{n} X_i = X_1 x X_2 x X_3 ... x \overline{X_n} \quad (i = 1, n).$$

Bunda: P – ko'paytirish belgisi; i – omillarning tartib soni; $(i = 1,n)$; n – omillarning umumiy soni; X_i – i – omilning nomi.

Ushbu model ham tahlilda keng qo'llaniladi, chunki juda ko'p natija amaliyotda omilning ko'paytmasidan iborat bo'ladi. Masalan, tovar oborotining hajmiga ta'sir qiluvchi moddiy texnika bazasi bilan bog'liq omillarni olaylik. Unga savdo shaxobchalarining soni (Sh), har bir savdo shaxobchasiga to'g'ri keladigan savdo maydoni (M_{sh}), har bir kv.m. savdo maydoniga to'g'ri keladigan tovar oboroti (T_m) ta'sir qiladi. Natija bilan ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$T = Sh \cdot M_{sh} \cdot T_m.$$

Agar har bir omilni mos ravishda ketma-ket X_1, X_2, X_3 deb belgilasak, bu holda multiplikativ modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$U = \prod_{i=1}^{3} Xi = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \quad (i = \overline{1,3})$$

Kasrli model ham tahlilda keng qo'llaniladigan modellardan. U asosan natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lish bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, mehnat unumdorligi tovar oboroti hajmining xodimlarning ro'yxatdagi soniga nisbati bilan aniqlanadi. Rentabellik darajasi foyda summasining tovar oborotiga nisbati bilan aniqlanadi. Fondlarning samaradorligi tovar oborotining fondlarning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi va h. k. Bunday hollarda kasrli model birqancha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$U = \frac{X_1}{X_2}; \quad U = \frac{\sum_{i=1}^{n} X_i}{\sum_{i=n}^{n} X_i}; \quad U = \frac{\sum_{i=1}^{n} X_i}{\prod_{i=1}^{n} X_i} \quad U = \frac{\sum_{i=1}^{n} X_i}{n};$$

$$U = \frac{\prod_{i=1}^{n} Xi}{\prod_{i=1}^{n} Xj}; \qquad U = \frac{Xi}{\sum_{i=1}^{n} X_i}.$$

Kasrli modelda bir vaqtning o'zida hamma model turlari qo'llanilishi mumkin. Ba'zan sur'atda additiv model bo'lsa, maxrajida multiplikativ model bo'lishi mumkin. Sur'atida multiplikativ model bo'lishi maxrajida bitta omil ham ishtirok etishi mumkin. Amaliyot sur'atida ham maxrajida ham bir xil modellar ishtirok etishi ham mumkin.

5-bob. IQTISODIY TAHLILNING BOSHQA FANLAR O'RTASIDA TUTGAN O'RNI VA ULAR BILAN ALOQADORLIGI

5.1. Iqtisodiy tahlilning boshqa fanlar bilan aloqasi

Iqtisodiy tahlil mustaqil fan. Lekin u boshqa iqtisodiy fanlar zamirida vujudga keldi va ularning ko'plariga nisbatan yangi, yosh fan. Buxgalteriya hisobi fanining vujudga kelganiga besh asrdan oshgan bo'lsa, iqtisodiy tahlil fanining vujudga kelganiga endi yuz yildan oshdi. Ushbu fan O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida paydo bo'la boshladi.

Ammo mustaqillik qo'lga kiritilganidan keyin iqtisodiy tahlil fani mazmuni va tarkibi jihatidan tubdan o'zgardi. Oldin, rejali iqtisodiyot sharoitida barcha fanlar singari iqtisodiy tahlil fani ham rejaning bajarilishini nazorat qilish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, yuqoridan ko'r-ko'rona tushirilgan rejani asoslashga qaratilagan edi.

Endi iqtisodiy tahlil haqiqatda xo'jalik yurituvchi subyektlarga, mulk egalariga xizmat qiladigan bo'ldi. Oldin korxona xo'jalik faoliyati yuqori tashkilot va davlat nuqtayi nazaridan tahlil qilingan bo'lsa, endi bevosita shu korxona, uning mehnat jamoasi va mulk egasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadigan bo'ldi.

Biroq barcha holda ham davlatning manfaati hisobga olinadi. Chunki korxona bilan davlat o'rtasidagi aloqa oldin ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan bo'lsa, endi erkin o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi.

Iqtisodiy jarayolar va munosabatlardagi bunday o'zgarishlar har bir fan hamda iqtisodiy mexanizmlar mazmunini sifat jihatidan yangilashni, tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda.

Biroq shunday murakkab davrda juda ko'p fanlar o'z zaruriyatini yo'qotadi va barham topadi. Masalan, xalq xo'jaligini rijalashtirish asoslari, korxona iqtisodi (rejaga asoslangan iqtisod va h.k.). Ammo bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy tahlil fanining ahamiyati yanada oshadi.

U korxona rahbari uchun xo'jalikni boshqarishda asosiy dastak sifatida nomoyon bo'lmoqda.

Shu jihatdan iqtisodiy tahlil fani boshqa fanlar bilan uzviy aloqada bo'lishi bilan birga ular o'rtasida o'ziga xos o'ringa ham ega. Shuni e'tirof etish kerakki, ushbu fan faqat iqtisodiy fanlar bilan emas, balki iqtisodiyotga oid bo'lmagan fanlar bilan ham uzviy bog'liqdir.

5.2. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiyotga oid fanlar bilan bog'liqligi

Pastdagi chizmadan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlil fani bevosita ***iqtisodiy nazariya*** fani bilan bog'liq. Iqtisodiy nazariy jamiyatda sodir bo'layotga iqtisodiy jarayonlarining ma'lum qonuniyatlarini, ularning xarakterlanish va amal qilish yo'llarini o'rgatadi. Bu esa uning barcha iqtsiodiy fanlar uchun, jumladan iqtisodiy tahlil fani uchun ham metodologik asos ekanligini ta'minlaydi. Iqtisodiy tahlil esa shu qonunlarning mikro iqtisodiyot (korxona, firma, birlashma kabilar) ko'lamida sodir bo'lish va amal qilish jarayonini o'rgatadi. Bunda iqtisodiy nazariya fanining ilmiy-metodologik jihatlaridan foydalaniladi. Iqtisodiy tahlil o'z navbatida iqtisodiyotda sodir bo'layotgan jarayonlarni chuqur o'rganish bilan iqtisodiy nazariya fanining rivojlanishi uchun ham asos yaratib beradi. Shu tufayli bu fanlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda. Ularning bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:



Iqtisodiy tahlil fani ***buxgalteriya hisobi*** bilan ham uzviy bog'liq. Bu fanlar mazmun va mohiyati jihatidan aniq amaliy fanlar guruhiga kiradi. Tahlil buxgalteriya hisobining navbatdagi bosqichi sifatida uning mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi.



Buxgalteriya hisobining vazifasi buxgalteriya hisobotini tuzish, axborotlarini umumlashtirish bilan tugaydi. Shu hisobotlar va boshqa axborotlar asosida sodir bo'lgan va bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar o'rganish bilan iqtisodiy tahlil shug'ullanadi. Tahlilda xo'jalik faoliyatining haqiqiy natijasi rejadagi, me'yorlardagi, o'tgan davrlardagi ko'rsatgichlar bilan solishtirilib, tegishli farqlari aniqlanadi. Unga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi, tegishli xulosa qilinib, ichki imkoniyatlar axtarib topiladi. Shu bilan tahlil o'z vazifasini bajaradi.

Tahlil ma'lumotlariga asosan tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bular o'rtasidagi bog'liqlik yuqoridagi chizmada o'z aksini topgan:

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobi bilan ham, ***boshqaruv bilan*** ham ikki yoqlama aloqada bo'ladi. Chunki iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobi va hisobotlari ma'lumotlaridan to'liq foydalanish bilan barcha tegishli axborotlarni tayyorlab berish lozimligi to'g'risida buxgalteriya hisobini takomillashtiradi. Buxgalteriya hisobotidagi asosiy ko'rsatgichlar quruq hisobot uchun emas, balki tahlil qilib shu korxona ahvolini bilish va uni boshqarishga mo'ljallangan.

O'z navbatida iqtisodiy tahlil boshqaruvga tegishli axborotlarni yetkazib, tayyorlab berish bilan birga boshqaruvdan tegishli buyurtmalarni ham oladi. Iqtisodiy tahlil faqat tahlil qilish uchun emas, balki boshqaruv uchun eng zarur axborotlarni yetkazib, tayyorlab berish uchundir. Shunday qilib, u buxgalteriya hisobidagi axborotlar xomashyosini boshqaruv uchun tayyor holiga keltirib beradi.

Yaxshi buxgalteriya hisoboti uning chiroyliligi bilan emas, balki tahliliyligi bilan belgilanadi. Tahlil uchun axborotlar aniq, tushunarli va to'g'ri bo'lishi kerak. Noto'g'ri axborotdan noto'g'ri xulosa chiqariladi. Noto'g'ri xulosa noto'g'ri boshqarishga olib keladi. Oqibatda korxonaning iqtisodiy inqiroziga asosiy sabab bo'ladi.

Iqtisodiy tahlil fani ***statistika fani*** bilan ham bevosita bog'liq. Statistikada iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash usullari o'rgatilsa, iqtisodiy tahlilda shu ko'rsatkichlardan tahlil qilish uchun foydalaniladi. Statistik hisob va hisobot ma'lumotlari ham iqtisodiy tahlil uchun axborot manbayi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy tahlil jarayonida birqancha statistik usulardan foydalaniladi.

Statistika ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni asosan makro iqtisodiyot darajasida talqin qilsa, iqtisodiy tahlil ularni mikro iqtisodiyot darajasida o'rganadi. Statistika yirik bir to'plamlar, guruhlarni o'rgansa, iqtisodiy tahlil asosan yakka yaxlit olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganish bilan cheklanadi. Demak, statistika va iqtisodiy tahlil fanlari bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lishi bilan birga, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular o'rtasidagi bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi.



Iqtisodiy tahlil fani ***moliya va kredit*** fani bilan ham mustahkam aloqada. Korxonalarda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash, agar o'z mablag'lari yetarli bo'lmasa qancha kredit olish va unga qancha foiz to'lash kabi pul munosabatlari bilan moliya va kredit fani shug'ullanadi. Ularning maqsadga muvofiq ishlayotganligi, samaradorligining oshishi kabi muhim jihatlari bilan iqtisodiy tahlil fani shug'ul-

lanadi. Bu yerda ikki fanning ham o'rganish obyekti (moliyaviy mablag'lar) bir xil. Ammo birinchisida ushbu kategoriyaning mavjudligi va ta'minoti o'rganilsa, ikkinchisida uning ishlatilishi o'rganiladi. Shu jihatdan ham ular bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi.

Shuningdek, mutaxassis iqtisodiy tahlil qilishi uchun moliyaviy unsurlarni , kredit munosabatlarini yaxshi bilishi lozim. O'z navbatida korxonani moliyalashtirish kreditdan samarali foydalanish uchun tahlil natijalaridan ham keng foydalanishi lozim. Shundan ham ko'rinib turibdiki, moliya va kredit iqtisodiy tahlil bilan ikki yoqlama uzviy aloqada. Bu qo'yidagi chizmada o'z aksini topgan.

Moliya va kredit	**Iqtisodiy tahlil**
Moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlashni o'rgatadi	Moliyaviy va kredit mablag'laridan samarali foydalanish yo'llarini o'rgatadi

Iqtisodiy tahlil ***menejment*** fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu haqda uning buxgalteriya hisobi bilan bog'liqligini ko'rganda qisman tushuncha berilgan edi. Menejmentda boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bu uchun u iqtisodiy tahlil natijalaridan va usullaridan foydalanadi. Bundan tashqari, menejmentda funksional qiymat tahlili, mantiqiy evristik tahlil, fikrlar hujumi kabi tahlilning shakllari va usullaridan ham foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyoti o'ta murakkab iqtisodiy jarayon . Bu sharoitdagi korxonaning ahvolini yaxshi o'rganish va odilona boshqarish uchun iqtisodiy tahlil usullarini ham uzluksiz takomillashtirib borish lozim. Bu esa uning noan'anaviy usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlil menejment uchun axborot tayyorlab berar ekan u shu fanning asosiy talab va tamoyillarini bilishi lozim. Menejment ham iqtisodiy tahlilning faqat natijalaridan emas, balki usullaridan ham keng foylanadi. Demak, ushbu fanlar ham bir-biri bilan ikki tomonlama uzviy bog'liq. Bularning bog'liqligi quyidagicha ifodalaniladi:

Menejment	**Iqtisodiy tahlil**
Iqtisodiy tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qiladi	Menejment uchun tegishli axborotlarni tayyorlab beradi. Boshqaruv qarorlarini qanday bajarilayotganligini tahlil qiladi

Iqtisodiy tahlil fani marketing fani bilan ham bog'liq. Marketing iste'molchilar (bozor) talabidan kelib chiqib ishlab chiqarish va sotishni yo'lga qo'yadigan tovar harakati bilan bog'liq fan. U bozorni, iste'molchilar

talabini o'rganish uchun iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanadi. Hatto ba'zi adabiyotlarda marketing faoliyatining iqtisodiy tahlilini «Markenting tahlili» ham deb talqin qiladi. Haqiqatda esa u marketing tahlili emas, balki marketingda qo'llaniladigan iqtisodiy tahlilning bir qismi yoki usuli bo'lib hisoblanadi.

Korxona faoliyati ko'p qirrali, keng qamrovli bo'ladi. Uning faoliyati mazmuni jihatidan ishlab chiqarish faoliyati, moliyaviy faoliyat, ish faoliyati, bozor faoliyati kabi faoliyatlarga bo'linadi. Ularning hamma qirralari iqtisodiy tahlilda tahlil qilinadi, o'rganiladi. Demak, korxonaning marketing faoliyati ham iqtisodiy tahlilning obyektiga kiradi.

Marketing faoliyati iqtisodiy tahlil qilinar ekan demak tahlilchi marketing sirlarini bilishi, marketing esa o'z navbatida iqtisodiy tahlil usullaridan xabardor bo'lishi lozim. Demak, iqtisodiy tahlil va marketing bir-biri bilan uzviy bog'liq ekan. Bular o'rtasidagi bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi:

Marketing		**Iqtisodiy tahlil**
Bozorni o'rganishda iqtisodiy tahlil natijalaridan foydalanadi.	→ ←	Marketing faoliyati iqtisodiy tahlilning obyekti hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil fani ***Audit*** fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Audit fani va faoliyati bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz munosabati bilan kirib keldi. Shu tufayli audit yangi fan sifatida o'zimizga xos holda shakllanmoqda. Chunki dunyo tajribasi uchun audit fani yangi fan emas. U Italiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda XIV–XVI asrlarda qo'llanilab boshlangan.

Hozirgi paytda audit fani O'zbekistonda shakllanish bosqichini o'tamoqda. Bu borada hali turli fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar auditni oldingi taftish bilan tenglashtirilsa, ikkinchi guruh olimlar audit bu xo'jalik faoliyatini tahlil qilish orqali unga tashxis qo'yish deb baholamoqda. Uchinchi guruh olimlar uni nodavlat xolisona tashkilot bo'lib moliyaviy hisobotda ifodalangan ko'rsatkichlarning realligiga baho beradi deb aytadilar.

Bunday turli fikrlarga asos bor. Chunki juda ko'p tashkilotlardagi taftish bo'limlari auditor firmalariga aylantirilib hamon taftish bilan shug'ullanmoqda. Ba'zi bir gruh auditorlar xo'jalik faoliyatini batafsil tahlil qilib, uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga atroflicha baho berib, ichki imkoniyatlarini axtarib topib, samaradorlikning oshirish yo'llarini ko'rsatib bermoqdalar.

Uchinchi guruh auditorlar esa haqiqatda moliyaviy hisobotning realligini isbotlash bilangina chegaralanib qolmoqdalar. Yana ba'zi auditorlar borki, ular soliq va boshqa to'lovlarning to'g'ri hisoblanganligini tekshirib, shu bo'yicha maslahat berish bilan cheklanib qolmoqdalar. Ko'rinib turibdiki, auditorlik amaliyoti ham, uning nazariyasi ham hali to'liq shakllangan emas.

Ammo shuni e'tirof etish kerakki, auditor o'z xulosasini to'g'ri va asosli qilib berishi uchun har qanday holda ham xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishi lozim. Tahlilchi ham o'z navbatida audit talablarini, tamoyillarini bilishi kerar. Chunki auditor xulosasi uchun bevosita ana shu tahlil ma'lumotlari yetarli bo'lishi mumkin. Shunday qilib audit va tahlil bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Ularning bog'liqligi quyidagi chizmada o'z aksini topgan.



Iqtisodiy tahlil iqtisodiyotga oid fanlar bilan ham bog'liq. Lekin biz unga eng yaqin va asosiylarigagina to'xtaldik xalos.

Shuni e'tirof etish kerakki, iqtisodiy tahlil juda ko'p hollarda fanlar o'rtasida ko'prik vositasini bajaradi. Masalan, buxgalteriya hisobi bilan boshqaruv o'rtasida, statistika, tezkor hisoblar bilan boshqaruv o'rtasida, auditorlik xulosasi bilan davlat tashkilotlari (soliq, moliya va h.k.) o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Bu jarayonlarning hammasida tahlil eng muhim hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi. Shu jihatdan iqtisodiy tahlil boshqa iqtisodiy fanlar o'rtasida muhim va solmoqli o'ringa ega.

Iqtisodiy tahlil iqtisodiyotga oid bo'lmagan bir qancha fanlar bilan ham bog'liqdir.

5.3. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiyotga oid bo'lmagan fanlar bilan bog'liqligi

Iqtisodiy tahlil iqtisodiyotga oid bo'lmagan bir qancha nazariy va fundamental fanlar bilan ham uzviy bog'liq.

Bular o'rtasida eng yuqori o'rinda ***falsafa*** fani turadi. Falsafadagi qonunlar va kategoriyalar bevosita iqtisodiy tahlil fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu borada ushbu kitobning 3-bobida batafsil to'xtalib o'tildi.

Bundan tashqari, falsafada qarama-qarshiliklar va kurash qonuni bor. Agar uni iqtisodiyotga tatbiq etadigan bo'lsak, korxonalar o'rtasidagi raqobatni qiyos qilish mumkin. Raqobat korxona mahsulotining miqdori va sifatini oshiradi, uning narxini tushiradi. Bu aholi faravonligining oshishi uchun eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilda korxonaning raqobat-

bardoshligi, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligi baholanadi va o'rganiladi. Bankrotga tushib qolmaslik chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Mustaqillik yillarida yurtboshimizning chop etilgan asarlariga nazar soladigan bo'lsak, falsafaga yangi qonuniyat kirib keldi. Bu murosa falsafasidir. Chunki ziddiyat hamisha ham samara beravermaydi. Ko'p hollarda o'zimizning sharqona, milliy qadriyatlarimizga tayanadigan bo'lsak, murosa ham muvaffaqiyat kaliti vazifasini bajaradi. Bu yerda kurash bir-birini yo'q qilish uchun emas, balki bir-biriga hamkorlik qilish, yordam berish ustida ketadi.

Ko'pmulkchilik sharoitida xususiy mulkka asoslangan erkin faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tom ma'noda davlat mulkiga asoslangan xo'jaliklar bilan raqobatda bo'ladi. Ammo juda ko'p iqtisodiy jihatdan nochor korxonalarni davlat murosaga kelib, ularni sanasiya yo'li bilan moddiy, moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab quvvatlab turibdi. Bu aynan mustaqillik sharoitida hosil bo'lgan iqtisodiyotdagi murosa falsafasiga to'g'ri keladi.

Korxonaning nochorligi esa aynan shu iqtisodiy tahlil bilan aniqlanadi. Demak, iqtisodiy tahlil falsafa fani bilan ham bevosita, ham bilvosita aloqada ekan. Iqtisodiy tahlilni iqtisodiy fanlar falsafasi deyish mumki, chunki iqtisodiy tahlilning har bir harakati, unda qilinadigan xulosalar falsafiy tafakkuriga, mantiqiy usullarga asoslanadi. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fani ***mantiq*** fani bilan ham o'zaro aloqadadir. Iqtisodiy tahlilning maxsus yo'nalishi mantiqiy tahlil ham mavjud. Chunki tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi barcha omillar ham hisobga olinavermaydi. Natijada unga mantiqiy nuqtayi nazardan yondashishga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, natija o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning ketma-ketligi, tahlilning bosqichlari hamma-hammasi ma'lum mantiqiy yo'nalishga asoslanadi. Shu tufayli mantiq iqtisodiy tahlilda ayniqsa xulosa chiqarishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tahlilda mantiq usullaridan foydalanish uchun faqat bitta mantiq fani emas, balki psixologik sistemali tahlil jarayonlarni tadqiq qilish kabi fanlar usullaridan ham foydalanishni taqozo qiladi.

Mantiqiy tahlilda bir qancha usullar qo'llaniladi. Bular jumlasiga «Fikrlar hujumi», ideallashtirish, tasavvur qilish, o'xshatish usullarini, yigirma to'rtlik, yigirma beshlik, yigirma oltilik qoidalarining, yangi variantlarini axtarish kabi usullarini kiritish mumkin. Bu usullar haqida kitobining «Funksional qiymat tahlili metodologiyasi» bobida ma'lumotlar keltirilgan.

Iqtisodiy tahlil fani ***huquq*** fani bilan bevosita bog'liq. Tahlil jarayonida huquqqa rioya qilish ham o'rganiladi. Iqtisodiy tahlilning eng muhim vazifalaridan biri sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar va ularning tegishli hujjatlarda ifodalanishining huquqiyligiga baho berishdan iboratdir. Shu tufayli iqtisodiy tahlil paytida albatta huquqiy me'yorlardan foydalaniladi. Huquq ham o'z navbatida tahlil-ning ko'p usullariga tayanadi.

Iqtisodiy jarayonlarning huquqiyligini ta'minlash uchun ham uni huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Jinoyatning ochilishiga esa asosiy usullardan biri mantiqiy tahlil usullaridan foydalaniladi. Xullas tahlil bilan huquq ham ma'lum darajada bir-biri bilan uzviy bog'liq ekan.

Iqtisodiy tahlil ***matematika fani*** bilan ham bog'liq. Hozirgi paytda bir tomondan iqtisodiy jarayonlar o'ta murakkablashib bormoqda, ikkinchi tomondan esa o'ta murakkab jarayonlarni ham o'rganish, ularni ma'lum tartibga solish uchun texnik imkoniyatlar ham, ayniqsa kompyuter texnologiyasi vujudga kelmoqda. Bu ikki obyektiv sharoit ham iqtisodiy tahlilda matematik usullardan keng foydalanishni taqozo qiladi. Chunki matematika ham, iqtisodiy tahlil ham sodir bo'layotgan jarayonlarning miqdorini o'rganishga qaratilgandir.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar asosan tez o'zgarib turivchi miqdorlardir. Ularning o'zgarishi yuqorida ta'kidlanganidek, o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Ularga bir qancha obyektiv va subyektiv omillar ta'sir qiladi. Aynan shu omillar ta'sirini aniqlashda matematik usullardan keng foydalaniladi.

O'z navbatida matematika ham turli yo'nalishlar bo'yicha rivojlanmoqda. Eng avvalo, abstrakit dalillarga asoslangan mumtoz nazariy matematika bo'lsa, hozirgi paytda amaliyotda keng qo'llanilib kelinayotgan amaliy matematika ham tez rivojlanmoqda. Amaliy matematika boshqa sohalar bilan birga iqtisodiyot sohasini o'rganishga ham izchillik bilan kirib kelmoqda. Bu asosan uning iqtisodiy tahlilda qo'llanilishida nomoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy tahlil fani iqtisodiyotga oid bo'lmagan fanlardan biri ***texnologiya fani*** bilan ham bog'liq. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda uning kamligi yoki ko'pligi qanday texnologiyadan foydalanilayotganligiga bog'liq. Ayniqsa ishlab chiqarish sohasini tahlil qilish uchun eng avvalo uning qanday texnologiyaga asoslanganligini bilish lozim. Shu tufayli tahlilchi, texnologiya fanini va texnologik jarayonlarning sir-sinoatlarini bilishni taqozo qiladi.

O'z navbatida texnologik jarayon ham uzluksiz takomillashib borishni, samaradorligining oshishini talab qiladi. Bu esa uni chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Shu tufayli bu ikki fan ham ma'lum darajada bir-biri bilan uzviy bog'liq ekan.

Masalan, hozirgi paytda ko'p mamlakatlarda texnologik jarayonni tahlil qilish va uni takomillashtirish uchun funksional – qiymat tahlilidan keng ko'lamda foydalanmoqdalar.

Iqtisodiy tahlil matematika fanining bir bo'limi bo'lgan ***dasturlash fani*** bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki hozirgi paytda iqtisodiy yuksalish uchun bir xil andozadan foydalanibbo'lmaydi. Iqtisodiy jarayonlar qanchalik ko'p va murakkab bo'lsa, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar ham shuncha ko'p va murakkab bo'ladi. Shunday sharoitda har bir korxona rahbari, menejeri ko'p variantli qarorlarni ishlab chiqara olishi va undan eng qulayini

(optimalini) tanlab olishi lozim. Bunday natijaga iqtisodiy tahlilga dasturlash fanini qo'llab erishish mumkin.

Dasturlashda ham o'z navbatida miqdoriy va mantiqiy tahlil usullaridan keng foydalanadi. Shu jihatdan bu ikki fan o'rtasida ham uzviy bog'liqlik bor.

Iqtisodiy tahlil jarayonida ko'p narsaning hajmini, maydonini, sathini, og'irligi, uzunligi, enliligi kabi birliklarni o'lchashga to'g'ri keladi. Bunda albatta ***geometriya*** fanining usullaridan foydalaniladi. Demak, iqtisodiy tahlil faqat iqtisodiy fanlar bilan emas, balki iqtiso-diyotga oid bo'lmagan bir qancha boshqa fanlar bilan ham uzviy aloqada bo'ladi.

Iqtisodiy tahlil boshqa fanlarning usullari, tamoyillari va maqsadlaridan foydalanish bilan birga o'zining tayyor axborotlari, usullari va yo'nalishlari bilan shu fanlarning rivojlanishiga ham ma'lum darajada ta'sir qiladi. Olamda (tabiat, jamiyat va inson tafakkurida) sodir bo'layotgan jarayonlar bir-biri bilan uzviy aloqa va bog'liqlikda bo'lgani kabi ularni o'rganuvchi turli fanlar o'rtasida ham mustahkam bog'liqlik va aloqalar mavjud. Demak, hamma narsa dunyoda bir-biri bilan dialektik bog'liqlikda bo'ladi. Bunday konsepsiya iqtisodiy tahlilning nazariy asosini tashkil qiladi.

6-bob. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI VA SHAKLLARI, ULARNING TASNIFI VA TAVSIFI

6.1. Iqtisodiy tahlil turlari va shakllari to'g'risida ma'lumotlar

Iqtisodiy tahlil mazmun va mohiyati jihatidan turli shakllarga va xillarga ega. Ammo ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda ular farqlanmasdan ishlatiladi. Ammo iqtisodiy tahlil mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Iqtisodiy tahlilning turi deganda ma'lum belgilari, xossalari, vazifasi va shu kabilar bilan umumiy bo'lgan guruhlar yoki bir butunlikni tashkil etgan yaxlit xillari tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning shakli deganda uning o'ziga xos bo'lgan tashqi ko'rinishi, sirtqi qiyofasi bilan birga o'ziga xos mazmuni, ya'ni uni amalga oshirish yo'llari, usullari tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning turi va shakli mazmun jihatidan bir-biriga juda yaqin, chunki ularning ikkalasi ham tahlil qiluvchining o'z oldigan qo'ygan maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ammo ular bir-biridan ma'lum belgilari, shakli va mazmuni bo'yicha farq qiladi. Tahlilning turi necha xil bo'lishidan qat'i nazar ularda bir-biriga juda yaqin va o'xshash usullardan foydalaniladi.

Tahlilning shaklida esa har birida o'ziga xos usullar majmuasi qo'llanilishi mumkin. Iqtisodiy tahlilning turi uning belgilari bo'yicha guruhlanadi. Bu tahlilga qaysi nuqtayi nazardan qarashga bog'liq. Masalan, iqtisodiy tahlil mazmun jihatidan qaralsa, u global, lokal va tematik tahlilga bo'linadi.

Bularning hammasida bir xil usullardan foydalanish mumkin.

Ammo iqtisodiy tahlilning shaklini ko'radigan bo'lsak, uni makon va zamon nuqtayi nazaridan qarab, unda qo'llaniladigan o'ziga xos usullarning majmuasidan kelib chiqiladi.

Masalan, kompleks tahlilda qo'llaniladigan kompleks baholash usullari funksional qiymat tahlilida (FQT) qo'llanilmaydi. FQT da qo'llaniladigan usullar omilli tahlilda qo'llanilmasligi mumkin va hokazo.

6.2. Iqtisodiy tahlil turlarining tasniflash belgilari

Iqtisodiy tahlil turli belgilari bo'yicha tasniflanadi. Bu masala har xil darslik va adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Ko'p adabiyotlarda 2–3 ta, 6–7 ta, ba'zilarida 8 ta belgilari bo'yicha tasniflanadi. Ta'kidlanganidek, ko'pgina adabiyotlarda iqtisodiy tahlilning turi bilan shakli farqlanmagan holda berilgan. Tadqiqotlar natijasida iqtisodiy tahlilning turlarini tasniflashda quyidagi belgilardan foydalanish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Bularga: mazmuni bo'yicha tasniflash; makon nuqtayi nazaridan qarash bo'yicha; tahlil qiluvchilar subekti bo'yicha; tarmoq tamoyili bo'yicha; zamon nuqtayi nazaridan tasniflash bo'yicha; ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha; kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha; kompyuterlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash kabi belgilari kiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu mavzu bo'yicha turli takliflar mavjud. Ularni o'rganib va umumlashtirib hamda bu soha bo'yicha uzoq yillik tajribadan kelib chiqib, ushbu holatga to'xtaldik. Bu iqtisodiy tahlilning turlariga bo'lgan nazariy va amaliy jihatdan qo'yiladigan talabni ma'lum darajada qondiradi.

6.3. Iqtisodiy tahlilni iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasniflash

Iqtisodiy tahlil mazmuni bo'yicha uch guruhga bo'linadi: ***global, lokal*** va ***tematik***.

Global tahlil deganda xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini atroflicha to'liq yaxlit holda o'rganish tushuniladi.

Lokal tahlil deganda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining alohida bir tarkibiy qismini o'rganish tushuniladi. Misol tariqasida aksiyadorlik jamiyati xo'jalik faoliyatini olish mumkin. Uning tarkibiga bosh korxona va oltita sho'ba korxonalari kiradi deb faraz qilamiz. Hammasining holatini yaxlit holda bir hisobot davri mobaynida erishilgan natijalari bo'yicha tahlil qilish global tahlilga misol bo'lishi mumkin. Uning alohida bo'linmalarini tahlil qilish lokal tahlilga misol bo'lsa, shu bo'linma ichida alohida bir mavzuni o'rganishga bag'ishlangan tahlil tematik tahlilga misol bo'lishi mumkin. Demak, tematik tahlil deganda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini alohida mavzusi bo'yicha tahlil qilish tushuniladi. Bunga aksiyadorlik jamiyatining bozor faolligini, ish faolligini, moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllarini tasniflashda uning alohida xillari shartli ravishda olingan. Bunda tasniflash belgilari va ularga kirituvchi iqtisodiy tahlil turlari tahlilning nazariy va amaliy jihatlarini hisobga olgan holda yondoshilgan.

6.4. Iqtisodiy tahlilni zamon nuqtayi nazaridan tasniflash

Vaqt — betakror boylik. Agar u yo'qotilsa qayta tiklanmaydi. Shu tufayli vaqtni yo'qotmaslik lozim. Vaqtning o'tishi bilan ishlab chiqarish jarayoni davom etadi. Ma'lum bir davrda natija hisob-kitob qilinadi, chamalanadi, tegishli kamchiliklar va yutuqlar aniqlanadi. Shu tufayli har bir vaqtda sodir bo'lgan jarayonni uzluksiz ravishda tahlil qilib turish lozim. Shu

jihatdan iqtisodiy tahlil uchga bo'linadi: ***tezkor tahlil, joriy tahlil, istiqbol tahlili.***

Tezkor tahlil deganda hisobot davri davomida, u tugamasdan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, hisobot davrini bir chorak deydigan bo'lsak, uning tomom bo'lishini kutish uchun uch oy kerak. Ammo shu muddatda qanday natijaga erishish mumkinligini aniqlash uchun shu davr ichida tezkor tarzda har kuni, har haftada, har o'n kunlikda, har oyda tahlil qilib borish lozim. Bu aynan shu hisobot davrida (chorak ichida) amalga oshiriladi. Shu tufayli ushbu tahlil tezkor tahlil hisoblanadi.

Joriy tahlil deganda hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobot ma'lumotlari va boshqa axborot manbalariga asosan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, hisobot davri chorak bo'lsa, u tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar tuziladi hamda ular tegishli tashkilotlarga (soliq idorasiga, moliya, statistik bo'linmalarga) topshiriladi. Asl nusxasi shu xo'jalik yurituvchi subyektda qoladi. Ana shu hisobot ma'lumotlariga asosan ushbu xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati joriy tahlil qilinadi. Joriy tahlilning qulayligi shundaki, u ma'lum bir davr o'tgach, barcha natijalar jamlangan, xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar qonuniylashgan bo'ladi. Ammo shu bilan birgalikda aniqlangan kamchiliklar o'tgan davrga tegishli bo'ladi. Uni bartaraf qilish uchun vaqt o'tgan bo'ladi. Lekin shu kamchiliklarga endilikda yo'l qo'ymaslik uchun tegishli chora-tadbirlar qo'llaniladi.

Istiqbol tahlili deganda xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusi faoliyatini oldindan o'rganish, bo'ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan iqtisodiy jarayonlar sodir bo'lmasdan oldin o'tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekt biznes-rejani tuzish uchun o'z faoliyatini nima bilan yakunlanishi to'g'risida aniq tushuncha va ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak. Bu esa istiqbol tahlili orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyiha tahlili ham deb atamoqdalar. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida ham, hozirgi bozorli iqtisodiyot sharoitida joriy tahlilga juda katta ahamiyat berilib kelinmoqda. Bu bejiz emas albatta, chunki tahlil uchun axborotlar tizimi shakllanishi lozim. Bu esa hisobot davri tugagandan keyin amalga oshiriladi. Jahon tajribasida ham joriy tahlilga katta ahamiyat beriladi, chunki bor narsani o'rganish bu kelgusi faoliyat uchun asos bo'ladi. Shu tufayli korxonaning moliyaviy hisobotini o'rganish uchun ham bir qancha usullarni o'ziga jamlagan «Moliyaviy tahlil» shakllangan. Bunday tahlil O'zbekistonda ham shakllanmoqda.

6.5. Iqtisodiy tahlilni makon nuqtayi nazaridan tasniflash

Iqtisodiy tahlilning obyekti bu xo'jalik yurituvchi subyektlardir. Bularni falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, makon deb tushunish mumkin. Makon nuqtayi nazaridan iqtisodiy tahlil ikkiga bo'linadi: ***ichki*** va ***tashqi***.

Ichki iqtisodiy tahlil deganda shu xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlari tomonidan o'tkaziladigan tahlil tushiniladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyati xo'jalik faoliyati tahlilini oladigan bo'lsak, uni faqat shunga daxldor kishilar tomonidan o'tkaziladigan tahlildir.

Tashqi iqtisodiy tahlil deganda shu xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini boshqa tashqi subyektlar tomonidan o'tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, aksiyadorilk jamiyati xo'jalik faoliyatini assotsiasiya, soliq idoralari, bank xodimlari, statistik va moliya organlari tomonidan tahlil qilinishi mumkin. Bu tahlil tashqi tahlilga misol bo'ladi va ularni moliyaviy hisobotlarga asosan tahlil qiladi.

6.6. Iqtisodiy tahlilni tahlil qiluvchi subyektlari bo'yicha tasniflash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini juda ko'p mutaxassislar, mulkdorlar, davlat idoralari xodimlari tahlil qiladilar. Bu tahlil kimningdir ko'rgazmasi yoki buyrug'i bilan amalga oshmaydi, balki obyektiv zaruriyat natijasidir. Shu tufayli kimning tahlil qilishiga qarab iqtisodiy tahlil bir qancha turlarga bo'linadi. Bularga ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, auditorlik tahlili, moliyaviy-iqtisodiy tahlil, texnik iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy ekologik tahlil, marketing tahlili kabilar kiradi.

Iqtisodiy tahlilni turli kasb egalari, mutaxassislar amalga oshirar ekan. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil bilan statistik idoralari, boshqaruv idoralari xodimlari, sotsiologik tadqiqotlar laboratoriyalari, menejerlar, iqtisodchilar, buxgalterlar shug'illanadilar. Auditorlik tahlili bilan esa auditorlar, korxona faoliyatiga iqtisodiy jihatdan tashxis qo'yuvchi xodimlar, auditor firmalari kabilar shug'illanadilar. Xuddi shu tarzda boshqa tahlil turlari ham keltirilgan.

Hozirgi sharoitda tahlil turlaridan biri marketing tahlilidir. Har bir korxona ushbu tahlilni amalga oshirishi lozim. Chunki bozorni o'rganmasdan turib ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki ish boshqarish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi. Endi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ombor uchun emas, balki bozor uchun ishlab chiqariladi. Bu esa korxona marketing xizmati xodimlari, ya'ni marketologlarning marketing tahlilini amalga oshirishini taqozo qiladi. Marketing va boshqa tahlil turlari bilan korxona (firma)ning bosh buxgalteri ham shug'illanadi.

6.7. Iqtisodiy tahlilni tarmoq tamoyili bo'yicha tasniflash

Bozor munosabatlari sharoitida ham ma'lum darajada tarmoqlar saqlanib qoladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlil ham shu tamoyil bo'yicha tasniflanadi. Iqtisodiy tahlil tarmoq tamoyili bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: alohida tarmoqlar tahlili va tarmoqlararo umumiy tahlil.

Alohida tarmoqlar tahlili faqat ayrim tarmoqlargagina tegishli bo'ladi. Ular shu tarmoqning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi va boshqa tarmoqlarga ularni bevosita qo'llash qiyin bo'ladi. Masalan, sanoat korxonalari iqtisodiy tahlilini olaylik. Ushbu tahlilni qishloq xo'jaligi yoki savdo korxonalari xo'jalik faoliyatini tahlil qilishga qo'llash qiyin va aksincha.

Tarmoqlararo umumiy tahlilni deyarli barcha tarmoqlarga u yoki bu xususiyatini inobatga olgan holda ozgina o'zgartirishlar bilan qo'llayverish mumkin. Masalan, korxonaning moliyaviy tahlilini olaylik. Bu bevosita moliyaviy hisobot ma'lumotlariga asosan o'tkaziladi. Moliyaviy hisobot esa O'zbekistonda deyarli barcha tarmoq va soha korxonalari uchun bir xil qilib belgilanadi. Xuddi shunday gaplarni «Moliyaviy hisobotni iqtisodiy o'qish va tahlil qilish« bo'yicha ham aytish mumkin. Ushbu guruhga kiruvchi tahlil turiga «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» ham kiradi. Ushbu fanda barcha tur tahlilning metodologik va nazariy asosi yoritilgan. Makroiqtisodiy tahlilda barcha tarmoqlar majmuasi natijalari tahlil qilinadi.

6.8. Iqtisodiy tahlilni kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha tasniflash

Kengaytirilgan ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil qiladi. U to'rtta bosqichdan iborat. Birinchisi moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish bo'lsa, ikkinchisi uning taqsimotidir. Uchinchi bosqich, muomila bosqichi va nihoyat oxirgi bosqich iste'moldir. Hamma bosqichlarda o'ziga xoslik bir. Shu tufayli ushbu soha bo'yicha ham tahlil turlari mavjud. Ular ishlab chiqarish sohasi tahlili, taqsimot sohasi tahlili, muomila sohasi tahlili va iste'mol sohasi tahlilidir.

Shuni e'tirof etish kerakki, ushbu guruhga kiruvchi tahlil turlari alohida fan yoki tahlil turi sifatida o'qitilmaydi. Amaliyotda ham bu tahlillar alohida mavjud emas. Ammo har bir bosqich tahlili turli tarmoqlar tahlilida o'z ifodasini topadi. Masalan, ishlab chiqarish sohasining tahlili sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish kabi ishlab chiqarishga oid sohalar tahlilida o'z aksini topgan. Muomala sohasining tahlili ham savdo korxonalari (ulgurji, chakana) xo'jalik faoliyatining tahlilida o'z ifodasini topadi. Xuddi shunday gaplarni boshqa sohalar uchun ham aytish mumkin.

6.9. Iqtisodiy tahlilni kompyuterlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash

Hozirgi paytda, ayniqsa kelajakda, tahlilni kompyuterlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shu tufayli iqtisodiy tahlil shu belgisi bo'yicha ham tasniflanadi va ular uch guruhga bo'linadi: odatdagidek, kompyuterlashtirilmagan tahlil, qisman kompyuterlashtirilgan tahlil va to'liq kompyuterlashtirilgan tahlil.

Odatdagidek, kompyuterlashtirilmagan tahlilga hozirgi an'anaviy tahlilni misol qilish mumkin. Bu tahlil buxgalteriya, statistik, tezkor hisob va hisobotlar ma'lumotlariga asosan, an'anaviy hisoblash mashinalari orqali amalga oshiriladi.

Qisman kompyuterlashtirilgan tahlilga yarim kompyuterlashtirilgan yoki ayrim qismlari kompyuterlarda qolgan qismlari odatdagidek hisob-kitoblarda amalga oshiriladigan tahlil kiradi. Masalan, xo'jalik faoliyatining ayrim qismlari hisobi kompyuterlarda amalga oshiriladigan bo'lsa, shu soha tahlili ham kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi paytlarda ko'pgina firmalarning ish haqini hisoblash kompyuterlashtirilgan. Shu soha tahlili ham kompyuterlarda amalga oshiriladi. Qolgan qismi esa odatdagidek an'anaviy tarzda amalga oshiriladi.

6.10. Iqtisodiy tahlilni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha tasniflash

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jamiyatning barcha jabhalarida sodir bo'ladi. Ularni o'rganish uchun iqtisodiyotni turli darajalari bo'yicha tasniflash lozim. Bular shu jihatdan ikkiga: makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajaga bo'linadi.

Makroiqtisodiyot darajasida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy tahlil o'rgatadi. Bu mamlakat miqyosida milliy-iqtisodiyot holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Masalan, yalpi milliy mahsulot, aholining daromadlari, milliy daromad kabi ko'rsatkichlar shu makroiqtisodiyot darajasidagi ko'rsatkichlarga kiradi.

Mikroiqtisodiy tahlil esa bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Bu tahlilda korxona, birlashmalar faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganiladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi, foyda, rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi, korxonalar ish va bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va h.k. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgacha makroiqtisodiy tahlil bilan bir qancha tahlilga oid bo'lmagan fanlar (iqtisodiy nazariya, statistika kabilar) shug'ullanadi. Ammo ushbu fanlardan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning holati o'rganiladi, xolos. Ammo hozirgi paytda O'zbekiston uchun makroiqtisodiy tahlil obyektiv zaruriyatga aylandi.

Hozir UzR Vazirlar Mahkamasida, barcha hokimliklarda «Axborot va tahlili» guruhlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning vazifasi bevosita makroiqtisodiy tahlil bilan shug'illanishdan iboratdir. Ammo hamon makroiqtisodiy tahlil metodologiyasi ishlab chiqilmagan. Makroiqtisodiy tahlilda makro darajadagi ko'rsatkichlarning holati bilan birga ularning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar ham o'rganiladi. Bu faqat makroiqtisodiy tahlilning vazifasi, maqsadi va obyektiga kiradi. Shu tufayli makroiqtisodiy tahlilning metodologik va nazariy asosi yaratilishi lozim.

6.11. Iqtisodiy tahlilni o'rganilayotgan obyektni qamrab olish darajasi bo'yicha tasniflash

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati, odatda, batafsil tahlil qilinadi. Ammo ba'zi hollarda uni batafsil o'rganishga hojat bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda xo'jalik faoliyatining bir qismini tanlab tahlil qilish mumkin. Masalan, auditorlar uchun xo'jalik faoliyatini batafsil tahlil qilib o'tirishiga hojat yo'q. Ular faqat ayrim ko'rsatkichlari bo'yicha auditorlik tahlilini o'tkazsa yetardi. Yoki marketing tahlilini olish mumkin. Bunda ham xo'jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarni tahlil qilishga xojat yo'q. Faqat bozor faolligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar tanlab olingan holda tahlil qilinsa yetarli bo'ladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlil o'rganilayotgan obyektni qamrab olish darajasi bo'yicha qilinadigan bo'lsa ularni ikki guruhga batafsil tahlil va tanlab o'tkazilgan tahlilga bo'lish mumkin.

Batafsil tahlilda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar hisobot davrida to'liq o'rganiladi. *Tanlab o'tkaziladigan tahlilda* iqtisodiy jarayonlarning bir qismi o'rganiladi va u orqali butun xo'jalik faoliyatiga taxminiy baho berish mumkin. Shuningdek, iqtisodiy tahlilning ushbu turi ayrim hollarda tematik tahlilga ham o'xshab ketadi. Shuni e'tirof etish kerakki, iqtisodiy tahlil darsligini yaratishda uning metodologiyasini keltirilgan ushbu turlariga moslashtirgan holda yozish maqsadga muvofiqdir. Chunki iqtisodiy tahlil bitta fan. Uning turlari ushbu fanga qaysi nuqtayi nazardan yondoshishga qarab o'zgaradi. Masalan, iqtisodiy tahlil usulini yaratishda batafsil tahlil qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ammo shu metodologiyadan tanlab qilinadigan tahlilda ham foydalanish mumkin.

Yana bir misol. Iqtisodiy tahlilni zamon nuqtayi nazaridan tasniflaganda uning uchga bo'linishini (tezkor, joriy. istiqbol tahlili) ko'rdik. Bu holda iqtisodiy tahlil joriy tahlil tarzida yoritiladi. Ammo uning metodologiyasidan tezkor va istiqbol tahlillarida ham foydalanish mumkin.

Ammo shuni e'tirof etish kerakki, barcha bir tur tahlillar ham bir xil metodologiyaga asoslanishi qiyin. Masalan, Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy tahlil metodologiyasi bir-biridan farq qiladi yoki tarmoqlar tahlili bilan tarmoqlararo tahlil o'rtasida ham ma'lum darajada farq bor. Lekin ularning metodologik asosi iqtisodiy tahlil nazariyasida o'z ifodasini topmog'i lozim. Xulosa qilib aytganda «Iqtisodiy tahlil nazariyasi»da yoritiladigan nazariy va metodologik asoslar barcha tahlil turlarining talablariga javob berishi lozim.

6.12. Iqtisodiy tahlilning shakllari

Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy tahlil turlari uning shakllaridan farq qiladi. Iqtisodiy tahlilning shakllari esa bir-biridan ma'lum darajada o'ziga xos bo'lgan usullari, ketma-ketligi, maqsadi va vazifalari bilan ham

farq qiladi. Masalan, kompleks tahlilda xo'jalik faoliyati makon va zamon nuqtayi nazaridan batafsil tahlil qilinadi. Unda asosiy usullar tariqasida kompleks baholash usullari qo'llaniladi. Ushbu tahlil ma'lum darajada omilli tahlildan farq qiladi.

Omilli tahlilda xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini aniqlash usullari o'rganiladi. Bu juda ko'p tahlil shakllarida qo'llanilishi mumkin. Ammo boshqa tahlilda omilli tahlil usullari asosiy bo'lmasdan, balki xulosani chuqurlashtirish uchun foydalaniladi. Shu ikki tahlil shaklidan farqli o'laroq funksional-qiymat tahlili (FQT) ham mavjud. FQT da ikki tahlilda ham qo'llanilmaydigan, qo'llanilsa ham kam qo'llaniladigan usullardan foydalaniladi.

Boshqa tahlillar asosan ma'lum ko'rsatkichlar, aniq raqamlarga asoslansa, FQT da ko'p hollarda mantiqiy evristik tahlil usullaridan foydalaniladi. Xuddi shunday holatni boshqa tahlil shakllari bo'yicha ham keltirish mumkin.

Demak, iqtisodiy tahlilning turlarida ma'lum darajada metodologik mushtaraklik bo'lsa, shakllarida o'ziga xoslik ustuvordir. Iqtisodiy tahlilning shakllari va har birining qisqacha mazmuni ushbu 6.1-rasmda keltirilgan.

Iqtisodiy tahlil

SHAKLLARI	MAZMUNLARI
1. Kompleks tahlil	Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini makon va zamon nuqtayi nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.
2. Solishtirish tahlili	Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yaxlit holda, alohida tuzilmalari yoki mavzularini baho va vaqt jihatidan solishtiriladigan holatga keltirilib amalga oshiriladigan tahlildir.
3. Omilli tahlil	Xo'jalik faoliyati natijasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash usullari majmuasini o'zida aks ettirgan tahlildir.
4. Funk-sional – qiymat tahlili	Har bir bajariladigan funksiyani (asosiy, yordamchi va nokerak) qiymat jihatidan baholab mahsulotning (ish, xizmat) sifatini oshirgan holda nokerak funksiyalarni bartaraf qilish evaziga ichki imkoniyat (rezerv)larni topish va ishga solishga qaratilgan tahlildir.
5. Marjenal tahlil	Barcha xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarga bo'lib ishlab chiqariladigan mahsulotlarning (bajariladigan ishning ko'rsatiladigan xizmatning) biznesda ko'zda tutilgan foydaga erishish uchun zarur bo'lgan miqdorini aniqlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan tahlildir.
6.Staxostik tahlil	Xo'jalik faoliyatida natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik funksional bog'liq bo'lmagan sharoitdaularning bog'liqligini o'rganishga qaratilgan tahlildir.

7. Loyiha tahlili	Xo'jalik yurituvchi subyektlar istiqbolini, biznes rejasini, investitsiya loyihalarini asoslash uchun hali sodir bo'lmagan, ya'ni bo'lishi kutilayotgan iqtisodiy jarayonlarni o'rgatadigan tahlildir.
8. Moliyaviy tahlil	Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari vamoliyaviy holatini o'rganishga bag'ishlangan tahlildir.
9. Bosh-qaruv tahlili.	Korxona rahbariyati, egasi va mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida qilinadigan tahlildir.
10. Xo'jalik faoliyati tahlili	Korxonalar xo'jalik faoliyatini o'rganishga qaratilgan iqtisodiyotning mikroiqtisod darajasini o'rganishga qaratilgan tahlildir.
11. Audi-torlik tahlili	Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya– xo'jalik faoliyatini audit qilganda to'g'ri xulosa chiqarish uchun auditorlar tomonidan o'tkaziladigan tahlildir.

6.1-rasm. **Iqtisodiy tahlilning shakllari va ularning mazmuni.**

Iqtisodiy tahlilning shakllari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularning har biri ma'lum darajada mustaqil usullarga va tushunchalarga ega. Shu jihatdan uning turlari ma'lum bir belgilari bo'yicha tasniflansa, shakli esa o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy tahlilning turlarida, asosan, tahlilda qo'llaniladigan barcha usullardan foydalanilsa, usullarida esa o'ziga xos turlaridangina foydalaniladi. Yuqoridagi chizmada iqtisodiy tahlilning 11 ta shakli keltirilgan. Masalaning qo'yilishi, ma'lum bir maqsadga erishish uchun bu tahlil shakllaridan ayrim subyektlar alohida foydalanishlari ham mumkin. Ushbu tahlil shakllarining o'ziga xosligi to'g'risida ma'lum bir tushuncha berish uchun ularning ayrimlariga to'xtalish maqsadga muvofiq deb topildi.

7-bob. IQTISODIY TAHLILNI TASHKILLASHTIRISH VA UNDA QO'LLANILADIGAN AXBOROTLAR

7.1. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilishda foydalanuvchilar manfaatini inobatga olish

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy subyekt sifatida ishtirok etadi. U o'z mulkining ko'payishidan, ko'proq foyda olishidan manfaatdordir. Bunga o'z-o'zidan erishib qolmaydi. Buning uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va aql bilan ish ko'rish lozim. Bu esa o'z navbatida mulkining holatini, ishlatilishi va saqlanishishni tahlil qilishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil eng avvolo mulkdor uchun kerak ekan.

Mulkdor o'z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to'g'ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta'minlaydi. Korxona qancha ko'p daromad qilsa mehnat jamoasi a'zolari shuncha ko'p mehnat haqi oladilar. Bu esa mehnat jamoasining o'zlari ishlayotgan korxona xo'jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosita mehnat jamoasi uchun ham kerak ekan.

Har bir korxonaning xo'jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxona o'z mulkidan, qilgan oboroti va olgan foydasidan soliq to'laydi. Shu tufayli davlat nomidan soliq idoralari ham korxona faoliyatini chuqur tahlil qilib borishdan manfaatdor. Demak, iqtisodiy tahlil soliq idoralari xodimlari uchun ham kerak ekan.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy jarayon, ya'ni korxona yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati natijasidan kim manfaatdor bo'lsa, u mazkur subyekt faoliyatini o'rganishga, tahlil qilishga qiziqadi. Shunday qilib, iqqtisodiy tahlil investorlarga, hamkorlarga, birlashmalarga, uyushmalarga, sug'urta, bank, moliya idoralariga ham kerak ekan.

7.2. Iqtisodiy tahlil bilan kimlar shug'ullanadi

Odatda, kimga nima kerak bo'lsa o'sha shu ish bilan shug'ullanadi. Ammo har bir korxonada maxsus mutasaddi shaxslar borki, ularga xo'jalikni boshqarishda u yoki bu soha topshirilgan bo'ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil bilan korxonadagi deyarli hamma mutaxassislar shug'ullanadi. Ammo hammasi ham korxona

to'g'risida jamlangan batafsil axborotga ega emas. Hamma o'zi bajarayotgan u yoki bu soha bo'yicha axborotga ega. Shu jihatdan hamma o'zining sohasini muntazam tahlil qilib boradilar. Lekin shuni e'tirof etish kerakki, xo'jalik faoliyati to'g'risida butun faoliyatni o'zida jamlagan axborotlar buxgalteriyada to'planadi va qayta ishlanadi. Shu tufayli korxonaning kompleks iqtisodiy tahlili bilan buxgalteriya xodimlari, bevosita bosh buxgalterlar shug'ullanadilar.

Chunki unda korxonaning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlari mavjud. Ular moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topdi. Iqtisodiy tahlil uchun asosiy ma'lumot manbai bo'lib, moliyaviy hisobotda ifoda etilgan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ularning kompleks tahlili bilan bosh buxgalterlar shug'ullanadi. Ammo alohida sohalari bo'yicha tahlil kimga kerak bo'lsa, o'shalar shug'ullanadilar. Tahlil tahlil qilish uchun emas, balki kerak sohani o'rganish uchun qilinadi. Demak, kimga nima kerak bo'lsa, u shu sohani tahlil qilish bilan shug'ullanar ekan.

7.3. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari

Korxonaning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bu iqtisodiy ishlarning tarkibiy qismi sifatida o'zining boshlanishi va oxiriga ega. Bu jarayon birqancha bosqichlardan iborat:

1. Tahlilni o'tkazishning maqsadini aniqlash va dasturini tuzish;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni to'plash;
3. Axborotlarning tahlil maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirish va jadvallar tuzish;
4. Jadval ma'lumotlari asosida dastlabki xulosalar chiqarish;
5. Xulosani chuqurlashtirish maqsadida lozim bo'lgan holatlarni chuqurroq o'rganish uchun ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash;
6. Xo'jalik faoliyati yoki o'rganilayotgan ko'rsatkichlar haqida mufassal xulosaga kelish;
7. Korxona xo'jalik faoliyatini yoki o'rganilayotgan ko'rsatkichni yaxshilash yo'llarini ishlab chiqarish va shu tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish.

Mazkur bosqichda tahlilning boshlanishi va oxirigacha bo'lgan jarayon ko'rsatildi. Amalda doim faoliyat ko'rsatuvchi korxona bo'lsa tahlil ham har bir hisobot tuzilgandan keyin va yangi davrni boshlashdan oldin uzluksiz muntazam ravishda o'tkazilib turiladi. Unda barcha bosqichlar aynan shu holatda takrorlanishi mumkin. Faqat ko'rsatkichlarning raqamlari o'zgaradi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlagan holda uni kompyuterga kiritish va tahlil usulini dasturlash ham mumkin.

Albatta shuni e'tirof etish kerakki, tahlil ishlarini dasturlashda va uni avtomatlashtirishda O'zbekistonda ayrim tajribalar ham bor. Bu bo'yicha

I.O. Voljin va V.V. Ergashbayevlarning «Moliyaviy tahlil» (Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998-yil) kitobini misol qilib keltirish mumkin.

7.4. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish

Odatda, tahlilni shunchaki tahlil qilish uchun emas, balki korxona xo'jalik faoliyati to'g'risida batafsil xulosaga kelib va boshqarishni takomillashtirish uchun amalga oshiriladi. Chunki tahlil jarayonida o'rganilgan ko'rsatkichlar, qilingan hisob-kitoblar korxona xo'jalik faoliyatining u yoki bu jihatinigina ifodalaydi. Xo'jalik faoliyati to'g'risida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun barcha ko'rsatkichlar tahlilini jamlab, ularni umumlashtirish lozim. Ular umumlashgach, korxona xo'jalik faoliyatining qaysi qismida yaxshi natijalarga erishilgan, qaysi qismida kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniq bo'ladi.

Kamchilikka yo'l qo'yilgan qismlarga asosiy e'tiborni qaratib, shu kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bu jarayon iqtisodiy tahlilning pirovard natijasi va asosiy maqsadidir.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo'jalik faoliyatini to'liq ifoda etishi lozim. Shuningdek, jadvallar bitta korxonada har safar, korxonaning bo'linmalarida bir vaqtning o'zida yagona kelishilgan shaklda tuzilishi lozim. Bunday yondoshuv ko'rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslash va umumlashtirish imkonini beradi.

Jadvallar, odatda, egasi va kesimiga ega. Uning egasida asosan ko'rsatkichlarning nomi, kesimida esa qaysi davrda amalga oshirilayotganligi, ularning farqi, o'zgarish sur'atlari kabi ifodalar ko'rsatiladi.

Jadvallar natija o'zgarishiga ta'sirini hisoblash jarayonida ham tuziladi. Bu holda jadvalning egasida ta'sir qiluvchi omillar bilan birga natija ko'rsatkichining nomi ifodalanadi. Uning kesimida esa qaysi davr natijalari tahlil qilinayotganligi, shu davrda yuz bergan o'zgarishlar va ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun hisob-kitob qilinadigan usullarning aloqadorligi ko'rsatiladi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari asosan kompyuterlarda amalga oshirilmoqda. Buning imkoniyati juda katta. Shu tufayli tahlilda amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari jadvallar bilan birgalikda turli chizmalar va diagrammalarda ham ifoda etilmoqda. Bu esa korxona xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni juda tez ilg'ash imkonini beradi. Mazkur usullar iqtisodiy tahlilning u yoki bu jihatini aniqlashda qo'llaniladi. Masalan, chizma (grafik)lar ko'rsatkichlarining dinamikasini ifodalashda juda qulay. Korxona xo'jalik faoliyatidagi tarkibiy tuzilmalar, ularning o'zgarishi diagrammalarda ifodalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chizma va diagrammalarning qulayligi shundaki, u korxona xo'jalik faoliyati natijasini har qanday kishi uchun ham tez va tushunarli tarzda ifoda etadi. Masalan, korxonada beshta bo'linma bo'lsa, ularning o'tgan yilga nisbatan birorta ko'rsatkichning o'sishini ustunli diagramma qilinsa eng yuqori natijaga erishganligi eng baland ustun sifatida yoqqol ko'rinib turadi. Bu har bir bo'linma xodimlarining aqliy-ruhiy kayfiyatiga ham ta'sir qiladi. Eng yuqori ustunga erishgan bo'linma xodimlarida faxrlanish, mag'rurlik hissi tug'ilsa eng past ustunga ega bo'lgan bo'linma xodimlarida o'z jamoasi uchun istirob hissi bo'lishi mumkin. Unisi ham bunisi ham ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun kurashish tuyg'usini o'yg'otishi tabiiy. Bu ichki omillar o'ta muhim, ortiqcha mablag' talab qilmaydigan, ammo korxona xo'jalik faoliyatiga ijobiy ta'sir qilib, uni yaxshilaydigan omillardir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, islohotlarning chuqurlashuvi korxonalar o'rtasida erkin raqobat muhitini tug'dirmoqda. Bu esa o'z navbatida korxona xo'jalik faoliyatini tezkor tarzda kundalik natijalarni o'rganib borishni taqozo qiladi. Bu ham hisob-kitoblarga kompyuterlarni qo'llash natijasida ancha osonlashadi. Har kuni ish kunining oxirisida xo'jalik faoliyatining bir kunlik natijasi qanday bo'lganligini aniqlash mumkin. Bu esa yutuq va kamchiliklarni juda tez anglash, yutuqlarni ko'paytirish, kamchiliklarni bartaraf qilishga asos bo'ladi. Tahlilning ushbu shakli boshqaruvni ham tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Kunlik natijalar har kuni jamlanib borilsa, hisobot davrining xohlagan kunida qanday natijaga erishganligini bilib olish mumkin. Masalan, bir oyning o'n oltinchi kuni qanday natijaga erishganligini kunlik hisobotni jamlab borish orqali aniqlash mumkin. Shu, 16-kuni qanday natijaga erishdik va o'tgan 16-kun mobaynida erishgan umumiy ahvolimiz qanday degan xulosani chiqarish uchun ham tegishli axborot mazkur kompyuterda mavjud bo'ladi. Bu esa korxona xo'jalik faoliyatini tezkor boshqarish, kamchiliklarni o'z vaqtida, hisobot davri tugamasdan bartaraf qilish imkonini beradi.

Agar korxonaning barcha bo'linmalarida kompyuterlar o'rnatilgan va ular yagona setga ulangan bo'lsa, boshqarishda yangi usulni, ya'ni qog'ozsiz va jonli muloqotsiz boshqarish usulini joriy qilish mumkin.

Korxona menejeri har bir bo'linmadan tegishli axborotlarni olib, bir joyda umumlashtiradi va xulosa chiqaradi. Xulosa natijasida ishlab chiqarilgan chora-tadbirlar va tegishli topshiriqlarni ham kompyuter orqali set bilan jo'natish mumkin. Bu mutaxassis va bo'linma rahbarlarining turli majlislarga, yig'ilishlarga ketadigan vaqtini ham tejaydi.

Hisobot davri tugagach, tahlil natijasi tezkor tarzda jadvallarda, chizmalarda, turli diagrammalarda tuzilib, qog'ozga chiqariladi va mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada barcha erishilgan yutuqlar bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatga olib kelganligi ko'rsatiladi. Ayniqsa yo'l qo'yilgan kamchiliklarda kim aybdorligi ochiq-oydin ko'rsatilishi lozim. Chunki bu

tadbir kelajakda mazkur shaxsning shu kamchilikka yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

Iqtisodiy tahlilning natijalari bo'yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Qaror qabul qilishda birqancha mutaxassislarni, bo'linmalar rahbarlarini taklif qilib chuqur o'ylangan va puxta ishlangan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Agar korxona yirik bo'lsa, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda «Fikrlar hujumi» usulidan ham foydalanishi mumkin. Bu uning uchun mazkur korxonada ijodiy guruh tashkil qilingan bo'lishi lozim. Mazkur ijodiy guruhning vazifasi korxona xo'jalik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan bo'ladi. Mazkur masala «Funkional qiymat tahlili» bo'limida atroflicha yoritilgan.

Iqtisodiy tahlil natijalari boshqaruv bilan birga auditorlarning xulosa chiqarishi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Auditorlar oldingi taftishchilardek taftish bilan emas, endilikda tahlil bilan shug'ullanishlari lozim. Shu tufayli tahlil usullarini, uni amalga oshirish metodologiyasini buxgalterlar qancha bilsa, auditorlar ularga nisbatan ikki karra ko'p va puxta bilishlari shart. Zero, auditorlik xulosasini chiqarish uchun faqat tahlil natijalaridan foydalanish mumkin xolos.

7.5. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar tizimini shakllantirish tamoyili

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining asarlarida XXI asrda va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasini, jamiyatni yangilash borasida faoliyatimizning asosiy yo'nalishlarini, ularning mazmun va mohiyatini ochib berdi.

Ulardan biri va eng muhimi — bu iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish, demokratik bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga erishishdir. Buning mazmuniga Yurtboshimiz to'xtalar ekan, unga qo'yidagicha izoh beradi: «birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqiyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash demakdir»[1]. Bundan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli ma'lum darajada chegaralanishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini ta'minlash bilan birga, ularning o'z xo'jaligini boshqarishda mustaqilligini va mas'uliyatini oshiradi. Bunday sharoitda Yurtboshimiz iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqiyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash vazifasini qo'ymoqda. Bu esa o'z-o'zidan mulkdor va uning

[1] Xalq so'zi 1999-yil 15-aprel.

tasarrufida ishlovchilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga, takomillashishiga olib keladi. Buning asosiy tamoyili ishonch asosida qurilmog'i lozim.

Bir-biriga ishonch iqtisodiyotda «SAHTXOB» tamoyili orqali erishiladi. Buning mazmuni nimadan iborat degan savolning tug'ilishi tabiiy. Bu eng avvolo soflik (S) degani. Soflik orqali ishonchga sazovar bo'linadi. Bir-biriga ishongan kishilar o'rtasida sof, samimiy munosabat bo'ladi. Ikkinchisi esa, axborotlarning haqqoniyligi (AH). Ishonchga axborotlar haqqoniy bo'lgan joydagina erishish mumkin. Axborotlar oddiy raqamlar emas, ularning har biri qandaydir, kimningdir manfatini ifodalaydi. Ushbu tamoyildagi uchunchi bu to'g'ri xulosa (TX). Axborotlar haqqoniy bo'lmagan joyda to'g'ri xulosa chiqarish qiyin. To'g'ri xulosa haqqoniy, to'g'ri axborotlar mahsulidir. Ushbu tamoyildagi to'rtinchi bo'g'un bu odilona boshqarish (OB). To'g'ri xulosa bo'lmagan joyda odilona boshqarishga erishib bo'lmaydi. Shu tufayli ushbu tushunchalar bir-biriga zanjirsimon, dialektik bog'liqlikka ega.

Shunday qilib, SAHTXOB tamoyili S – soflik, AH – axborotlar haqqoniyligi, TX – to'g'ri xulosa va OB – odilona boshqaruvdan iboratdir.

Ushbu tamoyilni erkinlashayotgan iqtisodiyotning barcha unsurlariga, xususan iqtisodiy tahlilga ham qo'llash mumkin. Chunki iqtisodiy tahlilning ahamiyati bozor munosabatlarining shakllanishi bilan yanada oshaveradi. Endi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlariga maqbul, to'g'ri va foydali yo'l tanlab olishi uchun o'z faoliyatini, qilgan va qilajak ishlarini faqat tahlil qilmog'i lozim. Tahlil har tomonlama bo'lishini taqozo qiladi. Eng avvolo, hozirgi paytda qilinadigan ish oldindan tahlil qilinib ko'rilishi lozim. So'ngra qilinayotgan ish tahlil qilinsa va nihoyat qilingan ish atroflicha tahlil qilinib o'rganiladi.

Tahlilning maqsadi to'g'ri xulosa chiqarish, odilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlarni tayyorlab berishdan iboratdir. Ammo to'g'ri xulosa chiqarish uchun axborotlar haqqoniy, real bo'lishini talab qiladi. Axborotlarni kim to'playdi, kim uning haqqoniyligiga javob beradi.

Albatta mutaxassislar, boshqaruv idorasi (apparatida) o'tirgan xodimlar. Agar ular halol-pok bo'lmasa axborotlar to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Chunki har bir axborotning zamirida, yuqotida ta'kidlanganidek, manfaat yotadi. Agar xodim axborotlarni jamlash va shakllantirishda o'z manfaatini ustun qo'yib ishlaydigan bo'lsa, u haqqoniy bo'lmasligi mumkin.

Haqiqiy bo'lmagan axborot hamisha chalkash va noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Bu esa o'z navbatida oqilona boshqarishga ham salbiy ta'sir qiladi. Shu tufayli tahlil jarayonida ishonch va SAHTXOB tamoyiliga doimo amal qilish lozimligini yana bir bor ta'kidlaymiz.

Ushbu tamoyil tahlil uchun axborotlarni yetkazib beruvchilarning eng avvolo sofligini talab qiladi. Ular sof kishilar, xodimlar bo'lsagina axborot haqqoniy bo'ladi. Agar axborotlar haqqoniy bo'lmasa to'g'ri xulosa chiqarish qiyin. Xulosa chalkash, noto'g'ri bo'lsa, odilona boshqaruv qarorlarini ham

qabul qilib bo'lmaydi. Shu tufayli tahlilda to'g'ri va izchillikni ta'minlash uchun SAHTXOB tamoyiliga doim amal qilish lozim.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish konsepsiyasi unda «Ishonch va SAHTXOB» tamoyillaridan foydalanishni yanada kuchaytiradi. Chunki Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: «Iqtisodiyotni erkinlashtirish — xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z faoliyati uchun iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyatini oshirish demakdir»[1]. Bundan ko'rinib turibdiki, erkinlik hamisha mas'uliyat bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Hamma jabhada erkinlikni joriy qilish uchun oldin mas'uliyat hissasini uyg'otish lozim. Mas'uliyat bo'lmasa, boqimandalik kayfiyatida yurgan shaxslarga erkinlik berib bo'lmaydi. Mas'uliyat insonlarda tashabbuskorlik, izlanuvchanlik hissini uyg'atadi. Bunday rahbarlar boshqarayotgan korxonalar yuqori samaradorlikka erishayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Muxtasar qilib shuni ta'kidlash joizki, erkinlik o'z-o'zidan bir kunda beriladigan jarayon bo'lmasdan, unga bosqichma-bosqich erishiladigan ne'matdir. Har bir insonda mas'ullik tuyg'usi o'yg'onganligi to'g'risida eng avvalo o'zida, keyin o'zgalarda ishonch hosil qilishi lozim. Ishonch bor joyda samimiylik bor. Aynan shu holatda «SAHTXOB» tamoyilini qo'llash mumkin. Ushbu tamoyil bugungi kun talabidan kelib chiqqan iqtisodiyotda va uning barcha unsurlarida qo'llanilishi lozim bo'lgan mazmun mohiyati jihatidan yangi tamoyildir.

KALITLI SO'ZLAR

tahlil, iqtisodiy tahlil, boshqaruv tahlili, moilyaviy tahlil, kompleks tahlil, qiyosiy tahlil, omilli tahlil, ko'rsatkichlar, omillar, natija ko'rsatkichi, mutlaq ko'rsatkich, nisbiy ko'rsatkichlar, o'rtacha ko'rsatkichlar, iqtisodiy tahlil predmeti, iqtisodiy tahlil obyekti, iqtisodiy tahlil metodi, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, zamon va makon, miqdor va sifat, shakl va mazmun, usul, uslub, iqtisodiy tahlil turlari, iqtisodiy tahlil shakllari, funksional-qiymat tahlili, joriy tahlil, tezkor tahlil, marjenal tahlil, staxostik tahlil, loyiha tahlili, auditorlik tahlili, xo'jalik faoliyati tahlili, strotegik tahlil.

«IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI» bo'limi bo'yicha takrorlash va o'zini-o'zi nazorat qilish uchun savollari

1. Iqtisodiy tahlilning vujudga kelishida asos bo'lgan jihatlar nimalardan iborat?
2. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishidagi elemintlarni ayting.
3. Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixida asosiy bosqichlarni ko'rsating.

---

[1] Xalq so'zi 1999-yil 15-aprel.

4. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllangach qanday nomlar bilan atalib kelindi?

5. Iqtisodiy taxlil fanining O'zbekistonda yaratilish tarixida qanday bosqichlarni bosib o'tdi?

6. O'zbekistonda qanday iqtisodiy tahlil maktablari mavjud va ularning yirik nomoyondalari kimlar?

7. Iqtisodiy tahlil predmetining ta'rifi ayting.

8. Iqtisodiy tahlil obyektining ta'rifini bering.

9. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari nimaladan iborat?

10. Iqtisodiy tahlilning korxonani (firmani) boshqarishdagi roli nimalardan iborat?

11. Iqtisodiy tahlil predmeti bo'yicha turli olimlar qarashlarini taqqoslang.

12. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridagi o'zgarishlar nimalardan iborat?

13. Iqtisodiy tahlilning korxonalarni boshqarishdagi o'rnining oshib borishiga sabablarni malardan iborat?

14. Iqtisodiy tahlilning metodi va metodologik asoslarini ayting.

15. Iqtisodiy tahlil metodi bo'yicha turli qarashlarning nazariy talqini qanday?

16. Materialistik dialektika iqtisodiy tahlil metodining asosi va uning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

17. Iqtisodiy tahlil metodining ta'rifini keltiring.

18. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan falsafiy kategoriyalarning qisqacha izohini keltiring.

19. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullarini ayting.

20. Muvozanat usuli nima?

21. Farqli usuli qanday?

22. Qayta hisoblash usuli nima?

23. Zanjirli almashtirish usulini ayting.

24. Indeks usuli nima?

25. Nisbiy ko'rsatkichli usulni ayting.

26. Logoriflash usulini keltiring.

27. Teng taqsimlash usuli nima?

28. Kichik sonlardan foydalanish usulini ayting.

29. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik modellarning tiplarini ayting.

30. Iqtisodiy tahlil qo'llaniladigan matematik modellarning usullari nima?

31. Iqtisodiy tahlilning boshqa fanlar bilan aloqasi nimadan iborat?

32. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiyotga oid fanlar bilan bog'liqligini ayting.

33. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiy nazariya fani bilan bog'liqligi nimalardan iborat?

34. Iqtisodiy tahlilning buxgalteriya hisobi bilan bog'liqligi nimadan iborat?

35. Iqtisodiy tahlilning audit fani bilan bog'liqligini ayting.

36. Iqtisodiy tahlilning menejment fani bilan bog'liqligi qanday?

37. Iqtisodiy tahlilning statistika fani bilan bog'liqligini ayting.

38. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiyot fani bilan bog'liqligini keltiring.

39. Iqtisodiy tahlilning moliya va kredit fani bilan bog'liqligini ayting.

40. Iqtisodiy tahlilning marketing fani bilan bog'liqligi nimadan iborat?

41. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiyotga oid bo'lmagan fanlar bilan bog'liqligini ayting.

42. Iqtisodiy tahlilning falsafa fani bilan bog'liqligi nima?

43.Iqtisodiy tahlilning matematika fani bilan bog'liqligini ayting.

44. Iqtisodiy tahlilning ma'naviyat asoslari fani bilan bog'liqligini keltiring.

45. Iqtisodiy tahlil turlari va shakllari to'g'risida tushuncha va ularning bir-biridan farqi nimada?

46. Iqtisodiy tahlil turlarini tasniflash belgilarini tushuntiring.

47. Iqtisodiy tahlil iqtisodiy mazmuni bo'yicha qanday tasniflanadi?

48. Iqtisodiy tahlilni zamon nuqtayi nazaridan tasniflash qanday?

49. Iqtisodiy tahlilni makon nuqtayi nazaridan tasniflash nima?

50. Iqtisodiy tahlilni zamon nuqtayi nazaridan tasniflash qanday?

51. Iqtisodiy tahlilni makon nuqtayi nazaridan tasniflash qanday bo'ladi?

52. Iqtisodiy tahlilni tahlil qiluvchi subyektlari bo'yicha tasniflash nima?

53. Iqtisodiy tahlilni tarmoq tamoyili bo'yicha tasniflashni ayting.

54. Iqtisodiy tahlilni kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha tasniflashni keltiring.

55. Iqtisodiy tahlilni o'rganilayotgan obyektni qamrab olish darajasi bo'yicha tasniflash qanday bo'ladi?

56. Iqtisodiy tahlilni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha tasniflashni keltiring.

57. Iqtisodiy tahlilni kompyuterlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash qanday?

58. Iqtisodiy tahlilning shakllarini ayting.

59. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilishda foydalanuvchilar manfaati qanday inobatga olinadi?

60. Iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi subyektlarni ayting.

61. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari qanday?

62. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish qanday?

63. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar tizimini shakllantirish tamoyillarini ayting.

64. SAHTXOB tamoyilining mazmuni nimadan iborat?

8-bob. BOSHQARUV TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI

8.1. Boshqaruv tahlilining obyektiv zarurligi

Boshqaruv tahlili iqtisodiyotda sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlarni o'rganishga dialektik nuqtayi nazardan yondoshishni talab qiladi. Zero, bilish nazariyasi shunga asoslanganki, uning yordamida obyektiv (mavjud) dunyoni bilish mumkin.

Bu degani – bilish jarayoni dialektik xususiyatga ega bo'lib, u voqelikning in'ikosidir. Bilish nazariyasining mantiqiyligi dialektik tarzda quyidagi bog'liqlikda aks etadi, ya'ni: jonli mushohada, abstrakt tafakkur, tajriba.

Bunda jonli mushohada bilishning birinchi bosqichsi bo'lib, u o'rganiladigan hodisalarning tashqi xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Abstrakt tafakkur bosqichida esa hodisalarning ichki mohiyati aniqlanib, ularning rivojlanish qonuniyatlari o'rganiladi. Lekin haqiqatni bilishning mezoni – bu tajribadir.

Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni bilish ham shu uch bosqichli bilish nazariyasiga asoslanadi. Birinchi, jonli mushohada bosqichida xo'jalik yuritishni bevosita iqtisodiy axborotlar tizimi orqali idrok qilinadi. Bu o'rinda iqtisodiy axborotlar tizimiga shunday talablar qo'yiladiki, bular bilish nazariyasining ikkinchi bosqichi – abstrakt tafakkurga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Aynan u dominant (asosiy) rolni o'ynaydi. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda mikroskop yoki kimyoviy reaktivlardan foydalanilmaydi. Tahlilda uni ham, buni ham tafakkur kuchi bajaradi.

Iqtisodiy hodisalarni o'rganish jarayonida dialektik bilish nazariyasi «analiz» va «sintez» usullaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Analiz grekcha «ahalysie» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bir butunni bo'laklarga bo'lib o'rganish» degan ma'noni anglatadi. Sintez grekcha «syhthesie» so'zidan olinib, «umumlashtirish» degan ma'noni bildiradi.

Boshqaruv tahlili boshqaruv tizimining maxsus funsiyasidir. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana ham jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishni bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Bu muhim vazifalarni bajarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish darkor.

Tahlil korxonalarni boshqarish tizimida oraliq bosqichni egallaydi. Bu jarayonni ushbu formula orqali ifodalash mumkin:

$$I + A + K - T - I_1 - A_1 - K_1 - T_1.$$

Bunda:

I – informatsiya (axborot) bo'lib, uni buxgalteriya hisobi va hisoboti, tezkor hisob va hisobot, statistik hisob va hisobot, biznes-reja hamda hisobdan tashqari ma'lumotlar tashkil qiladi;

A – tahliliy bosqich;

K – tahlil natijalari asosida qarorlar qabul qilish;

T – qarorlarni ishlab chiqarish bo'g'inlarida tatbiq etish;

I_1 – bajarilmagan qarorlar;

A_1 – qayta tahlil qilish;

K_1 – qayta qaror qabul qilish;

T_1 – qarorni ishlab chiqarish bo'g'inlariga qayta tatbiq etish.

Binobarin, ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida uch bosqichni ko'rsatish mumkin:

1. Axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tayyorlash.

2. Obyektning holatini iqtisodiy tahlil qilish va tahlil natijalari asosida takliflar kiritish.

3. Qarorlarni qabul qilish va amaliyotga tatbiq etish.

Qabul qilingan qarorlarning samarasi va sifati tahlilni o'z vaqtida hamda tezkor tarzda o'tkazilganligiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu yerda asosiy vazifa – ana shu uch bosqichni bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lash hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning ikki xil yo'nalishini ko'rsatish mumkin:

1. Korxonalar, assotsiatsiyalar va konsernlarning xo'jalik foliyatini tahlil qilish;

2. Iqtisodiyotning makro darajasini tahlil qilish. Bunda tumanlar, viloyatlar va butun respublika iqtisodiyotini yaxlit holda tahlil qilish tushuniladi.

Shuni aytish kerakki, iqtisodiyotni tahlil qilish iqtisodiy fanlar majmuasida mustaqil o'rin olmagan bo'lib, u iqtisodiy nazariya va makroiqtisod kurslarida o'rganiladi. Holbuki, iqtisodiy tahlil fani iqtisodiy fanlar qatorida o'ziga xos mustaqil o'ringa ega. Bozor munosabatlarini shakllantirish ko'p jihatdan ishlab chiqarishning boshqarishni muttasil takomillashtirish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, ichki xo'jalik rejasini tuzish va uni takomillashtirishni, korxonalar va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida butun texnikaviy va iqtisodiy siyosatni olib borishni taqozo qiladi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining birqancha qarorlarida ana shu muhim masalalarni izchillik bilan amalga oshirish ta'kidlanadi. Bu qarorlarni bajarish o'z navbatida xo'jalikni boshqaruvchi idoralarni yana ham ishlab chiqarishga yaqinlashtirish, iqtisodiy bo'linmalar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni yana ham aniq chegaralashni, boshqaruv apparati ishining tezkorligini va ixchamligini oshirishni taqozo qiladi. Demak, hisob va iqtisodiy tahlil xo'jalikni boshqarishda asosiy qurol bo'lishi kerak. Binobarin, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni va natijalari o'z aksini kundalik hisob va hisobotda topadi. Bu o'rinda

korxonalarning ish faoliyati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari xo'jalikni boshqarishda muhim qurol bo'lib xizmat qiladi. Moliya vazirligining buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini tahlil qilish uchun har tomonlama asoslangan va aniq ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan axborotlarni qamrab olgan hisob va hisobotlar tizimini ishlab chiqadi va ularning amaliyotga tatbiq etilishi qat'iy nazorat qilib turadi. Demak, iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatini nazorat qilishda, iqtisodiy tejamkorlikka erishishda, texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, ilg'or tajribalarni tarqatishda, ish faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarga barham berishda va ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashda muhim qurol sifatida qo'llaniladi.

8.2. Boshqaruv tahlilining mazmuni va mohiyati

Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda har bir korxona, mulk shaklidan qat'i nazar, erkin raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatadi. Raqobat, o'z navbatida, har bir korxonani qandaydir o'zining strategiyasi va taktikasiga ega bo'lishni, shu yo'l bilan raqobatga yengilib, sinib ketmaslikning faqat o'ziga xos yo'llarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bu esa har bir korxonada ishlab chiqarish, texnologik, tijorat kabi jarayonlarning sir saqlanishini, bu sirni boshqa subyektlarga oshkora qilmaslikni, undan o'z manfaati yo'lida foydalanishlikni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida, xo'jalik faoliyatini ikki xil yo'nalishda tahlil qilish zaruratini keltirib chiqardi. Shu tariqa korxonaning ishlab chiqarish, texnologik, tijorat kabi sirlarini saqlashga qaratilgan, faqat korxonaning xodimlari o'tkazadigan «Boshqaruv tahlili» va tashqi subyektlar amalga oshiradigan hamda oshkora qilinishi mumkin bo'lgan moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topgan axborotlar va ko'rsatkichlarga tayanadigan «Moliyaviy tahlil« vujudga keldi.

Boshqaruv va moliyaviy tahlillarning vujudga kelishiga faqat yuqorida keltirilgan dalillargina sabab bo'lmasdan, balki mamlakatimizda xalqaro andozalar talabiga mos bo'lgan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» ishlab chiqilishi va ularning amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinishi ham tahlilda shuday tarzdagi tarkibning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, bugungi amaliyot korxonalarning boshqaruv hisobi va hisobotini hamda moliyaviy hisob va hisobotini yuritishni taqozo qilmoqda. Hisob va hisobotlar, odatda, iqtisodiy tahlilning birinchidan, asosiy ma'lumotlar yetkazib beruvchi axborot manbalari bo'lsa, ikkinchidan, axborotlar shunchaki axborot uchun emas, balki korxonani boshqarish va uning samaradorligini oshirish uchun tuziladi. Bu ham amaliyotga boshqaruv va moliyaviy tahlilning joriy qilinishini taqozo qiladi.

Korxonalarda ma'lumotlarning sir saqlanishi va bir qismining tashqi iste'molchilar uchun oshkor qilinishi mumkinligi iqtisodiy tahlilni ham ikkiga, ya'ni ichki va tashqi tahlilga bo'lishni taqozo qiladi. Ko'p hollarda

ichki tahlil deganda boshqaruv tahlili, tashqi tahlil deganda moliyaviy tahlil tushuniladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, moliyaviy tahlil ham o'z navbatida ichki va tashqi moliyaviy tahlillarga bo'linadi.

Tashqi moliyaviy tahlilni tashqi subyektlar, ya'ni korxonaning axborotlarini tashqi iste'mol qiluvchilar (banklar, soliq, moliya, statistik organlari, hamkor tashkilotlar kabi) amalga oshirsa, ichki moliyaviy tahlilni korxonaning bevosita o'z xodimlari amalga oshiradi. Mos ravishda, tahlil natijasidan o'zlariga tegishli boshqaruv qarorlarini ham kim nima maqsadda tahlil qilsa, shu maqsadda qabul qiladi va foydalanadilar.

Boshqaruv tahlilini hamisha ham korxonaning faqat o'z xodimlari amalga oshirmaydi, balki korxona rahbariyati tomonidan jalb qilingan auditorlar, maslahatchilar va boshqa mazkur korxonaga aloqasi bo'lmagan xodimlar, ya'ni tashqi subyektlar ham amalga oshirishlari mumkin. Lekin shartnoma bilan jalb qilingan xodimlar mazkur korxonaning sirini oshkor qilishga haqlari yo'q. Bu qonunlar bilan kafolatlangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozir O'zbekistonda iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi sifatida boshqaruv tahlilini kiritish tan olingan[1]. Ammo uning ta'rifi erkin iqtisodiyot va raqobatga mos ravishda hamon yetarli darajada ishlab chiqilgan emas. Buni inobatga olib boshqaruv tahliliga quyidagi ta'rif keltirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshqaruv tahlili deganda korxona rahbariyati, uning egasi va mutaxassislari tomonidan boshqaruv hisobi va hisobotlari asosida ichki imkoniyatlarini ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida, ma'lumot manbalari va natijalari ma'lum darajada sir tutiladigan ichki tahlil tushuniladi.

Ko'rinib turibdiki, boshqaruv tahlili ham iqtisodiy tahlilning bir qismi sifatida korxonada sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning holatini va uni takomillashtirish yo'llarini o'rgatar ekan.

Moliyaviy tahlil ma'lum bir tizimga ega bo'lgan moliyaviy hisob va hisobotlarga asoslangan bo'lsa, boshqaruv tahlili boshqaruv hisobi va hisobotlariga asoslanadi. Boshqaruv hisobi va hisoboti tezkor hisob va hisobot shaklida korxona rahbari hamda mulk egasining maqsadi hamda manfaatidan kelib chiqib turli yo'nalishlariga ega bo'lishlari mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, hamon boshqaruv tahlilining tarkibi iqtisodiy adabiyotlarda ham, amaliyotda ham aniq belgilangan emas.

8.3. Boshqaruv tahlilining tarkibiy tuzilishi

Boshqaruv tahlilining tarkibini shakllantirishda ushbu tahlil nimani o'rganishi va nimaga xizmat qilishidan kelib chiqish lozim. Chunki ushbu tahlil iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos maqsadi, vazifasi

[1] *Yo. Abdullayev* va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. 100 savol va javob. –T.: Mehnat, 2001. 28–29-betlar. M.Q. Pardayev. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. – Samarqand, Zarafshon 2001. 182–183-betlar.

va iste'molchisiga ega. Shu jihatdan qaraladigan bo'lsa boshqaruv tahlili korxona rahbari, mulk egasi va uni boshqarishda ishtirok etadigan turli menejerlarga tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlar tayyorlab beradi. Bu ma'lumotlar faqat shu korxonaga bevosita dahldor bo'lgan xodimlarga mo'ljallangan bo'lib, uning tijorat, ishlab chiqarish, texnologik kabi sirlarini oshkor qilmasligi lozim. Bu esa boshqaruv tahlilida qanday mavzular, sohalar o'rganish lozimligini belgilaydi.

Boshqaruv tahlilida korxonada asosan ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini hamda xarajatlar sarfi bilan moliyaviy natijalarga erishish yo'llarini, ushbu holat orqali shu korxona samaradorligini oshirishning o'ziga xos usullarini o'rganadi. Bu esa uning tarkibining shakllanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Bir guruh olimlar Yo.A. Abdullayev, A.Ibrohimov va M.Rahimovlar[1] boshqaruv tahlili tarkibiga uchta sohani kiritishni tavsiya qiladi. Bularga ishlab chiqarish faoliyati boshqaruvi tahlili, tijorat faoliyati boshqaruvi tahlili va moliyaviy faoliyat boshqaruvi tahlili kiritilgan. Ushbu taqsimot ma'lum darajada boshqaruv tahlilida ko'riladigan masalalarni qamrab oladi. Ammo ushbu guruhlardagi o'rganiladigan masalalarga diqqatni qaratadigan bo'lsak, boshqaruv tahlilida o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar to'liq qamrab olinmagan. Masalan: ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatni boshqaruv tahlilining birlashgan guruhiga mehnat resurslari tahlili va ashyoviy resurslar tahlili kiritilgan. Moliyaviy faoliyat bilan bog'liq ko'rsatkichlar ushbu chizmada umuman o'z aksini topmagan. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, boshqaruv tahlili tarkibiga quyidagi bo'limlar kiritilsa maqsadga muvofiq deb hisoblanadi va tavsiya qilinadi:

1. Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish tahlili.
2. Xarajatlar sarfini boshqarish tahlili.
3. Tijorat faoliyatini boshqarish tahlili.
4. Mehnat salohiyatidan foydalanishning boshqarish tahlili.
5. Moliyaviy faoliyat va uning natijalari bilan bog'liq vaziyatni boshqarish tahlili (marjinal tahlil).

Ushbu masalalarni qamrab olish uchun boshqaruv tahlilida ko'riladigan mavzularni quyidagi tartibda joylashtirish tavsiya qilinadi. Ushbu chizma boshqaruv tahlilida ko'riladigan mavzularni asosan qamrab oladi. Unda ko'rilishi lozim bo'lgan masalalarning deyarli hammasi kiritilgan. Ammo boshqaruv tahlili bu masalalar bilan hali cheklanib qolmaydi. Chunki korxonaning faoliyati shu darajada keng-ko'lamli va serqirraki, uning faoliyatiga qo'ygan maqsaddan kelib chiqib mazmuni va tarkibi kengayaveradi. Uning chegarasi va ko'riladigan masalalar ko'lami qaysi sohani tahlil qilishga ham bog'liq. Shu tufayli mazkur ishda boshqaruv tahlilining asosiy masalalarinigina keltirildi. Albatta, bu tavsiyalar olimlar va tadqiqotchilarning xulosa chiqarishi va uni takomillashtirish uchun tafakkur qilish,

[1] *Yo. Abdullayev* va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. 100-savol va javob. — Mehnat, 2001. 29-bet.

bahslashish obyekti bo'lib hisoblanadi. Kelajakda ushbu muammo ustida olimlarimiz yirik tadqiqotlar olib boradi va u zamon talabiga mos holda shakllanadi va rivoj topadi. Boshqaruv tahlili o'ziga xos tahlil bo'lganligi tufayli uning vazifasi ham o'ziga xosdir. Shu tufayli bu masalani ham qisqacha ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi.

8.4. Boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona egasi o'z korxonasining yuqori samaradorlik bilan ishlashini ta'minlashi uchun oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishni xohlaydi. Buning uchun tegishli axborotlar mavjud bo'lishi lozim.

Ushbu axborotlarni yetkazib beradigan dastaklardan biri boshqaruv tahlilidir. Bundan ko'rinib turibdiki, boshqaruv tahlilining bosh vazifasi korxona rahbari va egasiga boshqaruv qarorlarni qabul qilishi uchun tegishli axborotlarni tayyorlab berishdir. Buning uchun boshqaruv tahlilida ancha jarayonlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Bu uning asosiy vazifalarida namoyon bo'ladi. Boshqaruv tahlilning eng muhim va asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Biznes-rejaning qanchalik realligi (haqiqiyligi) va ilmiy jihatdan asoslanganligiga baho berish.
2. Korxona iqtisodiyotini rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar bazasini aniqlash.
3. Biznes-rejaning bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratib aniqlash.
4. Ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash (bu o'rinda tahlilning samarasi, birinchidan, aniqlangan rezervlarning butun nazariy jihatdan asoslangan rezervlarga nisbati va ikkinchidan, amalga oshirilgan rezervlarning aniqlangan rezervlarga nisbati bilan belgilanadi).
5. Korxonalarning xo'jalik faoliyati natijasida kutiladigan samaralarni oldindan aniqlash.
6. Tahlil materiallariga asosan ishlab chiqarishda aniqlangan kamchiliklarni tugatishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish.
7. Ishlab chiqilgan tadbirlarga asosan oqilona boshqaruv qarorlarni qabul qilish.

8.5. Boshqaruv tahlilning asosiy tamoyillari va ichki imkoniyatlarni topishdagi ahamiyati

Boshqaruv tahlili ham bir qancha tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar turli xil bo'lishi mumkin. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish uchun asos qilib, odatda, quyidagi tamoyillar olinadi:

1) obyektning holatini dastlabki iqtisodiy-nazariy jihatdan tahlil qilishning zarurligi va o'rganiladigan hodisalarning mohiyati va bir -biriga o'zaro bog'liqligi;

2) tahlilning kompleks xarakterga ega ekanligi hamda o'zaro bir-biriga uzviy ravishda bog'liq tahliliy ko'rsatkichlar tizimining qo'llanilishi;

3) iqtisodiy ma'lumotlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash jarayonida o'rganiladigan hodisalarni guruhlashtirish va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni miqdoriy va sifat belgilariga qarab turkumlash;

4) korxonalarning faoliyatini tahlil qilishda taqqoslash usulining ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati;

5) tahlil natijalari asosida ilg'or tajribalarni keng yoyish va ommani korxonalarni boshqarishga yana ham keng jalb etish;

6) korxonalarni boshqarishda hisob va hisobotning hal qiluvchi roli hamda ularning iqtisodiy tahlilda asosiy axborot manbayi ekanligi.

Yuqorida qayd qilingan tamoyillar iqtisodiy tahlilning shakllanishiga va uning rivojlanish jarayoniga asos bo'ladi.

Boshqaruv tahlilining ichki imkoniyatlarni aniqlashdagi ahamiyati

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – yashirinib yotgan ichki imkoniyatlarni aniqlashdir. Bu uchun esa ularni ilmiy asosda turkumlash kerak. Rezervlar quyidagilardan iborat: xalq xo'jalik, tarmoq, regional (yondosh) va ichki xo'jalik rezervlari. Aytaylik, mashinasozlik sanoatida mahsulot tannarxini kamaytirish borasida bo'lgan katta rezervlardan biri – rangli metallarni plastmassalar bilan almashtirish hisoblanib, bu o'z navbatida kimyo sanoatini yanada rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu sababli, bunday rezervlar xalq xo'jalik rezervlari qatoriga kiradi. Ixtisoslashtirish darajasini oshirish esa tarmoq rezervlari qatoriga kirib, u asosan korparatsiya, konsern, vazirlik kabi boshqaruv idoralariga bog'liqdir. Mintaqaviy rezervlarga, aytaylik, bir ma'muriy tumanda joylashgan turli boshqarmalarga qarashli sanoat korxonalarini tezkorlashtirish misol bo'la oladi.Ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va ularni xo'jalik oborotiga yo'naltirishda korxonalar katta imkoniyatlarga ega. Bu esa, asosan, ishlab chiqarish resurslaridan iborat uch guruh (mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari) omillaridan oqilona va samarali foydalanishga bog'liq bo'ladi.

9-bob. BOSHQARUV TAHLILINI TASHKILLASHTIRISH VA UNDA QO'LLANILADIGAN MA'LUMOTLAR MANBAYI

9.1. Boshqaruv tahlilini tashkil etish

Boshqaruv tahlilini tashkil etish uning bosqichlarini aniqlab olishdan boshlanadi. Analitik jarayonni muvaffaqiyatli o'tkazishning garovi uni har tomonlama puxta tashkil qilishdir. Analitik jarayon quyidagi bosqichlardan iborat: 1) tahlil dasturini tuzish; 2) tahlil uchun ma'lumotlar tanlash va ularni tekshirish; 3) ko'rsatkichlarni tanlash va hisoblash; 4) ko'rsatkichlarni analitik jihatdan qayta ishlash va taqqoslash; 5) tahlil natijalarini umumlashtirish va korxona hamda tashkilotlar faoliyatida sodir bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun chora va tadbirlar ishlab chiqish hamda aniqlangan ichki xo'jalik rezervlaridan foydalanish. Dastursiz bajariladigan tahlil, yoxud o'rganiladigan masalalar ko'lamini aniq belgilamaslik o'z navbatida tahlil natijalariga putur yetkazadi. Shuning uchun analitik ishlarni tashkil qilish borasidagi eng ma'suliyatli vazifa – iqtisodiy tahlil dasturini tuzish hisoblanadi.

Tahlil dasturining hajmi va mazmuni undan ko'zlangan maqsadga bog'liq. Masalan, tahlil kompleks tarzda o'tkazilishi mumkin. Bunda korxona va tashkilotlarning faoliyatining hamma tomonlari chuqur o'rganiladi. Yoki ishning qandaydir bir tomonini o'z ichiga olgan tematik (tanlanma) tahlil bo'ladi. Kompleks tahlil o'tkazilganda oylik, choraklik va yillik hisobot materiallari asosida analitik bayonot yozishda qo'llaniladigan jadvallar tuziladi. Masalan, butun moliya-kredit tizimi bo'yicha tahlil moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan umumiy va yagona dastur, metod hamda umumiy analitik jadvallar maketi asosida olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lur edi. Agar tanlanma tahlil o'tkazilsa, u holda dasturda uning mavzusi, hajmi, qanday manbalarga va ma'lumotlarga asoslanishi, tahlilni bajaruvchi shaxs, ishning bajarilish muddati kabi tashkiliy masalalar ko'rsatilishi kerak.

Tahlil uchun materiallarni tayyorlashda joriy hisobda berilmaydigan ma'lumotlarni aniqlash katta ahamiyatga molik. Masalan, ishchilarning bekor turib qolish sabablarini aniqlash uchun bevosita kuzatuv olib borish kerak. Bunda ish kunini fotografiya qilish orqali yoki ushbu uchastkada band bo'lgan ishchilar va boshqa xodimlarning fikr va mulohazalarini bilish orqali yuqorida aytilgan kamchiliklarning sabablari aniqlanadi.

U yoki bu axborotlar manbasidan foydalanish tahlil dasturini tuzishda hisobga olinishi kerak. Ma'lumotlarning to'g'riligi va aniqligiga ishonch hosil qilingandan so'ng ularni qayta ishlashga o'tiladi.

Korxonalarning faoliyatini tahlil qilishda qatnashadigan subyektlar. Korxona va tashkilotlarning xo'jalik hamda moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda avvalambor ushbu korxonaning xodimlari ishtirok etadi. Korxonalarning xo'jalik va moliyaviy holatini tahlil qilish asosan iqtisod, buxgalteriya va moliya bo'limlarining vazifasidir. Hozirgi vaqtda katta va yirik korxonalarning tarkibida iqtisodiy laboratoriyalar ham iqtisodiy tahlil qilish bilan mukammal tarzda shug'ullanmoqda.

Korxona va tashkilotlar davlatga mansub bo'lsa, ularning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bevosita yuqori tashkilotlarning vazifasi ham bo'lib, ular korxonalarning hisobotini tasdiqlaydilar hamda ularning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini obyektiv (holisona) baholab, tegishli qarorlar qabul qiladilar. Iqtisodiy tahlil qilish bilan moliya va soliq idoralari va bank xodimlari ham shug'ullanadilar. Ular avvalambor so'm bilan nazorat qilish, korxona va tashkilotlarning davlat budjeti bilan bo'lgan o'zaro munosabatlariga taalluqli masalalar bilan qiziqadilar. Statistik idoralari ham iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanadi. Ular qabul qilingan hisobot va statistik ma'lumotlarni statistik usullari bilan qayta ishlab, vazirliklar va boshqarmalarni yig'ma axborot materiallari bilan ta'minlaydilar.

9.2. Boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan ma'lumotlar manbayi

Boshqaruv tahlilining asosiy axborot manbalariga quyidagilar kiradi: 1. Biznes-reja ma'lumotlari. 2. Buxgalteriya hisobi va hisoboti. 3. Statistik hisob va hisobot. 4. Boshqaruv (tezkor) hisob va hisobot. 5. Hisob va hisobotdan tashqari ma'lumotlar.

Ushbu sanab o'tilgan ma'lumotlar ichida eng asosiysi buxgalteriya hisobi va hisoboti hisoblanadi, chunki taxminan 70 foiz ma'lumotlarning iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobidan olindi. Boshqaruv tahlilida ham shu hisobotlar asosiy ma'lumotlar manbayi bo'lib qoladi. Tahlil qilish jarayonida yillik hisobotga yozilgan izohnoma ham har tomonlama ko'rib chiqiladi. Tahlil qilish jarayonida hisobdan tashqari ma'lumotlardan ham foydalanish katta samara beradi. Bularga tekshirish dalolatnomalari, auditorlik xulosalari, yuqori tashkilotlar, moliya va soliq idoralari, banklarning bajargan tahlil natijalari, laboratoriya va tabobat-nazorti materiallari, korxona mehnat jamoasining umumiy majlis materiallari, mutbuot materiallari, tushuntirish va ma'ruza xatlari, ijro etuvchilar bilan shaxsiy suhbat o'tkazish materiallari ham kiradi. Tahlilda qo'llaniladigan ma'lumot manbalarining to'g'riligini tekshirish muhim ahamiyatga ega. Chunki noto'g'ri ma'lumotlar asosida to'g'ri xulosa chiqarib bo'lmaydi. Tahlil qilishning samarasi avvalambor hisobot ma'lumotlarining sifatiga bog'liq. Shuning uchun hisob va hisobot materiallarini obdon tekshirish kerak. Amalda ma'lumotlarni tekshirishning bir necha usullari mavjud.

1. Hisobotlarni tuzish qoidalariga amalga qilish. Ushbu tekshirish o'z ichiga quyidagilarni oladi: hisobot shakllarining to'g'ri to'ldirilishi va ularning O'zbekiston Respublikasi moliya, iqtisodiyot va statistika vazirliklari tomonidan tasdiqlangan shakllarga mos kelishi, ayrim miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlashda arifmetika amallarini to'g'ri qo'llanilganligi kabilar. Hisobot shakllari va hujjatlarda hech qanday tuzatish yoki raqamlarni o'chirib qayta yozish aslo mumkin emas. Hisobot shakllari rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

2. Turli hisobot shakllarida beriladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar summasining bir-biriga mos kelishi. Ushbu tekshirishning mohiyati quyidagidan iborat. Bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar turli hisobot shakllarida beriladi va binobarin hisobot tuzishda ana shu iqtisodiy ko'rsatkichlar summasi bir-biriga to'g'ri kelishi shart. Masalan, ustav kapitalining miqdori 1-shak (Balans) va 5-shakl (Xususiy kapital to'g'risida hisobot) yoki asosiy vositalarining summasi 1-shakl (Balans) va 3-shakl (Asosiy vositalarning harakati to'g'risida hisobot)da beriladi va h.k.

Analitik hisoblar va tahlil natijalarini rasmiylashtirish. Hisobot ma'lumotlarini analitik jihatdan qayta ishlashning usullaridan biri analitik jadvallarni tuzish hisoblanadi. Jadvalga tahlil qilinadigan ko'rsatkichlarning asos va amaldagi darajasi kiritiladi, mutloq farqi, ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari aniqlanadi hamda tegishli xulosa yoziladi. Analitik jadvallarning ustunligi va afzalligi shundan iboratki, u ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishini juda ham aniq ko'rgazmali tarzda namoyon etadi. Tahlilning so'nggi bosqichi uning natijalarini ramiylashtirish hisoblanadi. Tahlil natijalariga asoslangan holda ma'lumotnoma yoki izohnoma yoziladi. Izohnomada korxona va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatida qo'lga kiritilgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari aks ettiriladi hamda bu kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llari ko'rsatiladi. Bu o'rinda ayniqsa aniqlangan ichki xo'jalik rezervlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish yo'llari ko'rsatiladi. Izohnoma juda ham qisqa va mazmunli bayon etilishi lozim.

10-bob. MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH HAJMINING TAHLILI

10.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish hajmi tahlilining vazifalari

Jamiyat ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish asosan sanoat korxonalarining zimmasiga tushadi.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni og'ishmay o'stirish milliy daromad hajmini oshiradi, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarining yuksalishi uchun qo'shimcha manbalarni yaratadi va mehnatkashlarning moddiy farovonlik darajasini yana ham oshiradi. Bozor munosabatlari sharoitida eng dolzarb masalalardan biri fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirishdir. Ishlab chiqarishni texnika jihatdan zamonaviy tarzda qayta qurollantirish va qaytadan uskunalash (rekonstruksiyalash), barpo etilgan ishlab chiqarish potensialidan (imkoniyati) jadal (intensiv)dan foydalanish, boshqaruv tizimining xo'jalik mexanizmini takomillashtirish bozor munosabatlariga o'tish sur'atlarini va uning samaradorligini oshirish hamda shu asosda xalqning farovonligini yuksaltirishni ta'minlaydi. Binobarin sanoatning oldidagi bosh vazifasi yana ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat. Bu degani, har bir mehnat, moddiy va moliyaviy xarajat birligiga ishlab chiqarish hajmi va milliy daromadni keskin tarzda oshirishni taqozo qiladi. Ana shundagina mehnat unumdorligini jadal oshirishga erishish mumkin.

Bozor munosabatlari korxona faoliyatining eng zamonaviy xo'jalik mexanizmini vujudga keltirish vazifasini o'rtaga qo'ydi. Bunday mexanizm korxonani rivojlantirish uchun ta'sirchan ichki omillarni ta'minashi kerak. Iste'molchi uchun ishlashga, resurslarni butun choralar bilan tejashga, fan va texnika yutuqlarini keng qo'llashga undashi zarur. Bu mexanizm korxona manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'un va chambarchas bog'lab olib borishni taqozo qiladi.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha biznes-rejani asoslanganligini va tig'izligini aniqlash;

– korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha o'sish sur'ati, tarkibi, nomenklatura, assortimenti, sifati va bir tekisda ishlab chiqarishga baho berish;

– o'tgan yilga nisbatan mahsulot hajmining o'sishi va uning sabablarini aniqlash;

– tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni yetkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishiga baho berish;

— mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni oshirish bo'yicha rezervlarni aniqlash va uning tarkibi hamda sifatini yaxshilash kabilar.

Ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishda bir qancha axborot manbalari I-II sonli «Korxona (birlashma)ning mahsulot bo'yicha yillki hisoboti» qo'llaniladi. Bundan tashqari, oylik, choraklik hisobotlari ham qo'llaniladi, 5-sonli «Korxona (tashkilot)lar mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar xarajatlari to'g'risida hisobot», yangi texnikani joriy qilish bo'yicha hisobot, mahsulotning sifati va navi bo'ycha statistik ma'lumotlar va hokazo.

10.2. Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni yetkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish

Mahsulotni yetkazib berish shartnomasi — korxonalar o'rtasida tuziladigan bitim, bunda mahsulot yetkazib beradigan korxona xaridor-korxonaga o'zaro kelishilgan assortimentdagi, miqdor va sifatdagi mahsulotni belgilangan muddatda topshirish majburiyatini, xaridor esa uni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shartnomani bajarishning sharoitlari idishga qo'yilgan talablar, narxlar, hisob-kitoblar tartibi, mahsulotlarni o'rab-joylash va tashish usullari kabilardan iborat bo'ladi.

Shartnomadagi majburiyatlarga amal qilinmasa, mahsulot yetkazib beruvchi korxona moddiy jihatdan javobgar bo'lib, iste'molchi ko'radigan zararni qoplaydi. Shartnoma bandlari buzilgani uchun jarimalar to'lash, yetkazilgan zararni qoplash korxonani buyurtmachiga mahsulot yetkazib berish majburiyatidan halos etmaydi. Mahsulot yetkazib berish intizomini korxonalarning o'zigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki moddiy-texnika ta'minot idoradari, transport, butun boshqarish bo'g'inlari ishiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Shartnoma intizomiga rioya qilish iqtisodiyotning balanslashuvi, xalq xo'jaligining normal faoliyat ko'rsatish, korxonalarning bir maromda ishlashi, uning samaradorligini oshirishning zarur shartidir va nihoyat xo'jalik mexanizmini takomillashitrishning eng muhim omilidir. Hozirgi paytda shartnoma xaridor bilan tovar jo'natuvchi o'rtasida bevosita tuzilishi mumkin. Ammo ko'p hollarda u tovar xomashyo birjalari orqali amalga oshiriladi.

Jami sotish hajmida shartnoma majburiyatlariga rioya etmaslikdan iborat salbiy tendensiya, respublikamiz iqtisodiyotining aksariyat sohalari uchun xarakterlidir. Mamlakatimizdagi korxonalarning har to'rttasidan biri shartnoma majburiyatlariga amal qilmayotganligi bunga yaqqol misoldir. Mahsulot yetkazib beruvchilardan ba'zilarining shartnoma majburiyatini buzishi o'z navbatida boshqalarning shu majburiyatlarni bajarmasligiga olib keladiki, bu oqibatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni paysalga soladi.

Sotish hajmida shartnoma majburiyatlariga rioya qilish rejasining bajarilishini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-p

sonli «Korxona (birlashma)ning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yillik hisoboti» shaklidan, shartnomalar va biznes-rejadan olinadi. Buning uchun quyidagi jadval tuzish tavsiya qilinadi (10.1-jadval).

10.1-jadval

Tuzilgan shartnoma majburiyati bo'yicha iste'molchilarga tovarlarni yetkazib berish rejasining bajarilishi (ming so'm)

Davr	Biznes reja bo'yicha sotish hajmi	Yetkazib berilmagan mahsulotning o'sib borishi	Sotish rejasini shartnoma majburiyatini hisobga olgan holda bajarilishi	
			Summasi	Foiz hisobida
I chorak	210650	-2400	208250	
2 chorak	210700	-2300	208400	
I-yarim yillik	421350	-4700	416650	
III- chorak	210600	-2600	208000	
IV -chorak	310650	-3700	306950	
Jami	942600	-8000	931600	98,8

Izoh. Haqiqatda sotilgan mahsulot hajmi 982460 ming so'mni tashkil qilgan.

Mazkur jadvaldan ko'rinishicha, sotish hajmi bo'yicha biznez-reja 164,2 foizga (982460 x 100 : 942600) bajarilgani holda, tuzilgan shartnoma majburiyati bo'yicha reja esa 98,8 foizga bajarildi.

Shartnoma majburiyati bo'yicha rejaning bajarilishini aniqlash uchun biznes-reja hajmidagi sotish summasidan etkazib berilmagan mahsulotlarning summasi chiqarilib, so'ng sotish hajmining biznes-reja darajasiga bo'linadi. Tahlil qilinayotgan korxona iste'molchilarga mahsulotlarning ayrim turi bo'yicha 8000 ming so'mlik mahsulot yetkazib bermagan. Demak, bu holda shartnoma majburiyati rejasi 98,8 foizga bajarildi, ya'ni

$$\frac{942600-11000}{942600}\cdot 100=\frac{931600}{942600}\cdot 100=98{,}8\%.$$

Bozor munosabatlari sharoitida biznes rejaning bajarilishi bilan birga shartnoma majburiyatining bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Korxona ma'muriyati bu masalani tezkor tarzda tahlil qilib borishi lozim.

10.3. Ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish

Korxonalar faoliyatini ifodalovchi hajm ko'rsatkichlari tahlili iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Deyarli barcha iqtisodiy tahlilga bag'ishlangan darsliklarda ushbu masalaga u yoki bu darajada to'xtalib o'tilgan.

Bu borada samarali ijod qilgan I.T. Abdukarimov[1], M.I. Bakanov[2], M.S. Barngols[3], L.I.Kravchenko[4], G.V. Saviskaya[5], V.I. Strajev, E.Ergeshev[6], Yo.Abdullayev, A.Ibrohimov, M.Rahimov[7], A.D. Sheremet[8], M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov[9], A.H. Shoalimov[10] kabi yirik olimlarning nomlarini alohida ta'kidlash mumkin.

Ammo bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiyotning erkinlashuvi, ko'pmulkchilikka asoslangan iqtisodiy tizimda kichik biznesga asoslangan xususiy sektor korxonalarining vujudga kelishi bu sohaga yangicha yondoshishni, iqtisodiy tahlilning o'ziga xos usullarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa iqtisodiyotning hozirgi bosqichida tahlil tahlil qilish uchun emas, balki korxonani bevosita oqilona boshqarish uchun zarur bo'lmoqda. Shu tufayli iqtisodiy tahlilga talab va uni amalga oshirish zarurati yanada kuchaydi. Boz ustiga hozirgi iqtisodiy vaziyat ichki imkoniyatlarni axtarib topishni taqozo qilmoqda. Bu esa bevosita omilli tahlil usullarini ham keng miqyosda qo'llashni talab qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xususiy korxonalarda hajm ko'rsatkichlari ichida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kichik hajmga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarida ushbu ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillar ham o'zgaradi. Bu esa ularni tahlil qilish usullariga ham o'ziga xos tarzda yondoshuvni taqozo qiladi. Ammo yuqorida nomlari zikr etilgan shu sohaning yetakchi olimlari adabiyotlarida aynan, xususiy mulkka asoslangan kichik biznes korxonalariga xos tahlil usullari, ayniqsa omilli tahlil yetarli darajada yoritilmagan. Shularni inobatga olib mazkur korxonalarda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, tannarx, foyda kabi natijaviy ko'rsatkichlar hamda rentabellik, raqobatbardoshlik kabi nisbiy ko'rsatkichlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tizimini ishlab

---

[1] *I.T. Abdukarimov* va boshqalar. Matlubot kooperatsiyasining xo'jalik faoliyatini analiz qilish. – T.: O'qituvchi, 1989.

[2] Курс экономического анализа. Под ред. М.И. Баканова, А.Д. Шеремета. – М: Финанси и статистика. 1984.

[3] *Баринголыц С.Б.* Экономической анализ хозяйственной деятельности предприятий и объединеней. – М: Финанси, 1985.

[4] *Кравченко Л.И.* Анализ хозяйственной деятельности в торговле. – М: Вышая школа, 1995.

[5] *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М: ООО «Новое знание», 2000.

[6] *E.Ergeshev.* Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. – T.: Moliya, 2000.

[7] *Yo. Abdullayev, A.Ibrohimov, M.Rahimov.* Iqtisodiy tahlil. – T.: Mehnat, 2001.

[8] *Шеремет А.Д.* Комплексный экономический анализ деятельности предприятия (вопросы методологии). – М: Экономика, 1974.

[9] *M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov.* Iqtisodiy tahlil I-II-qismlar. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2002.

[10] *A.X. Shoalimov.* Sanoat korxonalari faoliyatining tahlili. – T: Mehnat. 1992.

chiqish va ularni hisoblash yo'llarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida tovarni ishlab chiqarish bilan birga uni sotish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tovarni sotish qanchalik muhim bo'lmasin oldin uni ishlab chiqarish lozim. Ishlab chiqarish bo'lmasa, tabiiyki, sotish bo'lmaydi. Ammo ishlab chiqarish, oldingidek, faqat ishlab chiqarish uchun emas, balki sotishga qaratilgan, tovar esa iste'molchining talabiga javob beradigan bo'lishi lozim.

Bu jarayonlar o'z-o'zidan ushbu ko'rsatkichlar tahliliga ham alohida, bugungi zamon nuqtayi nazari bilan yondoshishni talab qiladi. Ushbu talabdan kelib chiqib mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilish uchun quyidagi umumlashgan jadvalni tuzish kerak (10.2-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxona mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha hisobot yilida rejani 100,9 %, sotish hajmi bo'yicha esa 102,3 % ga bajargan. O'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'ati ham mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha 107,3 % ni tashkil qilgan bo'lsa, sotish bo'yicha esa 108,9 % ni tashkil qilgan. Sotish hajmining tez o'sishi sotilmay qolgan tovarning kamayishidan, barcha ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z xaridorini topayotganidan dolalot beradi. O'tgan yilda barcha ishlab chiqarilgan tovarlarning 98,05 % sotilgan bo'lsa, hisobot yilida bu ko'rsatkichning miqdori 99,51 % ga yetgan. Bu ham sotilgan mahsulot bo'yicha

10.2-jadval

«Turon» ko'ptarmoqli mas'uliyati cheklangan jamiyatda hisobot yilida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi va ularning o'zgarishini aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida		Farqi (+,-)		O'zgarish sur'ati	
		rejada	haqiqatda	rejaga nisbatan	o'tgan yilga nisbatan	rejaga nisbatan	o'tgan yilga nisbatan
1. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, shartli banka	41040	43646	44025	+379	+2985	100,9	107,3
2. Sotilgan mahsulot hajmi, shartli banka	40237	42815	4388	+996	+3574	102,3	108,9
3.Sotilgan mahsulotning ulushi, %	98,05	98,8	99,51	+1,40	+1,46	X	X

Manba. Korxonaning yillik hisobotlari asosida tuzildi.

ijobiy natijaga erishilganligidan dalolatdir. Ushbu jadval ma'lumotlari ishlab chiqarilgan va sotilgan tovarlar haqida umumiy xulosa qilishga asos bo'ladi. Ammo ko'pincha shunday holatlar bo'ladiki, bu umumiy muvaffaqiyatlarning ichida ayrim kamchiliklar, hali ishga solinmagan imkoniyat (rezerv)lar yashirinib yotgan bo'lishi mumkin. Bularni aniqlash uchun ushbu umumiy hajmni alohida tovar guruhlari bo'yicha ham o'rganishni taqozo qiladi. Buning uchun quyidagi jadval tuziladi (10.3-jadval).

10.3-jadval

«Turon» KMChJda hisobot yilida mahsulot ishlab chiqarish hajmini alohida tovar guruhlari bo'yicha reja bajarilishining hisob-kitobi (natural miqdorda)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida		Farqi (+,-)		O'zgarish sur'ati	
		rejada	haqi-qatda	rejaga nisba-tan	o'tgan yilga nisbatan	rejaga nisbat-an	o'tgan yilga nisbatan
1.Olma sharbati	6253	6640	678	+71	+458	101,1	107,3
2.O'rik sharbati	7360	7818	5350	-2468	-2012	68,4	72,7
3.Uzum sharbati	4130	4400	6205	+1805	+2075	140,7	150,2
4.Pamidor sharbati	4815	589	4912	-207	+97	96,0	102,0
5.Gilos sharbati	6252	6641	7881	+1240	+1629	88,7	126,1
6.Sabzi sharbati	7258	7717	7548	-169	+290	97,8	104,0
7.Behi sharbati	4972	538	5418	+107	+446	102,0	109,0
	41040	43646	44025	+379	+2985	100,9	107,3

Manba.Korxonaning buxgalteriya hisobi hisobotlari asosida tuzildi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish rejasi hisobot yilida umumiy hajmi bo'yicha 100,9 % bajarilgan.

Ularni alohida tovar guruhlari bo'yicha tahlil qilganda shu aniq bo'ldiki, ishlab chiqarish rejasi umuman bajarilganligi bilan ayrim mahsulot turlari bo'yicha haqiqiy miqdor rejaga nisbatan ancha kam bo'lgan.

Xususan, o'rik sharbati bo'yicha reja atigi 68,4 % bajarilgan, pamidor sharbati ishlab chiqarish bo'yicha reja bajarilishi 96,0 % ni tashkil qilgan bo'lsa, sabzi sharbati bo'yicha 97,8 % ga teng bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, yetti xil mahsulotning to'rttasi bo'yicha reja bajarilgan bo'lsa, uchtasi bo'yicha bajarilmagan. Agar shu mahsulotlar bo'yicha reja bajarilganda edi, haqiqiy

natija yana 2844 shartli bankaga (2468+207+169) oshgan bo'lar edi. U holda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining haqiqiy hajmi 44025 shartli banka emas, balki 46869 shartli bankaga (44025+2844) teng bo'lar edi.

Agar ushbu ichki imkoniyatdan to'liq foydalanilganda mahsulot ishlab chiqarish rejasi 100,9 % emas, balki 107,4 % ni (46869:43646·100) tashkil qilgan bo'lar edi.

Xuddi shunday xulosani o'tgan yilgi ma'lumotlar bilan solishtirib ham chiqarish mumkin. O'tgan yilga nisbatan ham o'rik sharbatini ishlab chiqarish 2012 shartli bankaga yoki 27,3 % ga (100,0-72,7) kam bajarilgan. Bu ham korxonaning ichki imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.

Albatta, shuni inobatga olish lozimki, shu oxirgi ikki yil mobaynida o'rikzorlarning hosildorligi Samarqand viloyatida, ayniqsa, shu kichik korxona joylashgan Oqdaryo tumanida yaxshi bo'lmadi. Ammo bu masalaning oldini olish, ya'ni o'rikni yaqin Navoiy va Jizzax viloyati tumanlaridan, hosildorlik yaxshi bo'lgan joylardan tayyorlab olib kelish mumkin edi. Bundan tashqari, mazkur korxona o'rik sharbati yetishtirib berish bo'yicha oxirgi ikki yilda tuzgan shartnoma shartlarini ham to'liq bajarmadi.

Demak, bunday sustkashlik oqibati nafaqat bitta korxonaga, balki ularning hamkorlari faoliyati natijalariga ham salbiy ta'sir qildi.

10.4. Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

Mahsulot hajmining natural miqdori bo'yicha umumiy o'zgarishiga *ham bir qancha omillar ta'sir qiladi.* Ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Birinchisi, mahsulot umumiy natural miqdorining bajarilish koeffitsienti va ikkinchisi, mahsulot assortimentining tarkibiy o'zgarishi. Tahlil jarayonida shu ikki omilning ham ta'sirini aniqlash lozim. Bularni aniqlash uchun bir qancha hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qiladi.

Eng avvalo, barcha mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha natural miqdorining umumiy bajarilish koeffitsientini (Knm) aniqlab olish lozim.

Buning uchun *quyidagi formula tavsiya qilinadi:*

Umumiy mahsulot natural miqdori rejasining bajarilish tutilgani

$$= \frac{\text{Haqiqiy bajarilgani}}{\text{Rejada ko'zda}} = \frac{44025}{43646} = 1,00868.$$

koeffitsienti (K_{nm})

Ushbu koeffitsient aniqlangach, mazkur omilning mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini (ΔQ_{knm}) hisoblash mumkin. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_{knm} = (Q_p \cdot \Delta Q_{knm}) - Q_p.$$

Bunda: Q_p — haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi miqdori va rejadagi bahoda ifodalanishi;

K_{nm} — mahsulot natural miqdori rejasining umumiy bajarilish koeffitsienti;

Agar ushbu formulani kengaytirib yozadigan bo'lsak, quyidagi formulaga ega bo'lish mumkin:

$$\Delta Q_{knm} = (q^p \cdot q^p) \cdot K_{nm} - (q^p \cdot q^p).$$

Ushbu formulaning birinchi qismini yana boshqacha ko'rinishda ham ifodalash mumkin:

Rejadagi baho va rejada tarkibdagi haqiqiy tovar mahsulotining miqdori	=	Haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi miqdori va hajmi	X K_{nm}.

Ushbu omillarning ta'sirini hisoblash uchun mahsulot hajmining qiymati aniqlanadi va ushbu jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.4-jadvalga qarang).

U holda olma sharbati bo'yicha reja bahosidagi tovar mahsuloti haqiqatdagi rejadagi tarkibda K_{nm}ni qo'llab quyidagicha hisoblanadi:

2363,8 x 1,00868 = 2384,3 ming so'm.

Xuddi shu tarzda boshqa mahsulotlar bo'yicha ham hisoblash mumkin (6-ustun).

Tovar mahsuloti hajmining ikkinchi omil, ya'ni tovar guruhlarining tarkibiy tuzilishi o'zgarishi evaziga o'zgarganligini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_{tt} = (q^h \cdot p^p) - (q^p \cdot p^p) \cdot K_{nm}.$$

Bunda: ΔQ_{tt} — mahsulot hajmining o'zgarishiga ularning tarkibiy tuzilishi o'zgarishining ta'siri;

q^h — mahsulotning haqiqatdagi natural miqdori;

q^p — mahsulotning rejadagi natural miqdori;

p^p — 1 shartli banka mahsulotning rejadagi bahosi.

Ushbu formulaning birinchi qismini yana quyidagicha ham ifodalash mumkin:

Haqiqatda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining rejadagi bahosi	=	Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	X	Mahsulotning rejadagi bahosi

Ushbu ko'rsatkichni 10.4-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalangan holdagi aniqlanganda olma sharbati bo'yicha haqiqatdagi mahsulot qiymati rejadagi baholda quyidagicha bo'ladi:

10.4-jadval

«Turon KMCHJda hisobot yilida ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Mahsulotlarning nomi	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, shartli bankada			1 shartli banka mahsulotning rejadagi bahosi	Reja bahosidagi tovar mahsuloti			Farqi		
	Rejada	haqiqatda	farqi (+,-)		rejada	haqiqatda rejadagi tarkibda	haqiqatda	Jami	Shu jumladan	
									umumiy miqdori o'zgarishi evaziga	tarkibi o'zgarishi evaziga
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1.Olma sharbati	6640	678	+71	356	2363,8	2384,3	2389,1	+25,3	+20,5	+4,8
2.O'rik sharbati	7818	5350	-2468	741	5793,1	5843,4	3964,4	-1828,7	+50,3	-1879,0
3.Uzum sharbati	448	6205	+1794	652	2876,1	2901,1	4045,7	+869,6	+25,0	+844,6
4.Pamidor sharbati	589	4912	-202	231	881,3	891,6	835,7	-45,6	+10,3	-55,9
5.Gilos sharbati	6641	7881	+1240	852	5658,1	5707,2	6714,6	+1056,5	+49,1	+1007,4
6.Sabzi sharbati	7717	7548	-163	456	3516,2	3546,7	1541,9	-74,3	+30,5	-104,8
7.Behi sharbati	538	5418	+107	584	3101,5	3128,5	3164,1	+62,5	+26,9	+35,6
Jami:	43646	44025	+379	X	24490,1	24702,8	24855,5	+365,4	+212,7	+152,7

Manba: 10.3-jadval ma'lumotlari asosida tavsiya qilingan usulni qo'llagan holda hisob-kitob qilindi.

678 x 356 = 2389,1 ming so'm.

Xuddi shu ko'rsatkich o'rik sharbati bo'yicha:

5350 x 741 = 3964,4 ming so'm va h.k.

Agar ushbu omillarni mahsulotning umumiy hajmi bo'yicha aniqlash lozim bo'lsa, shu tovar assortimentlari bo'yicha hisoblangan omillarni jamlash mumkin. Buning uchun quyidagi ikkita formula tavsiya qilinadi:

Birinchi omil uchun: $\Delta Q_{knm} = \sum (q^p \cdot p^p) \cdot K_{nm} - \sum (q^p \cdot p^p)$;

Ikkinchi omil uchun: $\Delta Q_{ii} = \sum (q^h \cdot p^p) - \sum (q^p \cdot p^p) \cdot K_{nm}$.

Shu ikki omilning amaliyotda qo'llanilishini ko'rib chiqish ushbu nazariy tavsiyalarning amaliy qimmatini oshiradi. Buning uchun yana 10.4-jadvaldan foydalanish tavsiya qilinadi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining haqiqiy hajmi reja bahosida 365,4 ming so'mga (24855,5–24490,1) ko'paygan. Bu o'zgarishga ikkita omil ta'sir qilganligini ko'ramiz.

Birinchidan, tovar mahsulotining o'zgarishiga mahsulot natural miqdorining ko'payishi ta'sir qilgan. Mazkur ko'rsatkich rejasi farqi koeffitsientining 0,87 foiz bandga oshganligi tovar mahsuloti hajmini 212,7 ming so'mga ko'paytirgan:

24702,8 – 24490,1 = + 212,7 ming so'm.

Ikkichidan, tovar mahsulotining o'zgarishiga ularning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishi ta'sir qilgan. Uni aniqlash uchun haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi bahosidagi miqdoridan uning rejadagi tarkibdagi miqdori ayriladi, u holda natija quyidagicha bo'ladi:

24855,5 – 24702,8 = – 152,7 ming so'm.

Shu ikki omilning ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:

212,7 + 152,7 = + 365,4 ming so'm.

Tovar mahsuloti o'zgarishiga ushbu omillardan tashqari yana bir qancha omillar ham ta'sir qilishini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur hisob-kitoblarni davom ettirish mumkin. Umuman olganda tovar mahsuloti qiymatining o'zgarishiga yuqorida ko'rsatilganlar bilan birga yana bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bular jumlasiga:

* tovar mahsulotining natural miqdori;
* tovar mahsulotining tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar;
* tovar mahsulotining tannarxi;
* tovar mahsulotining bahosi kabi omillar kiradi. Ularning ta'sirini hisoblash uchun bir qancha hisob-kitoblarni amalga oshirishni tavsiya qilinadi.

1. Korxonada tovar mahsulotini ishlab chiqarishning natural miqdori oshganligining umumiy qiymatiga ta'sirini ($\Delta T_{m.nm.}$) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta T_{\text{m.nm}} = \sum_{i=1}^{n}\left[T_{mi}{}^{p} \cdot (T_{m.nqi}{}^{h} / T_{m.nqi}{}^{p}\right] - \sum_{i=1}^{n} T_{m.i}{}^{h}.$$

Bunda: $Tmi.^{p}$ – i – tovar guruhi bo'yicha tovar mahsulotining rejadagi qiymati;

$T_{m.nqi}{}^{h}$ – i – tovar guruhi bo'yicha tovar mahsulotining natural miqdori, haqiqatda;

$T_{m.nqi}{}^{r}$ – i tovar guruhi bo'yicha tovar mahsulotining natural miqdori, rejada;

i – tovar guruhlarining tartib raqami (i=1,n)

n – tovar guruhlarining umumiy soni.

2. Tovar mahsulotining o'zgarishiga uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarish ($\Delta T_{m.t.}$) ham sezilarli darajada ta'sir qiladi. Uni aniqlash uchun haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi bahosi bilan hisoblangan miqdoridan $(\sum_{i=1}^{n} T_{m.bi}{}^{h})$ haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi tarkibdagi miqdori $(\sum_{i=1}^{n} T_{m.i}{}^{p} \cdot K_{\text{nmi}})$ ayiriladi.

Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$\Delta T_{\text{m.tt}} = \sum_{i=1}^{n} Tm.pbi^{h} - (\sum_{i=1}^{n} Tm.i^{p} \cdot Knmi.$$

3. Tovar mahsuloti qiymatining o'zgarishiga bahoning o'zgarishi ham alohida ta'sir qiladi. Ushbu ko'rsatkichni ($\Delta T_{m.b}$) aniqlash uchun haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi tannarxi bilan hisoblangan hajmidan $(\sum_{i=1}^{n} Tm.\text{ptn}^{h})$ haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi bahosida hisoblangan hajmi $(\sum_{i=1}^{n} Tm.pbi^{h})$ ayirib tashlanadi. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta T_{\text{m.b}} = \sum_{i=1}^{n} Tm.\text{ptn}^{h} - (\sum_{i=1}^{n} Tm.\text{pbi}^{p}.$$

4. Tovar mahsuloti hajmining o'zgarishi bevosita uning tannarxidagi o'zgarishlarga ham bog'liq. Agar tannarxi qancha past bo'lsa, bir xil bahoda

ko'p foyda olish mumkin va aksincha. Agar mahsulotning tannarxini kamaytirsak, teng holda, uning narxini pasaytirib ham foyda olishga erishishi mumkin. Shu tufayli mahsulot hajmining o'zgarishiga tannarxning ta'siri ham hisoblanishi lozim.

Ushbu omilning ta'sirini ($\Delta T_{\text{m.tn}}$) aniqlash uchun tovar mahsulotining haqiqiy miqdoridan ($\sum_{i=1}^{n} Tm.^{h}$) uning rejadagi tannarx bilan hisoblangan miqdori ayriladi ($\sum_{i=1}^{n} Tm.\text{ptn}^{h}$). Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta T_{\text{m.tn}} = \sum_{i=1}^{n} Tm.^{h} - (\sum_{i=1}^{n} Tm.\text{ptn}^{h}.$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta T_{M.} = \Delta T_{M.\text{NM}} \pm \Delta T_{\text{M.TT}} \pm \Delta T_{\text{M.B}} \pm \Delta T_{M.\text{TN}}.$$

Ushbu formulalarga aniq ma'lumotlarni qo'llab yechish uchun 10.5-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining hajmi hisobot davrida 2195,9 ming so'mga yoki 9,0 % ga (26686,0 : 24490,1 · 100) ko'paygan. Ushbu o'zgarishga bir qancha omillar ta'sir qilgan. Ular quyidagilardan iborat.

1. Ushbu korxonada tovar ma'lumotining natural miqdori 379 shartli bankaga ko'payishi uning qiymatini 212,7 ming so'mga oshirgan:

$$24702,8 - 24490,1 = +212,7 \text{ ming so'm.}$$

2. Tovar mahsuloti tarkibida narxi qimmat bo'lgan tovarlarning ulushi kamayganligi uning umumiy qiymatini ancha pasayib ketishiga sabab bo'lgan. Buning natijasi bizning misolimizda 152,7 ming so'mga teng:

$$24855,5 - 24702,8 = +152,7 \text{ ming so'm.}$$

3. Mazkur korxona ishlab chiqargan tovar mahsulotining tannarxi hajmida sotganda edi, uning umumiy hajmi 1709,8 ming so'mga kam bo'lar edi. Ko'rinib turibdiki, korxona o'z mahsulotini qimmatroq bahoda sotib ancha foyda olishga erishgan. Ushbu hisob-kitob misol quyidagicha aniqlangan:

$$23145,7 - 24855,5 = -1709,8 \text{ ming so'm.}$$

4. Mahsulot bahosining oshganligi tovar mahsuloti hajmini 3540,3 ming so'mga ko'paytirgan.

Bu misol quyidagicha aniqlanadi:

10.5-jadval

«Turon» KMCHJda hisobot yilida tovar mahsuloti o'zgarishiga alohida omillar ta'sirining hisob-kitobi

Mahsulotning nomi	Tovar mahsuloti (ming so'm)				Haqiqatdagi tarkib, tannarx bahoda	Farqi (+,-)
	rejada	Haqiqatda				
		rejadagi tarkibda	rejadagi tannarxda	rejadagi bahoda		
A	1	2	3	4	5	6
1.Olma sharbati	2363,8	2384,3	2389,1	285,1	2496,5	+132,7
2.O'rik sharbati	5793,1	5843,4	3964,4	3761,1	4215,8	-1577,3
3.Uzum sharbati	2876,0	2901,1	4045,7	3859,5	4300,1	+1424,1
4.Pamidor sharbati	881,3	891,6	835,7	992,2	1286,9	+105,6
5.Gilos sharbati	5658,1	5707,2	6714,6	6391,5	7132,3	+1474,2
6.Sabzi sharbati	3516,2	3546,7	1541,9	3049,4	3781,5	+265,3
7.Behi sharbati	3101,6	3128,5	3164,1	2958,2	1572,9	+371,3
Jami:	24490,1	24702,8	24855,5	23145,7	26686,0	+2195,9

Manba. *Korxonaning buxgalteriya hisobi va hisobotlari hamda 10.3- va 10.4-jadvallar ma'lumotlari asosida hisoblandi.*

$$26686,0 - 23145,7 = +3540,3 \text{ ming so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$212,7 - 152,7 - 1709,8 + 3540,3 = +2195,9 \text{ ming so'm.}$$

Ko'rinib turibdiki, tovar mahsulotining hajmining o'zgarishiga to'rtta omildan uchtasi ijobiy, bittasi esa salbiy ta'sir qilgan. Kelgusida salbiy ta'sir qilgan omillarga asosiy e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

10.5. Mahsulotning sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish

Yuqorida aytilganidek, korxonalarning hajm ko'rsatkichlariga sotilgan, tovar mahsuloti va sof mahsulot kiradi. Bu ko'rsaktchilarni tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik statistik hisobotlarning 1-p: 1-T sonli shakllaridan olinadi.

Ushbu ma'lumotlar asosida quyidagi tahliliy jadvalni tuzish mumkin (10.6-jadval).

10.6-jadval

Tovar va sotilgan mahsulot bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi va o'sish sur'ati (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yildagi haqiqiy summasi	Joriy yildagi biznes-reja summasi bo'yicha	Joriy yildagi haqiqiy summa	Biznes-rejaga nisbatan mutloq farq (+,-)	Biznes-rejaning bajarilishi % hisobida
1.	Sotish hajmining biznes-rejada berilgan amaldagi ulgurji bahosi	896550	942600	982460	+39860	104,2
2.	Tovar mahsulotining biznes-rejada berilgan amaldagi ulgurji bahosi	896550	942600	997970	+55370	105,9
3.	Tovar mahsulotining o'zgarmas (barqaror) korxona ulgurji bahosi	898370	945000	1000910	+55910	106,0
4.	Sof mahsulot	216200	238000	240350	+2350	101,0

Jadvaldan ko'rinishicha, korxona joriy yilda hajm ko'rsatkichlari bo'yicha biznes-rejani orttirib bajardi. Bunda turli ko'rsatkichlar bo'yicha rejaning bajarilishi turlicha. Agar sof mahsulot bo'yicha reja faqat 1 foizga ortiq bajarilgan bo'lsa, tovar mahsuloti bo'yicha 6 foizga bajarildi.

Demak, korxona joriy yilda ko'proq material talab mahsulot ishlab chiqargan. Sotish hajmi bo'yicha reja 39860 ming so'mga yoki 4,2 foizga orttirib bajarildi. Sotish hajmining mutlaq o'sishiga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1. Tovar mahsulotini rejaga nisbatan + 55370 ming so'mga (997070 − 942600) ko'p ishlab chiqargan.

2. Sotish hajmi bo'yicha o'sish sur'atining o'zgarishi balans usuli bilan aniqlanadi, ya'ni (39860 − 55370) 15510 ming so'm. Demak, realizatsiya sur'ati pasaygan. Shunday qilib, ikki omilning ta'siri (+55370) − (-15510) = +39860 ming so'm, ya'ni bu summa sotish hajmida bo'lgan farqiga (39860 ming so'm) teng.

Sotish hajmining o'sish sur'atiga ko'pgina ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatadi. Bularga mahsulotning sifati, uni bir maromda ishlab chiqarish hamda mahsulotni o'z vaqtida iste'molchilarga jo'natish va uning haqini to'lash, sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qoldig'i kabi omillar kiradi. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning bir-biriga

bog'liqligini tekshirish uchun tovar balansini tuzish kerak. Uni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$T_1 + M = R + Ch + T_2.$$

Bunda:

T_1 – sotilmagan mahsulotlarning yil boshidagi qoldig'i;

M – joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining hajmi;

R – joriy yilda sotilgan mahsulotning hajmi;

Ch – tovarning turli chiqimlari;

T_2 – sotilmagan mahsulotlarning yil oxiridagi qoldig'i.

Tovar balansining elementlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq. Agar rejaga nisbatan yil boshiga bo'lgan qoldiq ko'p bo'lsa, u holda shu farqqa sotish hajmi oshadi. Aksincha, sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo'lgan qoldig'i kamaysa, u holda sotish hajmi oshadi.

Sotish hajmining o'zgarishiga tovar mahsulotini ishlab chiqarish va sotilmagan mahsulotlarning o'zgarishi ta'sir qilar edi. Endi yuqorida berilgan tenglikdan sotish hajmining miqdorini quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$R = T_1 + M - Ch - T_2.$$

Ushbu bog'lanishni tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (10.7-jadval).

10.7-jadval

Sotilgan mahsulotga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Biznes-reja bo'yicha	Haqi-qatda	Farqi (+,–)	Sotish haj-miga ta'siri (+,–)
1. Sotilmagan mahsulotlarning yil boshigabo'lgan qoldig'i	62470	62520	+50	+50
2. Sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo'lgan qoldig'i	62470	78030	+15560	-15560
3. Tovar mahsuloti	942600	997970	+55370	+55370
4. Turli chiqimlar	–	–	–	–
5. Sotilgan mahsulot hajmi (1 qator –2 qator + 3 qator)	942600	982460	+39860	+39860

Shuni ta'kidlash kerakki, tovar mahsuloti haqiqiy ulgurji narxlarini og'ishi hukumatning qarori asosida yoki mahsulot sifatining yaxshilanganligi tufayli sodir bo'lgan narx o'zgarishining natijasi bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda tovar mahsuloti hajmining ko'payishi narxlarning keskin tarzda ko'tarilishi hisobiga sodir bo'lib, amalda esa ishlab chiqarishning tabiiy hajmini kamayishi ehtimoldan holi emas. Ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (10.8-jadval).

10.8-jadval

Mahsulotning fizik hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning hisob-kitobi (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Mutlaq farq (+,−)		
			jami	shu jumladan omillar hisobiga	
				narxi	fizik hajmi
1.Tovar mahsulotining amaldagi ulgurji bahosi	896550	997970	+101420	+374240	-272820
2.Tovar mahsulotining solishtirma ulgurji bahosi	896550	623730	-272820	x	x
3.Narxlar indeksi	1,0	1,6	+0,6	x	x

Jadvaldan ko'rinishicha, tovar mahsuloti hajmi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 101420 ming so'mga oshgan. Lekin bu ko'payish narxlarning 374240 ming so'mga oshishi (997970 − 623730) tufayli sodir bo'ldi. Ishlab chiqarishning tabiiy hajmi, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotning naturadagi miqdori hisobiga esa 272820 ming so'mga (623730 − 896550) kamaydi. Agar mahsulot narxi o'zgarmay, o'tgan yil darajasida qolganda edi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi faqat 623730 ming so'mni tashkil etar edi, ya'ni ishlab chiqarish hajmi 272820 ming so'mga kamaygan bo'lar edi. Ko'rinib turibdiki, hozirgi paytda baho ta'sirini aniqlash juda muhimdir. Chunki olingan foyda haqiqiy ishlab chiqarish natijasi bo'lmay, faqat baho evaziga amalga oshib qolishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik chorasini ko'rish lozim bo'ladi.

10.6. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish

Mamlakat iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida, ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida, ishlab chiqarishni jadallashtirish va aholining moddiy farovonligini yana ham oshirishda mahsulot sifatini yaxshilash katta ahamiyatga ega.

Mahsulotning sifati deganda uning mo'ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi tushuniladi. Yuqori sifatli mahsulot nafaqat iste'molchilarning ehtiyojlarini to'la-to'kis qondiribgina qolmay, balki bunday mahsulot ko'p xizmat qiladi, kam-ko'stsiz, nuqsonsiz bo'ladi, ko'rinishi chiroyli va kishida estetik zavq tug'diradi. Sanoat mahsulotining sifati korxona

faoliyatiga baho beruvchi eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biridir. Vazirlar Mahkamasining bir qator qaror va ko'rsatmalarida mahsulot sifatini oshirsh, yuqori unumli mashina va dastgohlarni joriy etish muhimligi qayd qilib o'tilgan. Bugungi kunda mahsulotning yuksak sifatini fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish evaziga amalga oshirish mumkin.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatini ifodalashda turli ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Sifat ko'rsatkichlari mahsulotning qanday turi uchun mo'ljallanganiga bog'liq. Masalan, mashinasozlik korxonalarida mahsulot sifatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich – ishlab chiqarilgan mahsulotning davlat standartlari (TOCT) tarmoq standartlari (OCT) va texnikaviy shartlarga (TSH) mos kelishi hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoatda – ohak va ganchning sifati ularning bog'lovchilik (yopishqoqlik) qobiliyatiga, ko'mir sanoatida yoqilg'ining sifati esa ularning issiqlik berish qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Qora va rangli metallurgiya kimyo hamda texnologik jarayonlar apparatlar yordamida olib boriladigan korxonalarda mahsulotning sifati asosiy texnologik jarayonlarga rioya qilishga qarab aniqlanadi. Yengil va to'qimachilik sanoatida mahsulot sifatini aniqlashda navlar qo'llaniladi va hokazo.

Mahsulot sifatini tahlil qilishda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifatsiz mahsulot uchun iste'molchilarga to'lanadigan jarimalar, mahsulotni kafolatli ta'mir qiluvchi ustaxonalarga sarflanadigan xarajatlar kabi ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi.

Shunday qilib, mahsulotning sifatini tahlil qilish usullari tahlil qilinayotgan korxonaning qaysi tarmoqqa mansub ekanligiga ham bog'liq bo'ladi.

Yuqorida aytilganidek, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining sifatiga navlar orqali (poyabzal, idish-tovoqlar, un va h.k.) baho beriladi. Binobarin, mahsulot sifati qancha yaxshi bo'lsa, uning navi va narxi shuncha yuqori bo'ladi va akchinsa. Xalq iste'mol mollari ishlab chiqaradigan korxonalar har yilning choragida 1-p sonli (nav bo'yicha) «Sanoat mahsulotlaring navlari» bo'yicha hisobot beradilar.

Mahsulot sifatiga navlarga qarab baho berishda umumlashgan tushuncha o'rtacha nav orqali ifodalanib u uch xil usul bilan hisoblanadi.

1. O'rtacha tortilgan navni aniqlash. Bu usulda har bir nav bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdorini aynan shu nav belgisiga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan summa hamma navlar bo'yicha ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning miqdoriga taqsimlash kerak.

Bu quyidagicha amalga oshiriladi (10.9-jadval)

Jadvalda berilgan raqamlarga ko'ra, navlilik koeffitsienti

$$\text{a) reja bo'yicha} = \frac{(22890 \times 1) + (12210 \times 2) + (5210 \times 3)}{40310} = 1,56,$$

10.9-jadval

Mahsulot sifati bo'yicha navlilik rejasining bajarilishi
a) o'rtacha tortilgan nav

Navi	O'lchov birligi	Miqdori	
		Reja bo'yicha	Haqiqatda
1-nav	ming dona	22890	28620
2-nav	ming dona	12210	9875
3-nav	ming dona	5210	3750
Jami	ming dona	40310	42245

$$\text{b) haqiqatda} = \frac{(28620 \times 1) + (9875 \times 2) + (3750 \times 3)}{42245} = 1{,}41.$$

Hisobdan ko'rinishicha, navlilik koeffitsienti reja bo'yicha 1,56, haqiqatda esa 1,41 ni tashkil etdi. Demak, navlilik koeffitsienti 0,15 bandga ko'paygan. Navlilik koeffitsienti qanchalik birga yaqinlashsa, shunchaga nav yuqori bo'ladi. Agar navlilik koeffitsienti birga teng bo'lsa, u holda hamma mahsulot birinchi nav bilan ishlab chiqarilganligini bildiradi.

2. O'rtacha sorlilik koeffitsienti. Uni aniqlash uchun avval har bir navning bahosini birinchi nav bahosiga nisbati orqali shartli ravishda birinchi navga o'tkazish koeffitsienti aniqlanadi, so'ngra bu koeffitsientlarni har bir nav bo'yicha bo'lgan mahsulot miqdoriga ko'patirilib, jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'linadi. Buning uchun quyidagi jadval tuziladi (10.10-jadval).

10.10-jadval

b) O'rtacha sorlilik koeffitsienti

Navlari	Bir tonnaning ulgurji bahosi (so'm)	O'tkazish koeffitsiyenti	Miqdori	
			Reja bo'yicha	Haqiqatda
1-nav	690	1,0	22890	28620
2-nav	675	0,978	12210	9785
3-nav	625	0,906	5210	3750
Jami	–	–	40310	42245

Jadvaldagi raqamlarga ko'ra, o'rtacha navlilik koeffitsienti

a) reja bo'yicha

$$= \frac{(1 \times 22890) + (0{,}978 \times 12210) + (0{,}906 \times 5210)}{40310} = 0{,}981$$

b) haqiqatda $= \frac{(1 \times 28620) + (0{,}978 \times 9785) + (0{,}906 \times 3750)}{42245} = 0{,}987$

Demak, o'rtacha navlilik koeffitsienti rejaga nisbatan 0,006 bandga oshgan. Bu esa mahsulot sifatini yaxshilanganligidan dalolat beradi.

3. O'rtacha navni o'rtacha tortilgan bahoga asosan aniqlash. Bu usulda har bir nav bo'yicha mahsulot miqdorini aynan shu navlar bahosiga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jami miqdoriga bo'linadi (10.11-jadval).

10.11-jadval

Mahsulot sifatida navlilikni aniqlash hisob-kitobi
d) o'rtacha navning o'rtacha tortilgan bahosi

Nav	Mahsulot birligining nigurji bahosi (so'm hisobida)	Mahsulot hajmi			
		Reja bo'yicha		Haqiqatda	
		ming dona	ming so'm	ming dona	ming so'm
1-nav	17	130	2210	145	2465
2-nav	14	28	392	25	350
3-nav	12	8	132	5	60
Jami	–	169	2715	175	2875

Jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, mahsulot birligining o'rtacha tortilgan bahosi:

a) reja bo'yicha $= \frac{2715}{169} = 16$ so'm 18 tiyin,

b) haqiqatda $= \frac{2875}{175} = 16$ so'm 43 tiyin.

Demak, haqiqatda o'rtacha tortilgan baho rejaga nisbatan 25 tiyinga oshgan yoki navning ortishi natijasida har bir mahsulot o'rta hisobda qo'shimcha 25 tiyin berar ekan. Endi bu farqni haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdoriga ko'paytirsak, u holda mahsulotning sifati oshishi natijasida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi aniqlanadi. Bu 43 ming 750 so'mni (25 x 175) tashkil qiladi.

Ayrim sanoat korxonalarida mahsulotning sifati ballar bo'yicha ham baholanadi. Masalan, oliy darajadagi sifatga – 5 ball, birinchisiga – 4 ball, ikkinchisiga – 3 ball. Qo'yilgan ballar va mahsulotning miqdoriga asosan o'rtacha tortilgan ball aniqlanadi. Binobarin, qo'yilgan ball qancha yuqori bo'lsa, mahsulot sifati ham shuncha yuqori bo'ladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatiga yana iste'molchilar tomonidan tushadigan da'volarga

qarab ham baho berish mumkin. Ularda qaysi xil tovarlar qanday nuqsonga ega. Bu keltirilgan da'vo summasida va hokazolar o'z aksini topadi. Agar bu kabi da'volar soni o'tgan yillarga nisbatan kamaysa, u holda mahsulot sifati ham oshadi.

Texnika taraqqiyoti mahsulot assortimentini muttasil yangilab turishi, eskirib qolganlarini ishlab chiqarishdan olinishini va yangi xil mahsulotlar ishlab chiqarishni taqozo qiladi. Bu kabi chora va tadbirlar mahsulot sifatini yaxshilash bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi.

Mahsulot sifatini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri ishlab chiqarishda yo'l qo'yilgan yaroqsiz mahsulotning darajasi hisoblanib, u brakka chiqarilgan mahsulot summasini tovar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga nisbati orqali aniqlanadi.

Brak mahsulot deganda, tasdiqlangan andoza va texnik shartlarga mos kelmaydigan mahsulot tushuniladi. Brak — ishlab chiqarishdagi ofatdir. Brak mahsuloti ishlab chiqarilishi korxonada ishlab chiqarishi yetarli darajada tashkil qilinmaganligidan dalolat berib, u o'z navbatida tayyor mahsulot hajmini kamaytiradi, mahsulot tannarxini oshiradi va h.k.

Brak mahsulotini tahlil qilish ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi, ya'ni tuzatib bo'ladigan brak va tuzatib bo'lmaydigan brak. Tuzatib bo'ladigan brak mahsulotlari bo'yicha yo'qotishlar ularni tuzatishga sarf etilgan xarajatlar bilan belgilanadi. Tuzatib bo'lmaydigan brak deganda butunlay va uzil-kesil yaroqsiz qilingan mahsulotning qiymati tushuniladi. Odatda, brak rejalashtirilmaydi, lekin qayerda texnikaviy vositalar texnologik jarayonlarni nazorat qila olmasa, shu yerda brak rejalashtiriladi. Masalan, quyma buyumlar va oynasozlik sanoatida bu ko'rsatkich rejalashtiriladi. Brak mahsuloti ishlab chiqarishdan yuzaga kelgan yo'qotishlarni tahlil qilishda joriy yildagi ma'lumotlar o'tgan yil ma'lumotlari bilan taqqoslanadi (10.12-jadval).

10.12-jadval

Brak mahsulotini tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Joriy yilda	Farqi (+,–)
1.Butunlay brak qilingan mahsulotlarning tannarxi	400	240	-160
2.Brakni tuzatishga sarf etilgan xarajatlar	200	180	-20
Jami	600	420	-180
3.Tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi	735810	79840	+55330
4.Brak mahsulotining darajasi (foiz hisobida)	0,082	0,051	-0,031

Joriy yilda brakka chiqarilgan mahsulotning mutlaq summasi o'tgan yilga nisbatan 180 ming so'mga kamaydi. Buning natijasida brak mahsulotning tovar mahsuloti ishlab chiqarish tannarxidagi salmog'i 0,031 foizga kamaydi.

Demak, bundan korxona mahsulot sifatini oshirish borasida ma'lum chora va tadbirlar ko'ryapti, degan xulosaga kelish mumkin.

10.7. Mahsulotni bir maromda (ritmda) ishlab chiqarishni tahlil qilish

Korxonalarda mahsulotni bir marom (me'yor)da ishlab chiqarishni tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Zero mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi, mahsulot tannarxining pasayishi va rentabellik darajasining oshishi ko'p jihatdan mahsulotni bir maromda ishlab chiqarishga bog'liq. Ozgina bo'lsa ham bu shartga rioya qilmaslik o'z navbatida iste'molchi korxonalarning ishiga salbiy ta'sir qiladi.

Mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish deganda, mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga mos ravishda muvofiq yetkazib berish va sotishni o'z vaqtida ta'minlashi tushuniladi.

Korxonaning bir maromda ishlashi deganda esa ish vaqtidan to'la foydalanish uchun sharoit yaratib berish, ishlab chiqarishning butun davr davomida asbob-uskuna va barcha vositalardan bevosita foydalanishi tushuniladi. Ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish ko'pgina korxonalarda asosan oyning boshida bo'ladigan bekor turishlarni kamaytirishga, xaybarakallachilik vaqtida hosil bo'ladigan brakni kamaytirishga, ish vaqtidan tashqari bo'ladigan behuda to'plamlarni yo'qotishga, oyning boshida bo'ladigan osoyishtalik va oyning oxirida bo'ladigan o'rinsiz shoshma-shosharlik natijasida yuzaga keladigan hamda ishlab chiqarishning me'yordan chetga chiqishi natijasida hosil bo'ladigan qo'shimcha xarajatlarning kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari, mahsulotni o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun to'lanadigan jarima va o'simlar kamayadi.

Korxonalarda ishlab chiqarishni bir maromda olib borish shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, bir xil mahsulotni ommaviy ko'p nusxada ishlab chiqaradigan korxonalarda bir maromda ishlashni ko'rsatadigan ko'rsatkich sifatida har o'n kunlikda oylik rejaga nisbatan ishlab chiqariladigan mahsulotning salmog'i olinadi. Agar korxonada har o'n kunda oylik topshiriqning uchdan bir qismi bajarilsa, bunday korxona oyning oxirida xaybarakallachilikka yo'l qo'ymaydi.

Agar ishlab chiqarish davri (sikl) uzoqqa cho'ziladigan individual va mayda seriyali yoki ishlab chiqarish mavsumiy xarakterga ega bo'lsa, u holda korxonaning bir maromda ishlashini bir yil davomida uzluksiz baholab bo'lmaydi.

Bir maromda ish yuritishning umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib, bir me'yorda ishlash koeffitsienti hisoblanadi, u jadval bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilgan kunlarni umumiy ish kuniga bo'lish bilan aniqlaniladi, odatda, oy hisobida. Masalan, tahlil qilinayotgan oyda 26 ish kuni bo'lsa, undan 22 kun mobaynida korxona belgilangan jadval asosida mahsulot ishlab chiqargan. Demak, bir me'yorda ishlash koeffitsienti 0,84 (22/26)ni tashkil etdi. Ushbu raqam korxonaning bir me'yorda mahsulot ishlab chiqarmaganlidan dalolat beradi.

Bir me'yorda ish yuritishning eng optimal ko'rsatkichi birga teng bo'ladi undan ortiq bo'lishi mumkin emas. Demak, u yoki bu muddat mobaynida biznes-rejaning orttirib bajarilishi korxonaning bir me'yorda ishlashini taqozo etmaydi. Balki umuman tovar mahsuloti ishlab chiqarish biznes-rejasining bajarilishini ko'rsatadi. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar reja bo'limidan olinadi, zero ma'lumotlar yillik hisobotda berilmaydi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.14-jadval).

10.14-jadval

Bir maromda mahsulot ishlab chiqarishni tahlil qilish (foiz hisobida)

Oylar	Ko'rsatkichlar	O'n kunliklar			Jami
		I	II	III	
D E K A B R	1.Biznes-reja bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot	33	33	15	100
	2.Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot	22,8	30,1	47,1	100
	3.Biznes-reja hisobiga				
	4.Bir maromda mahsulot ishlab chiqarish koeffitsiyenti	22,8 0,891	30,1 0,912	15,0 1,0	86,9 0,869

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinishicha, korxona mahsulotni bir me'yorda ishlab chiqarmagan. Birinchi o'n kunlikda bir maromda ishlash koeffitsienti 0,691 (22,8 : 33), ikkinchi o'n kunlikda 0,912 (30.1 : 33), faqat uchinchi o'n kunlikda 1 ga teng bo'ldi. Shuning uchun korxonaning bu boradagi faoliyatini yaxshi darajada, deb e'tirof etib bo'lmaydi.

10.8. Ko'rsatkichlarni qiyoslaydigan (solishtiriladigan) holatga keltirish usuli

Iqtisodiy jarayonlar natijasi ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Tahlil qilishda ularni qiyoslashga to'g'ri keladi. Buning uchun, ularning o'lchami, mazmuni va hajmi jihatidan taqqoslanadigan holatga keltirib olish lozim. Bularni aniqlashda amaliyotda keltirish koeffitsientidan keng foydalaniladi.

Ushbu koeffitsientning mohiyati shundaki, turli hajmdagi, o'lcham va og'irlikdagi turli xil mahsulotlarni qiyoslaydigan holatga keltirish imkonini beradi. Masalan, birorta mahsulotni ishlab chiqarish rejasi bir xil navda belgilanadi. Ammo amaliyotda aynan shunday bo'lib chiqmasligi tabiiy. Bunday holda turli navda ishlab chiqarilgan bir xildagi mahsulotni qiyoslanadigan holatga keltirib olish uchun uni rejada ko'rsatilgan navda ifodalab olishni taqozo qiladi.

Mazkur usulni amaliyotda qo'llash uchun amaliy ma'lumotlardan foydalangan holda amalga oshirish yo'lini ko'rib chiqish lozim. Buning uchun Kattaqo'rg'on yog'-moy aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarish sohasining bir turi, ya'ni sovun ishlab chiqarish va sotish sohasini olamiz (10.14-jadval).

10.14-jadval

Kattaqo'rg'on yog'-moy aksiyadorlik jamiyatida sovun va kir yuvish mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bo'yicha hisobot yil IV-chorak ma'lumoti

Mahsulot turi	Yog'lilik darajasi, %	Rejada	Haqiqatda	Farq	
				Miqdori (+,–)	%
Xo'jalik sovuni, ming kg	40	42,0	10,0	-32,0	29,8
Xo'jalik sovuni, ming kg	60	X	7,3	+7,3	x
Xo'jalik sovuni, ming kg	65	X	7,4	+7,4	x
Xo'jalik sovuni, ming kg	72	X	6,5	+6,5	x
Atir sovun, ming kg	80	X	3,2	+3,2	x
Jami:	X	42,0	48,7	+6,7	86,0

Manba. *Kattaqo'rg'on yog'-moy aksiyadorlik jamiyati buxgalteriya va statistik hisobi hamda hisoboti ma'lumotlari asosida.*

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mazkur korxona hisobot yil IV-chorakda 42,0 ming kg yog'lilik darajasi 40 % bo'lgan kir sovun ishlab chiqarishni rejalashtirgan. Ammo natija butunlay boshqacha bo'lib chiqdi, ya'ni yog'lilik darajasi 40% lik 42,0 ming kg kir sovun o'rniga turli sovunlar va kir yuvish materiallaridan 48,7 ming kg ishlab chiqdi. Agar ushbu holatda xulosa qilinsa, mazkur korxona sovun ishlab chiqarib sotish bo'yicha rejani 86,0% bajargan (48,7/42,0x100).

Biroq, yog'lilik darajasi 40% lik kir sovuni bo'yicha reja atigi 23,8% ga bajarilgan xolos. Qolgan mahsulotlar rejada ko'zda tutilmagan. Ammo ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotga to'g'ri baho berish uchun ularni ham

shu 40% lik yog'lilik darajasiga ega bo'lgan sovun hajmidagi shartli miqdorini topish lozim. Bu bilan yog'lilik darajasi turli bo'lgan sovun va boshqa kir yuvish materiallari bir xil o'lchamga, ya'ni taqqoslanadigan holatga keltirilib olinadi.

Taqqoslash uchun keltirish koeffitsientidan foydalaniladi. Buning uchun, odatda, yog'lilik darajasi 40% bo'lgan kir sovun bir deb qabul qilinadi va qolganlarini shunga mos ravishda tabaqalanish darajasi hisoblanadi.

Bunday keltirish koeffitsienti quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshirish tavsiya qilamiz:

Keltirish koeffitsienti

$$\text{Keltirish koeffitsiyenti} = \frac{\text{aniqlanadigan kir sovunning yog'lilik darjasi}}{\text{Me'yordagi kir sovunning yog'lilik darajasi}}$$

Misol keltirilgan yog'lilik darajasi 60% bo'lgan kir sovunning keltirish koeffitsienti 1,5 ga teng bo'ladi:

$$K_{k60\%} = \frac{60}{40} = 1,5.$$

65% lik yog'lilik darajasiga ega bo'lgan kir sovunning keltirish koeffitsienti 1,625 ga teng:

$$K_{k65\%} = \frac{65}{40} = 1,625 \text{ va h.k.}$$

Hisob-kitoblar natijasi 10.15-jadvaljadvalda o'z ifodasini topgan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keltirish koeffitsientini inobatga olib ishlab chiqarib sotilgan kir yuvish mahsulotining miqdori haqiqatda 48,7 ming kg emas, balki 54,65 ming kg ni tashkil qilar ekan. Rejaning bajarilishi oldingidek 86,0% emas, balki 130,1 %ni tashkil qilar ekan (54,65/42,0x100).

Ushbu ko'rsatkichni aniqlash erkin iqtisodiyot sharoitida, qaysiki rejaning bajarilishi yuqori tashkilotlar tomonidan tekshirilmaydigan paytda kimga va nimaga kerak, degan savolning ham tug'ilishi mumkin. Bunga javoban shuni ta'kidlamoqchimizki, ishlab chiqarish jarayonida mahsulot navining o'zgarishi korxona foydasiga nechog'lik ijobiy yoki salbiy ta'sir qilganligini bilish mumkin. Bu bevosita mulkdorga ham, mehnat jamoasi uchun ham va uni boshqaruvchilarga ham kerak. Chunki bularning hammasi korxonaning ish natijasidan, xususan oladigan foydasidan manfaatdor.

Buning nimalarda va qanday namoyon bo'lishini ushbu misolda ham ko'rish mumkin. Faraz qilamiz, mazkur korxona kir sovunning 40% lik

10.15-jadval

Kattaqo'rg'on yog'-moy aksiyadorlik jamiyatida sovun va kir yuvish mahsulotlarining hisobot yil IV-chorakdagi haqiqiy miqdorini taqqoslanadigan holatga keltirish koeffitsienti va miqdori

№	Mahsulotning turi	Mahsulotning haqiqiy miqdori, ming kg	Keltirish koeffitsiyenti	Taqqoslanadigan miqdori, ming kg
1	Xo'jalik sovuni 40% yog'lilikda	10,0	1,0	10,0
2	Xo'jalik sovuni 60% yog'lilikda	7,3	1,5	13,95
3	Xo'jalik sovuni 65% yog'lilikda	7,4	1,625	12,025
4	Xo'jalik sovuni 72% yog'lilikda	6,5	1,8	8,7
5	Atir sovun 80% yog'lilikda	3,2	2,0	6,4
6	Kir yuvish kukuni (poroshogi) 10 % yog'lilikda	14,3	0,25	3,575
	Jami:	**48,7**	**x**	**54,65**

Manba. *10.14-jadval asosida hisoblandi.*

yog'lilik darajasi bilan bir kgni (bu 4 ta sovun bo'ladi) 800 so'mdan sotishga rejalashtirilgan edi. Haqiqatda narx o'zgarmasdan qoldi. Ammo turli yog'lilik darajasiga ega bo'lgan sovunlar turlicha narx bilan sotilishi ham tabiiy. Bu holda natija quyidagicha bo'lshi mumkin.

Rejada 42,0 x 800= 33,6 mln so'm.
Haqiqatda
(qiyoslanmaydigan) 48,7 x 800=39,0 mln so'm
Qiyoslangan holatga
keltirilganda 54,65 x 800=43,7 mln so'm.

Mazkur hisob-kitobdan ko'rinib turibdiki, Kattaqo'rg'on yog'-moy AJ reja bo'yicha 33,6 mln so'm mahsulot ishlab chiqishi lozim edi. Haqiqatda esa qiyoslanadigan hajmda 43,7 mln so'm yoki 10,1 mln so'm ko'p ishlab chiqarilishi lozim edi. Ammo mazkur korxona haiqatda 41,3 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarib sotdi.

Ko'rinib turibdiki, mahsulotning haqiqiy qiymati bilan bajarilishi lozim bo'lgan qiymat o'rtasida 2,4 mln so'm (43,7–41,3) farq bor. Bu farq mahsulot navliligining o'zgarishi evaziga sodir bo'lgan farqdir. Agar mazkur korxona

faqat yog'lilik darajasi 40% bo'lgan kir sovundan 54,65 ming kg. sotganda edi, undan tushgan pul tushumi, narx o'zgarmagan holda, 43,7 mln so'mni tashkil qilgan bo'lar edi. Ammo ushbu korxona turli navda shuncha mahsulot ishlab chiqdi. Oqibatda mahsulot navining o'zgarganligi evaziga korxona 2,4 mln. so'm (43,7—41,3) zarar ko'rgan. Mahsulotning yog'lilik darajasi va sifati oshgani bilan u shu sifatiga nisbatan past narxda sotilgan.

Demak, mahsulot navining o'zgarishi ham korxona mahsuloti umumiy hajmi va shu orqali uning foydasiga bevosita ta'sir qilar ekan.

Qiyosiy tahlilda shuni ham inobatga olish joizki, ba'zi mahsulotlar faqat bir yoki boshqa birorta navda rejalashtiriladi. Haqiqatda esa aynan shu navga to'g'ri kelmasligi mumkin. U holda qolgan navlar shu belgilangan navga qayta hisoblanib olinadi.

Bunday holatni mol terisini tayyorlashda ham ko'rish mumkin. Ushbu xomashyo 1 nav holatida hisob-kitob qilinadi. Qolgan navlar esa shu 1 nav holatiga keltirib olinadi. Buning uchun quyidagi keltirish koeffitsientlaridan foydalaniladi: 1-nav — 1, 2-nav — 0,87, 3-nav — 0,66, 4-nav — 0,46. Kichik mollar va cho'chqa terisi uchun mos ravishda 1—1,0; 2— 0,85; 3— 0,6; 4—0,4 koeffitsientlar qo'llaniladi[1]. Bu holatni aniqlash uchun 10.16-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, haqiqatda tayyorlangan terining miqdori rejaga nisbatan 1533 donaga yoki 102,5 % ga (5533:5400x100) ko'p.

Ammo uni qiyoslanadigan holatda, ya'ni hammasini 1-nav miqdorida hisoblaganda rejaning 892 donaga kam bajarilganligini yoki uning rejaga nisbatan bor-yo'g'i 77,9 % ni (4208:5400x100) tashkil qilganligini ko'rish mumkin. Bu yerda mol terisining navlilik koeffitsientini 76,1 % ga (4208:5533x100) teng bo'lganligi ko'rinadi.

Qiyosiy tahlil ahvolning aniq holatidan dalolat beradi. Agar uning tayyorlangan haqiqiy miqdori bo'yicha xulosa qilinganda edi, mazkur korxonada ahvol yaxshi degan xulosaga kelish mumkin edi. Ammo u mahsulotni sotganda xaridor albatta uning naviga qarab pul to'laydi. Oqibatda jismonan ko'p teri tayyorlading-u, nima uchun kam pul tushumi bo'ldi, degan jumboqni yechish qiyin edi. Ushbu holatlar ko'rsatib turibdiki, erkin iqtisodiyot sharoitida bu kabi qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanish hayotiy zaruratdir. Shunday qilib, tovarlarning sotilishini boshqarishda qo'llaniladigan tovar guruhlari, ularni sotish usullari va tovarning bozorda sotilish bosqichlarini va qiyoslash usullarini inobatga olmasdan turib, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida, tadbirkorlarning samarali faoliyat ko'rsatishi qiyin.

---

[1] *I.T. Abdukarimov* va boshqalar. Matlubot kooperatsiyasining xo'jalik faoliyatini analiz qilish. — T.: O'qituvchi, 1989. 156-bet. Kudravsev A.A. Анализ хозяйственной деятельности кооперативных организаций.— М.: Экономика, 1997.

10.16-jadval

«Turon» KMChJda mol terisini tayyorlashning hisobot yildagi hajmini qiyoslanadigan holatga keltirish (dona)

Navi	Reja ko'rsatkichi	Haqiqatda tayyorlandi	Qayta hisoblash koeffitsiyenti	1-navga qayta hisoblangan ko'rsatkich	Farqi (+,–)
1	5400	1614	1,0	1614	x
2	–	1202	0,87	1046	x
3	–	1493	0,66	985	x
4	–	1224	0,46	563	x
Jami	**5400**	**5533**	**X**	**4208**	**-892**

Manba. *Mazkur korxonaning buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida hisoblandi.*

Shu tufayli hozirgi vaziyat endigi tadbirkorlarning ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'ta savodxon, ziyrak va jasur bo'lishlarini taqozo qiladi.

10.9. Sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirish

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sotilgan tovar hajmidir. Tadbirkor uchun aniq foyda faqat tovarni (ish, xizmat)ni sotgandan keyingina hosil bo'ladi. Albatta, bir qarashda sotish ikkinchi darajali jarayondek tuyuladi. Chunki eng avvalo, tovarni (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish lozim. Lekin bozor munosabatlari barcha ishlab chiqarilgan tovarlarni o'ziga «xazm» qila olmaydi. Shu tufayli millionlab ishlab chiqarligan tovarlar sotilmasdan ishlab chiqaruvchining omborida qolib ketaveradi. Bu esa tadbirkorni biror tovarni ishlab chiqarishdan oldin uning sotilishi haqida o'ylashga majbur qiladi.

Mahsulotni sotishni tahlil qilishda uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Sotilgan mahsulotni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tarkibiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ularning sifati, sotilish hajmi, ma'romiyligi kabilar kiradi. Chunki sotilgan mahsulot hajmi shu ko'rsatkichlarga bevosita bog'liqdir.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sotilgan tovar hajmi bo'lganligi tufayli, uning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirishni mazkur ko'rsatkich misolida ko'rib chiqishni mumkin.

Tovarlarni sotish hajmiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Ularni bir qancha guruhlarga bo'lish mumkinligi haqida yuqorida ham ta'kidlandi. Iqtisodiy tahlilning eng muhim jihati, ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash yo'llarni aniqlab, tahlil qilinayotgan ko'rsatkich to'g'risida aniq xulosaga kelish va uni yaxshilash bo'yicha amaliy tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni iqtisodiy mazmuni jihatidan guruhlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zero, ushbu omillarni hisoblash uchun buxgalteriya va statistik hisobi va hisobotlarida aniq ma'lumotlar ham keltirilgan.

Sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar iqtisodiy mazmuni jihatidan to'rt guruhga bo'linadi:

* mehnat resurslaridan foydalanish bialn bog'liq omillar;
* asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq omillar;
* aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillar;
* nomoddiy aktivlar bilan bog'liq omillar.

Ushbu omillar ta'sir qilish darajasiga qarab ikki guruhga bo'linadi: intensiv omillar va ekstensiv omillar. Ularning bir-biriga bog'liqligi quyidagicha ifodalanadi (10.3-rasm).

Ushbu chizmada keltirilgan omillar haqidagi ma'lumotlar, ta'kidlanganidek, korxonaning hisobotlarida o'z aksini topgan. Ulardan foydalanib har birining sotish hajmiga ta'sirini topish mumkin. Bu omillar ta'sirini topishning bir qancha usullari olimlarimiz tomonidan ishlab chiqarilgan va ular tegishli iqtisodiy tahlilga oid adabiyotlarda[1] chop etilgan.

Sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi barcha omillar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda va aloqada bo'ladi. Ularning birorta ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sirini hisoblaganda, albatta, hammasini birdaniga hisoblab olish lozim. Chunki, alohida-alohida hisoblab olganda omilli tahlil to'liq bo'lmasdan qoladi. Ushbu omillarning hammasi korxonaning iqtisodiy salohiyatini tashkil qiladi[1]. Korxonaning iqtisodiy salohiyatining natija ko'rsatkichi o'zgarishiga ta'sirini alohida-alohida qarab bo'lmaydi. Zero, natijaning o'zgarishiga ushbu omillar birdaniga ta'sir qiladi.

Bu holatlarni inobatga olib sotilgan mahsulot hajmiga korxona iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq bo'lgan omillarning ta'sirini bir-biri bilan bog'liq holda hisoblash metodologiyasi ishlab chiqildi. Bu uchun eng avvalo, 10.17-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot yilda asos yiliga va o'tgan yillarga nisbatan barcha ko'rtsakichlar bo'yicha o'sishga erishilgan. Sotilgan mahsulot hajmi hisobot yilda asos yilga nisbatan 130,6 % o'sgan bo'lsa, o'tgan yilga nisbatan 83,5 % o'sgan. Ushbu o'sish, albatta, o'z-o'zidan sodir bo'lgan emas. Unga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Ushbu jadvalda keltirilganicha barcha

---

[1] *M.Q. Pardayev, IB.I. Isroilov.* Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2001.



10.3-rasm. **Sotish hajmiga ta'sir qiluvchi intensiv va ekstensiv omillar.**

omillarda o'sish ro'y bergan. Masalan, xodimlar soni hisobot yilda asos yilga nisbatan 21,7 % o'sgan bo'lsa, o'tgan yilga nisbatan esa 12,6 % o'sgan. Ammo mehnat unumdorligi mos ravishda 7,3 va 0,8 foiz o'sishga erishilgan. Ko'rinib turibdiki, bu holatda *ekstensiv omil*ning o'sish sur'ati

---

[1] *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Минск: ООО «Новое знание», 2000. – Баканов М., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. М.: Финансы и статистика, 1994. 60–75-betlar; IT. Abdukarimov va boshqalar. Matbuot kooperatsiyasining xo'jalik faoliyatini analiz qilish. – T.: O'qituvchi,1989. 32–53-betlar; M.Q. Pardayev. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 87–126-betlar. M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov. Iqtisodiy tahlil. I-qism. Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2001. 31–72-betlar va h.k.

10.17-jadval

«Turon» ko'ptarmoqli mas'uliyati cheklangan jamiyatda sotilgan mahsulot va unga ta'sir qiluvchi omillarning oxirgi uch yildagi dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Yillar			Hisobot yilida o'zgarishi	
	asos yilida	o'tgan yilda	hisobot yilida	Asos yiliga nisbatan	O'tgan yilga nisbatan
1. Sotilgan mahsulot hajmi, mln.so'm	20,4	138,5	157,2	130,6	83,5
2. Xodimlar soni, kishi	198	214	241	121,7	82,6
3.Mehnat unumdorligi, ming so'm (1q:2q)	608,1	647,2	652,2	107,3	100,8
4. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, mln. so'm	98,6	108,5	86,3	88,0	107,2
5. Asosiy vositalar samaradorligi, so'm (1q:5q)	1,221	1,276	1,352	80,7	106,0
6. Aylanma mablag'larning o'rtachayillik qiymati, mln.so'm	52,3	58,3	64,8	123,9	81,1
7. Aylanma mablag'lar samaradorligi, so'm (1q:8q)	2,302	2,376	2,426	105,4	102,1
8. Nomoddiy aktivlarning o'rtachayillik qiymati, mln. so'm	8,2	9,6	10,4	126,8	108,3
9. Nomoddiy aktivlarning samaradorligi, so'm (1q:8q)	14,683	14,427	15,85	102,9	104,8

Manba. Mazkur korxonaning tegishli yillardagi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida hisoblandi.

intensiv omilga nisbatan yuqori bo'lgan. Bu esa o'z navbatida natija ko'rsatkichiga ham shu tarzda ta'sir qilgan.

Asosiy vositalar, aylanma mablag'lar va nomoddiy aktivlar bo'yicha ham xuddi shunday gaplarni aytish mumkin. Jumladan, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati hisobot yilda asos yiliga nisbatan 18 % o'sgan bo'lsa, o'tgan yilga nisbatan 7,2 % o'sgan. Asosiy vositalarning samaradorligi esa mos ravishda 10,7 va 6,0 % ni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu holatda ham ekstensiv omillarning o'sish sur'ati intensiv omillar o'sish sur'atiga nisbatan yuqori. Aylanma mablag'larning o'sish sur'ati, mos

ravishda, 23,9 va 8,1 % ni tashkil qilsa, ularning samaradorligi 5,4 va 2,1 % ni tashkil qiladi. Nomoddiy aktivlarning o'sish sur'ati 26,8 va 8,3 % ni tashkil qilgan bir paytda, ularning samaradorligi 2,9 va 4,8 % o'sgan xolos.

Iqtisodiy tahlilning muhim vazifalaridan biri ushbu omillarning natija ko'rsatkichi o'zgarishiga ta'sirini aniqlashdan iboratdir.

Sotilgan mahsulot o'zgarishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni odatdagi amaliyotda qo'llanilayotgan usulda hisoblanadigan bo'lsa, ularning bir-biri bilan bog'liqligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Q_{bo} = \left[\left(\frac{\Delta x\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) + \left(100 - \frac{\Delta x\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right)\right] = \left[\left(\frac{\Delta Ab\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) +$$

$$= \left(100 - \frac{\Delta Ab\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right)\right] + \left[\left(\frac{\Delta Aym\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) + \left(100 - \frac{\Delta Aym\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right)\right] +$$

$$\left[\left(\frac{\Delta Ha\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) + \left(100 - \frac{\Delta Ha\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right)\right].$$

Agar shu usul bilan hisoblaydigan bo'linsak, sotilgan mahsulot hajmining hisobot yildagi miqdori asos yilga nisbatan o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta Q_{bo} = \left[\left(\frac{2,17 \cdot 100}{30,6}\right) + \left(100 - \frac{21,7 \cdot 100}{30,6}\right)\right] = \left[\left(\frac{18,0 \cdot 100}{30,6}\right) +$$

$$+\left(100 - \frac{18,0 \cdot 100}{30,6}\right)\right] + \left[\left(\frac{23,9 \cdot 100}{30,6}\right) + \left(100 - \frac{23,9 \cdot 100}{30,6}\right)\right] +$$

$$+\left[\left(\frac{26,8 \cdot 100}{30,6}\right) + \left(100 - \frac{26,8 \cdot 100}{30,6}\right)\right] = (70,9 + 29,1) + (58,8 + 41,2) +$$

$$+ (78,1 + 21,9) = (87,6 + 12,4) = 400\%$$

$$100,0 + 100,0 + 100,0 + 100,0 = 400,0\ \%.$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori hisobot yilda 2002-yilga nisbatan quyidagi holatga ega bo'ladi:

$$\Delta Q_{bo} = \left[\left(\frac{12,6 \cdot 100}{13,5}\right) + \left(100 - \frac{12,6 \cdot 100}{13,5}\right)\right] = \left[\left(\frac{7,2 \cdot 100}{13,5}\right) +$$

$$+\left(100 - \frac{7,2 \cdot 100}{13,5}\right)\right] + \left[\left(\frac{11,1 \cdot 100}{13,5}\right) + \left(100 - \frac{11,1 \cdot 100}{13,5}\right)\right] +$$

$$+\left[\left(\frac{8,3 \cdot 100}{13,5}\right)+\left(100-\frac{8,3 \cdot 100}{13,5}\right)\right] = (93,3+6,7)+(53,3+46,7)+$$

$$+ (82,2 + 17,8) + (61,5 + 38,5) = 400\ \%.$$

$$100,0 + 100,0 + 100,0 + 100,0 = 400,0\ \%$$

Ko'rinib turibdiki, barcha omillarning ta'siri 400,0 foizni tashkil qiladi. Natija ko'rsatkichi atigi 100,0 foiz o'sgan bir paytda omillar ta'siri 400,0 foiz o'sgan bo'lishi mumkin emas. Ammo chop qilingan adabiyotlarda[1] va amaliyotda shu usul qo'llanilib kelinmoqda.

Ushbu adabiyotlarda keltirilgan usullarga asoslangan holda ularni takomillashtirish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, chop qilingan adabiyotlarda har bir guruh omillarni hisoblaganda aynan shu omillar e'tiborga olinib boshqa omillarni esa shu jarayonda ta'sir qilmagan deb faraz qilinadi.

Natijada, har bir guruh omillar ta'sirining umumiy miqdori tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning umumiy farqini 100 foiz qoplaydi. Yuqoridagi chizmada omillar to'rt guruhga bo'linadi.

Amaldagi usullar bilan hisob-kitob qilinsa natija ko'rsatkichining o'zgarishiga to'rt guruh omillarning ta'siri 400 foizni tashkil qiladi. Chunki bu holatlarda «takroriy hisob»ga yo'l qo'yiladi.

Amaldagi usullarning bunday kamchiligini bartaraf qilish uchun har bir guruh omilni alohida qaramasdan, ularni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda va aloqada deb qaraymiz va har bir guruhga, tegishli ravishda salmoqlilik koeffitsientini joriy qilishni tavsiya qilamiz. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning salmoqlilik koeffitsientini, taxminan, quyidagicha deb belgilash mumkin:

* mehnat resurslaridan foydalanish bilan bog'liq omillar — 0,40;
* asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq omillar — 0,30;
* aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillar — 0,20;
* nomoddiy aktivlar bilan bog'liq omillar — 0,10.

Ushbu salmoqlilik koeffitsientini aniqlashda mantiqiy-evristik tahlil usullaridan foydalanildi. Odatda, bunday koeffitsientlar ekspert yo'li bilan aniqlanadi. Biz metodologik asos bo'lish uchun ushbu ko'rsatkichni aniqlashda shu oddiy mantiqiy-evristik usulni qo'llash bilan cheklandik.

---

[1] *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Минск: ООО "Новое знание", 2000. 460—467-бетлар; Баканов М.И., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. М.: Финансы и статистика, 1994. 60—75-betlar; I.T. Abdukarimov va boshqalar. Matlubot kooperatsiyasining xo'jalik faoliyatini analiz qilish. —T.: O'qituvchi, 1989. 32—53-betlar; M.Q.ardayev. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand: Zarafshon, 2001. 87—126-betlar; M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov. Iqtisodiy tahlil. I-qism. Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2001. 31—72-betlar va h.k.

Agar omillarning ushbu salmoqlilik koeffitsientini qo'llab hisoblaydigan bo'lsak, barcha omillar ta'siri 100 foizga teng bo'ladi. Buning uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$\Delta Q_{bo} = \left[\left(\frac{\Delta x\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) \cdot K_{smr} + \left(100 - \frac{\Delta x\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) \cdot K_{smr}\right] + \left[\left(\frac{\Delta Av\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) \cdot K_{sav} + \left(100 - \frac{\Delta Av\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) \cdot K_{sav}\right] + \left[\frac{\Delta Aym\% \cdot 100}{\Delta Q\%} \cdot K_{saym} + \left(100 - \frac{\Delta Aym\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) \cdot K_{saym}\right] + \left[\frac{\Delta Ha\% \cdot 100}{\Delta Q\%} K_{saym} + \left(\frac{\Delta Aym\% \cdot 100}{\Delta Q\%}\right) \cdot K_{sna}\right].$$

Bunda:

ΔQ_{bo} – natija ko'rsatkichining barcha omillar ta'sirida o'zgarganligi;

$X\%$ – xodimlar soni;

$Q\%$ – sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishi;

$Av\%$ – asosiy vositalar o'rtacha qiymatining o'zgarishi;

$Aym\%$ – aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining o'zgarishi;

$Na\%$ – nomoddiy aktivlar o'rtacha qiymatining o'zgarishi;

K_{smr} – mehnat resurslari bilan bog'liq omillarning solmoqlilik koeffitsienti;

K_{sav} – asosiy vositalar bilan bog'liq omillarning solmoqlilik koeffitsienti;

K_{saym} – aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillarning solmoqliligi;

K_{sna} – nomoddiy aktivlar bilan bog'liq omillarning solmoqlilik koeffitsienti.

Agar ushbu formulaga jadval ma'lumotlarini qo'llab yechadigan bo'lsak, u holda hisobot yilning asos yiliga nisbatan o'zgarishi bo'yicha quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz:

$$\Delta Q_{bo} = \left[\left(\frac{2,16 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,4 + \left(100 - \frac{12,6 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,4\right] + \left[\left(\frac{7,2 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,3 + \left(100 - \frac{7,2 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,3\right] + \left[\left(\frac{11,1 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,2 + \left(100 - \frac{11,1 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,2\right] + \left[\left(\frac{8,3 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,1 + \left(100 - \frac{8,3 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,1\right] =$$

$$= [(70,9 \cdot 0,4) + (29,1 \cdot 0,4)] + [(58,8 \cdot 0,3) + (41,2 \cdot 0,3)] +$$
$$+ [(78,1 \cdot 0,2) + (21,9 \cdot 0,2)] + [(87,6 \cdot 0,1) + (12,4 \cdot 0,1)] =$$
$$=(28,4 + 8.6) + (17,6 + 12,4) + (15,6 + 4,4) + (8,8 + 1,2) = 100,0\ \%$$

hisobot yilning asos yilga nisbatan o'zgarishi bo'yicha ham xuddi shunday holatda hisoblanishi mumkin:

$$\Delta Q_{bo} = \left[\left(\frac{2,16 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,4 + \left(100 - \frac{12,6 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,4\right] + \left[\left(\frac{7,2 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,3 +\right.$$

$$\left. + \left(100 - \frac{7,2 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,3\right] + \left[\left(\frac{11,1 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,2 + \left(100 - \frac{11,1 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,2\right] +$$

$$+ \left[\left(\frac{8,3 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,1 + \left(100 - \frac{8,3 \cdot 100}{13,5}\right) \cdot 0,1\right] =$$

$$= [(93,3 \cdot 0,4) + (6,7 \cdot 0,4)] + [(53,3 \cdot 0,3) + (46,7 \cdot 0,3)] + +[(82,2 \cdot$$
$$0,2) + (17,8 \cdot 0,2)] + [(61,5 \cdot 0,1) + (38,5 \cdot 0,1)]=(37,3 + 2,7) +$$
$$(16,0+14,0) + (16,4 + 3,6) + (6,2 + 3,8) = 100,0\ \%.$$

Ushbu ma'lumotlar asosida quyidagicha tahliliy jadval tuzishni tavsiya qilamiz (10.18-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rish mumkinki, amaldagi usul bilan hisoblaganda barcha omillar ta'siri 400,0 % ni tashkil qildi. Agar omillar guruhi beshta bo'lganda edi, ularning umumiy ta'siri 500,0 % bo'lgan bo'lur edi. Agar uchta bo'lsa 300,0 % va h.k. Biz tavsiya qilgan usul bilan hisoblansa omillarning guruhi va umumiy sonidan qat'i nazar bir xil natijaga, ya'ni 100 % lik miqdorga erishish mumkin. Ko'rinib turibdiki, natija o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sirini bir vaqtning o'zida birdaniga hisoblash mumkin bo'ladi. Agar bu amaliyotga qo'llanilsa, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to'g'ri baho berish, uni odilona boshqarish imkonini beradi.

10.18-jadval

«Turon» ko'ptarmoqli mas'uliyati cheklangan jamiyatda sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning hisob-kitobi

Omillarning nomi	Hisobot yil o'zgarishi odatdagi usulda		Hisobot yil o'zgarishi biz tavsiya qilgan usulda		Omillarning salmoqlilik koeffitsiyenti
	Asos yilga nisbatan	O'tgan yilga nisbatan	Asos yilga nisbatan	O'tgan yilga nisbatan	
1. Sotilgan mahsulot o'zgarishi:			$(2_{us}x6_{us})$	$(2_{us}x6_{us})$	
2.Xodimlar soni evaziga, %	70,9	93,3	28,4	37,3	0,4
3.Mehnat unumdorligi evaziga, %	29,1	6,7	8,6	2,7	
4.Asosiy vositalar evaziga, %	58,8	53,3	17,6	16,0	0,3
5.Asosiy vositalar samaradorligi evaziga	41,2	46,7	12,4	14,0	
6.Aylan mamablag'lar evaziga, %	78,1	82,2	15,6	16,4	0,2
7.Aylanma mablag'lar samaradorligi evaziga,%	21,9	17,8	4,4	3,6	
8.Nomoddiy aktivlar evaziga, %	87,6	61,5	8,8	6,2	0,1
9.Nomoddiy aktivlar samaradorligi evaziga,%	12,4	38,5	1,2	3,8	
Jami omillar ta'siri	**400,0**	**400,0**	**100,0**	**100,0**	**1,0**

Manba: 10.17-jadval asosida qilingan hisob-kitob natijasida olindi.

11-bob. KORXONALARNING MEHNAT RESURSLARI VA MEHNATGA HAQ TO'LASHNI TAHLIL QILISH

11.1. Korxonalarning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini tahlil qilish

Ishlab chiqarish dasturini muvaffaqiyatli bajarish avvalambor korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillari tarkibida quyidagi ko'rsatkichlar o'rganiladi:

1. Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta'minlanganligi.
2. Ish vaqtidan samarali foydalanishi.
3. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi (mehnat unumdorligining darajasi).

Ushbu qayd etilgan mehnat omillarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'rsatgan ta'sir doirasi tarixan turlicha bo'lgan. Chunonchi, texnika va texnologiya jarayonlar uncha ravnaq topmagan sharoitda mahsulot ishlab chiqarish asosan qo'shimcha tarzda ishchi kuchini jalb qilish evaziga erishilgan. Hozirgi sharoitda, ilmiy-texnika taraqqiyoti rivojlanayotgan davrda mahsulot ishlab chiqarish asosan mehnat unumdorligini oshirish hisobiga erishiladi.

Mehnat omillarini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-T sonli «Mehnat to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi.

Korxonada ishlovchi barcha xodimlar, ta'kidlanganidek, ikki turkumga bo'linadi: asosiy faoliyatda ishlovchi va asosiy bo'lmagan faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar. O'z navbatida asosiy faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar quyidagi toifalarga bo'linadi: ishchilar, xizmatchilar, shu jumladan: rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilar. Ushbu qayd etilgan xodimlar mahsulot ishlab chiqarishda birday qatnashmaydi. Agar, rahbarlar, mutaxassislar va xizmatchilar soni bo'yicha faqat mutlaq aniqlash yetarli bo'lsa, ishchilar soni bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atini hisobga olgan holda nisbiy farq ham aniqlanadi.

Ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni aniqlash usuli quyidagicha: o'tgan yildagi ishchilarning amaldagi soni ($X_{o'y}$) tovar mahsulotining o'tgan yilga nisbatan aniqlangan o'sish sur'atiga ($\Delta T\%$) ko'paytirilib, so'ngra yuzga bo'linadi. Shu tariqa hisoblangan ko'rsatkich ishchilarning joriy yildagi haqiqiy soni (X_h) bilan taqqoslanadi. Olingan natija ishchilar soni bo'yicha nisbiy kamlik yoki ortiqchalikni (ΔX_{nf}) ko'rsatadi:

$$\Delta X_{nf} = X_h - \left(\frac{X_{uy} \cdot \Delta X_{nf}}{100} \right).$$

Nisbiy kamlik esa mehnat unumdorligini o'sganligidan dalolat beradi. Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta'minlanganligini tahlil qilish uchun 11.3-jadvalni havola qilamiz.

11.3-jadval

Korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligining hisob-kitobi

Ishlovchilar toifasi	Haqiqatda		O'tgan yilga nisbatan mutlaq farq (+,−)	O'tgan yilga nisbatan mahsulotning o'sish sur'ati, %
	O'tgan yilda	Joriy yilda		
Hamma xodimlar	5973	6149	+176	103,0
Shu jumladan:				
asosiy faoliyatda	5788	5964	+176	103,1
Undan:				
ishchilar	5203	5426	+223	104,3
xizmatchilar				
rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilar	585	538	-47	92,0
Ulardan:				
rahbarlar	209	192	-17	91,9
mutaxassislar	299	276	-24	92,0
asosiy bo'lmagan faoliyatdagi xodimlar	185	185	—	100,0

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, korxonada o'tgan yilga nisbatan hamma xodimlarning soni 176 kishiga oshdi. Undan ishchilar soni 223 kishiga oshgan bo'lsa, xizmatchilarning soni esa 47 kishiga kamaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 8,7 foizga oshgan. Korxonada ishlab chiqarish xodimlarining soni esa faqat 3,1 foizga ko'paydi. Bunday maqbul nisbat korxonaning mehnat resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanganligidan dalolat beradi. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash lozimki, texnika taraqqiyotining jadal ravnaqi o'z navbatida mutaxassislarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasidagi ahamiyatini beqiyos oshiradi. Shu sababli ularning mutlaq sonining yoki salmog'ining kamayishini har doim ham ijobiy baholanaverilmaydi.

Yuqorida aytilganidek, ishchilar soni bo'yicha mutlaq farqni aniqlashdan tashqari yana nisbiy farqni ham aniqlash kerak. Ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni aniqlash uchun 11.4-jadvalni tuzamiz.

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, mahsulot hajmining o'sish sur'ati hisobga olmaganda ishchilar soni bo'yicha mutlaq farq 223 kishini (5426 − 5203) tashkil qiladi. Mahsulot hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atini (81,7 foiz) inobatga olganda esa, nisbiy farq 386 kishiga (5426−5812)

11.4-jadval

Ishchilar soni bo'yicha mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda o'tgan yilda	Haqiqatda joriy yilda	Tovar mahsuloti hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (81,7 %)	Farqi (+,−) Mutlaq	Nisbiy
Ishchilar	5203	5426	5812	+223	-386

kamayganligini ko'ramiz $\left(5426 - \frac{5203x111,7}{100}\right)$. Bu esa korxona jamoasining mehnat unumdorligini oshirish borasidagi ulkan yutug'idir.

11.2. Mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilish

Mehnat unumdorligi vaqt birligi (soat, smena, oy, chorak, yil) ichida bitta xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o'lchanadi. Mahsulot hajmini muttasil oshirish va shu asosda xalqning turmush farovonligini oshirishdagi muhim omil — mehnat unumdorligini beto'xtov oshirishdir. Hukumatimizning qarorlarida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda mehnat unumdorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi chuqur ilmiy tarzda tahlil qilib berilgan.

Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari ko'p qirralidir. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish, yangi mashinalarni joriy qilish, ishlayotgan dastgohlarni zamonaviylashtirish, dastgohlardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda mehnatni ilmiy tarzda tashkil etishni yaxshilash, ish vaqtidagi yo'qotishlarni tugatish, ilg'or ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanish, mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tizimini to'g'ri tashkil qilish va h.k.lar.

Mehnat unumdorligini hisoblashda quyidagi uch ko'rsatkichni qo'llash mumkin:

1. Natural ko'rsatkichlar.
2. Shartli-natural ko'rsatkichlar.
3. Pul (qiymat) ko'rsatkichlar.

Natural ko'rsatkichlar bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan (tonna, metr, dona va h.k.) korxonalarda qo'llaniladi. Masalan, neft qazib chiqarish natural holda massa yoki hajm birliklarida. Yalpi don hosili tonna yoki sentnerlarda, yengil avtomobillar ishlab chiqarish donalarda o'lchanadi va hokazo. Keyingi

yillarda mahsulot natural o'lchovlarini takomillashtirish yuzasidan ancha ishlar qilindi. Masalan, xomashyodan yaxshiroq foydalanish maqsadida qog'oz ishlab chiqarish tarmog'ida qog'oz ishlab chiqarish oldingidek tonnalarda emas, balki kvadrat metrlarda o'lchanadi. Natural ko'rsatkichlar hozirgi bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik mexanizmining eng zarur elementidir.

Shartli-natural ko'rsatkichlar turli xil mahsulotlarni yagona o'lchovga keltirishga asoslangan. Masalan, 15 ot kuchi birligiga keltirib hisoblangan traktorlar, shartli bankada ishlab chiqarilgan konserva mahsulotlari, dinometrdagi o'lchamda ifodalanadigan ichimliklar va h.k.

Qiymat ko'rsatkichlari har xil mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda qo'llaniladi. Qiymat ko'rsatkichlari korxona va birlashmalar ishini baholashda, xo'jalik hisobi va moddiy rag'batlantirishda, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Qiymat ifodasida korxonalarning ishlab chiqargan mahsulot hajmi belgilanadi, mahsulot tannarxi va mahsulot qiymatidagi foyda o'rtasidagi o'zaro nisbatlar aniqlanadi. Mehnat unumdorligi, vosita samaradorligi va mahsulotga material sarfi qiymat ifodasida belgilanadi. Realizatsiya qilingan tovarlar va sof mahsulotlar ham qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi. Qiymat ko'rsatkichini qo'llashda ikki shartni hisobga olish kerak: mahsulotga qo'yilgan baho va uning assortimenti o'zgarmasligi.

Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Bunda individual yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, sexdagi, korxona, tarmoqdagi va barcha iqtisodiyot ko'lamidagi mehnat unumdorligi farqlanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan yalpi ichki mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Korxonalarda mehnat unumdorligining darajasi tovar mahsulotining hajmini ishlab chiqarish xodimlarining soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-T sonli «Mehnat to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi. Ushbu shaklda – mahsulot hajmi, bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish kunlari va ish soatlari berildi. Bu ko'rsatkichlarga binoan bir ishchi tomonidan o'rtacha bir yilda ishlangan kishi kunlarini, ish kunining o'rtacha uzunligini va bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik va soatlik ish unumini aniqlash mumkin.

Tahlil uchun 11.5-jadval tavsiya qilinadi.

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, hisobot davrida bir ishlab chiqaruvchi xodimga to'g'ri keluvchi haqiqatdagi o'rtacha yillik ish unumdorligi o'tgan yilga nisbatan 12612 so'mga ortdi, yoki uning o'sish sur'ati 108,3 foizni tashkil etdi. Shuningdek, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik, kunlik

11.5-jadval

Mehnat unumdorligining hisob-kitobi

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Haqiqatda o‘tgan yilda	Haqiqatda joriy yilda	O‘tgan yilga nisbatan mutloq farq (+, –)	O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %
1.	Tovar mahsulotining o‘zgarmas (qiyosiy) ulgurji bahodagi hajmi	ming so‘m	898370	1000910	+102540	81,4
2.	Ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi umumiy soni	kishi	5788	5964	+176	103,0
3.	Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatidagi soni	kishi	5203	5426	+223	104,3
4.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish kunlari	kishi kuni	1252156	1289944	+3778	103,0
5.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan ish soatlar	kishi soati	9701061	9985046	+283985	102,9
6.	Bitta ishlab chiqarish xodimiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumdorligi (1q : 2q)	so‘m	155213	167825	12612	108,1

11.5-jadvalning davomi

II.	Hisoblangan analitik ko'rsatkichlar:					
7.	Ishchilarning umumiy ishlab chiqarish xodimlardagi ulushi (3q x100:2q)	%	89,89	90,98	+1,09	101,2
8.	Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi – kunlari (4q : 3q)	Kun-lar	240,66	237,73	-2,93	98,8
9.	Ish kunining o'rtacha uzunligi (5q : 4q)	soat	7,75	7,74	-0,01	99,9
10.	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi (1q : 3q)	so'm	172664	184466	+8802	106,8
11.	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumdorligi (1q : 4q)	S.t.	717,46	775,93	+55,47	108,2
12.	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumdorligi (1q : 5q)	S.t.	92,60	100,24	+7,64	108,25

va soatli ish unumdorligining o'sish sur'atlari mutanosib ravishda 106,8; 108,2; 108,3 foizni tashkil etdi. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligining o'sish sur'ati kunlik ish unumdorligining o'sish sur'atidan 1,31 foiz orqada. (108,15 − 106,84). Bunga asosan ishchilarning kun bo'yi bekor turib qolishlari sabab bo'lgan. Korxona bo'yicha har bir ishchi bir yilda qariyb 3 kun ishlamagan. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumdorligining o'sish sur'ati soatlik ish unumdorligidan 0,10 foiz orqada (108,25 − 108,15). Bunga esa ishchilarning smena ichida bekor vaqt yo'qotishlari sabab bo'ladi. Misolda korxona bo'yicha ish kunining o'rtacha uzunligi 0,01 soatga kamaygan.

Hisobot davrida tovar mahsulotning mutlaq hajmi o'tgan yilga nisbatan 102540 ming so'mga oshgan. Ma'lumki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi yo xodimlar sonini ko'paytirish yo'li bilan yoki har bir xodimning mehnat unumdorligining oshirilishi orqali o'sib borishi mumkin. Hozirgi sharoitda ularning ikkinchisi hal qiluvchi yo'ldir, zero ishlovchilar sonini ko'paytirish imkoniyati g'oyat cheklangan. Chunki bu qo'shimcha ish haqi to'lashni talab qiladi. Korxonada esa bunday imkoniyatning o'zi tanqis. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari sonining o'zgarishi.
2. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi.

Birinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun ishlovchilar sonida sodir etilgan farqni o'tgan yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligiga ko'paytiriladi. Misolida joriy yilda haqiqatdagi ishlovchilarning soni o'tgan yilga nisbatan 176 kishiga oshgan, o'tgan yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi ish unumdorligi esa 155213 so'mni tashkil etgan.

Demak, mahsulot hajmi ko'payishining 27317 ming so'mi (176 x 155213) yoki 26,6 foizi $\left[\frac{27317x100}{102540}\right]$ ishlovchilar sonining oshishi evaziga hosil bo'lgan.

Ikkinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligida bo'lgan farqni joriy yildagi ishlovchilarning haqiqatdagi soniga ko'paytriladi: ya'ni 12612 x 5964= = 75218 ming so'm. Demak, mahsulot hajmini ko'paytirishning 75218 ming so'mi yoki 73,4 foizi $\left[\frac{75218x100}{102540} = 73,4\%\right]$ mehnat unumdorligini oshirish hisobiga hosil qilingan.

Ikki omilning yig'indisi 27317 +75218 = 102535 ming so'm mahsulot hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan bo'lgan mutlaq farqqa teng.

Misolida tovar mahsuloti bo'yicha bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi joriy yili o'tgan yilga nisbatan

12,6 ming so'mga oshgan. Ishlovchilarning ish unumi darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun 11.6-jadvalni havola qilamiz.

11.6-jadval

Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Haqiqatda		O'tgan yilga nisbatan mutloq farq	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
		O'tgan yilda	Joriy yilda		
1.Tovar mahsuloti	ming so'm	898370	1000910	+102540	81,41
2. Ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha ro'yxatdagi soni, jami	kishi	5788	5964	+176	103,04
Shu jumladan: ishchilar	kishi	5203	5426	+223	104,29
3.Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik mehnat unumdorligi	ming so'm	155,2	167,8	+12,6	108,13
Bir ishchiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi	ming so'm	172,7	184,5	+8,8	106,84
4.Ishchilarning ishlovchi xodimlar tarkibidagi ulushi	%	89,89	90,98	+1,09	102,21

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligi o'tgan yilga nisbatan 12,6 ming so'mga oshan.

Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Ishchilarning ishlovchi xodimlar tarkibidagi salmog'ining o'zgarishi:

$$+1,09 \times 172,7 = +1,9 \text{ so'm.}$$

2. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi

$$+8,8 \times 90,98 = +10,7 \text{ so'm.}$$

Demak, ikki omilning yig'indisi (+1,9) + (+10,7) = +12,6 ming so'm. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligining mutlaq o'sishi ham shu 12,6 ming so'mga teng.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmini muttasil ravishda oshirish ishchilarning ish unumdorligiga bevosita bog'liq. Bunga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash uchun quyidagi jadval havola qilinadi 11.7-jadval).

11.7-jadval

Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumdorligini aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Haqiqatda		Mutloq farq	O'sish sur'ati, %
		O'tgan yilda	Joriy yilda		
1.Tovar mahsuloti	ming so'm	898370	1000910	+102540	81,41
2.Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni	kishi	5203	5426	+223	104,29
3.Bir ishchiga to'g'ri keluvchi ish unumdorligi	so'm	172664	184466	+8802	106,84
4.Hamma ishchilar tomonidan ishlangan ish kunlari	Kun	1252154	1289923	+37769	103,0
5.Hamma ishchilar tomonidan ishlangan ish soatlari	soat	9,701061	9,985046	+283985	102,95
Hisoblangan ko'rsatkichlar:					
6.Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan ish kunlari (4q : 2q)	kun	240,66	237,73	-2,93	98,73
7.Ish kunining o'rtacha uzunligi (5q x4q)	soat	7,75	7,74	-0,01	99,87
8.Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha soatlik ish unumdorligi (1q : 5q)	so'm	92,6	100,24	+7,64	108,25

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, joriy yili bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik ish unumdorligi o'tgan yilga nisbatan 8802 so'mga oshgan.

1. Ish vaqtining kun bo'yicha yo'qotishlari:

$$-2,93 \times 7,75 \times 92,6 = -2103 \text{ so'm.}$$

2. Smenalar ichidagi sodir bo'ladigan ish vaqtining yo'qotishlari:

$$-0,01 \times 237,73 \times 92,60 = -220 \text{ so'm.}$$

3. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumdorligining o'zgarishi

$$+7,64 + 237,73 \times 7,74 = +14058 \text{ so'm.}$$

Hisoblangan uch omilning yig'indisi (-2103) + (-220) + (+14058)= +8735 so'm. Bu bir ishchiga to'g'ri keluvchi ish unumdorligidagi mutlaq farqqa teng. Ozgina farq raqamlarni yaxlitlash evaziga sodir bo'lgan.

11.3. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil qilish

Mehnat unumdorligining o'sishi bevosita ish vaqtidan oqilona foydalanishga bog'liq. Afsuski, ko'p korxonalarda ish vaqtidan qoniqarli foydalanilmaydi. Ayniqsa, hozirgi ishlab chiqarishni jadallashtirish sharoitida bekor yo'qotilgan har bir daqiqaning bahosi qimmatga tushmoqda. Shuning uchun mehnat unumdorligining oshishi bilan ish vaqtining har bir daqiqasining qimmati oshib boradi. Ish vaqtidan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi — hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari hisoblaniladi. Misolida joriy yilda hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari o'tgan yilga nisbatan 283985 soatga oshgan (15.7-jadval). Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan.

1. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini aniqlash uchun ishchilar sonida bo'lgan farqni o'tgan yilda biri ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi kunlari va ish kunining o'rtacha uzunligi ko'paytiriladi, ya'ni +223 x
x 240,66 x 7,75 = +415921 kishi soati.

2. Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi kunlarining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini hisoblash uchun bir ishchi tomonidan ishlangan kishi kunlarida bo'lgan farqni joriy yildagi ishchilarning o'rtacha ro'yxatidagi soniga va o'tgan yildagi ish kunining o'rtacha uzunligiga ko'paytiriladi, ya'ni -2,93 x 5426 x 7,75 = -12328 ish soati.

3. Ish kunining uzunligining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini aniqlash uchun ushbu ko'rsatkichda bo'lgan farqni joriy yildagi hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi kunlariga ko'paytiriladi, ya'ni -0,01 x 1289923 = -12899 ish soati.

Yuqorida hisoblangan uchta omilning yig'indisi (+415931) + (12328) + (-12899) = +27988 kishi soatini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich taxminan hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlarida bo'lgan farqqa tengdir.

Tahlil qilinayotgan korxonada ish vaqtidan foydalanishda kun bo'yi yo'qotishlar qariyb uch kunni tashkil etdi. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi: har yili ishlovchilarga beriladigan navbatdagi mehnat tatili, o'qish uchun beriladigan ruxsat, kasallik tufayli ishga chiqmaslik, korxona ma'muriyati ruxsati bilan ishga chiqmaslik, davlat vazifasini bajarish, qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilish natijasida ishga chiqmaslik, sababsiz ishga chiqmaslik va h.k. Smena ichida sodir bo'ladigan bekor turishlarni tahlil qilish ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Mehnat va ish haqini hisob qilish bo'yicha asosiy nizomda, agar bekor turish 6 daqiqadan oshsa uni hisobga olib hujjatlashtirish ko'zda tutilgan. Ammo bu ish aksariyat holda qilinmaydi. Ish joylarini kerakli xomashyo bilan yomon va qoniqarsiz ta'minlash, ish vaqti yo'qotishning 50 foizini tashkil etadi. Korxonalarda ishchilarning o'zlari tomonidan yo'l qo'yiladigan bekor turishlar ham mavjud. Bu ish

vaqti yo'qotishning taxminan 40 foizini tashkil qiladi. Boshqa sabablar natijasida bekor turishlar, yohud elektr quvvatining bo'lmasligi, dastgohlarning nosozligi va h.k.lar ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

11.4. Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar tahlili

Mamlakat taraqqiyotining asosiy g'oyalaridan biri Vatan ravnaqi, xalq farovonligini sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarishdan iboratdir. Ish haqi tizimini doimo shunday takomillashtirib borish kerakki, toki u mehnatning miqdori va sifatiga qarab haq to'lash tamoyiliga mos tushsin, uning sharoiti va natijalarini hisobga olsin, xodimlar malakasini, mehnat unumdorligini oshirishni, mahsulot sifatini yaxshilashni, barcha resurslardan oqilona foydalanishni va ularning tejalganligini rag'batlantirsin.Ana shuni hisobga olib hozir ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchi va xizmatchilarning ish haqini ko'zda tutilayotgan darajada oshirish asosan korxonalarning o'zlari topgan mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jadalroq ta'sir ko'rsatadi.

Mehnatga haq to'lash fondi – yalpi ichki mahsulotning xodimlar o'trasida ular mehnatining miqdor va sifatiga muvofiq taqsimlanadigan hamda shaxsiy iste'mollari uchun foydalaniladigan qismidir.

Mehnatga haq to'lash fondi – mehnat bo'yicha biznes-rejaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri: korxonalarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbolli va yillik rejasida ko'zda tutiladi.

Mehnatga haq to'lash fondiga hamma xodimlarga (doimiy, mavsumiy, vaqtincha ishlaydigan xodimlarga) bajarilgan ish uchun to'plangan pul summalari, shuningdek, amaldagi qonunlarga muvofiq xodimlarga ishlanmagan vaqtlari (emizikli onalar ishidagi uzilish uchun to'lash va boshqalar) uchun to'langan ish haqi summasi ham qo'shiladi. Mehnatga haq to'lash fondidan tarif stavkalari va mansab okladlari bo'yicha haq to'lash, ishbay mehnatga haq to'lash, ishchilarga mukofotlar to'lash, og'ir va zararli mahsulot sharoitlari uchun, kasb mahorati uchun bir necha *kasblarni qo'shib bajarganliklari va xizmat ko'rsatish zonalarini* kengaytirganligi uchun qo'shimcha va ustama haqlar beriladi, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar uchun haq to'lanadi, ko'p yil ishlagani uchun bir yo'la taqdirlash uchun va h.k. Korxona mehnat jamoasiga mehnat natijalari uchun barcha to'lovlarning yagona manbayi – mehnatga haq to'lash fondi hisoblanadi. Mehnatga haq to'lash fondi bir paytlar ish haqi fondi va moddiy rag'batlantirish fondi o'rniga tashkil etilgan. Hozir ham bu fondi shu mazmunda saqlanib qolgan.

Tahlilning asosiy vazifasi mahnatga haq to'lash fondining mutlaq miqdorini tobora ko'paytirish va nisbiy ulushini kamaytirib borish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Zero, ish haqi tannarxida tutgan

salmog'i jihatdan yuqori bo'lib, uni qisqartirish tannarxining kamayishiga, bu esa o'z navbatida, foyda va rentabellik darajasining oshirilishiga olib keladi.

Tahlil uchun ma'lumotlar yillik hisobotning 1-T sonli korxonalarning «Mehnat to'g'risidagi hisobot» nomli shaklidan olinadi. Tahlilning dastlabki bosqichi asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining va uning toifalarining mehnatga haq to'lash fondini o'tgan yildagi mehnatga haq to'lash fondi bilan taqqoslab mutlaq farqni aniqlashdan boshlanadi (11.10-jadval).

11.10-jadval

Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni hisob-kitob qilish

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda		Farqi (+,-)	
	O'tgan yilda	Joriy yilda	Mutlaq (+,-)	Foiz hisobida
Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining yillik mehnatiga haq to'lash fondi, jami	10831,2	8755,9	+924,7	+8,5
Shu jumladan:				
Ishchilar	9877,1	10773,8	+896,7	+9,1
Xizmatchilar (rahbarlar mutaxassislar va boshqa xizmatchilar)	954,1	982,1	+28,0	+2,9
Undan: rahbarlar	380,1	394,1	+14,0	+3,7
mutaxassislar	464,2	482,2	+18,0	+3,9

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining mehnatga haq to'lash fondi joriy yili o'tgan yilga nisbatan 924,7 ming so'm yoki 8,5 foizga oshgan. Ushbu mutlaq o'sish asosan ishchilarning ish haqi fondining 896,7 ming so'mga o'sish evaziga sodir bo'lgan. Lekin, mutlaq farqqa qarab asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondidan foydalanishga baho berib bo'lmaydi. Shuning uchun ushbu xodimlarning ish haqi fondi bo'yicha nisbiy farqni aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun 11.8-jadvalni havola qilamiz.

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini hisobga olmagan holda ish haqi fondi bo'yicha 816,4 ming so'm mutlaq ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilgan. Tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini (81,37 foiz) hisobiga olganda esa nisbiy tejam 54,3 ming so'mni tashkil etdi. Bu esa korxonaning mehnat resurslaridan oqilona foydalanmaganligidan dalolat beradi. Mehnatga haq to'lash vositasiga ta'sir qiluvchi omillarni mutlaq farq usuli orqali ham aniqlash mumkin. Bunda mehnatga haq to'lash vositasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

11.8-jadval

Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondi bo'yicha mutlaq va nisbiy farqni aniqlash

Ko'rsatkichlar	Summasi (ming so'm)
1. Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning ish haqi fondi a) asos bo'yicha b) haqiqatda d) mutlaq farq (+,−)	 10939,5 8755,9 +816,4
2. Tovar mahsuloti hajmining o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati 8,41 foiz	
3. Ish haqi fondining qo'shimcha o'sishiga berilgan normativ koeffitsiyenti 0,7 foiz	
4. Hisoblangan ish haqi fondi $10939,5 + \frac{10939,5x11,37x0,7}{100} = 8810,2$	8810,2
5. Nisbiy tejam (ortiqcha xarajat) 8755,9 − 8810,2 =-54,3	54,3

1) ishlovchi xodimlar soni;
2) xodimlarning o'rtacha yillik ish haqi.

Birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlar sonida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi o'rtacha yillik ish haqi miqdoriga ko'paytiriladi. Ikkinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun xodimlarning o'rtacha yillik ish haqida bo'lgan farqni xodimlarning o'tgan yildagi ro'yxatidagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi. Demak, ish haqi fondini tahlil qilish uchun boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan juda ko'p an'anaviy usullardan foydalanish mumkin ekan.

12-bob. MODDIY RESURSLAR BILAN TA'MINLANISHI VA ULARDAN FOYDALANISHNI TAHLIL QILISH

12.1. Moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi o'z navbatida mehnat buyumlarining ortishiga olib keladi. Agar xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida (yengil va oziq-ovqat) moddiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlarida tutgan salmog'i 80 foizni tashkil etishini nazarda tutsak, u holda material sarfini kamaytirishning naqadar xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'ramiz.

Bozor munosabatlari sharoitida tejamkorlik rejimini kuchaytirish, hamma turdagi resurslarni oqilona va tejab-tergab sarflash, ularnig nobud bo'lishini kamaytirishga sabot bilan erishish, resurslarni tejaydigan va chiqitsiz texnologiyaga o'tishni amalga oshirish, ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yaxshilash, ularni qayta ishlaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, ikkilamchi xomashyoni to'plashni, shu jumladan aholidan to'plashni tashkil qilish va tayyorlov tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash lozim. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida sodir bo'layotgan xo'jasizlik, nobudgarchilik va tejamsizliklarga juda ham ko'p misollar keltirish mumkin.

Material sarfini kamaytirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Mahsulotlarning konstruksiyasini o'zgartirish va takomillashtirish.
2. Ishlab chiqarish jarayonlari va ishlab chiqarish dastgohlarining texnologiyasini takomillashtirish.
3. Eng maqbul bichish xaritalarini qo'llash orqali materiallarga ketadigan xarajat normalarini kamaytirish.
4. Ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish.
5. Ishlab chiqarishda brakka aslo yo'l qo'ymaslik va hokazolar.

Moddiy resurslarning asosiy qismini mehnat predmetlari tashkil qiladi. Bularga: xomashyo, materiallar, yonilg'i va boshqa predmetlar kirib, ular har bir ishlab chiqarish siklida butunlay o'z qiymatini mahsluotga o'tkazadi. Bularning tahlili ham iqtisodiyotni o'nglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahsulot yetkazib berish shartnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bunda tranzit bilan (bevosta) mahsulot tayyorlovchilardan iste'molchilarga yoki ta'minot – mol o'tqazish korxonalari va tashkilotlarining omborlari orqali (omborlardan mol yetkazib berish) amalga oshiriladi. Mahsulotlarni omborlardan yetkazib berishda mol oluvchilarga mahsulotni iste'molga tayyorlash (materiallarni qirqish va bichish, mayda idishlarga qadoqlab yoki o'lchab

joylash) va boshqalar yuzasidan ishlab chiqarish xizmati, tranzit xizmati ko'rsatiladi.

Moddiy-texnika ta'minotini bozor iqtisodiyotiga mos ravishda qayta qurish moddiy resurslarni markazlashtirilgan tarzda vositalash va iste'molchilarni mol yetkazib beruvchilarga biriktirib qo'yishdan ishlab chiqarish vositalari bilan vositalar va naryadlarsiz, iste'molchilarning buyurtmasi bo'yicha, shartnoma narxlaridan foydalangan holda, xaridor manfaatini ko'zlab, ish yuzasidan sherik tanlash orqali erkin oldi-sotdi shaklidagi savdo qilishga o'tish natijasida ishlab chiqaruvchining o'z amrini o'tqazishini va monopoliyasini (tanho huquqqa ega bo'lishi) bartaraf etib rivojlangan bozorning paydo bo'lishiga olib keldi.

Korxonalarning moddiy-texnika ta'minotining holatini tahlil qilish cheklangan doirada olib boriladi, chunki korxonalarning hisobotida, jumladan yillik hisobotda ta'minot holati to'g'risida ma'lumotlar juda ham kam beriladi, unda keltirilgan materiallarning assortimenti va sifati bo'yicha ishlab chiqarish talab va ehtiyojlariga mos keladimi yoki yo'qmi shunga o'xshash ma'lumotlar ko'rsatilmaydi.

Shuning uchun moddiy-texnika ta'minoti holatini chuqur va har tomonlama tahlil qilish uchun korxonaning ta'minot bo'limi va omborxonaning ma'lumotlariga murojaat qilish kerak bo'ladi. Ana shu ma'lumotlarga asoslangan holda materiallar guruhi va ularning alohida olingan xillari bo'yicha ularning keltirilishi, rejaning qanday bajarilganligini aniqlash mumkin.

Yillik hisobotdan esa faqat ishlab chiqarish zaxiralarining yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (balansdan), ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar summasini 5-s mahsulot ishlab chiqarish va sotishga korxona sarf xarajatlari to'g'risida hisobot shaklidan olinadi.

Yuqorida qayd etilgan shakllaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha rejaning bajarilishiga umumiy baho berish mumkin. Bunday yuzaki tahlil korxonalarning ta'minot holatini har tomonlama aniqlashda yetarli emas, chunki korxonalar umuman materiallar bilan ta'minlanganlari holda materiallarning qaysi birlari bo'yicha ortiqchalik, qaysi birlari bo'yicha esa yetishmovchilik bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Shuning uchun korxonalarning materiallar bilan to'la-to'kis va zarur assortimentlari bo'yicha ta'minlanganligini aniqlash uchun omborxona hisobotidan olingan ma'lumotlarga murojaat qilish kerak.

12.2. Ishlab chiqarishda materiallardan foydalanishni tahlil qilish

Materiallarni reja doirasida tayyorlash mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejani bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Agar materiallar tejab-tergab sarf etilmasa va ularning haqiqatdagi sarfi normaga nisbatan ortiqcha

bo'lsa, u holda tayyorlangan materiallar mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejasini bajarish uchun yetarli bo'lmaydi. Tahlil qilish orqali materiallardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajat bo'lgan bo'lsa, u holda qancha kam mahsluot ishlab chiqarildi yoki materaillarni tejash natijasida qancha qo'shimcha mahsluot ishlab chiqarganligini aniqlash kerak. Bularni hisobga olish usuli quyidagicha:

1. Mahsulot birligi uchun *belgilangan xarajat normasini* materiallarga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi.

2. Olingan iqtisod yoki ortiqcha xarajat ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdoriga ko'paytiriladi.

3. Materiallarni sarf etishda sodir bo'lgan ortiqcha xarajatni reja bo'yicha belgilangan xarajat normasiga bo'linadi, uning tejalgan qismini esa haqiqiy xarajat miqdoriga bo'linadi. Shu tariqa natijasida qo'shimcha ishlab chiqarilgan *mahsulot yoki ortiqcha xarajat* oqibatida *ishlab* chiqarilmagan mahsulot hajmi aniqlanadi. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar muhim mahsulot turlari tannarxida (kalkulyatsiyasida) berildi.

Jadvaldan ko'rinishicha, korxonada erkaklar poyafzalini tayyorlashda unga sarflanadigan ko'n tovarlarini tejash natijasida qo'shimcha ravishda 52 juft ishlab chiqarishga erishildi. Xotin-qizlar poyafzalini tayyorlashda esa 16,5 ming kv. dsm. ga ko'p ko'n tovarlari ortiqcha qilindi.

Natijada *27 juft kam* ayollar poyafzali ishlab chiqarildi. Alohida olingan materiallardan foydalanishni tahlil qilishdan tashqari korxona bo'yicha materiallardan foydalanishni tahlil qilish kerak. Tahlil uchun kerakli ma'lumot yillik hisobotning I—II sonli «Korxonaning *mahsulot ishlab* chiqarish bo'yicha hisobot»i va 5-s shaklidan olinadi.

Hisobi:

$$5\ a - 0{,}045 \times 997970 = -44908 \text{ ming so'm } (+)$$
$$5\ b - 44908 : 0{,}6667 = +67168 \text{ ming so'm } (-)$$

Tahlil qilinayotgan korxona moddiy xarajatlarni tejash natijasida qo'shimcha ravishda 67168 ming so'mli mahsulot ishlab chiqarishga erishdi. Demak, korxona tovar mahsulotiga ketadigan material sarfini kamaytirish borasida barcha chora va tadbirlarni qo'llamoqda deb xulosa chiqarish mumkin. Jadvaldan ko'rinishicha, hisobot yili haqiqatda tovar mahsuloti hajmi biznes-rejaga nisbatan *55370 ming so'mga* oshgan. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Moddiy xarajatlarning o'zgarishi (ekstensiv omil): − 8000 x 1,50 = =-12000 ming so'm.

2. Material samarasining o'zgarishi (intensiv omil) : +0,8 x 620430= =+68247 ming so'm.

Hisoblangan ikki omilning yig'indisi (-12000) + (+68247)= =+56247 ming so'm. Mahsulot hajmidagi *mutlaq farqqa (55370* m.s.) taxminan teng keladi. Bunga 877 ming so'mga farq (56247 −55370) omillar miqdorini

12.1-jadval

Materiallardan foydalanishni tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	Erkaklar poyafzali	Xotin-qizlar poyafzali
1.Mahsulot birligiga sarf qilinadigan ko'p tovarlari — 100 juft poyafzalga kv.dsm. reja bo'yicha haqiqatda farqi (+,-)	 1817 1805 -12	 1320 1827 +7
2.100 juft hisobida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori	7850	5070
3. Tejam (-), ortiq (+) hamma ishlab chiqarilgan poyafzalga (ming, kv.dsm)	(7850x12) -94,2	(5070x7) +85,5
4. Qo'shimcha mahsluot ishlab chiqarish yoki kam ishlab chiqarish	(94,02:1805) +52	+85,5:1820 -27

12.2-jadval

Mehnat buyumlaridan samarali foydalanishni tahlil qilish

№	Ko'rsatkichlar	Biznes-reja bo'yicha	Haqi-qatda	Mutlaq farq (+,—)
1.	*Moddiy xarajatlar, ming so'm.*	*628430*	*620430*	*-8000*
2.	Tovar mahsuloti ming so'm.	942600	997970	+55370
3.	Bir so'mlik moddiy xarajatlarga to'g'ri keluvchi mahsulot hajmi (2 qator: 1qator), so'm, tiyin	1,50	1,61	+0,8
4.	Tovar mahsulotiga ketgan material sarfi, tiyin (1 qator: 2 qator), yuzdan bir aniqlikda 0,01	0,6667	0,6217	-0,045
5.	Material sarfi o'zgarishining ta'siri (+,—) a) tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi moddiy xarajatlarda(qimmatlashishi +; pasayishi —) ming so'm.(4 qator 5 us x2 qator 4 us) b) tovar mahsulotining hajmi, ming so'm. (5 qator 5 us : 4 qator 3 us)	 — —	 — —	 -44908 +6716

yaxlitlash hisobiga ro'y berdi. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi faqat intensiv (jadal) omil hisobiga sodir bo'ldi. Bu esa o'z navbatida korxonaning iqtisodiy salohiyati oshganligidan dalolat beradi.

12.3. Mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha yig'ma rezervlarni aniqlash

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdir. Ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va ularni xo'jalik oborotiga yo'naltirishda korxonalar katta imkoniyatlarga ega. Bu esa ishlab chiqarish resurslari (mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari)dan oqilona va samarali foydalanishga bog'liq. Bu omillar yuqorida batafsil va har tomonlama tahlil qilindi. Yig'ma rezervlarni aniqlash uchun quyidagi analitik jadval havola qilinadi (12.3-jadval).

12.3-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni amalga oshirish bo'yicha yig'ma rezervlarni aniqlash (ming so'm hisobida)

№	Rezervlarning nomi	Summasi	Jadvalga ilova
1.	Mehnat omillari		jadval
2.	Mehnat vositalari omillari		jadval
3.	Mehnat predmetlari omillari		jadval
4.	Mahsulot ishlab chiqarishni oshirishning komplekt rezervi [x)]		
5.	Normativga nisbatan ortiqcha tayyor mahsulotlarning yil oxiriga bo'lgan qoldig'ini sotish		balans
6.	Ko'paytirilgan tovarlar, lekin o'z muddatida haqi to'lanmagan va javobgarlik bilan saqlanadigan tovarlar		balans
	Tovar va sotilgan mahsulot hajmining oshirishning jami rezervi (4=+5=+ 6=)		

[x)] Komplekt rezerv deganda, rezervlarning eng kam summasi olinadi.

13-bob. ASOSIY VOSITALARNING TARKIBI, HOLATI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

13.1. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakati

Sanoat mahsulotini va mehnat unumdorligining beto'xtov o'sishiga ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, harakatdagi asbob-uskunalar va dastgohlarni zamonaviylashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini kiritish va ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish orqali erishiladi.

Ma'lumki, asosiy vositalar uzoq vaqt xizmat qiladi, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natura shaklini saqlab qoladi va kapital mablag'lar hisobiga to'ldirilib boriladi. Yangidan barpo qilingan davlat korxonalarining asosiy vositalarini shakllantirishning manbai asosan budjet mablag'idir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab turgan korxonalar dastgohlar va boshqa mehnat vositalari sotib oladi, yangi ishlab chiqarish obyektlari quradilar. Buni esa korxonalar ishlab topgan o'z mablag'lari hisobidan, bank krediti yordamida bajaradilar. Bundan tashqari, amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarni sotib olish va ularni kapital va joriy ta'mirlash uchun mablag'larning muhim manbayidir. Yirik va tobora ko'p kapital mablag'lar sarflash natijasida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarining asosiy ishlab chiqarish vositalari jadal ko'payib bormoqda.

Jamiyatning ulardan juda ham oqilona foydalanishdan g'oyat manfaatdorligi tabiiydir. Chunki bu vositalarni samarali ishlatish ko'p jihatdan butun ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini belgilaydi. Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilash ishlab chiqarish vositalariga sarflangan har bir so'm hisobidan mahsulotni eng ko'p miqdorda oladigan qilib xo'jalik yuritish demakdir.

Korxonalarning asosiy vositalari ishlab chiqarishdagi o'z ahamiyatiga qarab uch turkumga bo'linadi:

1) sanoat ishlab chiqarish vositalari;

2) boshqa tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari; 3) noishlab chiqarish asosiy vositalari.

Iqtisodiy tahlilda asosiy vositalari mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan roli bir xil emas. Shuning uchun ular ikki qismga bo'linadi:

1) aktiv (faol) asosiy vositalar;

2) passiv (nofaol) asosiy vositalarga kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari va asbob-uskunalar, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari kiradi. Asosiy vositalarning passiv (nofaol) qismiga esa binolar, inshootlar va transport vositalari kiradi. Asosiy vositalarning aktiv (faol) qismi ishlab chiqarish asbob-uskunalari deb atalib, ular mehnat

vositalari sifatida mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashadi. Asosiy vositalarning passiv (nofaol) qismi esa mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashmasa ham ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz olib borish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun asosiy vositalarning aktiv (faol) qismining salmog'i qancha ko'p bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati ham shuncha ko'p bo'ladi. Hozir eng ilg'or sanoat korxonalarida asosiy vositalarning aktiv (faol) qismining salmog'i 65 foizni tashkil qiladi. Asosiy vositalarning aktiv (faol) qismining oshirish yo'llari quyidagilar:

1) ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish;

2) ishlab chiqarish maydonidan oqilona foydalanish;

3) bino va inshootlarni qurishda qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish va hokazolar.

Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakatini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 3-sonli «Asosiy vositalar to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi. Ularning holatini tahlil qilish uchun 13.1-jadval tavsiya qilinadi. Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, joriy yili jami sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining qiymati o'tgan yilga nisbatan 33 mln so'mga yoki 0,9 foizga (33 x 100/3830,0) oshdi.

Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'sish asosan ularning passiv qismi, ya'ni bino va inshootlar qiymatining 26 mln so'mga ortishi va ishlab chiqarish asbob-uskunalar (aktiv qisman) qiymatining 68 mln so'mga kamayishi hisobiga ta'minlandi. Asosiy vositalarning aktiv qismining passiv qismiga nisbatan past sur'atlar bilan o'sishga qaraganda tahlil qilinayotgan korxonada texnika taraqqiyoti sust darajada olib borilyapti degan xulosaga kelish mumkin. Binobarin, vositadan olinadigan samarani

13.1-jadval

Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining tarkibi va harakatini tahlil qilish

Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari	O'tgan yilda		Joriy yilda		O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi (+,–)	
	summasi, mln so'm	salmog'i, %	summasi, mln. so'm	salmo-g'i, %	summasi, mln. so'm	sal-mog'i, %
1. Bino va inshootlar	1890,0	49,3	1916,0	49,8	+26,0	+0,3
2. Ishlab chiqarish asbob-uskunalari	1960,0	50,2	1926,8	49,9	-33,2	-0,3
3. Boshqa asosiy vositalar	20,0	0,5	20,2	0,5	+0,2	–
Jami	3830,0	100,0	3863,0	100,0	+33	–

oshirish harakatdagi korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish va qayta uskunalashni tezkorlik bilan amalga oshirish hamda ishlab chiqarishga yangi texnikani kiritish birinchi galdagi vazifa bo'lib hisoblanadi.

Shuning uchun asosiy vositalarning aktiv qismining o'sish sur'ati passiv qismining o'sish sur'atiga nisbatan ustun darajada bo'lishi kerak. Tahlil qilinayotgan korxonada esa asosiy vositalarning aktiv va passiv qismlarining o'sish sur'atlari mos ravishda 100,4 foizni (1926,8 x 100 : 1920,0) va 100,6 foizni (1901,3 x 100 : 1890,0) tashkil etdi. Agar, yuqorida aytilgandek, ilg'or sanoat korxonalarida asosiy vositalarning aktiv qismining salmog'i 65 foizni tashkil qilishni hisobga olsak, u holda tahlil qilinayotgan korxonada uning salmog'i faqat 49,9 foizga teng bo'ldi. Demak, korxona kelgusida asosiy vositalarni yangilash borasida tub o'zgarishlar qilishi lozim. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari qiymatini asos yilidan boshlab o'sib borish sur'atini ham tahlil qilish kerak. Buning uchun 13.2-jadvalni havola qilamiz.

Jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxona asosiy vositalarning qiymati uchinchi yili asos qilib olingan yilga nisbatan 63 ming so'mga yoki +1,7 foizga (63 x 100 / 3800,0) ortdi. Endi zanjirli usulini qo'llasak ham aynan ushbu natija hosil bo'ladi, ya'ni 101,7 foizni aniqlash uchun asosiy vositalarning yillik qo'shimcha o'sish sur'atlarini bir-biriga ko'paytirilib, so'ngra chiqqan natija yana yuzga ko'paytiriladi (1,004 x 1,004 x 1,009) x 100 = 1,017 foiz yoki 63 mln so'm (3800,0 x (1,0127-1).

13.2-jadval

Sanoatda asosiy vositalarning dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Asos yilida	Yillar			
		1-yil	2-yil	3-yil	Asos yili boshidan boshlab
Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari	3800,0	3815,0	3830,0	3863,0	-
Haqiqatda o'sish sur'ati, %	100,0	100,4	100,4	100,9	101,7

Asosiy vositalarning mutlaq o'sishini aniqlash bilan birga resurslarni nisbiy iqtisod qilingan yoki ortiqcha xarajat qilishga yo'l qo'yilgan miqdorini ham hisoblash kerak. Buning uchun sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining baza (asos) yilidagi qiymati tovar mahsuloti hajmining besh yillik boshidan boshlab o'rtacha yillik o'sish sur'atiga ko'paytirilib, so'ngra hisoblangan miqdor besh yillikning yillaridagi sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining miqdori bilan taqqoslanadi. Misolida asosiy vositalarni nisbiy tejash 1759 mln so'mni tashkil etdi. (3800,0 x 1,017 – 3863,0 = 3864,6 – 3863,0) =-1,6 mln. so'm. Demak, tovar mahsuloti hajmining o'rtacha yillik o'sish sur'atini hisobga olganda korxonaning asosiy vositalari 3864,6 mln so'mni tashkil qilishi kerak edi, haqiqatda esa ularning qiymati besh

yillikning uchinchi yili 3863,0 mln so'mni tashkil etdi. Bu esa korxonaning asosiy vositalardan samarali foydalanish borasidagi yutug'idir.

13.2. Asosiy vositalarning texnik holatini tahlil qilish

Asosiy vositalardan uzluksiz foydalaniladi. Shu sababli asosiy vositalarning bir qismi eskiradi, ishdan chiqadi, boshqalari esa foydalanishga joriy etiladi. Binobarin, asosiy vositalarning texnik holati tovar mahsuloti ishlab chiqarish rejasining bajarilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Asosiy vositalarning texnik holati qoniqarli darajada bo'lsa, bu o'z navbatida asbob-uskunalar va dastgohlarning bekor turib qolishiga, ayrim vaqtlarda esa avariyalar (halokatga) olib kelishi ehtimoldan holi emas. Shuning uchun asosiy vositalar texnik jihatdan yaxshi sozlangan holatda bo'lishi lozim. Asosiy vositalarni texnik jihatdan qoniqarli darajada ushlab turish joriy va kapital remont (tuzatish) orqali amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarning texnik holatini belgilovchi umumiy ko'rsatkichlardan biri ularning eskirish koeffitsientidir. Asoiy vositalarning eskirish koeffitsientini aniqlash uchun asosiy vositalarning eskirish summasini (baland passivining 1-bo'limi) ularning boshlang'ich qiymatiga (balans aktivining 1-bo'limi) bo'linadi. Odatda, asosiy vositalarning eskirish koeffitsientining kamayishi ularning texnik holatini yaxshilanganligidan dalolat beradi. Asosiy vositalardan uzluksiz ravishda foydalanish natijasida ularning eskirish darajasi oshib boradi. Shuning uchun asosiy vositalarni yangilash kerak. Asosiy vositalarni yangilash koeffitsientini aniqlash uchun yangi kelgan asosiy vositalar summasini asosiy vositalarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak. Asosiy vositalarni chiqib ketishi koeffitsientining hisoblash uchun esa chiqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak.

Asosiy vositalarni ishga yaroqlilik koeffitsientini ham aniqlash mumkin. Uni aniqlash uchun birdan eskirish koeffitsienti ayriladi.

Asosiy vositalarning texnik holatini har tomonlama va chuqur tahlil qilish uchun asosiy vositalarning qo'shimcha o'sish hamda chiqib ketishining o'rnini qoplash (kompensatsiya) koeffitsientlari ham aniqlanadi. Asosiy vositalarning qo'shimcha o'sish koeffitsientini aniqlash uchun yangidan kelgan va chiqib ketgan asosiy vositalarning navbatidan chiqqan qoldig'ini yangi kelgan asosiy vositalarning miqdoriga bo'lish kerak. Asosiy vositalarning chiqib ketgan qiymatining o'rnini qoplash koeffitsienti chiqib ketgan va yangidan kelgan asosiy vositalarning nisbati orqali aniqlanadi.

Ma'lumki, alohida olingan asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida har xil ish bajaradi va ular xizmat qilish muddati bo'yicha bir-biridan katta farq qiladi. Shuning uchun yuqoridagi qayd qilingan ko'rsatkichlarni nafaqat asosiy vositalarning jami miqdori bo'yicha, balki ularning aktiv va passiv qismlari hamda alohida turlari bo'yicha ham aniqlash kerak. Asosiy

vositalarning yangilash, chiqib ketish, qo'shimcha o'sish va o'rinini qoplash ko'rsatkichlari bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'langan. Bu bog'liqlikni ko'rsatish uchun quyidagi 13.3-jadval havola qilinadi. Tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 3-sonli «Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot» shaklidan olinadi. Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxonada asosiy vositalarning harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar darajasini yuqori deb bo'lmaydi. Chunonchi, jami asosiy vositalarni yangilash faqat 6,3 foizni, jumladan yangi mehnat vositalarini keltirish 4,4 foizni tashkil qildi. Bu o'rinda asosiy vositalarning aktiv qismi bo'lmish mashina va asbob-uskunalarni yangilash jarayoni biroz ustun darajada ketayotganligini ta'kidlash joizdir. Asosiy vositalarni texnik jihatdan yangilash darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar chiqib ketgan asosiy vositalarning o'rnini qoplash va ularning qo'shimcha o'sish koeffitsientlari orqali aniqlanadi. Agar ushbu koeffitsientlar birdan yoki 100 foizdan oshsa, u holda asosiy vositalarni yagilash intensiv (jadval) tarzda olib borilyapti degan xulosa chiqarish mumkin va aksichna agar koeffitsientlar birdan (100 foizdan) kam bo'lsa, unda asosiy vositalarni yangilash jarayoni ekstensiv ravishda olib borilayotganini bildiradi.

Misolida chiqib ketgan asosiy vositalarining o'rnini qoplash koeffitsientining eng yuqori darajasi jami sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalariga mansub bo'lib, 59,8 foizni tashkil etdi. Holbuki mashina va asbob-uskunalari bo'yicha bu daraja 39,2 foizni tashkil qildi. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti bilan ishga yaroqlilik koeffisienti o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjud. Bu bog'lanishni yaqqol ko'rish uchun yana 13.3-jadval ma'lumotlariga murojaat etiladi. Ushbu jadvalda berilgan raqamlardan ko'rinishicha, asosiy vositalarning qariyb chorak qismi amortizatsiyalashtirilgan, ya'ni

13.3-jadval

Asosiy vositalarning eskirish va yaroqlilik darajasini aniqlash

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yil boshida	Yil oxirida	O'zga-rishi (+,–)
1.	Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	Mln so'm	3924,8	4077,5	+1527
2.	Asosiy vositalarning eskirish summasi	Mln so'm	931,7	800,8	+1691
3.	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati (1-qator – 2-qator)	Mln so'm	2993,1	2976,7	-164
4.	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti (2-qat.: 1 qat.x100)	Koef.	23,7	27,0	+3,3
5.	Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsienti 3-qator: 1-qator x100	Koef.	76,3	73,0	-3,3

asosiy vositalarning eskirgan qismining qiymati amortizatsiya ajratmasi sifatida tarkib topishi tushuniladi. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsienti yetarli darajada bo'ladi. Binobarin, bu o'z navbatida korxonaga mahsulot ishlab chiqarish rejasini muvaffaqiyatli bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Va nihoyat, asosiy vositalarning texnik darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri asbob-uskunalarning xizmat qilish yoshi (davri) hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash asbob-uskunalar va dastgohlarning ishlash qobiliyati, ularni almashtirish hamda pirovard natijada asosiy vositalarning samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Tahlil qilish uchun harakatdagi asbob-uskunalar ma'lum turlari bo'yicha turkumlanilib, so'ngra ularning haqiqatda xizmat qilgan davri normativ bo'yicha xizmat qilish muddat bilan taqqoslanadi. Odatda, asbob-uskunalar 10 yilgacha bo'lgan davrda almashtirilsa, texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladi deb hisoblaniladi.

Asbob-uskunalarning xizmat qilish davri quyidagicha tasvirlanadi: 5 yilgacha: 5 yildan 10 yilgacha; 10 yildan 20 yilgacha va 20 yildan yuqori. Tahlil qilishda asbob-uskunalarning o'rtacha xizmat qilish yoshi (davri) ham aniqlanadi. Uni aniqlash uchun 13.4-jadval havola qilinadi.

Ushbu jadvalda berilgan raqamlardan foydalanib, harakatdagi asbob-uskunalarning o'rtacha xizmat qilish davri aniqlanadi. Buni hisoblash uchun oddiy o'rtacha arifmetik usulni qo'llaymiz, ya'ni (0 + 5):2 = 2,5 yil; (5+10):2 =7,5 yil; (10 + 20):2 = 15 yil; 20 yildan yuqori 20 yil. Shundan so'ng asbob-uskunalarning o'rtacha xizmat qilish davri aniqlanadi, ya'ni: (2,5 x 0,285 + 7,5 x 0,222 + 15,0 x 0,258 + 20 x 0,286) = 8,8 yil. Shunday qilib, asbob-uskunalarning o'rtacha xizmat qilish davri ko'rsatkichi asbob-uskunalar parkining texnik darajasini hamda ularning ma'naviy eskirishini ifodalaydi.

13.4-jadval

Asbob-uskunalarning xizmat qilish davri bo'yicha taqsimlanishi (mln so'm)

Ko'rsatkichlar	Xizmat qilish davri				
	5 yilgacha	5 yildan 10 yilgacha	10 yildan 20 yilgacha	20 yildan yuqori	Jami
Jami asbob-uskunalar	3280	3100	3600	4000	13980
Jamiga nisbatan foiz hisobida	23,5	22,2	25,8	28,6	100

13. 3. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni tahlil qilish

Mahsulot ishlab chiqarish dasturining muvaffaqiyatli bajarilishi nafaqat asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi, texnik, holati, balki ulardan samarali foydalanishga ko'p jihatdan bog'liq. Asosiy vositalardan foydalanishning

umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib vositadan olinadigan samara hisoblanadi. U asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir so'mi yoki ming so'mi hisobiga bir yil ichida qancha mahsulot chiqarilganligini ko'rsatadi. Masalan, korxonaning yillik mahsuloti 100 million so'mni tashkil etsin, asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati esa 50 million so'm deylik. Bunday holda foydadan olinadigan samara 2 so'mga teng bo'ladi. Demak, *vosita samarasi ko'rsatkichini aniqlash uchun tovar mahsuloti yoki sof* mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi. Buni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$Fs = \frac{T.M}{A_f}.$$

Bunda: Fs – asosiy vositalardan olinadigan samara;

$T.M$ – tovar mahsuloti hajmi;

A_f – asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati.

Asosiy vositalar samaradorligi ko'rsatkichi jami asosiy ishlab chiqarish vositalarining qiymatiga va alohida ularning aktiv qismining qiymatiga nisbatan aniqlanadi. Asosiy vosita samarasi ko'rsatkichining aksi vosita sig'imi ko'rsatkichi bo'lib, u asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi. Asosiy vosita samarasi ko'rsatkichini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning I–II «Korxona (birlashma)ning mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida yillik hisoboti» 3-sonli «Asosiy vositalarning harakati haqidagi hisobot» shakllaridan olinadi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (13.5-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinishicha, hisobot davrida jami sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalaridan foydalanish yashilandi, ya'ni joriy yili vositadan olinadigan samara o'tgan yilga nisbatan 81 so'm 50 tiyinga oshdi. Bunga mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy vositalar tarkibida tutgan salmog'ining 0,018 bandga kamayishi natijasida vositadan olinadigan samara 90 so'mga kam bo'ldi, ya'ni (-0,018 x 5010,7) mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samaraning 410 so'm 20 tiyinga ortishi jami asosiy vositalardan olinadigan samarani 200 so'mga oshishiga olib keldi, ya'ni (410,2 x 0,485). Shunday qilib, bu ikki omilning yig'indisi ((-90) + (+200))=80 so'mni tashkil etdi. Bu summa taxminan jami asosiy vositalardan olingan samaradagi farq – 81 so'm 50 tiyinga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida tovar mahsuloti hajmi o'tgan yilga nisbatan 101540 ming so'mga oshdi. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatini o'zgarishi (ekstensiv omil).

2. Asosiy vositalardan olinadigan samaraning o'zgarishi (intensiv omil).

Birinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatida bo'lgan farqni ularning o'tgan yildagi samaradorlik darajasiga ko'paytiriladi. Misolimizda asosiy vositalarning

13.5-jadval

Asosiy vositalardan foydalanishning samaradorlik darajasini tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda o'tgan yilda	Haqiqatda joriy yilda	O'tgan yilga nisbatan farqi (+,–)
1.Tovar mahsulotlarining o'zgarmas korxona ulgurji bahosida, ming so'm.	898370	1000910	+101540
2.Sanoat ishlab chiqarish asosiy fond-larining o'rtacha yillikqiymati, ming so'm.	165970	379830	+23860
3.Jumladan mashina va asbob-uskunalar	179290	184640	+5850
4. Mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy vositalar tarkibida tutgan salmog'i (3 qator : 2 qator) 0,01 aniqlikda (koef.)	0,504	0,486	-0,018
5.Ming so'mliksanoat ishlab chiqarish asosiy vositalaridan olinadigan samara (1 qator : 2 qator), so'm	2523,7	2685,2	+81,5
6. Ming so'mli mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samara (q : 3q). so'm	5010,7	5420,9	+410,2
7.Ming so'mliksanoat ishlab chiqarish asosiy vositalaridan samaraning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar:			
a) mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy vositalar tarkibida tutgan salmog'ining o'zgarishi, so'm.	–	–	-90
b) ming so'mlikmashina va asbob-uskunalardan olinadigan samaraning o'zgarishi, so'm.	–	–	+200

qiymati o'tgan yilga nisbatan 23860 ming so'mga oshgan, ularning o'tgan yildagi samaradorlik darajasi esa 2523,7 so'mni tashkil etdi. Demak, tovar mahsuloti hajmini ko'paytirishning 60210 ming so'mi (+23860 x 2523,7) yoki 59,3 foizi (60215 x 100)/101540 ekstensiv omil evaziga hosil bo'ldi.

Ikkinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun asosiy vositadan olingan samaradagi mutlaq farqni joriy yildagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytiriladi. Misolda asosiy vositadan olingan samara o'tgan yilga nisbatan 81 so'm 50 tiyinga oshdi. Demak, mahsulot hajmini ko'paytirishning 42851 ming so'mi (81,5 x 379830) yoki 41,7 foizi (42161 x 100) /101540 intensiv omil hisobiga hosil qilingan. Shunday

qilib, ikki omil ta'sirining o'zgarishi taxminan, tovar mahsuloti ishlab chiqarishdagi umumiy farqni beradi, ya'ni (60215 + 42161)=+102566 ming so'm. Raqamlarni yaxlitlash hisobiga 1026 ming so'mga farq hosil bo'ldi (102566 − 101540) = 1026 ming so'm.

13.4. Ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan foydalanishni tahlil qilish

Vositadan olinadigan samara asbob-uskunalarning ish bilan band qilishga ko'p jihatdan bog'liq. Ish bilan yuqori darajada ekstensiv band qilish smena, ish kuni, hafta, oy va hokazo mobaynida asbob-uskunalardan vaqt jihatdan imkoni boricha maksimal foydalanishni taqozo qiladi.

Asbob-uskunalardan ekstensiv (vaqt) bo'yicha foydalanish darajasini ularning smenalik (almashish) koeffitsienti orqali aniqlanadi. U har bir uskuna, dastgoh, kun, oy, chorak (yil choragi) va yil davomida o'rta hisobda qancha smena ishlanganligini ko'ratadi. Smenalilik koeffitsienti barcha smenalarda ishlagan dastgoh-smena (mashina-smenalar) sonini o'rnatilgan uskunalar soniga taqsimlash orqali aniqlanadi. Masalan, sexda 92 ta dastgoh o'rnatilgan, ulardan mazkur davrda, bir smenada (faqat birinchi smenada) − 40 ta, ikkiinchi smenada (birinchi va ikkinchisi smenada) − 30 ta, barcha uch smenaja 22 ta dastgoh, ishlagan. Hammasi bo'lib barcha uch smenada 144 mashina (40 x 1 + 30 x 2 + 22 x 3 = 144) ishlagan. Demak, mazkur davrda uskunalarning smenalilik koeffitsienti 1,56 (144:92) ni tashkil etdi.

Har bir korxona uchun normativ smenalik koeffitsienti aniq belgilanib, u uskunalarni to'la, maksimal darajada ish bilan band qilishni qo'zda tutadi. Tahlil qilish jarayonida amaldagi smenalilik koeffitsienti normativ doirasidagi smenalilik koeffitsienti bilan taqqoslanib, uskunalarni ish bilan band qilishni oshirishdagi rezervlar aniqlanadi. Amalda ko'pgina korxonalarda smenalilik koeffitsienti normativda ancha pastdir, ayniqsa, mashinasozlikda 1,4 ni tashkil etadi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotni jadallashtirish sharoitida mehnat jamoalari oldiga uskunalarni ish bilan maksimal band qilish, ular ishining smenaliligini keskin oshirish vazifasi qo'yilgan. Smenalik koeffitsientni oshirishga ish joylarini attestatsiyalash, ortiqcha uskunalarni sotish, ko'p dastgohda ishlashni rivojlantirish, ishchilarga biriktirilgan xizmat ko'rsatish doiralarini kengaytirish, uchinchi smenada ishlovchilar uchun moddiy rag'batlantirishni va imtiyozlarni qo'llash yordam beradi.

Asbob-uskunalardan imtiyozli foydalanish koeffitsienti vaqt birligida amalda erishilgan uskuna unumdorligining ushbu uskuna hili uchun belgilangan unumdorlikning texnik normasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Asbob-uskunalardan foydalanishning integral koeffitsienti ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsientlarining ko'paytmasidan iborat, ya'ni uskunalardan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish. Dastgohlarning yillik unumdorlik darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi.

1. Dastgohlar yoki dastgoh-soatlar miqdorining o'zgarishi.

2. Bir datgoh yoki bir dastgoh-soatga to'g'ri keluvchi unumdorlik darajasi.

Ushbu omillarning ta'siri mutlaq farq usuli orqali amalga oshiriladi, ya'ni miqdor o'zgarishda bo'lgan farqni sifat ko'rsatikichining reja darajasiga ko'paytiriladi, sifat o'zgarishda bo'lgan farqni esa miqdor ko'rsatkichining amaldagi darajasiga ko'paytiriladi. Ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun 13.6-jadval havola qilinadi.

13.6-jadval

Dastgohlardan samarali foydalanishning ish vaqti va quvvati bo'yicha tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Mutlaq farqi (+,−)
1.Tovar mahsuloti (mln so'm hisobida)	1930	2085	+15,5
2.Ishlangan dastgoh-soatlari (ming)	223,7	200,3	-23,4
3.Bir dastgoh-soatga to'g'ri keluvchi unumdorlik (so'm, tiyin hisobida) (1 qator : 2 qator)	8,63	10,41	+1,78

Jadvalda ko'rinishicha, hisobot davrida tovar mahsulotini ishlab chiqarish hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 155 ming so'mga oshdi. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi.

1) Ishlangan dastgoh-soatlar sonining o'zgarishi (miqdor ko'rsatkich):

$$-23,4 \times 8,63 = -201,9 \text{ mln so'm.}$$

2) Bir dastgoh-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (sifat ko'rsatkich): $+1,78 \times 200,3 = +166,5$ mln so'm. Demak, ikki omil ta'sirining o'zgarishi taxminan tovar mahsuloti ishlab chiqarishdagi umumiy farqqa teng, ya'ni $((-201,9) + (+166,5)) = +154,6$ mln so'm. Shunday qilib, dastgohlarning bekor turib qolishlarini bartaraf qilish natijasida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish rezervi 201,9 mln so'm ekan.

14-bob. XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDA BANKROTLIKNI VA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASH BILAN BOG'LIQ KO'RSATKICHLAR VA ULARNI ANIQLASH YO'LLARI

14.1. Korxonalarda bankrotligini baholash bo'yicha turli qarashlarning nazariy tahlili

Korxonalarning iqtisodiy nochorligini baholash masalasi bo'yicha dunyo va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'rtasida ancha paytlardan buyon munozara ketmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida» qonuni e'lon qilindi. Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasining yo'riqnomalari, amaliy tavsiya kabi bir qancha me'yoriy hujjatlari ishlab chiqildi. Chunki bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektni bankrotlikdan saqlab qolish katta iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega.

Birinchidan, agar korxona bankrot bo'lsa, mulkdor mulkidan ajraydi.

Ikkinchidan, u yerda ishlaydigan bir qancha xodimlar ishsizlik armiyasiga qo'shiladi.

Uchinchidan, ishsiz qolgan xodimlar oilasida ijtimoiy beqarorlik vujudga keladi, ularning farovonligi pasayadi.

To'rtinchidan, mamlakatimiz bozorlarida taxchillikning vujudga kelishi mumkin va mos ravishda aholining iste'moli ham to'liq qondirilmasligiga ham olib keladi.

Beshinchidan, ushbu korxona to'lab turgan soliq budjetga tushmasligi oqibatida davlat ham zarar ko'rishi mumkin.

Umuman olganda ushbu masala o'ta dolzarb bo'lganligi, uning ahamiyati nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham kattaligini inobatga oliy dunyo iqtisodchi olimlari bilan birga mamlakatimizning olimlari, mutaxassislar, tegishli vazirlik va idoralar ham shug'ullanmoqdalar. Mazkur masala jahonda kechayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanilayotgan paytida yanada o'tkirlashdi. Chunki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, uning salohiyati va o'sish sur'ati har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqarorligiga, ularning rivojlanish darajasiga bog'liq. Shu jihatdan olib qaraladigan bo'lsa, mazkur masalaning bugungi kunda nechog'liq dolzarb ekanligin ko'ramiz. Hozirgi paytda bankrotlikni baholashning bir qancha usullari mavjud (14.1-rasm).

E.Altman bankrotlikni oldindan bashorat qilish uchun «Z-schyot»ni qo'llab uni kompleks ko'rsatkichni aniqlash orqali baholash yo'lini ko'rsatib bergan. Bu borada yuqorida to'xtab o'tilgan[1]. E.Altman hisob-kitobi bo'yicha

[1] *M.Q. Pardayev, J.I. Isroilov.* Xususiy korxonalar faoliyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari. – T.: «Fan va texnologiya» 2007. 142–154-betlar.



14.1-rasm. **Korxonaning bankrotlik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.**

«Z-schyot»ning miqdori 1,8 va undan kam bo'lsa (Z-schyot <1,8) korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli juda yuqori. «Z-schyot»ning miqdori 1,81 dan 2,7 gacha oraliqda bo'lsa – yuqori, 2,8 dan 2,9 gacha – mumkin va 3,0 va undan yuqori bo'lsa juda kam[1].

«Korxonaning iqtisodiy nochorligi belgilarini aniqlovchi mezonlar tizimi» (O'zR Iqtisodiyot va statistika vazirligining 1997-yil 27-iyul 12-son qarori bilan tasdiqlangan). Ushbu mezonlar tizimi bir necha bor qayta ishlanib takomillashtirildi. Bu borada ham yuqoridagi ishlarimizda fikr yuritilgan. Shu tufayli mazkur ishda boshqa olimlar qarashlariga to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Dunyo miqiyosida Uilyam Biver yetakchi olimlardan biri bo'lib hisoblanadi. Mazkur olim bankrotlikni baholashda 5 ta ko'rsatkichdan foydalanadi (14.1-jadval).

Bu borada jahon amaliyotida Dj.G.Fulmer va G.Springeytlar modelidan ham foydalaniladi. Mazkur olimlarning fikri bo'yicha u kompleks ko'rsatkichdan iborat bo'lib, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Korxona bankrotligini aniqlashda Dj.G. Fulmer va G.Springeytlar modeli

$$*\frac{\text{O'tgan yillarda taqsimlanmagan foyda}}{\text{Mulk qiymati}} + 0,212$$

$$*\frac{\text{Sotishdan tushum}}{\text{Mulk qiymati}} + 0,073$$

---

[1] O'sha joyda. Бернстайн Л.А. Анализ финансовой очетности: теория, практика и интерпретация: Пер с англ. – М.: Финансы и статистика, 1996. - 7, 480-betlar.

14.1-jadval

Korxona bankrotligini baholashda Uilyam Biver qo'llagan ko'rsatkichlar tizimi

T \r	Ko'rsatkichlarning nomi	Aniqlanish yo'llari	Ko'rsatkichlar mohiyati
1.	U.Biver koeffitsienti (Kb)	$K_b = \frac{S_f + A_{mar}}{U_{mm} + Q_{mm}}$ S_f – sof foyda; A_{mar} – amortizatsiya summasi; U_{mm} – uzoq muddatli majburiyatlar; Q_{mm} – qisqa muddatli majburiyatlar.	0,4–0,45 0,17–0,15
2.	Rentabelnost aktivov (Pa)	$P_a = \frac{S_f + 100}{A}$; A – aktivlarning o'rtacha yillik qiymati	6–8 4 -22
3.	Moliyaviy leveridj (M_l)	$M_l = \frac{U_{mm} + Q_{mm}}{A}$;	≤37 ≤50 ≤80
4.	Aktivlarning oborot kapitali bilan qoplanish koeffitsiyenti (K_{aoq})	$K_{aok} = \frac{O'_{zm} + A_{ot}}{A}$; O'_{zm} – o'z mablag'lari; A_{ot} – oborotdan tashqari aktivlar.	0,4 ≤ 0,3 ≈ 0,06
5.	Qoplash koeffitsienti (K_q)	$K_q = \frac{O_{ak}}{U_{mm}}$; O_{ak} – oborot aktivlari.	≤3,2 ≤2 ≤1
1	1 – yaxshi kompaniya; 2–5 yil bankrotlikkacha; 3–1 yil bankrotlikkacha.		1 2 3

$$*\frac{\text{Soliq va foiz to'langunga qadargi foyda}}{\text{O'z mablag'lari manbalari}} + 1,27$$

$$*\frac{\text{Tahlil davridagi pul oqimlari miqdori}}{\text{Chetdan jalb qilingan mablag'lar}} - 0,12$$

$$* \frac{\text{Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar}}{\text{Mulk qiymati}} \; 1\,2,335$$

$$* \frac{\text{Joriy passivlar}}{\text{Mulk qiymati}} + 0,575$$

$$\lg \text{Moddiy aktivlar} - 6,075 + 1,083 *$$

$$* \frac{\text{Aylanma kapital}}{\text{Chetdan jalb qilingan mablag'lar}}$$

$$+0,8941 \lg \left\{ \frac{\text{Soliq va foiz to'langunga qadargi foyda}}{\text{To'lashga mo'ljallangan foyiz stavkasi}} \right\}$$

Bunday holda N noldan kichik bo'lsa ($N < 0$), bankrotlik muqarrar. Bankrotlik ehtimoli kuchlik bo'lishi uchun noldan qancha kattalashib borsa, shuncha yaxshi bo'lar ekan.

Korxonaning bankrotligini aniqlash uchun R.S. Sayfulin va G.G. Kadikovalarning tavsiya qilgan usuli ham diqqatga sazovar. Ularning fikricha bankrotlik bitta model bilan aniqlanadi. Bu quyidagicha ifodalangan.

$$K_b = 2 \cdot Q_{o'ms} + 0,1 \cdot K_{jl} + + 0,08 - K_{intok} + 0,45 \cdot K_{men} + K_{rsk}.$$

Bunda:

$Q_{o'ms}$ – o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti;

K_{jl} – joriy likvidlik koeffitsienti;

K_{intok} – avanslangan aylanma kapitalning intensivligi (korxona oborotida ishtirok etayotgan bir so'm aylanma mablag'larga to'g'ri keladigan sotilgan mahsulot hajmi);

K_{men} – menejment koeffitsienti (sotishdan olingan foydani sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) hajmiga nisbati);

K_{rsk} – o'z mablag'lari rentabelligi (sof foydaning o'z mablag'lariga nisbati).

Xulosa. Agar K_b kichik 1 bo'lsa ($K_b < 1$) mazkur korxonaning ahvoli nochor, qoniqarsiz darajada bo'ladi.

Jahon amaliyotida bankrotlik masalasiga katta ahamiyat berilishiga sabab, bozor munosabatlari sharoitida bir yil yaxshigina faoliyat ko'rsatib turgan korxona ikkinchi yilda nochor ahvolga tushib qolishi ham mumkinligini hayot ko'rsatmoqda. Shu tufayli ushbu masalaga barcha hamdo'stlik mamlakatlarida, ayniqsa Rossiya Federatsiyasida ham katta ahamiyat berilmoqda. Bir qancha Rossiyalik olimlar bu borada tadqiq qilmoqdalar. Jumladan, M.S. Abryutina va A.V. Grachevalarning bankrotlikka baho berish usuli ham diqqatga sazovor. Bankrotlikni baholashda mazkur olimlar, eng avvalo, balansni quyidagicha guruhlashni tavsiya qiladilar (14.2-jadval).

14.2-jadval

M.S. Abryutina va A.V. Grachevalarning bankrotlikka baho berish usuli

Aktiv	Balans qatorlari	Passiv	Balans qatorlari
Nomoliyaviy aktivlar	130 − 030 + 140	O'z mablag'lari	480 + 640 + 650 − 450
Moliyaviy aktivlar	030 + 390 − 140	Chetdan jalbqilingan mablag'lar	450 + 490 + 600 − 640 − 650

Buxgalteriya balansining tegishli qatorlari va ularning nomlari:
030 − uzoq muddatli investitsiyalar, jami;
130 − uzoq muddatli aktivlar, jami;
140 − tovar-moddiy zaxiralar, jami;
390 − joriy aktivlar, jami;
450 − taqsimlanmagan foyda;
480 − o'z mablag'lari manbalari, jami;
490 − uzoq muddatli majburiyatlar, jami;
600 − joriy majburiyatlar, jami;
640 − kechiktirilgan daromadlar;
650 − soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar.

Balans moddalarini guruhlashni amalga oshirib, mualliflar bankrotlik ehtimoliga baho berish uchun muvozanatlik koeffitsientini (K_{mu}) aniqlash bo'yicha quyidagi formulani tavsiya qiladilar:

$$K_{mu} = \frac{\text{O'z mablag'lari } (480 + 640 + 650 - 450)}{\text{Nomoliyaviy aktivlar } (130 - 030 + 140)}.$$

Bankrotlik ehtimoliga baho berish bo'yicha L.V. Donsova va N.A. Nikiforovalarning tavsiya qilgan usullari ham iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda.

Ushbu olimlar ham bankrotlikni ifodalashda 6 ta koeffitsientdan foydalanadilar (14.3-jadval).

1-sinf. (97−100 ball) − mutlaq moliyaviy barqaror tashkilot.
2-sinf. (67−96 ball) − normal moliyaviy barqaror tashkilot.
3-sinf. (37−66 ball) − o'rtacha moliyaviy barqaror tashkilot.
4-sinf. (10−34 ball) − moliyaviy beqaror tashkilot.
5-sinf. (0−9 ball) − inqirozli holatdagi tashkilot.

Ko'rinib turibdiki, bankrotlikni baholashda bir qancha usullar va yondoshuvlar mavjud. Mazkur ishda ularning afzalliklari va kamchiliklariga batafsil to'xtanilmadi. Bu borada har bir o'quvchi tegishli xulosa chiqarishi uchun turli yondoshuvlar keltirildi xolos.

14.3-jadval

Bankrotlik ehtimoliga baho berish bo'yicha L.V. Donsova va N.A. Nikiforovalarning tavsiya qilgan usullari

Ko'rsatkichlar	Reyting	Mezonlar		Kamayish sharoiti
		Yuqori	Quyi	
Mutloq likvidlik koeffitsiyenti	20 ball	0,5 va yuqori 20 ball	0,1 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 4 baldan kamaytiriladi
Umumiy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti	18 ball	1,5 va yuqori 18 ball	1 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 3,5 baldan kamaytiriladi
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	16,5 ball	2 va yuqori 16,5 ball	1 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 1,5 baldan kamaytiriladi
Avtonomlik koeffitsiyenti	17 ball	0,5 va yuqori 17 ball	0,4 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 1,5 baldan kamaytiriladi
O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti	15 ball	0,5 va yuqori 15 ball	0,1 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 3 baldan kamaytiriladi
Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	13,5 ball	0,9 va yuqori 13,5 ball	0,5 va kam 0 ball	Har bir 0,1 uchun 3 baldan kamaytiriladi

14.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda bankrotligini ifodalovchi ko'rsatkichlari va ularni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga bozor munosabatlarining kirib kelishi bir qancha yangi termin, atama va tushunchalarni kiritdi. Bulardan biri ***korxonalarning bankrotligi*** masalasidir.

Korxonalarning bankrotligi, ko'p hollarda, ilmiy va amaliy adabiyotlarda «korxonalarning iqtisodiy nochorligi», deb yuritilmoqda. Mazkur masala bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'rtasida ancha paytlardan buyon munozara ketmoqda. Bu munozara bankrotlikni o'lchash, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni baholash yo'llari ustida bormoqda. Bunday sharoitda O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida» qonunining[1] e'lon qilinishi ko'p masalalarga oydinlik kiritdi. Bunga asosan, iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasining yo'riqnomalari,

[1] O'zbekiston Respublikasining qonuni. «Bankrotlik to'g'risida». 1994-yil 5-may. Mazkur qonunga 1998-yil 28-avgustda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. 2003-yil 24-aprelda uning yangi tahriri tasdiqlandi.

amaliy tavsiya kabi bir qancha me'yoriy hujjatlari ishlab chiqildi. Umuman olganda ushbu masala o'ta dolzarb bo'lganligi, uning ahamiyati nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham kattaligini inobatga olib mamlakatimizning iqtisodchi olimlari bilan birga tegishli vazirlik va idoralar mutaxassislari va rahbar xodimlari ham shug'ullanmoqdalar. Mazkur masala hozirgi jahonda kechayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz paytida yanada o'tkirlashdi. Chunki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, uning salohiyati va o'sish sur'ati har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqarorligiga, ularning rivojlanish darajasiga bog'liq. Shu jihatdan olib qaraladigan bo'linsa, mazkur masalaning bugungi kunda nechog'liq dolzarb ekanligini ko'ramiz.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatmoqdaki, bankrotlik masalasi xorijiy mamlakatlarda nazariy va amaliy jihatdan keng qo'llanilib, o'rganilib kelinmoqda. Xususan, Rossiya Fedaratsiyasining «Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) to'g'risida» qonuni[1] qabul qilingan. Ushbu masala oliy o'quv yurtlarida ham o'qitilmoqda . Mamlakatimizda ham ushbu masalaga yetarlicha e'tibor berilib kelinmoqda[2]. O'zbekistonda 2003-yil 24-aprelda «Bankrotlik to'g'risida» qonunning yangi tahrirdagi takomillashgan varianti[3] qabul qilindi. Shuningdek, olimlardan I.T. Abdukarimov[4], N.Hasanov, S.Najbiddinov[5], M.Q. Pardayev[6], V.G. Kogdenko[7], N.P. Lyubushin[8], E.I. Krilov, V.M.Vlasova, I.V. Ivanova[9] kabilar ham o'z asarlarida korxonalarning iqtisodiy nochorligi, bankrotlik holatlari kabi masalalarga tegishli fikr va mulohazalarini keltirganlar. Xususan, N.Hasanov va S.Najbiddinovlar korxonalarning iqtisodiy nochorligini baholash uchun quyidagi to'rtta ko'rsatkichlarni tavsiya qiladi:

---

[1] Федеральный закон «О несостоятельности (банкротстве)» (по состоянию на 1 апреля 2008 года). – Новосибирск: Сиб. Унив. Изд-во, 2008. – 141 с.

[2] *Чиркова М.Б.* Учет и анализ банкротств: учебное пособие. / М.Б. Чиркова, В.Б. Малишкая, Е.М. Коновалова. – М.: Эксмо, 2008. – 240 с.

[3] O'zbekiston Respublikasining qonuni. Bankrotlik to'g'risida (yangi tahriri). 2003 yil 24 aprel. Ushbu qonunning ayrim moddalari (18 modda 1-qismining qoidalari) 2004 yil 1 yanvardan, ayrimlar esa (18 modda 4-qismining qondalari) 2005 yil 1 yyvardan joriy etilishi belgilangan.

[4] I.T. Abdukarimov. Menejerga korxona moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy baquvvatli haqida. //Bozor, pul va kredit. №6, 1999.

[5] N. Hasanov, S. Najmiddinov. Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolari va ularni hal qilish. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999.

[6] M.Q. Pardayev. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. T.: Bank-moliya akademiyasi, 20029

[7] *Когденко В.Г.* Экономический анализ. Учеб. Пособие. – М: ЮНИТИ-ДАНА, 2009.

[8] *Любушин Н.П.* Анализ финансового состояния организации: учебное пособие. – М.: Эксмо, 2007.

[9] *Крылов Э.И,. Власова В.М., Журавкова И.В.* Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003.

* o to'lovga qobillik koeffitsienti;
* o'zining va qarz mablag'lari nisbati koeffitsienti;
* moliyaviy mustahkamlik koeffitsienti;
* o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti»[1].

O'zR Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi huzuridagi (o'sha paytlarda shunday deb atalar edi) Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasining tavsiyasi bo'yicha korxonalar iqtisodiy ahvolini baholash uchun qo'llaniladigan ko'rsatkichlar (mezonlar) uch guruhga bo'linadi:

«1) moliyaviy-iqtisodiy ahvolni baholash maqsadida iqtisodiy tahlil qilinishi lozim korxonalarni tanlash uchun:

* pullik majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'yicha ularni to'lash pulidan olti oydan ortiq muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning mavjudligi;
* korxonalar rentabelligi (zararliligi)ning manfiy darajasi.

2) Korxonaning iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlovchi asosiy (mezonli) ko'rsatkichlar:

* to'lovga qobillik yoki qoplash koeffitsienti – K_{qk};
* o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti – O'_{ak};

3) qo'shimcha ko'rsatkichlar (yakuniy qaror qabul qilish uchun):

- aktivlarning rentabellik koeffitsienti – A_{rk};
- o'z va qarz mablag'larining nisbat koeffitsienti – O'_{nk};
- quvvatdan foydalanish koeffitsienti – Q_{fk};
- asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti – A_{vek}[2].

Ko'rinib turibdi, ushbu muammoga olimlar asarlarida ham, uslubiy tavsiyalarda ham turlicha yondoshilgan. Demak, ushbu muammo yechimini kutayotgan muammolardan biridir. Ammo bankrotlik holatini baholash va tahlil qilish masalasi Xo'jalik yurituvchi subyektlarda hamon o'z yechimini topgan emas. To'g'ri, ushbu masala ishlab chiqaruvchi korxonalarda qanday hal qilinsa, qurilish korxonalarida ham asosan shunday hal qilinadi. Ammo uning ayrim o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunining 2-moddasida «bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan yoki qarzdor ixtiyoriy ravishda tugatilayotganida uning o'zi e'lon qilgan qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga qodir emasligi, shu jumladan budjetga va budjetdan tashqari fondlarga soliqlar[3], yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi» deb ko'rsatilgan. Bu ta'rif iqtisodiyotning barcha

---

[1] *N. Hasanov, S. Najmiddinov.* Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolari va ularni hal qilish. – T.: «Iqtisodiy va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999.

[2] Korxonaning iqtisodiy nochorligi belgilarini aniqlovchi mezonlar tizimi, O'zR Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi. 1999-yil 27-iyul 12-son. SBX №38, 1999.

[3] O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qonuni (yangi tahrirda), 1998-yil 28-avgust.

tarmoqlari singari Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurtuvchi subyektlar faoliyatiga ham tavsiya qilinishi mumkin. Chunki, ushbu qonun mulk va sohasidan qat'i nazar, hamma xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ishlab chiqilgan. Qurilish bilan shug'ullunuvchi subyektlarda ham bu holat o'z-o'zidan kelib chiqmaydi, albatta. Unga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Bu borada ham ayrim iqtisodchilarning takliflari e'tiborga loyiq.

Bankrotlik holatlarini vujudga keltiruvchi omilar juda ko'p. Ularni o'rganishda masalaga tizimli yondoshishni talab qiladi. Buning uchun esa barcha omillarni ma'lum belgilari bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.

Bu borada shu soha mutaxassislaridan biri U.Sirojitdinovning[1] fikrlari diqqatga sazovardir. U kishi bankrotlikka ta'sir qiluvchi omillarni ikki guruhga: tashqi va ichki omillarga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi. Asosiy tashqi omillarga: iqtisodiy; siyosiy; demografik; fan va texnikaning rivojlanishi; madaniy saviya; xalqaro raqobatning kuchayishi; hamkorlik-qarzdorlarning bankrotligi kabi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan omillar kiritilgan.

Asosiy ichki omillarga esa: o'z aylanma mablag'lari taxchilligi; debitor va kreditor qarzlarning ko'payishi; sotilayotgan mahsulotning – haqiqiy bahosini aniqlash mexanizmining mukammal emasligi; shartnoma intizomining buzilganligi; haqiqiy xizmatlarning layoqat-sizligi; ijtimoiy-madaniy obyektlar bo'yicha xarajatlarning oshishi; uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarning samarasizligi; korxona aktivlarida tugallanmagan qurilishlarning salmoqli o'rin tutishi, xodimlarning mas'uliyatsizligi kabi omillar kiritilgan.

Ko'rinib turibdiki, korxonalarning, xususan qurilish bilan shug'ullanuvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligi o'ta murakkab jarayonlar va omillar evaziga shakllanadi. Shuning uchun ham ularni baholash va tahlil qilish masalasi o'ta mushkul va qiyin muammolardan biridir. Shu tufayli bo'lsa kerak, korxonaning iqtisodiy nochorligini baholash uchun, bir tomondan nazariy masalalar kam yoritilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ta'kidlanganidek, hamon bir xil xulosaga kelingan emas.

Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy nochorligini baholashda eng muhim muammolardan biri, nazarimizda, uni ifodalovchi *ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir.* Bu borada ham iqtisodchilar tomonidan ayrim fikrlar aytilmoqda. Xususan, N.Hasanov va S.Najbiddinovlar korxonaning iqtisodiy nochorligini baholash uchun o'zlarining oldingi qarashlarini takomillashtirib quyidagi beshta ko'rsatkichlarni tavsiya qiladi. Buni bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga ham qo'llash mumkin:

* to'lovga qobillik yoki qoplash koeffitsienti – K_{tq};
* o'zining va qarz mablag'lari nisbati koeffitsienti – K_{mn};
* o'zining oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti – K_{mt};
* aktivlar rentabelligi koeffitsienti – K_{ar};
* quvvatlardan foydalanish koeffitsienti – K_{qf};

[1] U. Sirojitdinov. Bankrotlik sababi //Zarafshon. № 98. 1998-yil 25-avgust.

* asosiy vositalar eskirish koeffitsienti — K_{es}[1].

Ushbu ko'rkichlar tizimi «Korxonaning iqtisodiy nochorligi belgilarini aniqlovchi mezonlar tizimi»da[2] belgilangan ko'rsatkichlar bilan to'g'ri keladi. Ammo, bu yerda ular ma'lum tizimlarga ajratilmagan holda berilgan.

Shuni e'tirof etish kerakki, bankrotlikni aniqlash uchun Nyu-York universtiti professori Eduard Altman, beshta ko'rsatkich tavsiya qilgan. Bu borada biz chop etgan adabiyotlarimizda[3] to'xtalgan edik.

Bularga: oborot kapitalining barcha aktivlardagi hissasi; barcha aktivlar rentabelligi; barcha aktivlar daromadliligi; aksiyalarning (oddiy va imtiyozli) barcha passivlardagi ulushi; barcha aktivlarning samaradorligi ko'rsatkichlari kiritilgan. Mazkur olimning tavsiyasidagi muhim jihat har bir ko'rsatkichning salmoqlilik koeffitsientini aniqlagan va uni qo'llagan holda ushbu ko'rsatkichga baho berish lozimligini qayd qilgan.

E.Altman bankrotlikni oldindan bashorat qilish uchun «Z-schyot»ni qo'llab quyidagi kompleks ko'rsatkichni aniqlash usulini tavsiya qiladi:

$$\text{Z-schyot} = \left(\frac{\text{oborot kapitali}}{\text{barcha aktivlar}} \times 1{,}2\right) + \left(\frac{\text{taqsimlanmagan foyda}}{\text{barcha aktivlar}} \times 1{,}4\right) +$$

$$+ \left(\frac{\text{asosiy faoliyat daromadlari}}{\text{barcha aktivlar}} + 3{,}3\right) + \left(\frac{\text{oddiy va imtiyozli aksiyalarning bozor bahosi}}{\text{o'z mablag'larining balans qiymati}} \times\right.$$

$$\left. \times 0{,}6\right) + \left(\frac{\text{sotilgan mahsulot tushumi}}{\text{barcha aktivlar}} \times 1{,}0\right).$$

Agar «Z-schyot»ning miqdori 1,8 va undan kam bo'lsa (Z-schyot <1,8) korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli juda yuqori. «Z-schyot»ning miqdori 1,81 dan 2,7 gacha oraliqda bo'lsa — yuqori, 2,8 dan 2,9 gacha — mumkin va 3,0 va undan yuqori bo'lsa juda kam[1]. Ushbu usulni qurilish korxonalariga qo'llagan holda quydagi formulani keltirib chiqarish mumkin, ya'ni:

$$Z\text{-}chyot\frac{Ok}{A} \cdot 1{,}2) + \frac{Tf}{A} - 1{,}4) + \frac{Afd}{A} \cdot 3{,}3) + \frac{Uk}{O'm} \cdot 0{,}6) + (\frac{Sm}{A} \cdot 1{,}0);$$

Bunda: O_k — aylanma mablag'lar (oborot kapitali);

A — barcha aktivlar;

---

[1] N. Hasanov, S. Najmiddinov. Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolari va ularni hal qilish. — T.: «Iqtisodiy va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999.

[2] Korxonaning iqtisodiy nochorligi belgilarini aniqlovchi mezonlar tizimi, O'zR Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi. 1999-yil 27-iyul 12-son. SBX № 38, 1999.

[3] O'sha joyda. Берстайн Л.А. Анализ финансовой отчесности: теория, практика и интерепретация: Пер с анг. — М.: Финансы и статистика, 1996.

T_t – taqsimlanmagan foyda;
A_{fd} – asosiy faoliyat daromadi;
U_k – ustav kapitali;
O'_m – o'z mablag'lari;
S_m – sotilgan mahsulot (qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmi).

Mazkur ko'rsatkichlarning hammasi korxonalarimiz tuzadigan moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topgan. Shuning uchun ushbu usulni qo'llash ham, ma'lum darajada, korxona rahbari, mulk egasi kabi daxldor kishilarga qulaylik tug'dirishi mumkin.

Zero, ushbu usul xalqaro adabiyotlarda tan olingan va qo'llanilib kelinmoqda. O'zbekistonda ham buning qo'llanilishi mumkinligiga yana bir sabab shundaki, biz ham xalqaro andozalarga asoslangan buxgalteriya hisobining milliy standartlariga asosan faoliyat ko'rsatmoqdamiz. Bu esa barcha sohalar kabi mazkur usulni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ham qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun 14.4-jadvalni tavsiya qilanadi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xo'jalik yurituvchi «Turon» ko'ptarmoqli xususiy korxonasida bankrotlikni bashorat qilishda «Z-schyot»ni hisoblash uchun zarur bo'lgan barcha ko'rsatkichlarning miqdori 2000–2011-yillarda oshgan. Yuqorida keltirilgan formula asosida barcha yillar bo'yicha ushbu ko'rsatkichni qiyoslash uchun uning miqdori aniqlab olinadi. Bu 2000-yil bo'yicha quyidagicha hisoblandi:

«Z-schyot» 2000 yil uchun = (638152,2 : 732738,0 · 1,2) + (63588,8 : 732738,0 · 1,4) + (243509,4 : 732738,0 · 3,3) + (62000,0 : 575932,1 · 0,6) + (327738,1 : 732738,0 · 1,0) = 1,0451 + 0,1215 + 1,0967 + 0,0641 + 0,4473 = 2,7847. Xuddi shunday usul bo'yicha barcha yillar hisoblab olindi va nihoyat, 2009-yilgi holatni ham keltiramiz:

«Z-schyot» 2011-yil uchun = (1616766,6 : 2654789,2 · 1,2) + +(232457,2 : 2654789,2 · 1,4) + (3689233,7 : 2654789,2 · 3,3) + +(62000,0 : 1322085,0 · 0,6) + (4526654,8 : 2654789,2 · 1,2) = 0,7308 + 1,1232 + 4,5870 + 0,0282 + 1,7050 = 8,1784.

Ushbu hisob-kitob natijasida bankrotlikni bashorat qilish uchun «Z-schyot»ni tashkil qiluvchi barcha ko'rsatkichlarning miqdori aniqlanadi va ular jamlanib «Z-schyot»ni tashkil qiladi. Buning uchun matematik modelning additiv tipidan foydalaniladi va quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\text{«Z-schyot»}_{kt} = \sum_{i=1}^{n} \beta_i$$

Uning 2000–2011-yillardagi dinamikasini 14.5-jadvalda ifodalashni tavsiya qilamiz. Ushbu jadval ma'lumotlari Xo'jalik yurituvchi «Turon» ko'ptarmoqli xususiy korxonasida bankrotlikni bashorat qilish uchun 2000–2011-yillar dinamikasida tegishli xulosa chiqarish imkonini beradi. Agar «Z-schyot»ning miqdori 1,8 va undan kam bo'lsa (Z-schyot <1,8) korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli juda yuqori bo'lgan bo'lur edi. Biz

14.5-jadval

Xo'jalik yurituvchi «Turon» ko'ptarmoqli xususiy korxonasida bankrotlikni bashorat qilishda «Z-schyot»ni tashkil qiluvchi ko'rsatkichlarning 2000–2011-yillardagi dinamikasi [1]

Yillar	Oborot aktivlarining barcha aktivlardagi hissasi, koeff. (β_1)	Taqsimlanmagan foydaning barcha aktivlardagi darajasi, koeff. (β_2)	Asosiy faoliyat daromadlarining barcha aktivlardagi darajasi, koeff. (β_3)	Ustav fondining o'z mablaridagi hissasi, koeff. (β_4)	Barcha aktivlar samaradorligi, koeff. (β_5)	Bankrotlikni bashorat qilish uchun «Z-schyot»ning miqdori, koeff. ($\Sigma\beta_i$)
2000	1,0451	0,1215	1,0967	0,0641	0,4473	2,7847
2003	1,0472	0,1193	1,0827	0,0655	0,4387	2,7536
2004	1,0463	0,1233	1,2486	0,0628	0,4777	2,9587
2005	0,9524	0,1478	1,2952	0,0637	0,5429	3,0021
2006	0,8292	0,2242	2,0963	0,0634	0,8336	4,0467
2007	0,8256	0,2576	2,5811	0,0662	1,0000	4,7304
2008	0,8112	0,3099	3,2390	0,0554	1,1588	5,5743
2009	0,7932	0,3976	4,5111	0,0450	1,5481	7,2950
2010	0,7176	0,3528	3,5971	0,0323	1,3763	6,0761
2011	0,7308	1,1232	4,5870	0,0282	1,7050	8,1784

[1] Manba. Mazkur jadval 3.2-jadval ta'limotlari asosida mualliflar tomonidan hisob-kitob qilingan.

14.4.-jadval

Xo'jalik yurituvchi «Turon» ko'ptarmoqli xususiy korxonasida bankrotlikni bashorat qilishda «Z-schyot»ni hisoblash uchun 2000–2011-yillardagi ma'lumotlar [37]

Yillar	Qurilish montaj ishlarining umumiy hajmi, ming so'm	Qurilish tashkilotining barcha aktivlari, ming so'm	Qurilish tashkilotining oborot aktivlari, ming so'm	Asosiy faoliyat daromadlari, ming so'm	Qurilish tashkilotining o'z mablag'lari, ming so'm	Qurilish tashkilotining soliqqa tortilguncha bo'lgan foydasi, ming so'm	Qurilish tashkilotining taqsimlanmagan foydasi, ming so'm
2000	327738,1	732738,0	638152,7	243509,4	575932,1	63588,8	20456,4
2003	343707,9	783437,5	683696,4	257093,5	567992,2	66784,6	22836,4
2004	399360,6	835960,8	728916,0	316293,6	592696,2	73646,4	26589,7
2005	477624,2	879762,2	698238,3	345322,3	584162,1	92878,6	31245,2
2006	782135,0	938213,0	648305,2	595986,9	586383,1	150245,2	47689,4
2007	997539,4	997537,6	686305,9	780075,8	561613,7	183456,4	61245,4
2008	1494207,0	1289427,0	871652,7	1265593,2	671791,5	285456,2	82456,7
2009	2552463,6	1648752,3	1089825,3	2253825,4	826029,9	468231,4	106589,9
2010	3245612,3	2358245,4	1410230,7	2570524,9	1150823,8	594232,4	203412,1
2011	4526654,8	2654789,2	1616766,6	3689223,7	1322085,0	232457,2	232457,2

[1] Manba: qurilish bilan shug'ullanuvchi «Turon» ko'ptarmoqli xususiy korxonasining tegishli yillardagi hisobotlari asosida muallifning ishlanmasi.

tahlil qilgan korxonada ushbu holat oxirgi o'n yil davomida kuzatilgan emas. Agar «Z-schyot»ning miqdori 1,81 dan 2,7 gacha oraliqda bo'lsa, korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli yuqori bo'lishi ko'rsatilgan. Mazkur korxonada 2000–2003-yillarda ushbu holat chegarasida bo'lgan. Lekin «Z-schyot»ning miqdori 2,7 koeffitsientdan ozgina bo'lsada yuqori bo'lgan. Biroq shu 2000–2003-yillarda ushbu koeffitsientning miqdori 2,8 dan 2,9 koeffitsient chegarasida bo'lgan. Bunday holatda bankrotlikka yuz tutishi mumkin edi. Ammo tahlillar ko'rsatmoqdaki, ushbu korxona o'zini o'nglab olgan. «Z-schyot»ning miqdori 3,0 va undan yuqori bo'lsa mazkur korxonaning bankrot bo'lish ehtimoli juda kam. Xo'jalik yurituvchi «Turon» ko'ptormoqli xususiy korxonasida «Z-schet»ning miqdori 2005-yildan boshlab 3,0 koeffitsientdan yuqori. Uning darajasi keyingi yillarda muttasil oshib borgan. 2009-yilda uning miqdori 7,0 koeffitsientdan ortiq bo'lgan bo'lsa, 2011-yilga kelib 8,0 koeffitsientdan ham yuqori natijaga erishilgan. Ushbu holat ko'rsatadiki, Xo'jalik yurituvchi «Turon» ko'ptormoqli xususiy korxonasining iqtisodiy ahvoli barqaror va moliyaviy jihatdan mustahkam. Bunday holat jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etib turgan bir pallada muhim ahamiyatga ega.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, «Z-schyot»ning o'zgarishi ko'p jihatdan barcha aktivlar va ustav fondining o'z mablag'laridagi hissasi bilan ancha bog'liq ekan. Qolgan omillar muttasil o'sish tendensiyasiga ega, ammo shu ikki omil 2010-yilda 2009-yilga nisbatan biroz kamaygan va shunga mos ravishda «Z-schyot»ning miqdori ham kamaygan.

Ushbu usulning afzalligi shundaki, ko'rsatkichlar tizimidan yagona kompleks ko'rsatkichni aniqlash va shu asosda bankrotlik ehtimoliga aniq baho berish uchun tegishli xulosa qilish mumkin bo'ladi.

«Z-schyot»ning miqdori bashorat qilib ko'rilganda shuni kuzatish mumkinki, mazkur korxonada 2012–2014-yillar mobaynida uning mustahkamlanishi kuzatilmoqda.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston amaliyotida bankrotlikni bashorat qilish uchun boshqa usul ham qo'llaniladi. Buning mazmuniga alohida to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Hozirgi paytda bankrotlikni bashorat qilish uchun mamlakatimiz amaliyotida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan «Korxonaning iqtisodiy nochorligi belgilarini aniqlovchi mezonlar tizimi» (1997-yil 27-iyul 12-son qarori bilan tasdiqlangan) qo'llanilmoqda. Ushbu mezonlar tizimi bir necha bor qayta ishlanib, ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar bilan takomillashtirildi.

«Korxonaning iqtisodiy nochorligi belgilarini aniqlovchi mezonlar tizimi»da (kelgusida «Mezonlar tizimi» ham deb yuritiladi) yettita ko'rsatkich tavsiya qilingan. Bularni bevosita Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ham tavsiya qilish mumkin. Ularning jamlanmasini quyidagicha ifodalash mumkin (14.6-jadval).

14.6-jadval

Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligi belgilarini aniqlovchi mezonlar tizimi

Ko'rsatkich-larning nomi	***Aniqlanish* formulasi**	**Korxonaning iqtisodiy nochorlik alomatlarini belgilovchi ko'rsatkichlar *mezoni***	***Axborot* manbalari**
1. Muddati o'tgan majburiyatlar va majburiy to'lovlar (kreditorlar)	6 oydan ortiq muddat o'tgandan hisoblanadi $K_{fk} = \frac{Q_{haq}}{Q_{loy} - (Q_{ij} + Q_{kon})}$	ularning mavjudligi $A_{bes} = \frac{E}{A}$	«Moliyaviy-iqtisodiy ahvol to'g'risida ariza» Moliya Vazirligining 1998-yil 26-iyun 79-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (2-b moliyaviy hisobot)
2. Aktivlarning rentabelligi (A_{rk})	$A_{rk} = \frac{S_{tf}}{B_n}$	$A_{rk} < 0$ bo'lsa	«Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» 2-sh.1 70 satr va 1-sh. 310 satr.
3. To'lovga *qobillik* (qoplash) koeffitsienti (T_{qk})	$T_{qq} = \frac{A_2}{P_2 - (U_{qq} + Q_{qq} + X_a)}$	$T_{qk} < 1$ bo'lsa	1-sh. II bo'lim 300,540,(400+410),(420+430),440 sartlar
4. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (O'_{ak})	$O'_{ak} = \frac{(P_1 + U_{kk}) - A_1)}{A_2}$	$O'_{ak} < 0,1$ bo'lsa	1-sh.I bo'lim 110, 390, (400+410) satrlar
5. O'z va qarz mablag'larining nisbat koeffitsienti (O'_{nk})	$O'_{nk} = \frac{P_1 + U_{kk}}{P_2 - (U_{kk} + X_a)}$	$O'_{nk} < 2$ bo'lsa	1-sh.110,(400+410), 540, 440 satrlar

14.6-jadvalning davomi

6. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti (K_{fq})		$K_{fk} < 0,5$ bo'lsa	Bular reja, statistik va buxgalteriya hisobi vahisobotlaridan olinadi
7. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti (A_{ves})		$A_{ves} > 0,5$ bo'lsa	1-sh. 011, 010 satrlar

Ushbu jadvaldagi formulalar va mezonlar «Korxonaning iqtisodiy nochorligi belgilarini aniqlovchi mezonlar tizimi»ga asosan jamlangan holda tuzildi. – SBX. № 38, 1999-yil 30-sentabr. – 15–16-betlar.

Ushbu jadvaldagi formulalardagi ko'rsatkichlar izohi: STF – soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda (zarar); B_n – Balansning umumiy summasi; A_2 – aylanma aktivlar; P_2 – majburiyatlar; U_{qk} – uzoq muddatli qarzlar va kreditorlar; Q_{qk} – qaytarish muddati kelgan qisqa muddatli qarzlar va kreditorlar; X_a – xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (muddati o'tmagan majburiyatlar); P_1 – o'z mablag'larining manbalari; Q_{hoq} – taqqoslanadigan qiymat ko'rinishidagi hisobot davrida chiqarilgan mahsulot (ko'rsatilgan xizmatlar)ning haqiqiy hajmi; Q_{loy} – taqqoslanadigan qiymat ko'rinishidagi belgilangan vaqt davomida mahsulot chiqarish (xizmat ko'rsatish)ning eng ko'p hajmi; Q_{ij} – ijaraga berilgan (taqqoslanadigan) quvvatlardagi mahsulot hajmi; Q_{kon} – konservatsiyalangan (taqqoslanadigan) quvvatlardagi mahsulot hajmi; A – asosiy ishlab chiqarish vositalarining birlamchi (tiklash) qiymati.

Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar uslubiy ko'rgazma va me'yoriy hujjatlar bilan birga ayrim iqtisodchi olimlar tadqiqotlari obyektiga ham aylangan. Xususan, N.Hasanov va S.Najbiddinovlarning kitobida[1] bu borada atroflicha so'z yuritilgan. Ammo ular ushbu ko'rsatkichlar tizimiga oltita ko'rsatkichni kiritadilar va ulardan faqat ikkitasining aniqlanish formulasini beradilar. Biroq, ularning ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash bo'yicha tavsiyalari mezonlar tizimidagi ko'rsatkichlardan biroz farq qiladi. Masalan, mazkur kitobda «Quvvatlardan foydalanish koeffitsienti»ni quyidagicha tavsiya qilingan[2]:

$$K_{qf} = Q_{amal} / Q_{loyiha}.$$

Bunda: Q_{amal} – hisobot davrida natural ko'rinishda ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan xizmatlar)ning amaldagi hajmi;

---

[1] *N. Hasanov, S. Najmiddinov.* Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolari va ularni hal qilish. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999, 27–40-betlar.

[2] O'sha joyda, 31-bet.

Q_{loyiha} – belgilangan vaqt mobaynida natural ko'rinishda mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) mumkin bo'lgan eng katta hajm, bunga asosiy texnologiya uskunalaridan to'liq foydalanish va belgilangan ish tartibida erishish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari ham mavjud. Ijobiy tomoni shundaki, ko'rsatkichlar tizimi o'rganilayotgan obyektni to'liq qamrab oladi. Lekin salbiy tomoni – turli ko'rsatkichlarning yo'nalishi, o'lchami va natijasi har xil bo'lsa, o'rganilayotgan obyektning holati bo'yicha biror xulosa chiqarishda ancha qiyinchilik tug'diradi. Shu tufayli ko'rsatkichlar natijasi bo'yicha mutaxassislar o'rganilayotgan obyekt holatining monitoringini amalga oshirishi lozim.

Hozirgi paytda ko'rsatkichlar tizimidan kompleks ko'rsatkichni aniqlash bo'yicha bir qancha usullar ishlab chiqilgan[1]. Amaliyotga zarur bo'lib qolgan taqdirda bankrotlikning kompleks ko'rsatkichini aniqlash va undan tegishli xulosa chiqarishda foydalanish ham mumkin. Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo'mitasi ishlab chiqqan mezonlar tizimi bo'yicha korxonalar uch guruhga bo'linadi: ta'minlangan korxonalar, iqtisodiy xavfli va iqtisodiy nochor[2]. Ushbu mezonlar tizimida «Ta'minlangan korxonalar» guruhiga monitoring natijasida «Iqtisodiy xavfli» va «Iqtisodiy nochor» guruhlariga kirmaydigan korxonalarning kirishi ko'rsatilgan.

«Iqtisodiy xavfli» guruhga qaysi korxona mansubligini haqiqiy miqdori hisoblangandan keyin aniqlash mumkin. Mezonlar tizimida ko'rsatilishicha, to'lash muddatidan qat'i nazar, qarz majburiyatlari, ya'ni $O'_{nk} < 2$ bo'lsa, korxona iqtisodiy xavfli guruhga kiradi[3]. Korxona (Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar) to'lovga qobillik, ya'ni bankrotga yaqin hisoblanadi, qachonki pullik majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'yicha ularni to'lash kunidan olti oydan ortiq muddat o'tgan kreditorlik qarzlari mavjud bo'lib $T_{qk} + U_{ak} < 1$ bo'lsa. Quyidagi korxonalar esa shartli ravishda bankrot hisoblanadi, qachonki olti oydan ortiq to'lov muddati o'tib ketgan kreditorlar mavjud bo'lib, $T_{qk} < 1$, $O'_{ak} < 0,1$, $A_{tk} < 0$ bo'lsa.

Ushbu ko'rsatkichlar va mezonlar tizimi amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi paytda aynan ana shu mezonlar asosida korxonalarning iqtisodiy nochorligi bo'yicha uzil-kesil qarorlar qabul qilinmoqda. Ammo ushbu ko'rsatkichlar orqali korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini monitoring qilib korxonalar guruhini kengaytirish xususida ham takliflar paydo bo'lmoqda. Bu borada N.Hasanov va S.Najbiddinovlarning tavsiyasi diqqatga sazovor. Ular korxonalar monitoringini quyidagi guruhlar bo'yicha amalga oshirishni tavsiya qilganlar:

---

[1] *M.Q. Pardayev.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. Samarqand: «Zarafshon» nashriyoti, 2001. 184–206-betlar.

[2] SBX. №38, 1999-yil 30-sentabr. 16-bet.

[3] O'sha joyda, 16-bet.

* to'lovga qobil korxonalar;
* ixtisosini yo'qotgan korxonalar;
* xatar bilan ishlaydigan korxonalar;
* yuqori xatar bilan ishlaydigan korxonalar;
* tang holatdagi korxonalar;
* bankrotlik chegarasidagi korxonalar;
* shartli bankrotlik chegarasidagi korxonalar;
* bankrot bo'lishi ehtimoli bo'lgan korxonalar[1].

Ushbu guruh korxonalar, albatta, nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ammo uzul-kesil qarorlar qabul qilish uchun ushbu guruhlarning ko'pi bir-biriga juda yaqin. Ularni mazmun-mohiyati jihatidan bitta guruhga ham kiritish mumkin. Masalan, bularga tang holatdagi, bankrotlik chegarasidagi, bankrot bo'lish ehtimoli bo'lgan korxonalarni bir-biridan farqlash qiyin. Shu tufayli ularni bir guruhga kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki bularning hammasi iqtisodiy nochor bankrotlik chegarasidagi korxonalardir. Shu tufayli ushbu guruh ko'rsatkichlarni takomillashtirishni maqsadga muvofiq, chunki korxona rahbari, menejeri, mutaxassislar va mulk egasi tahlil natijasi bo'yicha korxonasi haqida to'liq hamda aniq xulosaga ega bo'lishi va shunga qarab tegishli chora-tadbirlarni qo'llashi lozim.

Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy mustahkamligi va nochorligi nuqtayi nazaridan ularni quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiq:

* iqtisodiy mustahkam subyektlar;
* to'lovga qodir subyektlar;
* iqtisodiy nochorlik arafasidagi (bankrotlik chegarasidagi) subyektlar.

Agar 3.4-jadvalda keltirilgan 2—7 ko'rsatkichlar ijobiy bo'lib, muddati olti oydan o'tgan majburiyatlar va majburiy to'lovlari bo'lmasa bunday korxonalarni iqtisodiy mustahkam korxonalar (Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar) guruhiga kiritish mumkin.

To'lovga qodir korxonalar guruhiga muddati 6 oydan o'tgan majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'lmagan, to'lovga qobillik koeffitsienti birdan kichik bo'lmasa ($T_{qk} > 1$ bo'lsa), o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti 0,1 dan katta bo'lsa ($O'_{ak} > 0,1$) hamda o'z va qarz mablag'larining nisbiy koeffitsienti 2 dan katta bo'lsa ($U_{nk} > 2$) bunday Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar mazkur guruhga kiradi.

Iqtisodiy nochorlik arafasidagi (bankrotlik chegarasidagi) korxonalarga 3.4-jadvaldagi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha keltirilgan mezonlari mavjud bo'lgan korxonalar kiradi. Ammo ushbu ko'rsatkichlarning ayrimlari ijobiy bo'lishi mumkin. Lekin bu holat, bari-bir ularning iqtisodiy nochorligidan dalolat berib turadi, chunki u yoki bu ko'rsatkich yomonlashdimi, demak

[1] *N. Hasanov, S. Najmiddinov.* Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolari va ularni hal qilish. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999, 32-bet.

korxonada ahvol o'nglanishni talab qiladi. Korxona mutasaddilari zudlik bilan bu muammoga e'tiborni qaratib, salbiy holatlarni bartaraf qilishga kirishishlari lozim. Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy mustahkam bo'lishining ildizi, asosiy omili uning faoliyatida namoyon bo'ladi. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichlarni moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan birga faoliyat natijasi bo'yicha ham aniqlash mumkin. Bu holatdan kelib chiqib, Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini, uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasi bo'yicha baholash va aniqlashning metodologik jihatlariga ham to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Bu holat Xo'jalik yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy ahvoliga baho berishni yanada oydinlashtiradi va bankrotlikning oldini olish bo'yicha tadbirlar ko'lamini kengaytiradi.

14.3. Korxonalarda foydalilik nuqtasi va ularning iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda foydalilik nuqtasini aniqlash bir qancha afzalliklarga ega. Chunki ushbu ko'rsatkichning miqdorini aniqlab belgilangan hajmdagi ishni bajarish uchun qancha xodim kerakligini, qancha xarajat qilish lozimligini va shularni inobatga olgan holda qaysi hajm ko'rsatkichidan boshlab qurilish tashkiloti foyda olib borishi mumkinligi, obyektni to'liq ekaspluatatsiyaga topshirganda qancha foyda olish mumkinligini ko'rsatadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda foydalilik nuqtasini aniqlash orqali uning iqtisodiy xavfsizligiga ham baho berish mumkin. Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar, ularni aniqlash yo'llarini iqtisodiy adabiyotlarda deyarli yoritilmagan. Mazkur tashkilotlarda ushbu ko'rsatkichlar o'rniga asosan reja ko'rsatkichi qo'llaniladi va u qurilish obyektining loyihasi asosida tuzilgan smeta bo'lib hisoblanadi. Ammo bu ko'rsatkich bilan chegaralanib qolish tashkilot istiqbolini rentabelli tarzda amalga oshirish imkonini bermaydi. Smetani bajarish uchun katta kuch va moddiy-texnikani jalb etib ishni zarar bilan ham tugatish mumkin.

Bitta obyektni qurish ko'p vaqtni talab qilishini inobatga olsak, bitta obyektni zarar bilan topshirilgandayoq mazkur qurilish tashkiloti bankrotlik holatiga yaqin bo'lib qolishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu subyektlarning faoliyatini baholashda faqat smetaning bajarilishi bilan cheklanadigan bo'lsa, uning samaradorligini ta'minlash masalasi ham muammo bo'lib qoladi. Shu tufayli iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari qurilish tashkilotining faoliyatiga baho berishda bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birga foydalilik nuqtasi va iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq ko'rsatkichlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, hozirgi paytda qurilish tashkilotlari faoliyatni baholashda ushbu ko'rsatkichlar deyarli aniqlanmaydi. Natijada ulardagi

mavjud katta ichki imkoniyatlar ishga solinmasdan qolib ketmoqda. Boz ustiga xo'jalik yurituvchi subyektlarda juda ko'p mutaxassislar sohaning samaradorligi xususida kam tushunchaga egaligiga ham guvoh bo'ldik. Bularning hammasi xo'jalik yurituvchi subyektlarda foydalilik nuqtasi va ularning iqtisodiy xavfsizligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni qo'llash uchun, ularning nazariy va amaliy masalalarini hal qilishni taqozo qiladi.

Mazkur jadvalda foydalilik nuqtasini aniqlashning eng an'anaviy yo'li ko'rsatilgan. Agar F_{nsi} birga teng bo'lsa korxona foyda olish arafasida, agarda u birdan katta bo'lsa, mazkur subyekt foyda olib ishlayotgan bo'ladi, agar kam bo'lsa mazkur korxona zarar bilan ishlayotgan hisoblanadi. Juda ko'p adabiyotlarda mazkur ko'rsatkich turlicha talqin qilingan. Bir adabiyotda foydalilik nuqtasi[1] deyilsa, ikkinchisida zararsizlik chegarasi[2] deb nomlanadi, uchinchisida esa kiritik nuqta[2] deb yuritiladi. Hozirgi paytda ushbu nuqta iqtisodiy xavfsizlik nuqtasi[3] ham deb atalmoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda foydalilik nuqtasi, deb atash maqsadga muvofiq. Chunki aynan shu nuqtadan keyin korxonalar foyda olishni boshlashadi. Biroq, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy xavfsizligi nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, u xavfsizlik nuqtasi ham deb atalishi mumkin. Zero, shu nuqtadan boshlab korxonalar iqtisodiy xavfsizlik zonasiga kira boshlaydi. Bu masala qaysi nuqtai nazardan qaralishiga qarab turlicha atalishi mumkin. Ammo kiritik nuqta, zararsizlik chegarasi kabi atamalardan ko'ra foydalilik nuqtasi, deb atash maqsadga muvofiqdir. Nima bo'lganda ham uning mohiyati o'zgarmaydi. Ushbu ko'rsatkich korxonani samarali boshqarishda muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi paytda ushbu ko'rsatkichni aniqlashning bir qancha usullari va yondoshuvlari mavjud. Yuqorida uning an'anaviy usuli ko'rsatildi. Ammo amaliyotda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, foydalilik nuqtasini turli yo'nalishlarda aniqlash mumkin.

Birinchi usul korxona faoliyatining foydalilik nuqtasini mahsulotning miqdori, o'zgaruvchi va o'zgarmas xarajatlarini inobatga olgan holda aniqlash usulidir. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning foydalilik nuqtasi (F_n) quyidagicha aniqlanadi:

---

[1] *M.Q. Pardayev.* Iqtisodiyot erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari. /Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini ... avtoreferati. – T.: Bank-Moliya akademiyasi, 2002. 30–31-betlar.

[2] *B.J. Hakimov.* Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulot tannarxini hisoblash va ularning tahlili./Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini ... avtoreferati. – T.: Bank-Moliya akademiyasi, 2007. 12–13-betlar.

[2] *A.X. Pardayev, B.X. Pardayev.* Boshqaruv hisobi. / – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 58–61-betlar.

[3] *Z.Yu. Aminov.* Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari. /Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini... avtoreferati. Samarqand. 2009. 15–16-betlar. Tahlil nazariyasi. Darslik. Samarqand: «Zarafshon».

14.6-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda foydalilik nuqtasini ifodalovchi kursatkichlar va ularni aniqlash yo'llari[1]

Kursatgichlar nomi	Ko'rsatkichlarning manbalari va aniqlanish yo'llari
O'zgaruvchi xarajatlar ($X_{o'z}$)	Buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida hisob-kitob qilinadi
O'zgarmas xarajatlar ($X_{o'm}$)	Buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida hisob-kitob qilinadi
Davlat budjetiga to'lovlar (B_t)	Buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida hisob-kitob qilinadi
Davlat budjetiga to'lovlar (B_t)	Buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida hisob-kitob qilinadi
Barcha xarajatni qoplaydigan daromadlar (D_{xq})	$D_{xq} = X_{o'z} + X_{o'm} + B_t$
Sof foyda (F_s)	MH 2-shaklidan olinadi
Foydani ta'minlaydigan daromadlar (D_f)	$DF = D_{xq} + F_s$; D_{xq} – xarajatlarni qoplaydigan daromadlar
Muvofiqlik koeffitsienti (K_m)	$K_m = X_{o'z} + B_t / Q_s$ Q_s – sotilgan mahsulot hajmi.
Daromadning «Tenglik nuqtasi» (D_{tn})	$D_{tn} = (X_{o'z} \cdot K_m) + X_{o'm}$
Foydalilik nuqtasi (F_n)	$F_n = Q_s / (X_{o'z} + X_{o'm} + B_{to'z} + B_{to'm})$ $B_{to'z}$ – budjetga to'lovlarning o'zgaruvchi qismi; $B_{to'm}$ – budjetga to'lovlarning o'zgarmas qismi.

$$F_n = \frac{D_x}{M_{bb} - M_{o'zx}}.$$

Bunda: D_x – doimiy xarajatlar;
M_{bb} – mahsulot birligining bahosi;
$M_{o'zx}$ – mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchi xarajat.

Agarda rejada foyda olish ko'zda tutilgan bo'lsa, foydalilik nuqtasi rejadagi foyda miqdorini ham o'z ichiga oladi. Bu holda uni aniqlash yo'llari quyidagicha bo'ladi:

---

[1] Mazkur jadval muallif tadqiqotlari natijasida umumlashtirilgan holda tuzildi. nashriyoti, 2001. 184–206-betlar.

$$F_n = \frac{D_x + S_f}{M_{bb} - M_{o'zx}}.$$

Bunda: S_f – rejadagi foyda hajmi.

Amaliyotda rejalashtirilgan xarajatlar hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Ular turli omillar ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Agar faqat o'zgaruvchi xarajatlar o'zgaradigan bo'lsa, u holdi korxonaning foydalilik nuqtasini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$F_n = \frac{D_x}{M_{bb} - (M_{o'zx} + n)}.$$

Bunda: n – xarajatlar o'zgarishining kutilayotgan miqdori.

Agar bir vaqtning o'zida ham o'zgaruvchi va ham o'zgarmas xarajatlarning miqdori o'zgargan sharoitda korxonaning foydalilik nuqtasi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_n = \frac{(D_x + n)}{M_{bb} - (M_{o'zx} + n)}.$$

Xarajatlar o'zgargan (ko'paygan) sharoitda ham foyda olish rejalashtirilgan bo'lishi mumkin. U holda korxonaning foydalilik nuqtasi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_n = \frac{(D_x + n) + S_f}{M_{bb} - (M_{o'zx} + n)}.$$

Hozirgi sharoitda mahsulotning bahosi ham hisobot davrida o'zgarib qolishi mumkin.

U holda korxonaning foydalilik nuqtasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi.

$$F_n = \frac{(D_x + n)}{(M_{bb} + r) - (M_{o'zx} + n)}.$$

Yana shunday sharoit ham bo'lish mumkinki, mahsulotning bahosi hisobot davrida o'zgarishi bilan yana foyda olish ham rejalashtirilishi mumkin. U holda korxonaning foydalilik nuqtasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$F_n = \frac{(D_x + n) + S_f}{(M_{bb} + r) - (M_{o'zx} + n)}.$$

Bulardan tashqari, shunday holatlar ham bo'lishi mumkinki, mahsulotning bahosi hisobot davrida o'zgarishi bilan yana rejalashtirilgan foyda miqdori ham o'zgarishi mumkin. U holda korxonaning foydalilik nuqtasini

aniqlash uchun barcha omillarning o'zgarishini inobatga oladigan quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$F_n = \frac{(D_x - n) + (S_f + F_r)}{(M_{bb} + r) - (M_{o'zx} + n)}.$$

Bunda: F_r – foydaning rejada ko'zda tutilgan miqdoriga nisbatan o'zgarish hajmi.

Amaliyotda ushbu ko'rsatkichlarning hammasini tegishli ma'lumotlardan foydalangan holda hisoblash mumkin. Bu ko'rsatkichning miqdori xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga to'g'ri baho berish uchun, uning holatni samarali boshqarish va o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlarni qo'llash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichlarning amalda qo'llanilish bo'yicha bir qancha misollar keltiriladi. 2012-yil iyun oyida «Turon-start» g'isht ishlab chiqaradigan zavodning doimiy xarajatlari 24053,6 ming so'mni tashkil qilgan. Ishlab chiqarilayotgan g'ishtning narxi 144 so'm qilib belgilangan.

Bir dona g'ishtga to'g'ri keladigan o'zgaruvchi xarajatlar miqdori 78 so'mni tashkil qilgan. U holda mazkur korxonaning foydalilik nuqtasi 364448 donani tashkil qiladi. Bu degani zavod bir oyda 364448 dona g'isht ishlab chiqarsa barcha xarajatlarini qoplar ekan:

$$24053{,}6 : (144 - 78) = 364448 \text{ dona.}$$

Agar «Turon-start» korxonasi shu belgilangan hajmdan ortiq g'isht ishlab chiqarsa foyda ola boshlaydi. Barcha zararlarni qoplash uchun belgilangan hajmdan kam ishlab chiqarmaslik kerak.

Zavod shu 2012-yil iyun oyida rejada 8452,0 ming so'm foyda olishni mo'ljallab ish faoliyatini boshlagan. Ushbu miqdordagi foydaga erishishi uchun zavod bir oyda 492509 dona g'isht ishlab chiqarishi lozim. Bunda quyidagi hisob-kitob amalga oshiriladi:

$$(24053{,}6 + 8452{,}0) : (144 - 78) = 492509 \text{ dona.}$$

«Turon-start» zavodi rahbariyati 8452,0 million so'm foyda olishni ta'minlash uchun g'isht ishlab chiqarish hajmini 492509 donadan kam bo'lmaslikka harakat qilishlari lozim. Navbatdagi holatda zavodning o'zgaruvchi xarajatlari ko'payganligini qarab chiqamiz.

Shu oyda o'zgaruvchi xarajatlar 15,0 %ga oshdi. Ushbu xarajatlarni qoplash uchun g'isht ishlab chiqarish hajmini 442976 donaga yetkazish ko'zda tutiladi:

$$24053{,}6 : (144 - (78 + (78 \cdot 15 : 100) =$$
$$= 24053{,}6 : (144 - 89{,}7) = 442976 \text{ dona.}$$

Ko'rinib turibdiki, doimiy xarajatlar o'zgarmagan holda o'zgaruvchi xarajatlar ko'paysa ham ish hajmini oshirish lozim bo'lar ekan. Bulardan

shu ayonki, xarajatlarni kamaytirish masalasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyat ekanligini ko'rish mumkin.

Bunga amin bo'lish uchun «Turon-start» zavodida xarajatlar kamaygan holdagi vaziyatni ko'rib chiqamiz. Shu 2012-yil iyun oyida o'zgaruvchi xarajatlar 10 %ga kamaydi (78 · 10 : 100 = = 7,8%). U holda zavod foydalilik nuqtasiga erishish uchun qancha g'isht ishlab chiqarish lozimligini ko'rib chiqamiz. Bu holda hisob-kitob quyidagicha amalga oshiriladi:

$$24053{,}6 : (144 - 7{,}8) =$$
$$= 24053{,}6 : (144 - 70{,}2) = 325930 \text{ dona.}$$

Bundan ko'rinib turibdiki, xarajatlarni 10 %ga kamaytirish evaziga, ishlab chiqarish hajmini 26,5 % kam ishlab chiqarib (100,0 − 73,5) ham foydalilik nuqtasiga erishish mumkin ekan. Bu quyidagicha aniqlandi:

$$325930 : 442976 \cdot 100 = 73{,}5\ \%.$$

Doimiy xarajatlar 15 %ga oshgan (78 · 15 : 100 = 8,7%) holda yana 8452,0 ming so'm miqdorida foyda olish ham rejalashtirilgan holatda ish hajmi foydalilik nuqtasi doirasida qancha bo'lishini aniqlash uchun quyidagi hisob-kitobni amalga oshirish tavsiya etiladi:

$$(24053{,}6 + 8452{,}0) : (144 - (78 + 8{,}7) =$$
$$= 32505{,}6 : 54{,}3 = 598629 \text{ dona.}$$

Ko'rinib turibdiki, xarajatning ko'payishini va rejada ko'zda tutilgan foyda miqdoriga yetishini ta'minlash uchun ishlab chiqarish hajmini odatdagi holatga, ya'ni hajmiga nisbatan 164,3% ko'p bajarish lozim ekan:

$$598629 : 364448 \cdot 100 = 164{,}3\ \%.$$

Navbatdagi holatda doimiy xarajatlar 5 %ga oshgan (144 · 5 : 100 = 7,2), o'zgaruvchi xarajatlar esa, odatdagidek, 15 % ko'tarilgan (78 · 15 : 100 = 8,7%) holda «Turon-start» zavodi 8452,0 ming so'm miqdorida foyda olish ham rejalashtirilgan. Bunday holatda ish hajmi foydalilik nuqtasi doirasida qancha bo'lishini aniqlash uchun quyidagi hisob-kitobni amalga oshirishni tavsiya qilish mumkin:

$$(24053{,}6 + 8452{,}0) : (144 + 7{,}2) - (78 + 8{,}7) =$$
$$= 32505{,}6 : 61{,}5 = 528546 \text{ dona.}$$

Ko'rinib turibdiki, foydalilik nuqtasiga erishish uchun lozim bo'lgan ish hajmi bir qancha omillarga bog'liq ekan. Qurilish tashkilotlari rahbarlari oylik, choraklik va yillik faoliyatini rejalashtirishda qancha hajmda mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun ushbu usullardan foydalanish lozim ekanligi ayon bo'ldi. Barcha omillarni inobatga olgan holda ko'rsatkich miqdorining o'zgarishini 14.7-jadvaldi ko'rish mumkin.

Mazkur hisob-kitoblardan ham ko'rinib turibdiki, korxona qanday maqsadni qo'ygan bo'lsa, shunga mos ravishda foydalilik nuqtasini ifodalovchi

ko'rsatkichning miqdori o'zgarib boradi. Ushbu usulni ish hajmini rejalashtirishda va haqiqiy ahvolni bilishda, korxonaning strategik o'zgarishlarini belgilashda ham muvoffaqiyat bilan qo'llash mumkin.

Agar biz ishlab chiqqan tavsiyalar g'isht zavodlari va boshqa ishlab chiqarish korxonalari amaliyotida qo'llanilsa, ishlab chiqarish samaradorligiga muttasil erishishi uchun ichki imkoniyatlarni ishga solish yo'llari oydinlashadi. Bu imkoniyatlar qayerda, qanday ekanligi xususida yaqqol ma'lumotga ega bo'linadi.

14.7-jadval

Foydalilik nuqtasini ifoda etadigan ish hajmining omillar ta'siridagi miqdori

T/r	Ko'rsatkichlar	Foydalilik nuqtasini ifoda etadigan ish hajmi, dona	Omillar ta'sirida o'zgarishining boshlangich hajmga nisbati, %
1.	Foydalilik nuqtasini o'zgaruvchi xarajatlar va mahsulot narxining muvozanati bilan hisoblanishi	364448	100,0
2.	Foydalilik nuqtasini o'zgaruvchi xarajatlar oshganda va sof foydahamda mahsulot narxi o'zgarmagan holdagi muvozanati bilan hisoblangan hajmi	492509	135,1
3.	Foydalilik nuqtasini o'zgaruvchi xarajatlar ko'payishi va mahsulot narxi o'zgarmagan holdagi muvozanati bilan hisoblangan hajmi	442976	121,5
4.	Foydalilik nuqtasini o'zgaruvchi xarajatlar kamayganda va mahsulot narxi o'zgarmagan holdagi miqdori bilan hisoblanishi	325930	89,4
5.	Foydalilik nuqtasini doimiy xarajatlar ko'payib foyda olish ko'zda tutilganda va mahsulot narxi ham oshganda hisoblangan hajmi	598629	164,3
6.	Foydalilik nuqtasini doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar ko'payib foyda olish ko'zda tutilganda va mahsulot narxi ham oshganda hisoblangan hajmi	528546	145,0

2-BO‘LIM. KALITLI SO‘ZLAR

Boshqaruv tahlili, tahlil tamoyillari, tarkibiy tuzilish, ichki imkoniyatlar, boshqaruv qarorlari, ma’lumotlar manbai, axborot ta’minoti, buxgalteriya hisobi, buxgalteriya hisoboti, boshqaru hisob, ishlab chiqarish hajmi, sotish hajmi, biznes reja, rejaning bajarilishi, omillar ta’siri, mahsulot tannarxi, mahsulot sifati, ishlab chiqarish maromiyligi, keltirish koeffisiyenti, qiyoslanadigan miqdor, kompleks omillar, mehnat resursi, ishchi kuchi, mehant unumdorligi, shartli-natural ko‘rsatkich, qiymat ko‘rsatkichi, ish vaqti, ish vaqti samaradorligi, mehnat samaradorligi, mehnat haqi, mehnat haqi xarajatlari, moddiy resurslar, yig‘ma rezervlar, asosiy vositalar, asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishi, texnik holat, bankrotlik, raqobatbardoshlik, iqtisodiy xavfsizlik.

«BOSHQARUV TAHLILI» bo‘limi bo‘yicha takrorlash va o‘zini-o‘zi nazorat qilish uchun savollari

1. Boshqaruv tahlilining obyektiv zarurligi nimada?
2. Boshqaruv tahlili nima uchun kerak?
3. Boshqaruv tahlilining ta’rifini keltiring.
4. Boshqaruv tahlilining mazmuni va mohiyatini ayting.
5. Boshqaruv tahlilining tarkibiy tuzilishini kettiring.
6. Boshqaruv tahlilining asosiy vazifalarini ayting.
7. Boshqaruv tahlilning asosiy tamoyillari nimadan iborat?
8. Boshqaruv tahlilining ichki imkoniyatlarini topishdagi ahamiyati qanday?
9. Boshqaruv tahlilining tashkillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari nima?
10. Boshqaruv tahlilida qo‘llaniladigan ma’lumotlar manbai nimalardan iborat?
11. Boshqaruv tahlilining tashkiliga kimlar mas’ul?
12. Boshqaruv tahlilida qo‘llaniladigan ma’lumotlar manbaini qayerdan olish mumkin?
13. Mahsulotni ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishning asosiy vazifalari nima?
14. Mahsulotlarning sotish hajmini tahlil qilishning asosiy vazifalari nimadan iborat?
15. Tuzilgan shartnoma majburiyatlarini tahlil qilishning asosiy vazifalari nima?
16. Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni yetkazib berish bo‘yicha sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish qanday amalga oshiriladi?
17. Ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarga nimalar kiradi?
18. Ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarning tahlilini ayting.
19. Mahsulotlarni sotish rejasining bajarilishi qanday tahlil qilinadi?
20. Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilishning usullari nimalardan iborat?
21. Mahsulotning sotish bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishiga qanday omillar slabiy ta’sir qiladi va ularni qanday bartaraf qilish mumkin?
22. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish yo‘llarini ko‘rsatib bering.
23. Mahsulot sifati qanday ko‘rsatkichlar bilan baholanadi?
24. Mahsulotni ishlab chiqarishning maromiyligi qanday baholanadi?
25. Ishlab chiqarish maromiyligiga ta’sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
26. Qanday qilib ko‘rsatkichlarni qiyoslaydigan (solishtiriladigan) holatga keltirish mumkin?
27. Sotilgan mahsulot hajmiga ta’sir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirish yo‘llari nimalardan iborat?

28. Korxonalarning mehnat resurslariga nimalar kiradi?

29. Mehnatga haq to'lashni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

30. Korxonalarni ishchi kuchi bilan ta'minlanganligi qanday tahlil qilinadi?

31. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil qilish nima?

32. Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar tahlili qanday amalga oshiriladi?

33. Mehnat unumdorligi qanday baholanadi?

34. Mehnat samaradorligining tahlili nimalardan iborat?

35. Mehnatni baholashni takomillashtirish yo'llari nimalardan iborat?

36. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlikni tahlil qilish vazifalari nima?

37. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik qanday baholanadi?

38. Moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini baholash va tahlil qilish yo'llarini ayting.

39. Ishlab chiqarishda materiallardan foydalanish qanday baholanadi?

40. Materiallardan foydalanish qanday tahlil qilinadi?

41. Mahsulot ishlab chiqarishga moddiy resurslar ta'minotining ta'siri qanday hisoblanadi?

42. Materiallardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?

43. Materiallardan foydalanish samaradorligini qanday aniqlanadi?

44. Materiallardan foydalanish samaradorligi oshirish bo'yicha yig'ma rezervlarni aniqlash yo'llari nimalardan iborat?

45. Asosiy vositalarning tarkibiga nimalar kiradi?

46. Asosiy vositalarni tahlil qilish vazifalari nimalardan iborat?

47. Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash va tahlil qilish nima?

48. Asosiy vositalar samaradorligini baholash va tahlil qilish yo'llarini ayting.

49. Asosiy vositalar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash va tahlil qilish yo'llari nimalardan iborat?.

50. Asosiy vositalar harakatini baholash va tahlil qilish yo'llarini ayting.

51. Asosiy vositalarning texnik holatini tahlil qilish.

52. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni tashkil qilish tadbirlari nimalardan iborat?

53. Ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan foydalanishni tahlil qilish nima?

54. Asosiy vositalarni modernizasiyalash yo'llarini ayting.

55. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida bankrotlik masalalari nima?

56. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida bankrotlikni baholashdagi turli qarashlarni ayting.

57. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida bankrotlikning oldini olish masalalari nima?

58. Korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini baholash bilan bog'liq ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llarini ayting.

59. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligi va moliyaviy xo'jalik faoliyatidagi bog'liqliklar nima?

60. Korxonalarda bankrotligini baholash bo'yicha mamlakatimiz qanday tajribaga ega?

61. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda bankrotligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar va ularni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari nima?

62. Korxonalarda foydalilik nuqtasini aniqlash yo'llari va uning ahamiyatini ayting.

63. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llarini ayting.

64. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalarini ayting.

15-Bob. MOLIYAVIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN AXBOROTLAR TIZIMI VA UNDA MOLIYAVIY HISOBOTNING O'RNI

15.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar

Korxonaning moliyaviy hisoboti uning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar manbayi bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlab va rag'batlantirish ko'plab yangi-yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu firmalarning rahbarlari yaxshi g'oyalar va ularning moliyaviy ta'minlanishi korxonalarning samarali faoliyat ko'rsatishi hamda juda ko'p foyda topishiga asos bo'ladi, deb o'ylashadi. Tajriba ko'rsatmoqdaki, ko'pchilik biznesmenlar yangi bir ishga kirishishdan oldin uni aniq hisob-kitob va nazorat tizimi zarurligi to'g'risida unchalik bosh qotirishmaydi. Aslida esa ular ishni avvalo yaxshi malakali hisobchi topishdan boshlashlari kerak.

Bordi-yu, shunday qilinmasa, oxir oqibatda rahbar boshi berk ko'chaga kirib qolishi, moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanaolmasligi, ishni ilgari siljitolmasligi, tashqaridan qaralganida faoliyati durustgina bo'lib ko'ringan korxonasida moliyaviy talon-tarojlar sodir bo'lishiga yo'l ochilishi mumkin. Shu tufayli tashkilotning ahvoli ifoda etilgan axborotlar, tizimidan, to'g'ri foydalana oladigan hisobchi ayniqsa erkin iqtisodiyot sharoitida o'ta muhimdir. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar, odatda, ikkiga bo'linadi: hisoblanadigan va hisoblanmaydigan.

Hisoblanadigan axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

* buxgalteriya hisobi va hisoboti;
* statistika hisobi va hisoboti;
* tezkor hisob va hisobot;
* tanlab kuzatilgan hisob ma'lumotlari.

Buxgalteriya hisobi va hisobotida xo'jalik operatsiyalari, xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari ifodalanadi.

Statistika hisobi va hisobotida hodisa hamda jarayonlar umumiy majmuasining miqdoriy jihatlari ifodalanadi.

Tezkor hisob va hisobotlarga hisobot davri ichida olish mumkin bo'lgan axborotlar majmuasi kiradi. Tanlab kuzatish natijasida olingan ma'lumotlar hisobotdagi ko'rsatkichlarni chuqurlashtirish hamda hodisa va jarayonlarni alohida o'rganish imkonini beradi.

Hisoblanmaydigan ma'lumot manbalariga quyidagilar kiradi:

* ichki idora va idoradan tashqari taftish ma'lumotlari;
* ichki va tashqi audit hisobotlari;

* laboratoriya va tibbiy-sanitariya nazorati materiallari;
* soliq xizmati xodimlarining tekshirish natijalari;
* mehnat jamoasining majlis va yig'ilish qarorlari.

Shuningdek, tahlil jarayonida tasdiqlangan reja, biznes-reja va boshqa me'yoriy hujjatlar ham qo'llaniladi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar oshkoraligi nuqtayi nazaridan yopiq va ochiq ma'lumotlarga bo'linadi. Buxgalteriya va statistik hisobotlarda ifodalangan ma'lumotlar tashqariga, boshqa subyektlarga taqdim qilinadi va ular ochiq ma'lumotlarga kiradi. Bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining me'yoriy ko'rsatkichlarini, ta'riflari, limitlari va ularni baholash yo'llarini ishlab chiqadi. Bu ko'rsatkichlar xo'jalik subyektining tijorat, texnologik, ishlab chiqarish siri bo'lib hisoblanadi. Korxona hisobotlari yillik va choraklik moliyaviy hisobotlar shaklini tuzish bo'yicha ko'rgazmaga amal qilgan holda tuziladi. Ammo unda xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Buni aniqlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarini bosh kitob ko'rsatkichlaridagi raqamlar bilan solishtirish. Ular bir-biriga mos ravishda to'g'ri kelishi lozim.

2. Buxgalteriya balansidagi har bir bo'limning moddalaridagi summasi shu bo'lim jami summasiga va aktiv qismining passiv qismiga to'g'ri kelishi aniqlanadi.

3. Buxgalteriya balansidagi moliyaviy hisobot tarkibiga kiruvchi boshqa hisobot ko'rsatkichlari bilan to'g'ri kelishi tekshiriladi.

4. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1994-yil 26-martda ishlab chiqilgan 164-sonli «Buxgalteriya hisoboti va balansi to'g'risidagi Nizom»ga va 1997-yil 25-yanvarda tasdiqlangan «Korxona va tashkilotlarning yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarini to'lg'azish bo'yicha Qo'llanma»ga to'g'ri kelishi ko'rib chiqiladi. Bu qo'llanmaga har yili qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib boriladi.

Rahbar moliyaviy hisobotni tasdiqlashda shu qo'yilgan talablarning hammasini yoki muayyan qismini tekshirib ko'rinishi va ishonch hosil qilgandan so'ng, unga imzo chekishi mumkin.

15.2. Moliyaviy hisobotlar tarkibi

Korxonaning moliyaviy hisoboti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining har yilgi o'zgarishlarni o'zida ifoda etadigan «Korxona (tashkilot)larda yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarning shakli va hajmini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'iga asosan tuziladi. Ushbu buyruqqa asosan barcha huquqiy shaxslar (budjet, sug'urta, bank muassasalaridan tashqari) tegishli tashkilotlarga o'zlarining moliyaviy hisobotlarini topshiradilar.

Yillik hisobotlarning tarkibiga quyidagilar kiradi:
1-shakl «Buxgalteriya balansi»;
2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»;
2a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma»;
3-shakl «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»;
4-shakl «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»;
5-shakl «O'z mablag'lari (kapitali) to'g'risidagi hisobot».

Yarim yillik hisobot tarkibiga:
1-shakl «Buxgalteriya balansi»;
2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»;
2a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma»;
3-shakl «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»;
4-shakl «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot».

Choraklik hisobot tarkibiga:
1-shakl «Buxgalteriya balansi»
2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»
2a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma».

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1998-yil 25-iyundagi 79-sonli buyrug'i bilan moliyaviy hisobotlar tarkibiga 2-b shakl «Moliyaviy-iqtisodiy holat to'g'risida» ma'lumotnoma kiritilgan. Bu ma'lumotnoma korxonaning choraklik va yarim yillik hisobotlari bilan birgalikda topshiriladi.

Ushbu hisobot va ma'lumotnomalardan foydalangan holda, korxona rahbari moliya-xo'jalik faoliyatining ahvoli joriy yilda qanday ekanligi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Biroq moliyaviy hisobotning barcha imkoniyatlaridan foydalanish bevosita undan foydalanuvchilarning malakasi, bilim saviyasi va shaxsiy sifatlariga bog'liq. Rahbar korxonaning umumiy iqtisodiy muammolarini yaxshi bilish bilan birga, buxgalteriya balansi va boshqa moliyaviy hisobotlarni o'qiy olishi, ular o'rtasidagi bog'liqliklarni ham bilishi lozim. Masalan, «Buxgalteriya balansi» va boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga asosan korxona rahbari mablag'larning miqdorini, ularning shakllanish manbalarini, umumiy mablag'larda o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan majburiyatlar hissasini, uzoq muddatli va oborot aktivlarining ulushini, xo'jalik faoliyatidagi ishtirok etayotgan o'zining aylanma mablag'lari, ulardan qancha foyda olganligi, budjetdan qancha qarzdor ekanligi, debitor va kreditor qarzlarning holati, shundan qanchasi muddati o'tganligi, balansning likvidliligi, korxonaning moliyaviy barqarorligi kabi muhim ko'rsatkichlarni aniqlashi, bilishi va shular bo'yicha korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida zudlik bilan xulosa chiqarishi lozim.

Rahbar «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» 2-shakl ma'lumotlariga asosan korxonaning daromadi, xarajatlari va sof foydaning shakllanish yo'llarini aniqlashi mumkin.

U «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» 3-shakl ma'lumotlariga tayanib, asosiy vositalarning hisobot davri boshi va oxiridagi qoldiqlarda

o'zgarishlar nimalar evaziga sodir bo'lganligini, qancha asosiy vosita sotib olinganligini, ularning qanchasi ishga tushirilganligi va qanday yo'llar bilan kamayganligini (sotilganligi va hisobdan chiqarilganligi) bilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu hisobot asosida asosiy vositalarning qancha qismi eskirganligi, uning yaroqlilik darajasi va qancha qismi aktiv va passiv qismlardan iborat ekanligi to'g'risida ham xulosa chiqarishi mumkin.

4-shakl – «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»dan korxona pul mablag'larining turlari bo'yicha hisobot davridagi kirimi va chiqimi to'g'risida ma'lumotlarni olish mumkin. Bunda pul oqimlari barcha faoliyat turlari bo'yicha alohida ko'rsatiladi. Shuningdek, korxonaning valuta mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlar ham ushbu hisobotda o'z aksini topgan.

5-shakl – «O'z mablag'lari (kapitali) to'g'risida hisobot»da korxona mablag'lari, ularning tarkibi, harakati, hisobot davridagi o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar ifodalanadi.

Hozirgi paytda moliyaviy hisobotlarning eng muhimlaridan biri «Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risidagi ma'lumotnoma» – 2a-shakldir. Bu hisobotda davlatimiz ichidagi va tashqarisidagi korxonalarning ushbu qarzlar bo'yicha ma'lumotlari o'z ifodasini topgan. Har biri bo'yicha muddati o'tgan debitorlar va kreditorlar ham ushbu hisobotda ko'rsatilgan. Ushbu hisobot bugungi kun talabidan kelib chiqqan hujjatdir. Chunki millionlab pul mablag'i muddati o'tgan debitor va kreditor bo'lib, oborotdan chetlashtirilgan. Bu esa korxonaning ham, davlatimizning ham iqtisodiy qudratini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu tufayli ushbu ma'lumotlarga korxona rahbarlari alohida ahamiyat berishlari va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishlari lozim.

Yaqinda joriy qilingan «Moliyaviy-iqtisodiy holat to'g'risidagi ma'lumotnoma»da quyidagilar: korxona xo'jalik mablag'larida davlat mablag'larining hissasi; xodimlar soni; ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti; ishlab chiqarishga jalb qilingan xomashyoning chetdan keltirilgan va mahalliy manbalari bo'yicha ulushi; eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmi kabi axborotlar o'z aksini topgan.

Ushbu moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan oqilona foydalana bilish katta samaralar keltiradi.

Axborotlar shunchaki axborotlar uchun emas, balki ulardan to'g'ri foydalanib, korxonaning ahvolini o'rganib tegishli xulosa chiqarish va shu asosda uning samaradorligini oshirish maqsadida maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun qo'llanilishi lozim.

15.3. Buxgalteriya balansi: turlari, tarkibi, tavsifi

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning asosiy qismlaridan biridir. Shuning uchun korxona rahbari uni iqtisodiy jihatdan o'qiy olishi, har bir moddasida ifoda etilgan ma'lumotlar asosida korxonasi ahvolini ko'ra bilishi,

mablag'lar qayerdan kelib tushdi, ular qayerga joylashtirildi, samarali ishlash uchun shu mablag'lar yetarlimi degan savollarga javob topa olishi lozim. Shu savollarga javob berish uchun korxona rahbari balans to'g'risida to'liq tushunchaga ega bo'lishi kerak. «Balans» atamasi lotincha *bis* ikki marta, *banx* – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, ikkala palla degan ma'noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansining har xil turlari mavjud bo'lib, ular quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi: tuzilish vaqti, axborot hajmi, mulkchilik shakli, aks ettirish obyekti, tozalash usuli.

Tuzilish vaqtiga ko'ra buxgalteriya balanslari: kirish, joriy, tugatish, bo'lish va birlashtirish balanslari bo'lishi mumkin.

Kirish balansi korxonaning paydo bo'lish vaqtida tuziladi. Unda korxona o'z faoliyatini boshlayotgan paytdagi boyliklar summasini belgilaydi.

Joriy balanslar korxona faoliyatini ifoda etib, qonunda belgilangan muddatda mavjud vaqt mobaynida tuzilib turiladi.

Tugatish balanslari korxona tugatilganda tuziladi.

Bo'lish balanslari yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo'linish vaqtida yoki shu korxonaning bir yoki bir necha tarkibiy bo'linmasining boshqa korxonaga berilishi vaqtida tuziladi. Shuning uchun bu balans ba'zida berish balansi ham deyiladi.

Birlashtirish balansi bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda (qo'shilganda) tuziladi.

Axborot hajmi bo'yicha balanslar bir martalik va yig'ma balanslarga bo'linadi. Bir martalik balans faqat bitta korxona bo'yicha joriy hisob asosida tuziladi.

Yig'ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliklar, firmalar, aksiyadorlik jamiyatlari va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi.

Mulkchilik shakllariga ko'ra davlat, korporativ, xususiy, aralash va qo'shma korxonalar, shuningdek, jamoat tashkilotlari balanslariga bo'linadi.

Aks ettirish obyektiga ko'ra balanslar mustaqil va alohida balansga ajratiladi. Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo'lgan korxonalar tuzadi. Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, sexlar, korxonaning avtotransport va turar joy-kommunal xo'jaliklari va shu kabilar) tuzadi.

Tozalash usuliga ko'ra – balanslar balans-brutto va balans-nettoga ajratiladi.

Balans-brutto – tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir. Asosiy vositalarning haqiqiy qiymatini (tannarxi yoki qoldiq qiymatini) aniqlashda qilinadigan summalar, boshqa moddalar miqdoridagi summalardan chegiriladigan moddalar tartibga soluvchi moddalar deyiladi. Masalan, asosiy vositalar qoldiq qiymatini aniqlash uchun «Asosiy vositalar» summasidan «Asosiy vositalarning eskirishi» summasi chegiriladi. Balans-bruttoda tartibga soluvchi moddalar summasi balans yakuni qiymatiga kiritiladi.

Balans-nettoda – balansning umumiy qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegiriladi. Bu jarayon balansni «tozalash« deyiladi. O'zbekistondagi barcha korxonalar hozirgi paytda balans-netto tuzmoqda, ya'ni balans yakuniga: asosiy vositalar, arzon va tez eskiruvchan buyumlar qoldiq qiymati, qayta sotiladigan tovarlar esa tannarxi bo'yicha kiritilmoqda. Buxgalteriya balansiga qo'yiladigan asosiy talablar: to'g'rilik, reallik, yaxlitlik, izchillik va tushunarlilikdir.

Balansning to'g'riligi uning tuzish jarayonida asos qilib olingan hujjatlarning to'laligi va sifati bilan ta'minlanadi. Agar hisobot davrida xo'jalik faoliyatining barcha faktlari o'z vaqtida hujjatli rasmiylashtirilmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa, unda balans korxona ishining huquqiy yakunini aks ettirmaydi. Buxgalteriya balansining har bir moddasi hujjatlar, buxgalteriya hisobi raqamlaridagi yozuvlar, buxgalteriya hisob-kitoblari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Buxgalteriya balansi ma'lumotlarini qasddan buzish niqoblash deyiladi. Balansni niqoblash qonunlarining buzilganligini yashirish yoki korxona faoliyatining ayrim tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida tuzilgan balans bo'lib hisoblanadi. Buni ayrim hollarda amaldagi qoidalardan bexabarlik oqibatida bilmasdan qilishi ham mumkin.

Balans realligi moddalar bahosining obyektiv voqelikka muvofiq kelishini anglatadi. Balansning «to'g'riligi» va «realligi» tushunchalarini bir-biriga aralashtirmaslik kerak. Balans to'g'ri, ammo noreal bo'lishi mumkin. Ya'ni, balans ma'lumotlari hujjatlar asosida tuzilgan bo'ladi va haqiqatda mavjud mablag'larni ko'rsatadi, ammo uning ayrim moddalari real holatni, masalan, asosiy vositalar – ma'naviy eskirganlikni, debitorlik qarzlarini talab qilib olib bo'lmasligini, uning qancha qismi umidsiz debitor ekanligini ifodalovchi vaziyatlarni ko'rsatmaydi.

Balans birligi balansni yagona hisobga olish va baholash tamoyillari bo'yicha tuzilishini, ya'ni korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalarida va tarmoqlarida buxgalteriya hisobi hisob raqam (schyot)larining yagona nomenklaturasi ularning bir xildagi mazmuni, ikki yoqlama buxgalteriya yozivuning amalga oshishi va shu kabilar qo'llanilishini anglatadi.

O'zbekistonda ***balansning yaxlitligiga*** erishilgan. Chunki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 1997-yil 15-yanvarda tasdiqlangan qaroriga asosan buxgalteriya balansining yagona shakli qabul qilingan, buxgalteriya schyotlarining 2002-yildan boshlab yagona rejasi qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Moliyaviy hisobotning barcha shakllari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida buxgalteriya hisobi va hisoboti uslubiyati va ularni tashkil etish boshqarmasi ishlab chiqqan «Korxonalarda choraklik va yillik moliyaviy hisoboti shakllarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar» asosida tuziladi.

Balans davomiyligi har bir keyingi balans oldingi balansdan kelib chiqishi tamoyiliga asoslanadi. Masalan, oldingi yil yakuniy balansi (yil oxiridagi ma'lumotlar) hisobot yili balansida yil boshidagi ma'lumotlar sifatida ifodalanadi. Chunki hisobot yili oldingi o'tgan yilning davomi hisoblanadi.

Balans aniqligi – balansni tuzuvchilar va uni o'qiydigan hamda tahlil qiladigan kishilarning tushunishi uchun qulayligidir. Balansni aniq va tushunarli qilish uchun moddalar rekvizitlari va nomlari ikki tilda (o'zbek va rus tilida) bayon qilingan, uning shakli ancha soddalashtirilgan. Buxgalteriya balansi ikki *qism* ***aktiv*** *va* ***passivdan*** iborat bo'ladi.

Uning ***aktiv qismida*** korxona sarmoyasining tarkibi va joylashtirilishi, ***passivida*** – aktivlarni tashkil etish manbalari, ya'ni o'z sarmoyasi va *majburiyatlari, boshqa korxona* yoki *jismoniy* shaxslarning vaqtincha jalb qilingan mablag'lari ko'rsatiladi. Shunday qilib, buxgalteriya balansi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Korxona egalik qiladigan vositalarni aks ettiruvchi aktivlar.
2. Korxona tasarrufidagi o'z mablag'lari.
3. Keyinchalik qaytarilishi lozim bo'lgan aktivlarni sotib olish, hosil qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar.

Buxgalteriya balansida korxona aktivlari ikki guruhda: ***uzoq muddatli*** va ***aylanma aktivlarda*** aks ettiriladi.

Uzoq muddatli aktivlarga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, sarmoya qo'yilmalari, sotib olingan aksiyalar va zayomlar kiritiladi. Korxonaning ishlashi bilan bu vositalar o'z *qiymatini o'zgartirmaydi*. Masalan, asosiy vositalar qiymati qisqa vaqt mobaynida miqdor jihatidan o'zgarmaydi.

Joriy aktivlar naqd pul mablag'larni, iste'molchilar hisobvaraqlarini va naqd pul mablag'lari *shaklini egallashi lozim* bo'lgan zaxiralarni o'z ichiga oladi. Joriy xo'jalik davri mobaynida bu aktivlar doimo o'zgarishi mumkin. Naqd pul mablag'lariga aylantirilishi oson bo'lgan joriy aktivlar va oson *realizatsiya qilinadigan aktivlar* kiritiladi.

Korxona balansi aktivlarini o'rganishda quyidagilarni aniqlash mumkin:

* balansni tuzish kunida korxonada bo'lgan vositalarni (asosiy vositalar, tovar zaxiralari, pul mablag'lari va hokazolar);
* ularning joylanishini (asosiy vositalarda, kapital qurilishda, debitorlik qarzida va hokazolarda);
* ularning xo'jalikdagi asosiy rolini (aylanma, asosiy yoki jalb etilgan mablag'lar).

Balans passivi ma'lumotlari asosida quyidagilarni *bilib olish mumkin*:

* mablag' qaysi manbadan kelib turganligini;
* mablag'lar kimga tegishli (o'zinikimi yoki jalb qilinganmi) ekanligini;
* mablag'larning belgilangan *maqsadi qanday ekanligini* (uzoq muddatli yoki qisqa muddatli qo'yilmalar).

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997-yil 15-yanvardagi «Korxona (tashkilot) *yillik va yil* choragi moliyaviy hisobotlarining shakllari hamda hajmini tasdiqlash to'g'risida»gi 5-sonli buyrug'iga muvofiq 1997-yil 1-yanvardan boshlab choraklik hisobotining yangi shakllari joriy etildi. Balans *aktivi* va passivida barcha balans moddalari ikkita yirik bo'limga guruhlangan (15.1-jadval).

15.1-jadval

Buxgalteriya balansi chizmasi (ming so'm)

AKTIV				PASSIV			
Balans bo'limi va moddalari soni	**Satr raqami**	**Yil boshida**	**Yil oxirida**	**Balans bo'limi va moddalari soni**	**Satr raqami**	**Yil boshida**	**Yil oxirida**
1. Uzoq muddatli aktivlar				**1. O'z mablag'lari manbalari**			
Asosiy vositalar	010–012	9065	9739	Ustav, qo'shilgan va zaxira sarmoya	320–380	294	548
Nomoddiy aktivlar	020–022	–	–	Taqsimlanmagan foyda	350	1362	3459
Sarmoya qo'yilmalar	030	3923	3175	Maqsadli tushumlar va fondlar, bo'lajak xarajatlar zaxiralari	360–380	294	548
Sotib olingan aksiyalar va zayomlar, uzoq muddatli investitsiyalar	040–100	39	37				
1-bo'lim bo'yicha jami	110	13027	12971	1-bo'lim bo'yicha jami	390	19882	21703
1. Aylanma aktivlar				**2. Majburiyatlar**			
Zaxiralar va sarflar	120–160	11520	12631	Uzoq muddatli qarzlar va kreditlar	400–410	95	
Pul mablag'lari	170–190	351	304	Qisqa muddatli qarzlar va kreditlar	420–430		97
Qisqa muddatli qo'yilmalar va qayta sotib olingan o'z aksiyalari	200–210	2249	3631	Kreditorlar	440–530	7170	7737
2-bo'lim bo'yicha jami	300	14120	16566	2-bo'lim bo'yicha jami	540	7265	7834
BALANS	310	27147	29537	BALANS	550	27147	29537

Balans aktivida mablag'lar quyidagi bo'limlar bo'yicha tasdiqlangan:

1-bo'lim. Uzoq muddatli aktivlar;

2-bo'lim. Aylanma aktivlar.

Balans passivida ham mablag'lari ikki bo'limga bo'linadi;

1-bo'lim. O'z mablag'lari manbalari;

2-bo'lim. Majburiyatlar.

Balans aktivining 1-bo'limi «Uzoq muddatli aktivlar»da uzoq foydalaniladigan aktivlar (moddiy-ashyoviy vositalar, qimmatli qog'ozlar, uzoq muddatli investitsiyalar) aks ettiriladi. Balansda ular quyidagi moddalar bo'yicha guruhlangan:

Asosiy vositalarga uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) shaklini o'zgartirmagan holda ishlatiladigan, o'z qiymatini qisman yo'qotadigan moddiy-ashyoviy boyliklar kiradi. Balansda ular dastlabki qiymati bo'yicha, eskirishi va qoldiq qiymati bo'yicha ham ko'rsatiladi.

Nomoddiy aktivlarga yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan binolar, inshootlar, aqliy intelektual mulk, tovar zaxiralari, ixtirolar, «nau-xau» va boshqalardan foydalanishga doir mulkiy huquqlar kiradi. Balansda ularning dastlabki va qoldiq qiymati eskirish summasi va qoldiq qiymati aks ettiriladi.

Sarmoya qo'yilmalariga xo'jalik yoki pudrat usulida amalga oshirilayotgan tugallanmagan qurilish qiymati, shuningdek, geologik-qidiruv ishlariga va korxonalarga ana shu maqsadda berilgan mablag'lar summasi kiradi.

Uzoq muddatli investitsiyalarga korxonalarning boshqa korxona ustav fondiga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan omonatlari kiradi. Bundan tashqari, bu bo'limda sotib olingan aksiyalar, boshqa korxonalarga berilgan qarzlar alohida moddalar bilan ko'rsatiladi. Balans aktivining 2-bo'limi «Aylanma aktivlar» deb ataladi. Bu aylanma mablag'larning 3 guruhiga ajratish mumkin bo'lgan barcha summasidir.

1. Zaxiralar va sarflar – ishlab chiqarshi zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, qayta sotiladigan tovarlar, davr xarajatlari.

2. Pul mablag'lari – kassadagi, valuta mablag'lari, qisqa muddatli qo'yilmalar, qayta sotib olingan o'z aksiyalari.

3. Debitorlar – xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, uyushgan korxonalar bilan hisob-kitoblar, ta'sischilar va boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.

Balans passivi ham ikki bo'limdan iborat bo'ladi:

1. O'z mablag'lari.

2. Majburiyatlar.

Balans passivining birinchi bo'limida o'z mablag'lari aks ettirilib, ular quyidagi moddalar bo'yicha guruhlangan:

* ustav sarmoyasi;
* qo'shilgan sarmoya;
* zaxira sarmoya;
* taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar);

* maqsadli tushumlar va fondlar;
* kelgusi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari;
* kelgusi davr daromadlari.

Oxirgi ikkita modda oldingi yillar balansida qisqa muddatli majburiyatlar sifatida 2-bo'limida ko'rsatiladi. Aslida esa bu mab-lag'lar o'z mablag'lariga kiritilishi kerak.

Ustav sarmoyasi, odatda, uning ta'sischilari qo'shgan badallari evaziga tashkil bo'ladi. Uning ko'payishi xo'jalik faoliyati davomida oladigan foyda evaziga amalga oshadi. Zarur hollarda ta'sischilarning maqsadli badallari evaziga ham ko'payishi mumkin. Ustav sarmoyasiga badal sharoitida asosiy vositalarni (bino, inshootlar, jihozlar, qurilmalar) va boshqa moddiy ne'matlarni hamda nomoddiy aktivlarni (yer, suv va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish huquqi, nau-xau, tovar belgilari kaiblar)ni qo'shish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ustav kapitalining miqdori ta'sis hujjatida qayd etilgan hajmidan oshib ketmasligi lozim.

Qo'shilgan sarmoya (kapital) — bu aksiyaning birinchi marta nominal qiymatidan ortiqcha sotish evaziga olingan emission daromaddir. Zaxira sarmoyasi korxona ustaviga asosan foyda hisobidan tashkil qilingan zaxiralardan, inflyasiya zaxiralaridan mulkni qayta baholash uchun qayta tashkil qilingan, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulklardan iborat bo'ladi.

Zaxira sarmoyasi miqdori ta'sischilar tomonidan belgilangan ustav sarmoyasining 25 foizigacha miqdorda tashkil qilinishi mumkin. Zaxira sarmoyasini kelgusi xarajatlar va to'lovlar zaxirasi bilan aralashtirmaslik va almashtirmaslik lozim. Bu zaxira korxona ustavi va qonun asosida tashkil qilinadi. Ushbu zaxira xarajatlar va to'lovlarga bir xil miqdorda qo'shib berish uchun to'planadi. Masalan, xodimlar ta'tili uchun to'plangan mablag', uzoq ishlaganligi uchun to'lanadigan rag'batlantirishga mo'ljallangan mablag', mavsumiy xarajatlar uchun to'lanadigan mablag', asosiy vositalarni ta'mirlash uchun ajratilgan xarajatlar va hokazo.

Taqsimlanmagan foyda korxonaning o'tgan va hisobot yilida taqsimlanmagan foydaning ma'lum bir muddatga qoldig'ini ifodalaydi.

Maqsadli tushumlar va jamg'armalar — bevosita biror maqsadli tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan mablag'larni o'z ichiga oladi. Bularga: bolalar bog'chalari, yashash va boshqa binolar qurish, ilmiy-tadqiqot ishlarini ta'minlash kabi tadbirlarga mo'ljallangan mablag'lar kiradi. Kelgusi davr daromadlari kelgusi davr uchun shu joriy yilda olingan daromadlardir. Bunga: kamomadlar bo'yicha kelgusida to'planadigan tushumlar, aybdor shaxslardan kamomad chiqqan ne'matlarning balans qiymati miqdorida undirib olingan mablag'lar kabilar kiradi.

Balansning passiv tomonidagi ikkinchi bo'limida huquqiy va jismoniy shaxslardan olingan va ma'lum muddatdan keyin qaytarilishi shart bo'lgan majburiyatlar jamlangan. Bu majburiyatlar qisqa va uzoq muddatli kreditlar hamda zayomlardan va turli kreditor qarzlardan iborat bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli majburiyatlarga to'lanish muddati bir yildan ortiq, qisqa muddatlilarga bir yildan kam bo'lgan qarzlar kiradi.

Buxgalteriya balansida uzoq muddatli majburiyatlar ikkita moddada ko'rsatiladi: «Uzoq muddatli zayomlar» va «Uzoq muddatli kreditlar».

«Uzoq muddatli zayomlar» moddasida banklardan boshqa korxona va tashkilotlardan olingan muddati bir yildan ortiq bo'lgan qarzlar kiradi.

«Uzoq muddatli kreditlar»ga bir yildan ortiq bo'lgan muddatga banklardan olingan qarzlar kiradi.

«Qisqa muddatli kreditlar» moddasida banklardan bir yilgacha olingan qarzlar ko'rsatiladi. Ushbu moddada banklarning ushbu korxona xodimlariga uy-joy qurilishi uchun bergan krediti hamda tovarlarni kreditga sotib olganda uning qoldiq miqdori ko'rsatiladi. Qisqa muddatli qarzlarga «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar (hisob raqamiga tushganlar)» hamda «Kreditorlar» guruhiga kiruvchi balans moddalari kiradi.

«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar (hisob raqamiga tushganlari)» moddasida boshqa tashkilotlardan kelgusi davr hisob-kitoblari uchun olingan summalari ko'rsatiladi. Ayniqsa, hozir barcha to'lovlar oldin amalga oshirilmoqda. Bu esa ushbu moddada pul bo'lib turishiga asos bo'ladi.

«Kreditorlar» guruhida turli tashkilot va korxonalardan, budjet, sug'urta, tovar jo'natuvchilar va pudratchilardan qarzlar, ishchi va xizmatchilar ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar kabi kreditlar ko'rsatiladi.Ko'rinib turibdiki, buxgalteriya balansida korxonaning muayyan sanadagi (yil boshi va oxiri) xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari aks ettirilgan.

15.4. Buxgalteriya balansi moddalarining bir-biri bilan bog'liqligi

Korxona mablag'lari va ularning manbalari buxgalteriya balansida muayyan sana bilan (chorak boshi yoki oxiri, yil) ko'rsatiladi.

Balansda aktiv moddalari ko'rsatkichlari passiv moddalari ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular teng bo'lishi shart. Bunday o'zaro bog'liqlikni shartli ravishda «Turon» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati (*OTAJ*) moliyaviy hisoboti misolida ko'rib chiqaylik (15.2-jadval).

Mazkur korxonaning balansi yil boshida 27147 ming so'm, yil oxirida esa 29537 ming so'mni tashkil etgan. Shu tariqa, mazkur *OTAJ* yil oxiriga kelib 29537 ming so'mlik xo'jalik mablag'lariga ega bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Bu mablag'lar quyidagi tartibda taqsimlangan: uzoq muddatli aktivlar, ya'ni asosiy vositalarda, tugallanmagan kapital qurilishda va uzoq muddatli investitsiyalarda – 12971 ming so'm, oborot aktivlarda – 16566 ming so'm. Bu mablag'lar o'z mablag'lari hisobidan – 21703 ming so'm va korxona majburiyatlari hisobidan – 7834 ming so'm (16566 – 8732 = 7834) miqdorida qoplanadi. O'z mablag'lari quyidagi tarzda taqsimlanadi: uzoq muddatli aktivlar – 12971 ming so'm, oborot

15.2-jadval

«Turon» OTAJning hisobot yilidagi qisqartirilgan buxgalteriya balansi (ming so'm)

Akti				Passiv			
Aktiv	**Satr raqami**	**Yil boshida**	**Yil oxirida**	**Passiv**	**Satr raqami**	**Yil boshida**	**Yil oxirida**
1. Uzoq muddatli aktivlar				**1. O'z mablag'lari manbalari**			
Asosiy vositalar				Ustav sarmoyasi	320	13211	13211
birlamchi qiymati	010	14104	15247	Qo'shilgan sarmoya	330	–	129
bo'yicha eskirish qoldiq	011	5039	5508	Rezerv sarmoyasi	340	5015	4356
qiymati bo'yicha	012	9065	9739	Taqsimlanmagan foyda	350	1362	3459
Kapital qo'yilmalar	030	3923	3175	maqsadli tushumlar vafondlar	360	294	74
Uzoq muddatli investitsiya	080	39	57	Kelajak davr chiqimlari	380	–	474
Jami bo'lim bo'yicha	010	13027	12971	Jami bo'lim bo'yicha	390	19882	21703
2. Oborot aktivlari	**120**			**2. Majburiyatlar**	**400**	**95**	–
Ishlab chiqarish zaxiralari	120	8925	7588	Uzoq muddatli qarzlar	400	95	–
				Qisqa muddatli qarzlar	430		97
Tugallanmagan ishlab chiqarish	130	909	966	Xaridorlar va buyurtmachi -			
Tayyor mahsulot	140	1611	4089	lardan olingan bo'naklar	440	1241	1723
Qayta sotish uchun tovarlar	150	75	8				
Pul mablag'lari	170	42	151				
Valuta mablag'lari	180	309	140				
Kassadagi pul mablag'lari	190	–	13				

15.2-jadvalning davomi

Debitor xaridorlar va buyurtmachilar bilan	220	1224	2123	Kreditorlar	450	2244	2511
hisob-kitoblar	240	51	42	Yetkazib beruvchilar budjet bo'yicha qarzdorlik	460	3342	2685
budjet bilan hisob-	250	–	1	Ish haqi bo'yichaq arzdorlik	470	124	160
kitoblar	260	947	1465	Ijtimoiy sug'urta va ta'minot			
xodimlar bilan hisob-				bo'yicha qarzdorlik	480	78	60
kitoblar				boshqa kreditorlar	530	141	598
boshqa debitorlar							
Jami bo'lim bo'yicha	**300**	**14120**	**16566**	**Jami bo'lim bo'yicha**	**540**	**7265**	**7834**
Jami aktivlar bo'yicha	**310**	**27147**	**29537**	**Jami passiv bo'yicha**	**550**	**27147**	**29537**

mablag'lari – 8732 ming so'm (21703 – 12971 = 8732). Oborot mablag'larining qolgan summasi, ya'ni 7834 ming so'm jalb qilingan mablag'lar hisobiga qoplanadi. Shu tariqa o'z mablag'larining oborotdagi ulushi 52,7 *foizni tashkil etadi:*

$$\frac{(8732x100)}{16566}$$

Buxgalteriya balansining umumiy ichki o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqamiz:

* Balans aktivi barcha bo'limlarining yig'indisi uning passiv qismidagi barcha bo'limlar yig'indisiga teng:

$$R1A + R2A = R1P + R2P.$$

Korxona mablag'larining bitta summasi ikki bo'limda: tarkibi va joylashishi, shuningdek, vujudga kelish manbalari bo'yicha taqdim etiladi. Tarkibi bo'yicha – korxonaning mablag'lari: asosiy vositalar, tovar zaxiralari, *pul mablag'lari va hokazolardan iboratdir. Vositalarning tarkibi mablag'larning* qayerda (asosiy yoki oborot mablag'larda, kassada, hisob-kitob schyotida va hokazo) joylashganligini ko'rsatadi.

Mablag'larning har bir summasi (asosiy vositalar, tovar zaxiralari, naqd pul) shakllanish manbasiga ega bo'ladi (ushbu korxona ta'sischilarining o'z mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslardan qarzga olingan mablag', bank kreditlari).

* O'z mablag'lari summasi, odatda, uzoq muddatli aktivlar summasidan ortiq bo'lishi kerak:

$$R1P > R1A$$

Korxonaning o'z mablag'lari asosiy vositalarni xarid qilish va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar uchun sarflanadi. Qolgan qismi hisobiga esa oborot mablag'lari (ishlab chiqarish zaxiralari, pul mablag'lari va hokazo) *qoplanadi. Agar o'z mablag'lari uzoq muddatli aktivlardan kam bo'lsa, bu* korxona oborotdan tashqari aktivlarni qoplash uchun qarz mablag'laridan foydalanganligini bildiradi. Bozor munosabatlari sharoitida bu holat qoniqarsiz *ahvol sanaladi. Bunday holda korxona to'lovga noqobil hisoblanadi.*

* Oborot aktivlari, ya'ni tovar zaxiralari, xarajatlar, pul mablag'lari, hisob-kitoblar umumiy summasi qarzlar umumiy summasidan ortiq bo'lishi lozim:

$$R2A > R2P$$

Oborot mablag'larining katta qismi, odatda, qarz mablag'lari emas, o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi. Agar majburiyatlar summasi (R2P) oborot aktivlaridan ortiq bo'lsa, bu oborot mablag'larining butun summasi qarz *mablag'lari hisobiga shakllanishidan dalolat beradi. Bozor munosabatlari* sharoitida bunday korxona to'lovga noqobil va iqtisodiy jihatdan nochor hisoblanadi.

* Uzoq muddatli majburiyatlar uzoq muddatli aktivlardan oshib ketmasligi darkor:

UMM < RIA

Bu uzoq muddatli aktivlar, birinchi navbatda, o'z mablag'lari hisobiga shakllanishi bilan izohlanadi. Uzoq muddatli kreditlar va qarzlardan asosiy vositalar, kapital va uzoq muddatli qo'yilmalarni investitsiyalash uchun qo'llaniladi. Ular shuningdek, oborot aktivlarida (tovar zaxiralarini xarid qilish, pul mablag'larini tashkil etish va hokazoda) ham foydalanilishi mumkin.

* O'z oborot mablag'lari (O'OM) o'z mablag'lar manbalaridan (RIP) kam bo'lishi kerak. Chunki o'z oborot mablag'lari korxona o'z mablag'larining bir qismi hisoblanadi.

O'OM < RIP

Oborot aktivlari oborotdagi shaxsiy mablag'lar qo'shuv qisqa muddatli kreditlar va qarzlar, shuningdek, qo'shuv oborot mab-lag'larini to'ldirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar va qarzlarga teng bo'lishi kerak.

Aktiv va passiv bo'limlari o'rtasidagi o'zaro munosabatni «Turon» OTAJ balansi bo'yicha kuzatish mumkin.

Mazkur korxonada tahlil qilinayotgan davr oxirida xo'jalik mablag'lari 29537 ming so'mni tashkil etgan. Ular quyidagilar hisobiga tashkil etilgan:

1. O'z mablag'lari – 21703 ming so'm.

2. Jalb qilingan mablag'lar (qisqa muddatli qarzdorlik) – 7834 ming so'm.

O'z mablag'larining 12971 ming so'mi uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Qolgan qismi esa (8732 ming so'm) o'z oborot mablag'larini tashkil etadi. Qisqa muddatli qarzdorlik (7834 ming so'm) oborot aktivlarini to'ldirish uchun to'liq foydalanilgan. Shu tariqa, oborot aktivlarining 8732 ming so'mi o'z mablag'lari qolgan qismi 7834 ming so'mi qisqa muddatli qarzlar hisobidan qoplangan.

Aktiv moddalarining o'zaro bog'liqligi buxgalteriya balansi moddalari bir qancha o'zgarishlarni talab qiladi.

Amaliyotda bunday o'zgarishlarning to'rt turi kuzatiladi.

1. Faqat balansning aktiv qismidagi summalarning o'zgarishi. Masalan, hisob-kitob schyotida mablag' kamaydi. Kassada esa shu summaga mablag' ko'payadi. Biroq o'zgarishlar teng bo'lganligi sababli, balans yakuni o'zgarmaydi.

2. Balansning passiv qismidagi summalarning o'zgarishi. Foydaning bir qismini biror fondga qo'shish bunga misol bo'lishi mumkin. Bu holda foydalanilmagan fond summasi ko'payadi. Passiv yakuni ham o'zgarmaydi. Chunki o'zgarishlar o'zaro tengdir.

3. Balans aktivi va passivi summalarini bir maromda ko'paytirish. Masalan, yetkazib beruvchilardan materiallar keldi, deylik. Buning natijasida «Materiallar» aktiv moddasi ko'payadi. Xuddi shu summa hisobidan yetkazib

beruvchilarga qarz (passiv moddasi) ham ko'payadi. Ya'ni balansning ikkala qismi ham (aktiv va passiv) bir xil miqdorda ko'payadi.

4. Balansning aktiv va passiv moddalarini bir maromda kamaytirish. Masalan, hisob-kitob schyotidan yetkazib beruvchiga materiallar uchun mablag' to'landi. Natijada, «Hisob-kitob schyoti» aktiv moddasi kamayadi va xuddi shu summaga yetkazib beruvchiga qarzdorlik (passiv moddasi) ham kamayadi. Ya'ni balansning ikkila qismi bir xil kamayadi.

15.5. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'liqlik

Buxgalteriya balansi moddalari moliyaviy hisobotning muayyan shakllari ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liqdir. Zero, 2-son «Moliyaviy natijalar haqidagi hisobot» shaklida korxona tomonidan bir yilda olingan foyda hisob-kitobi beriladi. Foydaning barcha 5 turi bo'yicha hisob-kitob keltiriladi. Bu shakl ma'lumotnomasida esa budjetga barcha to'lovlar ko'rsatiladi.

Buxgalteriya balansining passiv qismi 1-bo'limi «O'z mablag'lari manbalari»da taqsimlanmagan foyda summasi ko'rsatiladi. Aktivning 2-bo'limida debitorlik qarzdorligida turlari bo'yicha summa beriladi. OTAJning debitorlik qarzdorligi yil oxirida 3644 ming so'mni tashkil etdi. U bir yilda 1396 ming so'mga oshgan. Balans passivining 2-«Majburiyatlar» bo'limida bir yilda muddati o'zaytirilgan debitorlik va kreditorlik qarzdorligi 85 ming so'mga ko'paygan va 6014 ming so'mni tashkil etgan kreditorlik qarzdorligi qayd etilgan.

Nazorat qilish uchun moliyaviy hisobotda maxsus «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma» bor. Unda debitorlik va kreditorlik qarzdorligining vujudga kelishi aks ettiriladi. Ya'ni, ular qanday korxonalar bo'yicha tashkil etilganligi va summasi ko'rsatiladi. Misolda butun summada muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi 2383 ming so'm yoki butun qarzdorlarning 65,4 foizini, kreditorlik qarzdorligi 4033 ming so'm yoki 67,1 foizini tashkil etgan. Bunday holat qoniqarsizdir, chunki katta mablag'lar muzlatilgan bo'lib, ulardan xo'jalik faoliyatida foydalanilishi mumkin emas.

Balans aktivining 1-bo'limida asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlar: ularning boshlang'ich qiymati, eskirishi va qoldiq qiymati mavjud. 3-shakl «Asosiy vositalar harakati haqida hisobot»da asosiy vositalar turlari, ularning harakati hamda boshlang'ich qiymati bo'yicha davr boshi va oxiridagi qoldiqlari (ularning eskirishi va qoldiq qiymati) haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkichlar asosiy vosita holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun juda muhimdir.

4-shakl «Pul oqimlari haqidagi hisobot»da pul mablag'larining barcha turlari — xo'jalik faoliyati, dividendlar, soliqqa tortish, investitsiyalar va boshqalar haqidagi axborotlar ko'rsatiladi. 4-shakl buxgalteriya balansi bilan o'zaro bog'liq. Buxgalteriya balansining 170, 180 va 190-satrlar bo'yicha qoldiq pul mablag'lari 4-shaklda 070 va 080-satrlardagi pul mablag'lari

qoldiqlariga tengdir. «Valuta mablag'lari harakati haqidagi ma'lumotnoma»da (090 va 120-satrlar) valuta mablag'lari qoldig'i ko'rsatiladi. Bu buxgalteriya balansida 180-satr bo'yicha ko'rsatiladi.

5-shakl «O'z sarmoyasi haqidagi hisobot»da ustav sarmoyasi, qo'shilgan ustav sarmoyasi, rezerv sarmoyasi, taqsimlanmagan foyda harakati haqidagi ma'lumotlar beriladi. Balans passivining 1-bo'limi «O'z mablag'lari manbalari»da ularning yil boshi va oxiridagi ahvoli ko'rsatilgan. Bunday shaklga asoslanib, korxonaning o'z sarmoyasi tashkil bo'lishi va harakati, shuningdek tuzilmasi tahlil qilinadi. Korxona moliyaviy holatini tahlil qilishda shu tarzda moliyaviy hisobotning barcha shakllaridan foydalanish zarur. Ular bir-birini to'ldirib boradi. Mazkur ma'lumotlar moliyaviy hisobotning shakllari o'rtasidagi oddiy bog'liqlikni ifodalash bilan cheklanmaydi. Ular korxonani boshqarish va ma'lumotlarni nazorat qilish uchun ham o'ta muhimdir.

15.6. Buxgalteriya balansini tahlilga tayyorlash va uning aniqligini tekshirish

Buxgalteriya balansini tahlilga tayyorlash uni tuzishning to'g'riligini va ayrim moddalarining aniqligini tekshirishni, balans ko'rsatkichlari bilan hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashni, uning ayrim ko'rsatkichlarini tartibga soluvchi summalardan «tozalashni» va yirikroq pul o'lchamidagi summalarni (million so'mlarda) yaxlitlashni nazarda tutadi.

Balans tuzilishi to'g'riligini tekshirishda arifmetik va moddiy tekshiruvlar amalga oshiriladi.

Arifmetik tekshiruv balans va aylanma qaydnoma (vedomost)lar, bosh daftardagi summalarni solishtirish, balans guruhlari va bo'limlari bo'yicha summalarni, aktiv va passiv yakunlari tengligini hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Moddiy tekshiruv moddiy boyliklar, pul mablag'lari haqiqiy qoldig'ini buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Tovar-moddiy boyliklarning barcha qoldig'i ularni natural shaklida haqiqiy mavjudligiga muvofiq kelishi kerak. Asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari qoldig'ini hisobot ma'lumotlarini yo'qlama (inventarizatsiya) dalolatnomalari bilan taqqoslab tekshirgan ma'qul.

Balansning aniq (real)ligi balans moddalarini to'g'ri baholashga bog'liq bo'ladi. Balansda xo'jalik mablag'larini baholash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-martdagi 164-son qarori bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobotlari va balanslari to'g'risidagi nizom asosida amlaga oshiriladi. Bu Nizomga ko'ra balansda ko'rsatilgan barcha moddiy boyliklar to'g'ri baholangan bo'lishi kerak, chunki noto'g'ri baholash xo'jalik faoliyatining haqiqiy natijasini buzib yuboradi. Noto'g'ri baholash qo'shib yozish, yashirish va boshqa noqonuniy harakatlar oqibatida yuzaga keladi.

Buxgalteriya hisoboti ma'shlumotlarining bog'lanishi balansda va boshqa hisobot jadvallarida aks ettiriladigan ayrim ko'rsatkichlar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Masalan, misol tariqasida ko'rib chiqilayotgan buxgalteriya balansida (1.2-jadvalga qarang), 1 bo'limning aktiv qismida «Uzoq muddatli aktivlar» ifodalanadi. Unda asosiy vositalar yil boshiga va oxiriga dastlabki qiymatida, ularning eskirish summasi va qoldiq qiymati bo'yicha ham ko'rsatilgan. 3-son hisobot jadvali «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»da asosiy vositalar turlarining yil boshidagi va oxiridagi rasshifrovkasi, ularning yil davomidagi o'zgarishi, shuningdek, eskirish summasi va qoldiq qiymati beriladi.

Buxgalteriya balansida asosiy vositalarning yil boshiga va oxirida *ko'rsatilgan qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlar (010, 011, 012 satrlar)* 3-son shakl ma'lumotlari (3, 6, 7, 10, 11, 12-katak (grafa)ning 130-satri)ga muvofiq kelishi kerak. Buxgalteriya balansining ma'lumotlari moliyaviy hisobotini boshqa shakllari bilan ham xuddi shu yo'sinda taqqoslanadi.

Moliyaviy ahvolni tahlil qilish uchun dastlab buxgalteriya balansi tahlilga tayyorlanishi kerak. Tahlilga tayyorgarlik balansni tozalash, raqamlarni yaxlitlash va bo'limlarni guruhlashdan boshlanadi.

O'zbekiston xalqaro andoza (standart)larga o'tishidan oldin hisobga olish va hisobot tizimida buxgalteriya balansi tartibga soluvchi (regulirovka qiluvchi) moddalar (asosiy vositalar eskirishi, arzon va tez eskiradigan buyumlar eskirishi, savdo ustamalari) bilan tuzilgan. Bunday balansning nomi balans-brutto bo'lgan. Buxgalteriya balansida raqamlar aniq bo'lishi uchun balansni tozalash, ya'ni tartibga soluvchi moddalar chiqarib tashlanishi va bir qator moddalarni guruhlash amlaga oshirilishi kerak. Bunday buxgalteriya balansi balans-netto, ya'ni tozalangan balans deb yuritiladi.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga ko'ra balans-netto baholashda tuziladi. Balans yakuni korxona tasarrufida bor bo'lgan mablag'lar summasining *chamalangan bahosini bildiradi. Biroq tahlil qulay bo'lishi uchun balansni* mavjud regulatorlardan tozalab, ayrim tarkibi bir xil bo'lgan moddalarning summalarini birlashtirish yo'li bilan to'ldirilgan tahliliy balans tuzilishi kerak. Tartibga soluvchi moddalarga asosiy vositalar eskirish, nomoddiy aktivlar eskirishi, arzon va tez eskiradigan buyumlar eskirishi, ishlatilgan foyda summasi, tovarlarga savdo ustamasi kiritiladi.

To'ldirilgan tahliliy balansni tuzishda hisobot yilida summalar aks ettirilmagan moddalar chiqarilishi, shuningdek, turli bo'limlar moddalari, masalan «Ta'sischilar bilan hisob-kitoblar» moddasi debitor (kreditor)lar va boshqalar bilan hisob-kitoblarni aks ettiruvchi moddalar bilan birlashtirilishi kerak. Namuna tariqasida oldingi 1.5-paragrafda to'ldirilgan balansni ko'rsatish mumkin. Uning moliyaviy holati shu balans asosida tahlil qilingan.

Ko'rinib turibdiki, buxgalteriya balansini tahlilga tayyorlash ham ma'lum darajada bilimni talab qiladigan iqtisodiy ishdir. Shu tufayli bu masalaga talabalarni o'qitish jarayonida, ayniqsa amaliy darslarda katta ahamiyat berilishi lozim.

16-Bob. KORXONA MOLIYAVIY HOLATINI UMUMLASHGAN TARZDA BAHOLASH VA TAHLIL QILISH YO'LLARI

16.1. Moliyaviy holatni tahlil qilishning vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy kategoriyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmunini bilish, ularni boshqara olish har bir rahbar va mutaxassislar uchun o'ta muhimdir.

Hozirgi sharoitda amaldagi eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri moliyadir. Moliyaga, odatda, pul aylanishi jarayonida pul zaxiralarining shakllanishi va ulardan foydalanishni ifodalovchi pul munosabatlari tizimidir, deb qaraladi.

Har qanday davlatda moliyaviy tizim amalda bo'lib, u o'zaro tarkibiy bog'langan ikki kichik tizimni: umumdavlat mablag'lari va xo'jalik yurituvchi subyektlari mablag'lari, ya'ni korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari va boshqalarning mablag'larini qamrab oladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mablag'lari uchta muhim vazifani bajaradi:

* pul zaxira (daromad)larini shakllantirish;
* bu zaxiralardan foydalanish;
* ularni shakllantirish va ishlatishni nazorat qilish.

Korxona moliyaviy resurslarini to'g'ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda, korxonaning moliyaviy ahvoli va resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanishi va tahlil qilinishi lozim bo'ladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli deganda moliyaviy resurslarning turlari bo'yicha mavjudligini, raqobatbardoshlik darajasini, davlat va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar kabi muhim jihatlar majmuasi tushuniladi.

Korxona moliyaviy ahvolini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bularga iqtisodiy va moliyaviy salohiyat, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlik mulkiy holat; likvidlilik; moliyaviy barqarorlik; moliyaviy natijalar; ish va bozor faolligi samaradorlik kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilishning asosiy vazifasi quyidagi kategoriya va ko'rsatkichlarni baholash hisoblanadi:

* buxgalteriya balansi va mulkiy holat ko'rsatkichlari tuzilmasi;
* iqtisodiy va moliyaviy salohiyat ahvoli, ta'minlanganlik va foydalanish samaradorligi;
* asosiy va aylanma mablag'lar ahvoli, ta'minlanganlik va foydalanish samaradorligi;
* iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik va mustahkamlik;
* likvidlilik va to'lov qobiliyati;

* xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari;
* ish va bozor faolligi;
* bankrotlik holati.

Bozor sharoitida har bir rahbar iqtisodiyotning asosiy jihatlari mohiyati va mazmunini, ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hamda boshqarishni yaxshi bilishi darkor.

Asosiy iqtisodiy jihatlarning biri mablag'lar oboroti jarayonida pul fondlari shakllanishi va sarflanishini ko'rsatuvchi pul munosabatlari tizimi bo'lmish moliya hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy holati turlar bo'yicha moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, raqobatbardoshlik darajasi, moliyaviy barqarorlik, davlat va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodirligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmuini o'z ichiga oladi. Aynan ushbu ko'rsatkichlar tahlil obyekti hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotni imzolashdan avval rahbar uning to'g'ri tuzilganligiga amin bo'libgina qolmay, bu hujjatlardan korxona moliyaviy holatini aniqlash maqsadida foydalanishi kerak.

Korxonaning moliyaviy holati dastlab moliyaviy hisobot bilan tashqi tanishib chiqish asosida so'ng buxgalteriya balansi moddalarini tahlil qilish asosida to'liq baholanishi mumkin.

16.2. Korxonaning moliyaviy holatini dastlabki baholash

Korxona rahbari dastlabki baholashdan kelib chiqib:

- xo'jalik mablag'lari umumiy summasi va uning yil davomida o'zgarganligi;
- o'z va qarz mablag'lar manbalari summasi, ularning yil davomida o'zgarganligi va o'zaro nisbati;
- o'z mablag'lari manbalari summasining oborotdan tashqari (uzoq muddatli) aktivlar summasiga nisbati;
- korxona majburiyatlari (qarzdorligi) summasining oborot aktivlari summasiga nisbati;
- zaxiralar va xarajatlarning yil davomida o'zgarishi;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjudligi hamda ularning yil davomida o'zgarishini aniqlashi mumkin.

Xo'jalik mablag'lari umumiy summasi buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida aniqlanadi. «Turon» OTAJ buyicha misolda (avvalgi bobdagi 1.2-jadvalga qarang) u 29537 ming so'mni tashkil etadi va yil davomida 2390 ming so'mga ko'paydi (29537 ming so'm – 27147 ming so'm). O'z (balans passivi 1-bo'limi yakuni) va qarz (balans passivi 2-bo'limi yakuni) mablag'lari xo'jalik mablag'lari manbalari bo'lishi mumkin. Tahlil qilinayotgan yil oxiriga kelib korxonaning o'z mablag'lari 21703 ming so'mni tashkil etdi hamda u yil davomida 18 ming so'mga (21703 ming so'm – 19882 ming so'm) oshdi.

Buxgalteriya balansidan ko'rinib turibdiki, mablag'larni tashkil etish manbalarining asosiy qismini aynan o'z mablag'lari tashkil etdi. Bu mazkur korxonaning moliyaviy barqaror ekanligini bildiradi.

O'z mablag'lari tarkibida 13211 ming so'mi ustav sarmoyasidir. Buning ulushi eng yuqori. Korxona rahbari buxgalteriya balansini tahlil qilganda, eng avvalo, ustav sarmoyasining o'tgan yilga nisbatan qancha o'zgarganligiga e'tibor qaratishi lozim.

O'z mablag'lari summasi, odatda, uzoq muddatli aktivlar (balans aktivi 1-bo'limi yakuni) va majburiyatlar (balans passivi 2-bo'lim yakuni) summasidan ortiq bo'lishi darkor. O'z mablag'larning uzoq, muddatli aktivlardan ortiq bo'lgan summasi majburiyatlarning bir qismini qoplashga yo'naltirilgan bo'ladi. «Turon» OTAJda yil oxirida o'z mablag'lari manbalari uzoq muddatli aktivlardan 8732 ming so'mga (21703 ming so'm – 12971 ming so'm) hamda qarz majburiyatlaridan 13869 ming so'mga (21703 ming so'm 7834 ming so'm) ortiqdir.

Agar o'z mablag'lari manbalari uzoq muddatli aktivlardan kam bo'lsa, bu oborot mablarlari to'liq majburiyatlar hisobiga shakllanganligidan dalolat beradi hamda korxonaning to'lovga qodir emasligi va uning moliyaviy holatining yomonligini ko'rsatadi.

Qarz mablag'larida kreditorlik qarzdorligiga e'tibor qaratish lozim. Misolda kreditorlik qarzdorlik hisobot davrida 2511 ming so'mni tashkil etgan hamda 482 ming so'mga ko'paygan (2511 ming so'm – 2244 ming so'm). Qarz mablag'lari («Turon» OTAJning tahlil davri yil oxiridagi majburiyatlari) 7834 ming so'm (balans passivi 2-bo'limi yakuni) bo'lgan va yil davomida 664 ming so'mga oshgan (7834 ming so'm – 7170 ming so'm), biroq ular summasi o'z mablag'lari summasidan 13869 ming so'mga kamligicha qolgan (21703 ming so'm – 7834 ming so'm). Bu oddiy hol bo'lib, manbalarda korxonaning o'z mablag'lari ustunlik qilishidan dalolat beradi.

Agar qarz mablag'lari o'z mablag'lardan ko'p bo'lganida qisqa muddatli qarzdorlik uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga sarflanganligi hamda oborot aktivlarini to'liq qoplashini aks ettirardi. Bunday vaziyat maq'ul bo'lmay, korxonaning to'lovga qobil emasligi va moliyaviy barqaror bo'lmaganligini ko'rsatadi. «Debitorlik va kreditorlik qarzdorligi haqida ma'lumotnoma» (2-shakl) asosida muddati o'tgan kreditorlik qarzlar mavjudligi aniqlanadi. Korxona rahbari buning sabablarini aniqlashi zarur. Bundan tashqari, u buxgalteriya balansi aktivida:

* asosiy mablag'lar dastlabki qiymati va eskirishi;
* ishlab chiqarish zaxiralari, tugatilmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot summasi;
* oborot aktivlari summasi;
* debitorlik qarzdorligi va ayniqsa uning muddati uzaytirilgan qismi miqdoridagi o'zgarishlarning ro'y berganligi kabi holatlarga diqqatini qaratishi kerak.

Balans aktivi 1-«Uzoq muddatli aktivlar» bo'limida asosiy vositalar eng ko'p summani tashkil etadi. Balansda ularning dastlabki qiymati, eskirishi va qoldiq qiymati ko'rsatiladi. Balansni ko'rib chiqayotganda eskirish summasi va uning qoldiq qiymatiga e'tibor qaratish darkor. Eskirish summasining dastlabki qiymatga nisbati asosiy vositalar eskirishi darajasini, qoldiq qiymatning dastlabki qiymatga nisbati esa – ular yaroqliligini aks ettiradi. Eskirish darajasining oshib ketishi korxona asosiy vositalari jismonan ham eskirganligini ko'rsatadi.

Korxona mahsulot turlari va sifati bo'yicha raqobatbardoshli bo'lishi uchun ishlab chiqarish jihozlarini vaqti-vaqti bilan yangilab turish, yangi texnologiyalarni joriy qilish kerak.

Misolda, asosiy vositalar dastlabki qiymat bo'yicha hisobot yilida 1143 ming so'mga ko'paygan va 15247 ming so'mni tashkil etgan. Biroq, qoldiq qiymati atigi 674 ming so'mga oshgan. Bu asosiy vositalarning eskirish darajasi keskin oshib ketganligi oqibatidir. Eskirish koeffitsienti 0,36 ni tashkil etadi, ya'ni asosiy vositalarning 36 foizi ta'mirlanishi yoki yangilanishi lozim.

Buxgalteriya balansini ko'rib chiqar ekan, rahbar ishlab chiqarish zaxiralari, tugatilmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot mavjudligiga e'tibor berishi kerak. Bu mablag'lar guruhini «Zaxiralar va xarajatlar» yoki «Tovar-moddiy xarajatlar» (TMX) deb nomlash qabul qilingan. Ularning ko'payishi biror darajada oborot mablag'lari immobilizatsiyasi, ya'ni mablag'larni qiyin amalga oshiriladigan aktivlarga jalb qilinishiga olib keladi. Ishlab chiqarish zaxiralarining keskin oshib ketishi ehtiyojdan ortiq xomashyo xarid qilinishi yoki ishlab chiqarish hajmi kamayganligi oqibati bo'lishi mumkin.

Tugatilmagan ishlab chiqarishning ko'payishi tayyorlanayotgan mahsulotning kamligiga, tayyor mahsulot ko'payib ketishi esa ularni sotishda qiyinchiliklarga olib kelish ehtimoli bor.

«Turon» OTAJ buxgalteriya balansida hisobot davrida zaxiralar va xarajatlar summasi 1111 ming so'mga (12631 ming so'm – 11520 ming so'm) oshib ketdi hamda u 12631 ming so'mni tashkil etdi. Oborot mablag'lari ushbu guruhida yil davomida tayyor mahsulot eng ko'p – 2478 ming so'mga (4089 ming so'm – 1611 ming so'm) oshgan. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotning katta qismi sifatsizligi va raqobatga bardosh bera olmasligi oqibatida yaxshi sotilmayotganligi bilan izohlanadi.

Buxgalteriya balansini ko'rib chiqishda debitorlik qarzdorligi o'zgarishiga ham katta ahamiyat berish lozim. Chunki bu masala eng muhim masalalardan biridir.

Debitorlik qarzdorligining katta summada shakllanishi korxona mablag'larining immobilizatsiyasi, oborotdan chiqib ketishiga olib keladi. 2-a shakl asosida aniqlanadigan muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi ayniqsa salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

«Turon» OTAJda hisobot yili oxiridagi debitorlik qarzdorligi 3631 ming so'mni tashkil etdi hamda yil davomida u 1382 ming so'mga (3631 ming so'm – 2249 ming so'm) ko'paydi. Muddati uzaytirilgan qarzdorlik esa – 2382 ming so'm bo'lib, u yil davomida 532 ming so'mga (2382 ming so'm – 1850 ming so'm) oshgan. Korxona rahbari bunday holat sabablarini aniqlashi va tegishli joylarda buni tushuntirib berishga tayyor bo'lishi lozim.

Shu tariqa, rahbar buxgalteriya balansini ko'rib chiqayotganida korxonaning quyidagilarni tavsiflovchi manbalari va mablag'lari mavjudligini nazarda tutish darkor:

* xo'jalik faoliyatini yaxshilash (umumiy sarmoya o'sishi; o'z mablag'lari manbalari; oborot mablag'lari summasi va ulushi oshganligi; debitorlik va kreditorlik qarzlari kamayganligi);

* korxona moliyaviy holati yomonlashganligi (xo'jalik mablag'lari umumiy so'mmasida majburiyatlar ulushi o'sganligi; debitorlik va kreditorlik qarzlari, ayniqsa, muddati o'tgan qismining ko'payganligi; zaxiralar va xarajatlarda mablag'lar summasi va ulushi, asosiy vositalar eskirishi darajasi oshganligi).

Korxonaning moliyaviy holati haqida yanada to'liq ma'lumotlar olish uchun ularning to'liq tahlilini o'tkazish maqsadga muvofiq. Bu ish iqtisodchi yoki bosh buxgalterga topshirilishi mumkin. Tahlil materiallari rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun oson qilib tuzilishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy holatini baholash mulkiy holati, likvidliligi, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi. Korxonaning ish faolligi moliyaviy holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy holat o'z navbatida korxonaning bozor faolligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tahlilning dastlabki baholash holatida shu masalalarga ham alohida e'tiborni qaratish lozim.

Korxona moliyaviy holatini buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan dastlabki baholash hisobot davri oxiridagi balans moddalarini yil boshidagi ma'lumotlar bilan taqqoslash va farqlarni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Balansning muayyan moddalari bo'yicha o'zgarishlar korxona xo'jalik faoliyati natijasida sodir bo'lishi mumkin.

16.3. Korxona moliyaviy holatini to'liq baholash

Balans umumiy summasi korxonaning muayyan bo'lim va moddalarda taqsimlangan barcha mablag'larni aks ettiradi.

Balans alohida moddalari va bo'limlari summalarining umumiy yakunga nisbati ularning balans summasidagi ulushini tashkil qiladi. Moddalarning muayyan sanadagi ulushlari balansning tarkibiy tuzilmasi deyiladi. U korxona xo'jalik faoliyati tuzilishi hamda amalga oshirilgan ishlarga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, savdoni olsak, balans aktivida tovar zaxiralari, sanoatda esa

asosiy vositalar, ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlar muhim o'rin tutishi mumkin.

Bozor munosabatlari shartlarida olinadigan kreditlar uchun foizlar yuqori bo'lganligi sababli, balans passividagi manbalarda o'z mablag'lar ustunlik qilishi kerak. Balansni tahlil qilishda uning tuzilmasi aniqlanadi, xo'jalik faoliyati natijasida mablag'lar tarkibi va ular manbalarida ro'y bergan o'zgarishlar o'rganiladi, mablag'lar qanchalik to'g'ri joylashtirilganligi izohlanadi va korxona moliyaviy holati oldindan baholanadi.

Xususan, balans tuzilmasi tahlil qilinayotganda oborotdan tashqari (uzoq muddatli) va oborot aktivlari, o'z va jalb qilingan mablag'lar manbalari o'rtasidagi nisbat aniqlanadi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'zgarganligi, uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit va qarzlardan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqiladi, bu o'zgarishlarga baho beriladi (16.1-jadval).

«Turon» OTAJ misolida buxgalteriya balansi tuzilmasidan kelib chiqib, yuqorida ta'kidlanganidek xo'jalik mablag'lari yil mobaynida 2390 ming so'mga oshdi hamda 29537 ming so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida mablag'lar manbalari (balans passivi) va ularni joylashtirishda (balans aktivi) o'zgarishlar ro'y berdi.

Mablag'lar manbalarida o'z mablag'lari ustunlik qilmoqda. Ular xo'jalik mablag'lari umumiy summasining 73,5 foizini tashkil etadi va yil mobaynida 0,3 foizga oshganligini ko'rsatadi.

Majburiyatlar, ya'ni qarz va kreditlar ko'rinishida olingan mablag'lar ulushi 26,5 foiz bo'lib, yil mobaynida 0,3 foizga kamaydi.

O'z mablag'lari manbalari ustunlik qilgan tuzilma jarayon bo'lib, u korxonaning moliyaviy barqarorligini ko'rsatadi.

Bundan keyin jalb qilingan mablag'lar tuzilmasi va ayniqsa kreditorlik qarzdorligiga e'tibor qaratish lozim. Hisobot davri oxirida butun qarzdorlik qisqa muddatli hisoblanadi.

Uning asosiy qismini budjetga qarzdorlik tashkil etadi – barcha xo'jalik mablag'lari 9,1 foiz, mahsulot yetkazib beruvchilarga qarzdorlik – 8,5 foiz, buyurtmachilar va xaridorlardan olingan bo'naklar – 5,8 foiz bo'ldi. Shu tariqa, tovarlar, xomashyo va materiallar uchun qarzdorlik 14,3 foiz (5,8 + 8,5) bo'lib, u yil mobaynida 1,4 foizga oshdi (14,3–12,9).

«Turon» OTAJ bo'yicha mablag'lar manbalari (balans aktivi) yil boshida uzoq muddatli aktivlarda – 43,9 foiz, oborot aktivlarida – 56,1 foiz tarzida joylashtirilgan. Hisobot davri uchun oborot aktivlarida bo'lgan mablag'lar ulushi 4,1 foizga (56,1 – 52,0) oshgan.

Balans tuzilmasini tahlil qilishda oborot aktivlari tuzilmasi maxsus ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ularda debitorlik qarzdorligi xo'jalik mablag'larida eng yuqori ulushga ega bo'ladi. U 12,3 foiz bo'lib, yil mobaynida 4,0 foizga (12,3 – 8,3) ko'paydi. Pul mablag'lari solishtirma og'irligi pasaygani holda tovar-moddiy zaxiralari ulushi ham 0,3 foizga oshdi. Balans aktivida oborot mablag'lari ulushi oshgan bo'lsada, bu qiyin

16.1-jadval

«Turon» OTAJning hisobot yilidagi qisqartirilgan buxgalteriya balansi
(summasi, ming so'm; ulushi, %)

Aktiv	Yil boshida		Yil oxirida		Passiv	Yil boshida		Yil oxirida	
1. Uzoq muddatli aktivlar	**summasi**	**ulushi**	**summasi**	**ulushi**	**1. O'z mablag'lari manbalari**	**summasi**	**ulushi**	**summasi**	**ulushi**
Asosiy vositalar:					Ustav kapitali	13211	48,66	13211	44,73
dastlabki qiymati	14104	51,95	15247	51,62	Qo'shilgan kapitali	–	–	129	0,44
eskirish	5039	18,56	5508	18,65	Rezerv kapitali	5015	18,47	4356	14,75
qoldiq qiymati	9065	33,39	9739	32,97	Taqsimlanmagan foyda	1362	5,02	3459	11,71
Kapital qo'yilmalar	3923	14,45	3175	10,75	Maqsadli tushumlar va fondlar	294	1,08	74	0,25
Uzoq muddatli investitsiyalar	39	0,14	57	0,19	Kelguvchi davr xarajatlari	–	–	474	1,60
2. Oborot aktivlari									
Ishlab chiqarish zaxiralari	8925	32,88	7588	25,69	Uzoq muddatli qarzlar	95	0,35	–	–
Tugallanmagan ishlab chiqarish	909	3,35	966	3,27	Qisqa muddatli qarzlar	–		97	0,33
Tayyor mahsulot	1611	5,93	4089	13,84	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar	1241	4,57	1723	4,31
Qayta sotish uchun tovarlar	75	0,28	8	0,03					
Pul mablag'lari	42	0,15	151	0,51					
Valuta mablag'lari	309	1,14	140	0,47					
Kassadagi pul mablag'lari	–	–	13	0,004					

16.1-jadvalning davomi

Debitorlar:					Kreditorlar:				
xaridorlar va buyurtmachilar	1224	4,51	2123	7,19	Molyetkazib beruvchilar	2244	8,27	2511	8,50
bilan hisob-kitoblar	51	0,19	42	0,14	Byudjet bo'yicha qarzdorlik	3342	12,31	2685	9,09
Byudjet bilan hisob-					Ish haqi bo'yicha	124	0,46	160	0,54
kitoblar	947	–	1	0,003	qarzdorlik				
Xodimlar bilan		3,49			ijtimoiy sug'urta va	78	0,29	60	0,20
hisob-kitoblar			–	4,96	ta'minot bo'yicha				
Boshqa debitorlar	–	–		–	qarzdorlik	141	0,52	598	2,02
					Boshqa kreditorlar	–	–	–	–
Jami bo'lim bo'yicha	**14120**	**52,01**	**16566**	**56,09**	**Jami bo'lim bo'yicha**	**7265**	**26,74**	**7834**	**26,52**
Jami aktivlar bo'yicha	***27147***	***100,0***	***29537***	***100,0***	***Jami passiv bo'yicha***	***27147***	***100,0***	***29537***	***100,0***

sotiladigan aktivlar hisobiga amalga oshdi. Bu esa korxona likvidliligiga (to'lovga qobilligiga) salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'z va qarz mablag'larining ko'payishi asosan tayyor mahsulot qoldiqlari (2478 ming so'm) va *debitorlik qarzdorligini* (1382 ming so'm) qoplashga sarflandi. Korxona moliyaviy holatini baholashda mablag'lar summasi va ular turlari bo'yicha manbalari mulkiy holati tahlil qilinishi shart. Ularga quyidagilar kiradi:

* ***Sarmoyaning umumiy hajmi*** ($C_{sp.}$) – korxona ixtiyoridagi xo'jalik mablag'lari summasi. U buxgalteriya balansi – netto yakuniga tengdir:

$$C_{sp.} = 1\text{-sh., } 310 \text{ yoki } 550\text{-satr.}$$

* ***O'z mablag'lari (sarmoyasi) (O'S)*** – korxonaning muayyan sanadagi o'z mablag'lari, ular balans passivi 1-bo'limi yakuni bo'yicha aniqlanadi:

$$US = 1P.$$

* Oborotdagi o'z mablag'lar (OUM) – oborotda bo'lgan o'z mablag'lari hajmi. Ular o'z sarmoyasiga (US) uzoq muddatli majburiyatlarni (UM) qo'shish hamda asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar (aktiv 1-bo'limi) summasini (IA) ayirish orqali aniqlanadi:

$$OUM = US + UM - IA.$$

Bu ko'rsatkichni mobil (joriy) aktivlar (JA) va joriy majburiyatlar (JM) orasidagi farq sifatida ham aniqlash mumkin:

$$OUM = JA - JM = 2A - (2P - UM).$$

* ***Harakatdagi mablag'lar (sarmoya)*** (HS) – oborotda muntazam qatnashadigan o'z oborot mablag'lari hajmi. O'z oborot mablag'lari, shuningdek muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorlikda ham bo'ladi, u oborotda uzoq vaqt ishtirok etmay, u immobillashgan (ya'ni boshqa narsaga jalb etilgan) bo'ladi. Shuning uchun HSni aniqlash uchun OO'Mdan 2a-«Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida axborot» shaklida aks etgan muddati o'tgan debitorlik qarzdorligini (MUDK) chegirib tashlash kerak:

$$HS = OO'M - MUDK$$

* ***Jalb qilingan mablag'lar (sarmoya)*** (JS) – uzoq muddatli (UM) va joriy majburiyatlar (JM) yig'indisidir, u korxonaning hozirgi paytdagi qarzlari miqdorini ko'rsatadi va u balans passivi 2-bo'limi yakuniga tengdir (2P):

$$JS = UM + JM = 2P.$$

* ***Joriy aktivlar*** (JA) («Mobil aktivlar», «Oborot mablag'lari» deb ham ataladi) – zaxira, xarajat, pul mablag'lari hamda debitorlik qarzdorligida bo'lgan mablag'larni aks ettiradi, ya'ni u balans aktivi 2-bo'limi yakuniga tengdir:

$$\mathbf{JA = 2A.}$$

Ularni asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlardan farqli ravishda qarzdorlar bilan hisob-kitob qilish uchun tez qaytarib olish mumkin bo'lganligi sababli mobil aktiv deyiladi.

* ***Joriy yoki qisqa muddatli majburiyatlar*** (JM) – yil mobaynida to'lanishi zarur bo'lgan qarzdorlik. Unga qisqa muddatli qarzlar, kreditlar, olingan bo'naklar kiritiladi. Bu summani aniqlash uchun balans passivi 2-bo'limi yakunidan (2P) uzoq muddatli majburiyatlarni (UM) chegirib tashlash kerak. Uning formulasi:

$$JM = 2P - UM.$$

* **Uzoq muddatli aktivlar** (UMA) (ularni «Immobillashgan aktivlar» deb nomlash qabul qilingan) – asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar yig'indisi bo'lib, ular oborot mablag'lari (mobil aktivlar)dan farqli ravishda sekinroq aylanadi va balans aktivi 1-bo'limi yakuni bo'yicha aniqlanadi. Uning formulasi quyidagichadir:

$$UMA = 1A.$$

* Uzoq muddatli majburiyatlar (UM) – bu uzoq vaqt foydalanishga mo'ljallab olingan kredit va qarzlar. Ular balans passivi 2-bo'limida ko'rsatiladi (400 va 410-satrlar):

$$UM = 1\text{-sh.}, 400\text{-satr} + 410\text{-satr.}$$

• **Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari** (IZX) – ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarida bo'lgan oborot mablag'lari. Tez likvidli aktivlardan farqli ravishda ular ko'proq muomalada bo'ladi va joriy majburiyatlarni qoplash uchun darhol qaytarib olinmaydi:

$$IZX = Ishl.zax. + Tugat.\ Ishl. + Tay.mah. + Tovar + \\ + Bo'lajak\ davr\ xar.$$

• ***Tez likvidli aktivlar (TLA)*** – yaqin vaqt ichida qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lardir. Ularga pul mablag'lari va debitorlik qarzdorligi va muddati o'tgan qarzdorlik ayirmasi kiritiladi:

$$TLA = Pul\ mab. + (DQ - MUQ).$$

Korxona mulkiy holati ko'rsatkichlari asosida uning sifat o'zgarishlari, xo'jalik mablag'lari tuzilmasi hamda ular manbalari haqida xulosa chiqarish mumkin. Balans aktivi asosida OTAJ mulkiy holatini tahlil qilishda mazkur izohlovchi ko'rsatkichlar hisob-kitob qilingan. Ularning yil mobaynidagi va qator yillar ichidagi o'zgarishlari aniqlangan (16.2-jadval).

Jadval ma'lumotlari xo'jalik mablag'larining asosiy summasini o'z mablag'lari (73,5 foiz), shuningdek, joriy aktivlar (oborot mablag'lari) – 56,1 foiz tashkil etadi. Hisobot yili oxiridagi o'z oborot mablag'lari 8732 ming so'm yoki barcha xo'jalik mablag'larining 29,6 foizini tashkil etdi. Biroq harakatdagi sarmoya, ya'ni haqiqatdan ham oborotda qatnashadigan

16.2-jadval

«Turon» OTAJ mol-mulki holatini hisobot davrida baholash (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida		Farq	
	summa	sol.og'.	summa	sol.og'.	summa	sol.og'.
O'z sarmoyasi (O's)	19882	73,2	21703	73,5	+1821	+0,3
Jalb qilingan sarmoya(J_s)	7365	26,8	7834	26,5	+569	-0,3
Joriy (mobil) aktivlar (J_a)	14120	52,0	16566	56,1	+2446	+4,1
Joriy majburiyatlar (J_m)	7170	26,4	7834	26,5	+664	0,1
Uzoq muddatli majburiyatlar (U_m)	95	0,3	–	–	-95	-0,3
Uzoq muddatli aktivlar (U_{ma})	13027	48,0	12971	43,9	-56	-4,1
Asosiy vositalar (Av)	9065	33,4	9739	33,0	+674	-0,4
borotdagi o'z mablag'lari ($O_{o'm}$)	6950	25,6	8732	29,6	+1782	+4,0
Harakatdagi sarmoya(H_j)	5100	18,8	6452	21,8	+1352	+3,0
Tez likvidli aktivlar (T_{la})	750	2,8	1553	5,3	+803	+2,5
Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari (I_{zx})	11520	42,4	12631	42,8	+1111	+0,4
Mul mablag'lari (Pul.mab.)	351	1,3	304	1,0	-47	-0,3
Debitorlik qarzdorligi (D_q)	2249	8,3	3631	12,3	+1382	+4,0
Shu jumladan muddati o'tgan (M_{udq})	1850	6,8	2382	8,1	+532	
Kreditorlik qarzdorligi (K_q)	5929	21,8	6014	20,4	+85	-1,4
Shu jumladan muddati o'tgan (M_{ukq})	2650	9,8	2534	8,6	-116	1,2
Xo'jalik mablag'lari umumiy summasi (S_{uj})	27147	100	29537	100	+2390	–

o'z oborot mablag'lari muddati o'tgan debitorlik qarzdorlik mavjudligi sababli 6452 ming so'mga teng yoki 21,8 foiz. Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarida bo'lgan mablag'lari katta ulushiga ega (42,8 foiz), tez likvidli aktivlar esa xo'jalik aktivlarining atigi 5,3 foiziga tengdir.

OTAJ mulkiy holatini qoniqarli deb topish mumkin. Xo'jalik mablag'larida o'z mablag'lar manbalari (73,5 foiz) ustunlik qiladi. Joriy aktivlar joriy majburiyatlarni qariyb ikki barobar qoplaydi. Bu mablag'larni yaxshi aylantirish imkonini beradi. Joriy aktivlarda o'z oborot mablag'lari eng katta ulushga ega. Biroq, ularning katta qismi qiyin sotiladigan aktivlarga jalb qilingan (ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari -12631 ming so'm yoki barcha xo'jalik mablag'larining 42,8 foizi va debitorlik qarzdorligi – 3631 ming so'm yoki 12,3 foizi).

Bularning barchasi hamda muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi bo'yicha katta summaning mavjudligi xo'jalik mablag'lari tuzilmasining yomonlashganligidan va ularning OTAJ moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatganligidan dalolat beradi.

Tahlil qilingan tomonlardan tashqari xo'jalik mablag'lari tuzilmasi ko'p jihatdan korxonaning faoliyat sohasi, ishlab chiqarish hajmi va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Biroq mulkiy holatni ko'rib chiqish korxona moliyaviy holati asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

16.4. Korxona likvidliligi: mazmuni, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari

Likvidlilik korxonaning o'z joriy (aylanma) aktivlari hisobidan qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko'rsatadi.

Korxonaning mol-mulkini naqd pulga aylantirish hamda uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlarini qoplashga sarflash mumkin bo'lganida balans aktivi (pullanadigan) bo'ladi. Bunda aktiv moddalarining xususiyati shundan iboratki, ular yo'q bo'lib ketmaydi, balki bir shakldan ikkinchisiga o'tadi.

Masalan, tovar-moddiy boyliklarning ma'lum qismi sotiladi, deylik. Bu holda korxonadagi tovar moddiy boyliklar kamayadi. Biroq hisob-kitob varag'idagi, kassadagi yoki valuta hisob schyotidagi pul mablag'lari shuncha summaga ko'payadi. Balans yakuni o'zgarmaydi.

Chunki tovar-moddiy boyliklari ham, pul ham korxonaning mablag'lari bo'lib, uning balans aktivida turadi.

Balans passivi moddalari «so'ndiriladigan» bo'ladi, chunki ular qarz to'lanishi oqibatida «yo'q bo'lib ketish» qobiliyatiga ega. «Likvidlilik» passivda aks ettiriladigan majburiyatlarning aktiv mablag'lari hisobidan qoplanishidir. Masalan, soliqlar bo'yicha budjetga qarz uzilgan. Bu holda budjetga qarz to'langan va hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari kamaygan bo'ladi. Balans passivida ham, aktivida ham mablag'lar soliqqa to'langan summa miqdorida kamayadi. Yana bir misol: xaridorlarga oldinroq to'langan bo'nak evaziga tayyor mahsulot berildi. Xaridorlarning bo'naklari hisobidan qarzdorlik «tugatiladi» va tayyor mahsulot summasi ham kamayadi.

Korxona bankrot bo'lganida, shuningdek, korxonaning mablag'lari kreditorlar bilan hisob-kitob qilish uchun yetarliligini, ya'ni u qarzini mavjud mablag'lari hisobidan yo'qotish (to'lash)ga qodirligini, unda qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish uchun nazariy jihatdan yetarli miqdorda aylanma mablag'lar mavjudligini aniqlash zarur bo'lgan vaziyatlarda balansning likvidligi masalalari ayniqsa jiddiy bo'lib qoladi. Korxona rahbari buxgalteriya balansi bilan tanishib chiqib, passivning 2-bo'limi summalari aktivning 2-bo'limi summalari bilan taqqoslash orqali likvidlilik darajasini

aniqlashi mumkin. Agar aylanma aktivlar summasi majburiyatlar summasidan ortiq bo'lsa, korxona, asosan, o'z kreditorlari bilan hisob-kitob qilish imkoniga ega bo'ladi. Lekin korxona buxgalteriya balansi haqiqatan ham likvidligi, ya'ni to'lovga qobiliyatli deb hisoblanishi uchun joriy aktivlar majburiyatlardan ancha (ikki baravardan ortiqroq) ko'p bo'lishi kerak.

Joriy majburiyatlarni bajarish uchun likvidliligi aylanish tezligiga, ya'ni naqd pulga aylanish tezligiga bog'liq bo'lgan turli aktivlardan foydalanish mumkin. Korxona aktivlari likvidlilik darajasiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Likvidliligi eng kuchli aktivlar. Ular jumlasiga barcha pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy mablag'lar, ya'ni qimmatli qog'ozlar kiradi. (1-shakl. Buxgalteriya balansi. Aktivning 2-bo'limi, 170-200-satrlar).

Tez sotiladigan aktivlar. Ular muddati o'tkazib yuborilgan qismdan tashqari debitorlik qarzlarini va boshqa aktivlarni o'z ichiga oladi (1-shakl. Aktivning 2-bo'limi, 220-dan 290-gacha bo'lgan satrlar minus 2a-shakl 7-grafasining yakuni). Sekin sotiladigan aktivlar. Bunga balans aktivi 2-bo'limining «Zaxiralar va chiqimlar», «Bo'lajak davr xarajatlari», shuningdek, balans aktivi 1-bo'limidan «Uzoq muddatli investitsiyalar» degan moddalar kiradi (1-shakl. Aktivning 2-bo'limi, 120 dan 160 gacha bo'lgan satrlar, aktivning 1-bo'limi, 40 dan 100 gacha bo'lgan satrlar).

Qiyin sotiladigan aktivlar. Bular asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan sarmoya mablag'lar, uskuna va qurilmalar, muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik qarzlaridir (1-shakl, aktivning 1-bo'limi, 12, 22, 30-satrlar plyus 2a-shakl 7-grafasining yakuni).

Moliyani boshqarish san'ati hisob schyotlarda minimal miqdorda mablag' saqlab, ularning qolganini tez sotiladigan aktivlarda saqlashdan iboratdir.

Hisob-kitob schyotidagi summa qancha katta bo'lsa, to'lovlar va majburiyatlar yuzasidan mavjud mablag'lar bilan hisob-kitob qilish imkoniyati shuncha ko'p bo'ladi. Biroq, pul mablag'lari zaxirada va xarajatda, ya'ni aylanishda bo'lsa, ularni naqd pulga aylantirish ancha murakkab bo'ladi.

Kreditorlar kredit berishdan oldin qay darajada xatarga yo'l qo'yayotganlarini aniqlaydilar. Buning uchun korxonaning kreditni qaytarish qobiliyatini tahlil qiladilar, ya'ni tegishli ko'rsatkichlar yordamida uning likvidligini va to'lov qobiliyatini bilib oladilar.

Balansning muayyan moddalari o'rtasidagi nisbatni aks ettiradigan korxona likvidligini ifoda etadigan koeffitsientlar va moliyaviy hisobotning boshqa turlaridan iborat butun boshli ko'rsatkichlar tizimi mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Qoplash koeffitsienti (Q_k). Bu koeffitsient korxonaning likvidliligiga baho beradi, joriy majburiyatlar aylanma mablag'lar bilan qay darajada ta'minlanishini (boshqacha aytganda, aylanma aktivlarga solingan moliyaviy resurslarning qancha so'mi joriy majburiyatlarning bir so'miga to'g'ri kelishini) ko'rsatadi va joriy aktivlar summasini (JA) (balans aktivi 2-bo'limining

yakuni) joriy majburiyatlarga (JM) quyidagi formula bo'yicha taqsimlash yo'li bilan hisoblab chiqiladi:

$$Q_k = \frac{JA}{JM} \quad yoki \quad \frac{Sh.1.Satr\ 300}{Sh.1.Satr\ 540 - (400 + 410)}.$$

Odatda, bu ko'rsatkichning o'sishi ijobiy baholanadi. Amaliy tajriba nuqtayi nazaridan, bu ko'rsatkich 2,0 va undan ko'proqni tashkil etsa me'yorida deb hisoblanadi. Lekin uning ko'p o'sishi ham ma'qul emasdir. Chunki bu hol ishlab chiqarish zaxiralariga solingan mablag'lar aylanishi sekinlashganligidan va debitorlik qarzlari asossiz o'sib ketganligidan darak beradi.

Tez likvidlilik koeffitsienti (Tl. koef.) pul mablag'lari (PM), hisobkitoblar va boshqa aktivlarning joriy majburiyatlaridagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi:

$$\text{Tl.koef.} = \frac{PM + DQ + MO'DQ}{JM} \quad \text{yoki}$$

$$\frac{\text{Sh.1. Satr } (170 + ... + 200) + (220 + ... - 290) - \text{Sh.2. 7 grafa (yakuni)}}{\text{Sh.1. Satr } 540 - (400 + 410)}$$

Bunda: DQ – debitorlik qarzlari;
MO'DQ – muddati o'tgan debitorlik qarzlari.

Tez likvidlilik koeffitsienti korxonaning joriy majburiyatlarni tez sotiladigan aktivlar hisobidan bajara olishini belgilaydi va qoplanish koeffitsientini to'ldiradi. Tez likvidlilikning yuqori koeffitsienti moliyaviy xatar kamligidan va chetdan qo'shimcha moliyaviy mablag'lar jalb etish uchun yaxshi istiqbollar mavjudligidan darak beradi. Agar bu ko'rsatkich 1,0 dan ortiq bo'lsa, ya'ni tez likvidli aktivlar joriy majburiyatlar summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, normal hisoblanadi. Kredit berish chog'ida banklar va boshqa kredit muassasalarini ana shu ko'rsatkich qiziqtiradi.

Absolut likvidlilik koeffitsienti (Abs. Lik.K.) joriy majburiyatlardagi pul mablag'larining ulushini ko'rsatadi va u pul mablag'larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi. Pul mablag'lari – kassada, hisobkitob schyotida, valuta hisob schyotida va boshqalarda mavjud bo'lgan puldir. U quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$\text{Abs. Lik. K.} = \frac{PM}{JM} \quad yoki \quad \frac{\text{Sh.1. Satr } 170+180+190}{\text{Sh.1. Satr } 540 - (400+410)}$$

Absalyut likvidlilik koeffitsienti asosida muayyan paytda majburiyatlarni qoplash uchun pul mablag'lari mavjudligini aniqlash mumkin.

Bu koeffitsient, eng avvalo, korxonaga yetkazib beruvchilarni qiziqtiradi. Ushbu koeffitsient qancha yuqori bo'lsa, korxonaning eng zarur majburiyatlar bo'yicha (soliqlar, ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lash bo'yicha) hisob-

kitob qilish imkoniyatlari shuncha ko'p bo'ladi. Mazkur koeffitsient 0,2 va undan yuqori bo'lganida normal hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan koeffitsientlar asosiy hisoblanadi va shularga tayangan holda korxonaning likvidliligi, to'lov qobiliyati va kreditni qutilish qobiliyati haqida ishonchli xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Biroq, korxonaning bu boradagi haqiqiy ahvolini yanada puxta o'rganish uchun yana bir qator ko'rsatkichlarni hisoblash tavsiya etiladi.

Ishlatiladigan sarmoyaning o'zgaruvchanligi yoki o'zgaruvchanlik koeffitsienti (O'K): zaxiralar va sarmoyaga, ya'ni muddati kechiktirilgan debitorlik qarzlarini chegirib tashlagandan keyin qolgan o'z aylanma mablag'lariga nisbati sifatida belgilanadi va u quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$O'K = \frac{\text{Zax.Xar.}}{\text{O'MAym}} \quad \text{yoki} \quad \frac{\text{Sh.1. Satr 120 + ... + 150}}{\text{Sh.1. Satr 390+400-110-Sh.2a,7gr)}}$$

Bunda: Zax.xar – zaxiralar va xarajatlar;

O'MAym – o'z mablag'lari va uzoq muddatli passivlarnting aylanma mablag'lardagi summasi.

Ushbu ko'rsatkich korxonaning erkin harakatlantirish imkonini bermaydigan shakldagi o'z sarmoyasining ulushini anglatadi. Chunki joriy qarzlardan uzilish uchun zaxiralar va xarajatlarni muomalaga kiritish, muddati o'tgan debitorlik qarzlarini qaytarish kerak bo'ladi.

Ishlatilayotgan sarmoya harakatchanligining yuqori koeffitsienti bankrotlik xavfi borligidan dalolat beradi. Bu koeffitsient 0,5 dan ortiq bo'lmasligi, ya'ni zaxira va xarajatlar summasi o'z aylanma mablag'lari jami summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi normal hisoblanadi.

Umumiy sarmoyaning o'zgaruvchanligi (SO') joriy aktivlarning (JA), ya'ni aylanma mablag'larning xo'jalik mablag'lari summasiga (sarmoya) nisbati sifatida aniqlanadi. Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$SO' = \frac{JA}{\text{Sarmoya}}.$$

U harakatchanroq immobilizatsiyalangan (harakatsiz) aktivlardan farqli ravishda tez pul mablag'lariga aylantirish mumkin bo'lgan xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, korxonaning likvidlilik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich 0,6 dan yuqori bo'lganida, ya'ni aylanma mablag'lar xo'jalik mablag'lari umumiy summasida 60 foizdan ko'proqni tashkil etganida normal hisoblanadi.

Korxonaning likvidliligini baholash uchun buxgalteriya balansi asosida tahlil qilinayotgan yil boshi va oxiridagi bu koeffitsientlarni hisoblab chiqarish, yil davomida ularning o'zgarishini belgilash hamda tarkib topgan me'yorlar bilan taqqoslash zarur (16.3-jadval).

16.3-jadval

«Turon» OTAJning hisobot yilidagi balansi likvidliligini baholash

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Me'yor bo'yicha	Yil boshidagiga nisbatan farqlanishi	Me'yorga nisbatan farqlanishi
	Yil boshida	Yil oxirida			
Qoplanish koeffitsienti	1,90	2,10	>2,00	+0,20	+0,10
Tez likvidlilik koeffitsienti	0,10	0,20	>1,00	+0,10	-0,80
Absolyut likvidlilik koeffitsienti	0,50	0,40	>0,20	-0,01	-0,16
Amal qiluvchi sarmoyaning o'zgarishi	2,30	2,00	ko'pi bilan 0,50	-0,3	+1,5
Umumiy sarmoyaning o'zgarishi	0,52	0,56	>0,60	+0,04	-0,04

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qoplash koeffitsienti, ya'ni aylanma mablag'larning joriy majburiyatlar summasiga nisbatan hisobot davrida 1,90 dan 2,10 ga qadar o'sganligini ko'rsatadi, bu esa me'yor darajasidadir. Aylanma aktivlar joriy aktivlardan 2 baravardan ortiqdir. Korxona oddiy sharoitlarda ishlaganida aylanma mablag'lar bilan joriy qarzlarning bunday nisbati me'yor darajasida deb hisoblanadi. Biroq, korxonaning katta mablag'lari immobilizatsiya qilinganligi, ya'ni tovar zaxiralari va xarajatlarda, shuningdek, muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarida turganligi munosabati bilan korxonaning yil oxiridagi balansi nolikvid deb hisoblanadi. Tez va absolut likvidlilik koeffitsientlari shundan darak beradi. Bu koeffitsientlar hisobot davrida yaxshilanmagan va u belgilangan me'yorlardan ancha past bo'lib qolavergan. Ishlatilayotgan va umumiy sarmoyaning o'zgaruvchanlik koeffitsientlari ham hisobot davrida yomonlashadi va me'yordan past darajada bo'ldi. Shunday qilib, korxona hisobot davrida qisqa muddatli qarzlarni o'z mablag'lari bilan to'lashga qodir emas edi.

To'lov qobiliyati xo'jalik yurituvchi subyektda belgilangan muddatlarda to'lashni talab qiluvchi kreditorlik qarzlari yuzasidan hisob-kitob qilish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari borligini anglatadi. To'lov qobiliyatining asosiy belgilari quyidagilardir:

* kreditorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitob qilish uchun etarli darajada pul hajmlari borligi;
* muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining yo'qligi.

Bundan likvidlilik bilan to'lov qobiliyati bir-biridan farq qiladi. Likvidlilik qarzlarni to'lash uchun mablag'lar mavjudligini ko'rsatsa, to'lov qobiliyati — qarzni uzish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Hisob-kitoblar likvidlilik

yaxshi darajada ekanligini, moliyaviy ahvol ijobiy ekanligini ko'rsatishi mumkin. Aslida esa korxona joriy aktivlardagi katta mablag'larini qarzni to'lashga yo'naltira olmasligi mumkin. Bu tovar zaxiralariga talab yo'qligi, tayyor mahsulotni sotish qiyinligi, debitorlar to'lovga qobiliyatli emasligi, muddati o'tgan debitorlik qarzlari summasi kattaligi tufayli mazkur korxona to'lovga qobiliyat-siz bo'lib chiqishi mumkin. Shu sababli, korxonaning moliyaviy ahvolini tahlil qilganda, uning likvidlilik darajasidan tashqari to'lovga qobiliyatliligini, ya'ni muayyan paytda qisqa muddatli qarzlarni uzish imkoniyatini aniqlash ham zarur. Balansning to'lovga qobiliyatliligini tahlil qilgan vaqtda likvidlilik darajasiga qarab guruhlarga birlashtirilgan aktiv mablag'lar u to'lov muddatlari bo'yicha guruhlarga ajratilgan passiv majburiyatlari bilan taqqoslanadi. Shundan keyin korxonaning to'lov qobiliyati darajasini ko'rsatadigan koeffitsientlar hisoblab chiqiladi. Qarzni uzish darajasi jihatidan majburiyatlar: eng shoshilinch majburiyatlar, qisqa muddatli passivlar, uzoq muddatli passivlar va doimiy passivlarga bo'linadi.

Eng shoshilinch majburiyatlar (ESHM) kreditorlik qarzlari (Sh.1. 2-bo'lim, satrlar: 450 dan 530 gacha) shuningdek, muddatida to'lanmagan qarzlardir.

Qisqa muddatli passivlar (KMP) – qisqa muddatli kreditlar va qarzga olingan mablag'lar (Sh.1. 2P-bo'lim, satrlar 420, 430 va 440).

Uzoq muddatli passivlar (UMP) – uzoq muddatli kreditlar va qarzga olingan mablag'lar (Sh.1. 2P-bo'lim, satrlar 400, 410).

Doimiy passivlar – balans passivi «O'z mablag'lari manbalari» degan birinchi bo'limning jami.

Xalqaro amaliyotda joriy majburiyatlarni bajarishning quyidagi nisbati nazarda tutilgan: to'lovga taqdim etilgan schetlar, qisqa muddatli majburiyatlar, dividendlar, hisoblangan majburiyatlar (xarajatlar bilan bog'liq), olingan bo'naklar, kelajak davrlarning daromadlari (xizmat ko'rsatishdan oldin olingan pul mablag'lari, masalan, bo'nak to'langan ijara haqi, to'lovga qo'yilgan soliqlar, kafolat majburiyatlari, ishchi va xizmatchilarga qaytarilishi kerak bo'lgan qarzlar), muddati o'tkazilgan qarz majburiyatlari, to'lash muddati qayd etilmagan (talab qilib olinguncha) majburiyatlar. Korxonaning to'lov qobiliyati eng shoshilinch majburiyatlarni to'lash qobiliyati, qisqa muddatli passivlar va uzoq muddatli passivlar koeffitsientlari yordamida baholanadi.

Eng shoshilinch majburiyatlarning to'lov koeffitsienti (KEsh.M.T.) eng likvid aktivlarning (El.a) eng shoshilinch majburiyatlar (ShM) summasiga nisbati sifatida aniqlanadi va quyidagi formula asosida hisoblab chiqariladi:

$$KE.sh.m.t = \frac{El.a}{SHM}.$$

Qisqa muddatli passivlarning to'lov koeffitsienti (KQMP) tez sotiladigan aktivlarning (TSA) qisqa muddatli passivlar (QMP) summasiga nisbati sifatida aniqlaniladi va quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$KQMP = \frac{TSA}{QMP}.$$

Uzoq muddatli passivlarning to'lov koeffitsienti (KUMP) sekin sotiladigan aktivlar (SSA)ning uzoq muddatli passivlar (UMP) summasiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$KUMP = \frac{SSA}{UMP}.$$

Balansning to'lovga qobiliyatliligini tahlil qilganda yuqorida ko'rsatilgan guruhlar bo'yicha mablag'lar va qarzlarni aniqlash, uziladigan qarzlar darajasini hisoblash va ular yuzasidan xulosalar chiqarish kerak bo'ladi. Bu uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (16.4-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlari korxonaning to'lovga qobiliyatsizligini, ya'ni uning qisqa muddatli majburiyatlari yaqin orada qaytarilmasligini ko'rsatadi.

Eng likvidli mablag'lar va tez sotiladigan aktivlarni eng shoshilinch majburiyatlar va qisqa muddatli passivlar bilan taqqoslab, korxonaning yaqin vaqt ichidagi joriy to'lovga qobiliyatini aniqlaymiz. OTAJda hammadan

16.4 -jadval

«Turon» OTAJning hisobot yilidagi balansi likvidliligini baholash (ming so'm miqdorida)

Pul mablag'lariga aniqlash darajasi ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Qarzni uzishning shoshilinchlik darajasi	Yil boshida	Yil oxirida	Ortiqcha to'lash yoki kamayish darajasi			
						yil boshida		yil oxirida	
						summa	daraja-si	summa	daraja-si
Eng likvid aktivlar	351	304	Eng shoshilinch majburiyatlar	5929	6140	-5578	5,9	-5710	5,1
Tez sotiladigan aktivlar	399	1249	Qisqa muddatli passivlar	1241	1820	-842	32,2	-474	72,5
Sekin sotiladigan aktivlar	11559		Uzoq muddatli passivlar	95	—	11464		12688	—
Qiyin sotiladigan aktivlar	14838	15296	Doimiy passivlar	19882		-5044	74,7	-6407	

tez sotiladigan aktivlar eng shoshilinch majburiyatlar va qisqa muddatli passivlar bo'yicha hisob-kitob qilish uchun yetarli emas.

Sekin sotiladigan aktivlarni uzoq muddatli passivlar bilan taqqoslash kelajakda likvidlilik mavjud bo'lishini, ya'ni kelajakdagi tushumlar va to'lovlar asosida to'lov qobiliyati taxmin qilinishini ko'rsatadi. Lekin bu to'lovlar to'liq bo'lmasligi mumkin. Sekin sotiladigan va qiyin sotiladigan aktivlardan, odatda, korxona bankrot bo'lganida qarzlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Shunday qilib, «Turon» OTAJ yil oxiridagi buxgalteriya balansi ma'lumotlari bo'yicha umuman olganda likvid tashkilot, lekin to'lovga qobiliyatli emas.

Korxona rahbarlari darhol uning moliyaviy ahvolini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rishlari kerak. Shu tariqa hisoblab chiqarilgan likvidlilik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari korxonaning turli davrlardagi balanslarini, shuningdek, moliyaviy holatini baholash maqsadida turli korxonalarning balanslarini taqqoslash imkonini beradi. Likvidlilik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlardan past bo'lgan va yomonlashib borayotgan korxonalar bankrot deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998-yil 28-avgustda qabul qilingan «Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq kreditorlarning pul mablag'lari bo'yicha talablarini to'la hajmda qondirishga, shu jumladan soliqlar, yig'imlar, budjetga va budjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to'lovlarni to'lashga qodir bo'lmagan korxonalar bankrot (iqtisodiy jihatdan nochor) deb hisoblanadi. Bunda bankrotlikni xo'jalik sudi e'tirof etgan va qarzdorning o'zi ixtiyoriy ravishda o'zini tugatish chog'ida e'lon qilgan bo'lishi kerak. Xo'jalik sudi qarzdor, kreditor va prokuror taqdim etgan bankrotlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi. Sud bankrotlikni e'tirof etgandan keyin ishonchli (vakolatli) shaxs tugatish komissiyasining kuzatuvi ostida korxonani tugatish, shu jumladan, qarzlarni uzish bo'yicha zarur harakatlarni amalga oshiradi. Korxonaning bunday ahvolga olib bormaslik uchun uning likvidliligi va to'lov qobiliyati muntazam tahlil qilib borilishi va baholab turilishi kerak. Likvidlilik va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

* mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmini ko'paytirish;
* tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot qoldiqlarini qisqartirish;
* debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish hamda ular yuzasidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash;
* o'z majburiyatlari bo'yicha vaqtida hisob-kitob qilish hamda muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash;
* joriy aktivlardagi o'z aylanma mablag'lari ulushini ko'paytirish;
* aylanma mablag'lar aylanish tezligini oshirish.

Likvidlilik va to'lov qobiliyati darajasi yaxshilanishi ko'p jihatdan korxonaning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy baquvvatligiga ham bog'liq bo'ladi.

17-Bob. KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

17.1. Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali)ning mohiyati

Mustaqillik davrida o'tayotgan har bir kun jamiyatimizning mazmun jihatidan yangilanayotganligidan dalolat berib kelmoqda. Yangi iqtisodiy kategoriyalar, tushunchalar hayotimizga shu darajada tezlik bilan kirib kelmoqdaki, ularni idrok qilish, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, metodologik muammolarni hal qilishga ko'pincha ulgurish qiyin bo'lmoqda. Bunday yangi iqtisodiy tushunchalardan biri korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali) tushunchasidir.

O'zbekistonda va boshqa hamdo'stlik mamlakatlarida chop etilayotgan tahlilga oid adabiyotlarda korxonaning moliyaviy – xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda asosan uning tasarrufidagi aktivlarni o'rganish bilan cheklanib qolmoqda[1].

Bu korxonaning iqtisodiy faoliyatini to'liq tahlil qilish uchun nazariy va metodologik jihatdan yetarli emas. Chunki korxonaning iqtisodiy faoliyati bevosita *unda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq.*

Iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishida faqat korxonaning aktivlari emas, balki boshqa elementlari ham ishtirok etadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini olaylik. Uning sodir bo'lishi uchun albatta moddiy – texnik ta'minoti, ya'ni uskunalar, jihozlar, bino, xomashyo kabilar zarur.

Ammo har qanday ilg'or texnika, yuqori sifatli xomashyo o'z-o'zidan iqtisodiy jarayonni sodir qilib, moddiy ne'mat ishlab chiqarmaydi. Unga albatta odamning aralashuvi, ya'ni jonli mehnatning mushtarakligi va ishtiroki zarur.

Demak, iqtisodiy jarayonlarni sodir etish uchun moddiy boyliklar bilan birgalikda jonli mehnatning ham ishtirokini ta'minlash lozim ekan. Shundagina ishlab chiqarish jarayoni sodir bo'lib, yangi mahsulot yaratilishiga erishish mumkin. Shu mahsulotning sotilishi esa korxonaning barcha xarajatlarini qoplab foyda olishini ta'minlaydi. Shundagina ishlab chiqarishning provard maqsadi amalga oshadi.

---

[1] *I.T. Abdukarimov.* Moliyaviy hisobotni qilish va tahlil qilish yo'llari. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999. I.O. Voljin, V.V. Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998. N.Hasanov, S. Najmidinov. Korxona moliyaviy holatini baholash muammolari va ularni hal qilish. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М.: ИП «Экоперспектива», 1997.

Bundan ko'rinib turibdiki, korxona iqtisodiy salohiyatining iqtisodiy tahlilda faqatgina buxgalteriya balansining aktiv qismida joylashgan korxona tasarrufidagi moddiy boylik (aktiv)larni tahlil qilish bilan chegaralanib qolish, uning iqtisodiy faoliyati to'g'risida to'liq xulosa qilish uchun yetarli emas ekan. Bu esa o'z navbatida, korxonaning iqtisodiy ahvoliga to'liq va batafsil baho berish uchun uning aktivlari bilan birgalikda mehnat resurslarini ham qo'shgan holda tahlil qilishni taqozo qiladi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida tahlilga oid adabiyotlarda[1] korxonaning moddiy boyligini (resurslarini) va mehnat resurslarini barcha resurslar majmuasi sifatida qaralishi ko'zda tutilgan edi. Ularning tahlili barcha boylik (resurs)lar tahlili deb yuritilar edi. Ammo iqtisodiyotni erkinlashtirish tamoyiliga asoslangan bozor munosabatlari hukm surayotgan sharoitda iqtisodiy jarayonlar tarkibida moddiy va mehnat resurslari bilan birgalikda nomoddiy aktivlar (faollar) ham ishtirok etadi. Bularning tarkibiga mualliflik huquqi, potentiar, «Nau-xau», savdo markasi, ruxsatnomalar (litsenziyalar) kabi tushunchalar qiymati kiradi. Bular moddiy bo'lmasada korxonaga xuddi moddiy boyliklar singari ma'lum darajada foyda keltiradi. Ammo ularni korxonaning moddiy boyligi (resursi)ga kiritish mumkin emas, chunki ular shakli, mazmuni va mohiyati jihatidan nomoddiydir.

Endilikda korxonada iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi va unga ma'lum darajada foyda keltirishi uchun moddiy (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar) va mehnat resurslari bilan birgalikda nomoddiy faollar ham ishtirok etadi. Ularning jamlanmasini oldingidek moddiy va mehnat resurslari deb atash yetarli bo'lmaydi, chunki ularning tarkibiga nomoddiy aktivlar kirmaydi. Shu tufayli ularni korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali) deb atashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki bunda moddiy resurslar bilan birgalikda nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari to'liq o'z ifodasini topadi. Bularning tarkibiy tuzilishini quyidagi chizmada ko'rish mumkin (17.1-chizma).

Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda unda sodir etilgan iqtisodiy jarayonni to'liq ta'minlaydigan barcha moddiy va mehnat resurslari hamda nomoddiy faollar tushuniladi.

Iqtisodiy tahlil aniq va amaliy fan bo'lganligi tufayli undagi qo'llanadigan barcha tushunchalar va ko'rsatkichlarning nomi, mazmuni hamda qiymati mavhum bo'lmasdan aniq, hisoblanadigan, ma'lum bir sohani o'zida ifoda etadigan bo'lishi lozim. Ushbu nazariy mulohaza bevosita korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali)ga ham tegishli. Shu tufayli uni baholashning ba'zi nazariy va metodologik jihatlariga, iqtisodiy tahlil nuqtayi nazaridan, e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

---

[1] *Баканов М.И., Шеремет А.Д.* «Теория анализа хозяйственной деятельности» — М.: Финансы и статистика, 1994, 241-bet, Кравченко Л.И. «Экономический анализ деятельности предприятий торговлии общественного питания. — М.: Вышая школа, 1997. 317—333 betlar va h.k.



17.1-chizma. **Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali)ning tuzilish tarkibi.**

17.2. Korxonaning iqtisodiy salohiyatining tarkibi va uning umumiy hajmini baholash yo'llari

Korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali)ni (Kis) baholashda eng avvalo iqtisodiy tahlilning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, uni qiymati va xarajati nuqtayi nazaridan aniqlash lozim. Ushbu ko'rsatkichning to'liq qiymatini baholashda asosan buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Buning uchun buxgalteriya balansidagi asosiy vosita (Av), aylanma mablag'lar (Am) va nomoddiy aktivlarning (Na) umumiy summalarini hamda hisob-kitob orqali aniqlangan ishchi va xizmatchilarning pulda ifodalangan qiymatini (Xq) olish mumkin.

Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy potensialini tahlil qilishda xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonida ishtirok etadigan barcha moddiy resurs (asosiy va aylanma mablag')lar, nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari birgalikda mushtarak holda o'rganiladi. Moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida ifodalanadi, ammo mehnat resurslari esa bu hisobot tarkibida ko'rsatilmaydi.

Buxgalteriya balansida, ayniqsa, korxona iqtisodiy salohiyatini baholashda moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar bilan birgalikda mehnat resurslari qiymatini ham inobatga olish lozim. Ammo bu ko'rsatkich buxgalteriya balansida ko'rsatilmaydi. Shu tufayli uning puldagi ifodasini topishni taqozo qiladi.

Hozirgi paytda mehnat resursining bahosini bemalol aniqlash uchun qonuniy asos yaratilgan. Chunki Respublikamizda oddiy ishchidan tortib to yetuk mutaxassisgacha ularni tayyorlash xarajati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bu xarajatlar xodimning birinchi boshlang'ich «shartli bahosi» bo'lib hisoblanadi. So'ngra uning malakasini oshirish, qayta o'qitish uchun xarajat qilinsa, bular ham uning ushbu

boshlang'ich bahosiga qo'shiladi. Bunday qilish zarurligining ikkinchi tomoni shundaki, hozir ko'pchilik mutaxassislarni tayyorlash korxona hisobidan pul to'lash evaziga amalga oshirilmoqda. Demak, korxona o'qishni bitirgan talabani ishga qabul qilsa, uning shu korxona uchun qiymati aniq.

Masalan, xodim korxona hisobidan 4 yil o'qigan. Birinchi yilda uning o'qishi uchun 200 ming so'm, ikkinchi yilda 250,0 ming so'm, uchinchi yilda 280,0 ming so'm va nihoyat to'rtinchi yilda 300,0 ming so'm pul to'lagan deb faraz qilsak, uning «shartli bahosi» 1030,0 ming so'mni tashkil qiladi. Agar xodimning o'qishi davlat yoki shaxsiy hisobdan amalga oshirilsa u holda korxona mazkur xodimni ishga qabul qilish bilan ushbu xarajatga tenglashtirgan miqdorda uning shartli qiymatini belgilash mumkin. Bundan tashqari, har yili davlat tomonidan diplom berilgan bakalavr, mutaxassis yoki magistrning «narxini» ham markazlashgan tarzda aniqlab e'lon qilib turishlari mumkin.

Xodimlarning umumiy qiymatini pulda ifodalash uchun quyidagi amalni bajarish lozim. Birinchidan, barcha xodimlarni kategoriyalarga bo'lib chiqadi. Har bir kategoriyadagi xodimlarni tayyorlashga ketgan qiymati aniqlanib, shu kategoriya bo'yicha ularning umumiy summasi topiladi. Ikkinchidan, har bir kategoriya bo'yicha aniqlangan summalarni qo'shib xodimlarning «shartli bahosini» ifodalaydigan jami summasini topishi mumkin. Buning uchun quyidagi matematik modelni qo'llash tavsiya qilinadi:

$$X_q = \sum_{i=1}^{n} a_1 + b_1.$$

Bunda: X_q – xodimlarni tayyorlashga ketgan xarajatlarning jami summasi;
i – xodimlar kategoriyasining tartib soni (i=1,n);
n – xodimlar kategoriyasining umumiy soni;
a_i – i – kategoriya xodimlarni tayyorlashga ketgan xarajatlar;
b_i – i – kategoriya xodimlarning malakasini oshirishga ketgan xarajatlar.

Endi korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali)ning umumiy qiymatini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$K_u = A_v + A_m + N_f + X_k.$$

Bunda: A_v – asosiy vositalar (kapital)ning o'rtacha qiymati;
A_m – aylanma mablag'lar (kapital)ning o'rtacha qiymati;
N_f – nomoddiy aktivlarning o'rtacha qiymati;
X_k – xodimlarning o'rtacha «shartli qiymati».

Agar ushbu formuladagi natijani «U» deb, omillarni $Xi \rightarrow n$ deb belgilasak, yuqoridagi formulaning matematik ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$U = \sum_{i=1}^{n} x_1 = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \ldots \ldots X_n.$$

Ushbu matematik modelga tahlilning an'anaviy usullarini qo'llab amaliy ma'lumotlardan foydalangan holda natijaning o'zgarishini ta'minlovchi barcha omillar ta'sirini hisoblab chiqsa bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlar asosida korxona iqtisodiy potensialiga kiruvchi kategoriyalarni alohida elementlari bo'yicha ham aniqlash mumkin. Buning tarkibiy tuzilishi 17.2-chizmada keltirilgan.

Shunday qilib, ushbu chizmadagi ko'rsatkichlar yig'indisi korxona iqtisodiy potesiali summasining umumiy hajmini ifodalaydi. Ammo joriy yilda ularning qancha qismi ishlatilganligini, qay darajada samaradorlikka erishganligini bilish uchun shu tahlil qilinayotgan davrga to'g'ri keladigan qismini ham aniqlash lozim. Bu faqat nazariy jihatidan emas, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Korxona iqtisodiy potensialni joriy xarajatlar miqdori bilan baholash uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$Ip^x = Avx \cdot Amx + Nfx + Xmx.$$

Korxona iqtisodiy salohiyatini (potensialni) baholashda qo'llaniladigan keltirilgan va joriy xarajatlar summasi ularning ishlatilishi va qoplanish muddatlarini aniqlash uchun foydalaniladi.

Iqtisodiy potensialning qoplanish muddatini (Ip_{qm}) aniqlash uchun iqtisodiy potensial summasini (Ip^k) keltirilgan xarajatlar (Ip^{kx}) summasiga bo'lish mumkin:

$$Ip_{km} = Ip^k \ : \ Ip^{kx}.$$

Misol tariqasida viloyatimizdagi joylashgan savdo aksiyadorlik jamiyatlari birining ma'lumotlarini keltirish mumkin. Undagi iqtisodiy potensialning jami summasi 74032,2 ming so'mni, keltirilgan xarajatlar summasi 8510,0 ming so'mni tashkil qiladi. Bu holda korxona iqtisodiy potensialning qoplanish muddati haqiqatda 8,7 yilga (74032,2 : 8510,0) teng bo'ladi.

Kapital qo'yilmalarning samaradorlik koeffitsienti me'yori O'zbekiston Respublikasida 0,12 holicha saqlanib qoladigan bo'lsa, uni iqtisodiy potensialga ham tatbiq etilsa, u holda uning qoplanish muddati 8,3 yilni (1:0,12) tashkil qilishi lozim. Demak, tahlil qilinayotgan obyektda iqtisodiy potensialning haqiqatda qoplanish muddati me'yorga nisbatan 0,4 yilga (8,7—8,3) ko'p ekanligi aniqlandi.

Iqtisodiy salohiyat (potensial)ning ishlatilish muddatini aniqlash uchun shartli ravishda, uning umumiy summasi joriy xarajatlari (Ip^x) summasiga bo'linadi, ya'ni:

$$I_{plm} = Ip^k \ : \ Ip^x.$$

Tahlil qilinayotgan savdo aksiyadorlik jamiyatida iqtisodiy potensialdan foydalanganlikning joriy xarajatlar summasi haqiqatda 4246,3 ming so'mni tashkil qildi.

17.2-chizma. **Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali)ning tarkibiy tuzilishi.**

U holda iqtisodiy potensialning ishlatilish muddati 17,4 yilga (74032,2 : 4246,3) teng bo'ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tahlil qilinayotgan obyekt iqtisodiy potensialning qiymati 17,4 yilga yangi yaratilgan mahsulotga o'z qiymatini to'liq o'tkazib bo'lar ekan.

17.3. Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali)ni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni tasniflash va aniqlash yo'llari

Iqtisodiy tahlilning maqsadi va asosiy vazifalaridan biri tahlil qilinayotgan obyekt yoki kategoriyani to'g'ri va batafsil baholash uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan hamda ularni nazariy va metodologik jihatdan asoslashdan iboratdir.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati bu keng qamrovli va teran tushuncha. Uning holati va undan foydalanish darajasi to'g'risida to'liq xulosa chiqarish uchun albatta ko'rsatkichlar tizimi (sistemasi)dan foydalanish lozim. Ammo ko'rsatkichlar sonining ko'pligi yoki ozligiga qarab o'rganilayotgan obyekt yoki kategoriyani baholash uchun yetarli yoki kam degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Shu tufayli ko'rsatkichlardan to'g'ri va oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Ko'rsatkichlar haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, eng avvolo ularni ilmiy asoslangan holda tasniflash lozim. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar juda ko'p belgilari bilan tasniflanadi. Ammo ushbu ishda korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni faqat iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifini ko'rib chiqamiz. Chunki ko'rsatkichlarni ushbu belgisi bilan tasniflash iqtisodiy xulosa chiqarish uchun yetarli bo'ladi.

Korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- iqtisodiy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy salohiyat bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Ushbu ko'rsatkichlar tasnifi 17.3-chizmada keltirilgan.

Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar talaygina. Ularning har biri ma'lum miqdorga ega bo'lmog'i va tahlil qilinayotgan kategoriyaning u yoki bu jihatini ifodalamog'i lozim. Buning uchun esa albatta aniq axborot ma'lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumotlarni shakllantirishda, to'plashda va ulardan foydalanishda iqtisodiy tahlilning SAHTXOB tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Ushbu tamoyilning mazmuni S – tegishli adabiyotlarda[1] o'z

[1] *M.K. Pardayev.* Korxona iqtisodiy salohiyati rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2 2000 y. 22–24-betlar. I. Axmatov, M.K. Pardayev. Iqtisodiy tahlilda «SAHTXOB» – Iqtidorli yoshlar-salohiyatimiz asosi. Samarqand. 1999-y. 67-bet.



17.3-chizma. **Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali)ni (Kis) ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi.**

aksini topgan. Ushbu maqolalarda SAHTXOB tamoyilining zarurligi, uning nazariy va amaliy ahamiyati tegishli dalillar bilan asoslangan.

Tahlilning eng muhim vazifalaridan biri ko'rsatkichlarni aniqlash usullarini ishlab chiqishdan iboratdir. Hozirgi paytda bu borada ancha takomillashgan tavsiyalar mavjud. Xususan, I.T.Abdukarimov[1], I.O. Voljin, V.V. Ergashboyevlar[2] har bir ko'rsatkichni aniqlashning nazariy jihatdan formulalarini keltirish bilan birga ularning ma'lumotlarini qaysi axborot manbalaridan olish lozimligini ham ko'rsatib bergan. Ushbu usulni amaliy va uslubiy qo'llanmalarda qo'llash ishning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu ishda hozirgi takomillashgan tavsiyalarga amal qilgan holda taklif qilingan barcha ko'rsatkichlarni aniq ma'lumotlarga asoslanib baholash yo'llarini ko'rsatib berishga harakat qilingan. Chunki, iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan birorta ko'rsatkich mavhum, noaniq, hisoblanishi qiyin bo'lmasligi lozim. Ushbu xulosalardan kelib chiqib korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning nimani ifodalashi, aniqlanish yo'llari va axborot manbalarini guruhlar bo'yicha ko'rib chiqiladi (17.1-jadval).

Keltirilgan ko'rsatkichlar uchun axborotlar asosan buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlardan olinadi.

Ammo shuni e'tirof etish kerakki, iqtisodiy tahlilga bag'ishlangan adabiyotlarda korxonaning iqtisodiy salohiyatiga va uni ifodalovchi ko'rsatkichlarga yetarli darajada ahamiyat berilmagan. Tahlilga bag'ishlangan deyarli barcha adabiyotlarda korxona iqtisodiy salohiyatining aktivlari (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar va nomoddiy faollar) buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan tahlil qilingan xolos. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tushunchasini, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llariga bag'ishlangan taklif va tavsiyalar biz tomondan ko'tarilib kelinmoqda. Bu xususda bir qancha adabiyotlarda[3] tavsiyalari bayon qilingan. Ushbu kategoriyani tahlil qilish usullari iqtisodiy tahlil fani bo'yicha o'quv dasturiga[4] ham kiritilgan.

---

[1] *Abdukarimov I.T.* Как читат и аназироват финансовую отчетност. — T.: Из. дом «Мир экономики и право», 1998. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni ish va tahlil qilish yo'llari. — T: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999.

[2] *Voljin O.I., Ergashboyev V.V.* Moliyaviy tahlil. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998., Saviskaya G.V. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. — M.: ИП «Экоперспектива», 1997. va h.k.

[3] *M.K. Pardayev.* Moliyaviy tahlil muammolari. //Iqtisod va hisobot, №1, 1997. 43—45-betlar. M.K. Pardayev tahlil metodologiyasi. — Samarqand, SamKI, 1997, 59—61-betlar, M.K. Pardayev, B.I. Isroilov. Moliyaviy tahlil. —T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999., M.K. Pardayev. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish». Samarqand, SamKI, 1998 va h.k.

[4] *Pardayev M.K.* Xo'jalik faoliyatini taplil qilish asoslari. — Samarqand. SamKI. 1996 (o'quv dasturi), Pardayev M.K. Taqlil va xo'jalik konyukturasi monitoringi. — Samarqand, SamKI, 1996. (o'quv dasturi). Abdukarimov I.T. va boshqalar. Iqtisodiy taplil. Samarqand, SamKI, 1999 (o'quv dasturi).

17.1-jadval

Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali)ni ifodalovchi ko'rsatkichlarning mazmuni va aniqlanish yo'llari

Ko'rsatkich-larning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi	Axborot manbalarida ifodalanishi
1	2	3	4
1. Is. holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar			
1.1.Is.umumiy va o'rtacha qiymati	Tahlil davrida Is.summasining o'rtacha necha so'm ekanligini ifodalaydi	$\frac{Is.yb + Is.yo}{2}$	
1.2.Is.ning tarkibiy tuzilishi	Is.har bir moddasining (Isi) umumiy summadagi ulushini ifodalaydi	$\frac{Isi}{Is} x100$	
1.2.1.Av.ning Is. umumiy summasidagi ulushi	Av.ning Is.umumiy summasida nechafoiz tashkil qilishini ko'rsatadi	$\frac{Ab}{Is} x100$	
1.2.2.Am.ning Is.umumiy summasidagi ulushi	Am.ning Is.umumiy hajmida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi	$\frac{Am}{Is} x100$	
1.2.3.Na.ning Is. umumiy summasidagi ulushi	Na.ning Is.umumiy summasida necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi	$\frac{Na}{Is} x100$	
1.2.4.Ms.ning Is.umumiy summasidagi ulushi	Mehnat salohiyatining Is. umumiy summasida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi	$\frac{Ms}{Is} x100$	
1.3.Is.tarkibiga kiruvchi moddalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar	Is.tarkibiga kiruvchi har bir moddasi (Av.Am.Na. Ms.) bo'yicha ularning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi tegishli moddalar tahlil qilinganda alohida tasvirlanadi	Ushbu ko'rsatkichlar tegishli moddalarni tahlil qilganda aniqlanadi.	

1	2	3	4
2. Is. bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar			
2.1.Korxona aktivlarining Is. bilan ta'minlanganligi	1 so'm korxona aktivlari summasigaqancha Is. summasi to'g'ri kelganligini ko'rsatadi	$\frac{Is}{B}$	
2.2.Ms.ning Is. bilan ta'minlanganligi	1 so'm mehnat salohiyati qiymatigaqancha Is. summasi to'g'ri kelganligini ifodalaydi	$\frac{Is}{Ms}$	
2.3.Is.tarkibiga kiruvchi moddalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar	Is.ning tarkibiga kiruvchi har bir moddasi bilan ta'minlanganlikni ifoda etadigan ko'rsatkichlar tizimi Av.Am.Na.Ms.ko 'rsat-kichlar o'rganilganda alohida tasvirlanadi	Ushbu ko'rsatkichlar tegishli moddalarni tahlil qilganda aniqlanadi.	
3. Korxona Is. samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar			
3.1. Is.rentabelligi	100 so'm iqtisodiy salohiyat qiymatiganecha so'm foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi	$\frac{F}{Is} x100$	
3.2. Is. daromadliligi	100 so'm Is.qiymatiga necha so'm daromad to'g'ri kelishini ifodalaydi		
3.3.Is.natijaviyligi	1 so'm Is.qiymatiganecha so'm natijaviy ko'rsatkich (sotilgan mahsulot, tovar mahsuloti va h.k.) to'g'ri kelishini ko'rsatadi	$\frac{D}{Is} x100$	
3.4. Is.tarkibiga kiruvchi moddalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar	Is.tarkibiga kiruvchi moddalar (Av.Am.Na. Ms.) samaradorligini o'rganishda ko'rsatkichlar tizimi shaklida foydalaniladi	Ushbu ko'rsatkichlar tegishli moddalarni tahlil qilganda aniqlanadi	

Ko'rinib turibdiki, korxonaning iqtisodiy salohiyati va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar xususida ancha tavsiyalar aytilgan va ular ma'lum darajada e'tirof etilmoqda. Biroq ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari hamon yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu holat uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni nazariy jihatdan har birini asoslashni va so'ngra ularni tahlil qilish usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Shu jihatdan korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini asoslash va ularni tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki xo'jalik yurituvchi subyektlarga daromad (foyda) keltirishda, uning faoliyatini ta'minlashda korxonaning aktivlari bilan birga unda band bo'lgan mehnat salohiyatlari ham ishtirok etadi.

Iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi uchun, ta'kidlanganidek, asosiy va aylanma mablag'lar bilan ish kuchining ham ishtiroki lozim. Hozirgi paytda ushbu ko'rsatkichlar bilan birgalikda nomoddiy faollar ham korxonaga ma'lum darajada daromad (foyda) keltirishda ishtirok etadi. Shu tufayli tahlil jarayonida ushbu holatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

17.4. Korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar omilli tahlilining metodologik jihatlari

Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali) samaradorligini aniqlashda, samaradorlikning mumtoz ta'rifidan kelib chiqqan holda, natijaviy ko'rsatkichlarni iqtisodiy salohiyatining qiymatiga nisbati olinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, korxonaning natijaviy ko'rsatkichlari birqancha ko'rsatkichlar tizimidan iboratdir. Ularga ish natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlar (sanoatda-ishlab chiqarilgan yoki sotilgan mahsulot hajmi, qurilishda bajarilgan qurilish montaj ishlarining hajmi, transportda tashilgan yuk hajmi – tonna km da, savdoda – tovar aylanmasi (oboroti)ning hajmi va h.k.), daromadalar, foyda kabi ko'rsatkichlari kiradi.

Ish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlarga korxonaning yalpi natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlari kiradi. Daromadlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga daromadning turli xillari (yalpi daromad, soliqqa tortiladigan daromad, asosiy faoliyat daromadi, tasodifiy daromad kabilar) kiradi.

Ulardan qaysi ko'rsatkichni tanlab olish bevosita tahlilning maqsadi va vazifalariga bog'liq.

Foyda xususida ham xuddi shunday fikirlarni aytish mumkin. Chunki uning ham turlari ko'p. Masalan, bular tarkibiga yalpi foyda, marjinal foyda, sof foyda, taqsimlanmagan foyda, moliyaviy faoliyat foydasi, umumxo'jalik foydasi, tasodifiy foyda kabilarni kiritish mumkin.

Tahlil jarayonida qaysi ko'rsatkichdan qay holatda foydalanish ham uning maqsad va vazifalariga bevosita bog'liq. Shu tufayli, ushbu ko'rsatkichlar tahlili uchun metodologik asos tariqasida korxonaning iqtisodiy

salohiyati umumiy qiymatining samaradorligini ifodolovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topildi.

Bu ko'rsatkichlar tizimi nazariy va metodologik jihatdan asoslangan hamda u o'quv va amaliyotda tegishli sinovdan o'tgan.

Iqtisodiy salohiyat tushunchasi, uning samaradorligini tahlil qilish yo'llari muallif rahbarligida tadqiqotchi B.I. Isroilov tomonidan himoya qilindi[1]. Ko'rinib turibdiki, korxona iqtisodiy salohiyati, iqtisodiy tahlil fanining muhim obyekti sifatida olimlar va amaliyotchilar o'rtasida tan olinmoqda va mustaqil tahliliy ko'rsatkich sifatida shu fanning tarkibiy qismidan joy olmoqda. Zero ko'rsatkichlar ushbu fan bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturiga[2] va birqancha ma'ruza matinlariga[3] ham kiritilgan.

Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali) samaradorligini ifo-dalovchi ko'rsatkichlar tizimiga, ta'kidlanganidek, quyidagilar kiradi:

– iqtisodiy salohiyatning natijaviyligi (Isa);
– iqtisodiy salohiyatning daromadligi (Isd);
– iqtisodiy salohiyatning foydaliligi (rentobelligi); (Isr).

Ushbu ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Shu tufayli tahlil jarayonida ularni bir-biri bilan bog'liq ravishda birgalikda o'rganish maqsadga muvofiq. Bu uchun esa quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilinadi (17.4-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan ancha oshgan. Uning rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 126,3 % ni tashkil qilgan bo'lsa, daromadligi 130,5 % ni, natijaviyligi esa 116,4 % ni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish su'ratiga ega bo'lgan. Ammo bu umumiy yaxlit xulosa chiqarish imkonini bermaydi. Shu uchun ushbu ko'rsatkichlar tizimiga asosan kompleks ko'rsatkich hajmini aniqlashni tavsiya qilinadi. Buning uchun quyidagi formulani qo'llash mumkin:

$$Iskk = (Isr \times Kmr) + (Isd \times Kmd) + (Isa \times Kma).$$

Bunda: *Iskk* – iqtisodiy salohiyat kompleks ko'rsatkichi;

Kmr – iqtisodiy salohiyat rentabelligining mohiyatlik koeffitsientidir (*Kmr* = 10).

---

[1] *B.I. Isroilov*. Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish.

[2] *M.H. Pardayev*. Iqtisodiy tahlil. O'quv dasturi. Samarqand, SamKI, 1998.

[3] *Pardayev M.Q*. Korxonaning mehnat potensiali tahlili. – Samarqand, SamKI, 1997. Pardayev M.K. Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini tahlil qilish. – Samarqand, SamKI, 1998. Pardayev M.K. Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini baholash va tahlil qilish usullari. – Samarqand, SamKI, 1999. Pardayev M.K. Korxonalar moliyaviy salohiyati (potensiali) tahlili. – Samarqand, SamKI, 2000.

17.4-jadval

Korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot yilidagi holati (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,−)	O'zgarish sur'ati %
I.Hajm ko'rsatkichlari				
1.Foyda	368,0	496,2	+128,2	134,8
2.Daromad	511,0	711,7	+200,7	139,3
3.Sotilgan mahsulot hajmi	4583,3	5694,5	+1111,2	124,2
4.Iqtisodiy salohiyat potensial) qiymati.	1179,0	12590,0	+795,0	106,7
II.Nisbiy ko'rsatkichlar				
5.Iqtisodiy salohiyat rentabelligi (Isf), % (1 q:4 q) 001	3,12	3,94	+0.82	126,3
6.Iqtisodiy salohiyat daromadliligi (Isd) tiyin (2q:4q).	4,33	5,65	+1,32	130,5
7.Iqtisodiy salohiyat natijaviyligi (Isq) tiyin (3q :4q)	38,86	45,23	+6,37	116.4
8.Iqtisodiy salohiyat samaradorligining kompleks ko'rsatkichi 5qx10+ 6 qx5+ 7qx1)	91,71	112,88	+21,17	123,1

Manba. Korxonaning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ayrim ma'lumotlar. Tahlilning metodologik jihatini ta'minlash maqsadida. Muallif tomonidan o'zgartirilib berilmoqda.

Kma – iqtisodiy salohiyat daromadliligining mohiyatining koeffitsienti (*Kma* = 5)

Kmq – iqtisodiy salohiyat natijaviyligining mohiyatining koeffitsienti (*Kmq* = 1)

Ushbu formulani jadval ma'lumotlariga qo'llash uchun har bir ko'rsatkichning mutloq miqdorini uning mohiyatlilik koeffitsentiga ko'paytiriladi va chiqqan natija jamlanadi. U holda korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligining kompleksi ko'rsatkichi o'tgan yilda 91,71 ga (3,12 x 10 + 4,33 x 5+ 38,86 x 1) va hisobot yilida 112,88 ga (3,94 x 10 + 5.65 + 45,23 x 1) teng ekanligini ko'ramiz. Kompleks ko'rsatkichining miqdori o'tgan yilga nisbatan 21,17 ga yoki 123,1 % ga o'sgan. Demak, barcha ko'rsatkich bo'yicha natija hisobot yilida, o'tgan yilga nisbatan o'rta hisobda 23,1 % ga ko'p o'sgan.

Iqtisodiy tahlilning eng muhim bosqichi va asosiy maqsadi natija o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini hisoblashdan iboratdir. Bu yerda natijaviy

ko'rsatkich sifatida iqtisodiy salohiyat samaradorligining har bir ko'rsatkichini olish va ularni alohida tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish mumkin.

Metodologik asos sifatida iqtisodiy salohiyat rentabelligi ko'rsatkichining omilli tahlilga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida har bir ko'rsatkichning foydaliligi ko'rsatkichlar tizimida muhim o'rinni egallaydi. Korxona iqtisodiy salohiyati rentabelligi o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

– foydaning daromaddagi hissasi (Fd) – x_1 ;
– daromadning mahsulot hajmidagi hissasi (Dm) – x_2;
– iqtisodiy salohiyatning natijaviyligi (Isa) – x_3.

Ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Isr = Fd \cdot Dm \cdot IsQ = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 = \sum_{i=1}^{3} X_i.$$

Ularning bir-biri bilan bog'liqligi 17.9-chizmada tasvirlangan.



17.9-chizma. **Iqtisodiy salohiyat samaradorligi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro bog'liqligi.**

Ushbu chizmada keltirilgan omillarning ta'sirini tahlilning turli usullari bilan aniqlash mumkin. Tahlilning an'anaviy usullaridan biri bo'lgan zanjirli almashtirish usulini qo'llab yechish yo'lini ishlab chiqildi. Ushbu formulaga asosan iqtisodiy salohiyat rentabelligining o'zgarishiga uchta omil ta'sir qiladi. Ularning ta'siri quyidagicha hisoblanadi.

1.Iqtisodiy salohiyat rentabelligining o'zgarishiga foyda summasining daromaddagi hissasi o'zgarishininig ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Ux_1 = (X_1^h \cdot X_2^r \cdot X_3^r) - (X_1^r \cdot X_2^r \cdot X_3^r).$$

2. Tahlil qilinayotgan natijaviy ko'rsatkichga daromadning mahsulot hajmidagi hissasining o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

17.4-jadval

Korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot yilidagi holati (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,−)	O'zgarish sur'ati %
I.Hajm ko'rsatkichlari				
1.Foyda	368,0	496,2	+128,2	134,8
2.Daromad	511,0	711,7	+200,7	139,3
3.Sotilgan mahsulot hajmi	4583,3	5694,5	+1111,2	124,2
4.Iqtisodiy salohiyat potensial) qiymati.	1179,0	12590,0	+795,0	106,7
II.Nisbiy ko'rsatkichlar				
5.Iqtisodiy salohiyat rentabelligi (Isf), % (1 q:4 q) 001	3,12	3,94	+0.82	126,3
6.Iqtisodiy salohiyat daromadliligi (Isd) tiyin (2q:4q).	4,33	5,65	+1,32	130,5
7.Iqtisodiy salohiyat natijaviyligi (Isq) tiyin (3q :4q)	38,86	45,23	+6,37	116,4
8.Iqtisodiy salohiyat samaradorligining *kompleks ko'rsatkichi* 5qx10+ 6 qx5+ 7qx1)	91,71	112,88	+21,17	123,1

Manba. Korxonaning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ayrim ma'lumotlar. Tahlilning metodologik jihatini ta'minlash maqsadida. Muallif tomonidan o'zgartirilib berilmoqda.

Kma – iqtisodiy salohiyat daromadliligining mohiyatining koeffitsienti (*Kma* = 5)

Kmq – iqtisodiy salohiyat natijaviyligining mohiyatining koeffitsienti (*Kmq* = 1)

Ushbu formulani jadval ma'lumotlariga qo'llash uchun har bir ko'rsatkichning mutloq miqdorini uning mohiyatlilik koeffitsentiga ko'paytiriladi va chiqqan natija jamlanadi. U holda korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligining kompleksi ko'rsatkichi o'tgan yilda 91,71 ga (3,12 x 10 + 4,33 x 5+ 38,86 x 1) va hisobot yilida 112,88 ga (3,94 x 10 + 5.65 + 45,23 x 1) teng ekanligini ko'ramiz. Kompleks ko'rsatkichining miqdori o'tgan yilga nisbatan 21,17 ga yoki 123,1 % ga o'sgan. Demak, barcha ko'rsatkich bo'yicha natija hisobot yilida, o'tgan yilga nisbatan o'rta hisobda 23,1 % ga ko'p o'sgan.

Iqtisodiy tahlilning eng muhim bosqichi va asosiy maqsadi natija o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini hisoblashdan iboratdir. Bu yerda natijaviy

ko'rsatkich sifatida iqtisodiy salohiyat samaradorligining har bir ko'rsatkichini olish va ularni alohida tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish mumkin.

Metodologik asos sifatida iqtisodiy salohiyat rentabelligi ko'rsatkichining omilli tahlilga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida har bir ko'rsatkichning foydaliligi ko'rsatkichlar tizimida muhim o'rinni egallaydi. Korxona iqtisodiy salohiyati rentabelligi o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- foydaning daromaddagi hissasi (Fd) – x_1 ;
- daromadning mahsulot hajmidagi hissasi (Dm) – x_2;
- iqtisodiy salohiyatning natijaviyligi (Isa) – x_3.

Ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Isr = Fd \cdot Dm \cdot IsQ = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 = \sum_{i=1}^{3} X_i.$$

Ularning bir-biri bilan bog'liqligi 17.9-chizmada tasvirlangan.



17.9-chizma. **Iqtisodiy salohiyat samaradorligi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro bog'liqligi.**

Ushbu chizmada keltirilgan omillarning ta'sirini tahlilning turli usullari bilan aniqlash mumkin. Tahlilning an'anaviy usullaridan biri bo'lgan zanjirli almashtirish usulini qo'llab yechish yo'lini ishlab chiqildi. Ushbu formulaga asosan iqtisodiy salohiyat rentabelligining o'zgarishiga uchta omil ta'sir qiladi. Ularning ta'siri quyidagicha hisoblanadi.

1.Iqtisodiy salohiyat rentabelligining o'zgarishiga foyda summasining daromaddagi hissasi o'zgarishininig ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Ux_1 = (X_1^h \cdot X_2^r \cdot X_3^r) - (X_1^r \cdot X_2^r \cdot X_3^r).$$

2. Tahlil qilinayotgan natijaviy ko'rsatkichga daromadning mahsulot hajmidagi hissasining o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta\ Ux_2 = (X_1^h \cdot X_2^h \cdot X_3^r) - (X_1^h \cdot X_2^r \cdot X_3^r).$$

3. Iqtisodiy salohiyat rentabelligiga uning natijaviyligi o'zgarishining ham ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Ux_3 = (X_1^h \cdot X_2^h \cdot X_3^h) - (X_1^h \cdot X_2^h \cdot X_3^r).$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta U = \Delta Ux_1 \pm \Delta Ux_2 \pm \Delta Ux_3.$$

Ushbu omillarning natijaga ta'sirini aniqlash uchun oldin omillarning miqdori aniqlanadi. Buning uchun 17.5-jadval tuzish tavsiya qilinadi.

Mehnat potensialning qiymati o'tgan yilda 2450 ming so'mni, hisobot yilida 2890 ming so'mni tashkil qilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy salohiyat rentabelligi tahlil davrida 0,82 bandga yoki 126,3%ga ko'paygan. Bunga ta'sir qiluvchi barcha omillar (foydaning daromaddagi hissasidan tashqari) miqdori oshgan. Ularning natijaga ta'siri qanday bo'lganligini aniqlash uchun 17.6-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning iqtisodiy salohiyat rentabelligi oshgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lgan.

1. Foydaning daromaddagi ulushining 2,30% kamayganligi korxona iqtisodiy potensiali rentabelligik darajasini 0,10% (3,02—3,12) kamaytirgan.

17.5-jadval

Iqtisodiy salohiyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning miqdorini aniqlash hisob-kitobi (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,—)	O'zgarish sur'ati %
1.Hajm ko'rsatkichlari				
1.Foyda	368,0	496,2	+ 128,2	134,8
2.Daromadlar	511,0	711,7	+ 200,7	139,3
3.Sotilgan mahsulot hajmi	4583,3	5694,5	1111,2	124,3
4.Iqtisodiy salohiyat (potensial) qiymati	11795,0	1259,0	+795,0	106,7
Nisbiy ko'rsatkichlar				
5.Foydaning daromaddagi hissasi, % (X1) (1 : 2)	72,02	69,72	-2,30	96,8
6.Daromadning mahsulot hajmidagi hissasi, % (X2) (2:3)	11,15	12,50	+1,35	112,1
7.Iqtisodiy salohiyat (potensia-li)ning natijaviyligi% (X3) (3:4)	38,86	45,23	+6,37	116,4
8.Iqtisodiy salohiyat (potensia-lining) rentabelligi, % (U) (1:4)	3,12	3,94	40,82	126,3

17.6-jadval

Iqtisodiy salohiyat (potensial) samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini aniqlash hisob-kitobi

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,−)	Zanjirli almashtirishlar		
					I	II	III
1.	Foydaning daromaddagi ulushi	72,02	69,72	-2,30	69,72	69,72	69,72
2.	Daromadning sotilgan mah-sulotdagi hissasi, koeffitsiyent	0,1115	0,1250	+0,0135	0,1115	0,1250	0,1250
3.	Iqtisodiy salohiyat-ning (potensiali)ning natijaviyligi, koeffitsiyent	0,3886	0,4523	+0,0637	0,3886	0,3886	0,4523
4.	Iqtisodiy salohiyat (potensial) rentabelligi, %	3,12	3,94	+0,82	3,02	3,39	3,94

2. Daromadning mahsulotdagi hissasining 1,35% ko'payganligi, iqtisodiy potensial rentabelligini 0,37% (3,39−3,02) oshirgan.

3. Iqtisodiy potensial natijaviyligining 6,37 % oshganligi uning rentabellik darajasini 0,55% (3,94−3,39) ko'paytirgan.

Barcha omillar ta'siri iqtisodiy potensial rentabelligi darajasining umumiy o'zgarishiga teng: -0,10+0,37+0,55=+0,82.

Xuddi shunday boshqa omillar ta'sirini va ushbu omillarning ta'sirini boshqa usullarni qo'llagan holda ham hisoblash mumkin. Ushbu bobda metodologik asos bo'lishi uchun faqat bitta ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi uchta omilni tahlil qilish bilan chegaralandi.

Omilli tahlil korxonada mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni axtarib topish imkonini ham beradi. Misolda tahlil qilingan natijaviy ko'rsatkich − korxona iqtisodiy salohiyati rentabelligining miqdori 0,82%ga oshgan. Ammo uning yanada oshish imkoniyati bo'lgan. Masalan, foydaning daromaddagi ulushi 2,30% kamayganligi natija ko'rsatkichini 0,10% kamaytirib yuborgan. Agarda ushbu ko'rsatkichning miqdori o'tgan yilgi hajmda saqlanib qolganda edi iqtisodiy salohiyat rentabelligi yana 0,10% oshgan bo'lar edi. U holda uning haqiqiy miqdori 3,94% emas, balki 4,04 bo'lar edi (3,94 + 0,10 = 4,04). Uning o'tgan yilga nisbatan farqi 0,82% emas, balki 0,92 % ga (0,82 + 0,10) teng bo'lardi. U holda mazkur ko'rsatkichning o'sish sur'ati 126,3% emas balki 129,5%

$(\frac{4,04}{3,12} \cdot 100 = 129,5)$ ni tashkil qilgan bo'lar edi.

Ko'rinib turibdiki, omilli tahlilning amaliyotda qo'llanilishi hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega ekan. Korxona iqtisodiy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli uning samaradorlik darajasi ham ana shu ko'rsatkichlar ta'sirida shakllanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning iqtisodiy potensiali samaradorligini aniqlash uchun foyda summasini (F) uning to'la qiymatiga (Ip) bo'linishini ko'rgan edik. Agar uning qiymatini boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liq holda qaralsa, iqtisodiy potensial rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar soni ko'payishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichga shu aniqlangan omillar ta'sirini hisoblash uchun eng avvalo uning to'liq qiymatini keltirilgan va joriy xarajatlar summasining o'zgarishi bilan bog'liq omillarni olish ham mumkin. Iqtisodiy potensialning samaradorligiga yuqorida qayd etilgan omillarning ta'sirini hisoblash uchun quyidagi bog'liklikdan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$\frac{F}{Ip^k} = \frac{F}{Ip^{jx}} x \frac{Ip^{jx}}{Ip^{kx}} x \frac{Ip^{kx}}{Ip^k}.$$

Bunda: F – foyda summasi

Ip^{jx} – joriy xarajatlar summasi:

F/Ip^{jx} – iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining samaradorligi;

Ip^{kx} – keltirilgan xarajatlar summasi;

Ip^{jx}/Ip^{kx} – iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining keltirilgan xarajatlardagi hissasi;

Ip^q – iqtisodiy potensialning umumiy qiymati;

Ip^x / Ip^k – iqtisodiy potensial keltirilgan xarajatlarning umumiy qiymatidagi hissasi.

Ushbu formuladagi natijani «U» va omillarni mos ravishda X_1, X_2 va X_3 deb belgilasak u quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 = \sum_{i=1}^{3} X_i \quad (i=1,3)$$

Ushbu formulaga tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullarni va amaliy ma'lumotlarni qo'llab yechilsa, iqtisodiy potensial samaradorligining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash mumkin. Iqtisodiy potensial samaradorligining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash uchun zanjirli almashtirish usulini tavsiya qilinadi.

1. Iqtisodiy potensial samaradorligining o'zgarishiga joriy xarajatlar samaradorligining ta'sirini (ΔUx_1) topish uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta Ux_1 = (X_1^h \cdot X_2^f \cdot X_3^f) - Ur.$$

Bunda: R indeksi – ko'rsatkichning rejasi;

X indeksi – ko'rsatkichning haqiqiy miqdori.

2. Iqtisodiy potensial samaradorligining o'zgarishiga joriy xarajatlarning keltirilgan xarajatlardagi hissasi o'zgarishning ta'sirini (ΔUx_2) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Ux_2 = (X_1^h \times X_2^h \times X_3^f) - (X_1^x \times X_2^r \times X_3^f).$$

3. Iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining keltirilgan xarajatlardagi hissasi o'zgarishining (ΔUx_3) ta'sirini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux_3 = U_1 - (X_1^h - X_2^h \times X_3^f).$$

Barcha omillar ta'siri samaradorligining umumiy o'zgarishiga teng bo'ladi:

$$U = \Delta Ux_1 + \Delta Ux_2 + \Delta Ux_3.$$

Ushbu usulning amaliy jihatidan qulayligini va amaliyotda foydalanish mumkinligini isbotlash uchun quyidagi jadvaldan foydalanish tavsiya qilinadi. Birinchisi, iqtisodiy potensial samaradorligini aniqlash usuli (17.7-jadval).

17.7-jadval

Tahlil qilanayotgan obyektda hisobot davrida iqtisodiy potensial rentabelligi va u bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash usuli

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (−, +)	O'sish sur'ati
	I Hajm ko'rsatkichlari				
1.	Foydasummasi, ming sum	368,0	496,2	+128,2	134,8
2.	Iqtisodiy potensialning umumiy qiymati, ming sum	11745,0	12590,0	+795,0	106,7
3.	Iqtisodiy potensialga tog'ri keladigan xarajatlar ming so'm	1468,9	1429,5	+39,4	97,7
4.	Iqtisodiy potensialning joriy xarajatlari, ming so'm	356,2	377,4	+21,2	106,0
	II Nisbiy ko'rsatkichlar				
5.	Iqtisodiy potensialning rentabelligi, % (1q : 2q) x100	3,12	3,94	+0,82	126,3
6.	Iqtisodiy potensial joriy xarajat-lari samaradorligi, % (1q:4q x100)	103,30	131,47	+28,17	127,3
7.	Iqtisodiy potensial joriy xara-jatlarining keltirilgan xara-jatlardagi hissasi, koeff. (4q: 3q)	0,2425	0,2640	+0,0215	108,9
8.	Iqtisodiy potensial keltirilgan xarajatlarning umumiy qiymati-dagi hissasi, koeffitsient (3q:2q)	0,1245	0,1135	0,0110	91,2

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot davrida foyda summasi 134,8 % yoki 128,2 ming so'mga oshgan. Iqtisodiy potensialining umumiy qiymati esa o'tgan yilga nisbatan 795,0 ming so'mga yoki 6,7 % ga ko'paygan. Ammo iqtisodiy potensialga to'g'ri keladigan keltirilgan xarajatlar summasi 39,4 ming so'mga yoki 2,7 %ga kamaygan. Joriy xarajatlar summasi esa 21,2 ming so'mga yoki 6,0 %ga oshgan. Oqibatda iqtisodiy potensialning rentabelligi 0,82 punktga va boshqa shu bilan bog'liq birqancha ko'rsatkichlarning ham oshganligi ko'rinib turibdi. Faqat keltirilgan xarajatlarning umumiy qiymatidagi hissasi 8,8 % kamaygan. Biroq ushbu jadval ma'lumotlari iqtisodiy potensial rentabelligining o'zgarishiga qaysi omillar qay darajada ta'sir qilganligini tasvirlay olmaydi. Shu tufayli omilli tahlil uchun quyidagi ikkinchi jadvaldan foydalanishni tavsiya qilamiz (17.8-jadval).

17.8-jadval

Iqtisodiy potensial samaradorligiga alohida omillar ta'sirini hisoblash

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,−)	Zanjirli almashtirishlar		
					I	II	III
1.	Iqtisodiy potensial joriy xarajatlari samaradorligi, %	103,30	131,47	+28,17	131,47	131,47	131,47
2.	Iqtisodiy potensial joriy xarajatlarning keltirilgan xarajatlardagi hissasi	0,2425	0,2640	+0,0215	0,2425	0,2640	0,2640
3.	Iqtisodiy potensial keltirilgan xarajatlarning umumiy qiymatidagi xissasi	0,1245	0,1135	-0,0110	0,1245	0,1245	0,1135
4.	Iqtisodiy potensialning rentabelligi,%	3,12	3,94	+0,82	3,97	4,32	3,94

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy potensial rentabelligining oshishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Iqtisodiy potensial joriy xarajatlar samaradorligining 28,17 punktga oshganligi iqtisodiy potensial umumiy rentabelligini 0,85 punktga (3,97−3,12) oshishiga muvoffiq bo'ldi.

2. Iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining keltirilgan xarajatlardagi hissasi ham 0,0215 punktga oshgan. Bu esa iqtisodiy potensial rentabelligining 0,35 punktga (4,32−3,97) ko'paytirgan.

3. Iqtisodiy potensialning keltirilgan xarajatlarining umumiy qiymatidagi hissasi 0,0110 punktga kamaygan. Bu omil iqtisodiy potensial rentabelligini

0,38 punktga (3,94—4,32) kamaytirgan. Barcha omillar ta'siri evaziga iqtisodiy potensial rentabelligi 0,82 punktga (0,85 +0,35 — 0,38) oshgan.

Ushbu hisob-kitob natijasi ham korxona iqtisodiy potensiali rentabelligini oshirishning ichki imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu bevosita iqtisodiy potensial keltirilgan xarajatlar umumiy qiymatning kamayishida nomoyon bo'lmoqda. Keltirilgan xarajatlarning shunday yuzaki qaraganda, ko'payishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinday ko'rinadi. Ammo keltirilgan xarajatlarning ko'payishi iqtisodiy potensial qiymatining yangi yaratilayotgan mahsulotga (ish, xizmatga) tezroq ko'chayotganligi va uning qoplanish muddatini tezlashtirayotganligidan dalolat beradi.

Misolda iqtisodiy potensiali keltirilgan xarajatlarining umumiy qiymatidagi hissasi o'tgan yilgi darajada qolganda edi rentabellik darajasi yana 0,38 punkt % oshgan bo'lur edi. U holda rentabellik darajasining haqiqiy miqdori 3,94 % emas, balki, 4,32 % ni (3,94 + 0,38) tashkil qilgan bo'lur edi. O'tgan yilga nisbatan uning farqi 0,82 % emas, balki, 1,20 % ga (4,32—3,12) teng bo'lardi.

Ko'rinib turibdiki, omilli tahlil hozirgi sharoitda ichki imkoniyatlarni axtarib topish uchun muhim ihtisodiy dastaklardan biri ekan. Shu tufayli uning nazariy va metodologik asosini yaratish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bozor munosabatlarga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida korxonaning iqtisodiy salohiyatidan ham samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ammo bu muammo iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Buni inobatga olib, ishning navbatdagi bobi aynan shu moliyaviy salohiyatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish muammolariga bag'ishlanadi.

18-Bob. KORXONADA ASOSIY VOSITALARNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI ANIQLASH VA TAHLIL YO'LLARI

18.1. Korxonaning asosiy vositalarini baholash turlari

Bozor munosabatlari sharoitida har bir tadbirkor, korxona rahbari va investor korxonaning moliyaviy holati ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish usullarini egallagan bo'lishi va ular asosida maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishni bilishi lozim. Albatta, asosiy vositalar tahliliga oid ko'p adabiyotlar chop etilgan. Ammo ularning ko'pi rejali iqtisodiyot sharoitiga mos edi. Hozir esa asosiy vositalarga yondoshuv tubdan o'zgarib ketdi. Uni boholash, amartizatsiyalash, hisobga olish kabi muhim jihatlari bugungi kun talablaridan kelib chiqib tubdan o'zgartirildi. Bularning hammasi uni tahlil qilish usullariga ham ayrim o'zgartirishlar kiritishni taqozo qiladi.

Asosiy vositalarning ahamiyati shundan iboratki, ular mehnat jarayonida mulkiy shaklini saqlab qoladi va har bir bosqichdan keyin ishlab chiqarish sohasini tark etmaydi. Ularning qiymati mahsulotga darhol emas, qismlarga bo'lingan holda bosqichma-bosqich o'tib boradi.

Xo'jalik subyekti aniq baholangan aktivdan iqtisodiy foyda olishiga ishonchi bo'lgan taqdirdagina asosiy vositalarni aktiv sifatida tan oladi. Buxgalteriya hisobining milliy standartiga ko'ra, asosiy vositalar sotib olingan, o'rnatilgan, amaliyotda sinab ko'rilgan va ishga tushirish ishlari bajarilgandan so'ng OC-1 shakldagi ishga tushirish dalolatnomasi tuzilgan hamda uskunalarni ishlash holatiga kelishi uchun mas'ul komissiya a'zolari tomonidan imzolanganidan keyingina xo'jalik subyektining balansiga uning aktivi sifatida hisobga olinishi mumkin.

Asosiy vositalar hisobi OC-7 (uskunalar uchun) va OC-6 (binolar uchun) hisob kartochkalaridagi inventar raqamlari bo'yicha yuritilishi zarur. Asosiy vositalar OC-1 shakl bo'yicha kirim dalolatnomasi asosida kirim qilinadi. Ko'chirish OC-2 qaydnomasi bo'yicha rasmiylashtiriladi, tugatish esa, OC-4 tugatish dalolatnomasi asosida amlaga oshiriladi. Umumlashtirilgan hisob blankalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Asosiy vositalarni baholashning boshlang'ich, tiklash va qoldiq qiymatida ifodalash usullari mavjud.

Boshlang'ich qiymat tarkibiga ularni xarid qilish (qurish), yetkazish va o'rnatish yoki xarid qilish paytidagi qiymati kiradi.

Binolar va inshootlarni xo'jalik uslubida qurishda boshlang'ich qiymtga qurilish bilan bog'liq barcha xarajatlar: xomashyo, me'morlar va huquqshunoslar xizmatlari uchun haq to'lash; qaydnoma xarajatlari; loyihalash-tadqiqot ishlari; qurilish paytida sug'urtalash xarajatlari; obyekt

qurilishiga berilgan kreditlar bo'yicha foizlar; qurilish ruxsatnomasi qiymati va boshqa xarajatlar kiritiladi.

Uskunalar qiymatiga xarid qilish va ishga tayyorlash bilan bog'liq barcha xarajatlar (hisobvaraq-faktura bo'yicha qiymati, naqd to'lashdagi chegirmani hisobga olmaganda; fraxt, shu jumladan, sug'urtalash, aksiz yig'imlari va bojlari; xarid qilish xarajatlari; montaj qilish va uskunalarning foydalanishga yaroqliligini tekshirish maqsadida sinash uchun qilingan xarajatlar; to'langan QQS, bojxona bojlari) kiradi. Xizmatlar va aktivlarga almashirishda asosiy vositalar qiymati bitimning joriy narxlarida belgilanishini hisobga olish lozim. Ular kreditga olinadigan bo'lsa, to'langan foizlar joriy xarajatlar hisoblanadi va boshlang'ich qiymatga kiritilmaydi.

«Davr xarajatlari», ya'ni zarur bo'lmagan xarajatlar, masalan, yuklash, tashish, tushirish vaqtida yetkazilgan xarajatlarni tiklash xarajatlarini, shuningdek, bojxona xarajatlari qiymati ham boshlang'ich qiymatga kiritilmaydi. Turli davrlarda amalga oshirilgan yoki xarid qilingan asosiy vositalar hajmi korxona balansida shu davr narxlarida hisobga olinadi. Bu turli korxonalar asosiy vositalarini taqqoslash, asosiy vositalardan foydalanishni tahlil qilish va hokazolarda noqulayliklar yaratadi[1].

Asosiy vositalarni tiklash qiymati milliy valutadagi zamonaviy narxlar va tariflar darajasidan kelib chiqib, xarid qilish (qurish), yetkazib berish va montaj qilish sharti bilan ularni tiklash chiqimlarini o'z ichiga oladi.

Tiklash qiymati O'zbekiston Respublikasi hukumatining korxonalar va tashkilotlar asosiy vositalarini qayta baholash to'g'risidagi qarori asosida belgilanadi. Xalqaro standartlarda moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar boshlang'ich qiymatini aks ettirish uchun moliya yili oxirida yoki hukumat taklifi bilan qayta baholashni o'tkazishni taqozo etadi. Respublikamizda asosiy vositalarni qayta baholash hukumat qarori bilan, shuningdek, davlat korxonalarini aksiyadorlashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tuzishda amalga oshiriladi.

Mustaqillik yillarida asosiy vositalarni qayta baholash uch marta o'tkazildi.

* 1992-yil 1-apreldagi holatiga ko'ra (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 18-iyundagi 293-son qarori);

---

[1] Asosiy fondlar qiymatini solishtirish imkoniyati ularni «adolatli qiymat»ga qayta hisoblanganda aniqlanadi. Xalqaro moliya hisoboti standartlari (XMHS) taklif etadigan asosiy vositalarni qayta baholash qoidalariga muvofiq. «Qayta baholashni o'tkazish ketma-ketligi asosiy vositalar xadolatli o'zgarishiga bog'liq. Aktivlarni qayta baholash adolatli qiymati ular balans qiymatidan jiddiy ravishda farq qilsa, qayta baholash talab etiladi. Ba'zi toifadagi asosiy vositalar alodatli qiymati o'z-o'zidan jiddiy sur'atda o'zgarib turishi mumkin. Shuning uchun ularni har yili qayta baholash adolatli qiymati kam o'zgaradigan asosiy vositalar uchun talab qilinmaydi. Mazkur asosiy vositalar har uch-besh qayta baholanish mumkin» tahririyat.

* 1993-yil 1-apreldagi holatiga ko'ra (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-iyundagi 261-son qarori);

* 1995-yil 1-yanvardagi holatiga ko'ra (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 28-noyabrdagi 572-son qarori).

Asosiy vositalar qo'llanish jarayonida ham, ishlatilmagan holda ham ma'naviy va jismonan eskiradi.

Eskirish kattaligini hisoblangan ammortizatsiya summasiga teng deb hisoblash qabul qilingan.

Qoldiq qiymati asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan eskirish summasini chegirish natijasida olingan farqni tashkil eatdi. U asosiy vositalar muayyan vaqt ishlaganidan keyin shu paytdagi ularning qoplanmagan qiymatining miqdorini aks ettiradi.

Moliyaviy hisobotda asosiy vositalarning boshlang'ich va qoldiq qiymati, eskirish summasi buxgalteriya balansi aktivining 1-bo'limida ko'rsatiladi.

Amaldagi buxgalteriya hisoboti to'g'risidagi Nizomga muvofiq asosiy vositalar boshlang'ich qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Agar tiklash qiymati bo'yicha aks ettirilsa, u holda tiklash qiymati boshlang'ich qiymat sifatida ko'rsatiladi.

Shuningdek, asosiy vositalarning aktiv va passiv qismlarini ajratish lozim.

Vositalarning aktiv qismi bevosita mehnat predmetiga ta'sir qiladi. Bularga: kuchlanish, ish mashinalari va uskunalari, o'lchash, sozlash asboblari va qurilmalari, laboratoriya uskunalari, hisoblash texnikasi, boshqa mashina va uskunalar, shuningdek, transport vositalari kiradi. Asosiy vositalar aktiv qismini aniqlashda ularning mahsulotni ko'paytirilishiga, mehnat samaradorligining oshishiga bevosita ta'sir qilishini hisobga olish lozim.

Passiv qismi ishlab chiqarishning amalga oshirish shartlarini, ya'ni ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etadigan vositalardir. Ularga binolar va inshootlar kiradi.

Korxona moddiy-texnik bazasidan foydalanishni yaxshilash mahsulot chiqishi va sotilishining ko'payishi, sifatining yaxshilanishi, tannarxining kamayishi hamda foyda va rentabellikning oshishiga olib keladi. Shuning uchun asosiy vositalar holatini chuqur o'rganib, ulardan foydalanishni ta'minlash va samaradorligini oshirishni puxta tahlil qilish zarur.

1-shakl bo'yicha «Buxgalteriya balansi» 3-shakl bo'yicha «Asosiy vositalar harakati haqida hisobot» asosiy vositalarni tahlil qilishning asosiy axborot manbayi hisoblanadi. Buxgalteriya balansida asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlar «Uzoq muddatli aktivlar» birinchi bo'limida quyidagi satrlarda ko'rsatilgan.

010 – boshlang'ich qiymat.

011 – eskirish.

012 – qoldiq qiymati.

Asosiy vositalar holati, ulardan foydalanishni ta'minlash va samaradorligining oshirishni batafsil tahlil qilish 3-shakl asosida to'liq va turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Shunday qilib, hisobotning bu shaklida asosiy

vositalar har bir turining yil boshi va oxiridagi boshlang'ich qiymati, eskirishi va qoldiq qiymati, shuningdek, yangi kelgan va hisobdan o'chirilganlar (chiqarilganlar) miqdori ko'rsatiladi.

Mazkur hisobot oxirida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy vositalari ham ajratilgan holda ko'rsatiladi. Ma'lumotda barcha turdagi asosiy vositalar nima hisobiga xarid qilinganligi, ulardan qanchasi ijaraga olingani va ijaraga berilgani aks ettiriladi. Asosiy vositalar to'g'risida tegishli axborotlar to'plangach, ularni tahlil qilishga kirishish mumkin. Buning uchun esa ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlab olish lozim.

18.2. Korxonaning asosiy vositalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'satkichlar iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari ichida ma'lum darajada o'z o'rniga ega. Ushbu vositalarga xo'jalik yurituvchi subyektlarning ancha mablag'i jalb qilingan bo'ladi. Mazkur mablag'larning qaytimi asosiy vositalardan samarali foydalanish evaziga amalga oshiriladi. Shu bois asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahliliga omillar ham alohida ahamiyat berib kelgan va kelmoqda.

Bu borada O'zbekistonlik olimlardan I.T. Abdukarimov[1], D.Q. Qutbiyev[2], I.O.Voljin, V.V. Ergashbayev[3] kabilar o'z fikr mulohazalarini bildirganlar.

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va uni tahlil qilish yo'llari xususida Samarqandning tahlil maktabi uzoq yillardan buyon tadqiqot olib bormoqda va bu borada ma'lum nazariy va amaliy jihatdan asoslangan qarashlarga ega bo'lgan.

Ushbu maktab a'zosi sifatida asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uch guruhga bo'lishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar: asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar; asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruh ko'rsatkichlarining tasnifi quyidagi chizmada ifodalangan (18.1- chizma).

Ushbu jadval ma'lumotlari asosiy vositalarni ifodalovchi har bir ko'rsatkichning nomini, ifodalashi, aniqlanish yo'llari va axborot manbalarini ko'rsatadi. Uning har biriga alohida izoh berishga hojat yo'q deb hisoblaymiz.

---

[1] *I.T. Abdukarimov.* Moliyaviy hisobotni qilish va tahlil qilish. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1998. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri, 1999.

[2] *Кутбиев Д.К.* Праблемы анализа использования основных фондов в кооперативной торговле. — Т.: Ўзбекистон, 1990. Кудбиев Д.К. Современые проблемы бухгалтерского учета основных средств. — Самарканд, СамКИ, 1995.

[3] *I.O. Voljin, D.V. Ergashboyev.* Moliyaviy tahlil. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1998.

18.1-jadval

Korxonada asosiy vositalarni (Av) ifodalovchi ko'rsatkichlar mazmuni va aniqlanish yo'llari

Ko'rsatkich-larning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi	Axborot manbalarida ifodalanishi
1	2	3	4
I. Asosiy vositalar (Av.) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar			
1.1.Ab.umumiy mablag'lardagi hissasi	Ab.ning umumiy mablag'-larda necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi	$\frac{Ab}{B}$ x100	010/(310x 100)
1.2.Ab.faol qismining (Avf) tarkibiy tuzilishi	Ab.faol qismining umumiy Ab.summasida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi	$\frac{Ab}{Ab}$ x100	131 3sh/(010x100)
1.3.Ab.ning eskirish koeffitsienti	Umumiy Ab.qiymatining qancha qismi eskirish summasiga tengligini ko'rsatadi	$\frac{Ab.Es}{Ab.Ib.}$ x100	011/010
1.4. Ab.ning yangilanish koeffitsienti	Shu hisobot davrida yangidan ishga tushirilgan Av.qismining umumiy yil oxiridagi Ab.dagi hissasini ifodalaydi	$\frac{Ab.yang}{Ab.yo.}$	130 3sh 4us/130 3sh bus
1.5.Ab.ning yaroqlilik koeffitsienti	Umumiy Ab.qiymatining qancha qismi qoldiq qiymatda ekanligini ifodalaydi	$\frac{Ab.- Ab.Es}{Ab.}$	(010-011)/010
1.6. Ab.ning chiqarilish koeffitsienti	Av.ning qanchaqismi hisobdan chiqarilgan-ligini ifodalaydi	$\frac{Ab.chiq.}{Ab.}$	130 3sh 5 us/ 130 3 sh 6 us
II. Av. bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar			
2.1.Fond bilan qurollanganlik darajasi	Bitta xodimga to'g'ri keladigan faol Ab. qiymatini ifodalaydi	$\frac{Abf}{x}$	131 3sh/020 f 2b
2.2.Natijaning fondlilik darajasi	1 so'm natija ko'rsatkichiga qanchaAv. srmmasi to'g'ri kelishini ko'rsatadi	$\frac{Ab}{Q}$	010/010 2 sh

18.1-jadvalning davomi

1	2	3	4
2.3.O'z mablag'larining (Um.) Av.bilan ta'minlanganligi	1 so'm o'z mablag'lariga qancha Ab. summasi to'g'ri kelishini yoki o'z mablag'larining kapitallashganlik darajasini ifodalaydi	$\frac{Ab}{Um}$	011/390
III. Av. samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar			
3.1.Ab. rentabelligi	Ab.o'rtacha qiymatiganisbatan foyda summasi qancha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi	$\frac{F}{Ab}$ x100	200 2sh/ (010_{yb} + 010_{yo})/2
3.2.Ab. daromadliligi	Ab.o'rtacha qiymatiga necha foiz daromad to'g'ri kelishini ko'rsatadi	$\frac{D}{Ab}$ x100	050 2sh/ (010_{yb} + 010_{yo})/2
3.3.Av. natijaviyligi	1 so'm Ab.o'rtachaqiymatiga qancha miqdorda natijaviy ko'rsatkichning (sotilgan mahsulot, tovar mahsuloti, tovar oboroti va h.k.) to'g'ri kelganligini ifodalaydi	$\frac{Q}{Ab}$ x100	010 2sh/ (010_{yo} + 010_{yo})/2

18.3. Korxonada asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Asosiy vositalar holatini tahlil qilishda ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash lozim. Uni tahlil qilish uchun biznes-reja hisob va hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Unda bazis davri ma'lumotlari haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslanib, o'zgarishlarning yaxshilanganligi yoki yomonlashish sabablari aniqlanadi, ko'rsatkichlarni yaxshilanishi uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Asosiy vositalar iqtisodiy tuzilishini va holatini ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Eskirish koeffitsienti (K.esk.) eskirish summasining asosiy vositalar boshlang'ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Kesk.} = \frac{\text{Ave}}{\text{Avb q.}} = \frac{\text{F1011-satr}}{\text{F1010-satr}}.$$

Bunda: Ave – asosiy vositalar eskirish so'mmasi;
Avbq – asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati;
F1 – 1-shakldagi «Buxgalteriya balansi»;
010 va 011- sartlar – balans satrlari.

Asosiy vositalar ***yaroqsizlik koeffitsienti*** (Kyar.) qoldiq qiymatining (eskirish chegirilgan holdagi boshlang'ich qiymat) boshlang'ich qiymatga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Kyar.} = \frac{\text{Avq.k.}}{\text{Avb q.}} = \frac{\text{F1012-satr}}{\text{F1010-satr}}.$$

Bunda: Avq.k. – asosiy vositalarning qoldiq qiymati.

Yangilanish koeffitsienti (Kyang.) yil mobaynida yangi kelgan asosiy vositalarning yil oxiridagi ular qoldig'iga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Kyang.} = \frac{\text{Avya.k.}}{\text{Avdo.b q.}} = \frac{\text{F34-ustun 130-satr}}{\text{F36-ustun 130-satr}}.$$

Bunda: Avya.k. – yangi kelgan asosiy vositalar summasi;

Avdo.b.q. – asosiy vositalarning davr oxiridagi boshlang'ich qiymati;

F3 – 3-shakl «Asosiy vositalar harakati haqida hisobot», 4-ustun va 6-ustun – 3-shakl ustunlari; 130-satr – 3-shakl satri.

Hisobdan chiqarish koeffitsienti (Kh.ch.) yil mobaynida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning yil boshidagi qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Kyar.} = \frac{\text{Avh.ch}}{\text{Avdb.b q.}} = \frac{\text{F3 5-ustun 130-satr}}{\text{F33-ustun 130-satr}}.$$

Bunda: Avyb.b.k. – asosiy vositalarning davr boshidagi boshlang'ich qiymati;

Avh.ch. – hisobot davrida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar.

Mazkur koeffitsientlar barcha asosiy vositalar hamda ularning alohida turlari va guruhlari bo'yicha hisoblanadi, qator yillar mobaynidagi o'zgarishi ko'rib chiqiladi va tegishli xulosalarga kelinadi.

Asosiy vositalar tuzilmasi tarmoq ixtisosligidan kelib chiqib aniqlanadi va korxonaning ishlab chiqarish hamda texnik ta'minoti xususiyatlarini aks ettiradi. U korxona asosiy vositalari umumiy summasida va noishlab chiqarish, aktiv va passiv qismining hajmiga hamda ularning yil mobaynidagi o'zgarishlari va dinamsikasiga bog'liqdir.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida korxona tuzilmalari bo'yicha asosiy vositalar samaradorligi, texnik jihozlanishining darajasi, qo'l mehnati kamayishi va ishlab chiqarish samaradorligi oshishi haqida xulosalar chiqarish mumkin. Asosiy vositalar tuzilmasini hisob-kitob qilish uchun 3-shakldagi «Asosiy vositalar harakati haqidagi hisobot» ma'lumotlari qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlarni asosiy vositalar holatining yaxshilanish (yomonlashish) sabablarini aniqlagan holda dinamikasini o'rganib hisob-kitob qilish zarur.

Asosiy vositalar boshlang'ich qiymatining qoldiq qiymatiga nisbatan keskin o'sishi koeffitsientlarda eskirish ko'payganligi va ular yaroqliligi kamayganligini, ya'ni holati yamonlashganini ko'rsatadi.

Qoldiq qiymatining boshlang'ich qiymatga nisbatan keskin o'sishi asosiy vositalar yangilangan, ularning eskirishi qisqarganidan dalolat beradi. Eskirishni kamaytirish, ya'ni asosiy vositalar holatini yaxshilash usullaridan biri o'z vaqtida kapital ta'mirlash, yangilarini xarid qilish, shuningdek, ma'naviy va jismoniy eskirgan uskunalarni hisobdan chiqarishdan iboratdir. Bu tadbirga erkin oqibat hukm surib turgan bozor munosabatlari sharoitida alohida ahamiyat berish mumkin.

18.4. Korxonada asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik korxonaning texnika jihatdan ta'minlanganligini, mehnat va ishlarning mexanizatsiyalashganligini koeffitsientlar orqali ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar orqali har bir korxonaning ***moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlanganlik*** darajasini aniqlash mumkin. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining (boshlang'ich baholanishi bo'yicha) eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbatidir. U ishchilarning mehnat qurollari (asosiy vositalar) bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiradi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kf.m. = \frac{Av}{Is}$$

Bunda: $Kf.t.$ – fond ta'minlanganligi koeffitsienti,
Av – asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati;
Is – eng katta smenadagi ishchilar soni.

Tahlil qilish uchun 3-shakl moliyaviy hisobot va 1-T shakl statistik hisobotdan ma'lumotlar olinadi. Agar korxona bir necha smenada ishlasa, eng katta smenadagi ishchilar soni buxgalteriyadan yoki ish haqi berilgan maosh oluvchilar ro'yxatlaridan olinadi, chunki hisobotda ular bo'lmasligi mumkin. Agar ish bir smenada tashkil qilingan bo'lsa barcha asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar olinadi.

Texnik ta'minlanganlik koeffitsienti (Kt.t.) ishlab chiqarish uskunalari summasining (ya'ni, asosiy vositalar aktiv qismining) eng katta smenadigi ishchilar soniga nisbati sifatida hisoblanadi va quyidagi formula bo'yicha anaqlanadi:

$$Kt.t. = \frac{I.us.}{Is}.$$

Bunda: *Kt.t.* – texnik ta'minlanganlik koeffitsienti;
I.us. – ishlab chiqarish uskunalari so'mmasi.

Bu koeffitsientlar yil muayyan sana va uchun hisoblanishi mumkin. Yil uchun hisoblanganda asosiy vositalar va ishchilar soni haqidagi o'rtacha yillik ma'lumotlar olinadi.

Bu hisob-kitoblarni aniq misolda keltiramiz. «Madaniyat» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida hisobot ma'lumotlariga ko'ra, ishlab chiqarish fondlari qiymati hisobot yili boshida 1373,6 mln so'mni, yil oxirida 1500,7 mln so'mni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish uskunalari qiymati (asosiy vositalar aktiv qismi):
yil boshida – 894,5 mln so'm;
yil oxirida – 957,9 mln so'm.
Asosiy ishlab chiqarish xodimlari soni:
yil boshida – 106,5 mln so'm;
yil oxirida – 96,2 mln so'm.

Shu tariqa, «Madaniyat» OTAJda asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti:
yil boshida – 1373,6 : 106,5 = 12,90;
yil oxirida – 1500,7 : 96,2 = 15,60.
Texnik ta'minlanganlik koeffitsienti:
yil boshida – 894,5 : 106,5 = 8,4;
yil oxirida – 957,9 : 96,2 = 10,0 bo'ladi.

Ushbu hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, hisobot davrida asosiy vositalar va texnik ta'minlanganlik koeffitsientlari oshgan. Bu ma'lum darajada ishlab chiqarish samaradorligining oshganligini va qo'l mehnatining kamayganligidan dalolat beradi.

Mehnatning mexanizatsiyalanganlik koeffitsienti – bu ko'rsatkich jonli mehnatning 50 foizdan ortiq qismining mehanizatsiyalashganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Masalan, tahlil qilinayotgan korxonada mehnat 50 foizdan ortiq mexanizatsiyalashgan. Bu ishlab chiqarish xodimlari ulushi bilan ifodalanadi.
yil boshida – 765 kishi;
yil oxirida – 750 kishi bo'ldi.
Mehnat mexanizatsiyasi koeffitsienti:
yil boshida 765 : 1065 = 0,718 yoki 71,8 %;
yil oxirida 750 : 962 = 0,781 ga yoki 78,1 %ga tengdir.

Agar mehnati mexanizatsiyalashgan xodimlarning ulushi 50 % dan kam bo'lsa, bu yerda xodimlar mehnatining mexanizatsiyalashganlik darajasini aniqlashga hojat yo'q. Unda qo'l mehnati ham ustuvordir.

Shu tariqa, «Madaniyat» OTAJda mehnat mexanizatsiyasi darajasi 6,3 foizga (78,1-71,8) oshdi.

Shu bilan birga, hali qo'l mehnati darajasi ham yuqoridir. – 21,9 foizni (100,0-78,1) tashkil qiladi.

Ishlarning mexanizatsiyalashganlik koeffitsienti mexanizatsiya orqali bajarilgan ishlarga sarflangan vaqtning umumiy sarflangan vaqtga nisbati sifatida aniqlanadi.

Hozircha mavjud hisobotda mexanizatsiya yo'li bilan bajarilgan ishlarga sarflangan vaqt, mehnati mexanizatsiyalashgan yoki qisman mexanizatsiyalashgan xodimlar soni haqidagi ma'lumotlar keltirilmagan. Shuning uchun mehnat mexanizatsiyasi koeffitsientlarini hisoblash uchun ma'lumotlar tanlanib kuzatish yordamida yoki uni ekspertlar orqali aniqlash mumkin.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini o'tgan yil va qator yillar bilan taqqoslab, o'zgarishlar qonuniyatlari, ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va qo'l mehnati erkinlashishiga ta'siri haqida tegishli xulosalar chiqarish mumkin.

18.5. Korxonada asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Asosiy vositalardan (Av) foydalanish samaradorligi darajasidan umuman ishlab chiqarish samaradorligi kelib chiqadi. Asosiy vositalardan qanchalik ko'p foydalansa, shunchalik ko'p mahsulot chiqariladi, uning tannarxi arzonlashadi, mehnat samaradorligi, foyda va rentabellik yuqori bo'ladi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga: *Av* mahsuldorligi, *Av* rentabelligi, mashina va uskunalar quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti kiradi.

Asosiy vositalar fond mahsuldorligi tahlil qilinayotgan davrda (odatda, bir yilda) ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulotning ular o'rtacha yillik qiymatiga nisbati shaklida quyidagi formula orqali topiladi:

$$Avm = \frac{M}{Av_{o'r.}}.$$

Bunda: *Avm* – fond mahsuldorligi;

M – tahlil qilingan davrda ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahusulot hajmi;

$Av_{o'r.}$ – asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati.

Bozor munosabatlari sharoitida sotilgan mahsulot hajmi xo'jalik faoliyatini to'la hajmda aks ettiradi. Foyda va rentabellik kabi korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham ushbu ko'rsatkichlarga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun Av. mahsuldorligini ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha emas, sotilgan mahsulot hajmi bo'yicha aniqlash to'g'ri bo'ladi. Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Avm = \frac{S}{Av_{o'r.}}.$$

Bunda: *S* – sotilgan mahsulot hajmi.

Asosiy vositalar o'rtacha yillik summasi o'rtacha xronologik ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi (O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziriigi va Davlat soliq qo'mitasining 1995-yil 2-oktabrdagi 99/54-son «Korxonalar mol-mulki solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'riq-nomasi):

$$AF = \frac{Av_1/2 + Av_2 + ... + Av_{12} + Av_{13}/2}{12}.$$

Bunda: Av_1 va Av_2 — yil boshi va oxiridagi asosiy vositalar summasi;
Av_2; Av_3 ... Av_{12} — har oy boshi va oxiridagi asosiy vositalar summasi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, asosiy vositalar oyning 15 kunigacha kiritilsa yoki hisobdan chiqarilsa, bu oy o'rtacha yillik summasi hisob-kitobiga kiradi; agar 15-kundan keyin xarid qilingan 1ki sotilgan bo'lsa, bu oy hisob-kitobiga kirmaydi.

Av. rentabelligi asosiy vositalarning 1 so'miga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalaydi. U sof foydaning asoiy vositalar o'rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan quyidagicha aniqlanadi:

$$Raf = \frac{SF \times 100}{Av_{o'r.}}.$$

Bunda: *Raf* — asosiy fondlar rentabelligi;
SF — sof foyda.

Asoyiy vositalardan foydalanish samaradorligiga turli omillar ta'sir qiladi. Ularga:

* ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi;
* asosiy vositalar o'rtacha yillik summasi;
* ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar mehnatining samaradorligi:
* asosiy vositalar samaradorligi;
* asosiy vositalar alohida turlardan foydalanish samaradorligi kabilar kiradi.

Tahlil qilishda ushbu olimlar ta'sirini hisoblash, o'tgan yil ishlab chiqarish dasturi ma'lumotlari bilan taqqoslash va dinamikasini o'rganish lozim.

Asosiy vositalarning alohida turlari, avvalambor, ularning aktiv qismi (mashina va uskunalar)dan foydalanish ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli bu sohani ham yaxshi o'rganish lozim.

Barcha uskunalar mavjud, o'rnatilgan va ishlayotganlarga ajratiladi.

Mavjudlariga korxona ixtiyorida bo'lgan, qayerdaligida (sexda, omborda) va qanday holatdagidan qat'iy nazar, barcha uskunalar kiradi.

O'rnatilgan uskunalar — bu montaj qilingan va ishga tayyorlangan ish joyidagi uskunalardir.

Ishlayotgan uskunalar bu qancha vaqt turganligidan qat'i nazar, (hisobot davrida) amalda ishlayotgan uskunalardir.

Asosiy vositalar samaradorligini tahlil qilishda muayyan sanadagi amlada mavjud uskunalarga nisbatan o'rganilgan uskunalar darajasini aniqlash, ya'ni o'rnatilgan uskunalar koeffitsientini quyidagi formula bo'yicha hisoblash lozim:

$$\text{Ko'r.us.} = \frac{\text{O'rn.usk.}}{\text{Amal. Mav.}}.$$

Bunda: Ko'r.us. – o'rnatilgan uskunalar koeffitsienti;
Amal.mav. – amalda mavjud uskunalar;
O'rn.usk. – muayyan sanadagi amalda o'rnatilgan uskunalar.

So'ngra quyidagi formula asosida o'rnatilgan uskunalarga nisbatan ishlayotganlar koeffitsienti aniqlanadi:

$$\text{Kishl.} = \frac{\text{Ishl. usk.}}{\text{O'rn.usk.}}$$

Bunda: Kishl – ishlayotgan uskunalar koeffitsienti;
Ishl.usk. – amalda ishlayotgan uskunalar.

O'rnatilmagan uskunalarning barcha turlari va sabablarini ham aniqlash lozim. O'rnatilmagan uskunalar – «o'lik» sarmoyadir. Uni joriy qilish chiqarilayotgan mahsulot ko'payishiga olib keladi va undan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda ekstensiv va intensiv omillarning ishlab chiqarish dasturi bajarilishiga ta'sirini topish ham zarurdir. Uskunalardan ekstensiv foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlarga: uskunalar miqdori, jumladan, ishlatilmayotgan mehnat vositalari ulushi; uskunalarning ishlamagan vaqti (dastgoh, soatlar); uskuna ishlashining smenadorlik koeffitsienti; mashina va dastgohlar saroyi tuzilishi kabilar kiradi.

Uskunalardan intensiv foydalanish smena, oy, chorak va yilda bir dastgoh-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot, ya'ni uning ish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. U natural ko'rsatkichlar va so'mlarda hisoblanishi mumkin.

Bitta uskunadan ***ekstensiv foydalanish koeffitsienti*** ishlangan mashina va dastgoh-soat amaldagi miqdorini, ularning reja va bazis miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqalnadi.

Intensiv foydalanish koeffitsienti bir mashina-soatda ishlab chiqarligan mahsulotning hajmi bilan o'lchanadi. Uni aniqlash uchun bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini rejadagi mahsulot bilan aniqlanadi.

Tahlil jarayonida ko'rsatkichlarni hisoblash, ularning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va korxona ishi samaradorligiga ta'sirini aniqlash lozim.

19-Bob. KORXONADA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH YO'LLARI

19.1. Korxonada nomoddiy aktivlarning mazmuni va turlari

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan yangi schyotlar rejasiga o'tkazish amlaga oshirilmoqda. Buning oqibatida, hisob sohasida ularni belgilaydigan yangi tushuncha va atamalar paydo bo'lmoqda: nomoddiy aktivlar, investitsiyalarning uzoq muddatli turlari, gudvil, lizing, qimmatli qog'ozlar bozori, ish faolligi, bozor faolligi va boshqalar.

Korxona rahbarlari, buxgalterlar va moliyaviy menejerlari ushbu tushuncha va atamalar haqida tasavvurga ega bo'libgina qolmay, balki o'zlarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida ularni faol qo'llashlari, o'z vaqtida ularga nisbatan zarur boshqaruv qarorlari chiqarishlari shart. Shundan kelib chiqib mazkur bobda nomoddiy aktivlarning har xil turlari, tavsifi va ularni baholash usullari qarab chiqiladi.

Nomoddiy yoki «ushlanish mumkin bo'lmagan» aktivlar – bu huquqlar va nomoddiy resurslar bo'lib, ular bozorda korxona (firma)ga ustunlik beradi.

Bunday aktivlarga mualliflik huquqlari, patentlar, savdo belgilari, firma nufuzi, kompyuter dasturlari, reklamaga sarmoya xarajatlari, tashkiliy xarajatlar, litsenziyalar, ijara shartnomalari, franshizlar va boshqalar kiradi. Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish tartibi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va u O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 20-sentabrda ryo'xatga olingan 7-sonli buxgalterlik hisobi milliy standartida aks ettirilgan. Litsenziya shartnomalarining qat'iy belgilangan huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 4-bo'limi 59-bobi, 1036-moddasida aks etgan.

Amaliyotda nomoddiy aktivlar xo'jalik oborotida turli maqsadlarda qo'llaniladi:

* ***tijorat maqsadida*** – ustav sarmoyasiga badal sifatida qo'yishda, ularning oldi-sotdi jarayonida foyda olishda, noqonuniy foydalanilganida ehtimoliy zararlarni qoplash maqsadida;

* korxona balansida hisobga olishda – o'z mablag'lari, buyurtmachi mablag'lari hisobiga tashkil etilgan, uchinchi shaxslardan xarid qilingan nomoddiy aktivlarning barcha turlarini hisobga olishda;

* kompleks foylanilganida – korxonani xususiylashtirishda, sug'urta qilishda, garovga qo'yishda;

* foydaga ishtirok etganda – mualliflik gonararini to'laganda, foydadagi hissasini aniqlaganda;

* mahsulot tannarxida aks ettirilganida;
* soliqqa tortish bazasini aniqlaganda va shu kabi hollarda.

Buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlar asosiy vositalar singari hisobga olinadi. Chunki ular uzoq vaqt foydalanish uchun xarid qilinadi va sotish uchun mo'ljallanmagan bo'ladi. U foydalanish muddati jihatidan asosiy vositalarga o'xshaydi.

Nomoddiy aktivlar jismoniy ko'rinishga ega emas. Buxgalteriya balansining 1-bo'limi «Uzoq muddatli aktivlar»da boshlang'ich qiymati (020-satr), eskirish (021-satr) va qoldiq qiymati (022-satr)da aks ettiriladi. Korxonaning mol-mulki solig'ini hisoblash va to'lash jarayonida ular asosiy vositalarga kiritiladi.

Nomoddiy aktivlar xo'jalik faoliyatida uzoq muddat davomida foydalaniladigan va daromad keltiradigan aktivlardir. Korxonada unga qilingan xarajatlar ularning qo'yilmalari sifatida namoyon bo'ladi.

Eng keng tarqalgan nomoddiy aktivlar orasida: patentlar, nou-xau, mualliflik huquqlari, franchizlar, savdo belgilari, tashkiliy va muddati uzaytirilgan xarajatlar, gudvil kabilarni ko'rsatish mumkin.

Patent – egasining o'z aqliy (intellektual) faoliyati natijalariga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan va himoyalaydigan hujjatdir. U egasiga patentlangan buyum, jarayon yoki faoliyatni qo'llash, ishlab chiqarish, sotish va nazorat qilish huquqini beradi. Patentni tegishli organlarda ro'yxatga olish uning himoyasini kafolatlamaydi. Chunki u sudda muvoffaqiyatli himoya qilinmagunga qadar raqobatbardosh hisoblanmaydi. Patentni sudda muvoffaqiyatli himoya qilish bilan bog'liq xarajatlar sarmoyaga aylantirilishi zarur. Chunki ushbu xarajatlar uning qiymatiga kiritiladi, ya'ni patentning balans qiymati muayyan summaga kamayadi.

Nou-xau deganda ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ilmiy-texnik, to'plangan tajriba, ishlab chiqarish siri kabi bilimlar majmuasi tushuniladi.

Nau-xau shakllari turli-tuman. Ularning barcha turlari nomoddiy aktivlar hisoblanadi. Nau-xauni tijorat maqsadida berish, almashtirish va tarqatish, avvalombor, litsenziya shartnomalari tuzish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Ular asosan nau-xaudan daromad (foyda) olish maqsadida foydalaniladi. Nau-xauni xarid qilish ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni yengillashtiradi va arzonlashtiradi, ishlab chiqarish sirlarining to'liq saqlanishini, sotuvchi firma mutaxassislarining ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish va nazorat qilishda ishtirok etishini ta'minlaydi.

Mualliflik huquqlari – qonun tomonidan fan va adabiyot, musiqa, tasviriy san'at va hokazo asarlari mualliflariga beriladigan himoyalanish shaklidir. Mualliflik huquqlari ular egalariga o'z ishlarini nashr ettirish, qayta nashr ettirish va ko'paytirish, sotish va nusxalarini tarqatish, o'z asarlarini ijro etish va tasmaga yozish bo'yicha tegishli huquqlarni beradi. Mualliflik huquqida qiymati, uning tannarxiga tegishli ravishda o'lchanishi

nazarda tutiladi. Mualliflik huquqi, odatda, amal qilish muddati davomida iqtisodiy qiymatga ega bo'lmaydi. Uning qiymati undan daromad olish kutilayotganida amortizatsiya qilishi mumkin. Biroq bu muddatning amal qilish vaqti muallif hayot bo'lgan yillar va undan keyin esa 50 yildan oshmasligi lozim.

Savdo belgilari va savdo nomlari — muayyan kompaniya mahsulotlari yoki xizmatlarini identifikatsiya qiladigan belgi, ramz yoki nomlardir. Masalan, «Coca-Cola», «Sino» va boshqalar. Ular egalik qilishni asoslash va yuridik himoyalanish uchun ro'yxatga olinadi.

Savdo belgisini xarid qilish, tayyorlash, himoyalash, ro'yxatga olish, sarmoyaga aylantirilishi, ya'ni uning qiymatga kiritilishini ta'minlash kerak. Savdo belgisining foydali xizmat qilish muddati 40 yil mobaynida ammortizatsiyalanadi. Bu muddatlarda qaysi biri qisqaroqligi e'tiborga olinadi.

Franshizlar — hukumat organlari tomonidan xo'jalik subyektlariga davlat mulki, kommunal xizmatlari (elektr energiyasi) yoki yakka holdagi nomdan (masalan, Makdonalds) foydalanish huquqi uchun imtiyozlardir.

Franchayzing kontrakti franshiz amal qilish muddati, shuningdek franchayzing beruvchi va oluvchi huquqi hamda majburiyatlarini belgilaydi. Franshizning boshlang'ich qiymati ham sarmoyaga aylantirilishi, so'ngra u amal qilgan muddat davomida xarajatlariga kiritilishi kerak. Bu davr alohida kelishilmagan bo'lsa, ammortizatsiya aniq belgilangan xizmat muddatidan kelib chiqib aniqlanadi. U avvalgi narxni qayta ko'rib chiqish uchun muntazam baholanadi. To'liq ammortizatsiya davri 40 yildan oshmasligi lozim.

Franshiz imtiyozdan foydalanadigan subyekt tomonidan uni xizmatlar, masalan, rag'batlantirish kompaniyalarida, buxgalteriya hisobi va tashkiliy masalalarda ko'maklashganligi uchun taqdim etgan subyektga yillik va joriy to'lovlar amalga oshirilgan xarajatlar hisobiga chiqarilishi lozim, chunki istiqbolda foyda keltirmasligi ayon. Franshiz qadrini yo'qotsa yoki qonun bilan bekor qilinsa, ammortizatsiyalanmagan summa zarar sifatida hisobdan chiqariladi.

Ijara — ijara beruvchi tomonidan ijaraga oluvchiga aktivdan foydalanish uchun berilgan huquq. Ko'pincha korxona yollash haqidagi xo'jalik shartnomasiga muvofiq boshqa tomonning mol-mulkini ijaraga oladi va oldindan haq to'laydi. Oldindan to'langan ijara haqi, masalan, majburiyatlarni kamaytirish to'lovlari, odatda, butun ijara davrini qamrab oladi. Bunday oldindan to'lash dastlab «Bo'nak bilan to'langan ijara» schyotiga o'tkazilishi zarur. Bunday aktivlar qiymati «Ijara bo'yicha xarajatlar» schyotining debitiga yoziladi.

Muddati uzaytirilgan xarajatlar — bo'nak daromadlar vujudga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xizmatlar xarajatlari. Ular uzoq muddatli va oldindan to'langan xarajatlar sifatida balansda aks ettiriladi va uzoq muddatli aktivlar sifatida tasniflanadi. Chunki joriy aktivlar amal qilish muddati tugaganidan keyin ham daromadlarga ta'sir qiladi. Muddati uzaytirilgan

xarajatlar jismoniy mohiyatga ega bo'lmaydi. Bunday xarajatalrga sug'urtalash bo'yicha uzoq muddatli oldindan to'langan badallar yoki ijara to'lovlari kiritilishi mumkin.

Muddati uzaytirilgan xarajatlar daromad kelishi mo'ljallangan kelgusi davrlarda ammortizatsiyalanadi.

Tashkiliy xarajatlar – tashkiliy faoliyat paytidagi, masalan, yuridik, buxgalterlik, kanselyariya xarajatlari. Ular sarmoyaga aylantirilishi mumkin. Chunki kelajakda foyda keltiradi. Biroq, bu xarajatlarni korxona faoliyatining birinchi yilida xarajatlarga kiritish daromadlar bilan muvofiqlikka olib keladi. Tashkiliy xarajatlarni ammortizatsiyalash muddati tadbirkorlikning aniq turidan kelib chiqib, rahbariyat tomonidan aniqlanadi.

Gudvil – firma nufuzining shartli qiymati. Uning nomoddiy mulkchiligi tijorat korxonasiga boshqa xuddi shunday korxonalar oladigan me'yoriy yoki ko'zda tutilgan foydadan ortiqcha daromad olish imkonini beradi. Kompaniya xarid qilinganida yuritilayotgan kompaniya qiymatining, uning aktivlari qiymatidan ortiqcha qismi «gudvil» – «erkin xohish», nufuz, obro' deb nomlangan nomoddiy aktiv hisoblanadi. Umuman, gudvil yaxshi tanish bo'lgan savdo belgisi, iste'molchilar bilan yaxshi munosabatlar, kompaniya xizmatchilarining yuqori ahloqiy fazilatlari va shunga o'xshash boshqa jihatlarni o'z ichiga oladi. Ular kompaniyaga odatdagidan ko'ra ortiqcha foyda olish imkoniyatini oshiradi. Firma ikkinchi firmani xarid qilgan identifikasiya aktivlari bozor qiymatidan ortiqcha narxga sotib olgandagina gudvilni muayyan summada tan oladi:

Gudvil	–	firmani xarid qilishning amaldagi narxi	–	xuddi shunday aktivlarning haqqoniy bozor qiymati.

Gudvil tan olinganidan keyin uni ammortizatsiya ko'rinishida xarajatlarga kiritish masalasini hal etish joiz. Buning uchun aktiv foydali amal qilish muddatini aniqlash va gudvil summasini ishlab chiqarish xarajatlariga kiritish, ya'ni ammortizatsiya qiymatini aniqlash zarur. Bunday aniqlash muddati yildan oshmasligi shart.

19.2. Korxonada nomoddiy aktivlarni baholash yo'llari

Nomoddiy aktivlarni boshqarish va ularni hisobga olish jarayonida quyidagi baholash ko'rsatkichlari qo'llaniladi: ammortizatsiya, ammortizatsiyalanadigan qiymat, foydali xizmat muddati, boshlang'ich va tugatish qiymati, sotish va qoplash qiymati, qoldiq qiymati.

Ammortizatsiya – nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati davomida teng taqsimlash va ammortizatsiya qiymatini o'tkazish ko'rinishida aks ettirish.

Ammortizatsiyalanadigan qiymat – moliya hisobotida ko'rsatilgan, ehtimoliy tugatish qiymati chegirilgan holdagi aktivning boshlang'ich qiymati yoki boshlang'ich qiymat o'rnini bosuvchi boshqa qiymat summasidir.

Foydali xizmat muddati deganda xo'jalik subyekti tomonidan aktivlardan foydalanish muddati yoki bu aktivdan foydalanib mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish davri tushuniladi.

Boshlang'ich qiymat – aktivni xarid qilishda amalda sarflangan pul mablag'lari yoki uning ekvivalentlari qiymati yoki ishlab chiqarishning amladagi xarajatlarda ifodalangan tannarxi hisoblanadi.

Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati eskirishni hisoblash va uni ishlab chiqarish yoki muomala xarajatlariga kiritish yo'li bilan kamaytiriladi. Nomoddiy aktivlarning har oylik eskirish summasi korxona rahbariyati tomonidan, uning boshlang'ich qiymati va foydali amal qilish muddatiga qarab korxonaga daromad keltirgan vaqtdan kelib chiqib aniqlanadi. Foydali muddatini aniqlash mumkin bo'lmagan hollarda nomoddiy aktiv uchun eskirish me'yorlari 10 yil hisobida, lekin korxona amal qilish muddatidan ko'p bo'lmagan davrga belgilanadi.

Tugatish qiymati – aktiv foydali xizmat muddati so'ngida aktiv tugatilganida vujudga keladigan hamda chiqarib yuborish xarajatlari chegirilgan taxminiy qiymat.

Sotish qiymati – nomoddiy aktivlarni sotishdan tuzilgan bitim vaqtida manfaatdor tomonlar o'rtasida kelishilgan qiymati.

Qoldiq balans qiymati – akkumulyatsiyalangan (jamlangan) ammortizatsiya chegirilgandan keyingi nomoddiy aktivlarning boshlang'ich yoki joriy qiymati. Bu qiymatda nomoddiy aktiv hisob va hisobotda aks ettiriladi.

Qoplash qiymati – xo'jalik subyekti aktivdan keyinchalik foydalangan holda qoplashni nazarda tutgan summa. Bunga tugatish qiymati ham kiradi. Nomoddiy aktivlarning biror holatini tavsiflaydigan mazkur baholash ko'rsatkichlari korxona asosiy mablag'larini baholashda ham qo'llaniladi. Nomoddiy aktivlar pulsiz almashinish (barter) tartibida olinsa, ularning qiymati o'rniga beriladigan mol-mulk bozor narxi bo'yicha aniqlanadi. Nomoddiy aktivlar pul mablag'lariga xarid qilinsa, ular qiymati shartnomada bozor narxi bo'yicha kelishiladi. Nomoddiy aktivlar xo'jalik subyektining o'zi tomonidan yaratilsa, ular amaldagi tannarxi bo'yicha baholanadi.

Bepul berilganida ular avvalgi ammortizatsiyalar summasini chegirgan holda qiymati bo'yicha baholanadi. Qiymatini aniqlash iloji bo'lmagan taqdirda, ularni aktivga kiritmasa ham bo'ladi.

Aqliy mulkni va umuman nomoddiy aktivlarni baholashda «universal» usulbiyatning yo'qligi ularni baholashni qiyinlashtiradi. Nomoddiy aktivlar subyektlarning har biri (mohiyati bo'yicha) o'ziga xos bo'lganligi tufayli ularni ishlab chiqarish jarayonida qo'llash shartlari ham, odatda, bir-biridan farqlanadi. Masalan, aqliy mulk qiymati, yangilik jihati, keyinchalik tijorat maqsadida qo'llash imkoniyati va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

1998-yil 1-yanvardan ikki hujjat: O'z. OCT 77-01-97-son «Intelektual mulkni baholash. Asosiy qoidalar» hamda O'z. OCT 77-02-97-son «Nomoddiy aktivlarni baholash. Asosiy qoidalar» standartlari amal qiladi. Ular

aqliy mulk obyektlari va boshqa nomoddiy aktivlar obyektlarini bozor qiymatida baholash uchun me'yoriy-uslubiy asos bo'lib hisoblanadi.

Barcha nomoddiy aktivlar boshlang'ich qiymati, ya'ni xarid qilish, huquqlarni himoya qilish bilan bog'liq maslahatlar olish, marketing tadqiqotlarini o'z ichiga olgan amaldagi hujjatlar bo'yicha buxgalterlik hisobida baholanadi.

Nomoddiy aktivlarni hisobga olish tegishli hujjatlar patentdan foydalanish huquqini beruvchi guvohnoma, dasturiy ta'minot ishlanmalarini qabul qilish dalolatnomalari, aktivlarni kiritish va ular qiymatini kelishish bayonnomalari va boshqa hujjatlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Ular obyekt bayoni, uning boshlang'ich qiymati, foydalanish tartibi, foydalanish muddatini o'z ichiga olishi zarur.

Nomoddiy aktivlar:

* ular shartnomaviy, kelishilgan qiymatda sotilganida;
* boshqa korxonalarga bepul berilganida;
* to'liq eskirganida yoki daromad xossalari yo'qolganligi uchun chiqarilganida;
* qo'shma va shu'ba firmalari, aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondlariga kiritilganida hisobdan chiqariladi.

Berish va chiqarish dalolatnomalari, aksiyadorlar yig'ilishi bayonnomalari va boshqa hujjatlar chiqarilgan nomoddiy aktivlarni hisobdan o'chirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Nomoddiy aktivlarni chiqarish oqibatida olingan daromad yoki ko'rilgan zarar aktivlarni sotishdan kelgan tushum va balans (qoldiq) qiymati orasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ular moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda daromad yoki xarajat sifatida ko'rsatiladi. Nomoddiy aktivlarni o'rganayotganida ularni xarid qilishning amaldagi samaradorligiga e'tibor berish lozim: ular haqiqatan ham korxonaga kutilgan foydani keltirmoqda, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini ko'paytirmoqda. Bu savollarga amaliyotda aniq javoblar olish lozim. Moliyaviy hisobotda nomoddiy aktivlar turlari, ularni xarid qilish va qo'llash muddatlari haqida ma'lumotlar berilmagan. Shuning uchun ular haqidagi ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan olish lozim.

Bu ma'lumotlardan foydalanib:

* boshlang'ich va qoldiq qiymati bo'yicha nomoddiy aktivlar umumiy qiymati;
* nomoddiy aktivlar eskirish darajasi va qoldiq summasi;
* nomoddiy aktivlar turlari tuzilmasini aniqlash zarur.

Hisob-kitoblar orqali nomoddiy aktivlarni oydinlashtirish, ya'ni holati va foydalanish samaradorligi, maqsadga muvofiqligini bayon etish hamda keyinchalik samarali foydalanish uchun tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish lozim.

Nomoddiy aktivlar holati ularning umumiy summasi, turlari bo'yicha tuzilmasi, nomoddiy aktivlar umumiy summasining uzoq muddatli aktivlar

summasi hamda xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushi kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligi ular rentabelligi, ularni xarid qilish xarajatlarini qoplashi, mehnat unumdorligi darajasi oshishi, ulardan foydalanish natijasida mahsulot sifati oshishi bilan aniqlanadi.

Mazkur ko'rsatkichlarning barchasi nomoddiy aktivlar har bir turi tavsifida aks etishi kerak. Korxona rahbarlari, tahlilchilar nomoddiy aktivlardan foydalanishni o'rganayotganida amaldagi ko'rsatkichlarni haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslashlari lozim.

Nomoddiy aktivlar rentabelligi ular keltirayotgan foyda (daromad) so'mmasining boshlang'ich qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

O'z-o'zini qoplashi ularni xarid qilish uchun sarflangan mablag'lar qaytishini ko'rsatadi. U nomoddiy aktivlarning ularni qo'llash natijasida olinayotgan foyda summasiga nisbati sifatida hisoblanadi. Bu foyda so'mmasini tanlash (hisob-kitob qilish) yo'li bilan olinishi mumkin.

Yuqorida aytilganidek, buxgalteriya hisobidan foydalanish muddati davomida foyda keltiradigan mablag'lar nomoddiy aktivlar deb tan olinadi. Shuning uchun nomoddiy aktivlarni xarid qilishdan avval korxona rahbarlari ularning barcha xususiyatlarini puxta o'rganib chiqishlari, ishlab chiqarishda foydalanish zarurati borligiga amin bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimiz korxonalarida hozircha nomoddiy aktivlardan kam foydalanilmoqda. Biroq, bozor iqtisodiyoti rivojlanishi mahsulot sifatini, korxona ishi samaradorligini oshirish maqsadida ulardan tobora ko'proq foydalanishni talab etadi. Nomoddiy aktivlar hisobini to'g'ri yuritish, baholash va samarali foydalanish korxona iqtisodiyoti va umuman respublika xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

19.3. Korxonada nomoddiy aktivlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va tasnifi

Bozor munosabatlarining shakllanishi korxona iqtisodiy salohiyati tarkibiga yangi nomoddiy aktivlar tushunchasini kiritishni taqozo qilmoqda. Ta'kidlanganidek, nomoddiy aktivlar, moddiy bo'lmasada, korxonaga moddiy resurslar singari foyda keltirishi mumkin. Shu bilan birgalikda nomoddiy aktivlarga ham korxonaning ancha mablag'lari qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida har bir so'm qo'yilgan mablag', mulk egasiga qaysi sohaga yoki qaysi obyektga qo'yishidan qat'i nazar, ma'lum darajada, foyda keltirishi kerak. Bu holat esa korxonaning nomoddiy aktivlarini ham tahlil qilishni taqozo qiladi.

Ammo iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala deyarli yoritilmagan. Uning hisobi va mazmuni haqida adabiyotlar mavjud. Lekin uni ifodalovchi ko'rsatkichlar, uni baholash va tahlil qilish yo'llari yetarli darajada tadqiq qilingan emas. Masalan, iqtisodiy va moliyaviy tahlil bo'yicha oxirgi paytlarda

chop qilingan T.V. Saviskayaning darsligida[1], I.O. Voljin va V.V. Ergashbayev[2], A.T.Ibrohimov[3], V.V. Patrov va V.V. Kovalyovlar[4] hamda N.Hasanov va S.Najbitdinovlarning[5] kitoblarida ushbu masala deyarli tadqiq qilinmagan.

Biroq, respublikamizda nomoddiy aktivlar hisobi to'g'risida milliy standart qabul qilindi. Ular ko'plab korxonalarda buxgalteriya balansida o'z aksini topmoqda. Bunday sharoitda nomoddiy aktivlar nafaqat buxgalteriya hisobi, balki iqtisodiy tahlilning ham obyektiga aylanishi lozim. Buni inobatga olib nomoddiy aktivlarni tahlil qilish bo'yicha ayrim tavsiyalarni ishlab chiqdik.

Ushbu tavsiyalarimizning ayrim jihatlari chop etilgan asarlarimizda o'z aksini topgan[6].

Nomoddiy aktivlarga, ta'kidlanganidek, ularni alohida guruh bo'yicha quyidagilar kiradi:

* yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqining qiymati;
* bino, inshoot, uskuna va jihoz kabi mulklardan foydalanish huquqining qiymati;
* ixtiro va rosionalizatorlik takliflari, «Nau-Xau» kabilardan foydalanish huquqlarining qiymati;
* tovar belgilari va boshqa intellektual mulkdan foydalanish kabi huquqlarni beruvchi ruxsatnomalar qiymati.

Bularning hammasi buxgalteriya balansining aktiv qismida «Nomoddiy aktivlar» moddasida ifodalanadi. Ularni tahlil qilish uchun ham ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ular iqtisodiy mazmuni bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: nomoddiy aktivlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. O'z navbatida har bir guruh ko'rsatkichlar birqancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Masalan, nomoddiy aktivlarning holatini ifodalash uchun to'rtta, uning samaradorligini baholash uchun esa uchta ko'rsatkichdan foydalaniladi. Ularning dastlabki yirik tasnifi 19.1-rasmda keltirilgan.

---

[1] *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственой деятельности предприятия. – М.: ИП «Инфоперепектива», 1997. 438–477-betlar.

[2] *I.O. Voljin, V.V. Ergashboyev.* Moliviy tahlil. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998. 74–93-betlar.

[3] *A.T. Ibrohimov.* Moliviy tahlil. – T.: Mehnat, 1995. 14–19-betlar.

[4] *Патров В.В., Ковалёв В.В.* Как читать баланс. – М.: Финансы и статистика, 1993. 142–213-betlar.

[5] *N.Hasanov, S. Najbitdinov.* Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999. 17–18-betlar.

[6] *M.K. Pardayev, B.I. Isroilov.* Moliyaviy tahlil. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999. 95 102- betlar. M.K. Pardayev. Moliviy tahlil muammolari.// Iqtisod va hisobot, № 1, 1997. 43–45-betlar, M.K. Pardayev. Moliviy tahlil metodologiyasi. – Samarqand, SamKI, 1997, 59–61-betlar, M.K. Pardayev. Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini tahlil qilish. – Samarqand, SamKI. 1998 va h.k.



19.1-rasm. **Nomoddiy aktivlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi.**

Tahlil jarayonida har bir guruh ko'rsatkichlarning tarkibi va ularni hisoblash yo'llarini aniqlash maqsadga muvofiq. Nomoddiy aktivlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: nomoddiy faollarning umumiy hajmi; ularning o'rtacha yillik qiymati; umumiy aktivlardagi ulushi; eskirish koeffitsienti. Ushbu ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilishi 19.2-rasmda ifodalangan.



19.2-rasm. **Nomoddiy aktivlarning (Na) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari.**

Nomoddiy aktivlarga qo'yilgan mablag' ham ma'lum darajada foyda keltirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida uning samaradorligini baholashni taqozo qiladi. Nomoddiy aktivlarning samaradorligini ifodalash uchun

quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tavsiya qilinadi: nomoddiy aktivlarning daromadliligi; nomoddiy aktivlarning rentabelligi va nomoddiy aktivlarning aylanuvchanligi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari va har birining qisqacha tavsifi 19.3-rasmda keltirilgan.



19.3-rasm. **Nomoddiy aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari.**

Agar buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotida nomoddiy aktivlardan foydalanish evaziga olinadigan daromad, foyda yoki boshqa natija ko'rsatkichini aniqlash mumkin bo'lsa, u holda ushbu ko'rsatkichlarning umumiy hajmi emas, balki faqat shu nomoddiy aktivlarga tegishli qismi aniqlanadi. Bunday sharoitda nomoddiy aktivlarning haqiqiy samaradorligini aniqlash va tahlil qilish imkoni tug'iladi. Ammo hozircha bunday imkoniyat yetarli bo'lmaganligi tufayli natijaviy ko'rsatkichlar sifatida daromad, foyda va mahsulot (ish, xizmat) hajmining umumiy miqdori olinmoqda.

Tahlil jarayonida korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning har birini o'rganish, ularning farqini aniqlab, har birining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash orqali korxona iqtisodiy salohiyatining samaradorligini oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni axtarib topish lozim. Ushbu bobda korxona iqtisodiy salohiyatining bir qismi bo'lgan nomoddiy aktivlarning holati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning omilli tahliliga to'xtalinsa maqsadga muvofiq, bo'ladi. Chunki, birinchidan, bu masala iqtisodiy adabiyotlarda hamon yetarli darajada yoritilgan emas. Ikkinchidan esa, ushbu omilli tahlil usuli ushbu kategoriya bilan bog'liq boshqa ko'rsatkichlarni ham tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

19.4. Korxonada nomoddiy aktivlarning tahlili

Nomoddiy aktivlarni tahlil qilish uchun asosan buxgalteriya balansidan va buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichning tahlili ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchidan, uning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganilsa, ikkinchidan, samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Nomoddiy aktivlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilinganda uning dinamikasini boshqa ko'rsatkichlar bilan solishtirgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun 19.2-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil davrida nomoddiy aktivlar 142,5 % oshgan vaqtda, barcha aktivlarning o'sish sur'ati 125,6 % ni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlarning summasi barcha aktivlarga nisbatan tez sur'atlar bilan o'smoqda.

Natijada ularning ulushi ham o'sish tendensiyasiga ega. Ushbu korxonada nomoddiy aktivlarning ulushi 1997-yilning boshida 1,75 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2002-yilning boshiga kelib bu ko'rsatkich 1,99 % ni tashkil qilmoqda. Bozor munosabatlarining mahsuli bo'lgan nomoddiy aktivlar jadal sur'atlar bilan o'sadi. Ushbu holat o'tish iqtisodiyoti davrida saqlanib qoladi, chunki iqtisodiyotimizning yuksalishida nomoddiy aktivlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Tahlilning navbatdagi bosqichida nomoddiy faollarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash lozim. Buning uchun 19.2-jadval tavsiya qilinadi.

19.1-jadval

Nomoddiy aktivlarning dinamikasidagi o'zgarishlarni hisob-kitob qilish yo'llari

Yillar	Barcha aktivlar		Nomoddiy aktivlar		Nomoddiy aktivlarning barcha aktivlardagi ulushi
	summasi, ming so'm	o'zgarish sur'ati,%	summasi, ming so'm	o'zgarish sur'ati,%	
2005	8917,2	100,0	156,1	100,0	1,75
2006	9380,9	105,2	162,8	104,3	1,74
2007	9657,3	108,3	191,2	122,5	1,98
2008	10031,9	112,5	205,6	131,7	2,05
2009	10659,4	119,3	218,3	139,8	2,05
2010	11200,0	125,6	222,5	142,5	1,99

* *Ko'rsatkichlar yil boshiga olingan.*

19.2-jadval

Korxonada nomoddiy aktivlar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+, −)	O'zgarish sur'ati, %
1.	Nomoddiy aktivlarning (Na) umumiy hajmi, ming so'm	218,3	222,5	+4,2	101,9
2.	Barchaaktivlar qiymati, ming so'm	10659,4	11200,0	540,6	105,1
3.	Na.eskirish summasi	54,6	69,0	+14,4	126,4
4.	Na.ning barchaaktivlardagi ulushi, % (1q : 2q .100)	2,05	1,99	-0,06	97,1
5.	Na.ning eskirish koeffitsiyenti (3q : 1q)	0,25	0,31	+0,06	124,0

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mazkur tahlil qilinayotgan korxonada nomoddiy aktivlarning umumiy hajmi shu davrda atigi 1,9 % ko'paygan. Ammo uning eskirish summasi 26,4 % ga oshgan. Natijada nomoddiy aktivlarning eskirish koeffitsienti yil boshidagi 0,25 dan 0,31 gacha yoki 24,0 % ga ko'paygan. Ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlarning holatidagi o'zgarish ancha yomonlashgan. Buni uning barcha aktivlardagi ulushida ham ko'rish mumkin. Ushbu ko'rsatkich hisobot davrida 2,9 % ga (100,0—97,1) kamaygan.

19.1-jadval bo'yicha nomoddiy aktivlarning dinamikasi tahlil qilinganda uning barcha aktivlardagi ulushi ko'payish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rdik. 19..2-jadvalda esa uning aksi. Demak, umumiy xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichlarni tahlil qilganda ularning dinamikasini o'rganish maqsadga muvofiq ekan, degan xulosa kelib chiqmoqda. Chunki nomoddiy aktivlarning holati umuman yaxshilanib borayotgan bir paytda hisobot yilida uning aksi bo'lgan. Agar shu yil ma'lumoti bilan cheklanib qolinganda edi, xulosa ijobiy bo'lmas edi.

Tahlilning navbatdagi bosqichida nomoddiy aktivlarning tarkibiy tuzilishi va ularning o'zgarishini o'rganish lozim. Chunki, mazkur ko'rsatkichning holatini tahlil qilganda tarkibiy tuzilishdagi o'zgarishlarni o'rganmasdan turib nomoddiy aktivlar to'g'risida to'laqonli xulosa chiqarish qiyin. Shu tufayli ushbu holatni tahlil qilish uchun 19.3-jadvalni tavsiya qilamiz.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlar tarkibida intelektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqi asosiy o'rinni egallaydi. Uning ulushi yil boshida 65,1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 64,2 % ni tashkil qilgan, ya'ni 0,9 % bandga kamaygan. Uning tarkibida ixtiro uchun olingan potentlarning ulushi yuqori.

19.3-jadval

Korxonada nomoddiy aktivlar tarkibiy tuzilishining hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida		O'zgarishi	
	summasi, ming so'm	ulushi, %	summasi, ming so'm	ulushi, %	summasi, ming so'm	ulushi, %
1.Intelektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqi	6939,3	65,1	7190,4	64,2	+251,1	-0,9
Shu jumladan:						
1.1.Mualliflik huquqi	3037,9	28,5	3057,6	27,3	19,7	-1,2
1.2. Ixtiro uchun olingan potentlar	3325,8	31,2	3561,6	31,8	+235,8	+0,6
1.3. «Nau-Xau» huquqi	575,6	5,4	571,2	5,1 -	-4,4	-0,3
2.Savdo belgisi vasavdo nomi	767,5	7,2	795,2	7,1	+27,7	-0,1
3.Yer va boshqa tabiiy obyektlardan foydalanish huquqi	1428,4		1601,6	14,3	+173,2	+0,9
4.Tashkiliy xarajatlar	927,4	8,7	929,6	8,3	+2,2	-0,4
5.Tashkilotning ishchanlik nufuzi	159,8	1,5	179,2	1,6	+19,4	+0,1
6.Boshqa nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqi	437,0	4,1	504,0	4,5	+67,0	
Jami	10659,4	100,0	11200,0	100,0	+4,2	—

Bundan tashqari, mazkur tur nomoddiy aktivlarning ulushi ko'payish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Yil boshida uning ulushi 31,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 31,8 % ga, ya'ni 0,6 % bandga o'sdi. Mualliflik huquqi va «Nau-Xau» huquqi kamayib bormoqda.

Nomoddiy aktivlar tarkibida yer va boshqa tabiiy obyektlardan foydalanish huquqi salmoqli o'rinni egallab turibdi. Uning ulushi ham ko'payish tendensiyasiga ega. Yil boshidagi 13,4 % o'rniga yil oxirida 14,3 % ga oshgan. Mazkur korxonada savdo belgisi va savdo nomining qiymati ham anchagina. Uning yil boshidagi ulushi 7,2 % ni tashkil qilgan edi, yil oxiriga kelib esa 7,1 % ga, ya'ni 0,1 % bandga kamaydi. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, uning ulushi kamaygani bilan summasi ko'paymoqda.

Xuddi shunday holatni tashkiliy xarajatlar bo'yicha ham aytish mumkin. Nomoddiy aktivlar tarkibida tashkilotning ishchanlik nufuzi va boshqa nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqi ham o'sish tendensiyasiga egadir. Ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlar tarkibida turli o'zgarishlar ro'y bergan.

Biroq, korxona rahbariyati va mulkdor uchun ushbu o'zgarishlar qanday samara berganligi muhim. Shu tufayli tahlilning navbatdagi bosqichi nomoddiy aktivlar samaradorligini tahlil qilishdan iboratdir.

19.5. Korxonada nomoddiy aktivlar samaradorligini tahlil qilish

Nomoddiy aktivlarning samaradorligi, ta'kidlanganidek, ko'rsatkichlar tizimida ifodalanadi. Bularga nomoddiy aktivlarning natijaviyligini, daromadliligini va rentabelligini kiritish mumkin. Ularni tahlil qilish uchun tegishli ma'lumotlarni korxonaning buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlaridan olinadi va 19.4-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlarning samaradorligini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar miqdori, umuman olganda o'sgan. Uning natijaviyligi 8,0 % o'sgan bo'lsa, daromadliligi 21,2 %, rentabellik ko'rsatkichi esa 17,2 % ga oshgan. Bu ijobiy holat.

19.4-jadval

Nomoddiy aktivlar samaradorligini aniqlash hisob-kitobi

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+, –)	O'zgarish sur'ati, %
Mutloq ko'rsatkichlar					
1.	Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
2.	Daromadlar, ming so'm	511,0	711,7	+200,7	139,3
3.	Sof foyda, ming so'm	368,0	496,2	+128,2	134,8
4.	Nomoddiy aktivlarning (Na) o'rtachayillikqiymati, ming so'm	193,4	222,5	+29,1	115,0
Nisbiy ko'rsatkichlar					
5.	Na.natijaviyligi, so'm (1q : 4q)	23,70	25,59	+1,89	108,0
6.	Na.daromadliligi, so'm (2q : 4q)	2,64	3.20	+0,56	121,2
7.	Na.rentabelligi, % (3q : 4q . 100)	190,3	223,0	+32,7	117,2

Nomoddiy aktivlardan mazkur korxona samarali foydalanmoqda. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, nomoddiy aktivlarning samaradorligini to'g'ri baholash uchun natija ko'rsatkichi yoki foydaning umumiy hajmi emas, balki faqat nomoddiy aktivlardan foydalanish evaziga olingan natijaviy ko'rsatkichlardan foydalanilganda edi, ularning samaradorligini aniq baholash mumkin bo'lur edi. Ammo ushbu ma'lumotlar hisob va hisobotlarda yetarli darajada aniq bo'lmaganligi tufayli, hozircha mazkur natijaviy ko'rsatkichlarning umumiy hajmidan foydalanishni maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlilning muhim vazifalaridan biri o'rganilayotgan har bir ko'rsatkichning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini hisoblab topishdan iboratdir. Mazkur holatda eng muhim ko'rsatkichlardan biri nomoddiy aktivlarning rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash usullarini ko'rib chiqamiz.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, nomoddiy aktivlar rentabelligi (*Rna*) o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qilar ekan:

* foydaning daromaddagi ulushi (*Fa*);
* mahsulotning daromadlilik darajasi (*Dm*);
* nomoddiy aktivlarning natijaviyligi (*Mna*).

Natija bilan ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Rna = Fd \cdot Dm \cdot Mna.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, natijaning o'zgarishi shu uchala omilning o'zgarishiga bevosita bog'liq. Ularning ko'payishi natija ko'rsatkichi miqdorini ko'paytiradi, kamayishi esa, aksincha, kamaytiradi. Har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullardan biri bo'lgan zanjirli almashtirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagi amalni bajarish mumkin.

1. Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'sirini, ya'ni foydaning daromaddagi ulushi evaziga o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta\ Rna.fd = (Fd^h \cdot Dm^r \cdot Mna^r) - Rna^r.$$

Bunda $\Delta\ Rna.fd$ – nomoddiy aktivlar rentabelligining foyda-ning daromaddagi ulushi ta'sirida o'zgargan summasi;

Fd^h – foydaning daromaddagi ulushining haqiqiy miqdori;

Dm^r – mahsulot daromadlilik darajasining rejadagi (asos davridagi) miqdori;

Mna^r – nomoddiy aktivlar natijaviyligining rejadagi miqdori;

Rna^r – nomoddiy aktivlar rentabelligining rejadagi miqdori.

2. Nomoddiy aktivlarning (Na) ikkinchi omil, ya'ni mahsulotning daromadlilik darajasi evaziga o'zgarishini ($\Delta\ Rna.dm$) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$\Delta\ Rna.dm = (Fd^h \cdot Dm^r \cdot Mna^r) - (Fd^h \cdot Dm^r \cdot Mna^r).$$

Bunda: Dm^h – mahsulot daromadlilik darajasining haqiqiy miqdori.

3. Na.ning uchinchi omil, ya'ni uning natijaviyligi evaziga o'zgarishini (Δ *Rna.mna*) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta\ Rna.mna = Rna^h - (Fd^h \cdot Dm^r \cdot Mna^r).$$

Bunda: *Rnah* – nomoddiy aktivlar rentabelligining haqiqiy miqdori.

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta\ Rna = \Delta\ Rna.fd \pm \Delta\ Rna.dm \pm \Delta\ Rna.mna.$$

Ushbu nazariy tavsiyalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, natija o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini aniqlash mumkin.

Buning uchun, eng avvalo, omillarni aniqlab olinadi. Omillarni aniqlash uchun esa 19.5-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

19.5-jadval

Nomoddiy aktivlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+, –)	O'zgarish sur'ati, %
1.	Sof foyda, ming so'm	368,0	496,2	+128,2	134,8
2.	Daromadlar, ming so'm	511,0	711,7	+200,7	139,3
3.	Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
4.	Nomoddiy aktivlarning (Na) o'rtachayillik qiymati, ming so'm	193,4	222,5	+29,1	115,0
	Natija va omillar:				
5.	Foydaning daromaddagi ulushi, % (1q : 2q .100)	72,02	69,72	-2,30	96,8
6.	Mahsulotning daromadlilik darajasi, % (2q : 3q .100)	11,15	12,49	+1,34	112,0
7.	Nomoddiy aktivlarning natijaviyligi, so'm (3q : 4q)	23,70	25,59	+1,89	108,0
8.	Na.rentabelligi, % (1q : 4q .100)	190,3	223,0	+32,7	117,2

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlar rentabelligi 17,2 % ga oshgan. Unga ta'sir qiluvchi uchta omildan biri foydaning daromaddagi ulushi 3,2 % (100,0–96,8) kamaygan. Qolgan ikki omilda o'sish ro'y bergan. Xususan mahsulotning daromadlilik darajasi 12,0 % o'sgan bo'lsa, nomoddiy aktivlarning natijaviyligi 8,0 % o'sgan. Bu omillarning natija o'zgarishiga qay darajada ta'sir qilganligini aniqlash iqtisodiy tahlilning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu omillarning nomoddiy aktivlar rentabelligi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun 19.6-

jadval tuziladi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlarning rentabelligi 32,7 % bandga o'sgan. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sof foydaning daromaddagi ulushi hisobot davrida 2,3 % bandga kamaygan. Natijada nomoddiy aktivlarning rentabelligi 6,1 % bandga kamaygan:

$$184,2 - 190,3 = -6,1\ \%.$$

2. *Mahsulotning daromadlilik darajasi 1,34 % ko'paygan. Ushbu omil* natijasida nomoddiy aktivlarning rentabellik darajasi 22,2 % bandga oshgan:

$$206,4 - 184,2 = +22,2\ \%.$$

3. Nomoddiy aktivlarning natijaviyligi ham 1,89 so'mga oshgan. Bu omil ham natijaning o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, ya'ni nomoddiy aktivlarning rentabelligi 16,6 % ga bandga oshgan:

$$223,0 - 206,4 = +16,6\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$-6,1 + 22,2 + 16,6 = +32,7\ \%.$$

Omilli tahlil ichki rezervlarni ham axtarib topish imkonini beradi. Misolda nomoddiy aktivlar rentabelligini oshirishning ichki imkoniyati mavjud ekan. Bu imkoniyat foydaning daromaddagi ulushini ko'paytirishda namoyon bo'ladi. Jumladan, ushbu ko'rsatkichning miqdori hech bo'lmaganda o'tgan yil darajasida saqlanib qolganda edi, nomoddiy aktivlarning rentabellik darajasi yana 6,1 % bandga oshgan bo'lar edi. U holda mazkur ko'rsatkichning haqiqiy miqdori 223,0 % emas, balki 229,1 ni (223,0 + 6,1) ko'rsatkichining o'tgan yilga nisbatan farqi 32,7 % emas, balki 38,8 % ni (229,1 — 190,3) tashkil qilgan bo'lur edi. Ko'rinib turibdiki, omilli tahlil o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning ichki imkoniyatlarini topish uchun asosiy dastaklardan biri sifatida nomoyon bo'lar ekan.

19.6-jadval

Nomoddiy aktivlar samaradorligi o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini hisoblash

№	Ko'rsatkichlar	O't-gan yilda	Hiso-bot yilida	Farqi (+,−)	Zanjirli almashtirishlar		
					I	II	III
1.	Foydaning daro-maddagi ulushi, %	72,02	69,72	-2,30	69,72	69,72	69,72
2.	Mahsulotning daromadlilik darajasi, %	11,15	12,49	+1,34	11,15	12,49	12,49
3.	Na.ning natijaviyligi, so'm	23,70	25,59	+1,89	23,70	23,70	25,59
4.	Na.ning rentabelligi (1q .2q . 3q)	190,3	223,0	+32,7	184,2	206,4	223,0

20-Bob. KORXONADA AYLANMA MABLAG'LARNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI

20.1. Korxonada aylanma mablag'lar va ularni tahlil qilish vazifalari

Korxonaning aylanma mablag'lari – uning aylanma fondlarda, muomala fondlarida va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir. Ular asosiy fondlardan farqli o'laroq, to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Chunki, bir ishlab chiqarish sikli mobaynida to'liq iste'mol qilinadi, o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazadi, ham buyum-natura ko'rinishida, ham qiymat tarzida tiklanadi.

Ularning ulushi korxonaning umumiy xo'jalik mablag'larida faoliyat sohasiga qarab, 60 foizdan 90 foizgacha bo'ladi. Korxonaning moliyaviy va iqtisodiy ahvoli ko'p jihatdan ana shu mablag'lardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1997-yil 9-iyulda «Aylanma mablag'larning saqlanishi va o'z vaqtida to'ldirib turilishi uchun mas'uliyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» maxsus Farmon chiqardi. Farmonda respublikaning ayrim vazirliklari, idoralari va korxonalarida moliyaviy ahvol qoniqarsiz bo'lib qolayotganligi, o'z aylanma mablag'larini saqlashga e'tiborsiz bo'lish, shuningdek, katta miqdordagi mablag'lar debitorlik qarzlariga jalb qilinib qolinayotganligi tayyor mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldiqlari tarzida o'lik holatga keltirilayotganligi qayd etilgan.

Prezident o'z nutuqlarida korxonalarda aylanma mablag'lardan samarali foydalanish, debitorlik va kreditorlik qarzlarining kamaytirish zarurligi va ularning xalq xo'jaligi uchun ahamiyatini bir necha bor ko'rsatib o'tdi. Chunki aylanma mablag'lar korxona faoliyatining samaradorligini ta'minlabgina qolmay, balki makroiqtisodiy o'sishni ham ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir.

Aylanma mablag'lar haqidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida hamda «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma» degan 2-a shaklda ko'rsatiladi. Buxgalteriya balansida ular «Aylanma aktivlar» degan aktivning 2-bo'limida qayd etiladi. Ushbu bo'limning yakuni korxonaning muayyan sanada aylanma mablag'larda turgan mablag'lari summasini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda ushbu mablag'lar turlicha: joriy aktivlar, harakatdagi aktivlar, aylanma aktivlar deb yuritiladi. Korxona rahbari buxgalteriya balansini o'rganar ekan, quyidagi uchta jihatga e'tibor berishi kerak:

1. Balans aktividagi 1-bo'limi yakunlarining o'zgarishiga nisbatan 2-bo'lim yakunining o'zgarishi. Balans aktividagi 2- va 1-bo'limlari yakunlarini taqqoslash xo'jalik mablag'lari umumiy summasida aylanma mablag'lar

ulushi ko'payganligini (kamayganligini), harakatchan vositalar ulushi o'zgarganligini ko'rsatadi. Xo'jalik mablag'lari umumiy summasida aylanma aktivlar ulushining ko'payishi korxona ixtiyorida harakatchan mablag'lar ko'payganligni, ularni osonroq ishlatish va kreditorlik qarzlarini tezroq to'lash mumkinligini, korxona yanada likvidli va to'lovga qobiliyatli bo'lib qolganligini ko'rsatadi. Mablag'lar aylanishi tezlashuvi korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun ham juda muhimdir.

2. Aktiv 2-bo'limi yakuni summasining qisqa muddatli qarz summasiga nisbatan o'zgarishi (balans passivi 2-bo'limining yakuni minus uzoq muddatli qarz). Qisqa muddatli qarzning aylanma aktivlarga nisbatan o'sishi ko'proq aylanma aktivlar tarkibida jalb qilingan mablag'lar ulushi ko'payganligini, ya'ni aylanma mablag'lar qarz mablag'lar hisobiga ko'payganligini ko'rsatadi. Bunday ahvolni ko'rib, korxona rahbari hushyor tortishi kerak. Chunki bunday ko'payish mablag'lar aylanishining sekinlashuviga, likvidlilik va to'lovga qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin (agar bu pasayish mablag'larni debitorlik qarzlariga ishlatish natijasi bo'lmasa).

3. Agar aylanma aktivlar (balans aktivi 2-bo'limining yakuni) qisqa muddatli qarzlardan kam bo'lsa, bu hol hamma aylanma mablag'lar qarz mablag'lar hisobidan tashkil topganligini bildiradi, korxonaning to'lovga mutloqo qobiliyatsizligini ko'rsatadi. Bu jarayonlar korxonada aylanma mablag'lar tahliliga muhim vazifalarni yuklaydi. Xususan, aylanma mablag'larni tahlil qilganda ularning umumiy o'zgarishini aniqlash bilan cheklanib qolmaslik lozim. Eng muhimi uning tarkibiy tuzilishi, harakatchanligi, debitorlik qarzlariga jalb qilinishi, tez likvid bo'ladigan mablag'lar tarkibi kabi juda ko'p jihatlarga ahamiyat berish lozim.

20.2. Korxona aylanma mablag'lari va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi

Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali) tarkibida yetakchi o'rinlarni aylanma mablag'lar hissasi tashkil qiladi. Uning miqdori, ta'kidlanganidek, turli sohalarda turlicha bo'ladi.

Tahlil jarayonida aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda e'tirof etilishicha, ushbu muammoning hal qilinishida olimlar bir to'xtamga kelishgan. Hammada bir xil fikr, ya'ni aylanma mablag'larni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilinmoqda. Ammo qanday ko'rsatkichlardan foydalanish va ularni tasniflash bo'yicha olimlar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Hatto ayrim darsliklarda[1] alohida aylanma mablag'lar tahlili ko'rsatilmagan. Faqat uning ayrim qismlarigina «Korxona aktivlari

---

[1] *Савицкая Г.В.* Анализ хозяйственой деятельности предприятия. — М.: ИП «Инкоперпектива», 1997. 438—477-betlar.

tahlili»da qisqagina qarab chiqilgan. Bunday yondoshuv, korxona egasini, korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali) samaradorligini nazorat qilish va oshirish imkoniyatidan mahrum qiladi. Bu esa bozor munosabatlari sharoitida kutilmagan xavf-xatar va bankrotlik vaziyatlarini tug'dirishi mumkin.

Ayrim olimlar aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uchga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi. Masalan, «Moliyaviy tahlil»[1] kitobida aylanma mablag'larni baholovchi ko'rsatkichlarni uning holatini, harakatini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga bo'ladi. Ammo ushbu asarda ko'rsatkichlar tizimining aniq tasnifi berilmagan. Uning ustiga aylanma mablag'larning harakatini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan aralashib ketgan.

Agar ushbu yondoshuvga nazariy jihatdan qaraydigan bo'lsak, aylanma mablag'larning mohiyati uning harakatdaligidadir. Aylanma mablag'larning harakatdaligi esa, uning samaradorligida ifodalanadi. Shu tufayli bunday yondoshuv nazariy jihatdan chuqur tadqiqotni talab qilsa, amaliy jihatdan noaniqliklarni tug'diradi.

Oxirgi paytlarda chop qilingan, bevosita korxonaning moliyaviy holatini baholashga qaratilgan kitobda[2] ham ushbu masala nazardan chetda qolgan. Aylanma mablag'larga tegishli faqat uchta ko'rsatkich tavsiya qilingan. Tabiiyki, bunday yondoshish qo'yilgan muammoning to'liq hal bo'lishi uchun yetarli emas. Bevosita moliyaviy tahlilga bag'ishlangan adabiyotlarda ham aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarga kam e'tibor berilgan[3] xuddi shu holatni V.V. Patrov va V.V. Kovalyovlarning tadqiqotlaridan ham kuzatish mumkin[4]. Ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning ilmiy asoslangan tasnifi bo'yicha olimlar o'rtasida hamon bir xil qarashlar shakllangan emas.

Ushbu munozarani yana istalgancha davom ettirish mumkin edi. Ammo keltirilgan qarashlar ushbu masalalarning hamon olimlar o'rtasida nazariy jihatdan hal bo'lmaganligi to'g'risida xulosa qilish uchun yetarli.

Aylanma mablag'lar ham iqtisodiy mazmuni bo'yicha ayrim jihatlari asosiy vositalarga o'xshash. Ular ikkalasi ham korxonaning aktivlarini tashkil qiladi, ikkalasi ham moddiy resurslar guruhiga kiradi. Shu jihatdan aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ham uch guruhga bo'lish mumkin: aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va aylanma

---

[1] *Voljin I.O, Ergashbayev V.V.* Moliyaviy tahlil. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998-74-93 betlar

[2] *Hasanov N., Najbitdinov S.* Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1999. 17–18-betlar.

[3] *Ibrohimov A.T.* Moliyaviy tahlil. – T.: Mehnat, 1995. 14–19-betlar.

[4] *Патров В.В., Ковалёв В.В.* Как читать баланс. – М.: Финансы и статистика. 1993. 142–213-betlar.

mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Mazkur ko'rsatkichlarning tasnifi 20.1-chizmada keltirilgan.

Tahlil jarayonida u yoki bu ko'rsatkichning nimani ifodalashi, ularni baholash yo'llari va ma'lumot manbalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli har bir ko'rsatkichning nomini, nimani ifodalashini, aniqlanish yo'llarini keltirilgan guruhlar bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu masalalarni hal qilish uchun 20.1-jadvalni tuziladi.

Ushbu jadval ma'lumotlari korxonaning aylanma mablag'larini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, tasnifi, aniqlanish yo'llar, nimani ifodalashi va har birining axborot manbayini ko'rsatib turibdi. Bu esa mazkur ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish nazariy va uslubiy asos bo'ladi. Bundan foydalanib, har bir guruh ko'rsatkichlarni alohida-alohida o'rganib chiqish usullari ko'rib chiqiladi.

20.3. Korxonada aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Korxonaning aylanma mablag'larini o'rganib va tahlil qilib, ularning ko'rsatkichlarini, yuqorida ta'kidlanganidek, uchta guruhga birlashtirish mumkin. Bu guruhlar:

* aylanma mablag'larning ahvolini;
* aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni;
* aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini bildiradi.

Aylanma mablag'larning holatini bildiruvchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: aylanma mablag'lar summasi, uning o'rtacha qiymati, umumiy mablag'lardagi hissasi, aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishi, aylanma mablag'larda o'z mablag'lari summasi; aylanma mablag'lar dinamikasi va h.k.

Aylanma mablag'larning muayyan sanadagi summasi buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqariladi hamda balansning aktiv qismidagi 2-bo'limining yakunida (300-satr) ko'rsatiladi.

Aylanma mablag'larning pulda ifodalangan summasi ularning hajmini ko'rsatib, sifatini ifodalamaydi. Sifat ko'rsatkichiga ega bo'lish uchun aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan miqdoridan foydalaniladi. Buning uchun korxona aylanma mablag'larining umumiy summasini bir kunlik ishlab chiqarshi xarajatlariga, savdo korxonalarida esatovarning tannarxi bo'yicha bir kunlik tovar aylanmasiga taqsimlash kerak.

Aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan miqdorini hisoblash, buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkich korxonaning ishlab chiqarish dasturini bajarish chog'ida aylanma mablag'lar necha kunga yetishini ko'rsatadi.

Biroq, ushbu aylanma mablag'lardan hisobot davrida emas, balki keyingi davrda foydalaniladi. Shu sabbali, aylanma mablag'larning asl summasini

20.1-jadval

Aylanma mablag'larni (Aym.) ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning mazmuni va aniqlanish yo'llari

Ko'rsatkich-larning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi	Axborot manbalarida ifodalanishi
1	2	3	4
1. Asosiy vositalar (Av.) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar			
1.1.Aym.ning umumiy mab-lag'lardagi hissasi	Aym.ning umumiy mablag'larda necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi	$\frac{Agm}{B}$	300/310)
1.2.Aym.tarkibida pul mablag'lari (Pm.) hissasi	Aym.tarkibida qancha foiz pul mablag'lari mavjudligini ifodalaydi	$\frac{Pm}{Aym}$	(170+180+19-0)/ / 300
1.3.Aym.tarkibida zaxiralar va xarajatlar (Zx) hissasi	Aym.tarkibida qancha foiz zaxiralar borligini ko'rsatadi	$\frac{Zx}{Aym}$	120 / 300
1.4.Aym.tarkibida debitorlar (Deb) hissasi	Aym.tarkibida debitorlarning necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi	$\frac{Deb}{Aym}$	220–290 / 300
1.5.Muddati o'tib ketgan debitorlarning (Dmud) umumiy Deb.dagi hissasi	Muddati o'tib ketgan debitorlarning umumiy debitorlardagi necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi	$\frac{Dmud}{D}$	2ash ma'lumot 7us / 220-290
1.6. Av.ning chiqarilish koeffitsiyenti	Av.ning qancha qismi hisobdan chiqarilgan-ligini ifodalaydi	$\frac{O'_n + U_{mp} + A_s}{A_{ym}}$	(390+400+41-0) – 010 / 300
II. Aylanma mablag'lar (Aym) bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar			
2.1.Aym. sig'imi, ya'ni 1 so'm natijaga (Q) to'g'ri keladigan Aym.	1 so'm natija ko'rsatkichiga qancha Aym.to'g'ri kelishini (natijaning fondliligini) ifodalaydi	$\frac{Aym}{Q}$	300 / 010 2sh

20.1-jadvalning davomi

1	2	3	4
2.2.Aym. me'yorining (Aym.m) haqiqiy miqdori (Aym.x) bilan ta'minlanishi	Aym.haqiqiy summasining me'yorganisbatini, ya'ni 1 so'm Aym.m.ga to'g'ri keladigan haqiqiy Aym. summasini ko'rsatadi	$\frac{\text{Aym} \cdot x}{\text{Aym} \cdot m}$ Ks - davrdagi kunlar soni	300 h// 300 me'yor
2.3.1 so'm asosiy vositalarga(Av) to'g'ri keladigan Aym.	1 so'm Av.ga to'g'ri keladigan Aym.summasini, ya'ni Av.ning Aym.bilan ta'minlan-ganligini ifodalaydi	$\frac{\text{Aym}}{Ab}$	300 / 010
2.4.Bitta xodimga (X) to'g'ri keladigan Aym.	1 taxodimga to'g'ri keladigan Aym.summasi, ya'ni X.larning Aym.bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi	$\frac{\text{Aym}}{X}$	300 / 020 f 2 b
III. Aylanma mablag'lar (Aym) samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari			
3.1.Aym.ning aylanuvchanligi, kunlarda	Aym.bir aylanish davrining necha kunga to'g'ri kelishini ko'rsatadi	$\frac{\text{Aym} \cdot \text{Ks}}{\text{Q}}$	(300yb + + 300yo/2) x 360 / 010 2sh
3.2.Aym.ning aylanuvchanlik koeffitsienti, martada	Tahlil davridaAym.ga qo'yilgan mablag'ning necha marta aylanishini ifodalaydi	$\frac{\text{Q}}{\text{Aym}}$	010 2sh / / (300yb+ + 300yo / 2)
3.3.Aym.ning rentabelligi	100 so'm Aym.summasiga to'g'ri keladigan foydani ko'rsatadi	$\frac{\text{F} \cdot 100}{\text{Aym}}$	200 2sh / / (300yb+3-00yo / 2)
3.4.Aym.ning daromadliligi	100 so'm Aym.summasiga to'g'ri keladigan daromadni (D) ifodalaydi	$\frac{D \cdot 100}{\text{Aym}}$	050 2sh / / (300yb+ 300yo / 2)
3.5.Debitorlar-ning aylanuvchan-ligi (kunlarda)	Debitorlarning (Deb) bir aylanish davri necha kunga to'g'ri kelishini ko'rsatadi	$\frac{\text{Deb} \cdot \text{Ks}}{\text{Q}}$	220-290 x 360 / 010 2sh

keyingi chorakda mashulot ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlarga taqsimlash kerak bo'ladi. Bu ko'rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_{ay.m.} = \frac{Aym \times 90}{I_{xarajat}}$$

bunda: $K_{ay.m.}$ – kunlarda ifodalangan aylanma mablag'lar;

A_{ym} – aylanma mablag'lar summasi;

$I_{xarajat}$ – keyingi chorakdagi ishlab chiqarish xarajatlarining bir kunlik miqdori.

Ushbu ko'rsatkich kunlarda va summada ifodalangan amaldagi aylanma mablag'lar me'yorlari bilan taqqoslash uchun kerak. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik summasi o'rtacha xronologik formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$\text{Ay.mo'.} = \frac{\text{Aym.1/2+ Aym.2+ Aym.3+ Aym.4+ Aym.51/2}}{4}$$

bunda: *Ay.mo'.* – aylanma mablag'larning o'rta yillik summasi;

Ay.m1,... Ay.m5 – choraklar boshi va oxiridagi aylanma

Bu ko'rsatkich biznes-rejalar tuzish va aylanma mablag'larning samaradorligini aniqlash uchun ham keng qo'llaniladi.

Qolgan ko'rsatkichlarni aniqlash usuli 20.1-jadvalda o'z ifodasini topganligi uchun bu yerda uni batafsil qarab chiqish shart emas.

Korxonada aylanma mablag'lar holatining qanday ekanligini bilish uchun, hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida, uning dinamikasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ammo aylanma mablag'lar dinamikasini o'rganganda albatta barcha aktivlar dinamikasi bilan solishtirish va barcha aktivlarda ularning ulushi qanday o'zgarayotganligini ham kuzatish bu boradagi xulosaga ancha oydirlik kiritadi.

Ushbu holatni tahlil qilish uchun 20.2-jadvalni tuzish kerak. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada 1997–2002-yillar mobaynida aylanma mablag'larning o'sish sur'ati barcha aktivlarning o'sish sur'atiga nisbatan biroz sust. Barcha aktivlar shu davrda 125,6 % o'sgan bir paytda aylanma mablag'lar 122,3 % o'sgan.

Aylanma mablag'larning barcha aktivlarga nisbatan o'sish sur'atining koeffitsienti 0,97 ni (122,3 : 125,6) tashkil qiladi. Hozirgi paytda korxonaning aylanma mablag'lari jadalroq o'sishi lozim. Chunki, aylanma mablag'lar yetarli bo'lmasa, takomillashgan asosiy vositalar va malakali kadrlardan kutilgan darajada samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Aylanma mablag'lar holatini tahlil qilganda albatta uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarga ham alohida ahamiyat berish lozim. Buning uchun aylanma mablag'lar tarkibiga kiruvchi har bir moddaning ulushi aniqlanadi va ularning summasi hamda ulushidagi o'zgarishi hisoblanadi.

20.2-jadval

Korxonada aylanma mablag'lar dinamikasi va ular tarkibining o'zgarish hisob-kitobi

Yillar	Aylanma mablag'lar		Barcha aktivlar		Aylanma mablag'larning barcha aktivlardagi ulushi, %
	summasi, ming so'm	o'zgarish sur'ati, %	summasi, ming so'm	o'zgarish sur'ati, %	
1997	4767,0	100,0	8917,2	100,0	53,5
1998	5086,4	106,7	9380,9	105,2	54,2
1999	5191,3	108,9	9657,3	108,3	53,8
2010	5353,3	112,3	10031,9	112,5	53,4
2011	5562,0	116,7	10659,4	119,3	52,2
2012	5830,0	122,3	11200,0	125,6	52,1

Buning uchun 20.3-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'lar tarkibi yil boshida va oxirida keskin o'zgargan. Masalan, ishlab chiqarish zaxiralarining ulushi yil boshida 50,0 % ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 45,8 % ga teng bo'lmoqda, ya'ni 4,2 % bandga kamaygan. Xuddi shunday tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha ham 4,2 % bandga, qayta sotishga mo'ljallangan

20.3-jadval

Korxonada aylanma mablag'lar tarkibinining hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida		Farqi (+,-)	
	summasi, ming so'm	ulushi, %	summasi, ming so'm	ulushi, %	summasi, ming so'm	ulushi, %
1.Ishlab chiqarish zaxiralari	2781,0	50,0	2670,4	45,8	-110,6	-4,2
2.Tugallanmagan ishlab chiqarish	556,2	10,0	340,0	5,8	− 216,2	-4,2
3.Tayyor mahsulot	618,0	11,1	1432,0	24,6	+814,0	+13,5
4.Qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar	123,0	2,2	2,8	0,1	− 120,2	-2,1
5.Pul mablag'lari	618,0	11,1	107,0	1,8	-511,0	-9,3
6.Debitorlar	865,2	15,6	1277,8	21,9	+412,6	+6,3
Jami:	5562,0	100,0	5830,0	100,0	+268,0	−

tovarlar 2,1 % bandga, pul mablag'lari esa 9,3 % bandga kamaygan. Bu ayniqsa pul mablag'lari va tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha juda keskin kamayib ketgan. Bu holatni ijobiy baholash qiyin. Chunki, pul mablag'larining kamayib ketishi korxonada tez likvid bo'ladigan mablag'larning kamayishi degani. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning likvidligi va moliyaviy barqarorligining yomonlashganligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur korxonada, tayyor mahsulotning summasi va ulushi keskin oshgan. Bu erkin bozor munosabatlari sharoitida yaxshi ko'rsatkich emas. Bu holat ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati pasayganligidan, yoki marketing xizmatining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan, yoki reklamadan to'g'ri foydalana olmayotganligidan dalolat beradi. Amaliyotda korxona rahbariyati bu sohaga katta ahamiyat berishi lozim. Zero, ishlab chiqarishdan maqsad, uni sotish va nihoyat foyda olishdir. Shu pirovard maqsadga qaratilmaydigan har qanday faoliyatning kelajagi, yashovchanligi yo'q.

20.4. Korxonada aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishda aylanma mablag'larning summasi va aylanish tezligini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslash; o'z va qarz mablag'larining muomaladagi ishtirokini aniqlash; aylanma mablag'larning umumiy hajmi va turlari bo'yicha shakllari va manbalarini o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni tahlil qilish uning umumiy summasi turlari bo'yicha haqiqiy miqdorini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslashdan boshlanadi (20.4-jadval).

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni aniqlash uchun ma'lumotlar moliyaviy hisobotdan, balansning aktiv qismidagi 2-bo'limidan olinadi.

Har bir muayyan korxona bo'yicha aylanma mablag'lar me'yori yuqori turgan tashkilot tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-fevraldagi 108-son qarori asosida belgilanadi.

Ammo hozircha aylanma mablag'lar me'yorlarini aniqlash uslubiyati hamda aylanma mablag'larning umumiy hajmi va turlari bo'yicha summasini belgilangan me'yorlarga qiyoslash tartibi ishlab chiqilmagan. Shu tufayli ushbu masalaga alohida ahamiyat berildi.

Ushbu ko'rsatkichni aniqlash yo'llarini aniq ma'lumotlar asosida ko'rsatib berishga harakat qilindi. Realizatsiya summasi 2002-yil 1 choragida 4938,3 ming so'mni tashkil qilgan. Bir kunlik mahsulot realizatsiyasi — 54,87 ming so'm.

Aylanma mablag'lar me'yorlari aylanish kunlarida, sarflar kunlarida yoki sarflar 1 so'miga tiyinda belgilanishi mumkin. Aylanma mablag'larning summadagi me'yorini belgilash uchun keyingi chorakdagi (1-chorak)

20.4-jadval

Korxonada aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikning holati va tarkibi (ming so'm)

Aylanma mablag'lar turlari	Keyingi yil 1-choragiga me'yor		Yil oxiridagi haqiqiy qoldiq		Me'yordan farqi, (+,−)	
	summada	kunlarda	summada	kunlarda	summada	kunlarda
Ishlab chiqarish zaxiralari	2469,2	45	2670,4	43,2	+201,2	-1,8
Tugallanmagan ishlab chiqarish	493,8	9	340,0	5,5	-153,8	-3,5
Tayyor mahsulot	548,7	10	1432,0	23,2	+883,3	13,2
Qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar	109,7	2	2,8	0,1	-106,9	-1,9
Pul mablag'lari	548,7	10	107,0	1,7	-441,7	-8,3
Debitorlar	726,2	14	1277,8	20,7	+551,6	+5,3
Hammasi	4938,3	90	5830,0	94,3	+891,7	+4,3

mahsulotning rejadagi bir kunlik realizatsiyasini kunlardagi me'yorlarga ko'paytirish kerak.

Kunlardagi haqiqiy mavjud aylanma mablag'lar: aylanma mablag'lar haqiqiy summasini keyingi chorakdagi rejada ko'zda tutilgan 1 kunlik mahsulot realizatsiyasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

20.4-jadval ma'lumotlari me'yordan ortiqcha katta aylanma mablag'lar umuman va uning ayrim turlari bo'yicha mavjudligini ko'rsatib turibdi. Korxona uchun aylanma mablag'lar normativi 90 kunga belgilangan. Hisobot davridan keyingi 1-chorakda mahsulot realizatsiyasi summasi – 4938,3 ming so'm. Rejadagi bir kunlik mahsulot realizatsiyasi 4938,3 : 90 = 54,87 ming so'mni tashkil qiladi. Aylanma mbalag'larning summadagi me'yori 54,87 x 90 = 4938,3 ming so'mni tashkil qiladi. Aylanma mablag'larning har bir turi bo'yicha me'yori shu yo'sinda aniqlanadi. Aylanma mablag'lar miqdorini yil oxirida kunlarda aniqlash uchun aylanma mablag'lar summasini keyingi yil 1 choragi rejasida ko'zda tutilgan 1 kunlik mahsulot realizatsiyasiga bo'lish kerak. Tahlil qilinayotgan korxona bo'yicha yil oxirigi kunlarida bo'lgan aylanma mablag'lar 94,3 kunni tashkil qiladi (5830 : 54,87). Aylanma mablag'larning barcha turlari bo'yicha kunlardagi aylanma mablag'lar xuddi shu tartibda aniqlanadi.

20.4-jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, me'yordan ortiqcha aylanma mablag'lar 891,7 ming so'mni, aylanish kunlarida 4,3 kunni tashkil qilgan. Aylanma mablag'larning eng ko'p me'yordan ortiqcha qoldig'i tayyor mahsulot bo'yicha – 883,3 ming so'mni yoki 13,2 aylanish kunini tashkil

qiladi. Debitorlik bo'yicha muvofiq ravishda 551,6 ming so'mni yoki 5,3 kunni tashkil qiladi. Pul mablag'lari bo'yicha aylanma mablag'lardan 441,7 ming so'm, aylanma kunlarda esa 8,3 kun yetishmovchilik bor.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikdagi bunday holat ijobiy emas, u uskunalardan foydalanish samaradorligiga, korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasining bankrotlik va korxonalar sanatsiyasi bo'yicha hukumat komissiyasi 1997-yil 17-aprelda 4-son bilan tasdiqlangan «Korxonalarni moliyaviy tahlil qilishga oid uslubiy tavsiyalar»da moliyaviy barqarorlikni aniqlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Buni biz o'rganayotgan korxona misolida ko'rib chiqamiz (20.5-jadval).

Moliyaviy tahlilga oid uslubiy tavsiyalarga ko'ra korxonalarda quyidagi tengsizliklar bo'lishi mumkin:

* mutloq barqarorlik – zaxiralar va xarajatlarni shakllantirish manbalarida ortiqchalik bor, ya'ni

$$O'aym >= 0;\ Mem >= 0;\ Azk = 0;$$

* normal barqarorlik – zaxiralar va xarajatlar o'z mablag'lari summasi bilan ta'minlanadi, ya'ni

$$O'aym <= 0;\ Mem >= 0;\ Azk >= 0;$$

* beqaror – zaxiralar va xarajatlar o'z va qarz mablag'lari hisobiga ta'minlanadi, ya'ni

$$O'aym <= 0;\ Mem <= 0;\ Azk >= 0;$$

* taqchil – zaxiralar va xarajatlar ularni shakllantirish manbalari tomonidan ta'minlanmaydi, ya'ni

$$O'aym <= 0;\ Mem <= 0;\ Azk <= 0,$$

bunda korxona to'lovga qodir bo'lmay qoladi.

Bunda: *O'aym* – o'z aylanma mablag'larining ortiqchaligi yoki kamomadi;

Mem – zaxira va xarajatlarni shakllantirish manbalarining ortiqchaligi yoki kamomadi;

Azk – zaxira va xarajatlarni shakllantirish manbalari umumiy miqdorining ortiqchaligi yoki kamomadi.

Bu ko'rsatkichlarning manbayi qiymatlari korxonaning berilgan davrda iqtisodiy layoqatsizligidan dalolat beradi.

20.5-jadvalda keltirilgan hisob-kitob ma'lumotlari korxonada hisobot yili boshida va oxirida o'z aylanma mablag'lari (O'aym)da kamomad va zaxiralar hamda xarajatlarni shakllantirishning o'z uzoq muddatli qarz manbalarida kamomad (Mzm), zaxiralar va xarajatalarni shakllantirish asosiy manbalari umumiy miqdori (Azk) bo'yicha – mablag'lar ortiqchasi borligini ko'rsatadi. Shunday qilib, ushbu usulga ko'ra tahlil etilayotgan korxonaning moliyaviy ahvoli beqaror hisoblanadi. Korxonani moliyaviy tahlil qilish

20.5-jadval

Korxonaning moliyaviy barqarorligining ifodalovchi ko‘rsatkichlar hisob-kitobi (ming so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+,-)
1.	O‘z mablag‘lari manbalari (balans passivi 1-bo‘lim yakuni – P1)	19882	21703	+1821
2.	Asosiy vositalar va boshqa noaylanmaaktivlar (balans aktivi 1-bo‘limi yakuni – A1)	13027	12971	+11736
3.	Mavjud o‘z aylanma mablag‘lari (P-1 – A1)	6855	8732	+1877
4.	Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar (balans passivi 2-bo‘limi) (P2, 400 va410-satrlar)	95	–	-95
5.	Zaxiralar va xarajatlarni shakllantirishning mavjud o‘z va uzoq muddatli qarzlari manbalari (P1-A1+400-satr+410-satr yoki mazkur jadval P3+P4)	6950	8732	+1782
6.	Qisqa muddatli kreditlar va qarz mablag‘lari (P2-400-satr-410-satr)	7170	7834	+664
7.	Zaxiralar va xarajatlarni shakllantirish asosiy manbalarining umumiy miqdori (P5+P6)	14120	16566	+2446
8.	Zaxiralar va xarajatlarning umumiy miqdori (balans aktivi 2-bo‘limi (A2) 120, 130, 140, 150, 160-satrlar)	11520	12631	+1111
9.	O‘z aylanma mablag‘lari ortiqchasi (+), kamomadi (–) (P3 – P8)-O‘aym	-4665	-3899	+766
10.	Zaxiralar va xarajatlarni shakllantirishning o‘z va uzoq muddatli qarzlari manbalari ortiqchasi (+), kamomad (–) (P5 – P8) Mem	-4570	-3899	+671
11.	Zaxira va xarajatlarni shakllantirish asosiy manbalarining umumiy miqdori ortiqchasi (+) yoki kamomadi (–) (P7 – P8) Aek holat nobarqaror	2600	3935	1335

bo‘yicha bunday uslubiy tavsiyalarning dolzarbligiga qaramay, unda qator nuqson va kamchiliklar borligini aytib o‘tish kerak. Masalan, «O‘z aylanma mablag‘lari ortiqchaligi yoki kamomadi» ko‘rsatkichi nomini to‘g‘ri deb bo‘lmaydi, chunki unda ikkita muhim kamchilik mavjud.

1. O‘z aylanma mablag‘lari tovar zaxiralari va xarajatlar summasi bilan taqqoslanar ekan, bunda o‘z aylanma mablag‘lari ortiqchaligi yoki kamomadi to‘g‘risida so‘z yuritib bo‘lmaydi. Ortiqchalik yoki kamomad o‘z aylanma mablag‘larini belgilangan me’yorlari bilan qiyoslab aniqlanadi.

2. O‘z aylanma mablag‘lari faqat zaxiralar yoki xarajatlar miqdori bilan qiyoslanadi. O‘z aylanma mablag‘lari pul mablag‘larida va debitorlik qarzlarida bo‘lishi mumkin va bo‘lishi kerak. Buning ustiga o‘z aylanma mablag‘lari immobilizatsiyasi muddati o‘tgan debitorlik qarzlarida bo‘lishi mumkin. Noaniq sabablarga ko‘ra moliyaviy barqarorlikni hisob-kitob qilishda muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari nazarda tutilmagani ta’kidlanadi.

O‘z aylanma mablag‘lari va ularni shakllantirishning boshqa manbalarini *aylanma mablag‘lar so‘mmasi* bilan, *o‘z aylanma mablag‘larini qisqa muddatli* qarzlari bilan qiyoslash to‘g‘riroq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tavsiya etgan va O‘zbekiston Respubilkasi Markaziy bankiga yo‘llagan aylanma mablag‘lar ahvolini tahlil qilish uslubiy ko‘rsatmasida ham, qator kamchilik hamda bahsli jihatlar bor. Masalan, 1-bo‘lim 6-bandida aylanma mablag‘lar me’yori ishlab chiqarish xarajatlari yillik miqdorini (5-sh. bo‘yicha) 360 kunga bo‘lish va kunlardagi me’yorga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Ammo O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-fevraldagi 108-son qaroriga ko‘ra aylanma mablag‘lar me’yorini aniqlash usullaridan biri bir kunlik ishlab chiqarish xarajatlarini xarajatlar 1 so‘miga tiyinda belgilangan me’yorga ko‘paytirish hisoblanadi.

Aylanma mablag‘lar me’yorini aniqlashning boshqa usuli bir kunlik realizatsiya summasini me’yor bo‘yicha belgilangan kunlarga ko‘paytirish hisoblanadi.

Xuddi shu bo‘limning 7-bandida aylanma mbalag‘lar ortiqchaligi yoki kamomadi me’yorni aylanma mablag‘larni shakllantirishning o‘z manbalari bilan qiyoslash orqali aniqlanadiki, buni xato deb hisoblash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25- fevraldagi 108-son qarori 3-bandida «...aylanma mablag‘larni me’yor darajasigacha jamg‘arish manbalari korxonaning o‘z mablag‘lari, banklar kreditlari va budjet mablag‘lari hisoblanadi» deb yozib qo‘yilgan. Shundan kelib chiqib, aylanma mablag‘larning ortiqchaligi yoki kamomadini aniqlash uchun me’yorni ilgari qilinganidek, aylanma mablag‘larning butun summasi bilan qiyoslash kerak.

3-bo‘limning 12-bandida moddiy aylanma mablag‘lar o‘rtacha qoldig‘ini o‘rtacha arifmetik miqdorda aniqlash tavsiya etilgan. Shu kunga qadar aylanma mablag‘larning o‘rtacha summasi o‘rtacha xronologik tarzda aniqlab kelingandi.

3-bo‘limning 13 va 14-bandlarida aylanma mablag‘larning aylanuvchanligini faqat moddiy aylanma mablag‘lar bo‘yicha aniqlash tavsiya etiladi. Aylanma mablag‘larning barcha summasi hisobga olinmagan. Aylanma mablag‘larda, moddiydan tashqari, pul mablag‘lari, debitorlar va boshqa aktivlar ham bor. Bu mablag‘larning hammasi muomalada ishtirok etadi, shuning uchun aylanma mablag‘larning aylanuvchanligini yaxlitiga hisoblash

kerak. Shuningdek, aylanma mablag'larning aylanuvchanlik usuli va aylanma mablag'lar me'yorlari ularning turlari bo'yicha ishlab chiqilishi kerak.

20.5. Korxonada aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish tezligi, daromadliligi va rentabelligi bilan, ya'ni aylanma mablag'larning 1 so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori bilan belgilanadi. Aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan aylanish tezligi aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasining bir kunlik sotilgan mahsulot qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$AylMA = AylMo's \times K : S$$

bunda: AylMA. — aylanma mablag'lar aylanuvchanligi;
AylMo's — aylanma mablag'lar o'rtacha yilik summasi;
S — mahsulot sotish summasi;
K — davrdagi kunlar soni (odatda. bir yilda 360, yarim yilda 180, 1 chorakda 90, 1 oyda 30 kun).

Aylanma mablag'larning aylanish kunlarini hisoblab chiqish usuli yuqorida tasvirlangan «kunlarda ifodalangan aylanma mablag'lar» ko'rsatkichi bilan aralashtirib yubormasligi kerak (aylanma mablag'lar holatining ko'rsatkichlariga qaralsin).

Aylanma mablag'larning necha marta aylanishi (aylanish koeffitsienti — Ak) sotilgan mahsulot summasining aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasiga nisbati sifatida aniqlanadi yoki davrdagi kunlar soni (360) aylanma mablag'larning aylanish kunlariga bo'linadi. Bu quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ak = S : Ayl.mo's \qquad \text{yoki} \qquad Ak = 360 : AylMA.$$

Aylanma mablag'lar rentabelligi sof foydaning aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$AylMR = \frac{SF \times 100}{AylMo's}$$

bunda: *AylMR* — aylanma mablag'lar rentabelligi;
SF — sof foyda.

Bu ko'rsatkich korxona aylanma mablag'larning 1 so'miga qancha foyda olinayotganligini bildiradi.

Aylanma mablag'lar daromadliligi (Aym.D) daromad (D) summasini aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Aym.D = \frac{D \times 100}{Aym}.$$

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini tahlil qilganda ularga doir ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish, bu ko'rsatkichlarni o'tgan yil va biznes reja ma'lumotlari bilan taqqoslash kerak. Shundan keyin bu ko'rsatkichlarning o'zgarish darajasiga turli omillar ta'siri aniqlanadi. Mazkur omillarni o'rganish asosida aylanma mablag'lardan foydalanshi samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash va tavsiya etish kerak bo'ladi.

Aylanma mablag'lar aylanishining tezlashuvi (sekinlashuvi) ishlab chiqarish dasturini bajarish uchun mablag'larni bo'shatib beradi (qo'shimcha jalb etadi).

Masalan, tahlil qilinayotgan korxona bo'yicha mahsulot sotishdan olingan tushum 2010-yilda 11939 ming so'mni, 2011-yilda 19433 ming so'mni tashkil qildi; mablag'lar aylanishining o'rtacha yillik so'mmasi: 2010-yilda 13179 ming so'm, 2011-yilda 15246 ming so'm bo'ldi. Aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan aylanishini hisoblab chiqamiz:

$$2010\text{-yilda} = \frac{13179 \times 360}{11939} = 397{,}0 \text{ kun},$$

$$2011\text{-yilda} = \frac{15246 \times 360}{19{,}433} = 282{,}3 \text{ kun}.$$

2011-yilda aylanma mablag'larning aylanishi 2010-yildagiga qaraganda 114,7 kunga tezlashgan, natijada

$$\frac{19{,}133 \times 114{,}7}{360} = 6193{,}8 \text{ ming so'm}$$

miqdorida aylanma mablag'lar bo'shatib olingan.

Shunday qilib, aylanma mablag'lar aylanishining tezlashuvi (sekinlashuvi) natijasida bo'shatib olingan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'larni aniqlash uchun sotishdan kelgan bir kunlik tushumni aylanma mablag'lar aylanishining tezlashish (sekinlashish) kunlari soniga quyidagi formula bo'yicha ko'paytirish kerak bo'ladi:

$$AylM = \frac{S1 \times (AylMA - AylMas)}{K}.$$

bunda:

AylM — bo'shatib olingan (qo'shimcha jalb etilgan) aylanma mablag'lar summasi;

S1 — hisobot davrida sotilgan mahsulot summasi;

K — tahlil qilinayotgan davrdagi kunlar soni;

AylMA – aylanma mablag'larning hisobot davri kunlaridagi aylanish;
AylMas – aylanma mablag'larning asos davri kunlaridagi aylanishi.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlariga ko'p sonli omillar ta'sir etadi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

* mahsulot hajmining ko'payishi;
* aylanma mablag'lar tuzilishining yaxshilanishi;
* aylanma mablag'larni belgilangan me'yorlar darajasiga yetkazish;
* *debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish*;
* ohiqarilayotgan mahsulotga talabni o'rganishning yaxshilanishi;
* xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning yaxshilanishi kabilar.

Tahlil chog'ida ushbu omillarni o'rganish va ularning aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga ko'rsatadigan ta'sirni hisoblab chiqish kerak bo'ladi.

Aylanma mablag'lar aylanish tezligiga birqancha omillar ta'sir qiladi. Bularga mahsulot hajmi, aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ularning tarkibiy tuzilishi kabilar kiradi. Biz bu yerda sotilgan mahsulot hajmi va aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining o'zgarishi aylanma mablag'lar o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishini aniqlash usulini ko'rib chiqamiz. Buning uchun aylanma mablag'lar aylanishining kunlarda ifodalangan formulasidan foydalanish zarur.

$$AylMayl = \frac{AylMo's \times K}{T},$$

bunda: AylMayl – aylanma mablag'lar summasi aylanishi;
AylMo's – aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasi;
T – mahsulot sotishdan keladigan tushum;
K – davrdagi kunlar soni (360).

Ushbu holatda aylanma mablag'lar aylanishiga ikkita omil (AylMo's va T) *ta'sir ko'rsatishi munosabati bilan ularning ta'sirni tuzatish kiritilgan* ko'rsatkichlar usuli bilan aniqlash mumkin (20.6-jadval).

O'rganilayotgan omillarning ta'sirini anqilash uchun dastlab qayta hisoblangan ko'rsatkichni – mahsulot amalda sotilganda va o'tgan yilgi mablag'larida aylanma mablag'larning aylanish muddatini quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqarish kerak:

$$AylMayl.qh = \frac{AylMo's.bas \times 360}{Th} = \frac{13179 \times 360}{19433} = 244{,}1 \text{ kun},$$

bunda: AylMo's.as – asos yilida aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati;
Th – hisobot yilida sotilgan mahsulot hajmi.

20.6-jadval

Korxonada aylanma mablag'lar aylanishiga turli omillarning ta'sirini hisoblash (ming so'm)

Ko'rsatkich	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+, −)	Omillar ta'siri	
				Sotilgan mahsulot evaziga	Aylanma mablag'lar qiymati o'zgarishi hisobiga
Sotilgan mahsulot hajmi	11939	19433	+7494	X	X
Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik summasi	13179	15246	+2067	X	X
Aylanma mablag'larning aylanishi, kun hisobida	397,0	282,3	−114,7	-152,9	+38,2
Hisobot yili mahsulot hajmi sotilgan aylanma mablag'larning asos yilidagi qiymati bo'yicha Aym.aylanishi, kunlarda	X	244,1	–	–	–

Ushbu qayta hisoblangan ko'rsatkichni o'tgan yilning aylanish muddati bilan taqqoslab, mahsulot sotishdan kelgan tushumning o'zgarishining aylanish muddatiga ko'rsatadigan ta'sir aniqlaniladi. Misolda sotish hajmi ko'payishi aylanishni 152,9 kunga tezlashtirgan (244,1 − 397,0). Aylanma mablag'lar summasi ko'payishi natijasida uning aylanuvchanligi 38,2 kunga sekinlashgan (282,3 − 244,1).

Shunday qilib, aylanma mablag'lar aylanishining o'tgan yilga nisbatan tezlashuvi asosan mahsulot sotish hajmining o'sishi hisobiga yuz bergan. Holbuki, aylanma mablag'lar summasi ko'payishi aylanishni 38,2 kunga sekinlashtirgan. Mana shu ikki omilning ta'siri aylanma mablag'lar aylanishining o'tgan yilga nisbatan umumiy farqini keltirib chiqargan (-144,7 = -152,9 + 38,2). Mahsulot sotish hajmiga va aylanma mablag'lar summasiga ta'sir ko'rsatadigan barcha omillar hamda sabablar aylanma mablag'larning aylanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Aylanishning sekinlashuvini keltirib chiqaradigan asosiy sabablar korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti pastligidan; korxona mashulotiga talab kamligidan; ko'p miqdorda muddati o'tgan debitorlik qarzi hosil bo'lganligidan iboratdir.

Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish xo'jalik dasturini bajarish uchun ushbu mablag'larga bo'lgan ehtiyojning kamayishi barobarida korxonaning moliyaviy ahvoli mustahkamlanishiga, majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirshi uchun pul mablag'lari o'z vaqtida jamg'arilishiga, tan narx pasayishiga va rentabellik oshishiga ham olib keladi.

20.6. Aylanma mablag'larda joylashgan o'z mablag'larining tahlili

Aylanib turgan o'z mablag'lari summasi (AylUM) o'z mablag'larning qancha qismi aylanib turganligini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda uni, odatda «ishchi sarmoya» deb atashadi.

Uni aniqlash uchun o'z mablag'larining butun summasidan uzoq muddatli aktivlarda, ya'ni asosiy aktivlarda turgan o'z mablag'lari summasini ayirib tashlash kerak. Biroq, asosiy mablag'lar va solingan sarmoyalarda uzoq muddatli qarzlar va kreditlar bo'lishi mumkinligi tufayli, hisoblash chog'ida ularni ham nazarda tutish lozim.

Shunday qilib, aylanib turgan o'z mablag'lari summasini aniqlash uchun «O'z mablag'lari manbalari» degan balans passivining 1-bo'limi yakunidan (390-satr) «Uzoq muddatli aktivlar» degan balans aktivining 1-bo'limi yakunini (110-satr) ayirib tashlash hamda uzoq muddatli aktivlardagi «Uzoq muddatli kreditlar» summasini qo'shish kerak. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\text{Ayl.O'M} = \text{O'MM-Uzoq mud. akt.} + \text{Uzoq mud.qarz+} + \text{Uzoq mud.kr.}$$

Bunda: AylO'M – o'z mablag'lari manbalari (passiv) 1-bo'limining yakuni);

Uzoq mud.akt. – uzoq muddatli aktivlar (aktiv 1-bo'limi yakuni);

Uzoq mud.qarz. uzoq muddatli qarzlar;

Uzoq mud.kr. – uzoq muddatli kreditlar.

Ana shu ko'rsatkichni aylanma mablag'lar umumiy summasidan aylanma mablag'larda foydalanilgan qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlarni aylanma aktivlar chiqarib tashlash yo'li bilan, ya'ni quyidagi formula bo'yicha aniqlash ham mumkin:

$$\text{AylMS} = \text{AylM} - \text{aylanma mablag'lardagi Qisqa mud.qarz} - \text{Uzoq mud.qarz.}$$

Amal qiluvchi sarmoya muomaladagi, ya'ni amalda aylanib turgan o'z sarmoyasi summasini bildiradi. Xalqaro amaliyotga muvofiq bu ko'rsatkich aylanib turgan o'z mablag'lari summasiga teng deb hisoblanadi. Biroq, aylanma mablag'lar tarkibida ayni paytda muomaladan chiqarib olingan va shu sababli, ishlab chiqarishda amal qilmayotgan muddati o'tgan debitorlik qarzlari ham bo'lishi mumkin. Bunday holda amal qilib turgan sarmoyani aniqlash uchun aylanib turgan o'z mablag'lari umumiy summasidan muddati o'tgan debitorlik qarzlari summasini chiqarib tashlash kerak. Bu summa «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma» degan 2-A shaklda ko'rsatiladi.

Aylanma mablag'lar tarkibini quyidagilar ifodalaydi:

* o'z mablag'lari ulushi, ya'ni aylanma mablag'lardagi o'z mablag'lari summasining foizi. Uni hosil qilish uchun o'z mablag'lari summasini 100 ga ko'paytirish va aylanma mablag'lar summasiga taqsimlash kerak;

* qarz mablag'lar ulushi, ya'ni aylanma mablag'lardagi jalb qilingan mablag'lar salmog'i;

* debitorlik qarzlari ulushi;

* zaxiralar va xarajatlar ulushi;

* pul mablag'lari ulushi.

Aylanma mablag'lar tarkibini tahlil qilganda muayyan paytdagi ularga doir amaliy ma'lumotlarni o'tgan yil ma'lumotlari bilan hamda oxirgi bir necha yil mobaynidagi o'zgarishlari bilan taqqoslash kerak.

Agar aylanma mablag'larda:

* o'z mablag'lari ulushi ko'paysa;

* qarz mablag'lari ulushi kamaysa;

* debitorlik qarzlari ulushi kamaysa;

* zaxiralar va xarajatlar ulushi kamaysa;

* pul mablag'larining ulushi ko'paysa, aylanma mablag'larning tarkibi yaxshilanadi.

Korxona rahbari buxgalteriya balansi bilan tanishib chiqib, aylanma mablag'lar dinamikasiga ishonch hosil qilishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish zaxiralari summasining o'sishi yoki kamayishi korxona o'z ishlab chiqarish hajmini oshirib borayotganligini yoki uning xomashyo va materiallar me'yordan ortiqcha zaxiralarini to'plab borayotganligini ko'rsatishi mumkin.

Marketing xizmati yomonligi, xaridorlar yo'qligi yoki mahsulot sifati yomonlashganligi tufayli tayyor mahsulotga talab pasayishi natijasida bu mahsulot to'planib borishi mumkin.

Debitorlik qarzi, ayniqsa, uning muddati o'tgan qismi o'sishi xaridorlar va buyurtmachilarning qobiliyati yetarli o'rganilmayotganligini ko'rsatadi.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasi ularning me'yordan qanchalik farqlanishida ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 27-fevraldagi «Vazirliklar, idoralar va korxonalar aylanma mablag'larining me'yorlari to'g'risida»gi 108-qaroriga muvofiq, korxonalar moliyaviy ahvolini mustahkamlash, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirshi maqsadida faoliyat turlarini hisobga olib, aylanma mablag'larning tabaqalashtirgan me'yorlari tasdiqlandi.

Yuqorida tilga olingan qarorda aylanma mablag'lar me'yorlari idoralarga qarab, kunlarda va bir so'm xarajatga to'g'ri keladigan tiyinlarda belgilangan.

Ushbu qarorga muvofiq aylanma mablag'lar me'yorini aniqlash uchun mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlar summasini kunlarda belgilangan me'yorga quyidagi formula bo'yicha ko'paytirish kerak:

$$Aylm. = \frac{UXFAXQ \times AylMMkun}{K}$$

bunda: Aylm. – aylanma mablag'larning me'yordagi summasi;

UXFAXQ – hisobot davrida umumxo'jalik faoliyatining amaldagi jami xarajatalari qiymati (5-s-shakl bo'yicha);

K – davrdagi kunlar soni;

AylMMkun – belgilangan aylanma mablag'larning kunlardagi me'yori.

Tugallanmagan ishlab chiqarish dinamikasi ham ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'ladi. Bu hajmning haddan tashqari ko'payishi butlanmagan mahsulot chiqarish yoki ishlab chiqarishni tugallash uchun zarur xomashyo materiallar yo'qligi natijasida yuz berishi mumkin.

Tayyor mahsulotga talabning pasayishi, yomon marketing, xaridorlar yo'qligi yoki mahsulot sifati yomonlashuvi natijasida ham tayyor mahsulot ortiqcha ishlab chiqarilishi mumkin.

Debitorlik qarzining, ayniqsa, muddati o'tgan qarzning ko'payishi xaridorlar va buyurtmachilarning to'lov qobiliyati yetarli darajada o'rganilmaganligidan darak beradi.

Pul mablag'larining haddan tashqari ko'payishi ham nomaqbul hodisadir. Chunki, bu mablag'lar korxonaning hisob raqamlarida harakatsiz yotmasdan, aylanib turishi va daromad keltirishi kerak. Ikkinchi tomondan, mablag'larning yo'qligi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligini ko'rsatadi.

Shu sababli, aylanma mablag'lar turlari korxonaning barqaror ishlashini ta'minlaydigan miqdorda bo'lishi kerak.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasi ularning me'yordan farq qilishi bilan belgilanadi. Korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish maqsadida, faoliyat turlarini hisobga olgan holda, aylanma mablag'larning tabaqalashtirilgan me'yorlari tasdiqlangan.

Moliyaviy hisobotni o'rganish respublika korxonalari aylanma mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalanilmayotganligini ko'rsatdi. Katta debitorlik qarzlari, aylanma mablag'larning sekin aylanishi, ishlab chiqarishga doimo qo'shimcha mablag'lar jalb etishni talab qiladi.

Aylanma mablag'larni tahlil qilgan vaqtda amaldagi va me'yoriy aylanma mablag'larni taqqoslash va ular o'rtasidagi farqni hisoblab chiqarish kerak bo'ladi.

Aylanma mablag'lar me'yorini aniqlash uchun yuqoridagi qarorga muvofiq, mahsulot ishlab chiqarishga bir kunda qilingan xarajatlar summasini quyidagi formula bo'yicha kunlarda ifodalangan belgilangan me'yorga ko'paytirish kerak:

$$AylMM = \frac{Edk \times Nkn}{K},$$

bunda: AylMM – aylanma mablag'lar me'yori so'mmasi;
Edk – davrdagi kunlarning jami miqdori;
K – davrdagi kunlar soni;
Nkn – aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan (belgilangan) me'yori.

Agar aylanma mablag'lar normativi 1 tiyinga qilingan xarajatlarni hisobga olgan holda belilansa, ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar umumiy summasini quyidagi formula bo'yicha xarajatlarning 1 so'miga tiyinlarda belgilangan normativga ko'paytirish kerak bo'ladi:

$$AylMM = Xish \times 1\ so'mga\ M,$$

bunda: Xish – ishlabch iqarish xarajatlari;
1 so'mga M – 1 so'm xarajatga to'g'ri keladigan aylanma mablag'lar me'yori.

Ushbu ko'rsatkichlarni amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda aniqlash va qator yillar bilan taqqoslash tahlil qilinayotgan obyekt bo'yicha yetarli xulosalarni chiqarish uchun asos bo'ladi.

21-Bob. KORXONADA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI TAHLIL QILISH YO'LLARI

21.1. Tovar-moddiy zaxiralarining turlari

Tovar-moddiy zaxiralar oborot aktivlarining bir qismi hisoblanadi. Ular haqidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotda: Ishakl «Buxgalteriya balansi» ikkinchi bo'limida «Oborot aktivlari»da ko'rsatiladi.

Ularga:

* ishlab chiqarish zaxiralari, ya'ni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan xomashyo va materiallar;
* tugallanmagan ishlab chiqarish;
* sotish uchun mo'ljallangan, shu jumladan, yo'ldagi tovarlar (tayyor mahsulot va qayta sotish uchun tovarlar, konsignatsiyalar) kiradi.

Ishlab chiqarish zaxiralariga: omborlar va ishlab chiqarishdagi xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i chiqindilari, xarid qilinadigan yarim tayyor va butlovchi buyumlar, zaxiradagi ehtiyot qismlar, idishlar, arzon va tez eskiradigan narsalar zaxiralarining amaldagi tannarxi kiradi. Ular korxonaning to'xtamay uzluksiz ishlashini ta'minlashi darkor. Ishlab chiqarish zaxiralari kamomadi ishlab chiqarish uzilishiga, tugallanmagan ishlab chiqarish ko'payishiga, xaridorlar oldidagi majburiyatlar bajarmasligi yoki to'liq bajarmasligi va oxir-oqibatda korxona moliyaviy holatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Ularning ortiqchaligi me'yordan ortiq qoldiqlar paydo bo'lishiga, saqlash xarajatalri ko'payishiga sabab bo'ladi.

Korxona rahbarlari buxgalteriya balansi bilan tanishayotganda ishlab chiqarish zaxiralarining yillik summasi o'zgarishiga e'tibor berishlari kerak. Agar ular ishlab chiqarish hajmlari va mahsulot sotilishi bilan o'zgarsa — yaxshi. Chunki ishlab chiqarish hajmlari kamayib, ishlab chiqarish zaxiralari ko'paysa, bu me'yordan ortiqcha zaxiralar paydo bo'lishidan dalolat beradi. Bu mablag'lar aylanishi qisqarayotganligi va ishlab chiqarish xarajatlari ko'payayotganligini anglatadi. Bularning sabablarini aniqlab, ishlab chiqarish zaxiralarini me'yorga keltirishga qaratilgan tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish lozim.

Tugallanmagan ishlab chiqarish — tugallanmagan ishlab chiqarish va ish (xizmat)lar uchun qilingan xarajatlardir. Ular hajmi ishlab chiqarish jarayoni davomiyligi, ya'ni barcha butlovchilar bilan ta'minlangan mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan vaqtga bog'liq. Bunda tugallanmagan ishlab chiqarish hisobga olinadi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999-yil 5-fevralda 54-son bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni

shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan tannarx bo'yicha hisobotda aks ettiriladi.

Rahbarlar hisobotni tahlil etib, tugallanmagan ishlab chiqarish summasi ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulot o'zgarishiga nisbatan kamayanligi yoki ko'payganligiga e'tibor qaratishi kerak. Agar to'lanmagan ishlab chiqarishning o'sishi tayyor mahsulot o'sishiga qaraganda jadalroq ro'y berayotgan bo'lsa, bu muayyan turdagi ishlab chiqarish zaxiralari va mahsulot to'liq yig'ilmasligiga olib kelishi mumkin. Bunday paytda, imkon boricha tezroq zarur xomashyo va materiallar bilan ta'minlash choralarini ko'rish lozim.

Tayyor mahsulot – ishlab chiqarishi tugallangan, sinovdan o'tgan va qabul qilingan, buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq barcha qismlar bilan butlangan hamda tegishli texnik shartlar va andozalarga mos buyumlar qoldig'i. Ko'rsatilgan talablarga mos bo'lmagan mahsulot va topshirilmagan ishlar hisobga olinadi va tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobotda ko'rsatiladi. Tayyor mahsulot buxgalteriya balansida amaldagi tannarxi bo'yicha hisobga olinadi.

Tayyor mahsulot qoldig'ining ko'payishiga turlicha sabablar sifatida ishlab chiqarish hajmlari ortishi, sifati yomonlashganligi yoki marketing xizmati yetarlicha olib borilmaganligi tufayli sotilmagan mahsulot o'sishini ko'rsatish mumkin. So'nggisi moliyaviy resurslar chetga jalb qilinishi, budjetga qo'shimcha badallar to'lanishi hamda korxona moliyaviy holati yomonlashishiga olib keladi. O'zR Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 31-dekabrdagi 554-qaroriga muvofiq, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi «Sotilmagan mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldiqlari uchun haqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma»ni ishlab chiqdi. Unda belgilangan me'yordan ortiqcha sotilmagan tayyor mahsulot qoldig'iga ega sanoat korxonalari mazkur haqni to'lovchilar deb tan olingan. Me'yorlar korxona qaysi idoraga tegishliligidan kelib chiqib, sotish kunlari belgilanadi va yuqorida ko'rsatilgan yo'riqnomaning ilovasida keltiriladi. To'lov stavkasi me'yordan ortiqcha qoldiqlar ishlab chiqarish tannarxining 2 foizi miqdorida belgilangan. Bu tannarx quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$STMQ = TSMQt - (SKO \times MQ)$$

bunda: STMQ – me'yordan ortiqcha sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlari tannarxi;

STMQt – hisobot davridagi sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining hisob-kitob qilingan tannarxi;

SKO – mahsulotni sotish bo'yicha kundalik oboroti;

MQ – sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining kunlarda belgilangan me'yori.

STMQt balans (140-satr) bo'yicha sotilmagan tayyor mahsulotning amaldagi qoldiqlarini 12 ga bo'lish va hisobot davri oylari miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

SKO hisobot (2-son «Moliyaviy natijalar haqidagi hisobot» shakli, 050-satr) bo'yicha hisobot davrida sotilgan mahsulot hajmini hisobot davridagi kunlar miqdoriga bo'lishi yo'li bilan aniqlanadi.

Sotilmagan tayyor mahsulotning me'yordagi summasi mahsulotni sotish bo'yicha kundalik oborotni sotilmagan mahsulot qoldiqlarining kunlarda belgilangan me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi.

Me'yordan ortiqcha sotilgan tayyor mahsulot qoldig'i uchun to'lov har chorakda belilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Doimiy ishlab chiqarish va mavsumiy sotishga mo'ljallangan korxonalar hisob-kitoblar va to'lovni yiliga bir marta (yillik hisobot ma'lumotlariga ko'ra) taqdim etadi. Bu to'lovni hisob-kitob qilish usulini ko'rib chiqish iqtisodiy tahlilda juda muhim hisoblanadi.

21.2. Me'yordan ortiqcha sotilgan tayyor mahsulot qoldiqlarini baholash va ularni aniqlash usullari

1. Sotilmagan tayyor mahsulotning amaldagi qoldig'i tannarxi (1-sh. Balans, 140-satr) – 4089 ming so'm.

2. Hisobot davrida sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlari hisob-kitob tannarxi (sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining amaldagi tannarxi: 12 oyga hisobot davridagi yilning oylar miqdoriga) – 4089 ming so'm.

3. Hisobot davrida sotilgan mahsulotning amaldagi hajmi (2-sh., 050-satr) – 16428 ming so'm.

4. Sotish bo'yicha kundalik tovar aylanma (360-satr) – 45,63 ming so'm.

5. Kunlardagi ustav me'yori – 20 kun.

6. Me'yorlarda belgilangan chegarada sotilmagan tayyor mashulot qoldig'i qiymati (4-satr x 5-satr) – 913 ming so'm.

7. Sotilmagan tayyor mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldig'i qiymati (2-satr – 6-satr) – 3176.

8. Sotilmagan mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldig'i uchun to'lov stavkasi – 2 foiz.

9. Sotilmagan tayyor mahsulotlarning me'yordan ortiqcha qoldig'i uchun budjetga to'lanadigan to'lov summasi (7-satr x 8-satr: 100) – 63,5 ming so'm.

Korxona rahbarlari moliyaviy hisobot bilan tanishayotganda tayyor mahsulot qoldig'i o'sishini ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sotilishi dinamikasi bilan taqqoslashi lozim. Tayyor mahsulot bilan ta'minlanganlikni o'rganish asosida uning qoldig'ini me'yorgacha keltirish va xaridorlar tomonidan talab qilinmaydigan tovarlarni ishlab chiqarishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, korxonada marketingni yaxshilash bo'yicha boshqaruv qarorlarini chiqarish zarur.

Sotishga mo'ljallangan tovarlar – ustav faoliyatini savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish sohasida amalga oshiriladigan korxona tomonidan xarid qilingan

tovarlar qoldig'i qiymatidir. Umumiy ovqatlanishda bu moddada bufetdagi tovarlar qoldig'i ham aks ettiriladi. Ishlab chiqarish korxonalarida bu moddada, maxsus sotish uchun xarid qilingan buyumlar, materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, sanoat korxonalarida butlash uchun xarid qilingan, lekin ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan va xaridorlarga alohida qaytariladigan tayyor buyumlar qiymati kiritiladi. Bu tovarlar miqdori zarurat chegarasida bo'lib, belgilangan me'yordan oshmasligi kerak.

Barcha turdagi tovar-moddiy zaxiralarni baholash eng kam tannarx yoki sof sotish qiymati bo'yicha amalga oshiriladi. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi ularni xarid qilish, mahsulot ishlab chiqarish, qo'shimcha ishlab chiqarish va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish xarajatlari xarid qilish (schyot-fakutura so'mmasidan xarid qilish chegirmalari ayriladi), olib kirishda to'lanadigan bojxona boji va boshqa soliqlar, fraxt qiymati, sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan tarkib topadi.

Fraxt qiymati – oziq-ovqatlar va xomashyoni yetkazish bo'yicha xarajatlar, shu jumladan, ortish-tushirish ishlari va yo'lda tovarlarni sug'urtalash. Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita tayyor mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, xususan, ishlab chiqarish-moddiy xarajatlar, asosiy ishchilarga maosh to'lash xarajatlari, ishlab chiqarshiga taalluqli ijtimoiy sug'urtalashga ajratmalardan tarkib topgan. Bu xarajatlar bevosita hisoblanadi.

Qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari – ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qilish bilan bog'liq ishlab chiqarshi xarajatlari: ishlab chiqarish binolari va uskunalari amortizasiyasi; ulardan foydalanish qiymati; ustolar, ta'mirchilar, yordamchi ishchilar ish haqi va ijtimoiy sug'urtalash ajratmalari; ishlab chiqarish binolari va asbobalri uchun ijara haqi; ishlab chiqarish bo'linmalari kommunal xizmatlari xarajatlaridan iborat.

Boshqa xarajatlar faqat tovar-moddiy zaxiralarni joyiga yetkazib berish yoki ularni soz holatga keltirish jarayonida vujudga kelgan taqdirdagina tovar-modidy zaxiralar tannarxiga kiritiladi.

Korxona rahbariyati, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga kirmaydigan narsalarni ham bilishi shart. Inventarizatsiyani o'tkazish paytida kompaniya egalik qilish huquqiga ega bo'lmagan obyektlar aniqlanishi mumkin. Bu mijoz buyurtmasi bo'yicha yasalgan va u haqini tulagan, unga tegishli bo'lmagan va yetkazilishini kutib turgan tovarlar, shuningdek, konsignatsiyadagi, ya'ni mazkur korxona omborida turgan, lekin boshqa korxonalar mulki hisoblangan tovarlardir.

Tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga «Davr xarajatlari» guruhiga kiritilgan chiqimlar ham kirmaydi.

Sof sotish qiymati – tovar-moddiy zaxiralarining hisob-kitob qilingan sotish narxi, bundan ishlab chiqarishni tugatish va mahsulot sotish bilan bog'liq butlash chiqimlari chegiriladi. Zaxiralarni sotish narxi kamayganida,

zaxiralarga zarar yetkazilganida, zaxiralar to'liq yoki qisman eskirganida sof sotish qiymati bo'yicha zaxiralarni baholash (amaldagi narxidan past) amalga oshiriladi.

«Moliyaviy natijalar haqidagi hisobot»da «Sotilgan mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi» ko'rsatiladi. Uni olish uchun sotishga tayyor mahsulot tannarxidan davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar tannarxi ayriladi.

O'zbekiston Respublikasining 4-son «Tovar-moddiy zaxiralar» bo'yicha buxgalteriya hisobining milliy standartiga ko'ra tovar-moddiy zaxirasi birligi qiymati:

* ularning aniq qiymatini alohida aniqlash usuli;
* FIFO (FIFO) usuli;
* AVEKO (AVECO) – o'rtacha hisoblangan qiymat usuli bo'yicha topiladi.

Xalqaro amaliyotda, shuningdek, LIFO usuli ham qo'llaniladi.

Teng qiymatga ega bo'lmagan tovar-moddiy zaxiralar birligi, shuningdek, alohida loyihalar uchun ishlab chiqarilgan va ajratilgan tovarlar yoki xizmatlar qiymati ularning aniq qiymatini aniqlash yo'li bilan hisob-kitob qilinishi zarur.

FIFO – birinchi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli («birinchi bo'lib keldi – birinchi sotildi») birinchi navbatda xarid qilingan tovarlar tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlar qiymatiga muvofiqlashtirilishi lozim, degan farazga asoslandi. Birinchi xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar birinchi sotiladi, tegishli ravishda davr oxiriga qolgan tovar-moddiy zaxiralar – bu oxirida sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlaridir. FIFO usuli tovarlar amalda qanday harakatlanishidan qat'i nazar, har qanday tarmoq korxonalari tomonidan qo'llanilishi mumkin. Chunki tovarlar emas, ular qiymati harakatlanishini hisobga oladi. Inflyasiya davrida FIFO usuli yuqori darajali sof foyda olish imkonini beradi. Bu tovarlarning xorijiy narxlari o'sganida kompaniya ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulotlar narxini ko'tarishga intiladi. Bunda moddiy zaxiralar narxlari o'sishiga qadar sotib olinganligiga e'tibor berilmaydi.

AVECO (o'rtacha hisoblangan qiymat) usuli – tovar-moddiy zaxirasi birligi qiymati davr boshidagi yoki hisobot davrida ishlab chiqarilgan bir turga mansub birlikning o'rtacha hisoblangan qiymatidir. Tovar zaxiralari birligining o'rtacha qiymati tovar zaxiralari butun qiymatini bu zaxiralar birligiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu hisobot davrida xarid qilingan tovar zaxiralarining barcha narxlarini hisobga olgan holda narx o'zgarishini sezdirmaydi. O'rtacha qiymat muayyan davr bo'yicha yoki har bir yetkazish jarayonida hisob-kitob qilinishi mumkin. Bunda mazkur korxonada mavjud vaziyatdan kelib chiqiladi.

LIFO – so'nggi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli («so'nggi bo'lib keldi – birinchi sotildi») birinchi navbatda sotilgan tovarlar qiymatini

aniqlash uchun so'nggi xarid qilingan tovarlar tannarxi qo'llaniladi, hisobot davri oxirida zaxiralar tannarxi birinchi bo'lib xarid qilingan tovarlar tannarxi bo'yicha hisob-kitob qilinadi. LIFO usulini qo'llash inflyatsiya davrida eng kam sof foyda, deflyasiya jarayonlari davrida esa eng katta sof foydani beradi. Bu usul respublikamizda hozircha qo'llanilmaydi.Mazkur usullarning qo'llanilishini muayyan misolda ko'rib chiqish mumkin (21.1-jadval).

21.1-jadval

«Madaniyat» aksiyadorlik jamiyati yil mobaynida quyidagi tovar zaxiralarini xarid qildi

Xarid sanasi	Miqdori	Qiymati	Umumiy qiymati
15-yanvar	600	60,0	36000,0
22-aprel	800	70,0	56000,0
10-sentabr	600	80,0	48000,0
6 noyabr	400	90,0	36000,0
Jami	2400		176000,0

Yil oxirida omborda mahsulotning 500 birligi qolgan. Sotishdan tushgan daromad 150.000 ming so'mni tashkil etgan. Yil oxirida sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash kerak.

Birinchi qaror -FIFO, birinchi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli:
Mahsulot sotishdan tushgan daromad – 150.000,0
Barcha tayyor mahsulot tannarxi – 176.000,0
Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi (500 x 90,0) – 45.000,0
Sotilgan mahsulot tannarxi (176.000-45.000) – 135.000,0
Mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda (150.000-135.000) – 15.000,0.
Ikkinchi qaror – AVICO, o'rtacha hisoblangan qiymat usuli:
Mahsulot sotishdan tushgan daromad – 150.000,0
Barcha tayyor mahsulot tannarxi – 176.000,0
Tovar birligining o'rtacha hisoblangan qiymati (176.000/2.400)-73,33
Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi (500 x 73,33) – 36.665,0
Sotilgan mahsulot tannarxi (176.000-36.665) – 139.335,0
Mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda (150.000-139.335) – 10.665,0.
Uchinchi qaror – LIFO, so'nggi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli:
Mahsulot sotishdan tushgan daromad – 150.000,0
Barcha tayyor mahsulot tannarxi – 176.000,0
Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi (500 x 60,0) – 30.000,0
Sotilgan mahsulot tannarxi (176.000-30.000) – 146.000,0
Mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda (150.000-146.000)- 4.000,0.
Ko'rsatilgan qarorlarning ko'rsatilishicha, baholashning uch ko'rinishida

yakuniy ma'lumotlar farqlanadi. Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi va foyda LIFO usuli bo'yicha eng kam, sotilgan mahsulot tannarxi FIFO usuli bo'yicha eng kamdir. O'rtacha hisoblangan qiymat usuli bo'yicha mahsulot qoldig'i tannarxi va yalpi foyda FIFO usuliga qaraganda past, sotilgan mahsulot tannarxi esa aksincha yuqori.

21.3. Tovar-moddiy zaxiralar tahlili

Tovar-moddiy zaxiralarni tahlil qilayotganda tovar-moddiy zaxiralarga qo'yilgan mablag'lar holati, ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarni aniqlash va o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq buning uchun, birinchi navbatda, ularning ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishni bilish talab qilinadi. Tovar-moddiy zaxiralar holatini aniqlaydigan ko'rsatkichlarga:

* tovar-moddiy zaxiralar summasi, umuman va turlari bo'yicha;
* tovar-moddiy zaxiralar tuzilishi;
* tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish, kunlarda;
* tovar-moddiy zaxiralarning aylanma mablag'lar umumiy summasidagi ulushi;
* alohidagi turlari tovar-moddiy zaxiralar o'sishi sur'atining ishlab chiqarish va sotish hajmi o'sishiga taqqoslash kabi omillar kiradi.

Tovar-moddiy zaxiralar summasi asosida ular miqdori va muayyan davrdagi o'zgarishi aniqlanadi, ular muayyan turlarining o'sishi ishlab chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishiga taqqoslanadi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lar holati, ta'minlanganligi va foydalanish samaradorligi topiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar tuzilishi har bir turning ular umumiy summasidagi ulushini hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi. Bundan kelib chiqib, tovar-moddiy zaxiralari har bir turining ular umumiy summasidagi ulushi hisob-kitob qilinadi va ularni pul mablag'lariga aylantirish yo'llari aniqlanadi. Shunday qilib, mab-lag'larning katta ulushi ishlab chiqarish zaxiralari yoki tugallanmagan mahsulotda bo'lsa, korxona mablag'lari faqat mashulot ishlab chiqarish va sotish tugaganidan keyingina qaytariladi. Tayyor mahsulot ulushining o'sishi ham rahbariyatni tashvishlantirishi lozim. Chunki bu korxonaning mahsulotiga talab kamligidan dalolat berishi mumkin. Tovar-moddiy zaxiralar tuzilishini aniqlash va tahlil qilish usulini aniq ma'lumotlarni qo'llagan holda ko'rib chiqamiz (21.2-jadval).

Mazkur jadval ma'lumotlari tovar-moddiy zaxiralar tuzilishida o'zgarishlar ro'y berganligini ko'rsatmoqda: ishlab chiqarish zaxiralari va to'gallanmagan ishlab chiqarish pasayganida tayyor mahsulot qoldiqlari summasi va ulushi ko'paygan. Bu ma'lumotlar mahsulot chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishi sur'atlari bilan solishtiriladi (21.3-jadval).

21.2-jadval

Korxonada tovar-moddiy zaxiralar tarkibini aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida		Chekinish (+, -)	
	summasi, ming so'm	ulushi, %	summasi, ming so'm	ulushi, %	summasi, ming so'm	ulushi, %
Ishlab chiqarish zaxiralari	8925	77,5	7568	59,9	-1407	-17,6
Tugallanmagan ishlab chiqarish	909	7,9	966	7,6	+57	-0,3
Tayyor mahsulot	1611	14,0	4089	32,4	+2478	+18,4
Sotish uchun tovarlar	75	0,6	8	0,1	-67	-0.5
Jami	11520	100	12631	100	+1111	--

21.3-jadval

Ikki yil mobaynida mahsulot chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishi (ming so'm)

O'tgan yilda	Hisobot yilida	O'zgarish sur'ati, %	Umumiy qiymati
Amaldagi narxlardamahsulot chiqarish	13282	17239	129,8
Sotilgan mahsulot hajmi	9951	16428	165,1
Ishlab chiqarish zaxiralari	8925	7568	84,8
Tugallanmagan ishlab chiqarish	909	966	106,3
Tayyor mahsulot	1611	4089	253,8

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tayyor mahsulot qoldiqlari o'sishi sur'atlari mahsulotning sotish hajmi o'sishidan ancha yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Ya'ni mazkur korxona mahsuloti hisobot yilida xaridorlar talabini qondirmayapti yoki xaridorlar uni biror sabablarga ko'ra sotib olishni xohlamayapti. Ishlab chiqarish zaxiralarini kamaytirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini keskin oshirish keyingi yilda ishlab chiqarishda jiddiy o'zilishlarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun korxona rahbariyati tovarlarni sotishni tashkil etish, ishlab chiqarish zaxiralrini butlash va tovar-moddiy zaxiralar tuzilishini yaxshilashga qaratilgan tezkor choralar ko'rishi zarur.

Tovar zaxiralaridan foydalanish kunlari korxona mavjud zaxiralar bilan qancha muddatga ta'minlanganligini ko'rsatadi. Har bir zaxira turi o'z aniqlash usuliga ega. Ishlab chiqarish zaxiralari bilan ta'minlashni kunlarda aniqlash uchun ishlab chiqarish xarajatlari summasini (1-sh., 120-satr)

kundalik ishlab chiqarish xarajatlariga (5-sh., 013+042-satr/365) bo'lish joiz. Bunday hisob-kitoblarni bajarish shart. Chunki ishlab chiqarish zaxiralari qoldig'i ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi hajmiga bog'liqdir.

Sotishga mo'ljallangan tayyor mahsulot kunlarda tayyor mahsulot qoldiqlarini kundalik mahsulot sotish summasiga bo'lish yo'li bilan topiladi. Tayyor mahsulot qoldiqlari summasi haqidagi ma'lumotlar 1-son «Buxgalteriya balansi» shaklidan, mahsulotni sotish summasi haqidagi ma'lumotlar esa 2-son «Moliyaviy natijalar haqidagi hisobot» shaklidan olinadi: Tayyor mahsulot qoldig'i sotish uchun mo'ljallangan bo'lib, uning uzluksizligini ta'minlash kerak.

Tovarlar belgilangan kunlarda sotish uchun mo'ljallangan tovarlar summasini xarid tovarlarining kundalik sotilishiga, savdo-sotiqda va umumiy ovqatlanishda esa tovar aylanmasiga bo'linadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishning kunlardagi qoldig'i ishlab chiqarish jarayoni, ya'ni tayyor mahsulotni ishlab chiqarish davomiyligiga bog'liq.

Tovar-moddiy zaxiralar bilan ta'minlanganlik darajasi ularning kunlardagi summasini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslash yo'li orqali aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralridagi mablag'lardan foydalanish samaradorligi ular aylanishi, rentabelligi va mablag'lar aylanishi tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasi bo'yicha topiladi.

Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lar aylanishi kunlari va necha martaligiga ko'ra hisob-kitob qilinadi. Aylanish kunlaridagi tovar zaxiralari mablag'ning bir marta aylanishi uchun ketgan kun miqdorini aks ettiradi va tovar zaxiralari mablag'ining o'rtacha yillik summasini sof sotilgan mahsulotning bir kunlik qiymatiga bo'lish yo'li bilan topiladi. Tovar zaxiralarining bir martalik aylanishi (aylanish koeffitsienti)ni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini (sof sotilgan mahsulotni) tovarlar qoldig'ining o'rtacha summasiga (TMZo'r.) bo'linadi. Bu ko'rsatkich tovar zaxiralariga qo'yilgan mablag'lar aylanishi miqdorini ko'rsatadi. Tovar zaxiralarining o'rtacha yillik summasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$TMZo'r = \frac{1/2TMZ\text{-}1 + TMZ\text{-}2 + TMZ\text{-}3 + TMZ\text{-}4 + 1/2TMZ\text{-}5}{4},$$

bunda: TMZ-1, TMZ-2, TMZ-3, TMZ-4, TMZ-5 – chorak boshi va oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar summasi.

Tovar zaxiralarining kunlardagi aylanish tezligi qanchalik past va aylanish koeffitsienti qanchalik yuqori bo'lsa, tovar zaxiralariga qo'yilgan mablag'lar shunchalik tez bo'ladi va aksincha.

Tovar-moddiy zaxiralaridagi mablag'lar rentabelligi (Rtmz) sof foydani (SF) tovar-moddiy zaxiralari mablag'lar o'rtacha summasi (TMZo'r.)ga

bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'larning aylanishi tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasini topish zarur zaxiralaridagi mablag'dan foydalanish samaradorligini aniqlashning muhim jihatlaridan biridir. Mazkur hisob-kitob usuli shu masalaga aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi (21.4-jadval).

21.4 -jadval

Korxona bo'yicha o'tgan yilga nisbatan tovar-moddiy zaxiralardagi ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar hisob-kitobi ming so'm

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi, (+, −)
Tovar-moddiy zaxiralaridagi mablag'lar o'rtacha yillik summasi	11400	12350	+950
Mahsulot sotishdan kelgan sof tushum	9951	16428	+6477
Tovar-moddiy zaxiralaridagi mablag'lar aylanishi, kun hisobida	418,1	274,4	-143,7
Mahsulot sotishdan kundalik tushum	27,26	45,01	+17,75
Tovar-moddiy zaxiralaridagi ozod bo'lgan (+), qo'shimcha jalb qilingan (−) mablag'lari	–	–	6468

Bajarilgan hisob-kitoblar asosida tovar zaxiralaridagi mablag'lar aylanishi:
O'tgan yilda

$$\text{Aytmzk} = \frac{11400 \times 365}{9951} = 418,1\ kun.$$

Hisobot yilida

$$\text{Aytmzk} = \frac{12350 \times 365}{16428} = 274,4\ kun.$$

ni tashkil etganligini ko'ramiz.

Boshqacha aytganda, hisobot yilida u 143,7 kunga tezlashdi.

Tovar-moddiy zaxiralar aylanishining tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasini aniqlash maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan kelgan kundalik tushumni ular aylanishi tezlashgan (sekinlashgan) kunlar miqdoriga ko'paytirish kerak. Mazkur jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada tovar-moddiy zaxiralar aylanishi tezlashganligi natijasida o'tgan yilga qaraganda 6468 ming so'm (45,01 x 143,7) mablag'ni aylanishdan ozod etgan.

Korxona rahbarlari tovar-moddiy zaxiralar aylanishini tezlashtirish uchun barcha choralarni ko'rishi lozim. Bu o'z navbatida, umuman aylanma

mablag'lar harakatini tezlashtiradi va boshqa xo'jalik ehtiyojlariga yo'naltirish mumkin bo'lgan mablag'larni ozod qiladi.

Tovar-moddiy zaxiralaridagi mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirshi maqsadida:

* mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini ko'paytirish;
* chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va turlarini ko'paytirish;
* tovar-moddiy zaxiralar tuzilishini maqbullashtirish;
* me'yordan ortiqcha ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zaxiralarini, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirish;
* chiqarilayotgan mahsulot talabi va taklifini o'rganishni yaxshilash;
* tovar-moddiy zaxiralarini qabul qilish, saqlash va yetkazishni to'g'ri tashkil etish lozim.

Tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq sanab o'tilgan vazifalarni hal yetish korxona ishi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir. Shu tufayli tovar-moddiy zaxiralar tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi bo'lib qolishi lozim.

22-Bob. KORXONANING MOLIYAVIY SALOHIYATINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH YO'LLARI

22.1. Korxona moliyaviy salohiyati tushunchasi va tarkibi

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Uning eng asosiy tamoyillaridan biri iqtisodiyotni erkinlashtirishdir. Chunki rejali iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi davlat tasarrufida edi. U barcha mulkka egallik qilish bilan birga reja orqali boshqarish jilovini ham o'z qo'lida ushlab turar edi.

Bozor mexanizmi esa birinchi galda iqtisodiyotni erkinlashtirishni talab qiladi. Ammo bu jarayoning moddiy negizi korxonalar, ulardagi mulklar davlatniki edi. Shu tufayli iqtisodiyotni erkinlashtirish uchun, eng avvalo, davlat mulkini xususiylashtirish lozim bo'ldi. Xuddi shunday jarayon O'zbekistonda 1992-yilda boshlandi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni bugungi kungacha o'tgan davrda to'rt bosqichni bosib o'tmoqda. Birinchi bosqich 1992—1994-yillarni o'z ichiga olsa. ikkinchi bosqich 1995—1996-yillardir. 1997-yil xususiylashtirish buyicha O'zbekiston tarixida uchunchi bosqich sifatida tan olingan bo'lsa, 1998—2010-yillar xususiylashtirishning to'rtinchi bosqichi sifatida davom etmoqda. Bu bosqichlarning mohiyati va mazmuniga to'liq to'xtalib o'tirmasdan shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiyot asta-sekinlik bilan erkinlashib davlat tasarrufidan xususiy va jamoa sektoriga o'tmoqda, iqtisodiyotga davlatning aralashuvi asta-sekin bilan barham topmoqda. Natijada erkin raqobat muhiti qaror topishi uchun zamin yaratilmoqda.

Ana shunday iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni ketayotgan bir paytda har bir korxonaning mustaqilligi ta'minlanishi bilan birga, uning ma'suliyati ham oshmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi 14-sessiyasida ham qayta-qayta ta'kidlandi.Bunday sharoitda har bir korxona o'zining mablag'iga, o'zining boshqarish usuliga, mulkiga, hamjixat mehnat jamoasiga, mulk egalariga ega bo'lishi kerak. Bu barcha mavjud mulkining asosiy manabai korxonaning moliyaviy salohiyatini tashkil qiladi.

Moliyaviy salohiyat har bir xo'jalik yurituvchi subyektda turli bo'lishi mumkin. Ular ikki manbadan tarkib topadi. Birinchidan, har bir korxonaning o'z mablag'i bo'lsa, ikkinchidan o'z faoliyatini ta'minlash uchun chetdan ham qarz, ham suda tariqasida jalb qilingan mablag'laridir.

Ushbu bobda aynan ana shu moliyaviy salohiyatning iqtisodiy mazmuni, tarkibi, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yo'llari ko'rstib berilgan.

Korxonaning moliyaviy salohiyati (potensiali) deb uning faoliyatini to'liq ta'minlaydigan turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy mablag'lar majmuasiga aytiladi.

Har qanday firma yoki korxona faoliyat yuritish uchun eng avvalo mehnat vositalari, mehnat predmetlari va jonli mehnat sohibi (xodimlar)ga ega bo'lishi shart. Bu esa o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buni tashkil qilish uchun moliyaviy mablag'lar zarur bo'ladi. Masalan, sohibkor kichak biznes bilan shug'ullanishga qaror qildi deb faraz qilamiz. U kichik non zavodini qurishni mo'ljallaydi. Zavodni tashkil qilish uchun unga 700.0 ming so'm un va boshqa xomashyo hamda yordamchi materiallar xarid qilish uchun 100.0 ming so'm, xodimlarni yollab zavodini ishga tushurish uchun 50.0 ming so'm kerak bo'ldi deb shartli ravishda qabul qilamiz. Sohibkorga ushbu holda 850.0 ming so'm pul kerak. Ammo unda mavjud bo'lgan o'zining pul mablag'i 600.0 ming so'mni tashkil qiladi. Demak, unga yana 250.0 ming so'm qo'shimcha pul mablag'i lozim ekan. Buni u qayerdan oladi? Buning manbalari hozirgi sharoitda turli bo'lishi mumkin.

Sohibkor shu yetishmagan pulni banklardan uzoq muddatli qarz shaklida,yoki «Biznes-fond» dan kredit shaklida, yuridik va jismoniy shaxslardan investitsiya shaklida, yoki xorijiy firma va davlatlardan qo'shma korxona shaklida olishi va o'z faoliyatiga jalb qilishi mumkin. Sohibkorning ushbu yetishmagan mablag'ni qaysi manbadan olishidan qat'i nazar, u chetdan jalb qilingan mablag' bo'lib hisoblanadi. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, sohibkor o'z faoliyatini yurgizishi uchun ma'lum darajada moliyaviy salohiyatga ega bo'lishi kerak ekan. Bu salohiyat iqtisodiy mazmuni jihatdan o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan mablag'lardan iborat ekanligi bayon bo'ldi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar moliyaviy potensialining tarkibi va tuzilishi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Chunki rejali iqtisodiyot sharoitida korxonaning barcha moliyaviy salohiyati davlat tomonidan shakllantirilar edi. Hatto banklardan olingan kreditlar ham davlatniki edi. Endi vaziyat tubdan o'zgaradi. Davlatning moliyaviy ta'minoti barham topmoqda.

Endigi moliyaviy salohiyatning egasi bor. U «bizniki» dan «meniki» degan tushuncha bilan almashtirildi. Bunday sharoitida korxona uchun moliyaviy salohiyatning shakllanishi ham, uning ishlatilishi va taqsimlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli bu salohiyatni har bir xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha baholash, ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish obyektiv zaruratga aylanib bormoqda.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, korxona moliyaviy salohiyati nazariy va amaliy jihatdan ham o'rganilgan, lekin u o'ta dolzarb mavzu bo'lib hisoblanadi. Bunga ehtiyoj ayniqsa hozirgi bozor munosabatlari sharoitida yanada kuchaymoqda. Chunki har bir korxona o'zining moliyaviy salohiyatidan qanday foydalanayotganligini bilishi uchun uni doimiy ravishda

tahlil qilib turmog'i lozim. Korxonaning moliyaviy salohiyati (potensiali) deganda, uni soddaroq qilib ifodalansa, moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanish manbalari majmuasini tushunish mumkin. Bu ta'minlanish o'z o'rnida ta'kidlanganidek, ikki qismdan iborat bo'ladi: 1. O'z mablag'lari. 2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar.

Yana bir misolga murojaat qilamiz. Tadbirkorning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun 1,0 million so'm puli bor deb faraz qilamiz. Unga faoliyatni boshlash uchun asosiy va aylanma mablag'larni xarid qilishga, xodimlarni yollashga 1,5 million so'm pul kerak bo'ladi deb hisoblaymiz. Demak, ushbu tadbirkor chetdan yana 0,5 million so'm qarz olishi lozim ekan. Bu ta'kidlanganidek, chetdan jalb qilingan mablag'lar deb aytiladi.

Birinchi qo'yilgan o'z mablag'i, ya'ni 1,0 million so'mi iqtisodiy mazmuni bo'yicha qo'yilgan kapitalni tashkil qiladi. Lekin korxona o'z faoliyati davomida foyda olib bir qismini o'zining nizom jamg'armasiga o'tkazib boradi. Bunday mablag'lar to'plangan kapital deb aytiladi. Demak, korxonaning o'z mablag'i ikki guruhdan, ya'ni qo'yilgan va to'plangan kapitaldan iborat ekan. Chetdan jalb qilingan mablag'lar esa o'z navbatida, qaytarilish muddatiga qarab ikki guruhga bo'linadi: uzoq muddatli va qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga. Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga 1-yilgacha olingan qarzlar va ssudalar, uzoq muddatlilariga 1-yildan oshiq muddatga olingan qarzlar va ssudalar kiradi. Bu 22.1-chizmada o'z aksini topgan.

Korxonaning moliyaviy salohiyatining tahlili iqtisodiy tahlilining tarkibiy qismi bo'lib qolmog'i lozim. Chunki har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy salohiyatini o'rganmay turib, uning moliya xo'jalik faoliyatiga odilona va to'g'ri baho berib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik usulidan iqtisodiy jihatdan boshqaruv usuliga o'tilishi ham har bir korxona faoliyatini chuqur va har tomonlama, atroflicha tahlil qilish zarurligini keltirib chiqaradi.



22.1-chizma. **Korxonaning moliyaviy salohiyati (potensiali) tarkibi.**

22.2. Korxonalar moliyaviy salohiyati (potensiali)ni tahlil qilish vazifalari va axbootlar manbayi

Korxona iqtisodiyotini sifat jihatidan yuqori pog'onaga ko'tarish uchun hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitida uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish lozim.

Rejali iqtisodiyot sharoitida rejani ham mablag'ni ham yuqori tashkilotlar markaziashgan tartibda hal qilar edi. Shu tufayli quyi korxona va tashkilotlar moliyaviy xo'jalik faoliyatni asosan yuqori tashkilotlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinar edi. Bunda asosiy e'tibor korxonada mavjud potensialdan qanday foydalanishga emas, balki rejani qanday bajarganligiga qaratilar edi. Hamma chora-tadbirlar rejani bajarishga safar qilinishi hech kimga sir emas.

Endi iqtisodiy vaziyat tubdan o'zgardi. Asosiy «og'irlik« yuqoridan bevosita ish bajaruvchi quyi bo'g'inlarga tushdi. Umumiy davlat mulki xususiylashtirilib yirik turli mulk shaklidagi nodavlat sektori vujudga keldi. Duyarli mulklar egalik bo'ldi. Endigi bajariladigan ishlar ham yuqori tashkilotdan tushirilgan rejani bajarishga emas, balki ko'proq foyda olib yashashga, faoliyat ko'rsatishga qaratilmoqda. Shu jihatdan iqtisodiy tahlilning ham maqsadi, vazifasi, o'tkazilish usullari tubdan o'zgardi, sifat jihatidan yangilanmoqda. Tahlilning ko'lami kengayib, mas'uliyati oshmoqda. Bu aytilgan jihatlar tahlilning umumiy vazifasi bilan birgalikda turli mavzulariga ham tegishlidir.

Korxona moliyaviy potensiali tahlilining vazifalari turlicha bo'ladi. Bularning aniq yo'nalishlari va soni moliyaviy potensialni kimlar va qaysi maqsadda tahlil qilishiga bog'liq. Masalan, mulk egasi tahlil qilsa, unga moliyaviy potensial holati, tarkibi va samaradorligi muhim, banklar tahlil qilsa o'zlari bergan ssudaning moliyaviy potensialdagi ulushi, uning o'z vaqtida ma'lum bir foiz bilan qaytishini ta'minlay olishi muhim, statistika va istiqbolni belgilash organlari tahlil qilsa haqiqiy erishilgan natija muhim, aksiyadorlar tahlil qiladigan bo'lsa, ularning ham o'ziga yarasha manfaatlari bor va h.k. Shu nuqtayi nazardan tahlilning vazifasini aynan shu deb, uni chegaralab bo'lmaydi. Shuning uchun uning vazifasini aniqlashda tahlilning maqsadi va o'sha sharoitdagi real iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqish lozim.

Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali)ni tahlil qilishning umumiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy potensial umumiy hajmini va yil davomida uning o'zgarishini aniqlash.

2. Moliyaviy potensial tarkibini, undagi tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash.

3. Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash, baholash va tahlil qilish.

4. Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni baholash va tahlil qilish.

5. Moliyaviy potensial samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va ularni tahlil qilish.

6. Moliyaviy potensial samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish.

7. Moliyaviy potensialdan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va shu bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlarni tayyorlash.

Korxona moliyaviy potensialini tahlil qilishda quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi.

1. Buxgalteriya balansi (OKUD bo'yicha 1 – shakl). Ushbu hujjatning passiv qismidagi barcha bo'lim va moddalar qo'llaniladi. Bundagi birinchi bo'lim «O'z mablag'larining manbalari» 320 qatordan 390 qatorgacha. 390 qatorda esa shu bo'limning jami summasi joylashgan. Ikkinchi bo'lim «Majburiyatlar» deb ataladi. Bular balansning 400 qatoridan 540 qatorigacha bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi. 540 qatorda ikkinchi bo'limning jami joylashgan. Moliyaviy potensialning umumiy summasi 550 qatorda joylashgan bo'lib, bu korxona balansining umumiy summasiga teng bo'ladi.

2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. (OKUD bo'yicha 2-shakl.) Ushbu hisobotda korxonaning ish hajmi, daromadlari, xarajatlari, foydasi alohida turlari bo'yicha ham ko'rsatiladi. Bundagi ko'rsatkichlar moliyaviy potensial samaradorligini, rentabelligi kabi ko'rsatkichlarni aniqlashda qo'llaniladi. Ushbu hisobotning ikkinchi qismi «Budjetga to'lanmalar to'g'risida ma'lumot» deb ataladi va bunda korxonaning davlat va mahalliy budjetiga to'laydigan soliqlar summasi hisoblangan miqdorda va haqiqatda to'langan hajmda ifodalanadi.

3. Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqidagi ma'lumotnoma. (2[a]-shakl.) Ushbu axborot manbayida debitor va kreditorlarning aniq nomlari, umumiy qarzlar, shu jumladan respublikadan tashqaridagi debitor va kreditorlar, muddati o'tgan kreditorlar ko'rsatiladi. Shu tufayli moliyaviy holatni tahlil qilishda ushbu hisobot ma'lumotlaridan ham keng foydalanishni taqozo qiladi.

4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot. (OKUD bo'yicha 4-shakl.) Ushbu axborot manbaida tahlil uchun juda zarur ko'rsatkichlar ifodalanadi. Xususan, birinchi bo'limda «Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining harakati» o'z aksini topadi. Ikkinchi bo'lim «Investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko'rsatish» bilan bog'liq pul harakatlariga bag'ishlangan. Uchinchi bo'limda «Soliq to'lovlari» ko'rsatilsa, to'rtinchi bo'limda «Investitsiya faoliyati» o'z ifodasini topgan. Ushbu bo'limda moddiy va nomoddiy uzoq muddatli aktivlarni sotish va sotib olish bilan bog'liq operatsiyalar ko'rsatilgan. Hisobotning beshinchi bo'limi «Moliyaviy faoliyat» deb nomlanadi. Unda aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarning kelib tushishi, ijara majburiyatlari bo'yicha tushum va to'lovlar o'z aksini topgan.

Ushbu hisobotning ikkinchi qismida «Valuta mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot» berilgan. Mazkur ma'lumotda korxona valutasining yil boshidagi qoldig'i, jami yil davomidagi tushum alohida turlari bo'yicha ko'rsatiladi. Shuningdek, ushbu hisobotda jami sarflangan valuta mablag'larini aniq yo'nalishlar bo'yicha ham ko'rish mumkin. Ushbu hisobotning oxirida yil oxiridagi valuta qoldig'i ko'rsatiladi.

Bulardan tashqari, bir qancha statistik hisobotlar ham borki, ulardan ham tahlilning u yoki bu sohasini o'rganishda foydalanish mumkin. Masalan, bularga statistik hisobotning ChPJ – shakli «Pensiya mablag'lari bo'yicha hisob-kitob vedomosti», 1 – T shakli «Mehnat hisoboti», «Korxona, muassasa, tashkilot va kooperativlarning bandlik jamg'armasiga mablag'lar o'tkazganligi to'g'risidagi hisobot» kabilarni kiritish mumkin.

Bulardan tashqari, bir qancha O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, me'yoriy hujjatlari, yo'riqnomalari, uslubiy tavsiya va ko'rgazmalaridan, vaqtli matbuot materiallaridan ham foydalanish mumkin. Tahlil uchun qo'llaniladigan axborotlar manbayi qancha aniq va haqqoniy bo'lsa tahlil natijasi ham shuncha yaxshi va ta'sirchan bo'ladi. Bunda SAHTXOB tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. (S-soflik, AH – axborotlarning haqqoniyligi, TX – to'g'ri xulosa, OB – oqilona boshqarish).

22.3. Korxona moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi

Har bir jarayonni, iqtisodiy kategoriya yoki tushunchani iqtisodiy jihatdan tahlil qilish uchun ularni ko'rsatkichlarda ifodalab olish lozim. Shu tufayli moliyaviy potensialni tahlil qilish uchun ham uni ifodalovchi ko'rsatkichlarini aniqlab olish lozim.

Moliyaviy potensial bu ancha keng qamrovli tushuncha. Shu tufayli uni bitta yoki birqancha ko'rsatkichlar bilan ifodalab bo'lmaydi. Uni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biroq ko'rsatkichlar tizimi bu birqancha ko'rsatkichlar to'plami degan gap emas.

Ko'rsatkichlar tizimi deganda bir kategoriyaga mansub birqancha ko'rsatkichlarni ma'lum belgilari bo'yicha aniq guruhlarga bo'lingan ko'rsatkichlar turkumi tushuniladi.

Moliyaviy potensialni ifodalovchi ko'rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni jihatidan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
2. Moliyaviy potensial samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Ushbu guruh ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ammo har biri o'ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Moliyaviy potensial (Mp) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga ma'lum bir davrda ular qay ahvolda ekanligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar kiradi. Uning umumiy hajmi, tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni aynan shu holatini

tahlil qilib aniqlash mumkin. Ushbu guruh ko'rsatkichlar moliyaviy potensialining tarkibiga qarab yana ikki guruhga bo'linadi.

1. Mp. holatining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari.

2. Mp. holatning chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari.

Har ikkala guruh ko'rsatkichlariga ham bir qancha ko'rsatkichlar kiradi va ular majmuasi ko'rsatkichlar tizimini tashkil qiladi. Moliyaviy potensial samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar asosan uning qanday foydalanayotganidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkichlar asosida natija bilan moliyaviy potensial o'rtasidagi nisbat yotadi. Bular ham birqancha guruhlarga bo'linadi.

1. Mp. samaradorligini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar.

2. Mp. samaradorligini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

3. Mp. samaradorligini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mab-lag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Shu uchala guruh ko'rsatkichlar ham o'z navbatida bir qancha alohida guruhlarni jamlaydi. Shuni alohida ta'minlash joizki korxonalar moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar hali iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masalaga oid muammolar yechimi yetarlicha yoritilgan emas. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichlar tizimida munozarali va takomillashishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar ham bo'lishi mumkin. Shu tufayli bobda ko'rsatkichlar tizimini tavsiya tariqasida bermoqdamiz. Bular qo'yidagi chizmada o'z aksini topgan (22.2-chizma).

Korxona moliyaviy potensiali haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun ushbu ko'rsatkichlar guruhining har birini alohida-alohida qarab chiqish maqsadga muvofiq. Mp.ning holatini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq



22.2-chizma. **Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali)ni ifodalovchi ko'rsatkichlar.**

ko'rsatkichlar birqancha. Ammo ularning soni faqat ushbu chizmadagi ko'rsatkichlar bilan ham cheklanib qolmaydi. Masalan, Um. ning chetdan jalb qilingan mablag'lar ChJKM bilan bog'liq ko'rsatkichlari yana ikkita ko'rsatkichlarga: Um. ning uzoq muddatli Chjkm ga va qisqa muddatli Chjkm ga bo'linadi. Xuddi shunday boshqa ko'rsatkichlarni ham aniqlash mumkin. Navbatdagi guruh ko'rsatkichlar korxona moliyaviy holatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan ko'rsatkichlardir. Bu ham o'z navbatida birqancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

22.4. Korxonalar moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlari, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari

22.4.1. Korxonalar moliyaviy salohiyati (potensiali) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy potensialini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu shu korxona rahbarlariga o'z faoliyatini to'g'ri baholash, moliyaviy ahvolini bilish imkonini bersa, investorlarga o'z mablag'ini qo'yish, qimmatbaho qog'ozlar bozorini tashkil qilish uchun biror qarorga kelishiga asos bo'ladi. Moliyaviy petensial tahlili shu firma kreditorlarga pullarini to'lash mumkinligini ko'rsatadi va ular bilan yana iqtisodiy aloqalarni davom ettirish uchun ishonch hosil qiladi. Nihoyat ushbu ko'rsatkich tahlili auditorlarning to'g'ri xulosa chiqarishi uchun asosiy dastak bo'lib hisoblanadi. Shuni e'tirof etish kerakki, O'zbekiston sharoitiga mos korxonaning moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari hamon yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu haqda ilmiy anjumanlarda[1] ba'zi tavsiya va fikrlar aytilmoqda xolos.

Moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlarni asoslashdan oldin uning iqtisodiy mohiyati va mazmunini ochish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har qanday korxona, firma, tashkilot o'z faoliyatini tegishli mablag' bilan ta'minlab turishi uchun ma'lum darajada moliyaviy potensial (salohiyat)ga ega bo'lish lozim. Korxona moliyaviy imkoniyatga ega bo'lmasa o'zining moddiy texnika bazasini ham, aylanma mablag'larini ham shakllantirish imkoniga ega bo'lmaydi. Oqibatda faoliyat ko'rsatishi ham qiyin bo'ladi. Demak, korxonalar, eng avvalo, ma'lum darajada moliyaviy salohiyatga ega bo'lishi kerak.

Korxonaning moliyaviy salohiyati uning turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy mablag'lari majmuasidan iboratdir. Bu ta'kidlanganidek, iqtisodiy

---

[1] Материалы медунароной научно-практической конференции «Актуальные пролемы учета, аудита и совершенствование финансово-кредитной системы в условиях развития рыночных отношений». — Самарканд, 1994, 93–94-бетлар.

mohiyati jihatidan, eng avvalo, o'z mablag'lari hisobidan va chetdan jalb qilingan, qisqa va uzoq muddatli mablag'lardan tarkib topadi (22.5-chizma).



22.5-chizma. **Korxonaning moliyaviy salohiyati tarkibi.**

Bu ko'rsatkichlar buxgalteriya balansining passiv qismida joylashgan bo'lib, har biri alohida guruhlarda va moddalarda o'z ifodasini topadi. Korxonaning buxgalteriya balansi uning moliyaviy salohiyatining holatini baholash va tahlil qilish uchun asosiy hujjat-ma'lumotlar manbayi bo'lib hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy potensialiga ta'kidlanganidek, o'zining buxgalteriya balansida ifodalangan o'z mablag'lari manbalari (Um), uzoq muddatli passivlar (Ump) va hisob kitoblar va boshqa passivlar, ya'ni chetdan jalb qilingan qisqa muddatli passivlar (Kmp) va kreditorlar (Kr) kiradi. Bularning qiymatini quyidagicha jamlash mumkin.

$$Mp = Um + Ump + Kmp + Kr. \qquad (22.1)$$

Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun 22.1-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy salohiyati hisobot yilida 103,8% ko'paygan. Eng e'tiborli xususiyati shundaki, korxonaning o'z mablag'lari 109,4% ko'paygan bir paytda chetdan jalb qilingan mablag'lar esa 0.6 % ga kamaygan (100–99,4). Bu uning tarkibiy o'zgarishida ham o'z ifodasini topadi. Tahlil qilinayotgan davrda korxonaning o'z mablag'lari 2,4% ko'paygan bo'lsa, shu miqdorga chetdan jalb qilingan mablag'lar kamaygan.

Bu majburiyatlarning uzoq muddatli passivlar bo'yicha 1,1 % band, qisqa muddatli passivlarning esa 1,5% band kamayishi evaziga sodir bo'lgan. Majburiyatlar tarkibida kreditor qarzlarning tarkibi 0,2 % bandga oshgan. Ushbu korxonadagi tarkibiy holat tahlili korxona moliyaviy salohiyatining ijobiy tomonga o'zgarganligidan dalolat berib turibdi, chunki korxonaning o'z mablag'lari qancha ko'p bo'lsa, uning moliyaviy qaramligi shuncha kamayadi. Shu jihatdan ushbu holat bo'yicha dastlabki xulosa ijobiy natijaga erishganligidan dalotlat beradi.

22.1-jadval

Buxgalteriya balansiga asosan moliyaviy salohiyatning tarkibi va o'zgarishini aniqlash hisob-kitobi

№	Balansning passiv moddalari	Davr boshida		Davr oxirida		Farqi (+,-)		O'zgarish
		summasi, ming so'm	Tarkibi, %	summasi, ming so'm	Tarkibi, %	summasi, ming so'm	Tarkibi, %	sur'ati %
1.	O'z mablag'lari	4115	44,0	4500	46,5	+ 385	+ 2,4	109,4
2.	Chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital)	5230	56,0	5200	53,6	- 30	- 2,4	99,4
2.1.	Uzoq muddatli majburiyatlar	2700	28,9	2700	27,8	—	− 1,1	100,0
2.2.	Kreditor qarzlar	940	10,1	1000	10,3	+ 60	+ 0,2	106,2
	Korxona moliyaviy salohiyati barchapassivlar	9345	100,0	9700	100,0	+ 355		103,8

Tahlil jarayonida korxonaning moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash, baholash va tahlil qilish lozim. Iqtisodiy mohiyati jihatidan korxonaning moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar birqancha guruhlarga bo'linadi: o'z mablag'i bilan bog'liq ko'rsatkichlar. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar o'z navbatida 2 gurhga bo'linadi: qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar, uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar. Ushbu chizmadan ko'rinib turibdiki korxonaning moliyaviy potensialining holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada. Masalan, birinchi turkumga kirgan ba'zi ko'rsatkichlar ikkinchi va uchinchi turkumlarga kirmoqda. Boshqa turkumdagi ko'rsatkichlar birinchi turkum ko'rsatkichlaridan kelib chiqmoqda.

22.4.2. Moliyaviy salohiyat (potensial) holatining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llari

Har qanday korxonaning o'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar turkumiga to'rtta ko'rsatkich kiradi. Bu ko'rsatkichlardan biri o'z mablag'larining to'planish koeffitsientidir.

O'z mablag'ining to'planish darajasi (konsentrasiyasi) koeffitsientini (Ko'mk) topish uchun o'z mablag'lari (Um) summasini buxgalteriya

balansining jami summasiga (B), ya'ni barcha mablag'lar hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Ko'mk = \frac{Um}{B}. \qquad (22.2)$$

Ushbu ko'rsatkichning hajmi o'z mablag'larining umumiy mablag'laridagi hissasini ifodalaydi. Bozorli iqtisodiyot sharoitida ushbu ko'rsatkich qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi, chunki mablag'larni chetdan jalb qilishga zarurat kamayadi. Ushbu ko'rsatkich miqdorining o'sishi ham korxona uchun yaxshi. Chunki chetdan jalb qilingan mablag'lar uchun to'laydigan foizlar miqdori hamon yuqoriligicha saqlanib turgan paytda kredit olish zarurati ham kamayadi. Bu esa ortiqcha xarajatni qisqartiradi.

Korxonada moliyaviy potensialning umumiy moliyaviy qaramlik koeffitsienti ham muhim ko'rsatkichlardan biridir. Buni aniqlash uchun buxgalteriya balansi jami summasini (B) xususiy kapital (o'z mablag'i)ning summasiga (O'm) bo'lish lozim. Buning uchun quyidagi formulani qo'llash mumkin:

$$K\,mk = \frac{B}{O'm}. \qquad (22.3.)$$

Bunda: *Kmk* – moliyaviy qarmlik koeffitsienti.

Ushbu ko'rsatkich o'z mablag'ining qay darajada qaram ekanligini, ya'ni uning 1 so'miga necha so'm xo'jalik mablag'i to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Agar ushbu ko'rsatkichning miqdori 2 so'mga teng bo'lsa, korxonaning xususiy va chetdan jalb qilingan mablag'i bir-biriga teng ekanligidan dalolat beradi. Agar ushbu ko'rsatkichning hajmi 2 so'mdan kam bo'lsa xo'jalik mablag'larining asosiy qismi xususiy, ya'ni o'z mablag'laridan iborat ekanligidan dalolat beradi. Agar u 2 so'mdan ko'p bo'lsa, korxonaning xususiy mablag'i chetdan jalb qilingan mablag'larga o'ta qaram ekanligini ko'rsatadi.

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri o'z mablag'larining umumiy chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsienti ($K_{o'chjm}$). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun barcha chetdan jalb qilingan mablag'lar umumiy summasini (C_{hjkm}) o'z mablag'lari summasiga (U_m) bo'lish lozim. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_{o'chjm} = \frac{C_{hjkm}}{U_m}. \qquad (22.4)$$

Korxona o'z mablag'larining qaramlik koeffitsientini chuqurroq o'rganish uchun uni alohida uzoq muddatli (U_{mp}) va qisqa muddatli chetdan jalb qilingan (K_{mp}) mablag'larga ham bo'lib o'rganishni taqozo qiladi.

Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$K_{o'um} = \frac{U_{mp}}{U_m} \quad (22.5)$$

Bunda: $K_{o'um}$ – o'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga qarashlik koeffitsienti;

U_{mp} – uzoq muddatli passivlar;

U_m – o'z mablag'lari.

$$K_{o'qm} = \frac{Q_{mp}}{U_m} \quad (22.6)$$

Bunda: $K_{o'qm}$ – o'z mablag'ining qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga qarashlik koeffitsienti;

Q_{mp} – chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'lar.

Ushbu ko'rsatkichlar ham chetdan jalb qilingan mablag'larning o'z mablag'laridagi hissasini ifodalaydi.

Ushbu ko'rsatkichlar hajmi, odatda, birdan kichik bo'lsa yaxshi, chunki bunday holat korxona o'z mablag'ining qaramligi uncha katta emasligidan dalolat beradi. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun korxona balansidan foydalaniladi. Uning qisqartirilgan hajmi 22.2-jadvalda ifodalangan.

Moliyaviy potensialning o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari haqida to'g'ri va chuqur xulosa qilish lozim.

Buning uchun esa moliyaviy potensialning shu guruhi bo'yicha kompleks ko'rsatkichni aniqlashni taqozo qiladi. Buning uchun quyidagi formulani tavsiya qilish mumkin.

$$K_{kmp} = K_{o'mk} + K_{mk} + K_{o'chjm} + K_{o'um} + K_{o'qm}. \quad (22.7)$$

Bu formulada barcha ko'rsatkichlar koeffitsientlari jamlangan. Lekin bu koeffitsientlarning yo'nalishlari har xil. Masalan, o'z mablag'larining to'planish koeffitsienti ($K_{o'mk}$) qancha yuqori bo'lsa yaxshi, ammo korxronaning moliyaviy qaramlik koeffitsienti qancha kam bo'lsa yaxshi, yuqori bo'lsa yomon. Bu gapni o'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga va qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsientiga ham aytish mumkin. Shu tufayli ularni bir xil yo'nalishga keltirib olish lozim. Buning uchun miqdori ko'paysa, salbiy natija beradigan ko'rsatkichlarni birga bo'lib olish lozim. U holda (22.7) formula quyidagi holatga keladi:

$$K_{kmp} = K_{o'mk} + \frac{1}{K_{mk}} + \frac{1}{K_{o'chjm}} + \frac{1}{K_{o'um}} + \frac{1}{K_{o'qm}}. \quad (22.8)$$

Endi barcha ko'rsatkich bir xil yo'nalishga ega bo'ladi. Hamma qo'shiladigan miqdorlarning ko'payish korxona moliyaviy potensiali holatining yaxshilanishidan dalolat beradi.

22.2-jadval

Hisobot yili 1-yanvarigacha korxona buxgalteriya balansining qisqartirilgan holati

№	Aktiv	Yil boshida	Yil oxirida	Passiv	Yil boshida	Yil oxirida
1.	Uzoq muddatli aktivlar			1.O'z mablag'lari manbalari		
1.1	Asosiy vositalar (kapital) a) eskirishi	4995 1500 3495	5300 1800 3500	1.1.O'z mablag'lari 1.3.Taqsimlangan foydaJami I-bo'lim	2300 1315 4115	2200 1700 4500
1.2	Nomoddiy faollar a) eskirishi b) qoldiq *qiymati*	215 25 190 3685	230 30 200 3700	2.1.Uzoq muddatli majburiyatlar 2.2.Qisqa muddatli majburiyatlar bank krediti va boshqa qarzlar 2.3.Kreditorlar	2700 1000	2700 850
II. 2.1	Oborot aktivlari Moddiy aylanma -mablag'lar	3000	2700			
2.2	Pul mablag'lari va boshqa aktivlar a) pul mablag'-lari b) debitorlar d) qimmatbaho qog'ozlar Jami II-bo'lim	2600 300 1900 460 5660	3300 450 2010 850 6000	2.4.Ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar 2.5.Budjet bilan hisob-kitoblar Jami II-bo'lim	300 290 5230	 320 5200
	Barcha			Barcha		
	Aktivlar	9345			9345	9700

Buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan korxona moliyaviy potensialining umumiy holati bo'yicha xulosa chiqarish uchun quyidagi umumlashgan jadvalni tuzish mumkin (22.3-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy potensiali bir yilning ichida 103,8 % ko'paygan. Bu asosiy o'z mablag'lari evaziga amalga oshgan. Bu ko'rsatkich tahlil davrida 109,4 % oshgan. Uzoq muddatli passivlar bir yilda o'zgarmasdan qolgan. Barcha chetdan jalb qilingan mablag'lar hajmi 0,6 : kamaygan. Bu albatta shu yil davomida birqancha omillar evaziga amalga oshgan. Korxonaning moliyaviy potensiali

22.3-jadval

Korxona moliyaviy potensialining umumiy hajmidagi o'zgarishlarning hisobot yilidagi hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+,–)	O'zgarish so'r'ati (+,–)
1.O'z mablag'lari	4115	4500	+ 385	109,4
2.Uzoq muddatli passivlar	2700	2700		100,0
3.Hisob-kitoblar va boshqapassivlar (chetdan jalb qilingan qisqa muddatli'mablag'lar)	1590	1500	– 90	94,3
4.Kreditor qarzlar	950	1000	+ 60	106,2
5.Barcha chetdan jalb qilingan mablag'lar (2k+3k+4k)	5230	5200	– 30	99,4
6.Jami moliyaviy potensial (1k+5k)	9345	9700	+ 355	103,8

holati yuzasidan to'g'ri xulosa chiqarish uchun tahlil jarayonida ko'rsatkichlarni aniqlash lozim. Bu uchun quyidagi jadval tuziladi (22.4-jadval).

22.4-jadval

Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarining hisobot yilidagi hisob-kitobi*

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+, –)	O'zgarish sur'ati, %
1.	O'z mablag'larining to'planish koeffitsienti (1k:6q) (Ku_{mq})	0,440q		+0,024	
2.	O'z mablag'larining umumiy qaramlik koeffitsienti (6q:1q) (K_{mk})	2,271	2,156	-0,115	
4.	O'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga qaramlik koeffitsienti (2k:1q) ($K_{o'um}$)	0,656	0,600	-0,056	91,5
5.	O'z mablag'larining qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsienti (3k+4k:1k) (K_{uqm})	0,615	0,556	-0,059	90,4
6.	Moliyaviy salohiyati kompleks ko 'rsatkichi	4,817	5,259	+0,442	109,2

* *Ushbu jadval 22.3-jadval asosida tuzildi.*

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'z mablag'larining to'planish koeffitsienti hisobot yili davomida 105,5 % ga ko'paygan. Bu xo'jalik faoliyatida moliyaviy potensial holatining yaxshilanganligidan dalolat beradi. Buni korxonaning qaramlik koeffitsienti kamayib ketganligidan ham ko'rish mumkin. Uning qaramligi yil boshida 2,271 koeffitsientga teng bo'lgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 2,156 gacha kamaydi. Bu korxona qaramligining bir yilning o'zida 5,1 % (100—94,9) kamayganligidan dalolat beradi.

Korxonaning chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsienti ham kamaygan. Bu ko'rsatkichning hajmi 1,271 koeffitsientdan 1,156 gacha kamaygan. Bu asosan qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar evaziga amalga oshgan. Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsienti 91,5 % ni tashkil qilgan bir paytda qisqa muddatli shunday mablag'larga qaramlik koeffitsienti 90,4 % ni tashkil qilgan, xolos.

Umuman olganda ushbu tahlil natijasi mazkur korxonaning moliyaviy potensiali holati yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

Keltirilgan jadval va formulalarga asosan korxona moliyaviy potensial holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan kompleks ko'rsatkichni aniqlash mumkin.

Bu ko'rsatkichning miqdori yil boshida:

$$K_{umq.yb} = 0{,}440 + \frac{1}{2{,}271} + \frac{1}{1{,}271} + \frac{1}{0{,}656} + \frac{1}{0{,}615} =$$

$$= 0{,}440 + 0{,}440 + 0{,}787 + 1{,}524 + 1{,}626 = 4{,}817.$$

Ushbu ko'rsatkich miqdori yil oxirida

$$K_{o'mk.yo} = 0{,}464 + \frac{1}{2{,}156} + \frac{1}{1{,}156} + \frac{1}{0{,}600} + \frac{1}{0{,}556} =$$

$$= 0{,}464 + 0{,}464 + 0{,}865 + 1{,}667 + 1{,}799 = 5{,}259.$$

Ko'rinib turibdiki, moliyaviy potensial holati hisobot yilida keskin o'zgargan. Uning kompleks ko'rsatkich hajmi yil boshidagi 4,817 koeffitsientdan yil oxirida 5,259 koeffitsientgacha ko'paygan. Bu asosan o'z mablag'larining uzoq muddatli va qisqa muddatli passivlarga nisbatan tez o'sganligi uchun sodir bo'lgan. Natijada o'z mablag'ining chetdan jalb qilingan passivlarga qarmlik koeffitsienti keskin qisqargan.

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarni jamlab ularning aniqlanish yo'llarini formulada va balansning satrlari bo'yicha ko'rsatib chiqish lozim. Buning uchun 22.5-jadvalni tuzishn tavsiya qilinadi.

Ushbu ko'rsatkichlarning ko'pi alohida guruhlarda 22.3- va 22.4-jadvallarda tahlil qilindi. Ammo bu ko'rsatkichlar chiqarish bilan korxonaning moliyaviy potensiali to'g'risida to'liq xulosa chiqarish qiyin. To'liq xulosa chiqarish uchun har bir obyekt yoki jarayonni ifodalovchi ko'rsatkichlarni

22.5-jadval

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning hisob-kitobi

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Aniqlanish yo‘llari	Balansdagi qatorlar bo‘yicha
1.	O‘z mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymati (U_m)	$O_{‘myb} + O‘_{myo}$	390yb + 390yo
		2	2
2.	O‘z mablag‘larining to‘planish koeffitsiyenti K_{umd})	$O‘_m$	390
		B	550
3.	O‘z mablag‘ining umumiy qaramlik koeffitsiyenti (K_g)	B	550
		$O‘_m$	390
4.	O‘z mablag‘ining chetdan jalb qilingan mablag‘larga(C_{hjkm}) qaramlik koeffitsienti ($K_{o‘chjm}$)	C_{hjkm}	540
		$O‘_m$	390
5.	O‘z mablag‘larining uzoq muddatli C_{hjkm} ga qaramlik koeffitsienti ($K_{o‘um}$)	UmP	400 + 410
		$O‘_m$	390
6.	O‘z mablag‘larining qisqa muddatli C_{hjkm} ga qaramlik koeffitsienti (K_{uqm})	K_{mchjkm}	420 + 430
		$O‘_m$	390
7.	O‘z mablag‘larining kapitallashganlik ($K_{o‘mk}$) darajasi	$A_v - O‘_{mp}$	400 + 410
		$O‘_m$	390
8.	O‘z mablag‘ining uzoq muddatli aktivlardagi so‘mmasi (O`m umak)	$O‘_{ma} - O‘_{mm}$	110 – (400 + 410)
9.	O‘z mablag‘larining uzoq muddatli aktivlardagi koeffitsienti ishtiroki (K_{umak})	$O_{‘m.umak}$	110 – (400 + 410)
		$O‘_m$	390
10.	O‘z mablag‘ining aylanma mablag‘lardagi ishtirok etayotgan faol qismi ($O‘_{zam}$)	$O‘_m - (O‘_{ma} - O‘_{mp})$	390-(110-400+410)
11.	O‘z mablag‘ining faollik koeffitsienti ($K_{o‘zam}$)	$O‘_{zam}$	6 k
		A_m	300

to‘liq o‘rganish lozim. Shundagina tahlil natijasida ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar, qabul qilinadigan qarorlar aniq va hayotiy bo‘ladi.

Tahlilning navbatdagi bosqichida korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi birqancha boshqa ko‘rsatkichlarni ham aniqlashni taqozo qiladi. Buning uchun 22.6-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada o‘z mablag‘larining kapitallashganlik darajasi yuqori. Ushbu ko‘rsatkich yil boshida 55,8 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 57,8% ga yetgan, ya’ni 20% bandga ko‘paygan.

22.6-jadval

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ayrim ko‘rsatkichlar hisob-kitobi (ming so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	O‘zgarishi (+,−)	O‘sish surati,%
Mutloq ko‘rsatkichlar					
1.	Asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatda (010k)	4995	5300	+305	106,1
2.	Uzoq muddatli passivlar (400k + 410)	2700	2700	–	100,0
3.	O‘z mablag‘lari (390k)	4115	4500	+385	109,4
4.	Uzoq muddatli aktivlar (110k)	3685	3700	+15	100,4
5.	O‘z mablag‘ining uzoq muddatli aktivlardagi summasi ((110-(400+410)	985	1000	+15	101,5
Nisbiy ko‘rsatkichlar					
6.	O‘z mablag‘ining kapitallashganlik darajasi ((1q-2q) : 3q)	0,558	0,578	+0,020	103,6
7.	Uzoq muddatli aktivlardagi o‘z mablag‘ining o‘z mablag‘idagi hissasi koeffitsiyenti (5q : 3q)	0,239		+0,017	92,0
8.	O‘z mablag‘ining aylanma mablag‘lardagi ishtirok etayotgan faol qismi (3q-5q)	3130	3500	+370	111,8
9.	Oborot aktivlari (300k)	5660	6000	+340	106,0
10.	O‘z mablag‘ining faollik koeffitsiyenti (8q : 9q)	0,553	0,583	+0,030	105,4

Korxona mablag'ining kapitallashganlik darajasi ilg'or texnologiyani qo'llab ishlayotgan korxonalarda yuqori bo'lishi tabiiy. Ammo savdo korxonalarida o'z mablag'larining kapitallashganlik darajasi ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan ancha past bo'ladi. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichni hamisha aniq vazitdan va soha turidan kelib chiqqan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bozor munosabatlari sharoitida ham korxonaning uzoq muddatli aktivlarida o'z mablag'lari ishtirok etadi. Bu ko'rsatkich tahlil davrida 0.239 koeffitsientdan 0,222 koeffitsientgacha kamaygan.

Korxonada o'z mablag'larining faollik koeffitsienti ham yaxshi, chunki yil boshida uning miqdori 55,3% ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 58,3% ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, korxona o'z mablag'ining yarmida ko'p qismi oborotda ishtirok etmoqda. Bular o'z navbatida korxona moliyaviy potensiali samaradorligini oshirishni taqozo qiladi.

22.4.3. Moliyaviy salohiyat (potensial) holatining chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari, ularni aniqlash va tahlil qilish usullari

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona chetdan jalb qilingan mablag'larni o'z faoliyatiga jalb qilgan holda ishlashi tabiiy, chunki hamisha ham korxonaning o'z mablag'lari yetarli bo'lmasligi mumkin. Korxonaning moliyaviy salohiyatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlariga, eng avvalo, uning umumiy to'planish darajasi (konsentrasiyasi) kiradi.

Bu ko'rsatkich chetdan jalb qilingan mablag'larning umumiy mablag'lardagi ulushini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun chetdan jalb qilingan umumiy mablag'larni (C_{hjkm}) bo'xgalteriya balansi umumiy summasiga (B) bo'linadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$K_{chjmk} = \frac{C_{hjkm}}{B}. \qquad (22.9.)$$

Ushbu ko'rsatkich hajmini tahlil qilganda uning miqdori yildan-yilga qisqarib borsa natija yaxshi hisoblanadi. Chunki buning qisqarishi korxonaning umumiy mablag'ida xususiy kapitalning hissasi oshib borayotganligidan dalolat beradi. Masalan, ushbu ko'rsatkich hajmi 0,35 bo'lsa, bu degani barcha mablag'larning 35 % chetdan jalb qilingan mablag'lardan iborat degani.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa hozirgi banklarning krediti uchun foiz to'lovlari yuqori bo'lib turgan bu sharoitda korxonaning umumiy mablag'ida chetdan jalb qilingan mablag'larning kamayish tendensiyasiga ega bo'lganligi ijobiy hol hisoblanadi. Tahlil jarayonida chetdan jalb qilingan

mablag'larni alohida uzoq muddatli va qisqa muddatli guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir, chunki ularning oborotdagi ishtiroki va iqtisodiy mohiyati jihatidan turlicha bo'ladi.

Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarga o'z mablag'ining qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'iga qaramlik koeffitsienti, qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning tovar va boshqa zaxiralardagi hissasi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar to'planish koeffitsientini aniqlash uchun chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'lar summasini (C_{hjkkm}) buxgalteriya balansining umumiy summasiga (B), ya'ni xo'jalik mablag'larining qiymatiga bo'lish kifoya. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$K_{chjkkm} = \frac{C_{hjkkm}}{O_{ba}}. \qquad (22.10)$$

Ushbu ko'rsatkich chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larning umumiy mablag'lardagi hissasini ifodalaydi. Masalan, ushbu ko'rsatkich hajmini 0,25 deb faraz qilamiz. Bu umumiy mablag'larning 25 % chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'lardan iborat deganidir. Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivlaridagi hissasining miqdori va moliyaviy potensialining holatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar asosan oborot aktivlarini qoplash uchun jalb qilingan bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichni (K_{oba}) aniqlash uchun qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar summasini (C_{hjkkm}) oborot aktivlari summasiga (O_{ba}) bo'lish kifoya:

$$K_{oba} = \frac{C_{hjkkm}}{O_{ba}}. \qquad (22.11)$$

Hozirgi o'tish davrida ushbu ko'rsatkichning miqdori, teng holda, qanchalik kamayib borsa, korxona uchun o'shancha yaxshi, chunki zaxiralarning va xarajatlarni qoplashda korxonaning o'z mablag'lari hissasining ko'payib borishini ko'rsatadi.

Masalan, ushbu ko'rsatkichning miqdori 0,456 koeffitsientga teng deb faraz qilsak, bu zaxiralarda qisqa muddatli qarzlarning ulushi 45,6 % ekanligidan dalolat beradi. Demak, o'z mablag'larining hissasi zaxiralarda 54,4 % ni tashkil qiladi.

$$K_{ump} = \frac{U_{mp}}{B}. \qquad (22.12)$$

Tahlil natijasida ushbu ko'rsatkichning miqdori ko'payishi tendensiyasiga ega bo'lsa, yaxshi, chunki uzoq muddatli passivlar qisqa muddatli qarzlarga nisbatan korxona uchun ancha imtiyozlidir. Masalan, ushbu koeffitsient miqdori, 0,15 ga teng bo'lsa, bu barcha mablag'larning 15 % uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lardan iborat deganidir.

Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning uzoq muddatli aktivlardagi hissasining tarkibiy koeffitsientidir. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun uzoq muddatli chetdan jalb qilingan passivlar (U_{mp}) summasini uzoq muddatli aktivlarning (U_{ma}) qiymatiga bo'linadi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$K_{yav} = \frac{U_{mp}}{U_{ma}}. \qquad (22.13)$$

Ushbu ko'rsatkich miqdorining hozirgi o'tish davrida ko'paygani korxona uchun yaxshi, chunki korxonaning o'z mablag'i tansiq bo'lib turgan paytda moddiy texnika bazasini uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar evaziga shakllantirish ijobiy holdir.

Masalan, ushbu koeffitsientning miqdorini 0,70 ga teng deb faraz qilamiz. Bu degani barcha asosiy vositalar qiymatining qoplanish manbaining 70 % uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobidan shakllanganligidan dalolat beradi. Ushbu ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Albatta bu ko'rsatkichlar orqali korxonadagi mavjud moliyaviy potensialning holati, uning tarkibiy tuzilishi kabi iqtisodiy jihatlari o'rganiladi.

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning (U_{mchjkm}) tarkibiy koeffitsienti ($K_{umchjkm}$) ham kiradi. Bu ko'rsatkich $U_{mchjkm.}$ning barcha chetdan jalb qilingan mablag'lardagi hissasini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun $U_{mchjkm.}$ summasini umumiy $C_{hjkm.}$ summasiga bo'lish lozim.

Buning uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$K_{umchjkm} = \frac{U_{mchjkm}}{Ch_{jkm.}}. \qquad (22.14)$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori 0,25 koeffitsient bo'lsa, u barcha $C_{hjkm.}$ning 25 % uzoq muddatli $C_{hjkm.}$ ekanligidan dalolat beradi.

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri qisqa muddatli $C_{hjkm.}$ning tarkibiy koeffitsientidir ($K_{kmchjkm}$). Ushbu ko'rsatkich barcha chetdan jalb qilingan mablag'larda qisqa muddatli C_{hjkm} hissasi qachaligini ifodalaydi. Buni aniqlash uchun qisqa muddatli $C_{hjkm.}$ summasini barcha $C_{hjkm.}$ summasiga bo'linadi:

$$K_{umchjkm} = \frac{U_{kmchjkm}}{Ch_{jkm.}}. \qquad (22.15)$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdorini 0,75 bo'ldi *deb faraz qilsak, u holda* qisqa muddatli $C_{hjkm.}$ning barcha $C_{hjkm.}$dagi ulushi 75 % ni tashkil qilishidan dalolat beradi.

Kreditor qarzlar ham korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli ularning ham tarkibiy koeffitsienti (K_{kr}) aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Ushbu ko'rsatkich barcha chetdan jalb qilingan mablag'larda kreditorlarning hissasi qancha ekanligidan dalolat beradi. Buni aniqlash uchun kreditor qarzlarni (K_r) jamlab barcha chetdan jalb qilingan mablag'larga (C_{hjkm}) bo'linadi.

Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$K_{kp} = \frac{K_p}{Ch_{jkm.}}. \qquad (22.16)$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori 0,225 koeffitsientga teng deb faraz qilsak, bu barcha $C_{hjkm.}$ tarkibida kreditor qarzlarning ulishi 22,5 % ni tashkil qiladi degandir.

Ma'lumki, $C_{hjkm.}$ning bir qismi uzoq muddatli aktivlarni qoplashga jalb qilinadi. Ammo bu ko'rsatkichlar buxgalteriya balansida tayyor holda uchramaydi. Ularni hisoblab topish lozim.

Chetdan jalb qilingan mablag'larning uzoq muddatli aktivlarda ishtirok etayotgan summasini ($C_{hjkm.uma}$) aniqlash uchun buxgalteriya hisobotiga qo'shimcha yana buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bu yerda «Uzoq muddatli qarzlar» (400k) va «Uzoq muddatli kreditorlar»ni (410k) *to'liq uzoq muddatli aktivlarga jalb qilingan deb faraz qilsak*, axtarilayotgan ko'rsatkich quyidagiga teng bo'ladi:

$$C_{hjkm.uma} = U_{mk} + U_{mkr} \quad \text{yoki} \quad 400_k + 410_k \qquad (22.17)$$

Endi chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivida ishtirok etayotgan summasini aniqlash mumkin. Buning uchun barcha majburiyatlar summasidan (540k) uzoq muddatli $C_{hjkm.}$ summasini (400+410) ayirib tashlaymiz.

Chiqqan natija chetdan jalb qilingan mablag'larning qancha qismi oborot aktivlarida ishtirok etayotganligini ifodalaydi:

$$C_{hjkm\ oak} = O_{ba} - (U_{mk} + U_{mkr}) \text{ yoki } 540k - (400k + 410k) \qquad (22.18)$$

Agar korxonada muddati o'tgan kreditorlar bo'lsa, natija ushbu summa miqdoriga kamaytiriladi:

C_{hjkm} = (540 − (400k + 410k)) − 2 7 ustun jami (22.19)

Aniqlangan so'mmaga asosan $C_{hjkm.}$ning oborot aktivlaridagi hissasini ifodalovchi koeffitsientni ($K_{chjkm.oak}$) ham aniqlash mumkin. Buning uchun oborot aktivlarida ishtirok etayotgan $C_{hjkm.}$ summasini

$$K_{chjkm\ oak} = \frac{Ch_{jkm.oba}}{O_{ba}}. \qquad (22.20)$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori korxona oborot aktivlarida qancha chetdan jalb qilingan mablag'lar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Masalan, ushbu ko'rsatkich 0,655 koeffitsientga teng bo'lsa, bu barcha oborot aktivlarining 65,5 % chetdan jalb qilingan mablag'larning summasidan iborat bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlarni jamlab yagona jadval shaklida keltirish mumkin (22.7-jadval).

Ushbu ko'rsatkichlarning hammasi ko'rinib turganidek, buxgalteriya balansida ifodalanadi. Ammo tahlil uchun u yoki bu jarayonni qanday ko'rsatkichlar bilan ifodalash hali yetarli emas. Shu tufayli eng muhimi ushbu ko'rsatkichlar miqdorini aniqlab, ularni bir-biri bilan va bir qancha davrlarga solishtirib, tegishli xulosa chiqarish lozim. Xulosalar esa korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalashga xizmat qilishi darkor. Buning uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (22.8. -jadval).

Ushbu jadval *ma'lumotlaridan* ko'rinib turibdiki, korxonaning umumiy mulki (mablag'i) yil oxirida yil boshiga nisbatan 355 ming so'mga yoki 0,8 % ga ko'paygan. Ammo chetdan jalb qilingan mablag'lar 30 ming so'mga yoki 0,6 % ga kamaygan. Demak, korxonaning o'z mablag'lari ko'paygan. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, uzoq muddatli passivlar o'zgarmasdan qolgan bir paytdan qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar 150 ming so'mga yoki 15 % (100 − 85,0)ga kamaygan. Lekin kreditorlar shu davr mobaynida 120 ming so'mga yoki yil boshiga nisbatan 7,8 % ko'paygan. Bu albatta chetdan jalb *qilingan mablag'lar* ichida sezilarli tarkibiy o'zgarishlarga olib kelgan. Buni ushbu turkum ko'rsatkichlar bo'yicha koeffitsientlarni aniqlaganda ko'rish mumkin.

Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar summasi o'zgarmasada uning hissasi umumiy chetdan jalb qilingan mablag'lar tarkibida 0,6 % oshgan, qisqa muddatli passivlarning tarkibi yil boshidagi 19,3 % dan yil oxirida 16,3 % gacha kamaygan. Ammo kreditorlarning tarkibiy koeffitsienti shu davr mobaynida 29,3 % dan 31,7 % gacha oshgan.

Umuman olganda iqtisodiyotning *hozirgi bosqichida* chetdan jalb qilingan mablag'lar hissasining kamayganligi yaxshi ko'rsatkich. Ammo uning oborot aktivlaridagi hissasining oshganligi yil boshidagi 0,553 koeffitsientdan to yil oxirida 0,583 koeffitsientgacha o'sganligini ijobiy baholash qiyin. Korxonaning o'z mablag'lari o'sgan. Ammo bular asosan uzoq muddatli aktivlarga jalb etilganligidan dalolat beradi. Hozirgi paytda korxona oborot aktivlarida imkon qadar o'z mablag'lari hissasini ko'paytirishi lozimdir.

22.7-jadval

Moliyaviy potensial holatining ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni aniqlash yo'llari

№	Ko'rsatkichlar nomi	Aniqlash yo'llari	Balansdagi qatorlar bo'yicha
1.	Chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymati (C_{hjm})	$\frac{C_{hjkm.yb}+C_{hjkm.yo}}{2}$	$\frac{540yb+540yo}{2}$
2.	Chetdan jalb qilingan mablag'larning umumiy to'planish koeffitsienti (K_{chjmk})	$\frac{C_{hqm}}{B}\cdot 100$	$\frac{540}{550}$
3.	Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning to'planish koeffitsienti (K_{chjkm})	$\frac{C_{jqm}}{B}$	$\frac{420+430+440}{550}$
4.	Qisqamuddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivlaridagi (O_{ba}) hissasining koeffitsienti (K_{oba})	$\frac{C_{hkkm}}{O_{ba}}$	$\frac{420+430+440}{300}$
5.	Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning to'planish koeffitsienti (K_{ump})	$\frac{U_{mp}}{B}$	$\frac{400+410}{550}$
6.	Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning uzoq muddatli aktivlardagi hissasining koeffitsienti (K_{uav})	$\frac{U_{mp}}{U_{ma}}$	$\frac{400+410}{110}$
7.	Uzoq muddali chetdan jalb qilingan mablag'larning $C_{hj\,m.}$dagi hissasi (tarkibiy koeffitsienti) (U_{mchjm})	$\frac{U_{mchjkm}}{C_{hkm}}$	$\frac{400+410}{540}$
8.	Qisqamuddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning $C_{hj\,km.}$dagi hissasi (tarkibiy koeffitsienti) ($K_{umchjk.m.}$)	$\frac{K_{km\ chjkm}}{C_{hkm}}$	$\frac{400+410}{540}$
9.	Kreditorlarning tarkibiy koeffitsienti (K_{kr})	$\frac{K_p}{C_{hkm}}$	$\frac{450+530}{540}$
10.	$C_{hjkm.}$ning oborot aktivlaridagi summasi ($K_{chjm.oak}$)	$O_{ha}+U_{mk}+U_{mkp}$	450q-(400q+410q)
11.	$C_{hjkm.}$ning oborot aktivlaridagi summasi ($K_{chjm.oak}$) hissasining koeffitsienti	$\frac{C_{hjkm.oba}}{O_{ha}}$	$\frac{540q-(400q+410q)}{540}$

22.8-jadval

Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) holatini ifodalovchi *chetdan jalb qilingan mablag'lar* bilan bog'liq ko'rsatkichlarining hisob-kitobi (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxiri-da	O'zga-rishi (+,-)	O'sish sur'ati,%
	Mutloq ko'rsatkichlar				
1.	Balansning passivi bo'yichajami (550k)	9345	9700	+355	103,8
2.	Uzoq muddatli passivlar (400+410)	2700	2700	–	100,0
3.	Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar (420+430+440)	1000	850	– 150	85,0
4.	Kreditorlar (450+...+530)	1530	1650	+120	107,8
5.	Barcha chetdan jalb qilingan mablag 'lar (majburiyatlar) (540k)	5230	5200	– 30	99,4
6.	Uzoq muddatli aktivlar (110k)	3685	3700	+15	100,4
7.	Oborot aktivlari (300k)	5660	6000	+340	106,0
	Nisbiy ko'rsatkichlar				
8.	Chetdan jalb qilingan mablag 'larning (C_{hjkm}) umumiy to'planish koeffitsiyenti (5q:1q)	0,560	0,536	-0,024	95,8
9.	Qisqa muddatli $C_{hjkm.q}$ing to'planish koeffitsienti (3q:1q)	0,107	0,088	-0,019	82,2
10.	Uzoq muddatli $C_{hjkm.}$ning to'planish koeffitsienti (2q:1q)	0,289	0,278	-0,011	96,2
11.	Qisqa muddatli $C_{hjkm.}$ning oborot aktivlaridagi hissasining koeffitsienti (3q:7q)	0,177	0,142	-0,035	80,2
12.	Uzoq muddatli $C_{hjkm.}$ning uzoq muddatli aktivlardagi hissasining koeffitsienti (2q:6q)	0,733	0,730	-0,003	99,6
13.	Uzoq muddatli $C_{hjkm.}$ning tarkibiy koeffitsienti (2q:5q)	0,516	0,519	+0,003	100,6
14.	Qisqa muddatli $C_{hjkm.}$ning tarkibiy koeffitsienti (4q:5q)	0,191	0,163	-0,028	85,3

22.8-jadvalning davomi

15.	Kreditorlarning tarkibiy koeffitsienti (4q:5q)	0,293	0,317	+0,024	108,2
16.	$C_{bjkm.}$ning oborot atkivlaridagi summasi *(540q-(400q+410))*	2530	2500	-30	98,8
17	$C_{bjkm.}$ning oborot aktiv-laridagi hissasining koeffitsienti (16q:7q)	0,447	0,417	-0,030	93,3

Ta'kidlanganidek, chetdan jalb qilingan mablag'larning to'planish koeffitsienti ham, uzoq muddatli passivlarning to'planish koeffitsientlari ham kamaygan.

Tahlil natijasi ko'rsatib turibdiki, qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar umumiy hajmining oborot aktivlaridagi hissasi yil boshida 0,177 koeffitsientdan yil oxirida 0,142 koeffitsientgacha yoki 19,8 % (100—80,2) kamaygan. Bu holat ijobiydek ko'rinadi. Ammo tahlil jarayonida shuni inobatga olish lozimki, chetdan jalb qilingan mablag'larning hammasi ham oborotda ishtirok etavermaydi. Shu tufayli amaliyotda chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivlardagi summasi va hissasini aniqlashni taqozo qiladi. Bu misolda boshqacha holatda ekanligini ko'rsatadi. Haqiqatda chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivlaridagi summasi 1,2 % ga ulushi esa 6,7 % ga kamaygan. Ta'kidlanganidek, bunday holatni ijobiy baholash mumkin.

Xullas, korxona moliyaviy potensialining tahlili korxona rahbari, ega va menejerini uning faoliyatiga yanada chuqurroq yondoshish uchun, uning ahvolini o'nglash lozimligini anglash hamda tegishli xulosalar chiqarish uchun yetarli ma'lumotlar bilan qurollantiriladi.

22.5. Korxonalar moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligining tahlili

22.5.1. Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari

Moliyaviy salohiyat (potensial)ning (Mp.) samaradorligi deganda uning natijaviyligi tushuniladi. Uni aniqlash uchun mahsulot (ish, xizmat) hajmini (M) (daromad, foyda) Mp. o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kifoya. Bu ta'kidlanganidek, quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Mp. samaradorligini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar;
2. Mp. samaradorligining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari;
3. Mp. samaradorligining chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Har bir guruh ko'rsatkichlari o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi guruhga Mp. umumiy hajmining samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bular quyidagilardan iborat:

1. 1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan mahsulot (M) (ish, xizmat) hajmi;
2. 1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan daromad (D) hajmi;
3. 1 so'm Mp. ga to'g'ri keladigan foyda (F) hajmi.

Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumot manbalarida ifodalanadi (22.9-jadval).

Xuddi shunday ko'rsatkichlar tizimi Mp.ning alohida guruhlari bo'yicha ham aniqlanadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. 1 so'm o'z mablag'lariga (O'm) to'g'ri keladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmi;
2. 1 so'm O'm.ga to'g'ri keladigan daromad hajmi;
3. 1 so'm O'm.ga to'g'ri keladigan sof foyda.

Chetdan jalb qilingan mablag'larning ham samaradorlik ko'rsatkichlarini xuddi shunday ko'rsatkichlarda ifodalash mumkin.

1. 1 so'm chetdan jalb qilingan mablag'larga (C_{hjkm}) to'g'ri keladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmi.
2. 1 so'm C_{hjkm}ga to'g'ri keladigan daromadlar summasi;

22.9-jadval

Mp. umumiy hajmining samaradorligini aniqlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarning axborotlarda ifodalanishi

№	Ko'rsatkichlar	Moliyaviy hisobot shakli	Satr kodi	Hisobotning nomi
1.	Moliyaviy potensialning umumiy hajmi (Mp.)	1-shakl	550	Buxgalteriyabalansi
2.	Mp.ning o'rtachayillik qiymati	1-shakl		Buxgalteriyabalansi
3.	Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum (M)	2-shakl	010	Moliyaviy natijalar to'g'ri-sidagi hisobot
4.	Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi	2-shakl	110	Moliyaviy natijalar to'g'ri-sidagi hisobotI
5.	Umum xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi	2-shakl	150	Moliyaviy natijalar to'g'ri-sidagi hisobot
6.	Yalpi daromad (soliq to'lagunga qadargi umumiy moliyaviy natija) (D)	2-shakl	170	Moliyaviy natijalar to'g'ri-sidagi hisobot
7.	Sof foyda(F)	2-shakl	200	Moliyaviy natijalar to'g'ri-sidagi hisobot
8.	O'z mablag'lari (O'_m)	1-shakl	390	Buxgalteriya balansi
9.	Chetdan jalb qilingan mablag 'lar (C_{hjkm})	1-shakl	540	Buxgalteriya balansi

3. 1 so'm $C_{hjkm.}$ga to'g'ri keladigan sof foyda summasi.

Ushbu ko'rsatkichlarning aniqlanish yo'llarini batafsil ko'rib chiqamiz (22.10-jadval). Mp. samaradorligi bilan bog'liq barcha ko'rsatkichlarni aniqlagach tahlilning navbatdagi bosqichida ularga amaliy ma'lumotlarni qo'llab tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirib ularning holatini, dinamikasini va o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganadi.

22.10-jadval

Korxona Mp. samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari

№	Ko'rsatkichlar	Aniqlanish formulasi	Axborot manbayi, ya'ni ma'lumotning qayerda ifodalanishi
1.	Mp.Samaradorligi (1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmi)	$M_{ps} = \frac{M}{M_p}$	$\frac{010 \cdot 2\ sh}{550q \cdot 1\ sh}$
2.	Mp.daromadliligi (1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan yalpi daromad hajmi)	$M_{pd} = \frac{D}{M_p}$	$\frac{170q \cdot 2\ sh}{550q \cdot 1\ sh}$
3.	Mp.foydaliligi (1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan foyda summasi)	$M_{pf} = \frac{F}{M_p}$	$\frac{260q \cdot 2\ sh}{550q \cdot 1\ sh}$
4.	O'_m samaradorligi	$O'_{ms} = \frac{M}{O'_m}$	$\frac{010q \cdot 2\ sh}{390q \cdot 1\ sh}$
5.	O'_m daromadliligi	$O'_{m\,d} = \frac{D}{O'_m}$	$\frac{170q \cdot 2\ sh}{390q \cdot 1\ sh}$
6.	O'_m foydaliligi	$O'_{m.f} = \frac{F}{O'_m}$	$\frac{200q \cdot 2\ sh}{390q \cdot 1\ sh}$
7.	$C_{hjkm.}$ samaradorligi	$Ch_{jkm.s} = \frac{M}{Ch_{jkm}}$	$\frac{010q \cdot 2\ sh}{540q \cdot 2\ sh}$
8.	$C_{hjkm.}$ daromadliligi	$Ch_{jkm.d} = \frac{D}{Ch'_{jkm}}$	$\frac{170q \cdot 2\ sh}{540q \cdot 1\ sh}$
9.	$C_{hjkm.}$ foydaliligi	$Ch_{jkm.f} = \frac{F}{Ch_{jkm}}$	$\frac{170q \cdot 2\ sh}{540q \cdot 1\ sh}$

22.5.2. Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligining tahlili

Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligining tahlili keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

* samaradorlikni ifodalovchi mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarning o'tgan va hisobot yilidagi miqdori aniqlanadi;
* shu ko'rsatkichlar bir-biri bilan solishtirilib, ularning farqi hisoblanadi;
* o'zgarish sur'atlari aniqlanadi;
* hamma hisob-kitoblar natijasida jadval tuziladi;
* jadvalga asosan tegishli xulosa chiqariladi.

Ushbu tahlili ishlarni amalga oshirish uchun 22.11-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

22.11-jadval

Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+, −)	O'zgarish sur'ati, %
	Mutloq ko'rsatkichlar				
1.	Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
2.	Daromadlar, ming so'm	511,0	711,7	+200,7	139,3
3.	Sof foyda, ming so'm	368,0	496,2	+128,2	134,8
4.	Moliyaviy potensialning (Mp) o'rtacha qiymati, ming so'm		9522,5	+265,7	102,9
5.	O'z mablag'larining o'rtacha qiymati (O'_m), ming so'm	4272,1	4307,5	+35,4	100,8
6.	Chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha qiymati, ming so'm (C_{bika})	4984,7	5215,0	+230,3	104,6
7.	M_p natijaviyligi, tiyin	49,5	59,8	+10,3	120,8
8.	M_p daromadliligi, tiyin	5,52	7,47	+1,95	135,3
9.	Mp.foydaliligi, %	3,98	5,21	+1,23	130,9
10.	Um.natijaviyligi, so'm	1,07	1,32	+0,25	123,4
11.	O'm.daromadliligi, tiyin	12,0	16,5	+4,5	137,5
12.	O'm.foydaliligi, %	8,61	11,52	+2,91	133,8
13.	Chjkm.natijaviyligi, tiyin	91,9	109,19	+17,23	118,8
14.	Chjkm.daromadliligi, tiyin	10,3	13,6	+3,3	132,0
15.	Chjkm.foydaliligi, %	7,38	9,51	+2,13	128,

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, natijaviy ko'rsatkichlarning deyarli hammasi sezilarli darajada o'sgan. Masalan, sotilgan mahsulot hajmining o'sish sur'ati 124,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, daromadlarning o'sish sur'ati 139,3 % ni, foyda summasining o'sish sur'ati 134,8 % ni tashkil qilgan. Ammo shu davrda moliyaviy potensialning o'rtacha yillik qiymati va uning tarkibiga kiruvchi alohida elementlari juda sekinlik bilan o'zgargan. Masalan, moliyaviy potensial umumiy hajmining o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qilgan bir paytda, korxonaning o'z mablag'lari atigi 100,8 % ga o'zgargan. Tahlil qilinayotgan davrda chetdan jalb qilingan mablag'larning o'zgarish sur'ati nisbatan yuqori va uning miqdori 104,6 % ni tashkil qiladi.

Agar moliyaviy potensialning tarkibiy o'zgarishini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda quyidagi holat ko'zga tashlanadi (22.12-jadval).

22.12-jadval

Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) tarkibining o'zgarishi

№	Ko'rsatkichlar	Tarkibi		Farqi, (+,-)
		O'tgan yilda	Hisobot yilida	
1.	O'z mablag'larining o'rtacha yillik miqdorining ulushi, %	46,2	45,2	-1,0
2.	Chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik miqdorining ulushi, %	53,8	54,8	+1,0
3.	Jami Mp.hajmi, %	100,0	100,0	–

Haqiqatda tahlil qilinayotgan davrda chetdan jalb qilinayotgan mablag'larning umumiy Mp.dagi ulushi 1,0 % ga oshgan. Shunga mos ravishda o'z mablag'larining ulushi 1,0 % kamaygan. Bu holat Mp. samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan. Masalan, Mp. umumiy miqdorining natijaviyligi, ya'ni uning 1 so'mga to'g'ri keladigan sotilgan mahsulot hajmi hisobot davrida 54,8 tiyinni tashkil qilgan bir paytda o'tgan yili uning miqdori 49,5 tiyinga teng edi. Ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati 120,8 % ni tashkil qiladi. Ammo o'z mablag'larining natijaviyligi 123,4 % ni tashkil qilgan bir paytda chetdan jalb qilingan mablag'larning natijaviyligi 118,8 % ga teng. Ko'rinib turibdiki, jalb qilingan mablag'larning samaradorligiga nisbatan ancha yuqori.

Mp. samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri ularning daromadliligidir. Tahlil qilinayotgan obyektda ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati 135,3 % ni tashkil qiladi. Ammo o'z mablag'larining daromadliligi bundan yuqori, ya'ni 137,5 ni tashkil qilsa, chetdan jalb qilingan mablag'larning daromadliligi 132,0 % ga teng. Ushbu ko'rsatkich daromadliligining o'sish sur'ati o'z mablag'lari daromadliligining o'sish

sur'atiga nisbatan 5,5 bandga (137,5−132,0) kam ekanligini ko'ramiz. Xuddi shunday holatni Mp.foydaliligini tahlil qilganda ham kuzatish mumkin.

Mp. foydaliligining o'sish sur'ati, tahlil qilinayotgan davrda 130,9 % ni tashkil qilgan bir paytda, o'z mablag'lari foydalilik darajasining o'sish sur'ati 133,8 % ni tashkil qiladi, ya'ni 2,9 band (133,8− 130,9) unga nisbatan ortiq. Lekin chetdan jalb qilingan mablag'larning foydalilik darajasidagi o'zgarish sur'ati 128,9 % ni tashkil qiladi.

Mp. samaradorligining tahlil qilib, shunday xulosa qilish mumkinki, tahlil qilinayotgan obyektda o'z mablag'larining samaradorligi chetdan jalb qilingan mablag'lar va Mp. umumiy hajmining samaradorliligiga nisbatan ham yuqori ekan. Ammo bu o'z-o'zidan:

$$M_{pf} = \frac{F}{M_p}.$$

Ushbu formula bo'yicha tahlil qilinsa M_{pf} o'zgarishiga ikkita omil ta'sir qilganligini ko'ramiz, ya'ni foydaning ko'payishi M_{pf}ni oshiradi, Mp.ning ko'payishi esa uni pasaytiradi.

Agar Mp.ning o'rniga uni ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan almashtirsak, quyidagi formula kelib chiqadi:

$$M_{pf} = \frac{F}{O'_m + U_{mp} + C_{hjkkm}}.$$

Bunda: U_m – o'z mablag'lari; U_{mp} – uzoq muddatli passivlar; Ch_{jkkm} – chetdan jalb qilingan qisqa muddatli passivlar.

Ushbu formulaga zanjirli almashtirish usulini qo'llab, korxona moliyaviy potensialiga ta'sir qiluvchi omillarning miqdorini hisoblash mumkin:

1. M_{pf}ning F summasi evaziga o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta M_{pff} = \frac{F}{U_{M_0} + U_{mp_0} + C_{hjkkm_0}} - Mpf_0.$$

2. M_{pf}ning O'm summasi evaziga o'zgarishini topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$\Delta M_{pff} = \frac{F_1}{O'_{M_0} + U_{mp_0} + C_{hjkkm_0}} - \frac{F_1}{U_{M_0} + U_{mp_0} + C_{hjkkm_0}}.$$

3. M_{pf}ning U_{mp} summasi ta'sirida o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta M_{pf.}U_{mp} = \left(\frac{f_1}{U_{m_1} + U_{mp_1} + C_{hjkkm0}}\right) - \left(\frac{f_1}{U_{m1} + U_{mp0} + C_{hjkkm0}}\right.$$

4. $M_{pf.}$ning $C_{hjkkm.}$ning ta'siri evaziga o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formaladan foydalanish mumkin:

$$M_{pf.Chjkkm} = M_{pf} - \left(\frac{f_1}{U_{m1} + U_{mp1} + C_{hjkkm0}}\right).$$

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijasining umumiy farqiga ($M_{pf.}$) teng bo'ladi:

$$\Delta M_{pf.} = \Delta M_{pf} \pm \Delta M_{pf.}O'_{m.} \pm \Delta M_{pf.}O'_{mp.} \pm \Delta M_{pf.}Ch_{jkkm}.$$

Ushbu formulalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llab Mpf. o'zgarishiga barcha omillar ta'sirini aniqlash mumkin. Bu ushbu nazariy tavsiyaning amaliyotda qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi (22.13-jadval). Ushbu jadval

22.13-jadval

Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisobot davrida aniqlash yo'llari

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,–)	Zanjirli almashtirishlar			
					I	II	III	IV
1.	Foyda, ming so'm	368,0	496,2	+128,2	496,2	496,2	496,2	496,2
2.	O'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	4272,1	4307,5	+35,4	4272,1	4307,5	4307,5	4307,5
3.	Uzoq muddatli passivlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	2598,6	2700,0	+101,4	2598,6	2598,6	2700,0	2700,0
4.	Chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	2386,1	2515,0	+128,9	2386,1	2386,1	2386,1	2115,0
5.	Moliyaviy potensialning umumiy summasi, ming so'm (2+3+4)	9256,8	9522,5	+265,7	9256,8	9292,2	9393,6	9522,5
6.	Moliyaviy potensialning foydaliligi, % [(1:5) ·100]	3,98	5,21	+1,23		5,34	5,28	5,21

ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxona moliyaviy potensialining samaradorligi hisobot yilida 1,23 % ga oshgan. Bu quyidagi omillar ta'sirida vujudga kelgan:

$$\Delta M_{pf.} = \Delta M_{pf} \pm \Delta M_{pf.}O'_{m.} \pm \Delta M_{pf.}O'_{mp.} \pm \Delta M_{pf.}Ch_{jkkm}.$$

1. Foyda summasining 128,2 ning so'mga ko'payganligi korxona moliyaviy potensiali foydaliligini 1,38 % ga oshirgan:

$$5,36 - 3,98 = -1,38\ \%.$$

2. O'z mablag'ining o'rtacha yillik qiymati ham hisobot yilida 35,4 ming so'mga ko'paygan. Bu esa moliyaviy potensial foydaliligini 0,02 % ga kamaytirishga olib kelgan:

$$5,34 - 3,36 - 0,02\%.$$

Odatda, o'z mablag'ining ko'payishi moliyaviy potensialning foydaligini oshirish lozim. Shu tufayli mablag'ining moliyaviy potensial foydaliligiga ta'sirini shu hisob-kitob bilan chegaralab bo'lmaydi. Ushbu ko'rsatkichning umumiy mablag'lardagi hissasining undagi tarkibiy o'zgarishlarni ham tahlil qilishi lozim.

3. Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymati ham keskin oshgan (101,4 ming so'm). Bu ham moliyaviy potensial foydaliligini 0,06 % kamaytirishga olib kelgan:

$$5,28 - 5,34 = -0,06\ \%.$$

4. Chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larning o'rtacha yillik qiymati 128,9 ming so'mga ko'paygan. Bu omil ta'sirida tahlil qilinayotgan ko'rsatkich 0,07 % kamaygan.

$$5,21 - 5,28 = -0,07\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$1,38 + 0,02 - 0,06 - 0,07 = +1,28\ \%.$$

Ushbu ko'rsatkich o'zgarishiga barcha omillar ta'siri aniqlab chiqdik. Ushbu hisob-kitob tahlilining juda sodda usuli bo'lib, u korxona rahbariyatiga umumiy, hali unchalik chuqur va mukammal bo'lmagan xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda tahlil qilinayotgan ko'rsatkichni yaxshilash borasida ba'zi chora tadbirlarni ishlab chiqish, kelgusida asosiy e'tiborni nimalarga qaratish lozimligini ham ko'rsatib beradi. Tahlil natijasidan ko'rinib turibdiki, hisoblangan 4 ta omilning 3 tasining ta'siri salbiy bo'lgan. Agarda ushbu omillar o'tgan yilgi darajada saqlanib qolganda edi moliyaviy potensialning foydaliligi 0,15 % (0,02 + 0,06 + 0,07) oshgan bo'lar edi. U holda natijaning umumiy hajmi 5,21 emas, balki 5,36 % ni (5,21 + 0,15) tashkil qilgan bo'lar edi. Agar shu darajaga erishilgan bo'lganda edi, foydalilik darajasi o'tgan yilga nisbatan 1,23 % ga emas, balki 1,38 % ga oshgan bo'lar edi:

$$5,36 - 3,98 = +1,38.$$

Demak, kelgusi yilda ushbu korxona rahbariyati foydalilik darajasini oshirish uchun moliyaviy potensialning tarkibiy tuzilishini yaxshilash, shu orqali foyda summasini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqarishlari lozim.

Samaradorlikni tahlil qilganda unga faqat hajm ko'rsatkichlarining ta'sirini hisoblash bilan cheklanib qolib bo'lmaydi, chunki iqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy jarayonlar inikosi sifatida bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shu tufayli barcha iqtisodiy jarayonlar va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini o'rganish, ularning natijaga ta'sirini hisoblash hozirgi paytda tahlil oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Korxonaning moliyaviy potensialining samaradorligi ham yana bir qancha nisbiy ko'rsatkichlar, ya'ni omillar ta'sirida o'zgarishini aniqlasa bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligi (U) korxona o'z mablag'lari rentabelligiga (X_1), o'z mablag'ining uzoq muddatli passivlardagi hissasiga (X_2), uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lardagi hissasiga (X_3) va chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larning moliyaviy potensialdagi hissasiga (X_4) bog'liq ekan. Ushbu bog'liqlikni quyidagicha ifodalashni tavsiya qilamiz:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot X_4 = \sum_{i=1}^{4} Xi.$$

Ushbu ko'rsatkichlarning iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan o'zviy bog'liqligini aniqlash uchun 22.14-jadvalni tuzish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxona moliyaviy potensiali bilan bog'liq barcha ko'rsatkichlarning miqdori hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan ko'paygan. Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar summasi 3,9 % ga, korxonaning o'z mablag'lari esa 0,83 % ga oshgan. Xuddi shu holat boshqa ko'rsatkichlarda har xil yo'nalishlarga ega bo'lgan. Masalan, uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbati o'tgan yilga nisbatan 98,6 % ni tashkil qilgan bir paytda o'z mablag'lari foydaliligi 132,7 % ga ko'paygan. Xuddi shunday turli holat boshqa nisbiy ko'rsatkichlarda ham nomoyon bo'ladi. Albatta bu o'zgarishlar natija ko'rsatkichiga, xususan, korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Bu omillar ta'sirini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan matematik bog'lanishdan foydalanish mumkin. Ushbu matematik bog'lanishdagi ko'rsatkichlarning individual indeksini qo'llab yechadigan bo'lsak, quyidagi hisob kitobni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Natijaning birinchi omil evaziga o'zgarganligini (ΔU_{x1}) topish uchun natijaning rejadagi miqdorini (Uo) birinchi omilning individual indeksiga (i_{x1}) ko'paytirib (Uo_{xix1}) chiqqan miqdordan natijaning rejadagi miqdori ayriladi:

22.14-jadval

Korxona moliyaviy potensiali foydaliligi bilan bog'liq mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarning hisobot yilidagi holati

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilda	Farqi summada (+,-)	Indeksi
	Mutloq ko'rsatkichlar				
1.	Foyda, ming so'm	368,0	496,2	+128,2	1,3484
2.	O'z mablag'larining o'rtachayillik qiymati, ming so'm	4272,1	4307,5	+35,4	
3.	Chetdan jalb qilingan mablag'-larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	4984,7	5315,0	+330,3	
4.	Uzoq muddatli chetdan jalb qi-lingan mablag'larning o'rta-cha yillik qiymati, ming so'm	2598,6	2700,0	+101,4	4,0390
5.	Qisqa muddatli chetdan jalb qi-lingan mablag'larning o'rtachayillik qiymati, ming so'm	2386,1	2515,0	+128,9	1,0540
6.	Moliyaviy potensial jami sommasining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	9256,8	9522,5	+265,7	1,0287
7.	Asosiy vositalar boshlang'ich-ning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	5079,0	5177,5	+68,5	1,0135
8.	Oborot aktivlarining o'rtachayillik qiymati, ming so'm	5624,9	5830,0	+205,1	1,0365
	Nisbiy ko'rsatkichlar				
9.	O'z mablag'i foydaliligi, ming so'm (X_1) (1:2)	8,616	11,5194	+2,905	1,3372
10.	Uzoq muddatli passivlarning o'z mablag'i bilan ta'minlanishi, ming so'm (X_2) (2:4)	1,6440	1,5954	+0,0486	0,9704
11.	Uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larganisbati (X3) (4:5)	1,0891	1,0736	-0,0155	0,9858
12.	Qisqamuddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning moliyaviy potensialdagi hissasi (X_4) (5:6)	0,2578	0,2641	+0,0063	1,0244
13.	Korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligi % (U) (1:6 .100)	3,0398	5,2108	+2,1710	1,7142

$$\Delta U_{x1} = (Uo \cdot i_{x1}) - Uo. \qquad (22.29)$$

2. Natija o'zgarishiga ikkinchi omil ta'sirini (ΔU_{x2}) aniqlash uchun natijaning birinchi omil indeksi bilan hisoblangan miqdorini ($Uo \cdot i_{x1}$) ikkinchi omilning individual indeksi bilan ko'paytiriladi ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}$) va chiqqan miqdordan natijaning birinchi omil individual indeksi bilan hisoblangan miqdori ($Uo \cdot i_{x2}$) ayriladi:

$$\Delta U_{x2} = (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}) - (U_o \cdot i_{x1}). \qquad (22.30)$$

3. Natija o'zgarishiga uchinchi omil ta'sirini (ΔU_{x3}) aniqlash uchun natijaning birinchi va ikkinchi omil individual indeksi bilan qayta hisoblangan miqdorini ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}$) uchinchi omilning individual indeksi bilan ko'paytiriladi($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}$) va aniqlangan miqdordan natijaning birinchi va ikkinchi omil evaziga ko'paytirilgan miqdori ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}$) ayriladi:

$$U_{x3} = (U_o \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}) - (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}). \qquad (22.31)$$

4. Natija o'zgarishining to'rtinchi omil evaziga o'zgarishini (ΔU_{x4}) aniqlash uchun natijaning haqiqiy miqdoridan (ΔU_1) uning uchta omil individual indeksi bilan qayta hisoblangan miqdori ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}$) ayriladi:

$$U_{x4} = U_1 - (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}). \qquad (22.32)$$

$$\Delta U_{x4} = (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3} \cdot i_{x4}) - (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}). \qquad (22.33)$$

Barcha omillar ta'siri odatdagidek, natijaning umumiy miqdoriga teng bo'ladi:

$$\Delta U = \Delta Ux_1 \pm \Delta Ux_2 \pm \Delta Ux_3 \pm \Delta Ux_4. \qquad (22.34)$$

Ushbu nazariy hisob-kitoblarga amaliy ma'lumotlarni qo'llab yechadigan bo'lsak, moliyaviy potensial o'zgarishiga ta'sir qiluvchi keltirilgan barcha omillar ta'sirini aniqlash va hisoblash mumkin (22.15-jadval). Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligining o'zgarganligiga to'rtta omil ta'sir ko'rsatgan.

1. Korxona o'z mablag'larining foydaliligi 2,905 % bandga oshgan. Bu omil ta'sirida tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning hajmi 2,2762 % ko'paygan:

$$5,3160 - 3,0398 = -2,2762\ \%.$$

2. Uzoq muddatli passivlarning o'z mablag'i bilan ta'minlanish darajasi 0,0486 ming so'mga kamaygan. Bu omil korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligini 0,1573 % ga kamaytirib yuborgan:

$$5,1587 - 5,3160 = 0,1573\ \%.$$

3. Uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan jalb qilingan mablag'larga nisbatani 0,0155 koeffitsientga kamaygan. Bu omil ta'sirida tahlil qilinayotgan natija ko'rsatkichi 0,0733 % ga kamaygan:

2.15-jadval

Korxona moliyaviy potensiali foydaliligi darajasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi ba'zi omillarning hisobot yilidagi hisob-kitobi

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+, −)	Indekslar	Natijani indeks o'zgarishi bilan hisoblab chiqish
1.	O'z mablag'lari foydaliligi,% (X_1)	8,614	11,519	+2,905	1,3372	3,9755 · 1,3372 = 5,3160
2.	Uzoq muddatli passivlarning o'z mablag'i bilan ta'minlanishi. ming so'm (X_2)	1,6440	1,5954	-0,0486	0,9704	5,3160 · 0,9704 = 5,1587
3.	Uzoq massivlarning qisqamuddatli chetdan jalb qilingan mablag 'larga nisbati, koeffitsientida(X_3)	1,0891	1,0736	-0,0155	0,9858	5,1587 · 0,9858 = 5,0864
4.	Qisqamuddatli chetdan jalb qilingan mablag 'larning moliyaviy potensialdagi hissasi, koeffitsientda(X4)	0,2578	0,2641	+0,0063	1,0244	5,0854 ·1,0244 = 5,2108
5.	Korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligi, % (U)	3,0398	5,2108	+2,1710	1,3107	X

$$5,0854 - 5,1587 = -0,0733\ \%.$$

4. Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning moliyaviy potensialidagi hissasi 0,0063 koeffitsientga oshgan. Bu omil moliyaviy potensial potensial foydaliligini 0,1254 % ga ko'paytirishga muvofiq bo'lgan:

$$5,2108 - 5,0854 = +0,1254\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri odatdagidek, natija ko'rsatkichining umumiy farqiga teng bo'ladi:

$$2,2762 - 0,1573 - 0,0733 + 0,1254 = +2,1710\ \%.$$

Ushbu omilli tahlil natijasi shuni ko'rsatdiki, korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligi oshgan bo'lishiga qaramasdan uni ko'paytirishning ichki imkoniyatlari ham mavjud ekan. Agarda hisobot yilida uzoq muddatli passivlarning o'z mablag'i bilan ta'minlanish darajasi hech bo'lmaganda

o'tgan yil darajasida qolganda edi tahlil qilinayotgan ko'rsatkich yana 0,1573 % ga, uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbatan kamayganda edi ushbu omil natija ko'rsatkichini yana 0,0733 % ga oshgan bo'lar edi. Shu imkoniyatlar safarbar qilinganda natija ko'rsatkichining umumiy hajmi hisobot yilida 5,2108 % emas balki 5,4414 % ni (5,2108 +0,1573 + 0,0733) tashkil qilgan bo'lar edi. U holda moliyaviy potensial foydaliligining o'sish sur'ati 171,4 foiz emas, balki 179,0 foizni [(5,4414 / 3,0398) . 100] tashkil qilgan bo'lar edi. Demak, tahlil qilinayotgan obyektda samaradorlikni oshirishning ichki imkoniyatlari mavjud ekan. Korxona rahbariyati kelajakda ushbu aniqlangan ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, ularni amaliyotga safarbar qilish yo'llarini ishlab chiqishi lozim.

Moliyaviy potensial samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning faqat bittasi bo'yicha omilli tahlil usulini ko'rsatildi. Bu usul boshqa ko'rsatkichlarni ham xuddi shunday tahlil qilish uchun metodologik asos bo'ladi. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichga batafsilroq to'xtalishga harakat qilindi. Tahlil jarayonida moliyaviy potensial samaradorligini ifodalovchi boshqa ko'rsatkichlarni ham xuddi shunday tahlil qilib tegishli xulosalarga kelish mumkin.

23-BOB. PUL MABLAG'LARI OQIMINING TAHLILI

23.1. Pul mablag'lari oqimi tushunchasi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar

Korxona moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan pul mablag'lari mavjudligi va ularning harakatiga bog'liq bo'ladi.

Pul bo'lmasa yoki u yetishmasa, korxona sotib olingan tovarlar uchun ularni yetkazib beruvchilar bilan, soliqlar bo'yicha budjet bilan, mehnat haqi to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitob qila olmaydi. Bularning barchasi kreditorlik qarzlarining ko'payishiga, jarimalarga, olingan kreditorlar uchun foizlar o'sishiga, har xil sanatsiyalarga, qisqasi, to'lov qobiliyati yomonlashuviga olib keladi.

Ko'pincha rahbarlar daromad va ko'p miqdorda foyda olinayotgan bo'lishiga qaramay, mahsulot yetkazib beruvchilar va kreditorlar bilan hisob-kitob qila olmasliklari yoki zarur uskunalarni sotib ololmasliklari sababini tushunmaydilar. Asosiy sabab shundaki, yozilgan va amalda kelib tushgan daromadlar bilan yozilgan va amalda qilingan xarajatlar o'rtasida farq bo'ladi.

Foyda, rentabellik, to'lanayotgan soliqlarning katta qismi daromadlar hajmiga qarab hisoblab chiqariladi. Olingan foydadan esa faqat pul mablag'lari mavjud bo'lsagina amalda foydalanish mumkin bo'ladi.

Shu munosabat bilan, menejerlarni yozilgan daromadlardan ko'ra, korxona schyotiga amalda qancha mablag' kelib tushganligi va uni sarflash mumkinligi, ya'ni pul mablag'lari oqimi ko'proq qiziqtiradi. Pul mablag'lari oqimini bilish uchun rahbar «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da keltirilgan ma'lumotlarni o'qiy olishi, pul tushadigan manbalarni belgilay olishi hamda ulardan qay tarzda samarali foydalanishni bilishi kerak.

Korxona rahbari, «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da (4-shakl) aks ettiriladigan pul oqimlari bilan korxonaning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da (2-shakl) aks ettiriladigan daromadlar va xarajatlar hamda tayyor mahsulot qoldiqlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari aks ettiriladigan buxgalteriya balansi ma'lumotlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni bilishi kerak.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda pul mablag'larining tushishi, sarflanishi hamda yil boshi va oxiridagi qoldiqlari, shuningdek, investitsiya hamda moliya faoliyatidan keladigan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Ushbu oqimga pul mablag'lari so'mlarda va valutada kiritiladi. Shu sababli, «Pul oqimlari to'g'risdiagi hisobot»da (4-shakl – bundan keyin 4-Sh deb yuritiladi) maxsus «Valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma» mavjud bo'lib, unda davr boshi va oxiridagi valuta

mablag'lari qoldig'i hamda ularning kelib tushgan va sarflangan summasi ko'rsatiladi.

Investorlar, kreditorlar va aksiyadorlar mana shu hisobot asosida korxonalar rahbarlarining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini generatsiyalash, ya'ni ishlab topish va to'plash, shuningdek, xo'jalik faoliyatida samarali ishlatish qobiliyatini aniqlashi mumkin.

Moliyaviy ahvol ko'p jihatdan korxonaning real pul aylanmasiga bog'liq bo'ladi. Korxona ishi samaradorligi, yaxshi moliyaviy ahvoli pul mablag'lari o'z vaqtida va to'liq hajmda tushishi hamda to'lanishining natijasi bo'lishi mumkin.

Pul mablag'lari oqimini o'rganish chog'ida foydalaniladigan asosiy atamalar quyidagilardir:

* pul mablag'lari – kassadagi naqd pul va talab qilib olunguncha saqlanadigan depozitlar, shuningdek, bank hisob-kitob, valuta va boshqa schyotlaridagi mablag'lardir;

* pul ekvivalentlari – qisqa muddatli likvidli investitsiyalar, pul mablag'lari qiymati o'zgarishidan iborat ozgina xatarga uchrashi mumkin bo'lgan erkin aylantiriladigan pul mablag'lari summalaridir;

* pul oqimlari – pulning va pul mablag'larining hamda so'mlar va valutadagi boshqa ekvivalentlarning qo'shilishi (tushumi) va chiqib ketishi (kamayishidir);

* operatsiya faoliyati – korxonaning daromad keltiradigan xo'jalik faoliyati bo'lib, investitsiya va moliya faoliyati bundan mustasnodir;

* investisiya faoliyati – uzoq muddatli aktivlarni va pul ekvivalentlariga kiritilmagan boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotishdir;

* moliyaviy faoliyat – xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z sarmoyasi va qarzga olingan mablag'lar miqdori hamda tarkibi o'zgaradi.

Pul mablag'lari oqimini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardir:

* pul mablag'lari tushumi va xarajatlari summasi;

* tushgan va sarflangan pul mablag'lari tarkibi;

* tushgan va sarflangan pul mablag'lari o'rtasidagi saldo;

* tushgan va sarflangan pul mablag'larining nisbati koeffitsienti (pul mablag'lari oqimi koeffitsienti);

* daromadlar va pul mablag'lari tushushining, xarajatlar va ular bo'yicha amalda to'langan pul mablag'lari nisbati koeffitsienti.

Yuqorida qayd etilganidek, pul mablag'lari oqimini o'rganishning asosiy manbalari moliyaviy hisobot, ya'ni 4-sh.dir. Ushbu hisobotda barcha pul oqimlari to'rt guruhga: xo'jalik, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyatdan keladigan va soliqqa tortishdan keladigan pul oqimlariga bo'linadi. Xalqaro standartlarda pul oqimlari uch guruhga: asosiy xo'jalik (operatsiya) faoliyatidan, investitsiya faoliyati va soliyaviy faoliyatdan tushadigan pul oqimlariga bo'lingan. To'langan soliqlar asosiy faoliyat xarajatlari sifatida kiritiladi.

Asosiy xo'jalik (operatsiya) faoliyatidan tushadigan pul oqimlari jumlasiga quyidagilar kiradi: xaridorlardan olingan pullar; boshqa pul to'lovlari va tushumlari; mahsulot yetkazib beruvchilarga, xizmatchilarga va xizmatchilar nomidan to'langan pullar; to'langan foizlar; to'langan foyda (daromad) solig'i; to'langan boshqa soliqlar.

Investitsiya faoliyatidan keladigan pul oqimlariga quyidagilar kiradi: nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish; uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olish va sotish; uzoq muddatli va qisqa muddatli omonatlar va xaridlar; olingan va to'langan dividendlar.

Moliyaviy faoliyatdan keladigan pul oqimlariga quyidagilar kiradi: sarmoyaga aksiyalar chiqarishdan keladigan tushumlar; uzoq muddatli va qisqa muddatli zayom (qarz)lardan tushumlar; ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar va to'lovlar.

Pul mablag'lari oqimini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$PMQ_{boshlang'ich} + PMT = PMX + PMQ_{oxir}.$$

Bunda: $PMQ_{boshlang'ich}$ – boshlang'ich davrdagi pul mablag'lari qoldig'i;

PMT – pul mablag'lari tushumi;

PMX – pul mablag'lari xarajati (kamayishi);

PMQ_{oxir} – davr oxiridagi pul mablag'lari qoldig'i.

Pul mablag'lari korxonada doimiy ravishda harakatda bo'ladi. Bir qismi uzluksiz tushib tursa, ikkinchidan doimiy ravishda sarf qilinib, ishlatilib turiladi. Bozor munosabatlari sharoitida bu harakatlarni tahlil qilish o'ta muhim hisoblanadi.

23.2. Pul mablag'lari tushumini tahlil qilish

Pul mablag'lari oqimlarida ularning tushumi alohida ahamiyatga ega. Bularning tarkibiga quyidagilar kiradi.

Xaridorlardan olingan pullar – hisobot davrida korxonaning bank schyotlariga tushgan yoki jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar evaziga veksellar tarzida kelib tushgan mablag'lar summasidir. Bu summa 4-sh moliyaviy hisobotda va Sh.1-f statistika hisoboti 048 satrida ko'rsatiladi.

Boshqa pul tushumlari – royaltidan olingan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, turlicha haq to'lashlardan, vositachilik yig'imlari va boshqa daromadlardan olingan pul mablag'lari summasidir (4-sh, 013-satr, Sh.1-sh 070-satr).

Royalti – yer osti boyliklarini qaziganlik, asosiy va nomoddiy aktivlardan foydalanganlik uchun ijara haqi sifatida olingan dividend turlaridan biridir. Bunga mualliflik qalam haqlari kabi tushumlar ham kiradi.

Olingan foizlar – berilgan va bank schyotiga korxonalar kassasiga kelib tushgan kreditlar va qarzlar uchun olingan summadir. Bu kredit va qarzlar 80-4-raqamli «Moliyaviy faoliyatdan ko'riladigan foyda va zararlar» degan schyotga yozib qo'yiladi (4-sh, 020-satr, Sh. 1-sh, 065-satr).

Olingan dividendlar – pul mablag'lari tarzida ham, ularning qimmatli qog'ozlari shaklidagi ekvivalentlari tarzida ham olingan dividendlar summasidir (4-sh. 022-satr, Sh. 1-sh, 064-satr).

Nomoddiy aktivlarni sotish – materiallarni sotishdan emas, balki boshqa faoliyat turiga kiruvchi korxonaning nomoddiy aktivlarini sotishdan tushgan mablag'lar summasidir (shu jumladan, egri soliqlar summasi), (4-sh, 040-satr).

Uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotish – materiallarni sotish emas, balki korxonaning uzoq muddatli moddiy aktivlarini sotishdan tushgan mablag'lar summasidir (shu jumladan, egri soliqlar summasi) (4-sh, 041-satr).

Uzoq muddatli va qisqa muddatga solingan mablag'lardan tushumlar – korxonaning o'zi emissiya qilmagan qog'ozlarni sotganlik uchun tushgan mablag'lar summasi, shuningdek, banklar va boshqa yuridik shaxslarning qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlari va zayomlaridir (4-sh, 042-satr).

Sarmoya ustidan aksiyalar chiqarishdan kelgan tushumlar – hisobot davrida sotib olingan aksiyalar uchun aksiyadorlardan tushgan pul mablag'lari summasidir (4-sh. 050-satr).

Uzoq muddatli va qisqa muddatli zayomlardan kelgan tushumlar – hisobot davrida tushgan kreditlar va zayomlardan iborat pul mablag'laridir (4-sh, 051-satr).

Ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar – ijarachilardan tushgan pul mablag'lari va ekvivalentlari summasi (4-sh, 052-satr).

Yuqorida sanab o'tilgan tushumlar korxona ixtiyoriga amalda kelib tushgan mablag'larning summasidir. Ularni korxonaning daromad summasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Daromad summasi korxonaning daromadiga yozilgan bo'ladi.

Tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichlar summasi va ulushining hisobot davridagi o'zgarishi va bu o'zgarishning sabablari aniqlanadi. Pul oqimlarining ijobiy yoki salbiy tarafga o'zgarganligini aniqlab tegishli xulosalar chiqariladi va ularni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi.

23.3. Pul mablag'larining chiqib ketishini tahlil qilish

Hisobot davrida turli operatsiyalarni qoplashga sarflanadigan pul mablag'lari pul mablag'larining chiqib ketishi deb aytaladi. Bularga quyidagilar kiradi:

Mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan pul – mahsulot yetkazib beruvchilarga moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to'langan pul mablag'lari va berilgan veksellar summasi (nomoddiy va uzoq muddatli moddiy aktivlarni

sotib olganlik uchun to'lovlar bunga kirmaydi) bo'lib, uning to'lanishi 040 va 041-satrlarda aks ettiriladi (Sh.1 1-f, 011-satr, 1-sh Sh, 077-satr).

Xizmatchilarga va xizmatchilar nomidan to'langan pullar – ish haqi, mukofot, shuningdek, turli fondlar: pensiya, ish bilan bandlik, shaxsiy va ijtimoiy sug'urta hamda ta'minot fondlariga to'langan pul mablag'lari summasi, budjetga daromad solig'i, alimentlar, uy-joy fondiga, banklarning kreditlari uchun xodimlarga berilgan to'lovlar; korxonaning xodimlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar haqini to'lashi va kassadan hamda bank schyotlaridan xarajat qilingan boshqa pul mablag'lari.

Boshqa pul to'lovlari – royaltidan to'langan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, turlicha to'lovlar, savdo va dillerlik maqsadlari bo'yicha tuziladigan bitimlar yuzasidan to'lanadigan vositachilik haqlari, konvertatsiyalarni amlaga oshiriganlik uchun bankka to'lanadigan vositachilik haqi va shu kabilar (4-sh, 013-satr).

To'langan foizlar – banklarning kreditlaridan va zayomlardan hamda boshqa yuridik shaxslar mablag'laridan foydalanganlik uchun to'langan foizlar summasi (4-sh, 021-satr, Sh. 1-sh, 110 va 111-satrlar). To'langan dvidendlar – ham pul mablag'lari tarzida, ham ekvivalentlar tarzida to'langan dividendlar summalaridir (4-sh, 023-satr, Sh. 1-sh, 108-satr). To'langan daromad (foyda) solig'i – foyda (daromad)dan to'langan soliq summasi (4-sh, 030-satr, Sh. 1-sh, 124-satr).

Boshqa to'langan soliqlar – to'langan barcha soliqlar, poshlinalar va ularga tenglashtirilgan yig'im hamda ajratmalar summasi foyda va daromad solig'i bunga kirmaydi (4-sh, 031-satr, Sh. 1-sh, 139-satr minus 124-satr va 132-satr).

Moddiy aktivlarni sotib olish – nomoddiy aktivlarni sotib olganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchiga to'langan (shu jumladan, oldindan haq to'lash tarzida) pul mablag'lari va ekvivalentlar summasi (4-sh. 040-satr, Sh. 1-sh, 086-satr).

Uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olish – uzoq muddatli moddiy aktivlar – ko'chmasmulk, binolar, inshootlar va asosiy vositalarning boshqa turlarini sotib olganlik uchun to'langan pul mablag'lari va ekvivalentlar (shu jumladan, oldindan haq to'lash tarzida) summasi (4-sh, 041-satr). Uzoq muddatga va qisqa muddatga solingan mablag'lar – qimmatli qog'ozlarni sotib olganlik uchun to'langan pul mablag'lari, shu jumladan, vositachilarga to'langan haq va birja foizlari, shuningdek, tajriba-konstruktorlik ishlari uchun kapitallashtirligan xarajatlar bilan bog'liq to'lovlar (4-sh, 042-satr).

Ijara majburiyatlari bo'yicha to'lovlar – moddiy aktivlarni ijaraga olganlik uchun ijaraga beruvchiga to'langan pul mablag'lari va ekvivalentlari summasi (4-sh, 052-satr), Sh. 1-sh, 103-satr).

Xorijiy valutadagi operatsiyalardan keladigan pul oqimlari operatsiyalar amalga oshirilgan sanaga Markaziy bank tomonidan belgilangan almashuv

kursi bo'yicha O'zbekiston respublikasi valutasida aks ettiriladi, valuta mablag'larining qoldig'i esa moliyaviy hisobot tuzilgan sanadagi almashuv kursi bo'yicha aks ettiriladi.

Hisobot yilidagi pul mablag'larini tahlil qilish chog'ida pul mablag'larining tushumi va kamayish summasi va tuzilishini ularning turlari bo'yicha aniqlash zarur. Pul mablag'larining kirimi va xarajatini taqqoslash uchun 23.1-jadval tuziladi.

23.1-jadval

«Turon» OTAJning hisobot yilidagi pul mablag'lari oqimini baholash hisob-kitobi (ming so'm)

Pul oqimi koeffitsienti nomi	Pul oqimi						Pul oqimi koeffitsienti miqdori
	Kirim		Chiqim		Farqi		
	summasi	salmog'i	summasi	salmog'i	summasi	salmog'i	
Asosiy faoliyatdan	19962,6	99,6	20026,9	99,7	-64,3	-01	0,99
Investitsiya faoliyatidan	38,7	0,2	35,4	0,2	+3,3	–	1,09
Moliyaviy faoliyatdan	35,7	0,2	21,7	0,1	+14,0	0,1	1,64
Butun xo'jalik faoliyatidan	20037,0	100	20084,0	100	-47,0	–	0,99

Kirimning chiqimlardan ortiq bo'lishi korxona barqaror ishlaganligini, to'lov qobiliyati yaxshilanganligini va uning pul mablag'lari ko'payganligini ko'rsatadi.

Lekin yuqorida keltirilgan misolda chiqim pul mablag'lari tushumi summasidan 47,0 ming so'm ortiq bo'lib, u pul qoldiqlarining kamayishiga ta'sir ko'rsatadi. Buni buxgalteriya balansidan ko'rish mumkin. U yerda pul mablag'lari yil oxirida 47,0 ming so'mga kamaygan.

Pul oqimi tarkibiga qarab, pul mablag'lari tushumi va chiqimining asosiy manbayi: operatsiya, investitsiya, moliya faoliyati kabi yo'nalishlarda aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan misolda pul mablag'larining kelishi va sarflanishi, asosan, korxona operatsiya faoliyatiga, ya'ni asosiy faoliyatiga to'g'ri keladi. Uning ulushi 99,7 % ni tashkil qiladi.

Pul mablag'lari oqimini baholash ham pul mablag'lari oqimi koeffitsientlari asosida: umuman xo'jalik faoliyati asosiy, investitsiya va moliya faoliyati tarzida amalga oshiriladi.

Pul mablag'lari oqimining koeffitsientlari har bir ko'rsatkich bo'yicha pul oqimlari to'lovlardan qanchalik ko'p yoki kamligini ko'rsatadi. Ular pul mablag'lari tushumi summasining xarajat summasiga nisbati sifatida hisoblanadi. Pul mablag'lari oqimini o'rganganda yozilgan daromadlar va xarajatlar summasini amalda tushgan va to'langan pul mablag'lari bilan taqqoslash zarur.

Korxonalar rahbarlari ishlab topilgan daromad ham real bo'lmasligini, yozilgan xarajat esa haqiqatdan ham to'langan bo'lmasligini nazarda tutishlari kerak. Daromad ishlab topilgan vaqtda, ya'ni sotuvchi daromadni pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari egasiga aylanishidan oldin tan olganida hisobga olinadi.

Moliyaviy hisob konsepsiyalarida hisoblab yozish va muvofiqlik tamoyillari amal qiladi. Bu tamoyillarga ko'ra, daromadlar tovarlar sotilgan yoki xizmatlar ko'rsatilgan paytda, pul mablag'larini olish vaqtidan qat'i nazar e'tirof etiladi.

Xarajatlar, pul mablag'lari qachon to'lanishidan qat'i nazar xarajatlar bilan bog'liq daromad e'tirof etilgan paytda tan olinadi. Amalda daromadni yozish bilan pul mablag'larining tushushi o'rtasida, xarajat qilish bilan operatsiya uchun pulni o'tkazish (haqni to'lash) o'rtasida ko'pincha nomuvofiqlik bo'ladi.

Yozilgan daromad va xarajatga qarab, olingan foyda va to'lanadigan soliqlar miqdorlari aniqlanadi. Biroq mana shu daromad pul mablag'lari shaklida yaqin vaqt ichida amalda kelib tushmasligi ham mumkin.

Mahsulot sotishdan keladigan sof tushumni (2-sh, 050-satr) xaridorlardan olingan pullar bilan (2-sh, 010-satr) taqqoslash asosida mahsulot sotishning debitorlik qarzi ko'payishi yoki kamayishiga ta'siri belgilanadi (1-sh, 220, 440, va 450-satrlar). Masalan, hisobot yilida tovarlarni sof holda sotish summasi hisobot bo'yicha 200 mln. sumni tashkil etgan. Aslida esa xaridorlardan 180 mln. so'm pul mablag'i tushgan, ya'ni sotilgan tovarlar uchun xaridorlardan 20 mln. so'm kam kelgan. Mana shuncha summaga debitorlik qarzi ko'paygan. Bunday holda daromadlar tushish koeffitsienti 0,90 (180/200)ni tashkil etadi.

«Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» degan 60-schyot krediti bo'yicha Asosiy daftar ma'lumotlarini, ya'ni sotib olingan tovarlar uchun mahsulot yetkazib beruvchilarga qarzning yozilgan summasi bilan mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan summani (4-sh, 011-satr) taqqoslash kreditor-lik qarzi ko'paygani yoki kamayganini ko'rsatadi (1-sh, 450-satr).

«Shu'ba va assosiasiyalashgan korxonalardan olingan dvidendlar», «Olingan boshqa dvidendlar» ma'lumotlarining (2-sh, 120 va 125-satrlar) «Olingan dividendlar» ma'lumotlari bilan (4-sh, 022-satr) farq qilishi debitorlik (1-sh, 260, 270-satrlar) va kreditorlik (1-Sh, 510-520-satrlar) qarzlari ko'payishi yoki kamayishni qayd etadi.

«Olingan va shu'ba hamda uyushgan korxonalarga berilgan qarzlar bo'yicha foizlar», «To'langan va olingan boshqa foizlar» ma'lumotlarining (2-sh, 130 va 135-satrlar) «Olingan foizlar» (4-sh, 020-satr) va to'langan foizlar (4-sh, 021-satr) ma'lumotlari bilan farq qilishi debitorlik (1-Sh, 260 va 270-satrlar) va kreditorlik (Sh. 1, 510 va 520-satrlar) qarzlari ko'payganligi yoki kamayganligini ko'rsatadi.

Pul oqimlari o'zgarishi tamoyillarini, ularning korxona moliyaviy ahvoliga ta'sirini aniqlash, shuningdek, pul mablag'lari oqimini oldindan bilish uchun oxirgi bir necha yil ichida pul mablag'lari oqimining oldindan bilish uchun oxirgi bir necha yil ichida pul mablag'lari oqimining summasi, tuzilishi va koeffitsienti o'zgarishini o'rganish zarur.

Bunday qilib, pul mablag'larini ishlab chiqarishni kengaytirishga jalb etish istiqbollarini belgilash va kutilmaganda yuz berishi mumkin bo'lgan noqulay vaziyatlarni oldindan nazarda tutish imkonini beradi. Bu hol korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash sohasida rahbariyat strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish imkonini beradi.

24-Bob. KORXONADA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI TAHLIL QILISH USULLARI

24.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish yo'llari

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini o'rganish va tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qilamiz:

1. Debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy summasi;
2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibiy tuzilishi;
3. Sarmoyani immoblizatsiyalash koeffitsienti;
4. Aylanma mablag'larni immoblizatsiyalash koeffitsienti;
5. Jalb etilgan mablag'lar koeffitsienti;
6. Debitorlik va kreditorlik qarzlari o'zaro nisbatining koeffitsienti;
7. Muddati o'tgan debitorlik qarzi koeffitsienti;
8. Muddati o'tgan kreditorlik qarzi koeffitsienti.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy summasi. Ushbu ma'lumotlar «Buxgalteriya balansi» 1-shakl va «Debitorlik va kreditorlik qarzi to'g'risidagi ma'lumotnoma» 2a-shakl hisobotlaridan olinadi.

Debitorlik qarzi balans aktivining 2-bo'limida 220–290-satrlarida aks ettiriladi. Kreditorlik qarzi balans passivining 2-bo'limida 450–530-satrlarida aks ettiriladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari summasiga qarab, ularning ma'lum davrdagi ko'payishi va kamayishi aniqlanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, har qanday ko'payish ham moliyaviy ahvolning yomonlashuvi bo'lavermaydi. Buning uchun debitorlik va kreditorlik qarzlarining o'sish sur'atini mahsulot sotish hajmining o'sish sur'ati bilan taqqoslash zarur. Agar debitorlik qarzining o'sish sur'ati mahsulot sotish hajmining o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, bu hol xaridorlar va buyurtmachilarning to'lovga qobiliyatsizligidan darak beradi, agar kreditorlik qarzining o'sish sur'ati mahsulot sotish hajmining o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, bu hol ushbu korxona to'lovga qobiliyatsizligiga, u mahsulot yetkazib beruvchilar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qila olmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tuzilishi har bir tur qarzlarning umumiy summasida qancha foizni tashkil etishi bilan ifodalanadi.

Ushbu ko'rsatkich asosida debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy summasida har bir turning ulushi aniqlanadi. Bu ulush korxonaning hisob-kitob-to'lov intizomiga va taraflardan har qaysisining shartnoma majburiyatlarini bajarish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlariga alohida e'tibor berish kerak. Ularning o'sishi korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashib borayotganligini ko'rsatadi. Bu holatni aniqlash uchun 24.1-jadval ma'lumotlaridan

ko'rinib turibdiki, debitorlik qarzi bir yilda 1382 ming so'm ko'payib, 3631 ming so'mni tashkil etgan kreditorlik qarzi esa 85 ming so'm ko'payib 6014ming so'mni tashkil etgan. Kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan 2383 ming so'm ko'p. Biroq, debitorlik qarzining o'sish sur'ati 161,4 foizga, kreditorlik qarzining o'sish sur'ati esa 101,4 foizga teng.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari tuzilishida ham o'zgarishlar yuz bergan.

Debitorlik qarzida xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi 4,1 foiz ko'payib, boshqa debitorlar va budjetga qarzlar kamaygan. Kreditorlik qarzi tarkibida mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlarga qarz ko'paygan. Budjetga qarz ancha kamaygan – 11,8 foiz.

Yil davomida xaridorlar va buyurtmachilar hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik qarzining o'sish sur'ati (173,4 foiz) mahsulot sotish hajmining o'sish sur'atiga nisbatan yuqori (165,4 foiz) bo'lgan. Bu esa muddati o'tgan debitorlik qarzining o'sish sabablaridan biri bo'lgan.

Hisobot yilida debitorlik qarzi ozgina kamaygani holda, muddati o'tgan debitorlik qarzi summasi o'sgan. Chunonchi, muddati o'tgan debitorlik qarzi butun qarz summasining 65,6 foizini, muddati o'tgan kreditorlik qarzi esa 42,1 foizini tashkil etadi. Bu hol korxonaning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi: likvidlilik, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlik darajasi pasayadi, foyda summasi va rentabellik darajasi kamayadi.

Sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsienti ($K_{s.im.}$) xo'jalik mablag'lari umumiy summasida debitorlik qarzining ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{s.im.} = \frac{Deb.qarz}{S}$$

Bunda: $D_{eb.qarz}$ – debitorlik qarzi;

S – xo'jalik mablag'lari (sarmoya)ning umumiy summasi.

Ushbu koeffitsient qancha katta bo'lsa, umumiy sarmoya summasidan shuncha ko'p mablag' debitorlik qarziga jalb etiladi va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar qo'lida bo'ladi. Aylanma mablag'larni immobilizatsiyalash koeffitsienti (Ayl.$K_{mab.im.}$) debitorlik qarzining aylanma mablag'lardagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ayl._{K mab.im.} = \frac{D_{eb.qarz}}{A_{yl.mab.}}$$

bunda: Ayl.mab. – aylanma mablag'lar summasi.

Ushbu koeffitsient qancha yuqori bo'lsa, shuncha ko'p aylanma mablag' aylanishdan debitorlik qarzlariga jalb etilgan bo'ladi va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'ladi.

Jalb etilgan mablag'lar koeffitsienti ($K_{j.m.}$) kreditorlik qarzining xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

24.1-jadval

Korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlari summasi va tuzilishidagi o'zgarishlarning hisob-kitobi (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida		Farqi (+, -)		O'zgarish sur'ati, %
	summa	ulushi, %	summa	ulushi, %	summa	ulushi, %	
Debitorlar Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar	1224	54,5	2123	58,5	+899	+4,1	173,4
Budjet bilan hisob-kitoblar	51	2,3	42	1,2	-9	-1,1	80,8
Xodimlar bilan hisob-kitoblar	-	-	1	-	-	-	-
Boshqa debitorlar	974	43,3	1465	40,3	+491	-3,0	150,9
Jami	2249	100	3631	100	+1382	-	161,4
Shu jumladan: muddati o'tgan debitorlar	1850	82,3	2382	65,6	+532	16,7	128,8
Hammasi	4938,3	90	5830,0	94,3	+891,7		+4,3
Kreditorlar Mahsulot yetkazib beruvchilar	2244	37,8	2511	41,8	+267	+4,0	111,9
Budjetga qarz	3342	56,4	2685	44,6	-657	-11,8	80,3
Mehnat, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot bo'yicha qarzlar	202	3,4	220	3,7	+18	+0,3	108,9
Boshqa kreditorlar	141	2,4	598	9,9	+457	+7,5	424,1
Jami	5929	100	6014	100	+85	-	101,4
Shu jumladan: muddati o'tgan kreditorlar	2650	44,7	2534	42,1	-116	-2,6	95,6
Bir yildagi sof sotilgan mahsulot	9951,0	-	16428		+6477	-	165,1
Tayyor mahsulotning chiqib ketishi	1611	-	4089	-	+2478	-	253,8

$$K_{j.m.} = \frac{K_{red.qarz}}{S},$$

bunda: $K_{red.qarz}$ – muayyan sanadagi kreditorlik qarzi summasi.

Koeffisient oshib borgan sari kreditorlik qarzining korxona umumiy xo'jalik mablag'lari summasidagi salmog'i ham oshib boradi va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarning aylanmaga jalb etilgan mablag'lari ko'payishidan dalolat beradi. Ushbu koeffitsientdan kreditorlik qarzini tahlil qilish chog'ida foydalaniladi. Agar mablag'lar manbalari tahlil qilinayotgan bo'lsa, jalb etilgan mablag'lar koeffitsientini quyidagi formula bo'yicha hisoblash zarur:

$$K_{j.m.} = \frac{P2B}{S},$$

bunda: P2B – balans passivi 2-bo'limining jami.

U jalb etilgan mablag'larning xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushini ko'rsatadi.

Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti ($K_{kr.deb.n.}$) kreditorlik qarzining debitorlik qarzidagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{kr.deb.n.} = \frac{Kred.qarz}{Deb.qarz}.$$

Agar ushbu koeffitsient 1,0 dan ko'p bo'lsa, u kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan oshib ketganligini, ya'ni xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi jalb etilgan mablag'lar boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qo'lidagi mablag'lardan ortiq ekanligini ko'rsatadi va aksincha. Agar bu koeffitsient 1,0 dan kam bo'lsa – boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan mablag'lar jalb etilgan mablag'lardan ortiq ekanligini ko'rsatadi.

Muddati o'tgan debitorlik qarzi koeffitsienti ($K_{mud.d.k.}$) debitorlik qarzida uning muddati o'tgan qismi qanday ulushga egaligini ko'rsatadi va quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$K_{mud.d.q.} = \frac{M_{ud.deb.q.}}{D_{eb.qarz}}.$$

Bunda: $M_{ud.deb.q.}$ – muddati o'tgan debitorlik qarzi summasi.

Ushbu koeffitsientning ortib borishi qarzlarni undirishdagi mavjud kamchiliklarni, moliyaviy ahvol, buyurtmachilar, xaridorlar tomonidan hisob-kitob-to'lov intizomi buzilayotganligi kabi salbiy jarayonlarni ko'rsatadi.

Muddati o'tgan kreditorlik qarzi koeffitsienti ($K_{mud.kr.q.}$) kreditorlik qarzida uning muddati o'tgan qismi qanday ulushga egaligini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{mud.kr.q.} = \frac{M_{ud.kred.q}}{K_{red.qarz}},$$

Bunda: $M_{ud.kred.q}$ – muddati o'tgan kreditorlik qarzi summasi.

Bu koeffitsientning ortishi hisob-kitob to'lov intizomida kamchiliklar mavjudligini, korxonaning moliyaviy ahvoli yomonligini, uning nolikvidliligi va to'lovga qobiliyatsizligini ko'rsatadi.

Ushbu ko'rsatkichlarning holatini tahlil qilish uchun 24.2-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, hisobot yilida o'z mablag'lar aylanishdan chiqarib olingan, ya'ni mablag'lar immobilizatsiyasi o'sgan. Sarmoya, aylanma mablag'lar va o'z sarmoyasining immobilizatsiyalashish koeffitsientlari o'sgan. Jalb etilgan mablag'lar koeffitsienti pasaygan, ya'ni korxona xo'jalik mablag'lari umumiy so'mmasidagi kreditorlik qarzi ulushini kamaytirgan. Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti ham shundan dalolat beradi. Yil boshida kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan 2,64 barobar, yil oxirida 1,66 barobar ortiq bo'lgan, ya'ni 0,98 barobar pasaygan. Bundan tashqari, debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy summalarida muddati o'tgan debitorlik (66 foiz) va kreditorlik (42 foiz) qarzlarining ulushi yuqoriligi qayd etiladi.

Bularning barchasi korxonaning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korxona rahbarlari muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini tugatish, shuningdek, mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitob-to'lov intizomini yaxshilash uchun hamma choralarni ko'rishi, budjetga soliqlarni o'z vaqtida va to'la hajmda to'lashi kerak.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining har bir turi bo'yicha ularning kelib chiqish sabablarini, bu mablag'larni qaytarish imkoniyatini aniqlash, ularni kamaytirish yuzasidan aniq tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining ahvolini yaxshilashning asosiy yo'llari quyidagilardir:

- zarur mahsulotni yetkazib berish va xarid qilish shartnomalarini o'z vaqtida va to'g'ri tuzish;
- hisob-kitob-to'lov hujjatlarini o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish;
- mahsulot yetkazib berish va sotishni vaqtida hisob-kitob qilib borish;
- mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridor korxonalarining moliyaviy ahvolini o'rganish;
- mahsulot hajmini oshirish va sifatini yaxshilash;
- mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish;

24.2-jadval

Korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlarining ahvolini baholash

Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+,−)
Sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsiyenti	0,08	0,12	0,04
Aylanma mablag'larni immobilizatsiyalash koeffitsienti	0,16	0,22	0,06
O'z mablag'ini immobilizatsiyalash koeffitsienti	0,11	0,17	0,06
Jalb etilgan mablag'lar koeffitsienti	0,22	0,20	-0,02
Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti	2,64	1,66	-0,98
Muddati o'tgan debitorlik qarzining koeffitsienti	0,82	0,66	-0,16
Muddati o'tgan kreditorlik qarzining koeffitsienti	0,45	0,42	-0,03
Debitorlik qarzi, ming so'm	2249	3631	+1382
Shu jumladan: muddati o'tgan qarz	1850	2382	+532
Kreditorlik qarzi, ming so'm	5929	6014	+85
Shu jumladan: muddati o'tgan qarz	2650	2534	-116

- korxona buxgalterlari, iqtisodchilari va moliya xizmatlari xodimlarining malakasini muntazam ravishda oshirib borish;
- korxonalarning moliyaviy ahvolini o'z vaqtida tahlil qilish hamda ularning natijalarini menejerlarga taqdim etish.

Har bir korxona rahbari debitorlik va kreditorlik qarzlari holati faqat shu korxonaning emas, balki unga hamkor korxonalar va umuman butun respublika iqtisodiyotining moliyaviy ahvoliga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri ekanligini doimo nazarda tutishi kerak.

25-bob. KORXONANING MOLIYAVIY NATIJALARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH MUAMMOLARI

25.1. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning vazifalari va ma'lumotlar manbayi

Moliyaviy natijalar tahlili moliyaviy tahlilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mavzuni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya'ni foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlari o'rganiladi. Ammo ushbu ko'rsatkichlar bozor munosabatlari sharoitida bir qancha omillar ta'sirida, ko'pgina manbalar hisobidan shakllanadi. Shu tufayli, korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ko'lami ancha kengaygan.

Moliyaviy natijalarni tahlil qilish, eng avvalo, sotilgan mahsulotni o'rganishdan boshlanadi. Barcha xarajatlarni qoplab daromad olishni ta'minlaydigan ko'rsatkich bu sotilgan mahsulot uchun tushgan pul tushumidir. Undan qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlarni to'lab, sof tushumni aniqlash mumkin. Demak, moliyaviy natijalarning asosiy manbasi, bu sotishdan tushgan tushumdir. Shu tufayli ushbu ko'rsatkich moliyaviy natijalar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida qaralishi lozim.

Navbatdagi bajariladigan amal sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijani aniqlashdan iboratdir. Buning uchun sotishdan olingan sof tushumdan uning ishlab chiqarish tannarxini ayirish kifoya. Demak, moliyaviy natijalar tarkibida mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarish xarajatlari ham ifodalanadi. Lekin ushbu ko'rsatkich tahlilda moliyaviy natijalarga ta'sir qiluvchi omillar sifatida qaraladi.

Korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibida sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olinadigan daromadlari va qilinadigan xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlari ham mavjud. Ushbu xarajat (daromad)lar sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijadan chegirilib asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasini keltirib chiqarish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, ko'rsatkichlarning ko'lami kengayishi bilan ularga ta'sir qiluvchi omillar ham kengayib bormoqda. Demak, moliyaviy natijalarning shakllanishidagi o'zaro bog'liqlik ham murakkablashib bormoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy natijasi bevosita uning moliyaviy faoliyatiga ham bog'liq qolmoqda. Shu tufayli bir qancha ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlardir. Bular jumlasiga, uyushma va shu'ba korxonalaridan olingan dvidendlar, boshqa olingan dvidendlar, uyushma va shu'ba korxonalaridan olingan va berilgan qarzlar bo'yicha foizlar, boshqa to'langan va olingan foizlar, valuta kursi farqi, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromad va xarajatlar kiradi.

Ushbu ko'rsatkichlarni korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijalariga qo'shib korxona umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning to'rtinchisi bo'lib hisoblanadi.

Erkin iqtisodiyot sharoitida moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga favqulotda olinadigan foyda va to'lanadigan zararning ham bo'lishi mumkin ekan. Agar oldingi ko'rsatkichga ushbu omil ta'siri inobatga olinsa korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi navbatdagi ko'rsatkich — soliq to'langunga qadargi umumiy moliyaviy natija kelib chiqadi. Endi ular tarkibidan sof foydani aniqlab olish uchun mazkur ko'rsatkichdan daromad (foyda) solig'i hamda boshqa soliq va ajratmalarni ayirib tashlash lozim.

Ushbu jarayon har bir korxonaning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (OKUD bo'yicha 2-shakl)ida o'z aksini topadi. Shu tufayli moliyaviy natijalarni tahlil qilganda asosiy manba sifatida ushbu hisobot olinadi. Shu bilan birga tahlil jarayonida korxonaning «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma» (2a-shakl), «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma» (3-shakl), «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» (4-shakl), «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot» (5-shakl), «Moliyaviy-iqtisodiy holat bo'yicha ma'lumotnoma» (2b shaklga 1-ilova) kabi hisobotlari, ma'lumotlari va hisob-kitoblari qo'llaniladi.

Ushbu ma'lumotlardan korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish mumkin. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligi quyidagicha ifodalanadi:

Sotilgan mahsulot → **Daromad** → **Xarajat** → **Foyda** → **Rentabellik**

Tahlil jarayonida ushbu bog'liqlikning hamma tizimi o'rganiladi. Bu uning vazifasini to'g'ri belgilab olishni taqozo qiladi. Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish vazifasi quyidagilardan iborat:

- moliyaviy natijalarni ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarning to'g'ri aniqlanganligini tekshirish;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot davridagi o'zgarishiga baho berish;
- ushbu ko'rsatkichlarning har biriga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligini aniqlash va ularning sof foyda o'zgarishiga ta'sirini hisoblash;
- rentabellik ko'rsatkichlariga baho berish;
- uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- foyda va rentabellikni oshirishning ichki imkoniyatlarini axtarib topish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Ushbu vazifani bajarish korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlab olishni taqozo qiladi.

25.2. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi uning daromadlari, foydasi va rentabelligi bilan bog'liq ko'rsatkichlardir. Bular quyidagilardan iborat:

Daromadlar

1. Sotishdan olingan daromad.
2. Asosiy faoliyatdan olingan daromad.
3. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad.
4. Favqulotdagi (tasoddifiy) daromad.

Foyda turlari

1. Sotishdan olingan foyda.
2. Asosiy faoliyatdan olinadigan foyda (zarar).
3. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda (zarar).
4. Favqulotdagi (tasoddifiy) foyda (zarar).
5. Soliq to'langunga qadargi foyda.
6. Sof foyda

Rentabellik ko'rsatkichlari

1. Iqtisodiy salohiyat rentabelligi.
2. Oliyaviy salohiyat rentabelligi.
3. O'z mablag'lari rentabelligi.
4. Barcha aktivlar rentabelligi.
5. Xususiy kapital rentabelligi.
6. Sotilgan mahsulotning rentabelligi.
7. Aksiyaning rentabelligi.
8. Tahlil maqsadidan kelib chiqadigan boshqa rentabellik ko'rsatkichlari.

Ushbu chizmalardagi ko'rsatkichlarni moliyaviy hisobotning 2-shakliga «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ga asosan korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot yilidagi holatini aniqlash usullarini ko'rib chiqish mumkin:

Yamn (852,8) = St (5694,5) − Tn (4841,7)

Afmn (711,7) = Yamn (852,8) − Dx (98,3 + 80,0) + Bd (37,2)

Mfn (80,4) = Db 4,7 + Shk 2,9 − Btf 27,5 + Vkf 7,1 + Bmf 93,2

Yaf (800,4) = Afmn (711,7) + Mfn (80,4) + Tf (8,3)

Sf (496,2) = Yaf (800,4) − S (248,5 + 55,7)

Tmf (396,2) = Sf (496,2) − Dv (100,0)

Ushbu ko'rsatkichlarni korxonaning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotidan olish mumkin. Uning shakli 25.1-jadvalda keltirilgan.

25.1-jadval

Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot

Ko‘rsatkichlar	Satr raqamlari	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarur)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum	010	5728,6	x	6883,6	x
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	020	x	799,1	x	831,3
Aksizlar	030	x	346,2	x	357,8
Sotishdan olingan sof tushum (daromad) (010-020-030)	050	4583,3	x	5694,5	x
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi	060	x	3951,2	x	4841,7
Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija (050−060)	070	632,1		852,8	
Sotish xarajatlari	080	x	85,4	x	98,3
Ma’muriy xarajatlar	090	x	67,0	x	80,0
Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari va xarajatlari	100	31,3			
Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (foydayoki zarar) (070-080-090-100)	110	511,0		711,7	

25.1-jadvalning davomi

1	2	3	4	5	6
Uyushma va sho'ba korxonalaridan olingan dvidendlar	120		x		x
Boshqa olingan dvidentlar	125	3,5	x	4,7	x
Uyushma va sho'ba korxonalaridan olingan va berilgan qarzlar bo'yicha foizlar	130	4,2		2,9	
Boshqa to'langan va olingan foizlar	135		21,6		27,5
Valyuta kursi farqi	140	5,8		7,1	
Moliyaviy faoliyat bo'yichaboshqadaromadlar va xarajatlar	145	79,3		93,2	
Umum xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi (foyda vazarar) 110+125+130-135+140+145)	150	582,2		792,1	
Favqulotdagi (tasodifiy) foyda va zarar	160	11,4		8,3	
Soliq to'langan gaqadargi umumiy moliyaviy natija (foyda) (150+160)	170	593,6		800,4	
Foyda (daromada)dan soliq	180	x	200,0	x	248,5
Boshqa soliqlar, to'lovlar va ajratmalar	190	x	25,6	x	55,7
Hisobot davridagi sof foyda(170-180-190)	200		368,0	496,2	

Ushbu jadval ma'lumotlarida korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning ikki yilligi keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar mazkur ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlil jarayonida mazkur hisobot shakllarida keng foydalaniladi. Chunki korxonani boshqarish tahlil natijasida amalga oshirilganligi tufayli hisobotlarda ifodalanadigan ko'rsatkichlarning haqqoniy bo'lishini ta'minlash lozim. Shundagina ko'zlangan maqsadga o'z vaqtida erishiladi.

25.3. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar umumiy hajmining tahlili

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi daromadlar va foyda bilan bog'liq ko'rsatkichlarga hisobot bo'yicha 8 ta ko'rsatkich kiradi. Korxona moliyaviy natijalarini tahlil qilganda, eng avvalo, ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishini aniqlash lozim. Buning uchun 25.2-jadvalni tuzishni tavsiya qilish mumkin.

25.2-jadval

Korxonaning hisobot yilida olgan daromadlarini asosiy turlari bo'yicha tahlil qilish (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,−)	O'sish sur'ati, %
1.Mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan tushum (Yat)	5728,6	6883,6	+115,5	120,2
2.Sotishdan olingan sof tushum (daromad) (St)	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
3.Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija(Yamn)	632,1	852,8	+220,7	134,9
4.Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (foyda yoki zarar) (Afmn)	511,0	711,7	+200,7	140,6
5.Umumxo'jalik faoliyatning moliyaviy natijasi (Mfn)	582,2	792,1	+209,9	136,1
6.Favqulotdagi (tasod-difiy) foydava zarar (Tf)	11,4	8,3	-3,1	72,8
7.Soliq to'langangaqadargi umumiy foyda(5q+6q) (Yaf)	593,6	800,4	+206,8	134,8
8.Sof foyda(Sf)	368,0	496,2	+128,2	134,8

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan tushum, ya'ni moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi asosiy ko'rsatkich shu tahlil qilinayotgan yilda 120,2 % oshgan. Biroq, sotishdan olingan sof tushumning o'sish sur'ati undan ham ko'proq,

ya'ni 124,3 % ni tashkil qiladi. Bu holat ko'rsatadiki, korxona to'laydigan soliqlarning o'sish sur'ati mahsulotni (ish, xizmatni) sotishdan tushgan tushumga nisbatan ancha kam bo'lgan. Shu davrda uning miqdori 103,8 % ni [(831,3 + 357,8) . 100 : (799,1 + 346,2)] tashkil qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hisobot davrida mahsulot (ish, xizmat)ning tannarxi o'tgan yilga nisbatan oshgan, lekin, o'sish sur'ati sotishdan olingan sof tushumning o'zgarish sur'atiga nisbatan ancha kam bo'lgan. Bu mazkur davrda 122,3 % ni (4841,7:3951,2 x 100) tashkil qilgan.

Natijada sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijaning o'sish sur'ati 134,9% ni tashkil qilgan. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati bir-biriga nisbatan oshib borishini ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi ham shu hisobot davrida 140,6 % o'sgan. Bu ko'rsatkichning miqdori ham oldingi ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori. Demak, ushbu ko'rsatkichni shakllantirishda ishtirok etadigan sotish va ma'muriy xarajatlar ham ancha tejalganligidan dalolat beradi. Haqiqatda ushbu xarajatlarning o'sish sur'ati mazkur tahlil davrida 116,8 % ni [(98,3+80,0) · 100 : : 85,4 + 67,0)] tashkil qiladi.

Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi biroz oldingisiga nisbatan kamaygan. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi 140,6 % o'sgan bir paytda ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati 136,1 % ni tashkil qiladi. Bu o'zgarish mazkur ko'rsatkichni shakllantiruvchi omillar evaziga amalga oshgan. Xususan, korxona oladigan dividendlar, berilgan qarzlar uchun olinadigan foizlari, valuta kursidan olinadigan farq, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromad (xarajat)lar o'sishiga qaramasdan ularning o'zgarish sur'ati biroz past bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati hammasini jamlaganda 88,6 % ni [(3,5 + 4,2 − 21,6 + 5,8 + 79,3) . 100 : (4,7 + 2,9 − 27,5 + 7,1 + 93,2)] tashkil qiladi, ya'ni o'tgan yilga nisbatan 11,4 % ga kam bo'lgan.

Hisobot davrida korxonada olingan tasoddifiy foyda o'tgan yilga nisbatan 27,2 % kam bo'lgan (100,0-72,8). Natijada soliq to'langanga qadargi umumiy foydaning ham o'sish sur'ati (134,8 %) o'zidan oldingi ko'rsatkichga nisbatan (136,1 %) past bo'lgan. Shu hisobot yilida foyda (daromad)dan to'lanadigan soliq stavkasining o'zgarmay qolganligi sof foyda o'zgarish sur'atiga ta'sir qilmagan. Natijada ushbu ko'rsatkichning ham o'sish sur'ati 134,8 % ni tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki, moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan. Bu bog'liqlik korxona rentabelligini aniqlash jarayonida ham yaqqol nomoyon bo'ladi.

25.4. Korxonada foyda tahlili

1995-yil 1-yanvardan joriy qilingan xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomga asosan foyda ko'rsatkichlarining yangi tizimini aniqlash va ularning tahlil qilish usullarini, foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash yo'llarini

ko'rsatishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun mazkur paragrafda quyidagi masalalar ko'riladi:

13. korxonaning moliyaviy manbalari;
14. oliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash usuli;
15. sof foydaning shakllanish chizmasi;
16. foyda turlarining aniqlanish usullari;
17. foyda o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omilar va ularni hisoblash usuli.

Korxonaning moliyaviy manbalarini aniqlash moliyaviy natijalar tahlilida muhim ahamiyatga ega, chunki yaratilgan foydaning kimga va qanday taqsimlanishi aynan shu manbalarning shakllanishiga bog'liq.

Erkin iqtisodiyot sharoitida korxonani tashkil qilish turli mulk egalari va turli mablag'lar evaziga shaklanadi. Shu tufayli ularning tashkil bo'lish manbalarining chizmasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi (25.2-chizma).

Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxonani tashkil qilishda va uning faoliyati davomida moliyaviy manbalarning shakllanishi turli ekan. Korxonani tashkil qilishda ta'sischilar mablag'i, davlat mablag'i, aksiyadorlar va boshqa investorlar mablag'i hisobidan moliyalashtirilsa, uning faoliyati davomida moliyaviy ta'minoti o'z foydasidan bir qismini ajratish, moliyaviy



25.2.-chizma. **Korxonani tashkil qilishda va uning faoliyati davomida moliyaviy manbalarning shakillantirish.**

bozorda ishtirok etish, banklardan qarz olish va boshqa manbalar evaziga amalga oshirilar ekan.

Aynan korxonaning sof foydasi moliyaviy natijalarning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Uning ham to'planishi va ishlatilishi o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu holatni quyidagicha tasvirlash mumkin (25.3-chizma).

Foydaning to'planishi korxonaning qaysi sohaga mansubligiga bog'liq. Agar u ishlab chiqarish korxonasi bo'lsa, foydaning asosiy manbayi ishlab chiqarib sotilgan mahsulotdan tushum bo'ladi. Agar u xizmat ko'rsatishga dahldor, korxona bo'lsa, foydaning asosiy qismi xizmat ko'rsatish evaziga olgan tushumdan iborat bo'ladi va h.k. Shu tufayli tahlil jarayonida qaysi soha o'rganilayotgan bo'lsa, uning faoliyatidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.



25.3-chizma. **Foydaning shakllanishi va ishlatilishi.**

25.4.1. Sotishdan olingan sof tushum tahlili

Sotishdan olingan sof tushumni korxonaning yalpi foydasi deb ham atash mumkin. Bu, odatda, sotilgan mahsulotning umumiy qiymatidan uning tannarxini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Ammo shu ikki ko'rsatkich zamirida mahsulotning qiymati, miqdori, baho o'zgarishi, tannarxdagi tebranishlar mujassam etilgan. Shu tufayli yalpi foydaning vujudga kelishida bevosita shu omillar ta'sirini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Buni amalga oshirish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (25.3-jadval).

*Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)dan olingan yalpi foyda

**Viloyat statistika va istiqbolni belgilash boshqarmasining hisobotiga asosan baho indeksi 1,2 ga teng.

25.3-jadval

Yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Asos yilida	Hisobot yilidagi mahsulot shu davr bahosi va asos yilidagi *tannarx bilan*	Hisobot yilidagi mahsulot asos yilidagi baho va hisobot yilidagi *tannarx bilan*	Hisobot yilida
1.Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning to'la tannarxi	3951,2	3951,2	4841,7	4841,7
2.Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymati	4583,3	5694,5	4745,4 **	5694,5
3.Yalpi foyda* (2q-1q)	632,1	1743,3	-96,3	852,8

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, yalpi foyda shu davr mobaynida 220,7 ming (852,8-632,1) so'mga oshgan. *Uning o'zgarishiga quyidagi omillar* ta'sir qilgan:

1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi

$$\Delta Fsm = (Sm_1-Tn_0) - (Sm_0-Tn_0) = 1743,3-632,1 = +1111,2$$

2. Tannarxning oshganligi

$$\Delta Ftk = [(Sm_1/i_1) - Tn_1] - (Sm_1-Tn_0) = -96,3-1743,3= -1839,6.$$

3. Bahoning oshganligi

$$\Delta Fb = (Sm_1-Tn_1) - [(Sm_1/ir) - Tn_1] = 852,8 + 96,3 = + 949,1$$

Barcha omillar tasiri

$$\Delta F = 1111,2 - 1839,6 + 949,1 = +220,7.$$

Korxonada yalpi foyda ma'lum ahamiyatga ega, chunki u barcha moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar negizini tashkil qiladi. Ammo xo'jalik faoliyatining pirovard natijasi sof foydaga erishish bilan belgilanadi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilda sof foydani o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

25.5. Korxona rentabilligini ifodalovchi *ko'rsatkichlar tahlili*

Mavzuning maqsadi – bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida rentabellik ko'rsatkichlarining yangi tizimini, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llarini ko'rsatish hamda ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish evaziga ichki imkoniyatlarni axtarib topish orqali tahlil qilinayotgan

korxona faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Eng avvalo, korxona rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlarining bozor munosabalariga mos yangi tizimini ishlab chiqish lozim. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

18. korxona ishlab chiqarish faoliyati rentabelligi;
19. sotilgan mahsulot rentabelligi;
20. iqtisodiy salohiyat rentabelligi;
21. asosiy vositalar rentabelligi;
22. aylanma mablag'lar rentabelligi;
23. omoddiy faollar rentabelligi;
24. mehnat salohiyati rentabelligi;
25. moliyaviy salohiyat rentabelligi;
26. o'z mablag'lari rentabelligi;
27. chetdan jalb qilingan rentabelligi;
28. ishlab chiqarish fondlari rentabelligi;
29. aktivlar rentabelligi.

Bundan tashqari, qaysi sohada nimani tahlil qilishiga qarab rentabellik ko'rsatkichlarining boshqa turlarini ham aniqlash mumkin bo'ladi.

Barcha ko'rsatkichlar rentabelligini ketma-ket tarzda aniqlash usuli quyidagicha bo'ladi. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati rentabelligini (R_{ich}) ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun sof foydani (S_f) mahsulotning (ish, xizmat)ning tannarxiga (T_n) bo'lish lozim:

$$R_{ich} = \frac{S_f}{T_n} \times 1000$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm ishlab chiqarish xarajatiga qancha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu qilingan xarajatning qanday samaradorlikka ega bo'lganligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich erkin iqtisodiyot sharoitida korxonaning egasi, rahbari, jamoasi va investorlari uchun o'ta muhim ko'rsatkichdir.

Sotilgan mahsulot rentabelligini (R_{sm}) aniqlash uchun sof foydani (S_f) sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning (S_m) miqdoriga bo'lish kifoya:

$$R_{sm} = \frac{S_f}{S_m} \cdot 100$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm sotilgan mahsulot korxonaga qancha sof foyda keltirayotganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich korxonaning tadbirkorligi, bozordagi faolligi bilan ham bevosita bog'liq. Mazkur ko'rsatkich rejali iqtisodiyot sharoitida umumiy rentabellikni ifodalab ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan olinar edi. Endilikda ishlab chiqarilgan mahsulot o'zining baholovchi ko'rsatkich sifatidagi mohiyatini yo'qotadi. Endi mahsulot sotilmasa, o'z xaridorini bozordan topmasa hisob

emas. Shu tufayli bozor munosabatlari sharoitida ushbu ko'rsatkichning mohiyati oshdi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati rentabelligi (R_{is})ni aniqlash uchun korxonaning $S_f$ni uning iqtisodiy salohiyati o'rtacha qiymatiga (I_s) bo'linadi:

$$R_{is} = \frac{S_f}{I_s} \cdot 100.$$

Mazkur ko'rsatkich korxonaning 100 so'm iqtisodiy salohiyatiga necha so'm sof foyda keltirilayotganligini ko'rsatadi. Agar korxonaning iqtisodiy salohiyati tarkibini keltiradigan bo'lsak, u quyidagi holatga ega bo'ladi:

$$Ris = \frac{S_f}{A_v = Am + Nf + Ms} \cdot 100.$$

Bunda A_v – Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati;
A_m – aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati;
N_f – nomoddiy faollarning o'rtacha yillik qiymati;
M_s – mehnat salohiyatining o'rtacha yillik qiymati.

Korxona asosiy vositalari rentabelligi (R_{av})ni aniqlash uchun $S_f$ni asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga (A_v) bo'lish kifoya:

$$R_{av} = \frac{S_f}{A_v} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm asosiy vositalariga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi. Korxona aylanma mablag'lari rentabelligi (R_{am})ni aniqlash uchun sof foydani (S_f) aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga (A_m) bo'linadi:

$$R_{am} = \frac{S_f}{A_m} \cdot 100$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm aylanma mablag'larining o'rtacha yilik qiymatiga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich korxonada aylanma mablag'larni tashkil qilish paytida, uning rentabelligini baholashda qo'llaniladi. Korxona nomoddiy faollari rentabelligi (R_{nf}) ham bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tarkibiga kiritildi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun $S_f$ni nomoddiy faollarning o'rtacha yillik qiymatiga (N_f) bo'linadi:

$$R_{nf} = \frac{S_f}{N_f} \cdot 100$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'mlik nomoddiy faoliyatiga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichni korxona

miqyosidagi qator yillarga aniqlab nomoddiy faollar va foyda summalarining o'zgarish sur'atlarini, ularning bir-biriga muvofiqligini aniqlash uchun qo'llash mumkin. Korxonaning *mehnat salohiyati rentabelligini* (R_{ms}) aniqlash uchun $S_f$ni mehnat salohiyatining o'rtacha yillik qiymatiga (M_s) yoki *xodimlar soniga* (X_s) bo'lish lozim:

$$R_{ms} = \frac{S_f}{M_s} \cdot 100, \qquad R_{ms} = \frac{S_f}{X_s} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm mehnat salohiyati qiymatiga yoki bitta xodimga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich ham korxonada mehnat samaradorligini tahlil qilganda keng qo'llaniladi.

Korxona *moliyaviy salohiyati rentabelligi* (R_{sos}) 100 so'm moliyaviy salohiyatning o'rtacha yillik qiymatiga to'g'ri keladigan sof foyda miqdorini ifodalaydi. *Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun* S_f*ni korxona moliyaviy* salohiyati o'rtacha yillik qiymatiga (M_{os}) bo'linadi:

$$R_{mos} = \frac{S_f}{M_{os}} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich ham bozor munosabatlari sharoitida muhim ahamiyatga ega, chunki korxonaning moliyaviy manbalari uchun endi bevosita korxona egasi, investori mus'ul. Undan qancha samarali foydalansa, ular uchun o'shancha yaxshi. Korxona o'z mablag'lari rentabelligi ($R_{o'm}$) moliyaviy salohiyat rentabbeligi singari sof foydani o'z mablag'lari o'rtacha yillik qiymatiga (O'_m) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$R_{o'm} = \frac{S_f}{O'_m} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm o'z mablag'iga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi. Bu o'z kapitalining samaradorlik darajasini belgilaydi.

Korxonaning chetdan jalb qilgan mablag'lari retabelligi (R_{chjm})*ni aniqlash* uchun Sf.ni chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga (C_{hjm}) bo'linadi:

$$R_{chjm} = \frac{S_f}{C_{hjm}} \cdot 100$$

Ushbu *ko'rsatkich korxonaning olgan uzoq va qisqa muddatli kreditlari* hamda boshqa chetdan jalb qilingan mablag'larining samaradorligini ifodalaydi. Uning miqdori 100 so'm C_{hjm}ga to'g'ri keladigan S_f miqdorini ko'rsatadi. Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabelligi (R_{if}) bu asosiy va aylanma mablag'lar, ya'ni moddiy resurslar samaradorligini ifodalaydi.

Uni aniqlash uchun $S_f$ni asosiy vositalar (A_v) va aylanma mablag'lar (A_m) o'rtacha qiymati yig'indisiga bo'linadi:

$$R_{if} = \frac{S_f}{A_v + A_m} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'mlik moddiy resurslariga to'g'ri keladigan sof foydaning miqdorini ifodalaydi. Uning miqdori qancha oshib borsa korxona uchun o'shancha yaxshi. Korxonaning aktivlari rentabelligi (R_a) bevosita barcha aktivlar samaradorligini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun $S_f$ni barcha aktivlarning (A) o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi:

$$R_a = \frac{S_f}{A} \cdot 100.$$

Agar aktivlarni alohida qismi bo'yicha oladigan bo'lsak, ushbu formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$R_a = \frac{S_f}{A_v + A_m + N_f} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich 100 so'm aktivlar qiymatiga to'g'ri keladigan S_f miqdorini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini baholashda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Tahlil jarayonida ma'lum iqtisodiy kategoriyalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash o'ta muhim. Lekin ularning o'zgarishini, ayniqsa shu o'zgarishlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash tahlilning eng muhim vositasidir. Shu tufayli rentabellikni ifodalovchi har bir ko'rsatkichni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur ishda metodologik asos sifatida ularning ayrimlarigagina to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki ushbu ko'rsatkichlar tahlilining usullari boshqa ko'rsatkichlarni ham shunday tahlil qilish uchun metodologik asos bo'ladi.

25.6. Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi umumlashgan rentabellik ko'rsatkichlarining omilli tahlili

Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkichga mahsulot (ish, xizmat) rentabelligini kiritish mumkin. Mazkur ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R_{st} = \frac{S_f}{S_t} \times 100.$$

Bunda: R_{st} – mahsulot (ish, xizmat) rentabelligi.

Ushbu *ko'rsatkichga bir qancha omillar* ta'sir qiladi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

30. sof foydaning yalpi foydadagi hissasi (Sf/Yaf);

31. yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalardagi hissasi (Yaf/Yamn);

32. yalpi moliyaviy natijaning sof tushumdagi hissasi (Yamn/St). Ular o'rtasidagi bog'liqlik 25.4-chizmada aks ettirilgan.



25.4-chizma. **Korxona umumiy rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik.**

Ushbu omillarni natija bilan umumlashtirilsa bo'linsa, quyidagi formulaga ega bo'lish mumkin:

$$Rst = \frac{Sf}{Yaf} \times \frac{Yaf}{Yamn} \times \frac{Yamn}{St}.$$

Ularning qisqartirilgan matematik modeli *natijani «U», omillarni «X_i»* deb belgilansa quyidagi formula orqali ifodalanadi. Unda har bir omilni X_i deb qabul qilish mumkin:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \prod_{i=1}^{3} X_i \qquad (i = 1,3).$$

Ushbu formuladagi ko'rsatkichlarni 29.1- va 29.2-jadval ma'lumotlari asosida aniqlab omilli tahlil uchun 25.5-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot rentabelligi ko'rsatkichining 0,69 % (8,72–8,03) oshganligiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sof foydaning yalpi foydadagi ulushi juda kam miqdorda, ya'ni 0,001 % o'zgargan. Bu natija o'zgarishiga ta'sir qilmagan:

$$8,03 - 8,03 = 0.$$

2. Yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalardagi hissasi 0,001 ga (0,938 – 0,939) *kamayganligi natijani 0,01 %* kamayishiga olib kelgan:

21.5-jadval

Moliyaviy natijalar umumlashgan ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Zanjirli almashtirishlar	
			I	II
1.Sof foydaning yalpi foydadagi ulushi % (8q:7q.100)	61,995	61,994	61,994	61,994
2.Yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalaridagi hissasi (7q:3q)	0,939	0,938	0,939	0,938
3.Yalpi moliyaviy natijaning sotilgan sof mahsulotdagi hissasi (3q:2q)	0,138	0,150	0,138	0,138
4.Mahsulot rentabelligi, % (1q.2q.3q)	8,03	8,72	8,03	8,02

$$8,02 - 8,03 = -0,01.$$

3. Yalpi moliyaviy natijaning sotilgan sof mahsulotdagi hissasi 0,012 ga ko'payganligi mahsulot rentabelligini 0,7 % oshirgan:

$$8,72 - 8,02 = +0,7.$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$0 - 0,01 + 0,70 = +0,69.$$

25.7. Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabelligi tahlili

Korxonaning ishlab chiqarish fondlari yoki moddiy resurslari rentabelligi rejali iqtisodiyot sharoitida ham qo'llanilar edi. Lekin uning vazifasi hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida ancha o'zgardi. Oldin davlat mulkining samaradorligi ifodalasa, hozir xususiy (jamoa) mulkining samaradorligini ifodalaydi. Ularning samaradorligidan manfatdorlar ham oldingi holatdan o'zgardi. Hozir bevosita mazkur fondlarning ishlatilishidan korxona egasi, investori, mehnat jamoasi manfaatdor. Shu jihatdan tahlilning usuli ham shu talablarga qaratilgan bo'lish lozim. Endi bevosita ushbu ko'rsatkichning tahlili, unga ta'sir etuvchi omillarning iqtisodiy tahlil tili, ya'ni formulalar bilan ifodalaymiz. Korxona moddiy resurslarining umumiy rentabellik ko'rsatkichi, ta'kidlanganidek, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R_a = \frac{\text{Sof foyda } (S_f)}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati } (A_v) + \text{Aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati } (A_m)}$$

Tahlil bevosita shu rentabellik darajasining farqini (ΔRa) aniqlashdan boshlanadi:

$$\Delta Ra = Ra^h - Ra^t = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Am^x}\right) - \left(\frac{Sf^t}{Av^t + Am^t}\right).$$

Endi rentabellik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini aniqlash lozim. Eng avvalo, rentabellik o'zgarishiga sof foyda summasi o'zgarishining ta'siri (ΔRasf) aniqlanadi:

$$\Delta Rasf = \left(\frac{Sf^x}{Av^t + Am^t}\right) - \left(\frac{Sf^t}{Av^t + Am^t}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga asosiy vositalar o'rtacha qiymati o'zgarishining ta'siri (ΔRaav) quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta R_a av = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Am^t}\right) - \left(\frac{Sf^t}{Av^t + Am^t}\right).$$

Rentabellikning o'zgarishiga aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining ta'sirini (ΔR_{aam}) hisoblash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta R_a am = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Am^t}\right) - \left(\frac{Sf^t}{Av^t + Am^t}\right).$$

Barcha omillar ta'siri rentabellik o'zgarishining umumiy hajmiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta Ra = \Delta R_a sf \pm \Delta R_a av \pm \Delta R_a am.$$

Ushbu formulalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda aniqlash usulini ko'rib chiqish lozim. Buning uchun 25.6-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, rentabellik darajasi tahlil qilinayotgan korxonada hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 0,433 % bandga o'sgan. Bu sof foyda summasining 134,8 % o'sgandagi holati bilan asosiy vositalarning 118,3 % va aylanma mablag'larning 121,2 % o'sgan

25.6-jadval

Korxona (firma)ning ishlab chiqarish fondlari rentabelligi darajasini aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+, −)	O'zgarish sur'ati,%
1.Sof foyda, ming so'm	368,0	496,2	+128,2	134,8
2.Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	2956,5	3497,5	+541,0	118,3
3. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	7269,0	8810	+1541,0	121,2
4.Rentabellik darajasi,%	3,599	4,032	+0,433	112,0

holatiga to'g'ri keladi. Demak, shu uchala omil ham rentabellikning o'zgarishiga ma'lum darajada ta'sir qilgan. Shu omil ta'sirini hisoblash uchun 25.7-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Hisobot yilida firmada ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasining umumiy miqdori 0,433 foizga oshgan (4,032 – 3,599). Ushbu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Foydaning 128,2 ming so'mga ko'payganligi rentabellik darajasini 1,254 % oshirgan

25.7-jadval

Korxona (firma) ishlab chiqarish fondlari rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Sof foyda o'zgarishi bilan (Rsf)	Asosiy vositalar o'zgarishi bilan (Rav)	Haqiqiy miqdori yoki aylanma mablag'-larning o'zgarishi bilan (Ram)	O'zgarish sur'ati,%
1.Sof foyda, ming so'm	368,0	496,2	496,2	469,2	134,8
2.Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	2956,5	2956,5	3497,5	3497,5	3497,5
3.Aylanma mablag'-larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	7269,0	7269,0	7269,0	8810,0	121,2
4.Rentabellik darajasi,%	3,599	4,853	4,609	4,032	112,0

$$\Delta R_a f = R_a f - R_a = 4,853 - 3,599 = +1,254\ \%.$$

2. Asosiy vositalaning o'rtacha yillik qiymati 541,0 ming so'mga oshganligi rentabellik darajasi 0,244 % kamaytirgan:

$$\Delta R_a av = R_a av - R_a f = 4,609 - 4,853 = -0,244\ \%.$$

3. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatining 1541,0 ming so'mga ko'payganligi rentabellik darajasini 0,577 % ga kamaytirgan:

$$\Delta R_a am = R_a am - R_a av = 4,032 - 4,609 = -0,577.$$

Barcha omillar ta'siri rentabellik o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$\Delta Ra = \Delta R_a f \pm \Delta R_a av \pm \Delta R_a am = 1,254 - 0,244 - 0,577 = +0,433.$$

Korxonaning ushbu umumiy rentabelligi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilganda ularning mazmunini o'zgartirish ham mumkin.

Bunga ishlab chiqarish fondlari bilan bog'liq umumiy rentabellik ko'rsatkichini aniqlashning kengaytirilgan usulini qo'llagan holda ham erishish mumkin. Bunda ushbu an'anaviy formuladan foydalaniladi:

$$\text{Rentabellik } (R_a) = \frac{\text{Sof foyda } (S_f)}{\text{Asosiy vositalar o'rtasicha qiymati (Av)} + \text{Aylanma mablag'lar o'rtacha qiymati } (A_m)}.$$

Ushbu formuladagi ko'rsatkichlarni bir xil ko'rsatkichga bo'lib yoki ko'paytirib olish yo'li bilan natijaning miqdorini saqlab qolgan holda omillarning nomini va mazmunini o'zgartirish mumkin. Masalan, o'zgartiruvchi ko'rsatkich sifatida korxona mahsulotini olindi. U holda aktivlar rentabelligi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$R_a = \frac{(Sf/M)}{(AV/M) + (AM / M)}.$$

Bunda: M – mahsulot

$$\text{Rentabellik } (R_a) = \frac{\text{Mahsulot rentabelligi (Rm)}}{\text{Asosiy vositalar sig'imining koeffitsienti (Rav)} + \text{Aylanma mablag'lar sig'imining koeffitsienti (Rav)}}.$$

Ushbu formulaga asosan korxonaning umumiy rentabelligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning zanjirli almashtirish usulini qo'llagan holdagi hisob-kitobi quyidagicha amalga oshiriladi.

Rentabellikning umumiy farqi

$$\Delta R_a = \left(\frac{Rm^x}{Rav^x + Ram^x}\right) - \left(\frac{Rm^r}{Ravr + Ram^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga mahsulot rentabelligi o'zgarishining ta'siri

$$\Delta R_a rm = \left(\frac{Rm^x}{Rav_r + Ram^r}\right) - \left(\frac{Rm^r}{Rav^r + Ram^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga asosiy fondlar sig'imi o'zgarishining ta'siri

$$\Delta R_a rav = \left(\frac{Rm^x}{Rav^x + Ram^r}\right) - \left(\frac{Rm^x}{Rav^r + Ram^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga aylanma mablag'lar sig'imi o'zgarishining ta'siri

$$\Delta R_a = \left(\frac{Rm^x}{Rav^x + Ram^x}\right) - \left(\frac{Rm^h}{Rav^x + Ram^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga barcha omillar ta'siri

$$\Delta R_a = \Delta R_a rm \pm \Delta R_a rav \pm \Delta r_a ram.$$

Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun ushbu jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (25.8-jadval). Ushbu jadval ma'lumotlari asosida korxona rentabelligi o'zgarishiga yuqorida qayd qilingan omillar ta'sirini aniqlash mumkin. Buning uchun 25.8-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Mazkur korxonada hisobot davrida ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasi 0,44 % oshgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Mahsulot rentabelligining 0,69 % oshganligi ishlab chiqarish fondlari rentabelligini 0,31 % ko'paytirgan:

$$3{,}90 - 3{,}59 = +0{,}31\ \%.$$

2. Mahsulotdagi asosiy fondlar sig'imi koeffitsienti 0,031 ga kamaygan. Bu tahlil qilinayotgan ko'rsatkichni 0,06 % oshirgan:

$$3{,}96 - 3{,}90 = +0{,}06\ \%.$$

3. Aylanma mablag'lar sig'imining koeffitsienti 0,039 ga kamaygan. Bu esa natijaning 0,07 oshishiga olib kelgan:

$$4{,}03 - 3{,}96 = +0{,}07\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$0{,}31 + 0{,}06 + 0{,}07 = +0{,}44.$$

25.8. Korxonaning barcha aktivlari rentabelligi

Borzor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida ko'p korxonalar barcha aktivlardan samarali foydalanish masalasini ustuvor vazifa qilib qo'yilmoqda. Chunki korxonaning aktivlari ularning mulki. Bu mulk foyda keltirish uchun mo'ljallangan mulkdir. Shu tufayli mazkur ko'rsatkichning tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga asoslangan. Buni inobatga olib ushbu ko'rsatkich tahliliga to'xtalishni maqsadga muvofiq, bo'ladi.

Barcha aktivlar rentabelligini aniqlash, ta'kidlanganidek, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{Rentabellik } (R_a) = \frac{\text{Sof foyda } (F_s)}{\text{Aktivlar } (A)}.$$

Agar aktivlarni tarkibi bo'yicha yoyib chiqilsa, u quyidagi elementlardan tashkil topganligini ko'ramiz:

$$\underset{(A_v)}{\text{Asosiy vositalar}} + \underset{(N_i)}{\text{Nomoddiy aktivlar}} + \underset{(A_m)}{\text{Aylanma mablag'lar}}$$

Bu yerda aylanma mablag'lar ham ikki yirik guruhga bo'linadi. Bu guruhlarni yoyib chiqilsa, quyidagi formula vujudga keladi:

$$\underset{(A_{mm})}{A_m = \text{Moddiy aylanma mablag'lar}} + \underset{(P_m)}{\text{Pul mablag'lari}}$$

Endi aktivlar o'rniga uning tarkibiga kiruvchi alohida ko'rsatkichlarni qo'yadigan bo'lsak, aktivlar rentabelligini ifodalovchi formulalarning shakli quyidagicha ifodalanadi.

25.8.-jadval

Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabelligini aniqlash yo'llari (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+, −)	O'zgarish sur'ati,%
Mutloq ko'rsatkichlar				
1.Sof foyda	368,0	496,2	+128,2	134,8
2.Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati	2956,5	3497,5	+541,0	118,3
3.Aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati	7269,0	8810,0	+1541,0	121,2
4.Mahsulot hajmi	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
Nisbiy ko'rsatkichlar				
5.Mahsulot rentabelligi, %	8,02	8,71	+0,69	108,6
6.Asosiy vositalar sig'imining koeffitsienti (2q:4q)	0,645	0,614	-0,031	95,2
7.Aylanma mablag'lar sig'i-mining koeffitsienti (3q:4q)	1,586	1,547	-0,039	97,5
8.Ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasi, % [5q(6q+7q)]	3,59	4,03	+0,44	112,3

25.9-jadval

Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,−)	Zanjirli almashtirishlar		
				I	II	III
1.Mahsulot rentabelligi, %	8,02	8,71	+0,69	8,71	8,71	8,71
2.Asosiy vositalar si-g'imining koeffitsienti	0,645	0,614	-0,031	0,645	0,614	0,614
3.Aylanma mablag'lar sig 'imining koeffitsienti	1,586	1,547	-0,039	1,586	1,586	1,547
4.Ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasi, % ($1_0x2_0x3_0$)	3,59	4,03	+0,44	3,90	3,96	4,03

$$R_a = \frac{Fs}{Av + Amm + Pm + Nf}.$$

Endi ushbu formulaga asosan korxona aktivlari rentabelligining tahlilini ko'rib chiqamiz. Eng avvalo, uning farqi aniqalnadi:

$$Pa=\left(\frac{Fs^h}{Av^h + Amm^h + Pm^h + Nf^h}\right) - \left(\frac{Fs^p}{Av^p + Amm^p + Pm^p + Nf^p}\right).$$

Endi shu aniqlangan farqqa ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash mumkin. Natijaga birinchi omilning ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Pafs=Rafs - Ra^r = -\left(\frac{Fs^p}{Av^p + Amm^p + Pm^p + Nf^p}\right) - Pa^p.$$

Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Paav=Raavs - Rafs=\left(\frac{Fs^h}{Av^h + Amm^h + Pm^h + Nf^h}\right) - Pafs.$$

Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Pa\ av=Raamm - Raav=\left(\frac{Fs^h}{Av^x + Amm^x + Pm^p + Nf^p}\right) - Paav.$$

Natija o'zgarishiga to'rtinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanadi:

$$\Delta Papm=Rapm - Raamm=\left(\frac{Fs^x}{Av^x + Amm^x + Pm^x + Nf^r}\right) - Paamm.$$

Natija o'zgarishiga beshinchi omilning ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitobni amalga oshirish kifoya:

$$\Delta Ranf = Ranf - Rapm = Ra^x - Rapm.$$

Natijaning umumiy o'zgarishi, odatdagidek, barcha omillar ta'sirining yig'indisiga teng bo'lishi kerak:

$$\Delta Ra = \Delta Rafs \pm \Delta Raav \pm \Delta Raamm \pm \Delta Rapm \pm \Delta ranf.$$

Ushbu formulalarga aniq ma'lumotlarni qo'llab korxona aktivlari rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uchun 25.10-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada aktivlar rentabelligi hisobot yilida 0,40 % ga oshgan. Bu bir qancha omillar ta'sirida ro'y bergan. Ularni aniqlash uchun 25.11-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha aktivlarning rentabellik darajasi hisobot yilida 0,40% oshgan. Bu quyidagi omillar evaziga sodir bo'lgan:

1. Foyda summasining 128,2 ming so'mga ko'payganligi barcha aktivlar rentabellik darajasini 1,25 % ga oshirgan

$$(4,82 - 3,57).$$

2. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining 541,0 ming so'mga ko'payganligi tahlil qilinayotgan ko'rsatkich darajasini 0,24 % kamayishiga olib kelgan

$$(4,58 - 4,82).$$

3. Aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining 1541,0 ming so'mga ko'payganligi barcha aktivlar rentabellik darajasini 0,57 % ga kamaytirgan

25.10-jadval

Korxona rentabelligini aniqlash va uning hisobot yilidagi o'zgarishining tahlili (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	O'zgarishi (+,−)	O'sish sur'ati,%
Mutloq ko'rsatkichlar				
1.Sof foyda (Sf)	368,0	496,2	+128,2	134,8
2.Asosiy vositalarning o'rtachaqiymati (Av)	2956,5	3497,5	+541,0	118,3
3.Aylan mamablag'larning o'rtacha yilik qiymati (Am)	7269,0	8810,0	+1541,0	121,2
4.Nomoddiy faollarning o'rtachaqiymati (Nf)	*73,2*	*195,0*	*121,8*	*266,4*
5.Barcha aktivlar (B) (2q + 3q + 4q)	10298,7	12502,5	+2203,8	121,4
Nisbiy ko'rsatkichlar				
6.Rentabellik darajasi, (Ra) [(1q·100) /2+3+4] yoki [(1q·100) / 5q]	3,57	3,97	+0,40	111,2

25.11-jadval

Rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni zanjirli almashtirish yo'li bilan aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,−)	Zanjirli almashtirishlar			
				I	II	III	IV
1.Sof foyda	368,0	496,2	128,2	496,2	496,2	496,2	496,2
2.Asosiy vositalar	2956,5	3497,5	+541,0	2956,5	3497,5	3497,5	3497,5
3.Aylanma mablag'lar	7269,0	8810,0	+1541,0	7269,0	7269,0	8810,0	8810,0
4.Nomoddiy faollar	73,2	195,0	+121,8	73,2	73,2	73,2	195,0
5.Barcha aktiv-larning rentabellik darajasi, %	3,57	3,97	+0,40	4,82	4,58	4,01	3,97

(4,01 − 4,58).

4. Hisobot yilida nomoddiy faollarning 121,8 ming so'mga ko'payganligi ushbu kategoriyaning rentabellik darajasini 0,04 % kamaytirib yuborgan (3,97 − 4,01).

Barcha omillar ta'siri natijasida hamma aktivlar rentabellik darajasining umumiy o'zgarishi hosil bo'lgan:

1,25 − 0,24 − 0,57 − 0,04 = +0,40 %.

KALITLI SO'ZLAR

Moliyaviy tahlil, moliyaviy tahlil tarkibi, moliyaviy hisob, moliyaviy hisobot, buxgalteriya balansi, buxgalteriya balansi moddalari, balansning tarkibiy tuzilishi, aktiv, passiv, balans valutasi, moliyaviy holat, moliyaviy natija, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy mustahkamlik, moliyaviy resurslar, balans likvidligi, korxona iqtisodiy salohiyati, korxonaning moliyaviy salohiyati, o'z mablag'lari, korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligi, korxonaning moliyaviy salohiyati samaradorligi, o'z mablag'lari samaradorligi, majburiyatlar, joriy aktivlar, uzoq muddatli aktivlar, qisqa muddatli aktivlar, oborotdagi o'z mablag'lari, oborotdagi o'z mablag'lari samaradorligi, foyda, rentabellik, aktivlar rentabelligi, o'z mablag'lari rentabelligi, asosiy vositalar rentabelligi, nomoddiy aktivlar, aylanma mablag'lar, aylanma mablag'lar samaradorligi, asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, nomoddiy aktivlar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, iqtisodiyot salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, moliyaviy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, aylanma mablag'lar samara-dorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, nomoddiy aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, moliyaviy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, o'z mablag'lari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, debitorlik qarzlarini baholash, kreditorlik qarzlarini baholash.

«MOLIYAVIY TAHLIL» bo'limi bo'yicha takrorlash va o'zini-o'zi nazorat qilish uchun savollari

1. Moliyaviy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Moliyaviy tahlilda moliyaviy hisobotning o'rni qanday?
3. Moliyaviy tahlilning rahbar xodimlar uchun ahamiyati nimadan iborat?
4. Moliyaviy hisobotlar tizimida buxgalteriya balansining o'rni nimadan iborat?
5. Moliyaviy tahlilning turlari, tarkibi va tavsifini keltiring.
6. Buxgalteriya balansi moddalarining bir-biri bilan bog'liqligi nimadan iborat?
7. Korxona moliyaviy holatini umumlashgan tarzda baholash va tahlil qilish yo'llari nimalardan iborat?
8. Korxonaning moliyaviy holatini dastlabki baholash qanday amalga oshiriladi?
9. Korxona moliyaviy holatini to'liq baholash nima?
10. Korxona likvidliligi: mazmuni, ularni baholash va tahlil qilish yo'llarini keltiring.
11. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish muammolari nimalardan iborat?
12. Korxona iqtisodiy salohiyatini xarajatlar nuqtai nazaridan baholash usuli qanday bo'ladi?
13. Korxona iqtisodiy salohiyatining asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlari tasnifi va aniqlash yo'llari nimalardan iborat?
14. Korxona iqtisodiy salohiyatining aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi nima?
15. Korxona iqtisodiy salohiyatining aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llarini ayting.
16. Korxona iqtisodiy salohiyatining nomoddiy aktivlar bilan bog'liq ko'rsatkichlarini aniqlash yo'llari nimalardan iborat?
17. Korxona iqtisodiy saloxiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar omilli taxlilining metodologik jihatlarini keltiring.

18. Korxonada asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishdagi ayrim muammolar nimalardan iborat?

19. Korxonada nomoddiy aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish yo'llarini keltiring.

20. Korxonada aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish vazifalari nimalardan iborat?

21. Me'yordan ortiqcha sotilgan tayyor mahsulot qoldiqlarini baholash va ularni aniqlash usullarini keltiring.

22. Korxonaning moliyaviy salohiyatini baholash va tahlil qilish vazifalari nimalardan iborat?

23. Korxona moliyaviy salohiyati tushunchasi va tarkibi nima?

24. Korxonalar moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlari, ularni baholash va tahlil qilish yo'llarini ayting.

25. Moliyaviy salohiyat (potensial) holatining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llarini ayting.

26. Moliyaviy salohiyat (potensial) holatining chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullarini ayting.

27. Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullarini ayting.

28. Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini baholash va tahlil qilishning zarurligi nima?

29. Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligining mohiyati va mazmuni nima?

30. Korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar nima?

30. Korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar nima?

32. Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligi qanday tahlil qilinadi?

33. Pul mablag'lari oqimi tushunchasi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni keltiring.

34. Pul mablag'lari tushumini tahlil qilish qanday amalga oshiriladi?

35. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullarini keltiring.

36. O'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar qanday tahlil qilinadi?

37. Chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar qanday tahlil qilinadi?

38. Harakatdagi mablag'lar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar qanday tahlil qilinadi?

39. Asosiy vositalar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar qanday tahlil nima?

40. Korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilish usullarini ayting.

41. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining mazmuni nimalardan iborat?

42. Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

43. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning vazifalari va ma'lumotlar manbai nima?

44. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ayting.

45. Korxonada foyda tahlili nima?

46. Sotishdan olingan sof tushum tahlili qanday?

47. Korxona rentabilligini ifodalovchi ko'rsatkichlar qanday tahlil qilinadi?

48. Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi umumlashgan rentabellik ko'rsatkichlarining omilli tahlili nima?

49. Korxonaning barcha aktivlari rentabelligi nima?

50. Korxonada o'z mablag'lari rentabelligi tahlili nima?

51. Korxonada mahsulot rentabelligi tahlili qanday bo'ladi?

MUNDARIJA

1-bo'lim. IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

Kirish.....3

1-BOB. IQTISODIY TAHLILNING VUJUDGA KELISH VA RIVOJLANISH TARIXI

1.1. *Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanish elemintlari va rivojlanish bosqichlari* 5
1.2. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi 8
1.3. O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining yaratilish tarixi 11

2-bob. IQTISODIY TAHLILNING PREDMETI, OBYEKTI, VAZIFALARI VA KORXONANING BOSHQARISHDAGI ROLI

2.1. Iqtisodiy tahlil predmeti bo'yicha turli olimlar qarashlarining nazariy talqini 19
2.2. Iqtisodiy tahlil fani predmetining ta'rifi 26
2.3. Iqtisodiy tahlilning obyekti 27
2.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari 28
2.5. Iqtisodiy tahlilning korxonalarni boshqarishdagi o'rni 32

3-bob. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA METODOLOGIK ASOSLARINI TADQIQ QILISH MUAMMOLARI

3.1. Iqtisodiy tahlil metodi bo'yicha turli qarashlarning nazariy talqini.....36
3.2. Materialistik dialektika iqtisodiy tahlil metodining asosi va uning o'ziga xos xususiyatlari 44
3.3. Iqtisodiy tahlil metodologiyasining tavsifi 44

4-bob. IQTISODIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN AN'ANAVIY VA IQTISODIY MATEMATIK USULLAR

4.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullar.....47
4.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik modellarning tiplari.....71

5-bob. IQTISODIY TAHLILNING BOSHQA FANLAR O'RTASIDA TUTGAN O'RNI VA ULAR BILAN ALOQADORLIGI

5.1. Iqtisodiy tahlilning boshqa fanlar bilan aloqasi 73
5.2. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiyotga oid fanlar bilan bog'liqligi.....74
5.3. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiyotga oid bo'lmagan fanlar bilan bog'liqligi 78

6-bob. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI VA SHAKLLARI, ULARNING TASNIFI VA TAVSIFI

6.1. Iqtisodiy tahlil turlari va shakllari to'g'risida ma'lumotlar.....82
6.2. Iqtisodiy tahlil turlarining tasniflash belgilari.....82
6.3. Iqtisodiy tahlilni iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasniflash.....83
6.4. Iqtisodiy tahlilni zamon nuqtayi nazaridan tasniflash.....83
6.5. *Iqtisodiy tahlilni makon nuqtayi nazaridan tasniflash*.....84

6.6. Iqtisodiy tahlilni tahlil qiluvchi subyektlari bo'yicha tasniflash.....85
6.7. Iqtisodiy tahlilni tarmoq tamoyili bo'yicha tasniflash.....85
6.8. Iqtisodiy tahlilni kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha tasniflash.....86
6.9. Iqtisodiy tahlilni kompyuterlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash.....86
6.10. Iqtisodiy tahlilni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha tasniflash.....87
6.11. Iqtisodiy tahlilni o'rganilayotgan obyektni qamrab olish darajasi bo'yicha tasniflash 88
6.12. Iqtisodiy tahlilning shakllari 88

7-bob. IQTISODIY TAHLILNI TASHKILLASHTIRISH VA UNDA QO'LLANILADIGAN AXBOROTLAR

7.1. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilishda foydalanuvchilar manfaatini inobatga olish 91
7.2. Iqtisodiy tahlil bilan kimlar shug'ullanadi 91
7.3. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari 92
7.4. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish 93
7.5. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar tizimini shakllantirish tamoyili 95

2-bo'lim. BOSHQARUV TAHLILI

8-bob. BOSHQARUV TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI

8.1. Boshqaruv tahlilining obyektiv zarurligi 100
8.2. Boshqaruv tahlilining mazmuni va mohiyati 102
8.3. Boshqaruv tahlilining tarkibiy tuzilishi 103
8.4. Boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari 105
8.5. Boshqaruv tahlilning asosiy tamoyillari va ichki imkoniyatlarni topishdagi ahamiyati.....105

9-bob. BOSHQARUV TAHLILINI TASHKILLASHTIRISH VA UNDA QO'LLANILADIGAN MA'LUMOTLAR MANBAYI

9.1. Boshqaruv tahlilini tashkil etish.....107
9.2. Boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan ma'lumotlar manbayi 108

10-bob. MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH VA SOTISH HAJMINING TAHLILI

10.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish hajmi tahlilining vazifalari.....110
10.2. Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni yetkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish 111
10.3. Ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish.....112
10.4. Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.....116
10.5. Mahsulotning sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.....122
10.6. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish.....125
10.7. Mahsulotni bir maromda (ritmda) ishlab chiqarishni tahlil qilish.....130
10.8. Ko'rsatkichlarni qiyoslaydigan (solishtiriladigan) holatga keltirish usuli.....131
10.9. Sotilgan mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tahlilini takomillashtirish.....136

11-bob. KORXONALARNING MEHNAT RESURSLARI VA MEHNATGA HAQ TO'LASHNI TAHLIL QILISH

11.1. Korxonalarning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini tahlil qilish....145
11.2. Mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilish....147
11.3. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil qilish....154
11.4. Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar tahlili....155

12-bob. MODDIY RESURSLAR BILAN TA'MINLANISHI VA ULARDAN FOYDALANISHNI TAHLIL QILISH

12.1. Moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish....158
12.2. Ishlab chiqarishda materiallardan foydalanishni tahlil qilish....159
12.3. Mahsulot ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha yig'ma rezervlarni aniqlash....162

13-bob. ASOSIY VOSITALARNING TARKIBI, HOLATI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

13.1. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakati....163
13.2. Asosiy vositalarning texnik holatini tahlil qilish....166
13.3. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni tahlil qilish....168
13.4. Ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan foydalanishni tahlil qilish....171

14-BOB. XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDA BANKROTLIKNI VA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASH BILAN BOG'LIQ KO'RSATKICHLAR VA ULARNI ANIQLASH YO'LLARI

14.1. Korxonalarda bankrotligini baholash bo'yicha turli qarashlarning nazariy tahlili....173
14.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda bankrotligini ifodalovchi ko'rsatkichlari va ularni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari....178
14.3. Korxonalarda foydalilik nuqtasi va ularning iqtisodiy xavfsizligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari....191

3-bo'lim. MOLIYAVIY TAHLIL

15-BOB. MOLIYAVIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN AXBOROTLAR TIZIMI VA UNDA MOLIYAVIY HISOBOTNING O'RNI

15.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar....200
15.2. Moliyaviy hisobotlar tarkibi....201
15.3. Buxgalteriya balansi: turlari, tarkibi, tavsifi....203
15.4. Buxgalteriya balansi moddalarining bir-biri bilan bog'liqligi....210
15.5. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'liqlik....215
15.6. Buxgalteriya balansini tahlilga tayyorlash va uning aniqligini tekshirish....216

16-BOB. KORXONA MOLIYAVIY HOLATINI UMUMLASHGAN TARZDA BAHOLASH VA TAHLIL QILISH YO'LLARI

16.1. Moliyaviy holatni tahlil qilishning vazifalari....218
16.2. Korxonaning moliyaviy holatini dastlabki baholash....219

16.3. Korxona moliyaviy holatini to'liq baholash.....222
16.4. Korxona likvidliligi: mazmuni, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari.....229

17-BOB. KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH MUAMMOLARI

17.1. Korxona iqtisodiy salohiyati (potensiali)ning mohiyati.....237
17.2. Korxonaning iqtisodiy salohiyatining tarkibi va uning umumiy hajmini baholash yo'llari.....239
17.3. Korxona iqtisodiy salohiyatini (potensialini) ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni tasniflash va aniqlash yo'llari.....243
17.8. Korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar omilli taxlilining metodologik jihatlari.....248

18-BOB. KORXONADA ASOSIY VOSITALARNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH YO'LLARI

18.1. Korxonaning asosiy vositalarini baholash turlari.....258
18.2. Korxona asosiy vositalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari.....261
18.3. Korxonada asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....263
18.4. Korxonada asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....265
18.5. Korxonada asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....267

19-BOB. KORXONADA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH YO'LLARI

19.1. Korxonada nomoddiy aktivlarning mazmuni va turlari.....270
19.2. Korxonada nomoddiy aktivlarni baholash yo'llari.....273
19.3. Korxonada nomoddiy aktivlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va tasnifi.....276
19.4. Korxonada nomoddiy aktivlarning tahlili.....280
19.5. Korxonada nomoddiy aktivlar samaradorligini tahlil qilish.....283

20-BOB. KORXONADA AYLANMA MABLAG'LARNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH USULLARI

20.1. Korxonada aylanma mablag'lar va ularni tahlil qilish vazifalari.....287
20.2. Korxona aylanma mablag'lari va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi.....288
20.3. Korxonada aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....290
20.4. Korxonada aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....295
20.5. Korxonada aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....300
20.6. Aylanma mablag'larda joylashgan o'z mablag'larining tahlili.....304

21-BOB. KORXONADA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI TAHLIL QILISH MUAMMOLARI

21.1. Tovar-moddiy zaxiralarining turlari.....308
21.2. Me'yordan ortiqcha sotilgan tayyor mahsulot qoldiqlarini baholash va ularni aniqlash usullari.....310

21.3. Tovar-moddiy zaxiralar tahlili....314

22-BOB. KORXONANING MOLIYAVIY SALOHIYATINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH YO'LLARI

22.1. Korxona moliyaviy salohiyati tushunchasi va tarkibi....319
22.2. Korxonalar moliyaviy salohiyatini (potensialini) tahlil qilish vazifalari va axbootlar manbayi....322
22.3. Korxona moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi....324
22.4. Korxonalar moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlari, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari....326
22.4.1. Korxonalar moliyaviy salohiyati (potensiali) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi....326
22.4.2. Moliyaviy salohiyat (potensial) holatining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llari....328
22.4.3. *Moliyaviy salohiyat (potensial) holatining chetdan jalb qilingan* mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari, ularni aniqlash va tahlil qilish usullari....336
22.5. Korxonalar moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligining tahlili....343
22.5.1. Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligini *ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari*....343
22.5.2. Korxona moliyaviy salohiyati (potensiali) samaradorligining tahlili....346

23-BOB. PUL MABLAG'LARI OQIMINING TAHLILI

23.1. Pul mablag'lari oqimi tushunchasi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar....356
23.2. Pul mablag'lari tushumini tahlil qilish....358
23.3. *Pul mablag'larining chiqib ketishini tahlil qilish*....359

24-BOB. KORXONADA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI TAHLIL QILISH USULLARI

24.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish yo'llari....364

25-bob. KORXONANING MOLIYAVIY NATIJALARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH MUAMMOLARI

25.1. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning vazifalari va ma'lumotlar manbayi....370
25.2. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi....372
25.3. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar umumiy hajmining tahlili....375
25.4. Korxonada foyda tahlili....376
25.4.1. Sotishdan olingan sof tushum tahlili....378
25.5. Korxona rentabilligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili....379
25.6. Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi umumlashgan rentabellik ko'rsatkichlarining omilli tahlili....383
25.7. Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabelligi tahlili....385
25.8. Korxonaning barcha aktivlari rentabelligi....389

Mualliflar:
M.Q. PARDAYEV, B.A. XASANOV,
J.I. ISROILOV, M.E. PO'LATOV,
O'.T. ESHBOYEV, A.N. HOLIQULOV

MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun
o'quv qo'llanma

Muharrir ***Xudoyberdi Po'latxo'jayev***
Badiiy muharrir ***Yasharbek Rahimov***
Texnik muharrir ***Yelena Tolochko***
Kompyuterda sahifalovchi ***Gulchehra Azizova***

Litsenziya raqami AI № 163. Bosishga ruxsat etildi 20.09.2012. Bichimi 60×84¹/₁₆. Tayms TAD garniturasi. Shartli b.t. 23,25. Nashr b.t. 25,74. Shartnoma № 80—2012. 500 nusxada. Buyurtma № T-45-2.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

«TAFAKKUR-BO'STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar, Chilonzor ko'chasi, 1.



Cho'lpon
NMIU

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

ISBN 978-9943-05-536-0
9 789943 055360